

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**N.Mamatov, A.Hojiboev, S.Yuldasheva**

**F A L S A F A**

(O'quv qo'llanma)

**Institutda tayyorlanadigan barcha bakalavriat yo'nalishlari  
uchun**

**Toshkent– 2005**

**N.Mamatov, A.Hojiboev, S.Yuldasheva Falsafa. o'quv qo'llanma. Toshkent,  
TMI - 2005y. 305 bet**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur qo'llanma falsafa fanini o'qitish bilan bog'liq bo'lган ko'rsatmalar va tavsiyalarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari "Falsafa" fanining predmeti va mazmuni, falsafa tarixi, borliq falsafasi, inson falsafasi, ong falsafasi, taraqqiyot falsafasi, bilish falsafasi kabi mavzularning muhim yo'nalishlari bayon qilingan. Fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lган asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatlari berilgan.

O'quv qo'llanma "Falsafa" kafedrasi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. 1-iyun 2005y. 23-sон

**«Falsafa» kafedrasi  
mudiri f.f.d. prof.**

**N. Mamatov**

Falsafa fanidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining institut qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etilgan hamda nashrga tavsiya qilingan.

*(mazkur kengashning 2005 yil 19 oktyabrdagi 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan).*

**Kengash raisi, rektorning  
o'quv va metodik  
ishlari bo'yicha muovini  
i.f.d. prof.**

**A.Vahobov**

**Mualliflar:** f.f.d. prof. N.Mamatov, f.f.n. dots. A.Hojiboev, S.Yuldasheva

**Taqrizchilar:** f.f.d. prof. X.Haydarov, f.f.n. dots. Sh.Jo'raev.

**Nashrga tayyorlovchi:** "Falsafa" kabinetining mudiri J.Muqimov.

**Toshkent Moliya Institut, 2005**

## **1-MAVZU. FALSAFA FANINING PREDMETI, UNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.**

### **Reja:**

- 1. Falsafaning bahs mavzusi.**
- 2. Falsafaning funktsiyalari.**
- 3. Falsafaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va roli.**

Mustaqillik yurtimizga nafaqat siyosiy erkinlikni, balki, millatimizga millatdek, xalqimizga xalqdek yashash, mustaqil fikrlash erkinligini ham berdi. Shu tufayli biz falsafani, uning tarixini dunyoviylik, insonparvarlik nuqtanazaridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda. Yurtimizda sodir bo'layotgan murakkab yaratuvchanlik tafakkur mustaqilligi bilan uzviy bog'liq hodisadir. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimiz falsafiy iqtidoriga bo'lgan talab shuncha oshib boradi. Shuning uchun ham falsafa ilmi yoshlarga ham o'rta yoshlilarga ham, katta yoshlardagilarga ham bab-barobar suv bilan havodek zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojdir. Bu ilm o'zining tabiatiga ko'ra chegara bilmaydi. Mazkur chegara bilmas ilmni egallashning mohiyatini bilmaslikdan bilishga, bilishdan komillikka tomon yo'naltirilgan faoliyat tashkil qildi. Bundan tashqari falsafa ilmining yana bir muhim jihat shundaki, u qanchalik o'zlashtirilsa, o'zlashtiruvchi o'z oldiga yana yangi-yangi muammolarni qo'yaveradi, qo'yilgan har bir muammoning echimi yangi bir muammoning debochasi hisoblanadi.

Falsafa ilmi milliy, ayni vaqtida umuminsoniy qadriyatdir. Mazkur qadriyat inson o'zini o'zi inson sifatida tanigan kunidan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, ilmiylashib va tobora insoniylashib borayotgan fandir.

Falsafaning o'zi bir dunyoqarashdir, odamning dunyoga bo'lgan qarashlarining yig'indisidir. Dunyoqarashning mifologik, diniy, ilmiy, siyosiy, badiiy, kundalik turmushga nisbatan bo'lgan shakllari mavjud. Falsafa dunyoqarashlarning boshqa shakllaridan shu bilan farq qiladiki, u eng avvalo ijtimoiy ongning ilmiy sohasiga taalluqlidir. Uning tarkibida esa boshqa fanlardan farqli o'laroq, o'ziga xos kategorial apparat mavjud bo'lib, u o'z taraqqiyotida qandaydir bir fanga tayanmasdan, balki barcha fanlarga, insoniyat o'zining butun taraqqiyoti davomida erishgan tajribasining yaxlit holda to'plagan bilimiga tayanadi.

Falsafaning mohiyati - bu "olam-odam" tizimidagi umumiyy muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir.

Falsafa ichki jihatdan ixtisoslashmagan, kundalik hayotda mavjud bo'lgan bilimlar bilan bog'liqdir. Bunday aloqa eng avvalo falsafaning tilida namoyon bo'ladi. Falsafaning tili shaxsning hayotiy tajribasini qayd etadigan so'zlarga boy

bo'ladi. Bu so'zlarning vazifasi – odamlarning har kungi amaliy faoliyatini, ularning o'z atrofida sodir bo'layotgan voqelik bilan bevosita aloqaga kirishishlarini ta'minlash, shu jumladan, umumijtimoiy muhit bilan bevosita aloqaga kirishishini ta'minlashdan iborat. Falsafa tilini har kuni ishlatadigan tilimiz bilan solishtirib tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, umuman olganda falsafaning tili maxsus fanlar tiliga nisbatan jonliroq, tabiiy tilga yaqinroq dir. Falsafiy kategoriyalar madaniyatning rivojlanib borishi asosida shakllanadi hamda kundalik til strukturasida mujassamlashadi. Falsafa so'zlarni izohlash jarayonida o'z tushunchalarini tizimlashtiradi, ularning ma'nosini yanada chuqurlashtiradi, lekin ularning umumiyligi ma'nosini ham, iste'moldagi ma'nosini ham o'zgartirmaydi.

Falsafiy bilimlarning mazmuni o'z ichiga sog'lom fikrni jamlab, hodisalarning eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan bo'ladi.

Aynan mana shu kundalik bilimlarda, ularning teran ma'nosida insoniyat hayotining bebaho qadriyat “donolik” deb nom olgan fazilati qiyomiga etib, chuqur ma'no kasb etib boraveradi. Tabiat to'g'risidagi bilimlarda bunday qadriyat ishlatilmaydi. Shuning uchun ham biz ba'zan kishilarni “o'z fanini yaxshi biladigan mutaxassis” deymiz, lekin uni hech qachon “dono odam” demaymiz. Mabodo u yoki bu olim to'g'risida mazkur tushunchani qo'llaydigan bo'lsak, u o'sha olimning o'z fanini nechog'liq bilishbigini ifodalaydi, balki o'sha olimning olamga, hayotga nisbatan umumiyligi munosabatiga taalluqli bo'ladi.

Falsafiy fikrlash qobiliyati mutaxassis faylasuflar bo'limgan kishilarda ham, donolik deb ataluvchi xususiyatni shakllantiruvchi boradi. Ayni vaqtda, xususan, falsafa ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilar o'z sohasi muammolari ustida fikr-mulohaza yuritishi jarayonida, kundalik tur mushga nisbatan munosabatlar jarayonida shu qadar yuksaklikka ko'tariladiki, ularning erishgan darajasi biz aytayotgan “donolik” tushunchasiga muvofiq keladi.

“Donolik” degenda biz hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrokni, haqiqat va yaxshilik birligini, oliy haqiqatni, sevgi va rostgo'ylik mushtarakligini, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga etgan holatini, qadriyatlarni qadrlash, his-tuyg'ularining hayotga singib ketishini, har qanday narsaga va hodisaga mehr bilan qarash, har qanday harakatga tashvishli murakkab holatlarda ham masalaga aql ko'zi bilan qarashni tushunamiz.

Qadimgi yunon tilidan fanga kirib kelgan atama - “Falsafa”ning aynan so'zma - so'z ma'nosи “**phileo**-sevaman + **sophia**-donolik; ya'ni donolikka muhabbat” demakdir. Ayni vaqtda qadimgi yunonlarda bu so'z “tushunishga intilish”, “bilimga intilish” degan ma'nolarni ham anglatgan. Ushbu so'z Fukidid, Suqrot va boshqa antik madaniyat vakillari tomonidan xuddi shunday ma'noda qo'llangan. Bizgacha etib kelgan rivoyatlardan birida aytishicha, go'yo Pifagor o'zini dono emas, balki donolikni sevadigan kishi deb atagan: donolikning o'zi esa (xuddi bilimga o'xshab) faqat Xudoga xos xususiyat, odam esa faqat donolikka (bilimga) intilish bilan qanoatlanib qolishi kerak ekan. Antik falsafa mutaxassislarini

taxmin qilishlaricha falsafa so'zi atama va alohida bilim sohasining nomi sifatida birinchi marta Platon tomonidan qo'llangan.

So'nggi O'n yilliklar mobaynida "falsafa" so'zi donolikka tenglashtirib kelinmoqda. Uning mohiyati esa e'tiborga olinmayotir. Falsafani fan darajasiga chiqarish uchun kurashayotgan ayrim olimlar ushbu atamaning bunday ma'nosi endilikda "eskirib koldi", u endi hozirgi zamon falsafa fanini buzib ko'rsatuvchi arxaik so'zga aylanib qoldi, - demoqdalar.

Lekin biz bunday fikrdan yiroqmiz. Bugun falsafani donolikka muhabbat deb talqin qiluvchi qadimgi an'analardan voz kechish uchun asosli sababni ko'rmayotirmiz. Dunyo falsafasida endi – endi oyoqqa turayotgan ilmiy bilim aks ettirilgan edi. Mana shu tarixiy fakt insoniyat madaniy taraqqiyotining so'nggi davrlarida benihoya murakkab ziddiyatlar orqali uchlashtirilib biroz o'zgartirilgan shaklda bo'lsa ham saqlanib qolindi. Falsafa ilmining kundalik turmush tajribasiga, shaxsiy hayotga va kundalik bilimlarga yaqinligi uni xuddi muayyan bir qadriyat singari donolik tarkibiga kiritishni taqozo etadi. Falsafiy tafakkurning barcha ko'rinishlari donolarcha falsafiy fikr yuritishining o'zi emasmi?

Dastlabki falsafiy ta'limotlar bundan 2500 yillar ilgari Hindistonda, Xitoyda, Misrda paydo bo'lib, qadimgi Gretsya – Yunonistonda o'zining mumtoz shakliga erishgan.

Falsafa mifologik dunyoqarash bilan ilmiy bilim o'rtasida sodir bo'lган qarama-qarshilik, ziddiyatlar negizida shakllandi. o'sha vaqtagi dastlabki ilmiy qarashlar o'z isbotlarini - naql, rivoyatlardan emas, balki tabiatdagi sabab va oqibat aloqalaridan izlay boshladи. Bilish sub'ektlarining printsip jihatdan bunday yangicha shaklda yo'naltirilishi, bilishni yangicha tushunish sub'ekt – ob'ekt munosabatlarida, bilish, dunyoqarash strukturasida yangilik edi. Tabiat hodisalari to'g'risida, tabiatning o'zi haqidagi tabiiy – ilmiy axborotlarning ko'payib borishi olam haqidagi umumiyligi g'oyalarning pishib etilishiga va asta-sekin olamning mifologik manzarasini siqib chiqarilishiga olib keldi. Vaqt o'tishi bilan dunyoqarashning asosiy masalasi umuman olam haqidagi, masala hamda odamning olamga munosabati to'g'risidagi maslalalar va ularga berilgan javoblar, shu bilan aloqador bo'lган juda ko'p savollarga berilgan javoblar ilmiy shakl kasb etdi. o'z mazmuniga ko'ra yangicha mifologik va diniy dunyoqarashdan holi bo'lган, mustaqil dunyoqarashni shakllantirdi.

Agar falsafaning rivojlanish tarixini tabiat to'g'risidagi umumiyligi va xususiy bilimlar rivojlanishi tarixini qiyoslaydigan bo'lsak, bu falsafa bilan fanning o'zaro mustahkam aloqada ekanligidan dalolat beradi. Tarix shuni ko'rsatadiki, falsafa o'zining ontomantiqiy va gnoseologik masalalari bo'yicha qaralganda ham, u xuddi tabiat fanlariga o'xshab – ularning rivojlanish yo'llari singari yo'ldan taraqqiy etib bordi.

Shunday qilib, falsafa fani o'zining shakllanish bosqichida, keyinchalik esa o'zining rivojlanishi jarayonida tabiiy fan bilimlari bilan mazmunan uyqunlashgan jihatlari ham bo'ldi.

Ilmiy falsafaning genetik jihatni tizimi bilan to’ldirildi. Falsafa bilishga oid turli sohalar jumladan, tabiat to’g’risida mavjud bo’lgan axborotlarni mutassil olib ularni qayta ishlab bordi. Mana shu asosda olamning universal manzarasi shakllandi va u o’zgarib, takomillashib boradi. Borliq, fazo, umumiyligi aloqadorlik bilish, sub’ekt-ob’ekt munosabatlari, bilishning umumiyligi tamoyillari, usullari va boshqa shunga o’xshash falsafiy tushunchalar ishlab chiqildi. Ayrim tabiiy fanlardagi asosiy tushunchalar (“atom”, “modda” va boshqa shunga o’xshashlar) tabiatshunoslik fanlarining ba’zi bir umumiyligi qonunlari va tamoyillari (masalan, “energiyaning saqlanish va o’zgarishi qonuni”) falsafiy bilimlar mazmuniga kiradi. Falsafaning tarkibida tabiiy-ilmiy bilimlarning mavjudligi va faoliyat ko’rsatishi uning ilmiyligini ko’rsatuvchi belgilardan biridir.

Falsafaga tushunchalar tizimi, bilish vositalari jihatidan qaraganda u ham ba’zi bir jihatlar bo’yicha ilmiy bilimlar sohasiga mansub ekanligi ko’rinadi.

Xo’sh, ilmiy bilimning xarakterli belgilari, alomatlari nimalardan iborat bo’ladi?

Odatda, bilish amaliyot hamda qadriyatlarli baholash faoliyati bilan qiyoslanadi. Bilish – bu voqelikning inson tafakkurida aks etishi va takror hosil bo’lish jarayonidir. Uning maqsadi ob’ektiv haqiqatga erishishdir. Bilish - voqelikning aniq hissiy va tushuncha shaklidagi obrazlar orqali qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va tizimga solinishi bo’yicha amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Bilim esa bilishning natijasidir. Bilimlar tizimining muayyan mezonlari mavjud.

Birorta bilim tizimi muayyan mezonlarga javob beradigan bo’lsagina o’sha bilimlar tizimi ilmiy bilim deb tan olinadi.

Mifologik va diniy bilimlarga tabiatdan tashqarida sodir bo’ladigan hodisalarga ishonch-e’tiqod xosdir.

Bunday e’tiqod fanda mavjud emas.

Ilmiylik mezonlari asosan quyidagilarda ko’rinadi:

**1) ob’ektivlik yoki ob’ektivlik tamoyili.** Ilmiy bilimlar tabiiy ob’ektlar mazmunini u qanday bo’lsa shundayligicha ochib berishi bilan bog’liqdir. Bunda individ manfaatlaridan hamda barcha tabiatdan tashqari kuchlardan begonalashish hodisasi sodir bo’ladi. Tabiatni uning o’zidan kelib chiqqan holda o’rganish talab qilinadi, shu ma’noda uning o’zi o’zini bilishi uchun etarli bo’ladi; predmetlar ham, ularning munosabatlari ham ular qanday holatda bo’lsalar, shundayligicha o’rganilishi - tashqaridan hech narsani qo’shmasdan, ya’ni unga qandaydir bir sub’ektiv yoki tabiatdan tashqari kuchni aralashtirmsandan o’rganish zarur.

**2) ratsionallik, aqliy tarzda asoslanganlik, isbot qilinganlik.** Biz kundalik hayotda ayrim fikrlarni bayon qilganimizda kimnidir “fikriga”, “obro’siga” tayanamiz. Ilmiy bilimlarda esa biror narsa haqida shunchaki xabar berilmaydi, balki keltirilgan fikrning ma’nosi, mazmunini tasdiqlaydigan zarur negiz, asoslar ham keltiriladi. Bu erda etarli asos keltirish tamoyili amal qiladi.

3) **Bilimning ob'ekt mohiyati**, uning qonuniyatlarini qayta tiklashga qaratilganligi.

4) **Bilimning o'ziga xos hodisa sifatida uyushtirilishi**, uning alohida tizimliligi: bu erda gap kundalik oddiy bilimlarni shunchaki tartibga solish to'g'risida emas, balki chuqur anglab etilgan tamoyillarga ko'ra tartibga solish haqida; nazariy tizim haqida bormoqda.

5) **Sinab ko'rish, tekshirib borish**: bu erda gap ilmiy kuzatuv, amaliyotda mantiq orqali sinab ko'rish to'g'risida boradi. Ilmiy haqiqat amalda tekshiruvdan o'tgach va tasdiqini topgachhamma tomonidan e'tirof etiladi.

Ko'pchilik tomonidan tan olinish mazkur holatning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezon bo'la olmaydi. Ko'pchilik qandaydir bir holat uchun ovoz bergenligi, o'sha holatning haqiqiy ekanligi tasdiqlamaydi. Haqiqatning asosiy mezoni boshqacha bo'ladi. Haqiqat umumiyligi ahamiyatga egalikdan kelib chiqmaydi, balki, aksincha, haqiqat umumiyligi ahamiyatga molik bo'lishni talab qiladi va uni ta'minlaydi.

Ilmiylikning yuqorida ta'kidlab o'tilgan mezonlarining hammasi falsafiy bilimlar mazmunini aniqlashda foydalansa bo'ladigan mezonlardir. Ayniqsa, ularni ontologiya (tabiat falsafasi)ga, gnoseologiya (epistemologiya) va ilmiy bilish metodologiyalariga ko'proq tatbiq etish mumkin.

Keltirib o'tilgan mulohazalar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, falsafa ilmiy bilimlar dunyosining tarkibiy qismidir. Falsafa - fan, ilmiy bilimning bir shakli. Ilmiy bilimning bir shakli sifatida olinganda, falsafa dunyoqarashning asosiy masalasi nuqtai nazaridan axborotning g'oyat umumlashtirilgan holga keltirilishidir.

Bunday qoida eng avvalo falsafaning ijtimoiy fanlar bilan emas, balki tabiiyot fanlari bilan qiyoslanishidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham falsafani, aftidan, yuqorida aytib o'tilgan mulohazalardan kelib chiqib tabiiyot fani, deb hisoblash mumkin, u o'zining bir qismi bo'yicha tabiatshunoslik fanlari tarkibiga kiradi.

Shu bilan birga U ayni bir vaqtida jamiyatshunoslik fanidir. Falsafa shuningdek, jamiyatning o'zini, ijtimoiy olam, ijtimoiy ong ijtimoiy bilish maxsusligining va shunga o'xhash masalalarni o'rganadi. Falsafa xususiy ijtimoiy fanlar huquqshunoslik, iqtisodiyot fani, siyosatshunoslik va boshqa shu singari fanlar ma'lumotlarini muayyan bir nuqtai nazar ostida falsafiy jihatdan umumlashtirib boradi. Falsafa va ijtimoiy fanlarning predmet-mazmun jihatdan o'zaro bir-birining tarkibiga singib ketishi falsafani jamiyatshunoslik bilimlari qatoriga kiritish imkonini beradi.

Falsafa fani xuddi ijtimoiy, tabiiy fanlar singari mustaqil fandir. U o'zining mustaqil ob'ekti va predmetiga ega. Falsafaning predmetini «olam-odam-inson» tizimi tashkil etadi.

Bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo'lган olam va inson dunyosi ayni vaqtida bir-biri bilan uzviy aloqadagi dunyolar hamdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, umuman olinganda moddiy olam va uning mavjudligiga xos bo'lган

qonuniyatlar falsafaning predmeti tarkibiga kirmaydi, balki, uning insonga aloqador bo'lgan eng umumiy jihatlarigina Falsafa fani predmetining tarkibiga kiradi xolos. Moddiy olam uning mavjudligi to'g'risidagi qarashlar, g'oyalar va nazariyalar aniq fanlar tomonidan o'rganiladi. Inson tomonidan haqiqat, go'zallik, yaxshilik,adolat nuqtai-nazari orqali yaratilgan olamning universal suvrati Falsafada dunyoqarashni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari Falsafada moddiy borliq va insonni o'rganuvchi boshqa fanlardan yana shu bilan farq qiladiki, bunda insonning olamga, olamning insonga munosabatining eng umumiy jihatlari o'rganiladi. Insonning olamga, borliqqa bilishga ko'ra munosabati ko'pgina fanlar tomonidan o'rganiladi. Bilishning empirik va nazariy darajasi, hissiy va ratsional bilish nisbati, haqiqat va adashish va boshqalar bir qator fanlar tomonidan ham tadqiq etiladi. Bularidan farqli o'laroq bilish jarayonining eng umumiy tomonlarinigina o'rganish Falsafaning predmeti doirasiga kiradi. Bu jarayonning xususiy tomonlarini o'rganish esa aniq fanlarning vazifasi hisoblanadi.

Falsafa ikki yo'nalishda: umuman dunyo va odamning ushbu dunyoga nisbatan munosabati to'g'risidagi axborot sifatida, bilish tamoyillarining yaxlit bir majmui, bilish faoliyatining umumiy usullari sifatida rivojlanib keldi. Falsafaning ko'p sonli funktsiyalarini ikki: dunyoqarashga, hamda metodologiyaga oid guruhga ajratish mumkin. Biz dastlab uning dunyoqarash funktsiyasini ko'rib chiqamiz.

Jamiyatda inson muammosining naqadar ahamiyatli ekanligiga ko'ra falsafaning dunyoqarash funktsiyasi orasida uning gumanistik funktsiyasi oldingi o'rinda turadi.

Dunyoda hayot, o'lim, tug'ilish, oxirat to'g'risida o'y lab, mulohaza yuritib ko'rmaydigan birorta ham inson bo'lmasa kerak. Bu haqdagi o'y-fikrlar albatta odamning yurak-bag'rini ezib yuboradi.

Falsafa, albatta, bizga abadiylik bahsh etmasa-da, lekin u biz yashab turgan hayot ma'nosini tushunishga yordam beradi, hayotning mazmunini bilishga hamda o'z ruhimizni bardam-bag'uvvat tutib, uni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Hayotda oliy darajadagi dunyoqarashdan - falsafiy dunyoqarashdan bebahra qolish, hayot ma'nosini tushunmaslik natijasida odam o'zini-o'zi halok etishi, giyohvand bo'lib qolishi, ichkilikbozlikka berilishi, jinoyat yo'liga kirib ketishi mumkin.

Bugungi kunimizda uchrab turgan terrorchilar, hizbut-tahrirchilar ta'siriga tushib qolganlar shular jumlasidandir. quidorlik davrlaridan boshlab ko'p yillar mobaynida insoniyatning anchagina qismi mulkdan, hokimiyatdan, o'z faoliyatining mahsulidan ajralgan holda yashab keldi. Inson ham jismonan, ham ruhan ezilib, qullarcha yashashga mahkum etildi. Shunday bo'lsada falsafa inson shaxsini tashqi zulm-zo'ravonlikdan halos qildi hamda unga botiniy teran mazmun berdi. U o'y lab topilgan barcha soxta borliqlarni bartaraf etdi va har bir kishida ichki bir qonig'ish paydo qilib, uning qalbidan haqiqiy Yaratganning joy olishini kashf etib, uning uchun yangi bir olam yaratdi. Falsafa odamga insoniy

fazilatlarni singdirib borishi bilan ham diniy, ham dunyoviy vazifani bajardi, ayni vaqtda unisini ham, bunisini ham birlashtirib, insonning bashariyat ekanligini ko'rsatdi.

Hayotdagi barcha jadallashtiruvchi hatti-harakatlar odamga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. U inson hayotini, uning butun turmush tarzini o'zgartirib yubordi, ko'pchilik holda odamlar odamlar singari emas, balki ishchi kuchi sifatida yashab kelmoqdalar. Jamiatning barcha tabag'alarida hozirgi zamon kishisining haddan tashqari ish bilan band bo'lishi oddiy bir hol bo'lib qoldi. Bunday bandlik esa uning ruhiy olamini sO'ndirib, ma'naviy halok bo'lishiga olib kelmoqda. Ishdan bo'sh vaqtlarida o'z ustida ishlashi uchun, jiddiy suhbatlar o'tkazish yoki kitoblar mutolaa qilish uchun odam xotirjam bo'lishi zarur. Ishdan ortmaydigan kishida bunday xotirjamlik bo'lmaydi.

Ishdan ortmaydigan kishi endi bilim olish va o'z ishini takomillashtirishi to'g'risida emas, balki ozgina bo'sh vaqt topsa, o'yin-kulgi bilan o'tkazishga, unda ham ruhiy zo'rig'ish talab qilinadigan ko'ngil xushlik qilishga harakat qiladi.

Hech narsani o'yamaslik, hech narsa haqida bosh qotirmaslik-odamning ikkinchi tabiatiga aylanib qoladi. U o'ziga o'xshagan kishi bilan suhbatga kirishar ekan, iloji boricha hammaga ma'lum umumiyl mulohazalar bildirishga harakat qiladi va natijada ikki O'rtadagi suhbat chinakam fikr almashuvga aylanib ketmaydi.

U endi o'zigagina xos bo'lgan hech narsaga ega bo'lmaydi va hatto u go'yo unda o'sha o'ziga xos narsa mavjud, undan o'sha narsani talab qilib qolishlari mumkin degan, qo'rquv bilan yuradi. Bu holat mashhur frantsuz frantsuz faylasufi A.Kamyuning "Begona" asarida benihoya ta'sirli aks ettirilgan. Biz buni 70 yil hukmronlik qilgan Sovet totalitarizmi davrida qattiq his etdik.

Jamiatda insoniyatni xor qilishga olib keladigan salbiy tendentsiyalarga qarshi kurasha oladigan g'oyat kuchli vositalardan biri, bu falsafadir. Lekin har qanday falsafa emas, balki tasavvur, milliy istiqlol falsafasiga o'xhash teran etik mazmunga ega bo'lgan falsafagini bunga qodir bo'ladi.

Gumanistik dunyoqarashga oid bo'lgan g'oyalar biz o'zimiz nima uchun yashayotganligimizning ma'nosi to'g'risida va butun insoniyatning vazifasi to'g'risida biz o'ylashimiz va taxmin qilishimiz mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'zida mujassam etgan. Ular bizning turmushimizga yo'naliш berib turadi va unga qadr-qimmat baxsh etadi.

Falsafaning dunyoqarash funktsiyalaridan yana biri - **ijtimoiy-aksiologik funktsiyasi** hisoblanadi. Ushbu funktsiya: ijtimoiy hayotni sharhlash va tanqid qilish funktsiyalarini bajaruvchi sifatida ko'rindi. Bunga ko'ra Falsafa Yaxshilik, Adolat, Xaqiqat, Go'zallik singari qadriyatlar, ijtimoiy-ideal to'g'risidagi tushunchalarni ishlab chiqish tashkil etadi.

Masalan, ijtimoiy ideal tushunchasining shakllanishini ko'rib chiqaylik. Ijtimoiy ideal to'g'risidagi masalada falsafa bilan siyosiy tuzumning o'zaro munosabati xarakteri yaqqol ko'rindi. Bir qarashda bu erda falsafa - sabab, siyosiy g'oya bilan siyosiy tuzum-oqibat ekandek bo'lib tuyuladi.

Bunday xulosa chiqarish uchun bir talay asoslar ham mavjud. Haqiqatdan ham, o'tmishdagi Platon va Aristoteldan boshlab to Fixte, Gegel va XX asr faylasuflarining kontseptsiyalarida davlat qurilishi to'g'risidagi qarashlar muhim o'mnii egallab kelgan u amaliy, siyosiy harakatlar uchun ancha mufassal tavsiyanomalar bergenlar (chunonchi, Platon o'zining davlat to'g'risidagi ta'limotida xususiy mulk va oilani bekor qilishni tavsiya etadi, Fixte jamiyatda sotsial uyqunlikka erishish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga erishish maqsadida keng miqyosda tashkil etilgan va har doim hushyor turadigan politsiya nazorati tizimini amalga oshirishga chaqirgan)

Lekin falsafadan siyosatga o'tiladigan yo'l faqat bitta emas. Shuning uchun asrimizning 30-yillarida Germaniyada fashistlar tuzumi o'rnatilganligi uchun faqat F.Nitsshe yoki M. Xaydegger falsafasi ma'sul emas. Chunki faylasuf ijtimoiy tuzum, uning idealini eng umumiy shaklda bayon qiladi. Uni amalga oshirish ijtimoiy-tarixiy holat kishilarning vijdoni, e'tiqodi, ahloqiy va aqliy etukligiga bog'liq.

Falsafaning qadriyatlarni yaratishga oid vazifalari bilan uning sotsial voqelikni talqin etish vazifasi qo'shilib bir butun holdagi voqelikni tashkil etadi. Xuddi shuningdek, o'sha sotsial voqelikning tuzilishi, holatning tanqidi bo'yicha ilgari suriladigan vazifalar ham o'sha bir butunlik tarkibini tashkil qiladi. Talqin va tanqid, qadriyatlarni, ijtimoiy ideallarini qarab chiqish, tegishli nuqtai nazar ostida ijtimoiy voqelikka baho berish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda faylasuf doimiy ravishda sotsial-ijtimoiy voqelikning ideallarga muvofiq kelmasligi singari hodisalarga ro'baro' keladi. Ijtimoiy voqelik, uni ijtimoiy ideal bilan taqqoslash xususida yuritilgan fikr - mulohazalar ushbu vokelikning tanqid qilinishiga olib keladi. Bunday tanqidda sub'ektning ob'ektdan qonig'ish hosil qilmaganligi, uni o'zgartirishga ko'ra istagi ifoda etiladi.

O'z mohiyatiga ko'ra, falsafa tanqid qiluvchi fandir. Voqelikdagi ziddiyatlarga ko'ra shakllangan falsafa ushbu ziddiyatlarni nazariy jihatdan ochib tashlash, uni hal etish uchun zarur bo'lgan tanqidiy kuchni o'zida topa oladi. Hatto A.Yassaviy, Spinoza, Gegel dunyoning dono aql bilan yaratilganligi va voqelik bilan kelishib, tinch yashashga da'vat etganida ham, ular haqiqat qanday tushungan bo'lsalar unga erishish yo'llarini mavjud ijtimoiy olamni tanqidiy tahlil qilish asosida ko'rsatib berdilar, o'z qarashlariga to'g'ri kelmaydigan odamlar o'rtasida hukm surayotgan noto'g'ri tushunchalarni va qarashlarni, tushunchalarni, tasavvurlarni rad etadilar. Ziddiyatlarni aniqlash va ochib tashlash, qabul qilingan tushunchalar tizimi bilan qadriyatlarni o'rtasida hamda ularning dunyo tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichi kiritgan yangicha mazmunga muvofiq kelishi yoki kelmasligini aniqlash faylasuf olib boradigan tanqidiy jarayonning negizi va mohiyatini tashkil etadi. Eski dunyo g'oyalarini tanqid qilar ekan, bu bilan faylasuf - buni u xohlaydimi yoki yuqmi, baribir, u o'sha ko'xna dunyoning o'zini ham tanqid qiladi.

Falsafaning dunyoqarash funktsiyalaridan yana biri madaniy-tarbiyaviy funktsiyadir.

Falsafa ilmining, bilishga nisbatan qo'yadigan talablari insondagi muhim fazilatlarni: rostguylik, haqqoniylik, saxovat singari ma'rifatli, madaniyatli shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Falsafa odamlarni yuzaki fikr yuritishdan va tor doirali tafakkurdan himoya qilishga qodirdir. U doimo o'zgarib turadigan voqe - hodisalar mohiyatini, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni mumkin qadar o'z holicha qanday bo'lsa, shunday aks ettirish maqsadida xususiy fanlarning nazariy va empirik xulosalaridan foydalanadi.

Yuksak darajada fikrlash madaniyati ko'rsatkichlaridan biri - bu sub'ektning bilish jarayonidagi ziddiyatlarni chetlab o'tmasligi hisoblanadi. U mana shu ziddiyatlardan ko'z yummashigi, balki ularni hal etishga, to'siqlarni engib o'tishga harakat qilishi kerak. Bunda u xususiy fanlarda mavjud bo'lgan shu sohadagi axborotlarni ishga solishi, falsafiy kategoriyalardan foydalanib, ularni dolzarb xolga keltirishi va bunda u o'z mustaqilligini ko'rsatishi, o'zining masalalarga an'anaviy yondashish kabi fazilatlarini namoyish qilishi kerak bo'ladi. Tafakkurning dialektik rivojlanib borishi xar doim o'z yo'lida formal mantiqiy ziddiyatlar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, ob'ektdagi mavjud real ziddiyatlarni hal etishga harakat qiladi hamda bu yo'lda o'zining ijodiy, antidormatik xarakterini namoyon etadi.

Fikri qotib qolgan kishini tarbiyalash shundan iborat bo'ladiki, bunda odamni tevarak-atrofdagi olamga xuddi bir qancha o'mnak, namunalar qo'yilgan imkoniyatlar olamiga tikilib turgandek qarashga o'rgatadi. Unda haqiqat u yoki bu darajada mavhum tarzda - umumiyl shaklda ifodalanadi. Odamni bunday qarashning aksini ta'kidlaydigan tushunchalarga yaqinlashtirmaslikka zo'r berib harakat qilinadi.

Dogmatizmning orqa tomoni - bu shubha qilishdan iboratdir. Dogmatizm bilan shubha-bu bir-biriga nisbatan fitna qo'zg'aydigan, ikkovi ham jonsiz jasadga o'xshagan va noto'g'ri tarbiya natijasida ular orasiga jonli insoniy aql - idrok kirib koladi. Ziddiyatga nisbatan munosabat aqli kishi madaniyatining aniq mezoni hisoblanadi. Mantiqiy to'g'ri fikrlaydigan chinakam madaniyatli aql uchun ziddiyatning paydo bo'lishi-bu qat'iy shtamp holiga kelib qolgan intelektual hatti-harakatlar yordamida hal qilib bo'lmas muammoning paydo bo'lganligi to'g'risidagi xabar, erkin tafakkurni ishga solish uchun berilgan xabar hisoblanadi. Aql - idrokni shunday tarzda avval boshdanoq tarbiyalab borish kerakki, uning uchun ziddiyatlar hovlig'ib qolishga sabab bo'lmay, balki mustaqil ravishda ishlash uchun bir turtki bo'lmos'i kerak.

Dialektikaga o'rgatish degani-bu ziddiyatlarni qat'iy ravishda qayd etish mahoratiga o'rgatish, voqelikni nomiga quruq ko'z bilan qarash, ziddiyatlarni xas - po'shish yo'lidan bormasdan, balki uni ro'i-rost qarab chiqish uni hal qilish yo'lidan borishga o'rgatish degani. Dialektikaga o'rganish kerak. Buning uchun maktabda, oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonida yoshlarning dialektikani egallashlari uchun o'qish, o'qishdan tashqari ishlarni qanday tashkil etish kerakligini ko'rsatib berishi lozim. Dialektika faqat etuk kishilar va chuqur aql - idrok egasi bo'lgan odamlar o'rgana oladigan sirli bir san'at bo'lmay, balki

bolalarni juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalash mumkin va lozim bo'lgan ilmdir.

Insonda falsafiy fikrlash-tafakkurni shakllantirib borish degani-bu ayni bir vaqtida har bir kishida madaniyatli shaxsga xos bo'lgan o'z-o'zini tanqid, tanqidchilik, bilishga aloqador bo'lgan shubha singari qimmatli fazilatlarni bir vaqtida shakllantirib borishdan iboratdir. Bu erda shubha deganda to'g'ri narsadan ham shubhalanadigan salbiy xususiyatni emas, balki ilmiy tarzdagi shubha nazarda tutiladi, chunki ilmiy asosdagi shubha-bu ilmiy izlanishning faol vositalaridan biri hisoblanadi.

Shubha, tanqidchilik va o'z-o'zini tanqid qilish-bular e'tiqodga yoki birovning, fikri, qarashining to'g'rilingiga qat'iy ravishda ishonch bildirolmashlikni bildirmaydi. Aksincha, falsafa mustahkam umumiyl uslubiy va gnoseologik asosga ko'ra har bir shubhaning kishiga o'zini - o'zi izchil ravishda rivojlantirib borishi uchun imkoniyatni ham yaratib beradi, ilmiy shubhani faktga asoslangan ishonch-e'tikodga aylantiradi, uni fanning boshqa sohalari bilan uyqun tarzda qo'shib rivojlantirib borishi uchun asos bo'ladi. Bu esa xato va adashishlarni, kamchiliklarni engib, chuqur, ob'ektiv, haqiqatga erishish imkonini beradi.

Falsafa odamlarga umumiy bir til baxshida etadi, hayotdagagi eng asosiy qadriyatlar to'g'risida yagona, hamma uchun ahamiyatli bo'lgan tushunchalarni ishlab chikadi. Bu tushunchalar tor doirada ixtisoslashish ekanligi tufayli vujudga keladigan "kommunikatsiya to'siqlari"ni bartaraf etishga yordam beradigan muhim omillardan biri bo'lib xizmat kiladi.

Falsafaning yuqorida qarab chiqilgan funktsiyalari bilan bir qatorda yana uning bayon etish, axborot berish funktsiyasi ham mavjuddir.

Falsafaning asosiy vazifalaridan yana biri-bu fanning hozirgi zamon talablariga muvofiq keladigan, tarixiy amaliyotga hamda insonning intelektual talablariga mos tushadigan dunyoqarashni ishlab chiqishdir. Ushbu funktsiyada falsafa ilmining o'z ob'ektini o'ziga o'xshatib in'ikos etish, uning muhim elementlarini aniqlash, tizimiyl aloqalari, qonuniyatlarini aniqlab berish, bilimlarni egallash, yanada chuqurroq ishonchli informatsiya - axborot olishning manbai bo'lib xizmat qilish kabi vazifalari o'z ifodasini topgan.

Xuddi har qanday fan singari falsafa ham uzlucksiz dinamik informatsion tizim bo'lib, yangi-yangi axborotlar olish maqsadida axborotlarni to'plash, tahlil qilish va qaytadan ishlab chiqish ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Bunday axborotlar yaxlit bir tizimni umumiy tamoyillar va qonunlar asosida falsafiy tushunchalarda jamlanib, mukammal holga keltiriladi. Mana shu yaratilgan yaxlit bir tizimda ontologiya falsafiy (ya'ni borliq falsafasi), bilish nazariyasi, dialektika eng umumiy usul sifatida, ijtimoiy falsafa, umumiy etika, nazariy estetika, xususiy fanlarning falsafiy muammolari, din falsafasi, falsafa tarixi, "falsafaning falsafasi" (ya'ni falsafiy nazariya) va boshqa ana shunday bo'limlar mavjuddir.

Falsafa o'z usuli jihatidan fanga nisbatan bir nechta funktsiyani: evristik, koordinatsiya kiluvchi, integratsiyalovchi hamda mantiqiy-gnoseologik funktsiyalarni bajarishga qodirdir.

Evristik funktsiyaning mohiyati ilmiy bilimlarni yanada rivojlantirish, ilmiy ixtiolar uchun zamin yaratishda ko'rindi. Formal-mantiqiy usul bilan bir butunlikda tadbiq etilgan falsafa usuli falsafa sohasidagi bilimlarning o'sib borishini ta'minlaydi. Kategoriyalarning umumiyligi tizimidagi ekstensiv va intensiv o'zgarishlar mana shu jarayonning natijasi hisoblanadi. Yangi informatsiya oldindan bashorat qilish bo'lishi mumkin. Falsafa o'z mazmuniga ko'ra nazariy dunyoqarash yoki umumiy uslubiy xarakterdagi ixtirolarni oldindan aytib berish singari urinishlarga nisbatan hech qanday shaklda monelik qilmaydi. Bunda taraqqiyotning hamma uchun umumiy bo'lgan yangi-yangi qirralari kashf qilinishi ehtimoldan holi emas. Bunday yangiliklar dialektikaning shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan asosiy yoki asosiy bo'limgan qonunlarini shakllantirish imkonini berishi mumkin.

Xususiy fanlarga kelganda shuni aytish kerakki, bu erda boshqa usullar bilan birgalikda majmui tarzda qo'llangan falsafa usuli o'sha fanlarga murakkab nazariy, fundamental muammolarni hal etishda yordam berishga kodir bo'lib, ularning bashoratlarida o'zi ham "ishtirok etishi" mumkin. Bunday gipoteza va nazariyalarni yaratishda falsafaning ishtirok etishi muhim ahamiyatga egadir. Bunday qaraganda, birorta tabiiy-ilmiy nazariyaning yaratilishida falsafaning sabab-oqibat, fazo haqidagi, zamon va boshqa biror falsafiy tushunchalari chetlab o'tilmagan. Demak, falsafiy tamoyillar va tushunchalar tabiiy-ilmiy nazariyalarning shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Falsafiy usul ilmiy ishga faqat o'zining ayrim tushunchalari yoki kategorial bloklari bilangina emas, shu bilan birga u o'zining tamoyillari bilan ham ijobjiy ta'sir ko'rsatishga qodir. Buni biz mavhumlikdan aniqlik tomon o'tish printsipning aniq fanlar rivojida tutgan o'rnida ko'rishimiz mumkin.

XIX asrning 60-yillariga qadar organik kimyo sohasida hali xech kim butun bir tizimining asosini tashkil etuvchi modda to'g'risida hech nima bilmas edi. Kimyoda hali dastlabki "hujayra" aniqlanmagan vaqtlar edi. Ushbu hujayra topilganida tegishli uglevodorodlar yana ham murakkabroq organik birikmalarga asta-sekinlik bilan aylanib borishi qanday kechishini ko'rsatib berish imkoniyati mavjud bo'lur edi. Mana shu muhim "hujayra" kashf etilmaganligi sababli organik kimyoning butun tizimi noto'g'ri tuzilgan bo'lib, ko'pincha unga sun'iy yo'llar bilan, zo'rma-zo'raki o'tilar, natijada bunday o'tishda zarur ichki bir butunlik mavjud bo'lmas edi. Dialektik mantiq usullarini egallab, dialektik tafakkur konunlari va tamoyillarini organik kimyo faniga to'g'ri qo'llashi nemis kimyogari – organik olimi K. Shorlemmerga barcha organik birikmalarning hosil bo'lishi va murakkablashib borishidagi boshlang'ich "hujayra" sini – parafinni topish imkonini berdi, olim yana organik moddalarning o'zaro bir-biri bilan birikib yangi moddalarga aylanib borishining ob'ektiv dialektikasini yaratib berdi va shu asosda keyinchalik organik kimyoning qat'iy ilmiy tizimini tuzib chiqish mumkin bo'ldi.

Falsafa usullaridan birining evristik funktsiyasini qarab chiqish shuni ko'rsatadiki, xususiy fanlarning rivojlanishida, ayniqsa, gipotezalar va nazariyalarni shakllantirishda falsafaning roli g'oyat katta. Falsafa ilmiy

tadqiqotlarda har doim ham, ko'zga yaqqol tashlanib turavermaydi va u har doim ham metodologiya sifatida oldingi qatorga qo'yilavermaydi. Aniq ilmiy vazifa, albatta, aniq usul orqali yoki shunday usullarning majmuii orqali hal qilinadi. Falsafiy usul esa ko'pincha "orqa tomondan" harakat qiladi: bunda u xususiy fan usullari hamda umum-ilmiy tushunchalar orqali ish ko'radi. Shu narsa ayonki, dunyoqarashga xos bo'lgan tushunchalar va tamoyillarsiz fanning rivojlanishi mumkin emas.

**Falsafaning koordinatsiya qiluvchi funktsiyasi.** Ushbu funktsiyaning mohiyati ilmiy tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan usullarni koordinatsiya qilib borishda ko'rindi. Bir qarashda bu ish ortiqchaga o'xshab tuyuladi: basharti qo'llangan usul mazmunli bo'lsa, ob'ektning tabiatidan kelib chiqqan holda ish ko'rilgan bo'lsa, predmetini bilihni koordinatsiya qilinishidan tashqari, yana qandaydir qo'shimcha usullarni koordinatsiyalash shart emas va hatto zararlidir. Tadqiqotchiga o'sha ob'ektning o'zidan kelib chiqib ish ko'rishi, bunda ob'ektga muvofiq keladigan usulni topishi va shu yul bilan ilmiy izlanishning samarali bo'lishiga muhim zamin tayyorlashining o'zi etarli bo'ladi. Umuman olganda, bu to'g'ri fikr. Lekin bunda hozirgi zamon fanining muhim jihatni usul bilan ob'ekt o'rtasidagi aloqaning murakkab xarakteri, olimlar ixtisoslashuvining qsib borishi jarayonlari, fandagi sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi bilvositachilik hisobga olinmagan.

Predmet bilan usul o'rtasidagi ancha murakkablashib ketgan nisbatlar fonida xususiy usullarni koordinatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoj, eng avvalo, olimlarning o'z sohasiga tadqiqotlar ixtisoslashuvining chuqurlashib borayotganligi bilan bog'liq bo'lgan salbiy omillarga qarshi turish zaruratiga ko'ra sodir bo'lmoqda. Bunday ixtisoslashuv oxir-oqibat shunga olib keladiki, natijada olimlar o'zlarining ish usullari va usulikalariga qarab bir-biridan uzoqlashib ketadilar, natijada ular fanning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanishda muqarrar ravishda cheklangan holatga tushib koladilar. Natijada bir qator usullarning o'zi ilm kuchini yo'qotishi xavfi paydo bo'ladi, bir xil usullar ulug'lanib, boshqalariga esa etarlicha baho bermaslik xavfi tug'iladi.

Tizimiyl-mantiqiy jihatdan olganda ilmiy bilish usullarining koordinatsiya qilinishi ham falsafiy tamoyillarga asoslanadi. Ular ichida bir-birini o'zaro to'ldirish bir-biridan ustunlik qilish tamoyillari muhim o'rinn tutadi. Shulardan birinchisi falsafaning umumiyl aloqadorlik tamoyilini ifoda qilsa, ikkinchisi haqiqatning hamisha aniq, aniq ekanligiga asoslanadi.

Fanning har qanday usuli o'zining nazariy bilish hamda mantiqiy imkoniyatlariga ega bo'ladi. Agar mana shu imkoniyatlardan tashkari chiqiladigan bo'lsa, o'sha usulning samaradorligi pasayib ketadi yoki butunlay yo'qolib ketadi. Buning oqibatida qandaydir biror murakkab ob'ektni o'rganish uchun ayrim usullarning bilish imkoniyatlari cheklanganligini to'ldirib borishga qodir bo'lgan boshqa bir qator usullar majmuidan foydalanish talab qilinadi.

Shunday qilib, usullarni tanlash va ulardan foydalanish vaqtidagi bir yoqlamalikning oldini olishda mana shunday o'zaro bir-birini to'ldirib borish

tadbiri asosiy shartlardan biri bo'lib qoladi. Usulni bu xilda majmuilashtirish faqat alohida olingen bir fan darajasidagina emas, hatto bilim olishning u yoki bu sohasidagi ko'pgina ichki muammolarni hal qilish vaqtida ham qo'l keladi. Bunda turli manbalardan turli usullarga ko'ra bir xildagi axborotlarni olish, bir-birini takrorlaydigan usullardan foydalanishni shubha ostiga qo'yaydi.

Ushbu aytilgan gaplar tadqiqotchi fanda allaqachon mavjud bo'lган usullarning samaradorligiga qaramasdan, yana boshqa usullardan ko'proq foydalanishga harakat qilishi kerak ekan, degan ma'noni anglatmaydi. Agar shunday bo'lsa uslubiy tuturiqsizlik vujudga kelishi mumkin. Muayyan vaziyatlarda birgina usulning o'zi ham etarli bo'ladi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, har kanday eski usul u qanchalik e'tiborli, ishonchli bo'lishidan qat'iy nazar, agar uning "masalani hal qilib berish qobiliyati" yaqinda ishlab chiqilgan yangi usulga nisbatan pastroq darajada bo'lsa, uni avaylab o'tirish shart emas.

Bundan tashqari u yoki bu usullar - usullar majmuining tarkibi qanday ekanligi ob'ektiv mezonlar bo'yicha aniqlab chiqiladi: uning samaradorligi qanday ekanligiga qarab bilish vazifasi aniq hal qilinadi. Bunda qaysi usulning ustunligi muammolarni echish vaqtida hal kilinadi hamda mazkur tizimda kaysi usul asosiy bo'lishiga qarab, qolgan usullarning mana shu etakchi tizimga buysundirish tamoyiligi amal qilinadi. Bunday usul tadqiqotchiga har bir usullar majmuii ichidan o'zi uchun kerakli usulni tanlab olish imkonini beradi. Shunga ko'ra u o'ziga bir yoki bir necha usulni tanlab oladi va bu tadbir unga o'z ob'ektining yaxlit xolda o'rganib chiqilishi hamda uning o'ziga xos tomonlarini mukammal darajada aniq va to'la bilib olish imkonini beradi.

Xususiy usullarga nisbatan falsafaning eng umumiy metodologiyai nafaqat yuqorida aytib o'tilgan ikki tamoyilga asos bo'libgina qolmay, shu bilan birga boshqa tamoyillar uchun ham negiz bo'lib xizmat qiladi. Ayrim usullar guruhlari o'rtasida mantiqiy aloqa o'rnatadi. Ilgaridan mavjud bo'lган u yoki bu usullar o'rtasidagi koordinatsiyadan o'rnatib, olim tadqiqotning zarur bo'lган guruxlarini aniqlab olishda va ularga baho berishda bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslik uchun foydalanadi. Chunonchi, bilishning hodisalardan mohiyat tomon harakat qilishi tamoyiliga tayangan holda ba'zi bir olimlar biologiya fanining rivojlanib borishidan bugungi bosqichda empirik tadqiqot darajasidan nazariy tadqiqot darajasiga o'tishni belgilab beruvchi usullarning nazariy-bilish imkoniyatlariga etarli darajada baho bermaslik hollari uchrab turishini e'tirof etmoqdalar. Sifat, miqdor, tahlil yaxlitligi printsipiga ko'ra biolog olimlar masalani sifatli tahlil qilish maqsadida matematik yondashuv usulidan yana ham kengrok foydalanish zarurligi to'g'risida xulosalar chiqarmoqdalar. Shu munosabat bilan "biomatematik" usullarni qo'llash to'g'risidagi, masalani kun tartibiga qo'ymoqda.

Mana shulardan aytilganlardan ko'rinish turibdiki, falsafiy-uslubiy tamoyillar fan usullarining umumiy tizimida ularni koordinatsiya qiladi, birlashtirib turishi mumkin. Aslini olganda, falsafaning materiya va taraqqiyotining uyushishi darajalarining yaxlitligi, struktura va funksiyaning bir butunligi, zaruriyat va

imkoniyatning o'zaro aloqadorligi va boshqa shunga o'xshash tamoyillari ham xuddi shunday rollarni o'ynaydi.

Falsafiy usul xususiy masalalarni echish vaqtida umumilmiy va maxsus usullardan ajratilgan holda ishlatsa, fanda muvafaqqiyat qozonish mumkin emas, chunki u xususiy fanlarda o'z holicha ixtiolar kashf etishga qodir bo'lgan qandaydir bir ochqich vazifasini bajara olmaydi.

Umumiy falsafiy usulning sermahsul koordinatsiya ta'sirini o'tkazishi avtomatik tarzda amalga oshavermaydi. Buning uchun tadqiqotchi o'zi shug'ullanayotgan maxsus tadqiqot predmetini chuqur egallagan bo'lmosg'i, shu sohadagi xususiy usullarning butun zaruriy majmuiini egallab olgan bo'lishi, tadqiqot ob'ekti bilan bog'liq bo'lgan ishlarda etarli darajada tajriba orttirgan, falsafa tarixi yutuqlari, dialektika uslubini aniq ilmiy muammolarni hal etish vazifasiga qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishi, bunday amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajara olish mahoratiga ega bo'lishi kerak. Bularning bari tadqiqotchi tomonidan masalani muvaffaqiyatli hal etishga yordam beruvchi omillardir.

Falsafaning integratsiya kiluvchi funktsiyasi. "Integratsiya" atamasi (lotincha **integration**-tiklash, to'ldirish demakdir) qandaydir qismlar, bo'laklarni bir butun, yaxlit holga keltirib birlashtirish degan ma'noni anglatadi. U ko'pgina fanlarda qo'llanadi va amalda umumilmiy tushunchalar maqomiga ega.

Falsafa funktsiyalariga taqriban olganda, "integratsiya qiluvchi" degan atama falsafiy bilimlarning bir tizimni tashkil etgan qandaydir ko'p elementlarga nisbatan yoki ularni yaxlit holga keltirish qobiliyatiga nisbatan birlashtiruvchi vazifani bajarishi bilan bog'liqidir. Shuningdek, bu erda tizimning bo'laklarga ajralib ketishiga olib keladigan, elementlar, uning tarkibidagi qismlarning nisbiy mustaqilligi haddan tashqari ortib ketishi, ya'ni yaxlitning bo'linib ketish omillarini aniqlash va bartaraf etish uning guruxlarida etishmovchi elementlar yoki aloqalarning aniqlanishi ham singari faol ravishda kirib kelishi ham hisobga olinadi. Bunday holatlarning tizimga dezintegratsiya unga uyqunlik optimallik baxsh etadi, ya'ni uning tartibga keltirilganlik, uyushg'oqlik holatining ortib ketishiga olib keladi. Biz bu erda "integratsiya" atamasini uning asl ma'nosiga teskari bo'lgan "dezintegratsiya"ga qarshi ma'noda qo'llaymiz.

Ayrim fan-predmetlarning shakllanishi har bir fan predmetlarining boshqa fan predmetlaridan bo'lib olinishi natijasida sodir bo'ladi. Vozelikning ob'ektiv qonunlari esa har doim u yoki bu tadqiqot predmetini suyab turuvchi ustun bo'lgan. Biroq, umumiy ilmdan, uning butun tizimidan ajralib chiqqan fanlar ko'pchalik holda bir-biridan ajratilgan holatga tushib qoladilar, ular o'zlarining avtonomlik xususiyatlariga ko'ra og'ir ahvolga tushib qoladilar; ular o'rtasidagi tabiiy aloqalar buziladi, tizimiyl jihatdan bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish holatlari yo'qolib ketadi.

Bunday bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish hollari, masalan, tabiatshunoslik fanining yirik tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlar uchungina xarakterli xususiyat bo'lmay, balki o'sha fanning doirasidagi tarmoqlar ichida ham xuddi shunday hol yuz berishi kuzatiladi. Buning natijasida fan ilmiy bir bilim tizimidan, ya'ni antik

davrdagi yaxlit bir fan holatidan, endi tobora ko'prok summativ, ya'ni maxsus ixtisoslashgan qismlarga ajralib ketmoqda. Garchi bunday bo'linish bilimni ixtisoslashib, tobora chuqurlashib borishiga olib kelayotgan bo'lsa ham, o'sha yirik bir fan o'z tarkibidagi xususiy ixtisoslashgan elementlarga qarab, tobora ko'prok qismlarga bulinib ketmoqda.

Fanlarning o'zaro bir-biri bilan aloqaga kirishi, ularning differentsiatsiyalanishi to XIX asrga qadar etakchi tendentsiya bo'lib keldi. Tobora progressiv tarzda ixtisoslashib borishda katta muvafaqqiyatlarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, baribir, fanlar o'rtasidagi nomuvofiqlik darajasining o'sib borishi hollari sodir bo'ldi. Fandagi bir butunlik, yaxlitlik inqirozga uchradi.

Bunday sharoitda fanga nisbatan dialektik tarzda yondashuv fanlar o'rtasidagi chegaralovchi to'siqlarni bartaraf etishga hamda ular o'rtasidagi tabiiy aloqalarni aniqlab, tiklashga qodir bo'lib chiqdi.

Bilimlarni integratsiyalash muammosini hal qilish asosida eng avvalo dunyoning bir butunligi to'g'risidagi falsafiy tamoyil yotadi. Modomiki, dunyo yaxlit, yagona ekan, uning o'ziga o'xshagan aksi ham xuddi o'zi singari yaxlit bo'lmos'i kerak. Tabiatning tizimliligi, uning yaxlitlik xarakteri tabiiy-ilmiy bilimlarning ham yaxlit bo'lishini taqozo etadi. Tabiatda narsalarni bir-biridan ajratib, mutlaq cheklab qo'yadigan chiziqlar mavjud bo'lmay, balki materiyaning harakat qilishida nisbatan mustaqil shakllar mavjuddir. Bunday harakatlar biri ikkinchisiga O'ta borib, oxirida harakat va taraqqiyotning yagona zanjirini tashkil etuvchi butinlarga aylanadi. Xuddi shuningdek, o'sha tabiat hodisalarini uranuvchi fanlar ham hech biri mutlaq mustaqillikka ega bo'lmay, balki faqat nisbiy mustaqillikka ega bo'ladilar. Materiyaning harakat qilish shakllari, ya'ni ularning o'rtasidagi bir-biriga o'tish xodisalari ham "O'tuvchi" fanlarda, ya'ni yaxlit bir fandan ixtisoslashgan shaklda ajralib chiqqan fanlarda o'z ifodasini topishi lozim. Bu xildagi "mutaxassislashgan" fanlar murakkab tarkibli bo'lishi ham mumkin. Bunda ular boshqa fanlarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki uch va undan ham ko'prok fanlarga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. o'zining falsafiy asoslari bo'yicha ular dialektik fanlardir, chunki ular o'z tarkibida o'zlari ajralib chiqqan fan elementlarini saqlab qolgan bo'lib, ular o'rtasidagi tizimiylaloqani ifoda etadi, "aloqadorlik" birligini hamda "bir-biriga o'tib turish"ni bir-biri bilan bog'liq ekanligi, ya'ni yaxlitlikni namoyish qiladi; Ular shu jihatdan ikki xil shaklda ko'rindan. Bir tomondan ular fanlar tizimida integratsiya omili sifatida birlashtiruvchi bo'lsalar, ikkinchi tomondan, ixtisoslashuv yo'lidagi yangi yo'nalishni ifoda etadilar hamda bir-biriga qarama - qarshi bo'lgan ikki tendentsiya (dezintegrativ va integrativ tendentsiyalar)ni birlashtirib, ularni yaxlit holga keltiradi.

Hozirgi vaqtida fanda ko'pgina integratsiya kiluvchi omillar amal qilayotgan bo'lib, bu xol integratsiyaning yaxlit bir tizimli hodisa bo'lib qolganligini ta'kidlash imkonini beradi; shu jihatdan olganda, fan krizis-buxron holatidan qutilib chiqdi, deyish mumkin. Endigi muammo uning ko'prok darajada

uyushg'oqlik ko'rsatishi va tartibga keltirilishdadir. Hozirgi zamon sharoitida fanlarning differentsiatsiya qilinishi jarayoni ularni bundan buyongi bir-biridan ajralib ketishiga olib kelmay, balki aksincha, ularning o'zaro birlashib, jipslashib ketishiga olib keladi. Biroq , hozircha fanlarning ajralib borishiga batamom barham berilganicha yo'q, ilmiy bilimning ayrim uchastkalarida ba'zan uning hatto kuchayib borayotganligi kuzatiladi. Shunga qaramay, fanning integratsiya qilinishiga tomon, uning sintezi tomon siljish tendentsiyasi bizning davrimizda nafaqat tobora sezilarli balki belgilovchi jarayon ekanligi aniq ko'rnmoqda.

Fan darajasida, umuman olganda, falsafa ilmiy bilimlar integratsiyasining eng zarur omillaridan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda. Integratsiyaning juda ko'p turlari, tiplari va darajalari mavjuddir. Integrativ omillarni maxsus tadqiq etib o'rgangan omillar ularni umumiylig darajasiga qarab xususiy va eng umumiyl bo'lgan integrativ omillarga ajratadilar. Natijada quyidagicha ierarxiya vujudga keladi: qonun – usul – printsip – nazariya – ideya – metateoriya - aniq fan – metafan – aralash fan - majmui fan – olamning ilmiy manzarasi – falsafa. Bu erda xar bir omil o'zidan oldin kelgan omilga nisbatan integratsiya qiluvchi rolni bajaradi. Har bir omilning integratsiya qiluvchanlik kuchi oxir-oqibatda qonuniyatlarning hamda ular aks ettiradigan predmet xususiyatlarning umumiylig-mushtaraklik darajasiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun istagan bir aniq tarzdagi integratorlarni tekshirmang, ularning har biri o'zining muayyan chegarasiga ega bo'ladi. Fan integratsiyasining alohida olingan har bir holatida yuqorida ko'rsatib o'tilgan integrativ omillar, fanlarni nisbiy yaxlitlikka tomon koordinatsiya hamda subordialashtirib qilib, ularning o'zaro bir-birining tarkibiga singib borishiga, spetsifik - o'ziga xos bo'lgan mexanizmning yaratilishiga olib keladi.

Bu erda falsafa, bir tomondan, o'z funktsiyasini bajarsa, ikkinchi tomondan, turli darajadagi mushtarak, integratorlik vazifasini ado etadi. Falsafa bunda eng umumiyl integrator vazifasini bajaradi. Bu erda uning fanlar ichidagi integratsiyalovchi funktsiyasi faqat umumiyl integratsiyalovchi funktsiyасining boshqacha ko'rinishini tashkil etadi. Bundan tashqari, uning umumiyl madaniy integratsiyalovchi funktsiyasi ham yuqoridagi funktsiyalar tarkibiga kiradi. Shuningdek, mazkur funktsiya ijtimoiy hayotning turli jabhalarida mavjud bo'lgan tarqoqlikni ham engib o'tishga, ijtimoiy uyushg'oqlik va sotsial strukturalar darajasini ifodalashga qaratilgan bo'ladi. Moddiy ishlab chiqarish bilan ma'naviyatning, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning, mafkura bilan fanning, san'at bilan fanning o'zaro bir-biridan uzoklashib, begonalashib borishi to'g'risidagi vazifalar ham ana shu funktsiya tarkibiga kiradi. Bashariyatning iqtisodiy-sinfiy, milliy, irqiy jihatlari bo'yicha va davlat asoslari bo'yicha bir-biridan uzoklashib, begonalashib ketganligi to'g'risida gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

Falsafaning mantiqiy-gnoseologik funktsiyасining vazifasi ushbdu masalalar bo'yicha falsafiy usulning o'zini, uning mavjud tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, ilmiy bilishning u yoki bu tushunchalari va nazariy

strukturalarini mantiqiy-gnoseologik jihatdan asoslab berish ham mana shu funktsiya tarkibiga kiradi.

Umumiy usul elementlarini takomillashtirib borish uchun zarur bo'lgan axborotni ishlab chiqish, uni bilishning umumilmiy usullarini rivojlantirish, bilishga tizimli yondashuv, modellashtirishda, tatbiq etishda muxim rolni o'ynaydi. Ilmiy nazariyalar tuzilishiga qo'llangan mantiqiy dialektika tamoyillari ularning mantiqiy asoslari tarkibiga xam kiritiladi.

Xususiy fanlarda tafakkur shakllari, uning qonunlari va mantiqiy kategoriyalari maxsus tarzda o'rganilmaydi. Shunga ko'ra ular mantiqiy-uslubiy vositalar ishlab chiqish zaruriyati bilan muttasil to'qnashib turadilar. Bunday vositalar ularga qisqa bir muddat ob'ektdan "uzoqlashish", oxirida yana o'sha ob'ektga "qaytib kelish" imkonini beradi. Bunday harakat vaqtida ular o'zlarining o'sha ob'ekt to'g'risidagi haqiqiy bilimlarini to'g'ri ekanliginini boyitgan holda keladilar. Xususiy fanlar mantiq faniga, gnoseologiyaga, bilishning umumiy metodologiyaiga extiyoj sezadilar. Bu vazifani mantiq shaklida kelgan dialektika bajaradi.

Agar umumiy gnoseologiya ob'ektni xuddi o'zidek ilmiy bilish imkoniyatlari va zaruriyati borligiga ishontirsa, mantiq kabi dialektika mana shu muvofiqlikka erishishni ta'minlaydi. U rivojlanib borayotgan ob'ektning mutassil ravishda o'zgarayotgan mohiyatini mumkin qadar to'laroq, aniqroq aks ettiradigan vositalarni ishlab chiqadi.

Dialektika nazariy tabiiyotshunoslikning turli sohalarida bilish faoliyatining umumiy orientirlarini chizib bersa, tabiiyotshunoslik fanlari metodolgiyasining eng yangi yutuqlari bilan birga bilishning printsiplari tamoyillarini umumlashtirgan holda falsafaning umum uslubiy funtsiyasiga amaliy ahamiyat baxsh etadi.

Shunday qilib, biz falsafaning metodomantiqiyl funktsiyalarini qarab chiqdik, biroq falsafaning uslubiy imkoniyatlari yuqorida bayon qilinganlardanda kengroq va chuqurroq dir.

Falsafa ijtimoiy hayotda nihoyatda muhim o'rinni egallaydi. Bunda uning nafaqat fan ekanligi, balki gumanitar bilim, san'at, madaniyat, mafkura ekanligi ham alohida ahamiyatga molikdir.

Ma'lumki, gumanitar fanlar inson, uning hayoti, tarixi, mavjudligi, ichki dunyosi va shular bilan bog'liq bo'lgan talay muammolarni o'rganadi. Falsafada esa ushbu muammolar bir-biri bilan uzviyi bog'langan umumlashgan holda ko'rib chiqiladi. Shu jihatdan inson falsafasi, qadriyatlar falsafasi, jamiyat falsafasi uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Insonning o'zini-o'zi bilishi, baholashida falsafa, falsafiy dunyoqarash madaniyatining o'rni va roli benihoyadir.

Falsafaning mafkura va milliy g'oya bilan uzviy bog'liqligi esa nihoyatda kengg'amrovli masalalardan biri hisoblanadi. Albatta, falsafa har qanday mafkuraning nazariy asosi hisoblanadi. Albatta bunyodkor, gumanistik g'oyalar hamisha falsafani yanada sog'lomlashtirishga va uning ijtimoiy mohiyatini yanada boyitishda katta rol o'ynagan. Ayni vaqtda asrlar davomida yaratilgan milliy

falsafamiz hamda jahon falsafasining ilg'or yutuqlari milliy istiqlol g'oyasining nazariy zaminlaridan biri rolini o'yaydi.

Milliy g'oyani turli mafkuralardan yuqori turuvchi, bar-cha mafkuradagi kishilarni birlashtiruvchi hodisa sifatida baholash buyicha bizningcha: birinchidan, hamma vaqt ham milliy g'oya barcha mafkuradagi kishilarni birlashira olmaydi. Ikkinchidan, muayyan jamiyatdagi barcha kishilarii birlashtiruvchi har qanday g'oya ham milliy g'oya bo'lolmaydi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. Falsafa tushunchasi qanday ma'noalarni ifodalaydi?
2. Falsafaning predmeti nimadan iborat?
3. Falsafaning milliy va umuminsoniy tamoyillari deganda nimalar tushuniladi?
4. Mutaqillik tafakkuri va tafakkur mustaqilligi haqida gapirib bering.
5. "Dunyoqarash" tushunchasi nimani ifodalaydi?
6. Dunyoqarashning qanday tarixiy turlari bor?
7. Falsafiy dunyoqarash va uning vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda yangicha dunyoqarashni shakllantirish haqida gapirib bering.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston 1992.
2. Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o'z tanlagan yo'lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning O'zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi) Xalq so'zi 2004 yil 30 mart;
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. -T.: O'zbekiston 1997.
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O'zbekiston, 1998.
5. Falsafa. o'quv qo'llanma. –T., Sharq 1999.
6. Falsafa. Ma'ruzalar matni. –T., 2000.
7. Falsafa. Ma'ruzalar matni. –T., Moliya instituti 2000.
8. N.Mamatov, O.Jumaev Fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim omili. Toshkent 2004y.
9. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
- 10.S.Yo'ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

## **2-MAVZU. QADIMGI SHARQ VA MARKAZIY OSIYO, QADIMGI YUNON VA RIM XALQLARI FALSAFASI**

**Reja:**

- 1. Falsafiy tafakkurning qadimiy ildizlari. Misr va Bobilda falsafiy fikrlar.**
- 2. Qadimgi Hindistonda paydo bo'lgan falsafiy ta'limotlar va maktablar.**
- 3. Qadimgi Xitoyda yuzaga kelgan falsafiy yo'nalishlar.**
- 4. Qadimgi Turon xalqlariga oid diniy falsafiy ta'limotlar.**
- 5. Yunon faylasuflarining borliq va uni bilish haqidagi ta'limotlari.**
- 6. Yunon falsafasining dialektik xarakteri. Platon va Aristotel falsafasi.**
- 7. Rim falsafasi.**

1. Oddiy tasavvurga ko'ra Quyosh Sharqdan chiqqani kabi, falsafiy qarashlarning paydo bo'lishi ham qadimiy Sharq xalqlari taffakuriga borib taqaladi.

Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va madaniyati, ularning afsonaviy, diniy, axloqiy, siyosiy va huquqiy badiiy-estetik va falsafiy tasavvur va qarashlari, ularga xos mazmunlar haqidagi bilimlar antiq davr mualliflari asarlarida, arxiologik manba'larda, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari: afsonalar, dostonlar va rivoyatlarda aks etgan.

Dastlabki falsafiy tasavvurlar va qarashlar Sharqning eng qadimgi mamlakatlaridan bo'lgan Bobilda eramizdan oldin 4-ming yillikning boshlarida paydo bo'ladi. Shu davrlardayoq odamlarning dunyoda ro'y berib turadigan xilma-xil hodisa va voqealarga bo'lgan munosabatlarlari va qiziqishlarini, garchi hali sodda va yuzaki, ibtidoiy shaklda bo'lsa-da, o'zida aks ettirgan falsafiy qarashlar paydo bo'la boshlagan. Buni biz qadimgi Bobil adabiyotining ko'zga kuringan mashhur asarlaridan biri «Gelgamish haqida doston»da, undagi tuproq, suv, havo, issiqlik va sovuqlikning inson hayoti va tirikchiligining abadiy manbai ekanligi, Gelgamishning obihayot qidirib, boshidan kechirgan sarguzashtlari, chekkan azob-uqibatlari, odamlarning tabiiy qonunlar asosida yashashlari zarurligi, kishilarning hayot va o'lim sirlarini bilishga azaldan intilib kelishlari haqida qilingan hikoyalardan yaqqol bilib olamiz.

«Adona haqida doston»da esa insoniyat hayotida yaxshilik bilan emonlik, ezgulik bilan yovuzlik boylik bilan qashshoqlik bir-biriga tubdan qarama-qarshi va zid ekanligi haqidagi fikrlar ifodalangan. «Jafokash avliyo haqida doston», «Xo'jayinning quli bilan suhbati» asarlarda biz buning yaqqol guvohi bo'lamiz. Eslab o'tilgan birinchi dostonda baxt va baxtsizlik,adolat va adolatsizlik haqida, ularning sabablari va bartaraf etish usulari hamda yo'llari xususida dastlabki falsafiy tasavvurlar va g'oyalar bayon etilgan.

Jamiyat ishlab chiqarishio'rtaqa qo'ygan talablar, inson amaliy faoliyati tug'dirgan ehtiyojlar asosida Bobilda tabiat hodisalari haqida, ularning mazmunini tushunib olib, ulardan turmushda foydalanish zarurati, mahsulot va narsalarning miqdorini aniqlash, og'irligi va uzunligini o'lchash, ishchi kuchlarning samarasini

belgilash, binolar hajmini topish dalalarning er satxini hisoblab chiqish zarurati dastlabki arifmetik va geometrik bilimlarning paydo bo'lishini taqozo etadi. Bu narsa o'sha davrlardayoq taqvimning paydo bo'lishiga olib kelgan va odamlardan astronomiya sohasida ma'lum bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu asosda Bobilliklar quyosh soati, Quyosh ko'rsatgichi va uning 12 bo'lakka bo'linishini azaldan bilihsan. Antik davr ma'lumotlariga ko'ra, Bobilda matematika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda, tibbiyat, tarix, geografiya, filologiya, musiqa, tasviriy san'at, astrologiya kabi bilim sohalari asta-sekin kurtak yoza boshlagan.

Qadimgi Misr ham jahon madaniyatining eng qadimgi o'choqlaridan biri bo'lib, unda ham ilk madaniy yodgorliklar eramizdan avvalgi to'rt ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. Bobil madaniyati kabi qadimgi Misr madaniy yodgorliklarida ham xalq donishmandligining hamma turlarida o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy hayot, tabiat hodisalariga munosabat, kishilarning ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy, huquqiy, ularning sintezi bo'lган falsafiy qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi misrliklar suvni odamga oziq-ovqat etishtiruvchi, inson uchun dastlabki ulug' ne'mat, deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning hayotning asosi bo'lib kuringan. Ular Nil daryosini ilohiy bir mo'jiza deb, tabiatdagi o'simlik va daraxtlarga topinishganlar. Qadimgi misrliklar astronomiya sohasida ba'zi bilimlarga ega bo'lib, sayyoralarni yulduzlardan ajrata bilganlar, alohida yulduzlar xaritasini va har xil taqvimlar tuzganlar.

Qadimgi Misrda tibbiyat juda rivojlangan, Misrliklar kasalliklarning juda ko'p turlaridan xabardor bo'lishib, tashhis qo'yish sohasida katta tajribalarni qo'lga kiritganlar.

Qadimgi misrliklar, ayniqsa qurilish, arxitekturaga, san'atning juda ko'p turlariga, hisob-kitob, o'lchami va chizmachilik, matematik va astronomik bilimlarga egaligi jihatdan boshqalardan tubdan farq qilishgan. Haqiqiy ma'noda ular geometriya va astronomiyaga oid bilimlarning ilk yaratuvchilari bo'lishgan. Misr ehromlari-piramidalar buning rad qilib bo'lmas hayotiy guvohlaridir.

Umuman, Qadimgi Bobil va Misr xalqlarining madaniyati, urf odatlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, badiiy, ahloqiy va falsafiy qarashlari butun qadimi Sharq xalqlari kabi diniy qarashlar bilan sug'orilgan bo'lgan. Ularning bu qarashlari nasldan-naslga, avlodlardan-avlodlarga o'tib, Sharqdagi boshqa ko'pchilik xalqlar madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Buni biz qadimiy Hindistonning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

2. Qadimgi Hindiston o'zining boy tarixi va madaniyatiga, diniy va falsafiy ma'lumotlariga ega bo'lgan. Hindistonda eramizdan 3 ming yil muqaddam erni sun'iy sug'orish, dehqonchilik taraqqiy etgan, anhorlar qazilgan, kulolchilik, yog'ochsozlik, to'qimachilik, zargarlik, hunarmandchilik, pishiq g'ishtlardan ko'p

qavvatli binolar qurish, jun va zig'ir tolasidan matolar tayyorlash, mis va temir, qalay va qo'rg'oshindan quollar-aslohalalar yasash taraqqiy etgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida yozishicha, eramizning birinchi asrlaridayoq Hindistonda tibbiyat, riyoziyot, ilmi nujum, kimyo, musiqa, poeziya, tarix, san'at va falsafaga oid bilimlar keng rivojlangan bo'lган. Ayniqsa, noyob tabiatga, sahiy zaminga, ajoyib nabotot va hayvonot olamiga boy bo'lган Qadimgi Hindistonda madaniyat va san'atga oid, diniy, falsafiy qarashlar keng rivojlangan. Bunga bizgacha etib kelgan «Ramayana», «Mahabharat» («Maxayana»), «Kamila va Dimna» kabi buyuk asarlar to'liq guvohlik beradi. Bu buyuk nafosat va betimsol hikmat hazinasi bo'lган asarlarda hind xalqining qadimiy urf-odatlari, an'analari, odob-axloqi, madaniyati, dini va tarixi, milliy qadriyatlar bilan birga, ularning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy badiiy va falsafiy qarashlari yorqin ifodasini topgan.

Bulardan tashqari, qadimiy Hindistonda falsafiy fikrlar to'rtta Vedalarda ham ifodalangan. Ular: Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atxarvavedalardir. Bu vedalardan eng muhimi Rigveda bo'lib, u eramizdan 1500 yil oldin paydo bo'lган. Bu Vedalarda diniy qarashlar bilan birga olim, borliq fazo va vaqt inson, inson hayotining ruhiy va tabiiy asoslari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, ilohiy kuchlar, ularning faoliyatlar haqida muhim falsafiy fikrlar va qarashlar ilgari suriladi. Keyinchalik bu vedalarni turlicha tushunish asosida ularni turlicha talqin etuvchi falsafiy maktablar vujudga keladi. Bu maktablar o'z g'oyaviy yo'nalishlariga ko'ra ikki oqimni tashkil qilishadi. Birinchi oqim tabiiy materialistik yo'nalishda bo'lib, uni buddizm, hinduizm, jaynizm, lokayata va chorvaka maktablari tashkil qiladi.

Ikkinci oqim esa diniy idealistik yo'nalishda bo'lib, unga vedanta, mimansa, sankxiya, yoge, n'yaya, vaysheshika, maktablari kiradi.

Bu yuqorida maktablardan lokayata va chorvaka maktablari xaqiqiy real dunyo, deb insonlar yashaydigan dunyoni tushunadilar. Ularning tarafdarlari dunyoni, tabiat xodisalarini, ular qanday bo'lishsa, xuddi shunday tushunmoq va tushuntirmoq kerak, degan talabni ilgari suradilar. Ular nuqtai nazaricha, butun borliq: olov, suv, havo, tuproq ning yig'indisidan iborat bo'lib, inson ham ana shu to'rt unsur birikmasidan tashkil topgan. Chorvakalar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning asosida to'rt moddiy elementlar birligi yotadi, deb hisoblaydilar. Ular: «Olovni kim issiq qildi, suvni kim sovuq qildi?» va kabi savollar berib, «Ularning hammasini shu hodisalarning o'zidan qidirish kerak», - deb javob qaraytaradilar.

Lokayata maktabi vakillari, hayotning murakkab shakllari uning oddiy shakllarining uzoq davom etgan evolyutsiyasi tufayli vujudga keladi, deyishadi. Ularning fikricha, inson bir marta yashaydi. Shuning uchun u baxtli hayot kechirishga, o'zining oqilona ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga intilishi kerak. Bunday falsafiy qarashlar qadimgi Xitoyda ham vujudga keladi.

3. Qadimgi Hindiston kabi, qadimgi Xitoy ham Sharqda yirik o'choqlardan biri bo'lган. Eramizdan 2000 (ming) yil ilgari bu erda ham dehqonchilik keng

taraqqiy etib, sug'orish ishlari ancha rivojlanadi. Bu erda ham metaldan, xususan, temirdan mehnat qurollari ishlab chiqarish avj oladi. Qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, hunarmandchilik, savdo-sotiqning ravnaqi turli bilmlarning rivojlanishi uchun keng yul ochadi. Natijada, qadimgi Xitoyda, astronomiya, biologiya, tibbiyot, san'at va madaniyat sohalari katta yutuqlarga erishadi. Bu erda xam dastlabki falsafiy ta'limotlar paydo bo'lib, ularda dunyo abadiiy, u 5 unsur -olov, suv, er, daraxt va metalldan tashkil tapgan, degan qarashlar ilgari suriladi.

Eramizdan oldingi VII-VI asrlarga kelib, Xitoyda daotsizm falsafiy oqim paydo buladi. Uning asoschisi Lao-Tszi, birinchi Xitoy faylasufidir. U dunyo moddiy, u tabiiy qonunlar asosida to'xtovsiz harakat va o'zgarishda bo'ladi, deydi. Lao-Tszi o'zi bu haqda shunday yozadi: «Ulug' dao hamma yoqqa qarab oqadi. U o'ngga ham, so'ngra ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudod tug'iladi, ular hamisha o'zgarishda bo'lib, bir joyda to'xtab qolmaydi».

Daotsizm falsafiy ta'limotiga ko'ra dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog'liqligi asosida, bir-biriga zid holda aylanib, o'tib turadi. Tabiatdagi go'zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo'g'lik, uzunlik va qisqalik bir-biriga o'tadi, bir-birini tug'diradi, bir-biriga bog'liq. Tabiatdagi barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi.

«In» va «Yan» qarama-qarshi kuchlar va tabiatning «5 unsuri» xaqidagi ta'limotni Tszou Yan ishlab chiqadi.

Qadimgi Xitoy falsafiy qarashlarida Konfutsiyning (Er.avval 551-479 yillar) axloqiy ta'limoti ham muhim o'rinn tutgan. U o'zinig falsafiy qarashlarida kishilarni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha, odamlar o'z tabiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshashdirlar, faqat ular o'z tarbiyalariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladilar.

Konfutsiyning ta'limotida Li degan tushuncha alohida ahamiyatga ega. Bu tushuncha «Tartib», «Marom» degan ma'nolarni anglatadi. «Li» bo'lmasa, jamiyatda tartib bo'lmaydi, demak, jamiyat ravnaq topmaydi. Shuning uchun jamiyatla doimo tartib bo'lishi zarur», – deydi u. Xullas, Qadimgi Xitoydagagi falsafiy ta'limotlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu erda ham materialistik va idealistik tendentsiyadagi falsafiy oqimlarning guvohi bo'lamiz. Masalan, ko'pchilik qadimgi Xitoy faylasuflari tushuncha, predmetning nomi bilan reallikdagi predmetning o'zaro munosabati to'g'risidagi muammoni hal qilishga qiziqqanlar. Mo Di (Mo-Tszi), Syun-tszi va boshqalar tushunchalar («nomlar») ob'ektiv hodisalar va narsalarning inson ongidagi in'ikoslari, desalar, Gunsun Lui tushunchalarni mutlaq mohiyat, deb qarab, ularni borliqdan uzib qo'yadilar. Umuman, Konfutsiy va Myan-Tszining axloqiy siyosiy nazariyalari, Xan Fey-tszi va «qonunchilar» maktablari vakillarining davlat va huquq to'g'risidagi fikrlari haqida ham ma'lum mulohazalar aytish mumkin. Bular Qadimgi Xitoy falsafasining «oltin davri»ni tashkil qiladi.

Eramizning 1 chi asrida Xitoyga buddizm dinii falsafiy ta’limoti kirib keladi va tarqala boshlaydi. Nihoyat, buddizm Xitoyda daosizm va konfutsiychilik bilan birlikda Xitoy xalqi falsafiy tafakkurining etakchi ko’rinishlariga aylanadi.

4. Markaziy Osiyo- Qadimiy Turon jahon ilf-fani, madaniyati va ma’naviyati rivojiga ulkan hissa qo’shgan mintaqalardan biri bo’lgan. Hozir O’zbekiston, deb ataluvchi bu hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki butun jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo’lganini bugun jahon tan olmoqda. So’nggi tarixiy va arxiologik tadqiqotlar bu muqaddas zaminda odamzodning ilk ajdodlari faoliyat ko’rsatganliklaridan dalolat beradi. Shu jihatdan Sharq Markaziy Osiyo insoniyat ilk paydo bo’lgan mintaqalar qatoriga kiradi.

Miloddan avvalgi V-III ming yillarda mintaqamizning markaziy va shimoliy rayonlarida qishloq xo’jaligi, chorvachilik bilan birga, hunarmandchilik, konchilik, mis, oltin va temir eritish, metallardan har xil mehnat va xarbiy quollar yashash, to’quvchilik, binokorlik, zargarlik sohalari taraqqiy etgan. Bu hududda Sug’diyona, Bag’triya, Xorazm kabi dastlabki shahar-davlatlar paydo bo’lgan. Markaziy Osiyo xalqlarining eng buyuk madaniy muvoffaqiyatlaridan biri – bu hududda yozuvning ihtiyo etilganligidir. Bu erda yozuvning tarixiy eng qadimgi zamonalarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 1 mingichi yillikning boshlaridayoq oramiy yozuvi, uning negizida xorazm yozuvi, «Avesto yozuvi, sug’d yozuvi, qushon yozuvi, nihoyat, yunon yozuvi, yangi eraning boshlaridan o’rxun-enason yozuvlari, uyqur yozuvlari vujudga keladi. o’zuvning ihtiyo qilinishi insoniyat ma’naviyat imkoniyatining kengayshiga, ilm-fan va bilimlarning yanada boyib borishiga, kishilar falsafiy tafakkurining rivojlanishiga olib keladi».

Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o’zbeklarning tarixiy ildizlari, madaniyati, ijtimoiy, siyosiy, diniy-axloqiy va falsafiy qarashlari shakllanishining ilk davrlari ana shu qadim zamonalarga borib taqaladi.

Bizning Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy avlod-ajdodlarimiz falsafiy fikri haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo’lishimizda qadimiy xalq og’zaki ijodiga oid afsona va rivoyatlar, qadimgi Hind, Xitoy va Yunon tarixchilarining asarlari, «Avesto», «Bexistun», «Bundaxshin» va shular kabi yozma yodgorliklar, jumladan, Turk O’rxun-enasoy runiy matnlari muhim manba’lar sifatida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular ichida «Avesto», Sharq, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ma’naviyat madaniyat, xususan, falsafiy qarashlarini o’rganish uchun bebaho manba’dir. Bu asar bizga qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ilk tabiiy-ilmiy tasavurlari, ijtimoiy-siyosiy, diniy va falsafiy fikrlarining shakllanishini aniqlash uchun juda boy manba’ bo’lib xizmat qiladi. Biz «Avesto»ga murojaat qilganimizda, undagi diniy mifologik va falsafiy jihatlarni bir-biridan farqlashimiz lozim. Chunki unda juda ko’p masalalar insoniy munosabatlar asosida yoritilib, undagi asosiy g’oyalar ilohiy kuchlar-xudolar xohish-irodasini bajo keltiruvchi kuchlar qiyofasida namoyon bo’ladi.

«Avesto», tadqiqotchilarning yozishicha, 21 kitobdan iborat bo’lib uning 7 kitobi dunyo va inson zotining o’tmishi haqida, 7 kitobi inson ahloqi, uning

huquqlari haqida va nihoyat, 7 kitobi tibbiyot, ilmiy-hay'at hamda aniq fanlarga oid bilimlar haqida bo'lgan. Bu asar mazmunini tashkil etgan diniy-falsafiy g'oyalar miloddan ilgarigi bir qancha asrlar davomida shakllanib, to'planib, rivojlantirilib borilgan. Nihoyat, miloddan ilgari VI-V asrlarda Zardusht tomonidan tartib berilib, kitob holiga keltirilgan. Bu asar zardushtiylik dinniy-fasafiy ta'limotining muqaddas kitobi sifatida o'zida ajdodlarimizning tabiat, borliq, olam, jamiyat, inson, uning hayoti, ahloqi, huquqlari, burchi kabi masalalar yuzasidan dastlabki diniy falsafiy qarashlarini ifodalaydi.

Afsuski, bu kitobning to'rtdan bir qismigina bizgacha etib kelgan, xolos. Hozir mavjud «Avesto»: «Gotlar», «Yashta» (yoki «Yasna») va «Videvdat» qismlardan iborat bo'lib, ulardan «Gotlar» eng qadimgi, deb hisoblanadi. Qolgan qismlari esa sosoniylar davrida qayta tiklangan bo'lib, unga sosoniylar davlati manfaatlari asosida taxririy o'zgarishlar kiritilgan. Shu sababli ko'pchilik tadqiqotchilar «Avesto»ning falsafiy g'oyalarini tahlil qilishni uning «Gotlar» qismidagi zardushtiylik diniy-falsafiy ta'limotining insonga, insonni jamiyatdagi o'rni va roliga munosabatini ko'rsatishdan boshlaydilar.

Zardushtiylik diniy-falsafiy ta'limotiga ko'ra, olamda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari bo'lib, ular bir-birlariga qarshi kurash olib boradilar. Yaxshilik kuchlariga xudo Ahura Mazda, yomonlik kuchlariga xudo Angra Manyu boshchilik qilishadi. Insonning hayoti, uning taqdiri, baxti va baxtsizligi shu ikki kuch kurashi bilan bog'liq holda ko'rsatiladi. Bunda inson bu faoliyatning sub'ekti sifatida emas, balki xudolar ta'sir ko'rsatadigan ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Asarda kishilar o'z amaliy ishlari va axloqiy fazilatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ular yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko'maklashishlari lozim, aks holda, yomonlik tantana qilib, ular ababul-abad azob-uqubatlarda yashashi mumkinligi aytiladi. Bunda kishilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari va qarashlari ularning amaliy faoliyati bilan bog'langan holda ko'rsatilib, ular kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi kuchlar sifatida ifodalanadi. Masalan, asarda shunday deyiladi: «Don ekkan kishi taqvadorlik uruqini ekadi. U (Ahura) Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, u (o'z) iymonini oziqlantiradi». «Ekin ekish, demak, erdag'i yovuzlikni yo'qotishdir, chunki don ekilganda, devlarni ter bosadi, devlar tegirmonda unga aylantirganda, devlar gangib qoladi, un tegirmondan chiqqanda, devlar sarosimaga tusha boshlaydi, non paydo bo'lgan paytda, devlar qo'rqqanlaridan zo'r berib, dod solib qochadilar».

«Avesto»da insoniyat tarixi haqida ham fikr yuritilib, unda aytishicha, birinchi paydo bo'lgan odam Ilmadir. Boshqa odamlar keyinchalik undan tarqalgan. Ilma yashagan davr insoniyatning oltin davri, deb tasvirlanadi. Bu davrda odamlar o'lmaydilar, ularga abadiy bahor yaratilgan bo'ladi, ular baxtli va farovon yashaydilar. Biroq shunday bir paytda odamlar taqilangan mol go'shtini eb, gunoh qilib qo'yishadi. Bundan g'azabi kelgan Angra man'yu («Axriman») xudosi ularga qor va sovuqni yuboradi. Ilma shunda uy qurib, odamlarni va bir juftdan hayvonlarni saqlab qoladi. Shundan boshlab, insoniyat tarixining birinchi

davri oltin davri tugab, ikkinchi-yaxshilik va yomonlikning kurash davri boshlanadi. Bu davrda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi keskin kurashlar so'nggida xudo Ahura Mazda xudo Axriman ustidan g'olib chiqadi va baxtli hayot sultanati qaror topadi. Bu insoniyat tarixining uchinchi davri bo'lib, insoniyatning kelajagi davridir. Bu davrda kishilarning baxt-saodat,adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlari ushaladi. Bu davrda oldin o'lganlar tiriladi, gunohkorlar jazolanadi. Jamiyatda mehnatsevarlik, adolat, halollik, poklik, yaxshilik asossii o'rinni zgalaydi.

«Avesto»da quyidagi uch jihat insonning insoniyligini ta'minlovchi asossiy fazilatlar ekanligi aytildi. Bular: 1). Ezgu fikr; 2) Ezgu suz; 3) Ezgu ish (amal)dir. Mana shu fazilatlarga ega bulgan inson oliy haqiqatga musharraf bo'ladi. Bularga erishishning asosiy vositasi mehnat qilish, o'rganish, izlash, o'z ustida tinmay ishlashdir. Xullas, «Avesto»da ilgari surilgan diniy-falsafiy ta'limat, zardushtiylik g'oyalari keyingi davrlar Sharq va Evropa diniy-falsafiy ta'limotlarining shakilanishi va paydo bo'lishida juda katta o'rin tutgan va rol o'ynagan. Buni bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar adolat yuzasidan holislik bilan qayd qilishmoqda. Buni bizning hududimizda zardushtiylik ta'limoti ta'sirida undan keyin paydo bo'lган moniylik, mazdakiylik va shu kabi ta'limotlarida ham ko'rish mumkin. Biz Markaziy Osiyo qadimiylar xalqlarining falsafiy tafakkuri taraqqiyotini o'rganish uchun «Avesto»dan keyingi manixeychilik bilan tanishishda buning yaqqa guvohi bo'lamiz, Monixeychilik yoki moniylik ta'limoti eramizning 3 asrida shimoliy Eronda vujudga keladi. Uning asoschisi Moniydir (216-276 yilar). Moniychilik, tadqiqotchilarining yozishicha, zardushtiylik va xristianlik hamda buddaviylik ta'limotlari ta'siri asosida Eron shohlaridan sosoziylar humronligi davrida shakllangandir.

Bu ta'limotga ko'ra, dunyo nur(ziyo) va zulmatning abadiy kurash maydonidir. Dunyoda insoning vazifasi - shu dunyodagi nur(ziyo)dan bahramand bo'lib, zulmat (yovuzlik, yomonlik)ga qarshi kurash olib borish.

Moniy o'z ta'limotida jamiyatdagi kishilarni ikki toifaga bo'ladi: 1-toifa-mumtoz zodagonlar; 2-toifa-mehnatkashlar ommasi va savdogarlardir. U dunyonni ham ikki dunyoga ajratadi: 1- dunyo-bu odamlar real yashaydigan dunyo bo'lib, unda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik hukm suradi. 2-dunyo-bu «Ziyo dunyosi»(«Nur dunyosi») «Ziyo dunyosi» da inson kamolatga erishadi. «Ziyo dunyosi» barcha narsalarni yaratgan, insonni ham yaratadi, shu sababli kishi zulmatdan holi o'lishi, o'z istagicha va o'z xohish irodasi bilan yashashga harakat qilishi lozim.

Moniy ta'limotiga ko'ra, inson soflikka, musaffolikka, «gunohlardan holiqlik»ka harakat qilishi zarur. U o'z muridlari va shogirdlarini dunyoviy ishlardan bo'yin tovlamaslikni, duyoda ko'p narsalarga haddan tashqari intilmasliklarini, o'rtachalikka; isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni, mo'tadil hayot kechirishga da'vat qiladi. Moniy shunday yozadi: «o'limdan keyin hech kimsaga ro'zg'or asboblari bilan hovli ham, uy ham kerak bo'lmaydi». «Men o'z umrim

davomida ko'p hokimlarni ko'rdim, ular dunyoda ahloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo pirovardida alamlarga va tubanlikka duchor bo'ldilar».

Moniyning ko'pchilik qarashlari o'z davri feodal zodagonlariga yoqmagan, ularni qo'rquvga solgan. Ular Moniy g'oyalarini tenglikni ilgari suruvchi, barcha mol-mulkni zadagonlar va kambag'allar orasida teng va baravar taqsimlashga da'vat, deb tushunib, uning o'zini qatl qilishib, uning tarafdarlarini esa quvg'in qilishadi.

Shunday qilib, moniy ta'limotida diniy-axloqiy qarashlar bilan bir qatorda, falsafiy qarashlar:adolat, ozodlik, axloqiy kamolat haqida o'z davridagi xalq ommasining o'y-fikrlari, orzu-umidlari o'z ifodasini topgandir.

Markazi Osiyo xalqlari qadimiylarsini falsafiy qarashlarini o'rganishda eramizning 5-asri oxiri va 6-asr boshlarida Eronda zardushtiylik ta'limotining yangi ko'rinishi sifatida paydo bo'lib, so'ng markaziy Osiyo, Kavkaz va Shimoliy Hindistonda keng yoyilgan mazdakizm yoki mazdakiylik diniy-falsafiy ta'limoti bilan tanishish ham muhim o'rin tutadi.

Mazdakiylik ta'limoti, aslida, moniylik diniy-falsafiy ta'limotni to'ldiruvchi diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, uning ildizlari zardushtiylikka borib taqaladi.

Bu ta'limot Mazdak (470-529 yillar) nomi bilan bog'liq bo'lib, u shimoliy Eronning Nishapur shahrida zodagon oilasida tug'iladi. Mazdan dastlab zardushtiylik dini otashgohlaridan birida kohin bo'lib, keyinchalik butun Eron bo'yicha bosh kohin vazifasida ishlaydi. U bunda zardushtiylikka asoslanib o'zining yangi ta'limotini ishlab chiqadi. Mazdakiylik ta'limotiga ko'ra, dunyoda bo'ladigan hodisalar va voqealar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik va yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong'ulik manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash ezgulik (yaxshilik)ning, yorug'likning qorong'ulik (johillik) ustidan muqarrar g'alabasi bilan tugallanadi.

Shu bilan birga, Mazdakiylik jamiyatdagi ijtimoiy da'vat etgan Mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida ham xizmat qiladi.

Mazdakiylik ta'limotiga ko'ra, jamiyatda ijtimoiy notenglik yuzaga kelsa, yovuzlik va zulmat hukmronlik qiladi. Bu esa kishilar o'rtasida xasad, g'arazgo'ylik, ziqlalik, o'qirlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman baxtsizlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli bu illatlarni jamiyatdan bartaraf etish uchun shu notenglikni paydo qiluvchi asoslarning o'zini yo'qotish, zarur, deb hisoblaydi.

Mazdakning aytishicha, xudo kishilarga o'zaro teng taqsimlab olsin, deb, noz-ne'matlarni yaratgan. Biroq, ba'zi xudbin kishilar o'z manfaatini ko'proq o'ylab ish qilishgani uchun bu noz-ne'matlani taqsimlashdaadolat buzilgan. Shu asosda ba'zilar mol-mulkka ega badavlat bo'lishib, boshqalar kambag'al bo'lib qolishgan. Shu bois, badavlat kishilardan mol-mulkning bir qimini tortib olib, uni kambag'allarga taqsimlab berish adolatli ish bo'ladi, chunki kambag'allar ham mol-mulkka ega bo'lishlari zarur.

Mazdakning bu ta'limotini oddiy xalq ommali keng qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli u ko'p joylarga juda tez yoyiladi. Bu davrda ko'pchilik joylarda dehqon jamoalari va shahar mehnatkashlari ahvoli og'irligi tufayli mazdakiylikning bu g'oyalari ular manfaatdorlariga mos bo'lib tushadi. Mazdakiylikning bu g'oyalari Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo xalq ommasi qo'zg'ololarining g'oyaviy bayrog'i bo'lib xizmat qiladi. Qsha davr feudal zodagonlar mazdakiylik ta'limotining feudal jamiyatni negizlariga putur etkaza boshlaganligini ko'rishib, mazdakiylik ta'limoti tarafdarlarini shafqatsiz jazolaydilar. Mazdakni esa sosoniylar davlatining podshosi Anushervon tomonidan 529 yili qatl qilinadi. Umuman olganda, mazdakiylik moyillikdan farq qilib, bu ta'limot faqat falsafiy qarashlar majmuasi bo'lib qolmay, balki amaliy xarakterga ham ega bo'lgan, o'z g'oyalalarini amalga oshirishga qaratilgan ta'limotdir. Bu ta'limotning hur fikrlilik g'oyalari o'zidan keyin Sharq mamlakatlarida, Markaziy Osiyoda, hatto G'arb mamlakatlarida ham yuzaga kelgan ozodlik harakatlari bilan bog'liq falsafiy oqimlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

4. Antik davr Yunon falsafasi qadimiyligi Sharq – Bobil va Misr, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoyda paydo bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlar ta'sirida, Yunonistonda yuksak rivojlangan quldordik jamiyatining tarixiy, iqtisodiy siyosiy va madaniy-ma'naviy shart-sharoitlar asosida vujudga keldi. Meloddan ilgarigi VIII-VI asrlarda Kichik Osiyo, O'rta er dengizi qirg'oqlaridagi shaharlar bilan yaqin Sharq, Kavkaz hamda G'arb mamlakatlari xalqlari o'rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy munosabatlar juda ham avj oladi. Bu davrga kelib bu hududlarda quchlilik munosabatlari juda rivojlanadi. Natijada, quldorlik jamiyatni Yunonistonda jadallik bilan taraqqiy eta boshlaydi. Ayniqsa, bu hududdagi Mulet va Efes shaharlarida quldorlik o'zining yuqori bosqichiga erishadi. Oqibatda, bu shaharlar Yunon ilm-fani va falsafasining beshinchiga aylanadi.

Milet faylasuflari o'z falsafiy qarashlarini tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan ifodalaydilar. Bu davrlarda falsafa va boshqa bilim sohalari ham bir-birlaridan ajralmagan holda bir butun shaklda «falsafa» nomi bilan atalar edi.

Ilk yunon faylasuflari Milet shahri falsafiy maktab vakillari: Fales, Anaksimanr va Anaksimenlardir. Ular o'zlarining falsafiy asarlarida kosmologizmga oid, ya'ni astronomik bilimlarga oid o'z qarashlarini ifodalab berdilar. Ulardan qadimiyligi Yunonistonda «etti donishmandning biri» hisoblanib, shuhrat qozongan Fales Bobilliklarning astronomik tassavvurlarini rivojlantirib, qadimgi yunon astronoiyasiga asos soladi. U oldindan quyosh tutilishini aytishga doir o'zining hisoblash usulini ishlab chiqadi va ta'riflab beradi. Anaksimandr esa quyosh soatini ixtero qilib, gnomon nomli asbob yasaydi va ko'k-osmon gumbazi sferasi doirasi modelini tuzadi. U birinchi bo'lib Yunonistonning geografik xaritasini chizadi.

Qadimgi Yunon falsafasining kosmologizmida Arastuning kosmos haqidagi ta'limoti ham muhim o'rinni tutadi. Arastu nazarida, olamning markazida er turadi, u sokin holatda mavjuddir. Erning atrofidagi davralarga-sayyoralar, quyosh va yulduzlar osmonda joylashgan bo'lib, ular Erni to'rt tomonidan aylanib turadi.

Arastuning ushbu nazariyasini mashhur astronom Ptopomey davom ettiradi va rivojlantiradi. Shu asosda geotsentrik (olamning markaziy Er deguvchi) nazariya qaror topadi. Astronom Gipparx esa Quyosh, Oy, sayyoralar, yulduzlar katalogiya tuzadi. Eratosfen bo'lsa, Er sharining aylanma uzunligini o'lchaydi va h.k. Lekin antik yunon kosmologiyasida geotsentrik nazariya hukmronlik qilgani holda Aristax Samosskiy Erning Quyosh hamda o'z o'qi atrofida aylanishi haqida o'z qarashlarini ishlab chiqadi.

Faylasuf Epikur esa, osmon jismlari haqida shunday deydi: «Er, u bilan aloqador yoritqichlar cheksiz olamning bir bo'lagidir, olamda bizning dunyomiz kabi dunyolar, unga o'xshash va undan farq qiluvchi dunyolar son-sanoqsiz ko'p. Quyosh, Oy va boshqa yulduzlar tizimi girdobli aylanib turgan tabiat yo shamol, yoki olov, yoki ham unisi, ham bunisining qo'shilishidan kelib chiqqan. Quyosh, Oy va boshqa yoritqichlar bizning sezishimiz darajasida yo katta, yoki kichik bo'lishi mumkin. Bu yoritqichlarning aylanishi zaruriy va qonuniy harakat tufaylidir».

Epikur shular bilan birga, Quyosh, Oy tutilishi borasida ham o'z mulohazasini bayon qilarkan, ob-havoni oldindan aytish mumkinligini, bulutlarning tashkil topishi, suvning bug'lanish-parlash oqibatida bulutlar paydo bo'lishi, ya'ni chaqmoq, yashin, tsiklon - to'fonlar, Er qimirlash, zilzila sabablari haqida genial gumonlar, taxminlar, ehtimol fikrlar bildiradi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan Demokrit bo'lsa, Quyosh va Oy yaltiroq, tekis hamda yumshoq atom zarrachalarining to'planishi, birikishidan hosil bo'lgan. Oyda tog'lar, vodiylar va jarliklar bor, deb uning qattiq jismligini e'tirof etgan. Shunday qilib, ilk yunon falsafasining kosmologizmiga yakun yasab, shuni aytsak bo'ladiki, qadimgi yunon faylasuflari ayni vaqtda tabiatshunoslar ham bo'lishgan. Ularning kosmogonik ta'limotlari keyingi davr astronomik bilimlarning rivojlanishi, hozirgi kun XX asr kosmanavtikasi uchun ilk zamin bo'lgan.

Qadimgi yunon faylasuflari borliq va uni bilish haqida ham o'z dunyoqarashlari assosida o'z ta'limotlarini yaratganlar. Ulardan milet matabining asoschisi Fales (mil. yil 624-547yy) olamning asosini suv tashkil qiladi, deb biladi. Chunki uning ko'z oldida suvning hayvonot, nabolat va insoniyat hayotida hal qiluvchi o'rni va ahamiyati gavdalanan edi. Fales dengizning kemalar, savdo-sotiq ishlari; daryolarning, masalan, Nilning dehqonchilikdagi muhim ahamiyatini ko'rар, mushohada etar, ayniqsa, yomg'irning ekin-tikin ishlari uchun hayotbahsh hislatlari uni hayratga solgan edi. Shuning uchun U hamma narsa suvdan paydo bo'ladi va hamma narsa suv shakliga aylanadi, deydi.

Anaksimandr (mil. avv. 610-546 yy) esa olamda ko'p dunyolar bor, deb taxmin qiladi. U olamdagи hamma konkret narsalarning asosida cheksiz «apeyronlar» yotadi, deydi. Anaksimandr, «apeyron» nomuayyan, konkret bo'limgan, umumiy moddadir, «apeyron» hamma konkret narsa va buyumlarning negizini tashkil qiladi, deydi. Uning bu fikri yunon falsafiy tafakkur rivojida muhim qadam bo'ladi.

Falesning do'sti, ioniyalik Anaksimen (mil. avv.588-525y.y.) bo'lsa, borliqning asosida havo yotadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, tabiatdagi hamma tabiiy hodisalar havoning quyuqlanishi yoki suyuqlanishidan hosil bo'ladi. Havoning suyuqlanishi uni o'tga, olovga; quyuqlanishi esa uni shamolga, bulutga keyin esa suvga, erga, oqibatda toshga aylantiradi.

Efesslik Geraklit (mil. avv.530-470y.y.) bo'lsa, butun olamning asosi, barcha tabiiy narsa va xodisalarning negizi – bu olovdir, deydi. Uning fikricha, barcha narsalar olovdan paydo bo'ladi va so'ngra yana olovga aylanadi. Hamma narsani o'z ichiga olgan bir butun olamni xudolardan ham, odamlardan ham hech kim yaratmagan, olam bu qonuniyatli tarzda alangalanadigan va qonuniyatli tarzda o'chadigan abadiy barhayot olovdir, u ilgari ham shunday, hozirgi ham shunday, bundan keyin ham shunday bo'ladi deydi. Geraklit olovning erga, suvga, havoga aylanishi va aksincha ta'riflab, hamma narsa harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda, deydi. U borliqni chuqur tushunishiga, tasavvur etishga, bilishga undaydi.

Samoslik Pifagor (mil. avv.571-497y.y.) bo'lsa, butun olamning asosini, dunyodagi narsa va hodisalarning negizini «son» tashkil qiladi, deydi. Uning nuqtai nazaricha, «1» umumiyl, boshlang'ich, muqaddas sondir, u barcha narsa va xodisaning asosidir.., «2» aks, salbiylik, ziddiyatlilikni ifodalaydi. «3» bu tabiat-uchlikdir, 1 va 2-ning, asos va aksning, boshlang'ich va uning qarshi tomonlarining birligidir. «4» - bu tabiatdagi to'rt element - suv, havo, olov, erdir va h.k. Xullas, Pifagor son va sonlar haqida fikr yuritib, tabiiy xodisalarning miqdoriy jihatlariga e'tiborni jalg qilib, ilmiy fikrlashga muhim hissa qo'shami. Xususan, u geometriyaga jiddiy ahamiyat berib, «nuqta»ni-«1»ga, «chiziq»ni-«2»ga, «yuza»ni-«3»ga, «jism»ni-«4»ga taqqoslab, «uch burchak»ning uch burchagi jami haqidagi teorema (ya'ni:  $a+v+s=2a$ )ni ta'riflab berdi.

Ayniqsa, Pifagorning Sharq xalqlaridan olgan «Gipotenuza kvadrati katetlar kvadratining yig'indisiga teng» degan teoremasi matematika fanining kelgusi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Lekin Pifagorning dunyoqarashi o'z asosiy yo'nalishi jihatidan Geraklit falsafiy yo'nalishiga butunlay zid edi.

Melodgacha V-IV asrlarda, xusan, V asrning 40-30 yillari davrida qadimgi Yunoniston o'zining eng gullagan davriga kiradi. Bu davrda matematika, astronomiya, arxitekturaga oid bilimlar kuchli rivojlanib, qadimgi yunon falsafasining buyuk namoyandalari etishib chiqadi. Ayni shu davrda yunon materialistik falsafiy yo'nalishining yirik vakillari Levkipp (mil. avv.500-440 y.y.) va Demokrit (mil. avv.460-370y.y) maktablari shakllanib, ravnaq topadi. Bu asrlar orasida dastlab Suqrot hamda Aflatun, sal keyinroq Arastu (mil. avv.382-322y.y)lar yashab ijod qiladi.

Levkipp qadimgi atomistik nazariyaning asoschisi sifatida olam bo'linmaydigan juda kichik mayda, ko'zga ko'rinxaymaydigan atomlar va bo'shliqdan iborat, degan qarashni ilgari suradi. U olamdagи narsa va xodisalarning hammasi ana shu zarralar - atomlarning birikuvidan paydo bo'ladi, ob'ektiv zaruriyatdan kelib chiqadi, deydi. Levkippning bu qarashlarini

rivojlantirgan, uni yuqori pog'onaga ko'targan, uning davomchisi Abderlik Demokrit edi. Demokrit «birinchi yunon entsiklopedik aql egasi» sifatida atomistik nazariyani ishlab chiqadi. Demokritning bu nazariyasiga ko'ra ham olam eng mayda atomlardan iborat, borliqning asosida atomlar va bo'shliq yotadi, atomlar esa bo'linmas zarrachalar bo'lib, bo'shliqda harakat qiladi. Ularning turli xil qo'shilishidan turli-tuman narsalar kelib chiqadi, ularning bir-birlaridan ajralishlari tufayli bor narsalar yo'q bo'ladi. Hamma abadiy son-sanoqsiz atomlar cheksiz bo'shliqdagi turli xil joylashuvidan behisob dunyolar paydo bo'lib, yo'q bo'lib turadi. Bu holat tabiiy zaruriyat asosida sodir bo'ladi. Sababsiz hech bir narcha, hech bir hodisa yo'q, hamma narsa, hamma hodisa sababli va zaruriyidir.

Demokritning bilish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. U hissiy bilishning shakli-hissiy sezishni bilishning birinchi bosqichi, deb hissiy bilishni «qorong'i bilish», deydi. Uningcha, chin bilish, haqiqatni bilish, insonning aqliy faoliyati orqali bilishi tufali yuzaga keladi. Aql bilan bilish bu eng yuqori, eng chuqur, eng to'g'ri bilishdir. deydi Demokrit. U inson bilishda, shubhasiz, hissiy va aqliy bilishni birlikda olib qaraydi.

«Donolik uch holatda: yaxshi fikrlash, yaxshi so'zlash va yaxshi ishda ko'rindi»-deb yozadi Demokrit. «Fikrlashga vaqt emas, balki tarbiya va tabiat o'rgatadi», -deydi u.

Xullas, qadimgi yunon faylasuflari: Levkipp va Demokritlarning atomistik nazariyasi keyingi davr, ayniqsa, bizning XX asrda fizika, kimyo, bioogiya kabi fanlarning ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan juda katta mavqeiga ega bo'lgan faylasuf bu Aflatundir. Aflatun (mil. avv. 427-347 y.y.) Afina oqsuyak zadoganlaridan bo'lib, avval Kratildan, so'ng Suqrotdan ta'lim oladi va mashhur faylasuf bo'lib etishadi. Aflatun o'zining ob'ektiv idealistik falsafiy tizimini ishlab chiqadi. U «Pir», «Fedon», «Teetete», «Davlat», «Parmenid», «Sofist» nomli asarlari va dialoglarida o'z dunyoqarashini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazarlarini bayon qiladi.

Aflatun falsafiy ta'limoti o'zining idealistik tizimi, bilish nazariyasi, dialektik metodi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan xarakterlanadi. U o'zining idealistik falsafiy tizimida «g'oyalar dunyo»si va «narsalar dunyosi bor, deydi. «g'oyalar dunyosi» doimiy, o'zgarmas, haqiqiy, chin dunyodir. «Narsalar dunyosi» esa o'tkinchi, vaqtincha, o'zgaruvchan dunyodir, «narsalar dunyosi» «g'oyalar dunyosi»ning xira ko'lankasi, soyasidir, deydi. Aflatunning nuqtayi nazaricha, olamning asosini ham ayni shu «g'oyalar dunyosi» tashkil qiladi. Uningcha, «g'oyalar dunyosi» butun borliqning ham mohiyatini tashkil etadi. Aflatunning bilish nazariyasi ham o'ziga xosdir. U o'z bilish nazariyasida jon va tan haqida so'zlab, jonne tandem mustaqil, alohida ruhiy, ilohiy, hech o'lmas, deb hisoblaydi. «Jonlar dunyosi» «g'oyalar dunyosi» bilan yaqin, «jonlar dunyosi» «narsalar dunyosi»ga, ya'ni insonlar taniga kelib kirgach, insonlarda bilish hosil bo'ladi, deydi. Aflatun inson bilishida insondagi sezgi, his, idrok, tuyg'u hosil

qiluvchi sezgi a'zolarining rolini inkor qilib, bilish bu jonning «eslashi», «xotirlashi», eydi.

Aflatun o'zining «Davlat» kitobida hokimiyat, uning shakllari, aholisi, tabag'alarga bo'linishi to'g'risida fikr yuritadi. U o'zining «Ideal davlat» utopiyasida jamiyatni uch tabag'aga: 1) hokimlar - faylasuflar; 2) G'arbiylar, davlat apparati hodimlari; 3) dehqonlar va hunarmandlarga bo'ladi.

Aflatun Afinada Parakda bog'ida o'z shogirdlariga dars beradi. Shu asosda Afinada uning nomi bilan bog'liq Akademiya tashkil topadi. Aflatunning idealistik falsafiy ta'limoti O'rta asr sxolastikasiga, Sharq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuriga katta ta'sir qilgan. Hozirgi zamon XX asr G'arb mamlakatlari, xususan AQShda «Aflatunga qaytish lozim!» degan ovozlar ham eshitilib, ular falsafasida o'ziga xos talqinga ega bo'lmoqda.

Qadimgi yunon falsafasining eng so'nggi buyuk namoyandasini Aflatunning shogirdi Arastudir.

Arastu (mil. avv. 384-322 y.y.) yunonistonning Stagira shahrida tug'ilib, 17 yoshida Afinaga kelib, Aflatun akademiyasiga o'qishga kiradi va unda 20 yil ta'lim oladi. U Aflatun bilan juda ko'p masalalarda munozaralar qilib, Aflatunning falsafiy ta'limotini rad qila boshlaydi. Aflatun vafotidan keyin Arastu Afinada o'z maktabini tashkil qilib, uni yunon fani va falsafasining markaziga aylantiradi. U qadimgi Yunonistonda hamma ilmlarga oid yutuqlarni egallab, ularni sistemalashtiradi, rivojlantiradi. Hozirgi zamon tabiatshunosligi, jamiyatshunosligi, mantiq fani o'zlarining dastlabki taraqqiyotini boshlanishi va ibtidosini Arastu ilmiy faoliyatidan olgan. Uning «Fizika», «Matematika», «Jontog'risida», «Kategoriyalar», «Ikkinchi Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlarida samarali ijodi-tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka, falsafaga oid qarashlari o'zining to'la ifodasini topgan.

Arastu Aflatunning «g'oyalar dunyosi» to'g'risidagi nazariyasiga qarshi chiqib, uning «g'oyalar dunyosi» «narsalar dunyosidan alohida», degan fikrini - bu aslo mumkin emas, qanday qilib narsalar boshqa, ularning mohiyati-g'oyalari alohida yashaydi? Bu aqlga to'g'ri kelmaydigan hol,-deydi Arastu. Aflatunning: «narsalar dunyosi harakatda, o'zgaruvchan va ma'lum vaqt bilan bog'liq, g'oyalar dunyosi esa, o'zgarmas, doimiy va abadiydir», -degan fikriga qarshi: «Bu qanaqasi? Original - asl o'zgarmas, uning aksi, g'oyasi o'zgaruvchan bo'lar ekan, bu mantiqqa zid qarash-ku!» deydi. Arastu Aflatunning «g'oyalar dunyosi» to'g'risidagi ta'lumotni qat'iy rad qilib, u narsalarning asli, mohiyati, substantsiyasi shu narsalarning o'zidadir, deydi va bu qarashni isbotlaydi.

Arastu o'zining «Metafizika» asarida to'rt xil sabab haqida fikr yuritadi. Ular quyidagilar: 1) moddiy sabab; 2) shakliy sabab; 3) yaratuvchi sabab; va 4) maqsad.

U bunda bu sabablarning har birini bir-bir tahlil qilib, izohlab beradi, moddiy sabab, ya'ni modda har bir narsaning materiali, har bir narsa undan hosil bo'ladi. Shakli sabab, ya'ni shakl har bir narsaga shakl ato qiladi. Masalan: «haykal shaklsiz bronzadan, idish-tavoqlar beshakl loydan farq qilishib, ular

muayyan shakl vositasidagina shu narsa qiyofasini kasb etadi. Agarda shakl bo'lmasa, bronza yoki mis, loy qanday material holida bo'lsa, shunday qolaveradi», deydi u.

Arastu bunda shaklni faol hisoblaydi, u hatto shaklni narsaning borliq ko'rinishi, borliqning ma'nosи, deydi. Arastu fikricha, agar modda va shakl «narsalar nimalardan tuzilgan?» degan savolga javob bersa, «yaratuvchi sabab nima yaratildi?»-degan savolga javo beradi. Masalan, ota-onan bolaning sababchisidir. Oxirgi sabab-bu «maqsad» bo'lib, Arastu tasavvuricha, «nima uchun? degan savolga javob bo'lib, unda tabiat xodisalarining kelib chiqishi, paydo bo'lishi ifodalanadi. Arastu bu bilan har bir ijtimoiy hodisada, har bir inson faoliyatida ma'lum maqsad borligini qayd qiladi.

Arastu falsafasidagi yana bir muhim jihat-bu uning imkoniyat va voqeylek kategoriyalarini har tomonlama tadqiq qilib ishlab chiqadi.

Arastuning tarixiy xizmati esa uning naturflsafasi va bilish nazariyasidir. U: «Aql (idrok), fikr, ong tabiat bo'lmasa, u bilan muvofiq kelmasa, demak, (ular) soxtadir», deydi. Arastu bilishda borliqni e'tirof qiladi, tabiat, moddiy olam inson ongidan, insonga bog'liq bo'lмаган holda mavjud bo'lib, ular inson sezgisi, idroki, ongi tafakkuri, bir butun bilishining manbai, deb hisoblaydi. Insonning bilishi uning ayrim predmet, buyum, hodisalarni sezishidan, so'ngra aql, tafakkur, nazariy bilimlar vositasida umumiyligini bilishga erishadi.

Arastu shunday yozadi: «..kimki xech narsani sezmasa, u hech narsani bilmaydi va hech narsani tushunmaydi; agar biror narsani bilsa, (mushohada qilsa) unda u kishi buni tasavvur sifatida ham bilib oladi, chnki tasavvurlar sezgilar demakdir. Faqat materiyasizdir, xolos».

Arastuning buyuk xizmatlaridan biri uning harakatning turlari va taraqqiyot shakllari to'g'risidagi quyidagi qarashlaridir. Uningcha borlikda olti xil harakat, olti tur umumiyl o'zgarishlar bor. Ular quyidagilar: a) mohiyatdagi o'zgarishlar: 1) paydo bo'lism; 2) yo'q bo'lism; 3) tor ma'noda o'zgarishlar; 3) bir xolatlardan boshqa xolatga o'tish - sifatiy o'zgarish; 4) ko'payish; 5) ozayish-miqdori o'zgarish; 6) joy almashushi, hol o'zgarishi.

Umuman, Arastuning bilish nazariyasi uning mantiq haqidagi mulhazalari bilan, falsafiy va mantiqiy kategoriyalarni ta'riflash bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Uning falsafiy kategoriyalarni birinchi bo'lib tasnif qilishi ham muhim ahamiyatga ega. O' kategoriyalarni o'n guruhga bo'lib tasnif qildi:

1) mohiyat; 2) miqdor; 3) sifat; 4) munosabat; 5) o'rinn; 6) vaqt; 7) holat; 8) egalik; 9) ta'sirlanish; 10) istiroblanish. Uning kategoriyalarni bunday guruhlarga ajratishi moddiy dunyoni, tabiatni, jamiyatni, inson ongi va ruhiyatini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Arastu birinchi bo'lib inson tafakkuri qonunlarini ochdi va ta'riflab berdi, u tafakkurning hamma muhim shakllarini tadqiq qildi.

Arastuning iqtisodiy nazariya sohasiga qarashlari ham e'tiborga loyiq qarashlardir. Uning ayriboshlash, qiymat shakllari, ekvivalent shakllari, mehnat, tenglik muammolariga oid tadqiqotlari jamiyat iqtisodini o'rganishning dastlabki

bayonlaridandir. Arastu tovarning pul shaklini oddiy qiymat shaklining yanada rivojlanishidan, ya’ni bir tovar qiymatining boshqa bir tovarda ifdalanishining yanada rivojlanishidan, iborat ekanligini tamomila ravshan qilib ko’rsatadi. U bunday deydi: «5 loja-falon qadar pulga» deyishdan farq qilmaydi. Teng barovarlik bo’lmasa, ayriboshlash, bo’limgani kabi, o’lchovdoshlik bo’lmasa, teng baravarlik ham bo’lmaydi»...

Hullas, Arastu o’z davrida qadimiy Yunonistonda butun ilm-fan, san’at va siyosat, sohalarida erishilgan hamma yutuqlarni falsafiy umumlashtirishga muvaffaq bo’lgan mutafakkirdir. Shuning uchun uning asarlari antik jamiyatning bilimlari jumladan, falsafiy tafakkur tarixining muhim manbai hisoblanadi. Uning kishilik tarixidagi Buyuk xizmatlari: ko’pchilik bilim sohalariga oid ilmlar bilan birga, falsafiy ta’limotining progressiv tomonlarining keyingi O’rta asrlar Sharq, Markaziy Osiyo, Hindiston va uyg’onish davri Evropa xalqlari falsafiy tafakkuriga ko’rsatgan katta ta’siridir. Biz ta’sir haqida keyingi mavzularimizda ham to’xtalib o’tamiz.

Qadim yunon falsafasining eng muhim jihatni-uning stixiyali dialektik xarakterga egaligidir. Bu dialektikaning asoschilaridan biri Geraklitdir. U o’zining olov to’g’risidagi ta’limotida barcha narsalar olovdan paydo bo’lib, so’ngra olovga qaytadi, deb, olovning erga, suvgaga, havoga aylanishini va aksini ta’riflab, dunyoni doimiy harakatda, o’zgarish jarayonida ko’radi.

Geraklit dunyodagi to’xtovsiz o’zgarishlarining asosiy sababini narsalardagi qarama-qarshiliklardan, deb biladi. Uningcha, bir xillik va har xillik, hamohanglik va nohamohanglik kabilardan birlik hosil bo’ladi, bu birlikdan hamma har hillik va birhillik tashkil topadi. Hayotda tirik va o’lik, uyg’oq va uyqudalik, yoshlik va qarilik birgadir. Narsalar doimo o’zaro bir-biriga o’tib, o’zgarib turadi. «Sovuq issiq bo’ladi, issiq sovuq bo’ladi. Xo’l quruqqa, quruq ho’lga aylanadi. Nifoqlashuvchi kelishishi, tarqaluvchi yig’ilishi (birikishi), ajoyib xilma-xil ohanglar hamohanglikni kurash jarayonida paydo qiladi». Geraklit dialektikaning qarama-qarshiliklar kurashi va birligini yaxshi taxmin qiladi. U shunday yozadi: «Baho bebaholikdan, bebaholik baholikdan, ular bir-birining o’limi bilan yashaydi va bir-birining yashashi bilan o’ladi, hayot harakat, o’zgarish bilan hayot, hamma narsa harakatda, o’zgarishdadir, bir dars suviga ikki marta cho’milish mumkin emas, chunki daryoda tinimsiz yangi-yangi suvlar og’ib turadi». «Dengiz suvi ham toza ham toza emas. U baliqlarga davo, hayotbaxsh bo’lsa, insonlarga ichish uchun yaramaydi va zararlidir». «Eng kelishgan maymun inson zotiga nisbatan eng xunukdir». «Eshakka xashak oltindan avlo turar». «Tabiat qarama-qarshilikka intiladi, lekin bir-biriga o’xshashlik emas, homoxanglik tug’diradi». Masalan, tabiat inson individlarini qarama-qarshi jinslardan, erkak va ayollardan tuzgan, demak, ularni qarama-qarshi jinslardan yaratgan, bir xil jinslardan emas. San’at ham, xuddi tabiatga o’xshash qarama-qarshiliklardan, turli hil ohangliklardan tashkil topadi. Rasm ham qora, qizil, sariq, oq bo’yoqlar birligidan paydo bo’ladi. Musiqada esa, yuqori, baland, past turli ovozlardan ohang, kuy, ashula hosil bo’lib, so’zlar tashkil topadi va h.k.».

Bu yuqorida keltirilgan fikrlardan Geraklitning stixiyali, sodda, ammo to'g'ri dialektik qarashlarini bilib olamiz.

Lekin shu bilan birga, qadimgi yunon falsafasida (mil. avv. VI-V asrlarda) eleat falsafiy maktabi va xili Ksenofan (mil. avv. 5655-473y.y.) Geraklitning yuqoridagi tabiat hodisalaridagi ko'p xillik, harakat, o'zgaruvchanlik haqidagi dialektik kontseptsiyasiga qarshi kurashib, u hech qachon paydo bo'lmasan, yo'q ham bo'lmovchi, yakkayu yagona, har doim barqaror, o'zgarmas dunyo haqida fikr bildiradi.

Eleat maktabining ikkinchi vakili Parmenid (mil. avv. VI asr oxiri V asr boshlarida yashagan) «Tabiat haqida» poemasida: «Yakkayu yagona borliq bor, bu borliq kelib ham iqmagan, yo'q ham bo'lmaydi, o'zgarmaydi ham. Borliq bor, u harakatsiz «deb» Geraklit dialektikasini qat'iy inkor qiladi.

Qadimgi yunon falsafasining yana bir vakili Empedokl (mil. avv. 490-430y.y.) o'z falsafiy qarashida narsalarni tashkil etgan elementlar va ulardan hosil bo'lgan narsalarni harakatda, deb qaragan. U bu harkatlarning sababi, 6 deb «dushmanlik» va «do'stlik», ishq-muhabbat va rashk, raqiblik kabi qarama-qarshi ko'chalardir, deydi. Empedokl o'z mushohada va kuzatishlaridan kelib chiqib, chindan ham qarama-qarshi kuchlar tortish, birikish, qo'shilish do'stlik, muhabbat, sevgi tufayli sodir bo'lsa; itarilish, ajralish, raqiblik, yomon ko'rish, nifoqlik, dushmanlik tufayli vujudga keladi, deb xulosa chiqaradi.

Bir guruh qadimgi yunon faylasuflari dialektikani o'zaro savol-javob usuli (metodi) deb tushunishadi. Shulardan biri Aflatun bo'lib, u dialektikani «savol-javob metodi», deb izohlaydi. U o'zining «Davlat» nomli asarida, bu usulni qo'llab, uni «dialektik» metod, deydi. o'z asarlarida u dialektikaga shunday ta'rif beradi: «Dialektika kishilarni savol-javob bera bilishga o'rgatadi», «uni xususan, nutqda qo'llash muhim ahamiyatga ega», -deydi. Aflatun «Adolat», «Go'zallik», «qaramlilik»ni ifodalash va tashviq etishda dialektikaning muhimligini qayd qiladi. U dialektika haqida so'zlar ekan, uni tushunchalar mantiqini ochish usuli sifatida xarakterlaydi. Aflatun o'zining «Parmenid» kitobida dialektikani tushuchalar: umumiylit, konkretlik, ayniyat va qarama-qarshilik, ko'plik va yakkalik kabilar munosablarida ishlab chiqadi. U dialektikani «g'oyalar»ga xos xususiyat, deb tushunadi.

Umuman, Aflatun o'z falsafiy sistemasida «narsalar dunyosi harakatchan, o'zgaruvchan, vaqtincha, desa ham, «g'oyalar dunyosi»ni o'zgarmas, doimiy, abadiy, deb tushungani uchun, uning dialektikasi savol-javob bera olish san'atidan iborat bo'lib qoladi.

Qadimgi yunon falsafasida Geraklitdan keyin dialektikani rivojlantirgan faylasuf – bu Arastudir. U o'zining tabiiy-ilmiy qarashlari bayon qilingan «Fizika», «Osmon haqida», «Meteologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kabi asarlarida dialektik fikrni ilgari suradi.

Arastu o'zining bu asarlarida, xususan, «Fizika»da dialektik fikr yuritib, shunday yozadi: Birinchi modda-olamning substrati, materiali - «ikki sifatli» bo'lib, bir-biriga zid-issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik xususiyatlari bilan

dunyoning asosini tashkil qiladi. Uning nazaricha, mazkur xususiyatlar qo'shilib, issiq va quruq-olovni, issiq va xo'l-nam havoni, sovuq va nam-suvni, sovuq va quruq-erni hosil qiladi. To'rt element-olov, havo, er, suv-o'zaro bir-birlari biln qo'shilib, turli jismlarni xosil qiladi, bu jismlar ham o'zaro qo'shilib, emirilib turadi. Masalan, suvning parga aylanishi yoki havoga o'tishi ham shu elementlarning turlicha qo'shilishi tufayli ro'yobga chiqadi. Har bir elementning o'z joyi bor: olov va havo yuqorida, suv va er quyida bo'ladi. Arastu bu o'rinda beshinchi eelement - efir to'g'risida ham fikr yuritadi va uni beshinchi mohiyat, deb ataydi. U Demokritning atomistik nazariyasiga qarshi chiqib, narsalarda bo'linmaydigan hech qanday materiya zarrasi yo'q, hamma zarralar bo'linaveradi, bu bepayon olamda «quruqlik va issiqlikka» bo'linish davom etaveradi; nara, jism tarkibi cheksiz», deydi. Arastuning bu qarashlari o'z davri uchun juda muhim dialektik farazlar edi. Xullas, dialektika qadimgi yunon falsafasida dunyoga, borliqqa qarash, uni tushunish usuli, savol-javob san'ati sifatida, materialistik va idealistik ko'rinishlarda stixiyali shaklda yuzaga kelganligi tarixiy fakt edi. Bu narsa qadimgi yunon falsafasining o'ziga xos yutuqlaridan biridir.

Eramizdan oldingi II-I asrlarga kelib, Yunoniston Rim imperiyasiga qaram bo'lib qoladi. Yunoniston antik darvda erishgan butun moddiy va ma'naviy boyliklarga Rim imperiyasi egalik qila boshlaydi. Bu davrga kelib yunon falsafasi ham Rim olimlari va faylasuflari tomonidan o'zlashtirila boshlanadi. Natijada, Rimda ham o'z falsafiy qarashlarini olg'a suruvchi mutaffakirlar, faylasuflar etishib chiqa boshlaydi.

Bu davrda Rimda yunon faylasuflari ishlab chiqqan falsafiy nazariyalar va ma'lumotlar Rim mutafakkirlari va faylasuflari tomonidan qayta ishlanib, ularni qayta tiklash asosida turi yo'nalishdagi falsafiy nazariyalar va ta'limotlar paydo bo'ladi.

Mana shunday bir sharoitda Rimda Demokrit va Epikur ta'limotini qayta tiriltirib, uni davom ettirgan Lukretsiy Tit Kar, platonchilar safdoshlaridan eklektik Tsitsiron, neoplatonizm oqimining asoschisi Plotinlar yashab, ijod qiladilar.

Lukretsiy Kar (mil. avv.99-55y.y.) o'zining «Narsalarning tabiatini to'g'risida» asarida Demokrit va Epikur ta'limotini tahlil qilib, tushuntirib berib, uni targ'ib qiladi. U atomistik nazariyani o'z asarida kengaytirib, yanda chuqurlashtiradi va rivojlantiradi.

Lukretsiy Karning bayoniga ko'ra, materiya abadiy, u bir holatdan ikkinchi holatga aylana boradi, hech nimadan hech nima kelib chiqmaydi, urug'dangina u yoki bu o'simlik yoki hayvon paydo bo'ladi. Biz atomlarning kichikligi tufayli ularni ko'ra olmaymiz. Dengiz qirg'oqida kuylagimiz nam bo'lib qoladi, quyoshda esa bu namlik yo'qolib, ko'ylak qurib qoladi. Biz namlikning payd bo'lishini ham, uning qarshi jarayonini ham ko'ra olmaymiz. Uzuk ko'p taqilishi tufayli yupqalashadi, yo'lak esa kishilarning qatnayverish jarayonida siyqalashib qoladi. Biz bu jarayonlarni ham sezib, his qilmaymiz. Atomlar, zarralar, epikur aytgandek, shaklga, og'irlikka, hajmga ega bo'lib, bo'shliqda doimo harakatdadir.

Narsalardan ulardagi xususiyatlarni ajratish mumkin emas. Masalan, og'irlikni toshdan, issiqlikni olovdan, namlikni suvdan ajratib bo'lmaydi. Materiyaga vaqt va makon xosdir. Materiya - mayda zarralar - atomlardan iborat, atomlar na bo'linadi, na buziladi.

Er ham boshqa dunyolar kabi tabiiy sabablarga ko'ra paydo bo'lgan. Erda ham, ko'kda ham, suvda ham, nabotot, hayvonot olamida ham hamma narsa va xodisalar moddiy sabablarga ega. Maslan, yashin, chaqmoq, yomg'ir, shabnam, shudring, quyun, shamol, qirov, qor, do'l, zilzila, yonartog' (vulg'on), magnit - bularning bari o'z moddiy sababiga ega. Tanadan ayrim jon yo'q. Hech qanday dunyoviy ruh, dunyoviy aql ham yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Jon tez harakat qiadigan atomlardan iborat bo'lib, u ikki qismli hayot, tiriklik asosi bo'lgan ruhdire; aql va ong undan tuzilgandir. Lekin jon butun tana-organzmga yoyilgan bo'lsa, rux inson ko'kragini o'rtasida joylashgan.

Xullas, Lukretsiy Kar, olam atomlar va bo'shliqdan iborat, deb biladi. U narsalarning sifatini ob'ektiv xarakterga egaligini aytib, narsasiz sifat bo'lmanidek, sifatsiz narsa ham bo'lmaydi, deydi. Lukretsiy Kar dunyoni insonning bilishi mumkinligini e'irof qilish bilan birga, bilishda maqsad-kishilarni turli-tuman hurofatlar ta'siridan ozod qilishdir, deydi. U dunyoni bilishda sezgi a'zolarining roliga shubha bilan qarovchi skeptitsizmga qarshi chiqib, bilimlarimiz faqat sezgi a'zolarimiz orqali olingan ma'lumotlarga tayanadi. Agar bizning sezgi a'zolarimiz, - deydi Lukretsiy Kar, - dunyo to'g'risida to'g'ri ma'lumot berolmasa, u vaqtda kishilar dunyoni bila olmagan bo'lar edi».

Lukretsiy Karning zamondoshi Mark Tulliy Tsitsiron (mil. avv.106-43 y.y.) falsafa sohasida eklektik qarashlari bilan maydonga chiqadi. Uning falsafa sohasidagi xizmatharidan biri-boshqa tillardagi falsafiy lug'atlardan foydalanib, lotin tilida lug'at tuzadi; Tsitsiron mashhur notiq ham bo'ladi. U o'zining «Davlat to'g'risida», «qonunlar haqida» asarlarida quldarlar aristokratiyasini himoya qiladi, senatorlarni yoqlab, xususiy mulkchilikni jamiyatning asosi, deb hisoblaydi. Davlat esa mana shu quldarlarning xususiy mulkini himoya qilish kerak, deydi u. Tsitseron xalq ommasiga, ayniqsa, qullarga-ular faqat jismoniy mehnat qilish uchun yaratilgan, deydi. U davlat arbobi sifatida siyosiy jihatdan Demokrit va Epikur izdoshlariga, Lukretsiy Kar kabi zamondoshlari qarashlariga qarshi kurash olib boradi.

Rim imperiyasida bu davrda yuzaga kelgan falsafiy oqimlardan yana biri - bu neoplatonizm oqimidir. Bu oqimning asoschisi Plotin eramizning 204-270y.y.) bo'lib, uning fikricha, olamiy jarayon payg'ab va ifodalab bo'lmaydigan ilohiy bosh yagona ibtidodan boshlanadi. Bu ibtido avval olamiy aql, so'ngra olamning joni (ruhi) sifatida, undan keyin ayrim jonlar sifatida, ayrim jonli jislar sifatida to materiyagacha davom etadi. Plotin fikricha, bu ibtido butun borliq asosi bo'lgan yagona ilohiy kuch - xudodir. Qolgan barcha narsalar (ham) ruhiy, hissiy narsalar, ham moddiy narsalar) shu ilohiy kuchdan yaralgan no'rning emonatsiyasining natijasidir. Uning nuqtayi nazaricha, Quyosh o'zidan nur taratgan kabi, ilohiy kuch-xudo ham o'zidan butun koinotni undagi barcha narsalarni emonatsiya usuli

bilan chiqarib yuborgan. Bu emonatsiya qilingan narsalarga ruh ham (jon ham) materiya ham kiradi. Insonning joni va tanasi ham ularning birligida shu ilohiy kuch-xudo tomonidan emonatsiya qilingan. Shuning uchun inson-hayotining oliv maqsadi - o'z jonining shu ilohiy kuch-xudo bilan qo'shilishiga erishuvdan iboratdir. Kishi bunga ekstaz (jazava) holatga tushish orqali, uni bajarish orqali erishadi, bu holatda uning joni, ruhi butun hissiy dunyodan va tanadan xalos bo'ladi. Buning uchun kishi o'z nafsi va jismoniy ishtiyoqlarini tiyish vositasi bo'lgan hamda butun ruhiy kuchlarini, shu jumladan, biluvchilik kuchlarini rivolantirish yo'li bilan erishadi. Bunda yuksalib borishning oliv ekstaz (jo'sh urish) bosqichida inson ruhi xudo bilan qaytadan birlashadi.

Plotinning falsafiy ma'lumotiga ham dialektika o'ziga xos ifoydasini topgan. Unda olamdagи uyqunlikka, go'zalikka, yaxshilik va yomonlikka sabab bo'ladigan, ularning mohiyatini tashkil etgan qarama-qarshiliklar va ularning birligi ko'rsatib berilgan.

Xullas, Rim faylasuflari o'z falsafiy ta'limotlarini yaratgan bo'lishsa ham, qadimga yunon falsafasiga deyarli hech qanday yangi, original falsafiy fikrlar qo'sha olmaydilar. Ular asosan yunon falsafasining diniy-axloqiy aqidalarini, undagi ba'zi ta'limolarnigina qayta ishlab chiqish bilan chegaralandilar, xolos.

Chunki bu davrlarda Rim imperiyasi o'zining ichki ziddiyatlarining tobora keskinlashib borishi, natijada, quldorlik jamiyatni ichida inqiroz kuchayib ketib, jamiyat mafkurasi sohalariga diniy, idealistik aqidaviy ta'limotlar keng yoyilib, yunon jamiyatida erishilgan madaniyat, fan, san'at va falsafa sohalaridagi yutuqlarga nisbatan reaktsiya avj ola boshlaydi. Oqibatda, kutubxonalar, taraqqiyotparvar ilg'or kishilar: olimlar va faylasuflar quvg'in etila boshlaydi. Bularnig bari Evropa mamlakatlarida din sxolastika hukmronligiga sabab bo'ldi. Bu narsa eramizning V asriga kelganda, quldorlik jamiyatni emirilgach, butun qadimiy Yunon va Rim ilg'or madaniyati va falsafasining ham butunlay oyoq osti qilinishiga va utilishiga olib keldi.

## **O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. Qadimgi Bobil va Misrda paydo bo'lgan ilk falsafiy qarashlar haqida gapirib bering.
2. Qadimgi Turonda qanday diniy-falsafiy ta'limotlar vujudga kelgan?
3. Qadimgi Hindistonda qanday falsafiy yo'nalishlar va falsafiy maktablar paydo bo'lgan?
4. Qadimgi Xitoyda qanday falsafiy oqimlar paydo bo'lgan? Ularning mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
5. Qadimgi Yunonistondagi **Milet maktabi faylasuflari** haqida nimalarni bilasiz?
6. Geraklit va Demokritning falsafiy qarashlari haqida gapirib bering.
7. Pifagor va Suqrotlar qanday faylasuflar bo'lishgan?
8. Platonning "g'oyalar dunyosi" haqidagi ta'limotining mohiyatini tushuntirib bering.
9. Aristotelning falsafiy qarashlari nimalardan iborat?
10. Qadimgi Rim falsafasida Lukretsiy Kar va Plotinning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

## **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. . –T.: O'zbekiston 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Olloq qalbimizda, yuragimizda. –T.: O'zbekiston 1999.
4. Osnovi filosofii: Uchebnoe posobie dlya studentov. –T.: O'zbekiston 1998.
5. Sulaymanova F. Sharq va G'arb. –T.:, 1997.

### **3-MAVZU. O’RTA ASRLAR SHARQI VA EVROPA XALQLARI FALSAFASI.**

- 1. O’rta asrlar Sharqi falsafasining o’ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Al-Kindiy, Ar-Roziyning, Al-G’azzoliyning, Ibn Rushdning falsafiy qarashlari.**
- 3. O’rta asr Evropa falsafasi. Foma Akvinskiyning falsafiy ta’limoti.**

O’rta asr Sharqida arab xalifaligi davriga kelib yangi feodal ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan intellektual bilimlar monopoliyasi ruhoniylar qo’liga o’tadi. Natijada diniy rasm-rusumlari va an’ana-odatlari jamiyatdagi axloqiy-iqtisodiy va huquqiy-iqtisodiy normalarga aylanadi. Bu davrda falsafa amaliyotdan ajralib, ko’proq sxolastikaga aylanib, ilohiyot haqidagi ta’limot xarakterini oladi. Tabiat va insonni ilmiy o’rganish gunoh hisoblanib, bunday o’rganishga kirishgan mutafakkirlar dahriylikda ayblanadi va quvg’in qilinadi. Lekin shunga karamay, bu davrda ham jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti ma’lum darajada to’xtamay davom etadi.

Bu davr mutafakkirlari islom dinining cheksiz hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiatni va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o’rnini haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan farq qiladigan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarni ham ilgari suradilar. Bu bilan ular ilg’or falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o’zlarining munosib hissalarini qo’shadilar. Arab xalifaligiga qarashli hududlarda ilm-fanning taraqqiyoti bilan birga, erkin fikr qiluvchi, diniy aqidalardan etishib chiqadilar. Bu mutafakkirlar o’z qarashlari bilan O’rta asr Sharq falsafasiga asos soladilar. Ular o’z qarashlarining dunyoviyligi, o’z asarlarining aqli idrokli, o’qimishililigi, qadimgi yunon-rim falsafiy qarashlari bilan tanish bo’lgan, o’z kuchlari va bilimlariga qattiq ishongan kishilar bo’lisha edi. Bunday mutafakkirlardan biri, birinchi arab faylasufi o’qub Ibn Ishoq al-Kindiydir.

a) Al-Kindiynning falsafiy qarashlari (800-879).

Al-Kindiy asli arablarning Yamanda yashaydigan Kinda degan qabilasidan chiqqan bo’lib, uning taxallusi ham shu qabilaning nomidan olingandir. Al-Kindiynning nomi aslida Abu Yusuf Yoqub Ibn Ishoqdir. Al-Kindiy dastlab boshlang’ich ta’limi Kufadan olib, so’ng Basraga boradi va u erda olimlar qo’lida o’qiy boshlaydi. Al-Kindiy Basrada o’ziga zarur, deb bilgan bilim sohalarini egallab, so’ng yana o’z bilimini oshirish maqsadida Bag’dodga kelib, dastlab fors, yunon falsafasini o’rganishga kirishadi. Lekin bu davrda yunon falsafasiga oid ko’p kitoblar arab tiliga hali tarjima qilinmagan edi. Shu sababli u qadimgi yunon falsafasini o’qish maqsadida yunon tilini o’rganishga kirishadi va tez orada bu sohani nihoyatda katta muvaffaqiyat qozonadi. Al-Kindiy yunon tilini bilib olishi

asosida qadimgi yunon faylasuflarining asarlarini o'rganish bilan cheklanmay, ularning bir nechasini arab tiliga tarjima ham qiladi. U o'zining ilmga chinakam berilganligi tufayli tez orada bilimdon kishilar orasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib, uning nomi shahar amaldorlari va olimlari doirasida tez-tez tilga olinadigan bo'ladi. bundan xabar topgan xalifa Al-Ma'mun uni «Baytul hikma» («Donolar uyi») akademiyasiga jalg qiladi. Al-Kindiy bu erda yirik tarjimon va olim Xusayn Ibn Ishoq bilan tanishib, uning qo'lida tarjima ilmini o'rganadi, arab tiliga yunon tilidan tarjima qilish san'atini egallab, tez orada kuchli tarjimonlarning biri bo'lib qoladi. Natijada, u Aristotelning «Metafizika», Ptolomeyning «Geografiya», Evklidning «Elementlar» kitoblarini yunon tilidan arab tiliga tarjima qiladi. Shu bilan birga, Al-Kindiy Aristotelning «Kategoriya», «Ikkinchchi analitika», «Organon» asarlariga, Ptolemeyning «Almagest» asariga, Evklidning «Elementlar» kitoblariga shahrlar yozadi.

Al-Kindiy qadimgi yunon faylasuflari va olimlarining asarlarini tarjima qilib va ularga shahrlar yozibgina qolmay, uning o'zi ham shu davrda mavjud bo'lган bilimlarning turli sohalarida idjod ham qiladi. U ayniqsa, matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, musiqa kabi sohalarni kuchli o'rganib, shu sohalarga oid ko'plab asarlar yaratadi. Al-Kindiyning yaratgan asarlarining umumiy soni 270 va borgan bo'lsa ham, biroq bizgacha ularning juda oz qismi etib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning faqat falsafaga oid asarlarining soni oltmishdan ortiq, mantiqqa oid asarlari esa qirqdan ziyod bo'lган.

Al-Kindiyning falsafiy qarashlarining shakllanishida uning qadimgi hind, xitoy, yunon va O'rta Osiyo xalqlari falsafiy qarashlari bilan tanishuvi, ularni chuqur o'rganishi katta rol o'ynaydi. Uning falsafiy qarashlari o'sha paytda eng ilg'or oqim sifatida tanilgan mu'tazilliylar ta'limoti bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladi.

Arab falsafasi mutaxassislarining fikriga muvofiq, garchand musulmon arab Sharqida Al-Kindiygacha ham juda ko'p yirik mutafakkirlar o'tgan bo'lsa ham, faylasuf degan nomga faqat Al-Kindiygina musharraf bo'lган, xolos.

Al-Kindiy falsafa bilan din o'rtasidagi tortishuvni falsafa foydasiga hal qiladi. U falsafa fanini o'rganishining zarurligini isbot qilishga urinib, uni tabiya va jamiyat hodisalarini tushuntirib beradigan, borliqni bilishning muhim quroli, deb aytadi. Al-Kindiy, falsafaning dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar, deb uqtiradi. Buni shunday tushunish mumkin: bordi-yu, biror kishi agar falsafa bilan shug'ullanish yaramaydi, desa, doim nima uchun yaramaydi? Deb so'rashimiz mumkin. Shunda raqib o'zi aytgan fikrining haqiqat ekanligini tasdiqlovchi mantiqiy-iqtisodiy dalillar keltirishi kerak bo'ladi, ya'ni bunda u o'z-o'zindan faylasuflik qilishi kerak bo'ladi, deb yozadi u. Bu oddiy misol orqali Al-Kindiy falsafaning zarurligini uqtiribgina qolmay, balki falsafaning vazifasi nimadan iborat? Inson aqli narcha va hodisalarining asl mohiyatini bilishga qodirmi? Degan savollarga ham javob berishga harakat qiladi. Falsafa, deydi U boshqa fanlar

singari narsa va hodisalarning sabablarini tekshirishadi. U noma'lum haqiqatning sababini topish orqaligina, uning mohiyatini bilish mumkin, deydi.

Al-Kindiy, olam to'g'risidagi butun haqiqatni bir mutaffakirning o'zi to'liq tushunib, egallab etolmaydi, deydi. Haqiqat necha-necha asrlardan beri necha-necha mutaffakirlar tomonidan to'planib kelinadi: bir odamning umri, qanchalik uzun bo'lmasin, uning aqli qanchalik kuchli bo'lmasin, uning ilmiy izlanishlari qanchalik sabotli bo'lmasin, u qanchalik ko'p mehnat sarf qilmasin, baribir, u olam to'g'risidagi bor haqiqatning hammasini to'liq tushunib etolmaydi. Buning uchun, deydi U yuzlab, minglab yillar, necha-necha avlodlarning matonatli izlanishlari, o'tkir fikrlari zarur bo'ladi. Shu tufayli biz bir oz bo'lsa-da haqiqatni bizga bildirib ketgan o'tmishdoshlarimiz, ota-bobolarimizdan minnatdor bo'lishimiz lozim, deydi u.

Al-Kindiy o'z qarashlarida: olam markazida Er turadi, u esa osmon gumbazi bilan o'ralgan, deydi. U dunyoni ikki olamga bo'ladi: Erdagi va falakdagi olamlar. Erdagi insonlar yashaydigan olam o'zgarish, rivojlanish, chirish va o'lish kabi xususiyatlarga ega: falakdagi olam esa o'zining o'zgarmasligi, rivojlanmasligi va o'lmasligi bilan Erdagi olamdan farq qiladi. Shuni aytish kerakki, Al-Kindiy olamning vujudga kelishida va harakatlanishida unga turtki bergen bиринчи sabab, deb Ollohoi tushunadi. Olloho azaliy, abadiy va yakkayu yagona, u butun koinotda umumiyl tartiblarni o'rnatuvchidir, deydi u.

Al-Kiydiyning tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning sabablarini aniqlashdagi qarashdagi qarashlari qanchalik sodda bo'lmasin, bari-bir ularda optimistik ruh ustunlik qiladi.

Ayniqsa Al-Kiydiyning arab falsafasida Sharq aristotelchiligining paydo bo'lishidagi roli g'oyat kattadir. U Aristotel falsafasini juda yaxshi bilgan va hatto uning ba'zi bir g'oyalariga tanqidiy ham yondoshgan. U Aristotelning 10 ta kategoriyasi o'rniga o'zining 5 ta prasubstantsiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamonni) ilgari surgan. Uning nuqtai nazaricha, tabiatdagi barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to'rt unsur: olov, suv, havo va tuproqdan iboratdir. Materiya doimiy harakatdadir, harakat esa narsalarning bir turdan ikkinchi turga o'tishidan iboratdir. Bu o'z navbatida o'zgarish demakdir. Al-Kindi harakatni olti turga bo'ladi: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o'zgarish va nihoyat; 6) siljish. Har qanday harakat esa ma'lum bir vaqt ichida sodir bo'ladi. Vaqt harakatning sekin yoki tezligidan iborat bo'lib, u o'tgan zamon bilan kelgusi zamonni bog'laydi. Materiya shaklga ham ega, faqat shakliy tafavut tufayli u yoki bu narsalar boshqa narsalardan farq qiladi. Al-Kindiy borliqning makon atributini ham e'tirof etadi. Makon, deb u jismni o'z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi sathga aytamiz, deydi. Makon bilan uni to'ldirib turadigan narsa bir-biriga bog'liq, deydi u. Agar makon bo'lsa, uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, agar makonni to'ldirib turuvchi narsa bo'lsa, albatta, makon bo'lishi kerak.

Al-Kiydiyning falsafiy qarashlarida uning dunyoni ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta'limoti ham muhim o'rin tutadi. Bunda ilmiy bilishning

birinchi bosqichi mantiq va matematika yordamida yuzaga kelsa, tabiatshunoslik bilimlari orqali inson ilmiy bilishi-bilishning ikkinchi bosqichiga ko'tariladi. Inson o'zining ilmiy bilishining uchinchi bosqichiga esa metafizika (ya'ni falsafa.) orqali ko'tariladi, deydi u.

Umuman, Al-Kindiy falsafiy qarashlari falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslikka oid ajoyib fikrlarga juda boydir. U o'zidan oldin o'tgan va o'z zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirib, tanqidiy ravishda ularni qayta ishlab chiqqan, qadimgi faylasuflarning, xususan, Aristotel asarlarining, shu bilan birga, butun qadimgi yunon falsafasining durdonalari bilan kelgusi avlodlarni bahramand qila olgan entsiklopedik mutafakkirdir.

Xullas, Al-Kindiy faqat qadimgi yunon olimlari va faylasuflari asarlarini arab tiliga tarjima qilib, ularga sharhlargina yozib qolmay, balki o'zi ham orginal falsafiy asarlar yaratdi. Shular jumlasiga uning quyidagi falsafiy risolalarini ko'rsatib o'tish mumkin: «Aristotel kitoblarining soni va falsafani o'rganish uchun nimalarga muhtoj bo'linadi?», «Platonning «Siyosat» kitobida eslatib o'tilgan raqamlarini qanday tushunish kerakligi haqida risola», «Ptolemyning «Almagest» kitobi va Aristotelning «Anolitika» kitobiga izoh», «Gippokratning tibbiyoti haqida risola» va boshqalar. Bu asarlarda ilgarisurilgan g'oyalar bilan Al-Kindiy arab falsafasida peripateizm ta'limotiga asos soldi.

O'rta asr eron falsafasining buyuk vakili-bu ar-Roziyidir.

Ar-Roziy (864-925)ning to'liq ismi sharifi Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo ar-Roziyidir. U eronlik bo'lib, Ray shahrida dunyoga keladi. Roziy yoshligidan arab va qadimgi yunon tillarini o'rganadi, ray va Bag'dod shaharlarida o'qiydi. U ayniqsa, tibbiyot, kimiyo, botanika, astronomiya, matematika, mantiq va falsafaga oid ilmlarni chuqur egallab, Sharqning buyuk entsiklopedist olimi, adib va mutafakkiri bo'lib etishadi. Roziy keyinchalik Ray va Bag'dod shifoxonalarini boshqaradi. Bu paytda u O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro ilm ahllari bilan ilmiy aloqada ham bo'ladi. Roziy o'z davrining Galeni (Jolinusi) deb tanilib, Evropada uning nomi lotincha Razes deb ataladi. U inson bilimlarining uch sohasiga: tibbiyotga, kimiyya va falsafaga juda katta hissa qo'shamdi. Roziy tabobatga, kimiyya, falsafaga, mantiqqa, etikaga, ilohiyotga, astronomiyaga, fizikaga oid 184 ta asar qoldiradi, shulardan bizgacha faqat 61 tasi etib keladi (ulardan 36 tasi tibbiyotga oid, 4 tasi kimiyya oid).

Roziyning falsafiy qarashlari Eron, Turon, arab, Hind, Xitoy falsafiy sistemalari hamda qadimgi yunon falsafiy ta'limotlari asosida shakllanadi. Uning dunyoqarashida ma'lumotistik tendentsiyalar ustun o'rinni oladi. Roziyning ilmiy tadqiqotlari tajriba va eksperimentlarga asoslangan o'z davri dogmatik qarashlaridan holi, tabiatshunoslikning falsafiy muammolariga ko'proq oiddir. Shu bilan birga, u o'z davrida o'zining original falsafiy qarashlari bilan zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketib, qator ilg'or falsafiy g'oyalarni olg'a suradi.

Roziy o'z dunyoqarashida hukmron mafkura-islom ortodoksal ta'limotini inkor qilibgina qolmay, balki Aristotel va uning izidan borgan o'z o'tmishdoshlari

Al-Kindiy, Ravandiy va shu kabilarga nisbatan butunlay yo'l tutdi. Uning falsafiy ta'limoti bo'yicha, real dunyo beshta azaliy boshlang'ichning bir-biriga qo'shilishidan tashkil topgan. Bu beshta azaliy boshlang'ich: materiya (xayulo), makon, zamon, jon (an-nafas) va xudo (borib)dan iboratdir. Roziy bunda xudoni azaliy boshlang'ich sabablardan faqat biri, deb biladi, u dunyoning vujudga kelishida boshqa azaliy boshlang'ich sabablar qanday rol o'ynasa, xudo ham shunday rol o'ynadi, deb hisoblangan. Shu sababli u xudoni dunyoni yaratuvchi emas, balki boshqaruvchi kuch, deb tasavvur qiladi. Ko'rinish turibdiki, Roziy xudoni butunlay inkor etuvchilar jumlasiga kirmaydi. U shu bilan birga, materiyaning abadiyligi, uning makon va zamonda cheksizligi, dunyo hech kim tomonidan yaratilmaganligi, harakat esa narsalarning ajralmas xususiyati, harakatning manbai narsalarning o'z ichida, deb biladi. Al-Roziy materiyani olamning asosiy negizi, deydi. U o'zining materiya haqidagi ta'limotida Demokrit atomistik nazariyasiga asoslangan holda materiyani «bo'linmas zarrachalar» («ajzou loyata jazza») dan iborat, deb tushunadi. Bu zarrachalarning bo'shliq (xolo) zarrachalari bilan turlicha birikishi natijasida to'rtta unsur: suv, tuproq, havo va olov paydo bo'ladi. Dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar shu unsurlarning turlicha miqdorda o'zaro qo'shilishidan tashkil topadi, deydi u. Bular shuni ko'rsatadiki, Roziy o'zining dunyoning tuzilishi haqidagi ta'limotida ma'lum darajada qadamgi yunon faylasuflarining atomistik qarashlariga suyangan. Uning bu ta'limotiga ko'ra atomlar massa va og'irlilikka ega bo'lган abadiy moddiy narsalar. Bu moddiy narsalardan moddiy dunyo tashkil topadi. Roziy bunda moddiy dunyoning, tabiatdagi jismlarning asoslari va tuzilishlari haqida gapirib, ular ikki narsadan: materiya va shakldan iborat, lekin materiya mohiyati jihatdan shakldan ustun turadi, deydi. U bunda davri falsafasida qabl qilingan terminlardan foydalanib, materiyani javhar (substansiya), shaklni esa oraz (aktsidentsiya), deb hisoblaydi.

Roziygacha ko'philik Sharq faylasuflari o'z falsafiy qarashlarida xudo (olloh)ni birinchi asos, birinchi sabab, deb, olamning, materiyaning abadiyligini xudoning abadiyligini isbotlashdan keltirib chiqarib izohlagan bo'lishsa, Roziy esa materiyaning abadiyligi haqidagi ta'limoti bilan olamning xudo tomonidan yaratilmagnini isbotlashga harakat qildi.

Ilmiy tajriba va kuzatishlarga asosan Roziy ta'limoti bo'yicha, olamdagи narsalar olloh tomonidan yaratilmay, olam ham Olloh tomonidan yaratilgan emas. Olamning paydo bo'lishi va rivojlanishi asosida moddiy narsa-materiya yotadi. Materiya abadiy va uzuksizdir. Materiya esa faqat makon va zamonda yashaydi. Shuning uchun materiyaning yashash shakllari bo'lган makon va zamon ham cheksiz va adabiydir. Makon va zamon bizga va Ollohga bog'liq bo'lмаган holda ob'ektiv va mutlaqdir.

Roziy falsafiy ta'limotning qimmatli tomonlari bular bilan cheklanmaydi. Uning falsafiy ta'limotining yana bir qimmatli tomoni shu ediki, Roziy inson aql-idrokini behad ulug'ladi, odamlarni tabiat hodisalarini o'rganishga, bilishga chaqirdi, insonlarni esa baxtli hayot qurishga, ilm-fanni egallashga da'vat qilib,

diniy dunyoqarashga oid o'sha davrdagi mutaxassislikni qattiq tanqid qildi. Roziy o'z qarashlarida moddiy dunyoning tabiatning insondan, inson bilimlaridan oldin mavjudligini, ular inson ongi va tafakkuriga, uning sezgilarini va aqliga bog'liq emasligini aytib, ular insonga, uning sezgi a'zolariga ta'sir qilishi natijasida inson ularni biladi, deydi. Bu shuni ko'rsatadiki, Roziy bilish masalalarida ham (garchand hamma vaqt izchil bo'lmasa-da) ilg'or yo'l tutdi. U insonning tabiatni bilish imkoniyati haqidagi fikrlarni olg'a surib, tajribaga katta ahamiyat berdi. Roziy bunda ulug' tabiatshunos sifatida inson bilimlarining to'g'riliгини isbotlashda tajriba muhim rol o'yashini ko'rsatadi.

Roziy inson aql-idrokining qudratiga yuqori baho berib, insonni tabiatdagi predmet va hodisalarning mohiyatini bilishda benihoya qudratga ega, deb ta'kidlaydi. Uning falsafiy ta'limoti bo'yicha, inson o'zining aql va tafakkur qobiliyatini bilan butun hayvonot dunyosidan farq qiladi. Inson dunyo hodisalarini bilishda o'z sezgi va idrok ko'rsatmalariga tayanishi va aqliy qobiliyatiga ishonishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, u har xil payg'ambarlar va din mutaassiblari tomonidan qilingan va qilinadigan mo''jizalarga, ko'rsatiladigan karomatlarga ishonmaslikni aytadi. Roziy, inson-idrokining qudrati va kuchiga, uning bilish qobiliyatiga ishongan holda, kishilarni ilm-fan va ma'rifikatni egallashga chaqiradi, u insonlarning baxtli hayotga erishishi ularning ilm-fanni egalashi orqali ro'yobga chiqadi, deb tushuntiradi. Bizning uchun eng sharaflı bo'lgan narsa, deydi U -faqat jismoniy lazzatlarga intilish emas, balki ilm va ma'rifikat orttirish va haqiqatga erishishdir. Uning falsafiy ta'limoticha, inson hayotining mohiyati baxtli turmushga erishishdir. Shuning uchun har bir kishi baxtli hayot uchun kurashish kerak. Bu kurash ikki yo'ldan iborat. Birinchisi: hayotning hamma moddiy ne'matlaridan foydalangan holda, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish: ikkinchisi, eng oliy axloq iqtisodiy etukka erishishdir. Bunga erishish insonning o'ziga bog'liq. Inson o'z taqdirini, o'z hayotini o'zi yaratadi. Eng baxtli kishi insonlarga eng ko'p foyda keltirgan kishidir. U o'zining «Kitob tibbi arruhoniy» risolasida insonlarning eng oliy axloqiy-iqtisodiy etuklikka erishish yo'llari haqida fikr yuritib, bu yo'lda uchraydigan to'siqlar, kishidagi bo'lidigan kamchiliklar va ularni engib o'tish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Uningcha, eng oliy ahloqiy-iqtisoiy etuklikka erishgan odam, ya'ni haqiqatdan, eng mu'tabar faylasuflar intilgan hol qisqacha shundan iborat: kishilar bir-biriga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bir-birini ochiq ko'ngillik va xushmuomalalik, rahmdillik bilan qabul qilishi, yordam qilishi, kishilarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, baxt va saodatga intilishidir, Roziy o'zining insonning baxti hayotga intilishi haqidagi ta'limotida insonning ijtimoiy hayotida Ollohnning faol aralashishi o'rniga insonlarning real hayotda faol qatnashishlarning ilgariga surdi. U inson hayotidagi hamma yaxshi narsalar Ollohnning inoyati, deyuvchi islam mutaassib, ruhoniylarini qattiq tanqid qildi. Ko'pchilik tarixiy manba'larning ko'rsatishicha, Roziy islam aqidalarini inkor qiladi. Shuning uchun ham islam ortodoksal ruhoniylari rasmiy ravishda Roziyni dinsizlikda ayblanganlar, ko'pchilik mutafakirlar uning falsafiy ta'minotini rad qilishga

uringanlar, ba’zi ilg’or mutaffakirlar esa o’zlarining Roziy falsafiy qarashlariga hayrhohligini ochiq-oydin ayta olmaganlar. Ba’zi tarixiy manba'larda aytilishicha, Roziy hatto islom dini aqidalarini tanqid qiluvchi ikki asar ham yozgan. Bular: «Naqd aladyon» («Dinlardagi ziddiyat») va «Hiyal almutanabbiyin» («Soxta payg’ambarlar nayrangi»). Bu asarlar bizgacha faqat bir necha fragmentlardagina etib kelgan.

Roziy yana o’z qarashlarida o’sha davr uchun eng ilg’or va qimmatli bo’lgan xalqlarning o’zaro tengligi, kishilarning dinga nisbatan erkinligi haqidagi fikrlarni ham ilgari suradi. Umuman, Roziy o’z falsafiy va ijtimoiy qarashlarida ilm-fanni himoya qilib, diniy mutaassibliklarga qarshi chiqishi o’z davri uchun misli ko’rilmagan darajadagi jasurlik edi. U o’z davrida faqat islom ortodoksal ta’limotigagina qarshi chiqib qolmasdan, balki o’sha davrda Eron va O’rta Osiyoda keng tarqalgan manixizm, ismoilizm va shularga o’xshash reaktsion falsafiy ta’limotlarni ham rad qilgan.

Shunday qilib, Roziy mutakallimchilarga va Olloohni yagona sabab, deb biluvchi faylasuflarga qarshi chiqqan faylasuf sifatida materiyaning adabiyligi va doimiyligi, uning doimiy harakat va o’zgarishda bo’lishi, makon va zamonning ob’ektivligi haqidagi ta’limotlari bilan, barcha inson bilimlari uning ob’ektiv olam, tabiatni bilish orqali vujudga kelishi, ilmni diniy e’tiqoddan ustun qo’yishi haqidagi qarashlari bilan o’z davrida yangicha falsafiy yo’nalish yaratgan faylasufdir. Uning bu falsafiy qarashlari keyingi davrlargi mutafakkirlarning erkin fikr yuritish va hur fikrlari uchun, progressiv falsafiy qarashlarning hamda tabiatshunoslikning falsafiy masalalarining yanada rivojlanishida muhim rol o’ynaydi.

Biz yuqori Roziyning falsafiy ta’motini rad qilishga uringan faylasuflar haqida gapirdik, ana shu faylasuflardan biri-isлом ortodoksal ta’motining, ya’ni mutakallimchilarning otashin tarafdoi, O’rta asr arab sxalastik kamol falsafasining yirik nazoriyotchisi Muhammad al-G’azzoliydir.

Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G’azzoliy (1058-1111) yirik musulmon arab faylasufi va mashhur isлом ilohiyotchisidir. U Tus shahrida kosib oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Muhammad Ibn Ahmad Tusdagi o’zining kichik do’konida ip yigiruvchi, ya’ni G’azzolchilik bilan tirikchilik qiladi. Abu Hamid Muhammadning G’azzoliy taxallusi ham ayni shu otasining kasbidan olingan. Otasi Abu Hamidni o’qimishli, inson bo’lishini juda xohlaydi. Shu sababli u o’z vafoti oldidan uy-joyini sotib, o’zining bir ahli soliho mutasavvuf do’stiga o’g’lining ilm olish uchun sarflashni vasiyat qiladi. Ota vasiyati amalga oshib, Abu Muhammad G’azzoliy butun isлом dunyosi tan olgan benazir faylasuf, buyuk isлом ilohiyotchi olimi bo’lib etishadi. U dastlabki ma’lumotni Nishopurda olib, so’ng uni Bag’dodda davom ettiradi. o’qishni tugatib, «Nizomiya» madrasida isлом huquqi «fiqh»dan, mantiq va falsafadan dars beradi. So’ng mudarrislikdan voz kechib, 11 yil zohidlikka beriladi.

Umuman, barcha buyuk olimlar kabi, Abu Hamid G’azzoliy ham yoshligidan ilmga o’ta chanqoq bo’ladi, u tinimsiz, har qanday qiyinchiliklarga

qaramasdan, o'qib o'rganadi, ilm oladi. G'azzoliy islom haqiqatni bilishning eng to'g'ri yo'li bo'la oladimi, yo'qmi yoki faylasuflar kabi haqiqatni faqat aql bilan bilish mumkinmi, kabi shubha va savollarga to'g'ri javob topishda juda ko'p izlanadi. Nihoyat, oxirgi u eng to'g'ri yo'l, deb Islom yo'lini tanlab, uning muqaddas dasturi Qur'on va Hadis ilmi ekanligiga o'zicha ishonch hosil qiladi hamda unga iymon keltiradi.

Abu Hamid G'azzoliy, natijada, islom ilmlarning turli sohalarini dunyoviy ilmlarga qo'shib chuqur egalaydi. U bunda nimani o'rgansa, shu sohani to'ldirishga, rivojlantirishga harakat qilib, har bir o'rgangan narsasini islom tarozisiga qo'yib, o'lchab ko'rish asosida baholashga harakat qiladi. Oqibatda, o'zi shug'ullangan islomning turli sohalariga oid yuzdan ortiq asarlar yaratadi. U fiqh ilmiga oid «Bosit», «Vajid» va «Qosit» singari asarlar yozadi. Kalom ta'limotiga doir «Tavhitdul A'qoid», «Ar-Risolat-ul-qudsiya», «Al-Iqtisodu fil e'tiqod», «Ijmoi-ul-Avvom an Ilm-ul-Kalom» kabi asarlar yozadi. G'azzoliy o'z asarlarida o'ziga xos bir islomi falsafa bo'lgan kalom ilmini johil kishining o'qishidan hech bir foyda yo'q. Bu ilm faqat iymonida shubhaga tushganlarni tuzatishga yaraydi, deb, uni din ulamolariga o'rganishni tavsiya etadi.

G'azolliyni jahonga mashhur qilgan va dunyo tan olgan faylasuflar qatoriga qo'shgan asarlari – bular mu'tazilliylar, botiniylar (ular ko'proq aqlga tayanganlar) ning yo'ldan ozgani va islomni zayflashtirishlariga qarshi yozgan «Fadoix al-Botiniya», «Al-Qismoi-al-Mustaql», «Hujjatul-Haq», «Mufasi-ul-Xilof» va «Ad-Diras al-Marg'um» kabi asarlaridir.

Abu Hamid G'azzoliy jahon faylasuflari, xususan, yunon faylasuflari asarlari bilan ham tanishib chiqqan bo'lib, u o'z o'tmishdoshlari ulkan allomalar Forobiy va Ibn Sinolarning Platon va Aristotel falsafasi ta'sirida qolganliklarini, ularga ergashganliklarini, tanqid qilib, «Taxofut-ul-falosifa» («Faylasuflarga qarshi») asarini yaratadi. U bu asarida islomni, Qur'oni insoniyatning aqliy bilimlaridan iborat taroziga solishni qoralaydi. Aksincha, insoniyatning aqliy bilimlarini «Qur'on» tarozisiga solib tekshirib chiqish kerak. Chunki shunday qilinmasa, islomni yanglish tushunish davom etaveradi. Biz buning oldini olishimiz kerak, deydi u.

G'azzoliy bu asarida islom falsafasi nuqtai nazaridan kelib chiqib, kishilar haqiqatni tanishi, ya'ni Olloho ni tanishi kerakligini, ular his-tuyg'uda ham, aqliy bilimlarda ham adashishlarini isbotlaydi. U o'zining «Ixyo ulum-ud-din» asarida bilish kishining dilida mujassamdir, deydi. Dil esa, uningcha, ilohiy ne'mat, uni odiy qalb yoki yurak ma'nosida tushunmaslik kerak. Dilga esa jon ham, aql ham, nafs ham kiradi, ular jisman ham, ruhan ham birdir. Shuningdek, «Qur'on» va «Hadis»ning qaysi joyida «dil» so'zi kelsa, undan albatta narsalarni anglab, ularning mohiyatiga eta oluvchi inson ma'naviyati tushuniladi, deb yozadi.

G'azolliy o'zining «Ab xal-valad» («Ey, farzand!») deb nomlangan risolasida: «Basharti yuz yil ilm o'rganib, mingta kitobni o'qib jamuljam etsang-U ammo unga amal qilmasang, Olloho ning rahmatiga umidvor bo'lishga haqqing yo'q», – deydi. U bunda yana shunday yozadi: Bandalik uch asosdan iborat:

birinchisi - shariat ishlarini davom ettirib, uni himoya qilmoq; ikkichisi - Ollohnning taqdiri azali va qazo qadariga rozi bo'lmoq; uchinchisi - Ollohnning roziligidan kelib chiqib, nafsning xohlagan narsalarini tark qilmoqdir.

Uningcha, ilm olishdan murod - bu kishining toat-ibodat qilish mohiyatiga tushunib etmoqlikdir. Bilgilki, deydi U toat-ibodat yaxshi va yomon, xalol va xarom ishlarda, so'z va amalda shariatga ergashmoqdan iborat.

G'azzoliy so'fizm ta'limotiga ham katta hissa qo'shamdi. U tasavvuf ta'limoti haqidagi Makkiy-Abu Tolib, Xoris al-Muxosibiy, Shayx Shibliy, Junayd al-Bag'dodiy asarlarini o'rganib chiqib, o'zi ham bu haqda «Ixyo Ulum-uddin» nomli asar yozadi. Uning bu asari nihoyatda mashhur bo'lib unda tasavvuf va boshqa islomiy ta'limotlar qamrab olinadi. U bu asarida tasavvuf ilmini to'g'ri ta'limot, deb baholaydi.

Xullas, G'azzoliy o'zining asrlarida islam ilohiyayoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslab beradi. U islomning eng yirik nazariyotchisi hisoblanadi. G'azzoliy o'zining «Adashishdan qutqaruvchi» asarida Oliy tangriga-Oollohga, payg'ambarga va oxiratga ishonish-islam diniga ishonishning asosidir, deydi. U Olloohni inson aql orqali anglashi mumkin emas, uni kishi maxsus ruhiy... jismoniy (psixofizik) harakatlar: siqinish va ibodat orqali anglashi, bilib olishi mumkin, deydi. Uning fikricha, jon xudo (Olloh) singari fazodan tashqarida, olam Olloh tomonidan yaratilgan.

G'azzoliy o'zining «Ihyoi umum-ud-din» («Diniy ilmlarni tiriltirish») asarida haqiqat faqat va faqat «Qur'on»da, uning sunna yo'naliishiga xosdir, inson Ollohdan qo'rishi uning dahshatli sudiga hukm qilishidan saqlanishi lozim, deydi.

G'azzoliyning diniy falsafiy sistemasi so'fizmni ortodoksal (yunoncha ortodoks - o'zbekcha to'g'ri fikr, degani) kamol ta'limot bilan birlashtirdi. Bu bilan u amalda islomning islohotchisi sifatida maydonga chiqadi.

Umuman, G'azzoliy o'z falsafiy qarashlarida islam aqidalarini yangi platonizm g'oyalari bilan qo'shgan, o'zi yaratgan islomning diniy falsafiy sistemasida so'fiyzm ta'limotini yanada rivojlantirgan faylasufdir. Shu bilan birga, u o'z asarlarida Aristotel, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkir faylasuflarning ratsionalistik falsafiy sistemalariga qarshi ashadiy kurash olib boradi.

G'azzoliyning falsafiy g'oyalari O'rta asr yahudiy (Maymonid, Baxil Ibn Pakuda) falsafiy qarashlariga hamda O'rta asr Evropa xristian diniy falsafiy ta'limotlar (R.Lulliy, I.Ekxart va b.) iga katta ta'sir qiladi.

Lekin G'azzoliyning islam ilohiyotiga oid falsafiy qarashlariga O'rta asr arab xalifaligining g'arbiy qismida yashab ijod etgan arab faylasufi Ibn Rushd qarshi chiqadi.

Ibn Rushd 91126-1198)ning falsafiy qarashlari.

Asli nomi Adub-Valid Muhammad Ibn Ahmad (Evropada Averroes deb yuritiladi) hozirgi Ispaniyaning Kordoba shahrida tug'ilib, Andalusi va Marokko shaharlarida yashab, ijod etadi hamda Marokkoda vafot etadi.

Ibn Rushd Aristotel qarashlarini davom ettirib, o'z falsafasida ma'lumotizm elementlarini rivojlantirgan, shu asosda o'z shaxsiy falsafiy sistemasini yaratgan buyuk arab faylasufidir. U o'z qarashlarida xudoning mavjudligini e'tirof etsa-da, dunyoni, materiyani xudo yaratmagan, deydi. Ibn Rushd ta'lim berib aytadiki, dunyo, materiya boshlanishga ham, oxiriga ham ega emas. Materiya benihoya, abadiy va azaliy, deydi. Uning qarashicha, moddiy dunyoda faqat zaruriyat hukm suradi, xudo ham shu zaruriyatga bo'yasinadi.

Ibn Rushd ortodksal islom-kalom ta'limoti ilgari suradigan: kishining o'lgandan keyin tirilishi, oxiratning mavjudligi, «u dunyo» to'g'risidagi qarashlarni butunlay rad qiladi. U insondagi jonni tana bilan chambarchas bog'liq, undan ajralmas, deydi. Uningcha, jon umuman olganda o'lmasdir, bir butun holda olganda, insoniyat ham o'lmasdir, uning umumiyligi aqli, ya'ni umumiyligi aql ham o'lmas va adabiyidir. Inson aqli haqiqatni bilishga qodir.

Ibn Rushd o'z davri uchun progressiv bo'lган «ikki xil haqiqat» to'g'risidagi ta'limotni yaratadi. Bu ta'limotda aytishchicha, ilmiy-falsafiy fikr erishgan haqiqat diniy ta'limotlarda mavjud haqiqatlarga mos kelmasligi mumkin. Uning bu fikri o'z navbatida fanni va falsafani dinning, ilohiyotning iskanjasidan, dindorlar tazyiqidan ozod qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ibn Rushd o'zining Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asari-«Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ul-filosifa»)ga qarshi yozgan «Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ut-taxofut») asarida G'azzoliyning islom ortodoksal kalom ta'limotini qattiq tanqid qiladi. U kishi oliy kamolotga faqat zikru sano orqali emas, balki falsafiy bilimlarni egallash orqali erishadi, deb ta'lim beradi. Ibn Rushdning bu falsafiy ta'limoti O'rta asrdagi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, keyinchalik esa uyg'onish davri Evropa mamlakatlarida falsafiy qarashlarning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. U O'rta asr hurfikrligining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli Ibn Rushdga va uning falsafiy ta'limotiga qarshi keyingi davr butun musulmon va xristian ilohiyotchilari qattiq kurash olib bordi.

Shunday qilib, biz yuqorida ko'rib chiqqan O'rta asr arab falsafasi deyilganda, islom dinini qabul qilgan va o'z asarlarini arab tilida yozgan, arab xalifaligiga qarshi hududlarda yashovchi mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqarilgan «Qur'oni Karim» va «Hadisi Sharif»ga asoslanuvchiga, falsafiy ta'minotlar majmuini tushunamiz. O'rta asr arab falsafasining paydo bo'lishi «Qur'oni Karim» («Kalom»)ning paydo bo'lishi bilan va keynchalik islom ilohiyayotida yuzaga kelgan ortodoksal kalomchilar-mutakallimchilar va ratsional ilohiyot namoyandalari-mu'tazilliylar faoliyatları bilan bog'liq holda yuz beradi. Bunda qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan platonizmning yangi ko'rinishi-neplatonizm bilan Yangi aristotelizmning biri kishi O'rta asr arab falsafasida etakchi yo'naliish bo'lган Sharq peripatetizmni keltirib chiqaradi. Sharq peripatetizmining navbatdagi rivojlanishi O'rta asrdagi O'rta Osiyolik mutafakkirlar falsafiy qarashlarida o'z ifodasini topadi va rivojlantiriladi.

XI-XIII asrlarda G'arbiy evropadagi ijtimoiy taraqqiyot O'rta asrlar nomi bilan yuritiladi. Bu davr G'arbiy Evropada ham quldarlik munosabatlarining o'mini feodal munosabatlari egallagan davr edi. Bu davrda din mafkura sohasida ham hukmronlik qiladi, u jamiyatda asosiy mafkuraga aylanib, cherkovning esa siyosiy va mafkuraviy ta'siri ko'pchilik G'arbiy Evropa mamlakatlarida haddan ziyod kuchayib, insoniyat fikrining barcha sohalari – falsafa, huquqshunoslik, sana'at va madaniyat sohalari, tabiatshunoslik sohalarida ham diniy dogmatik aqidalar hukmronlik qiladi. Ayniqsa, bu davrda falsafa tajribaviy bilimlardan, amaliyotdan ajralib, dinning hizmatkoriga, sxolastikaga, ilohiyatga aylantiriladi. Bu davrda tabiatni o'rganish gunoh hisoblanib, tabiatni o'rganishga kirishgan kishilar dahriylikda ayblanadilar va quvg'in qilinadilar, hatto ular olovda ham kuydirilar va o'ldirilar edi. Natijada, dunyoviy bilimlar diniy ustidan ta'limotlar hukmronlik qiladi. Din ijtimoiy fikr ustidan cheksiz hukmron bo'ladi.

Lekin dinning qattiq ta'ziyg'iga qaramasdan, jamiyat taraqqiy etib, tabiiy va ijtimoiy qarashlar ham rivojlanib, antik davr madaniyati, fan yutuqlari, falsafiy qarashlari o'rganila boshlaydi, natijada, bu davr falsafasida ham yangi-yangi oqimlar, yo'nalishlar paydo bo'la boshlaydi. Ayni shu davrda, ya'ni G'arbiy Evropaning O'rta asrlar davrida, falsafada, skeptitsizm, agnostizm, neoplotonizm, kabi oqimlar paydo bo'ldi. Lekin bu davrda, baribir, katolik cherkovining ramiy dunyoqarashi tizimini tashkil etgan teologiya va sxolastik falsafa butun O'rta asr davomida hukmronlik qiladi. Bu diniy sxolastik falsafiy qarashlarga nazariy manba' bo'lib qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotelning falsafiy ta'limotlari hizmat qiladi. Bu davr diniy-sxolastik falsafiy oqim-nominalizm va realizm oqimlari vujudga keladi va ular o'zaro bir-birlariga qarshi kurash olib boradi.

Nomrnalizm o'sha davr shahar savdogarlari va hunarmandlari manfaatlarini ifodalovchi, ularning cherkovning mutlaq hokimiyatiga qarshi kurashini aks ettiruvchi, o'z davrining progressiv falsafiy oqimi bo'ladi.

Realizm esa cherkov va yirik feodallar manfaatini ifoda etuvchi, ular dunyoqarashi bo'lgan sxolastik, reaktsion falsafiy oqim hisoblanadi. Bu ikki oqim o'rtasidagi kurash umumiy tushunchalar, «universallar»ning mohiyatini aniqlashdan kelib chiqadi..

Realizmga asos qilib Platonning obe'ktiv idealizmi olingan edi. Uning asosiy vakillari: Anselm (1033-1109), Ioan Skot Eriugen (815-877), Foma Akvinskiylar edi. Ularning fikricha, umumiy tushunchalar, ya'ni kategoriyalar - «universallar» - real mavjud bo'lib, ular mustaqil g'oyaviy mohiyat sifatida predmetlarga, kishilarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olamning predmetlari esa shu umumiy tushunchalarning shakliy ifodasi, ikkilamchidir. Umumiy tushunchalar mangu bo'lib, predmet va hodisalar vaqtincha va o'tkinchidir. Realistlar fikricha, «yumuman uy» g'oyasi birlamchi bo'lib, uning shakliy ifodasi sifatida yakka-yakka holdagi uylar vujudga keladi.

O'rta asrlar falsafasidagi bu relizm oqimi katolitsizm cherkovi va sxolastik dogmalarning falsafiy asosiy edi. Uning XIII asrdagi ko'rinishi tomizm, deb

ataladi. Tomizm Foma Akvinskiy ta'limotini tashkil etadi. Bu ta'limotga ko'ra, dunyoda turli shakllar bor, jon ham shu shakllardan biridir, shakllarning shakli esa, bu-xudodir, jon birlamchi va o'lmasdir. U tanadan chiqishi bilan tana halok bo'ladi. F.Akvinskiy umumiyl tushuncha masalasidan chiqib kelib, aqlni ikkiga bo'ladi:

- 1.Tabiatdan tashqari aql yoki «xudo aqli»;
- 2.Tabiatdagi aql yoki kishi aqli, ya'ni inson aqli.

Tabiatdan tashqaridagi aql birlamchi, kishi aqli esa ikkilamchidir.

Boshqacha aytganda, umumiyl tushuncha bo'lgan «xudo aqli» birlamchi, tabiatdagi aql, ya'ni inson aqli «xudo aqli»ning mahsulidir. Akvinskiyning bu qarashlari cherkovni nazariy jihatdan mustahkamlashga hizmat qilgan edi va hozir ham xizmat qilmoqda. U hozirgi kunda XX asr falsafasidagi hukmron oqimlardan biri «Neotomizm» nomi bilan etiladi.

Nominalistlar, ularning asosiy vakillari: Berengariy Turskiy (1000-1088), Ioan Rastseliy (1050-1112), Uilyam Okkam (1300-1350) ta'limoticha, tabiatdagi yakka-yakka predmet va hodisalar, ularning xususiyatlari real mavjud, ularning in'ikosi bo'lgan umumiyl tushunchalar esa ikkilamchidir. Chunki, «umuman o'y», «umuman inson»-bir guruh, o'ylar, bir guruh kishilarning ini'kosidir, xolos.

## **O’z-o’zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. **O’rta** asrlar Sharqi arab musulmon falsafasi deyilganda qanday falsafiy qarashlar tizimi tushuniladi?
2. **O’rta** asrlar Sharqi arab-musulmon falsafasiga qanday xususiyatlar xos?
3. Nega Qur’oni Karimni **O’rta** asrlar Sharqi arab-musulmon falsafasining asosi deyiladi?
4. Birinchi arab faylasufi kim?
5. Ar-Roziyning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Al-G’azzoliy nega Islom ilohiyotchi faylasufi deyiladi?
7. Ibn Rushdning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
8. O’rta asr europa falsafasining qanday o’ziga xos jihatlarini bilasiz?
9. Foma Akvinskiy falsafasining asosiy g’oyasi nima?

## **Adabiyotlar ro’yxati:**

1. Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. . –T.: O’zbekiston 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –T.: O’zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T.: O’zbekiston 1999.
4. Osnovi filosofii: Uchebnoe posobie dlya studentov. –T.: O’zbekiston 1998.
5. Sulaymanova F. Sharq va G’arb. –T., 1997.
6. Forobi. Fozil odamlar shahri. –T., Ibn Sino, 1997.
7. Falsafa. o’quv qo’llanma. –T., Sharq 1999.
8. Falsafa. Ma’ruzalar matni. –T., 2000.
9. Xoja Ahror Valiy: tasavvuf va siyosat. – «Ma’rifat», 2004 yil, 25 avgust.
10. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
11. S.Yo’ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G’arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

## **4-MAVZU. IX-XII ASRLAR MARKAZIY OSIYO XALQLARI FALSAFASI.**

**Reja:**

- 1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari falsafasining yuzaga kelishi va rivojlanishi.**
- 2. Muso Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy larning tabiiy-ilmiy qarashlari.**
- 3. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari.**

VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarini arablar bosib olib, ular o'zлari istilo qilgan bu xalqlarga yangi din-isлом dinini zo'rlik bilan joriy qildilar. Bu davrlarda Markaziy Osiyo hududida Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Ustrushana, Chag'aniyon o'lkalari Sharq bilan G'arbni Shimol bilan Janubni bog'lvchi Ipak Yo'lining markazlardan bo'lib ular ma'daniy jihatdan ancha rivojlangan bo'lishadi. Lekin arablar bu o'lkalarni bosib olgach, ularni arab xalifaligiga bo'y sindiradi bu hududlarda o'zlarining bosqinchilik siyosatini olib borib, mahaliy xalqlarning madaniyati, dirlari, yozuvlari, bilimdon kishilarini butunlay yo'qtishga harakat qildilar. Arab bosqinchilarining bu hatti-harakatlariga qarshi mahalliy xalq vakillari Abu Muslim, Muqanna, Xamza al-Horij, Rafi Ibn Layslar boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Arab hukmdorlari bu qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradilar va bu xalqlarga uzil-kesil isлом dinini singdirib, o'z hukumronliklarini o'rnatadilar.

VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga kelganda, Arab xalifalarining markaziy Bag'dodda madaniy-ma'rifiy hayot ancha yuksalib, unda ilm-fan kuchli rivojiana boshlaydi. Bu shaharda tashkil topgan «Dor ul-hikma»-«Donolar uyi»da yahudiy, xristian va isлом olimlari o'rtasida hamkorlik ishlari, xususan, Qadimgi Sharq mutafakkirlari, yunon va rim olimlar asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozila boshlanadi. Bu ishlari, ayniqsa, xalifa Xorun ar-Rashid davrida va udan keyin uning al-Ma'mun xalifaligi davrida juda avj oladi. Al-Ma'mun otasi davrida xalifalikning Markaziy Osiyo bo'yicha vakili sifatida Marvda noib bo'ladi. U otasi vafotidan so'ng uning o'rniga xalifa bo'lgach, barcha musulmon o'lkalardan, shu jumladan, Markaziy Osiyodan ham olimu ulamolarni Bag'dodga jalb qilib, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Xususan, uning taklifiga ko'ra Bag'dodda bu davrda Markaziy Osiyodan kelishgan vatandoshlarimiz Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Marvaziy, Marvarudiy, Javhariy kabi buyuk olimlar faoliyat ko'rsatib, bu davr jahon ilm-fani, madaniyat va falsafasiga katta hissa qo'shishadi.

IX asrning oxirlariga kelib, Markaziy Osiyo hududlarida arab xalifaligining ta'siri susayib borib, bu hudud xayoqlari mustaqillikka erisha boshlaydilar. Mustaqillikka erishgan bu hududlarda bir necha mustaqil davlatlar paydo bo'ladi.

Bu mustaqil davlatlar: Samoniylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar kabi feodal davlatlari bo'lib, ular o'rtasida o'zaro savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ta'naviy munosabatlar rivojlanadi, natijada, bu mustaqil davlatlar hududlarida Buxoro, Samarqand, Mavr, Urganch, Xeva kabi shaharlar o'z davrining madaniyat va ma'rifat Markazlariga aylanadilar. Bu shaharlarda madaniy va ma'naviy hayot yuksalib, ilm-fan, san'at va madaniyat gurkirab rivojlna boshlaydi. Bu madaniy va ma'naviy markazlarda o'zaro va boshqa musulmon Sharqining turli shaharlari o'rtasida savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar kuchayadi, ularda ilm-fan o'choqlari: maktablar, madrasalar ochiladi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan bu mustaqil davlatlar boshqa musulmon o'lkalari davlatlari bilan o'zaro yaxshi diplomatik aloqalar o'rnatishlari tufayli Markaziy Osiyodan ko'plab yoshlar Bag'dod, Basra, Qohira, va Damashq kabi shaharlarga, Sharqning esa juda ko'p boshqa o'lkalardan Buxoro, Samarqand, Marv shaharlari madrasalariga o'qishga kelishib, ilm olishadi. Natijada, bu davrda Markaziy Osiyo xalqlaridan jahonga mashhur juda ko'p buyuk mutafakkirlar: olimlar, san'atkorlar, shoirlar etishib chiqishadi. Ayni shu davrda Markaziy Osiyodan jahonga mashhur islomshunos-hadisshunos olimlar: Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, entsiklopedist allomalar: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, mashhur islom fiqhshunosi Marg'inoniy, mashhur filolog olimlar: az-Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariylar yashab ijod etishadi.

Bu davr badiiy adabiyot sohasida ham arab, fors va turk tillarida ijod qilgan shoirlar: Abu Mansur as-Saolibiy, Rudakiy, Daqiqiy, Yusuf Xos Hojiblar o'z asarlari bilan dunyo madoniyatida o'chmas iz qoldiradilar.

X asrning oxiri-XI asrning boshlarida Xorazmda ilm-fan, madaniyat va san'at kuchli rivojlanadi. Bunda Xorazmshohlarning avlodlaridan bo'lgan shoh Ma'mun boshchiligidagi Markaziy Osiyoda birinchi akademiya-Ma'mun akademiyasi tashkil topib unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qiladi. Bu akademiyaga shu davrning buyuk olimlari, xususan, Abu ali Ibn Sino ham jalb qilinadi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan bu mustaqil feodal davlatlarida ular o'rtasida o'zaro urushlar, har hil to'qnashuvlar bo'lib turshilariga qaramay, bu davrda me'morchilik, qurilish ishlari, hunarmandchilik, obodonchilik, madaniy-ma'naviy aloqalar kuchayib, ular madaniy yuksalib borishadi. Bunday madaniy yuksalishlar, avvalo, ularning arab mustamlakachiligidan qutilishlari, bu xalqlarning mustaqil davlatlarining vujudga kelishi, o'zlarining milliy madaniyatlarini qayta tiklashlari, boshqa musulmon Sharqi o'lkalari davlatlari bilan madaniy aloqalarining yaxshi yo'lga qo'yilishi tufayli sodir bo'ladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi bu madaniy yuksalish VIII-IX asrlarda arab xalqlarida yuz bergen madaniy yuksalish kabi bu hudud xalqlari hayotida ham sodir bo'lgan o'ziga xos uyg'onish davri edi.

Ushbu uyg'onish, avvalo, bu xalqlar hayotida shu paytgacha ularda hech qachon yuz bermagan yangi siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalish,

bo'lib, u ayni shu davrda bu xalqlarning mustaqillikka erishuvi tufayli ro'y bergan edi. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlaridan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar insoniyat tsivilizatsiyasi tarixida o'ziga xos, betakror so'nmas iz qoldirishadi va o'zilaridan keyingi XIV-XVI asr Amir Temur davri madaniy yuksalishi yangi uyg'onshining hamda Evropa uyg'onishining vujudga kelishida juda katta rol o'ynadilar. Shuning uchun bu davr Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy yuksalishini haqli ravishda biz O'rta asrlar Sharq madaniy yuksalishining ilk Uyg'onish davri, deb ayta olamiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy uyg'onish o'zining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy jihatidan ham, hududiy geografik jihatdan ham, makon va vaqt jihatidan ham, arab uyg'onishi va Evropa uyg'onishidan tubdan farq qiladi. Bu uyg'onish davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida o'ziga xos, betakror madaniy yuksalish bo'lishi bilan, bu hudud xalqlarining o'zligini anglashi, o'z mustaqiligin qo'lga kiritishi, o'zlarining milliy mustaqil davlatlarini tuzishlari bilan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy yuksalishlari bilan, buyuk entsiklopedist daholarni etishtirishlari bilan insoniyat madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi. Lekin ikki asrdan ortiqroq davom etgan bu davr yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning, ularda hokimiyatni boshqargan mahalliy feodallarning o'zaro noittifoqligi, hokimiyat uchun, shon-shuhrat uchun, boylik uchun olib borgan urushlari, nizolari tufayli XIII asrning boshlarida o'z nihoyasini topadi. Markaziy Osiyo xalqlari XIII asrning 20-yillarida mo'g'llar tomonidan istilo qilinishi tufayli o'z mustaqilliklarini yo'qotadi va mo'g'llar asoratiga tushib qoladi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlarining ilk Uyg'onish davrida erishgan hamma yutuqlari, madaniy yuksalishi mo'g'llar tomonidan er bilan yakson qilinadi, o'zları talanadi, qiriladi, butun boyliklari tortib olinadi, butun o'lka mo'g'llarning Mustamlakasiga aylanadi. Bu holat deyarli bir yarim asr davom etib, nihoyat, XIV asrning 70-yillariga kelganda, Amir Temur tomonidan mo'g'llar asoratiga uzil-kesil zarba berilishi va mustaqil Amir Temur davlatlarining Temur imperiyasining vujudga kelishi bilan barham topadi. Amir Temur va temuriylar mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotidagi yangi uyg'onish davri edi. (Bu keyingi mavzuda yoritiladi).

2.a) IX-XII asrlarda insoniyat tsivilizatsiyasiga o'zlarning munosib hissalarini qo'shgan Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy (1783-850) dir. Al-Xorazmiy dunyo faniga juda katta hissa qo'shgan vatandoshimizdir. U algebra fanining asoschisidir. «Algebra» so'zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fil-hisob al-jabr va al-muhobilə» asarining nomidan olingan «al-jabr»ning lotincha yozilishidir. Uning arifmetikaga oid risolasi hozir biz foydalanadigan o'nlik qatorlar tizimi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, keyinchalik butun Evropa va dunyoga tarqaladi. Al-Xorazmiyning geografiyaga oid asari kiyingi davrlarda bir qancha geografik asarlarning yaratilishiga zamin bo'ladi. Uning astronomiyaga oid «Zij» asari Sharqda ham, Evropada ham astronomik bilimlarining rivojlanishiga yo'l ochib beradi.

Bular: (1) «Al jabr va al muqobala hisobi haqida kitob» (algebraga oid); (2) «Hind hisobi haqida kitob»(arifmetikaga oid); (3) «Kitob surat al-arz» (geografiyaga oid); (4) «zij» (astronomiyaga oid); (5) «Usturlob bilaan ishslash haqida kitob», (6) «Usturlob yasash haqida kitob», (7) «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», (8) «Kitob ar-ruhoma», (9) «Kitob at-ta'rix», (10) «Yahudiylarining taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola». Al-Xorazmiyning bu asarlari u yashagan feodal tuzumining amaliy talablariga javob sifatida vujudga keladi. Rivojlanib kelayotgan feodal tuzumi taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davr ilm-fan taraqqiyotining asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi. Bu davrdagi qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarini rivojlantirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya va boshqa ilm sohalarini taraqqiy ettirish zarur edi. o'z davrining ilg'or olimi bo'lgan al-Xorazmiy bu bilim sohalarining amaliy ahamiyati haqida aniq tasovvurga ega bo'lgan holda o'zining arifmetikaga oid asarida shunday yozgan edi: «Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitobni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnomha tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, er o'lchash, kanallar o'tkazishda (amaliy) Olimning «Al-Xorazmiy» nomi lotin tilida «algoritmus» deb atalib, hozir bu ibora hisoblash sohasida «algoritm» degan holda fanda chuqur o'rashib qoldi. Al-Xorazmiyning tabiatshunoslik fanlariga oid 20 dan ortiq asarlari bo'lib, ulardan bizgacha faqat 10 tasi etib kelgan geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Xorazmiyning algebraga oid «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» risolasi uch qismdan iborat bo'lib, 1-qismning oxirida kichik bir bo'lim savdo muomalasiga oid masalalar; 2-qism-geometrik qism-algebraik usullar qo'llangan o'lchashlar haqida, nihoyat, 3-qism-vasiyatlar haqidagi qism. Bu qismni u «Vasiyatlar kitobi» ham deb atagan. Bu asarning boshida al-Xorazmiy o'z oldiga kompleks sonlarga oid masalalarni echishga doir nazariy fikrlarni bayon qilishni maqsad qilib qo'yadi. Shu bilan birga, u o'z davrida kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga ko'ra yuzaga keladigan masalalar, me'morchilik va irrigatsiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishni ham ko'zda tutganligini bildiradi.

Umuman olganda, al-Xorazmiy algebrasi-bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni echish haqidadir. Uning aytishicha, algebra uch xil son bilan ish ko'radi. Bularning birinchisi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), ikkinchisi: kvadrat (mol), uchinchisi: oddiy son yoki dirxam. Al-Xorazmiyning yozishiga, ildiz-o'zini o'ziga ko'paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa ildizni o'ziga ko'paytirishda hosil bo'lgan kattalik (son)dir. Uning asarida u ish ko'radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlarga oid amallardir. Al-Xorazmiy o'z risolasida ish ko'radigan bu masalalar oltita chiziqli va kvadrat tenglamalarning tasnifi va echimiga oiddir. Al-Xorazmiy asos solgan bu algebraik bilimlarni undan keyin Sharq olimlari davom ettiradi va muvaffaqiyatli rivojlantiradilar.

Al-Xorazmiyning eng yirik asari uning astronomiyaga oid «Zij»dir. Bu asari 37 bob, 116 ta jadvaldan iborat bo'lib, uning dastlabki 5 bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, ularda «to'fon», «iskandar», «safar» va xristian eralariga oid yil, asr sanalarini hijriy eraga ko'chirish qoidalari beriladi. 6-bobda u aylana (doira)ning 12 burji, har bir burj-30 darajaga, har bir daraja 60 daqiqaga, har bir daqiqa-60 soniyaga va hokazo bo'laklariga bo'linishi bayon etiladi. 7-22-boblarda Quyosh, oy va 5 sayyoraning harakatlari bayon qilingan. 23-bob esa trigonometriyaga bag'ishlanib, unda al-Xorazmiy «tekislik» va «akslangan sinus» tushunchalarini kiritadi va ularga oid funktsiyalar jadvalarini keltiradi. 25-27-boblar matematik geografiyaga bag'ishlangan. Bu boblarda muallif geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalarni keltiradi. Shu bilan birga, bu o'rinda koordinatlarning o'zgarishi Quyoshning yillik, oylik va sutkalik harakati ekliptik: ekvatorial koordinatlarining o'zgarishi bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. 28-bobda esa al-Xorazmiy yana trigonometrik masalalarni qo'yib, bunda tangens, kotangens tushunchalarini kiritadi va ularga mos jadvallarni beradi. 29-bobda u yana planetalar harakati va ularning harakat tezligi haqida bayon qiladi. 30-bobda Quyosh va oy ko'rinas kulchalarining o'lchamlari keltiriladi. 31-32 va 36-37-boblarda munajjimlik masalalarining bayoni beriladi. Nihoyat, 33-35-boblarda Quyosh va Oy tutilish va parallaks (yoritkichning ko'rinish farqi) masalalari yoritilib berilgan. Al-Xorazmiyning bu asari butun Sharq va Evropa tabiatshunoslik bilimlarining taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hatto u keyingi davr geografik kashfiyotlarning ochilishida ham muhim rol o'ynaydi.

Al-Xorazmiyning «Er surati haqida kitob»i geografik asar sifatida juda muhim ahamiyatga ega. Kitobda boshlang'ich meridian sifatida Arin (hozir Hindistonda Ujayn) shahridan o'tgan meridian tanlangan. Unda Erdagi shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402ta geografik joylarning koordinatlari keltiriladi. Bu shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa joylar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan. U o'z geografiyasini iqlimlar nazariyasiga ko'ra birinchi marta to'liq bayon etgan. Al-Xorazmiy Erning insonlar yashaydigan obod qismini etti iqlimga ajratadi. U uzunliklarni Kanar orollaridan boshlab hisoblaydi. Al-Xorazmiy ekvatordan janubda 8 ta shahar; 1-iqlimda 64 ta shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 ta shahar, 4-iqlimda 146 ta shahar, 5-iqlimda 79 ta shahar, 6-iqlimda 63 ta shahar, 7-iqlimda 25 ta shahar va 7-iqlimdan shimoyada 40 ta shaharning koordinatlarini keltiradi. Asarning 2-bobida shu etti iqlimdagagi tog'lar tasvirlanadi. Tog'larning boshlanishi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Al-Xorazmiy bunda Yaqin va O'rta Sharqdagi, ayniqsa, Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog'larni, bu erlardagi shaharlarni batafsil bayon qiladi. Bunga uning bu erlarning geografiyasini yaxshi bilganligi, ular bilan shaxsan tanish bo'lganligi qo'l keladi.

Xullas, al-Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, u fanlarning qator tarmoqlarining asoschisidir. Uning bu bilimlar

sohalariga oid g'oyalari keyinchalik bir necha fanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga asos bo'ldi.

Al-Xorazmiy asarlari dunyoning turlri kutubxonalarida saqlanmoqda, ular turli Sharq va G'arb tillariga tarjima qilingan. U o'z asarlari bilan nafaqat o'z vatani-Xorazmni, balki butun Sharq, arab dunyosini, Markaziy Osiyonidagi dunyo xalqlariga mashhur etdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi vatandoshimiz, buyuk alloma al-Xorazmiy ijodiy faoliyatini, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini chuqur o'rganishga va kelgusi avlodlarga imkonni boricha to'liq etkazshga sharoit va imkoniyat tug'dirdi. Bugungi kunda professor O.F.Fayzullaev qayd qilganiday, geometriyani Evklid, noevklid geometriyani Lobachevskiy, kimyoviy elementlarning davriy tizimini Mendeleev, nisbiylik nazariyasini Eynshteyn yaratganidek, «tenglamalar nazariyasi sifatida algebrani al-Xorazmiy kashf etganligini butun jahon tan oladi». Fan va texnika sohalarida «amper», «vatt», «rengent», «kyuri» kabi terminlar qatorida «algoritm», «algol» tushunchalari ham ilmiy muloqatdan mustahkam o'rinni oldi.

2. b) IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Markaziy Osiyo xalqlari va butun dunyo tabiiy-ilmiy fiqrarning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarning ikkinchisi Ahmad Ibn Muhammad al-Farg'oniy (798-865) dir. Ahmad Farg'oniy O'rta asrlarda yashagan Markaziy Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida asosiy o'rinni egallaydi. U asli Farg'onanining Qubo (hozirgi Quva) shahrida tug'ilib o'sib, o'zining datlabki ma'lumotini shu erda oladi. Ahmad o'tkir zehnli va qobiliyatli bola bo'ladi, u matematika, geografiya, mantiq, ilohiyot, falsafa, tilshunoslik sohalarini puxta egallaydi, xusnixat sohasida suls va nasx xatlarini chirolyi yozadigan bo'ladi. Ahmad o'z davridagi arab, fors, turk va yunon tillarini o'rganadi. U o'zi o'rgangan barcha ilmlar ichida, ayniqsa, astronomiya (ilmi nujum)ga katta mehr bilan qaraydi. So'ng o'z bilimlarini oshirish, o'qish va o'rganish uchun o'sha davrning ilmiy markazlaridan bo'lgan Bag'dodga kelib, u erda «Baytul-hikma» («Hikmatlar uyi»)da ustozlardan saboq olib, o'zi ham ilmiy tadqiqotlar olib boradi. U bu erdagidagi olimlar bilan birlikda va hamkorlikda hind, fors va yunon tillaridan arab tiliga tarjimalar qiladi.

Ahmad Farg'oniy Bag'dodda «Baytul-hikma»ning etakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu erda yashab, ijod etadi. 1998 yilda Mustaqil O'zbekiston ahli va butun jahon jamoatchiligi Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligini keng nishonladi.

Hozirgi kunda Ahmad al-Farg'oniyning 8 ta asari bizga ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir. U sar quyidagilar:

1. Astronomiya asoslari haqida kitob (arabcha: «Kitob fi usul imi an-nujum»-ya'ni «Astronomiya ilmining usullari haqidagi kitob»).
2. «Usturlob bilan amal qilish haqida kitob» (birgina qo'lyozma holda Rampur (Hindiston)da saqlanmoqda).

3. «Oyning er ostida va ustida bo’lish vaqtlarini aniqlash haqida risola».
4. «Etti iqlimni hisoblash haqida» (qo’lyozmalar Gotada va Qohirada saqlanmoqda).
5. «Quyosh soatini yasash haqida kitob» (qo’lyozmalar Halab va Qohirada saqlanmoqda).
6. «Al-Horazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari (qo’lyozmasi topilmagan).
7. «Al-Farg’oniy jadvallari» (qo’lyozmasi Patna (Hindiston)da saqlanadi).
8. «Samoviy harakatlar va umumiy ilminujum kitobi» (arobcha: «Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilmi annujum»). Bu asari XII asrdayoq Evropada lotin tiliga tarjima qilinib, uning muallifi lotincha turilgan holda «Alfraganus» nomi bilan XIII asrda boshqa Evropa tillariga ham tarjima qilinadi va Evropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o’taydi.

Al-Farg’oniyning bu yuqorida keltirilgan asarlaridan birinchi va va sakkizinchilaridan boshqalari shu paytgacha hali hech kim tomonidan o’rganilmagan va hozirgi zamon tillariga tarjima ham qilinmagan. O’zbekiston mustaqillikka erishuvi va al-Farg’oniy vatandoshimizning 1200 yillik yubileyini o’tkazish munosabati bilan bizning olimlarimiz uning bu asarlarini o’rganish, o’zbek tiliga tarjima qilish ishlarini boshlab yubordi. Umid qilamizki, ular o’rganilib, tahlil qilinishi bilan al-Farg’oniy vatandoshimiz ijodining yangi qirralari, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining yangi-yangi tomonlari ochilib, bizning mustaqilligimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Al-Farg’oniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob» asari astronomiyadan eng sodda darslik bo’lib, u astronomiyadan boshlang’ich ma’lumotlarni o’zlashtirishda ancha qulay bo’lgan. Uning 9-bobi-geografiya bo’limi «Erdagi ma’lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagи narsalar haqida» deb atalib, unda erdagи etti iqlimning hammasi, ulardagi mamlakatlar, viloyatlar va shaharlari bilan birga tasvirlanadi va tavsiflanadi. Al-Farg’oniy bunda o’z tavsifini Afikaning Atlantika okeani qirg’oqiga yaqin joylashgan faolardan boshlab. Osiyo qita’sining eng Sharqiy chekkasigacha, ya’ni Tinch okeanidagi Yaponiya orallarigacha davom ettiradi. Uning tasnifi va tavsifi kengliklar yo’nalishida ekvatorial erlardan to shimoliy qutb erlarigacha davom ettiradi. Al-Farg’oniyning tavsiflash usuli Al-Xorazmiyning tavsiflash usulidan farq qilib, u hindlarning an’anasiga asoslanadi. Uning iqlimlar tafsifida 3-, 4-, 5-, 6- va 7- iqlimlarning tafsifi diqqatga sazovordir. Bularda Markaziy Osiyo va unga tutash erlarning shahar va viloyatlari batafsilroq va to’laroq tavsiflanadi. Masalan, quyida biz bu tavsiflardan misol keltirganimizda, bunga o’zingiz ham guvoh bo’lasiz: «Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatning shimolidan, so’ng Hind mamlakatidan va so’ngra Qobil va Kemon viloyatlaridan o’tadi.

To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so'ngra Xurosandan o'tadiki, bunda Xo'jand, Ustrushona, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Xirot, Amuya, Marvarud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfaxondan o'tadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi, unda Toroz shahri-savdogarlar shahri bor. Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (O'tror-hozirgi Aris) va Ozayborjon, Armiya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxchivan) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan o'tadi, so'ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volga bo'yin), Jurjon (Kaspiy) dengizining o'rtaidan kesib o'tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Ettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatning shimolidan boshlanadi, so'ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo) o'tadi, so'ng Jurjon dengizining shimolidan o'tadi, so'ng Rum (Qora dengizi) dengizini kesib o'tadi va saqlablar (slavyanlar) mamlakatlaridan o'tadi va G'arb dengizi (Atlantika)da tugaydi. Bu yuqorida keltirilgan parchadan ko'rish mumkinki, Al-Farg'oniy katta kengliklardi o'lkalarni tasvirlar ekan, o'zining ona vatani Markaziy Osioniyi batafsilroq tavsiflaydi. Uning Yajuj mamlakati degan kenglik bu mo'g'ilstonning Sharqi va Xitoyning shimoliy-Shaqiga oid geografik hududlardir.

Al-Farg'oniy Olam manzarasini fikran o'ziga xos idrok qilgan. U vaqtarda Olam sakkiz qavat osmondan, ya'ni Quyosh, Oy va beshta sayyora-Merkuriy (Utorud), Venera (Zuhra), Mirrix (Mars), Yupiter (Atorud), Saturn (Zuhal) va 102 ta yulduzlar sferelaridan tashkil topgan, deb tasavvur qilingan Al-Farg'oniy osmon sferasi o'zida bor narsalarning hammasi bilan birlikda aylanib turadi. Er o'zidagi barcha qit'alar va okeanlar bilan birgaliqda gumbazda o'xhash. Quyosh va Oy chiqqan vaqtida yoki botayotganda ularni erving turli o'rinalaridagi kishilar babbaravar ko'rmaydilar. Erning Sharqiy bo'lagidagi kishilar Quyosh va Oyning chiqishini oldin ko'riimadi. Kishi agar Erning shimoliga borsa, ilgari shimaldan chiqadigan yoritqichlar doimo ko'rindigan bo'lib qoladi. Ilgari janubdan chiqadiganlari esa umuman ko'rindan qoladi. Bu aytilganlar Erning yuzasi yumoloq ekanligini va Erning gumbazga o'xshashligini bildiradi, deydi.

Bulardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Al-Farg'oniy Erni Ptolemeyga nisbatan boshqacha tushunadi. Al-Farg'oniyning astronomiyaga qo'shgan hissasi-bu osmon sferalari yoritqichlari, xususan, Erning ham radiuslarini birincha marta o'lchab, aniqlab borishi edi. Bu olam tuzilishini ilmiy tasavvur etishning muhim vositasi bo'ladi.

Al-Farg'oniyning yozishicha, osmon manzarasini gavlantirib beradigan ikkita (belbog') bor, ular: osmon ekvatori va Quyosh ekliptikasi. Osmon ekvatori Er ekvatorining davomi, ular bir tekislikda yotadi. Quyosh ekliptikasi esa Quyoshning Er atrofida (aslida ernen quyosh atrofida, tevaragida!) harakati natijasida hosil bo'lgan traektoriyadir. Osmon ekvatori bilan Quyosh eliptikasi tekisliklari o'zaro doimiy burchakni hosil qiladi. Bu burchak 23 daraja 1035

minut. Bu o'lchov (Ptolemeyda -  $23^{\circ} 51'$  edi) ancha aniq edi. Al-Farg'onyiy Er radiusi yoyining  $1^{\circ}$  ining uzunligini topib, uni 360 ga ko'paytirib, 40800 km ni tashkil qilishini aniqlaydi. Bu Er meridiananing uzunli edi. Er va meridiananing hozirgi zamон ilmiy asboblari va usulari bilan o'lchangan uzunligi, ya'ni «Er belbog'i» 40 ming 8 kmni tashkil qiladi. Shunday kelib chiqsak, Al-Farg'onyiy o'lchovi o'z davri uchun juda katta anqlik edi.

Al-Farg'onyiy dunyo xalqlarining yil hisoblari-kalendlari muammosi bilan ham shug'llanadi, u hind, yunon, eron, suriya, Kopt, Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan barcha kalendlarni taqqoslab o'rganib chiqadi. Al-Farg'onyiy yilning 4 fasldan iboratligi, ular orasidagi munosabatlar geografik kenglikka bog'liqligini aytib, bu muammoni echishga ham o'z ulushini qo'shaydi.

Al-Farg'onyiy Quyosh, Oy, sayyoralar va yulduzlarning harakati va munosabatlarini o'rganishda, osmonning kelajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul qabul qilib olinishida usturlob (astrolyabiya) asbobining ahamiyati haqida, uning nazariyasini yaratadi. Bu stereografik proektsiyalar nazariyasi edi. Al-Farg'oniyning bu kashfiyoti keyingi davr astronomik-matematik nazariyalar barchasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Al-Farg'onyiy Er ekvatorida Quyosh ikki marta bahorgi va kuzgi teng kunliklarida zenitda bo'lishini, osmon qutblari gorizont teksligida yotishini, qutblarda kecha qishga, kunduz yozga 6 oydan teng bo'lishlaririni ham ko'rsatib bergan. U Qohira yaqinidagi Rauza oralida o'zining o'lchov ishlarini olib borgan, u Nil daryosi gidrometerologik tabiatini aniqlab beruvchi kilometrni ham quradi, bu kilometr bugungi kungacha ishlab kelmoqda.

Al-Farg'onyiy birinchi bo'lib, Quyosh va Oy tutilishlarini ham ilmiy tushuntirib bera olgan mutafakkirdir. Shunday qilib, Al-Farg'onyiy O'rta asrlarda astronomiyaga oid asar yozgan mutafakkirlardan birinchi bo'lib Sharqda va Evropada shuhrat qozondi hamda butun dunyo ilmiy jamoatchiligi orasida barqaror mangu o'rinni oldi. Al-Farg'onyiy o'z davrida ilm-fan rivojlanmasa, mamlakat obod, yurt farovon bo'lmaydi, deb tushunar edi. Uning fikri-zikrida xalq, uning osoyishtaligi, to'q va farovon turmush kechirishi yotadi. Bu osa faqat ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyatni rivojlantirish orqali amalga oshadi, deb ishonib yashardi. Al-Farg'oniyning bu g'oyalari bugunchi kunda biz uchun ham juda qimmatlidir.

3. a) O'rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishda, ayniqsa, Abu Nasr Ibn Muhammad al-Forobi (870-950) faxrli o'rinni tutadi. U Sirdaryo bo'yidagi Forob qishlog'ida tug'iladi va dastlabki bilimini Shosh, Samarqand va Buxoroda oladi. So'ngra Forobi o'z bilimini davom ettirish uchun Bag'dodga boradi. Natijada, u o'z davrining yirik olimi va buyuk faylasuf bo'lib etishadi. Forobi Bag'dodda yashab ijod qiladi, umrning so'ngri yillarini Xalab va Damashqda o'tkazib, shu erda vafot etadi.

Al-Forobi 160 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib, bizga ularning bir qismigina etib kelgan. U yaratgan asarlarni ularning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini

o'rganish, tarjima qilish va sharhlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning «Kategoriyalar», «Ikkinchchi analitika», «Topika», «Poetika», «Ritorika», «Sofistika» va shu kabi asarlariga yozilgan sharhlarni keltirish mumkin; b) O'rta asr fanining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar. Bulardan: «Ixso-al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel «Mantig»ining talqinlari», «Katta musiqa kitobi», «Assiyosat al-madaniy», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Fozil odamlar shahri» va shular kabilardir.

Forobiy asarlarini ularning mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Falsafaning umumiyligi masalalariga oid asarlar (Masalan: «Substantsiya haqida so'z», «Masalalar manbai», «Qonunlar haqida kitob» va shular kabi);
2. Inson bilishining tabiatiga oid asarlar (Masalalar: «O'shlarning aqli haqida kitob», «Kattalarning aqli haqida so'z», «Mantiq haqida katta qisqartma kitob», «Isbot kitobi», «Sillogizm shartlari kitobi», «Jonning mohiyati haqida risola» va boshqalar);
3. Falsafa va tabiatshunoslik fanlarining mazmuni va mundarijasi haqida asarlar (mas.: «Implarning kelib chiqishi va ta'rifi haqida kitob», «Faslafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z», «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob», «Falsafaga izohlar» va shular kabi);
4. Moddaning miqdori, xajmi va fazoviy munosabatlarini o'rganishga oid asarlar (mas.: «Hajmi va miqdor haqida so'z», «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob» va boshqalar);
5. Modda xossalari va turlari, hayvon va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi asarlar (mas.: «Fizika usullari haqida kitob», «Hayvon a'zolari to'g'risida so'z», «Inson a'zolari haqida risola va shu kabilar»);
6. Tilshunoslik, she'riyat, notiqlik va hattotlikka oid asarlar (mas.: «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Ritorika haqida kitob», «Lug'atlar haqida kitob», «Hattotlik haqida kitob» va boshqalar);
7. Ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish, axloq, huquq va tarbiyaga oid asarlar (mas.: «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Shaharni boshqarish», «Urush va tinch turmush haqida kitob», «Fazilatli hulqlar» va boshqalar).

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyosining tuzilishi haqidagi panteistik ta'limoti tashkil qiladi. Bu ta'limotga ko'ra, butun mavjudot-borliq emonatsiya asosida yagona boshlang'ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo'lish, ular o'zaro sababiyat orqali bog'langan. Bundagi birinchi bosqich-birinchi sabab – bu «vujudi vojib»-o'z-o'zidan zaruriy mavjud bo'lган yagona Olloh (as-sabab al-avval); ikkichi bosqich-bu birinchi «vujudi mumkin» bo'lib, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir (as-sabab as-soniy); uchinchi bosqich-bu ikinchi «vujudi mumkin», ya'ni faol aqldir (al-aql al faol); to'rtinchi bosqich - to'rtinchi sabab-bu tirik mavjudotlarga xos jonxir (an-nafas), ya'ni uchinchi «vujudi mumkin» dir; beshinchi bosqich-beshinchi sabab-bu

narsa va hodisalarining ko'rinishi, ya'ni shakli (as-surat)dir, ya'ni turtinchi «vujudgi mumkin»dir; nihoyat, oltinchi bosqich-oltinchi sabab-bu narsa va hodisalarining jismi, tanasi, ya'ni moddadir, bu beshinchi «vujuddi mumkin»dir. Bu bosqichlar bir-birlari bilan sababiy bog'langandir.

Borlikning Forobiy tomonidan bunday talqin qilinishi o'sha davrda tabiiy-ilmiy g'oyalarning yanada rivojlanishiga keng yo'l ochadi. Uning talqinidagi to'rtinchi, beshinchi va oltinchi bosqichlar osmon va er sathidagi jismlar moddiylik xossasiga ega bo'lib ular ham 6 turga bo'linadi: to'rt element osmon jismlari, minerallar, o'simliklar, aqlsiz hayvonlar va aqli hayvonlar. Forobiyning borliq haqidagi bu ta'limotida shakl va mazmunning munosabati haqida u shaklni narsalarning qiyofasi, tuzilishi va shu kabi miqdoriy aniqlovchilarning yaxlit ko'rinishi, deb; moddani esa narsalarni tashkil qiluvchi mohiyat, asos, deb tasavvur qiladi.

Forobiy xudo bilan borliqni bir butunlik sifatida olib, ulardan sabab-oqibat shaklida boshqa barcha narsalarni keltirib chiqaradi. Uningcha, xudo yakka-yagona bo'lib, u na massaga, na nasabga, na ta'rifga ega bo'lмагan zaruriy, o'z-o'zicha mavjud «vujudi zarurdir», boshqa barcha bosqichlarning, xususan, moddaning ham sababidir. «U shu ma'noda barcha narsalar mavjudligining sababini;-deb yozadi Forobiy,-u ularga abadiy mavjudlik kasb etadi va ularni no mavjudlik xolos etadi».

Forobiyning fikricha, oltinchi bosqich modda ko'plab belgi va xususiyatlarga ega, ya'ni u sifat va miqdorga, substantsiya va aktsidensiyaga, imkoniyat va voqelikka, zaruriyat va tasodifga, harakat, makon va zimonga ega. Uning ta'kidlashicha: «hamma narsalar uchun umumiy jism-olamdir, olamdan tashqarida hech narsa yo'q». Jism bo'lishlik hislati mavjud hamma narsalarning xususiyatidir.

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o'zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqli hayvon»desa ham aqli inson haqida shunday yozadi: «Aqli deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, (ular) yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil, deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqli, deb bo'lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim»

Forobiy, borliqni insoning bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy «quvvatlar», jumlardan bilish qobiliyati ham unga bog'liq, deydi. U o'zining «Ilm va san'atning fazilatlari» risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aktsidenttsiya (al-oraz)lardan, ya'ni sifatlardan substantsiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi.

Forobiy inson bilishi jarayonini ikki bosqichga bo'lib, bu bosqichlarning o'zaro bog'liqligini, aqliy bilim hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida

ta'kidlaydi. U inson bilish jarayonining bu bosqichlarini insondagi «tashqi quvvat» va «ichki quvvat»lar bilan izohlaydi. «Tashqi quvvatlar» bevosita tashqi ta'sirlar orqali sezgi a'zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Ular 5 turli: teribadan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularnng hammasini Forobiy hissiy bilish («quvvat hissiya»), deb qaraydi. «Ichki quvvatga»ga esa u esda olib qolish (xotira), xayol (tasavvur), his-tuyg'u nutq (fikrlash) «quvvatlari»ni kiritadi. «Ichki quvvat» deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallah shu «quvvatlar» orqali amalga oshadi.

Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikrgacha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir.

Forobiy o'z bilish nazariyasida Platonning g'oyalar dunyosi, g'oyalarning tug'ma bo'lishi haqidagi ta'limotga qarama-qarshi, 70-yalarning, tushunchalarning borqdan, reallikdan olinganishi, masalan, matematik tushunchalar: nuqta, chiziq, doira va sath kabi geometrik tushunchalar real mavjud narsalarning inson miyasidagi fikrit in'ikoslari ekanligini aytadi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham muxim ahamiyatga ega. U O'rta asrlarda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqida izchil talimot yaratdi. Forobiyning bu ta'limoti uning «Fozil shahar aholisining maslagi», «Davlat saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. U «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida shunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga extiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko'paydilar va arning aholi yashaydigan qismiga o'rashdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi»

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning etuk shakli, insoniyat komolotga erishuvning muhim vositasi hisoblaydi. U insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni o'zaro do'stlikka, tinchlikka chaqirib, dunyoda yagona insonlar jamiyatni tuzishni orzu qiladi. Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatni qoralab, inson qadr-qimmatini ulug'lovchi jamiyatni orzu qiladi. U o'zining «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida: «Davlatning vazifasi insonlarni baxtsaodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi», - deb yozadi. Forobiy davlatni har tomonlama etuk kishi, etuk hislatlarga ega bo'lgan, xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi lozimligini aytadi. Davlatni etuk kishilar boshqarsagina fozil jamiyat, fozil shahar, fozil mamlakat qaror topadi. Fozil jamiyat, fozil davlat shunday bo'ladiki, bu jamiyatning har bir a'zosi kasb hunar, ilm-fanni egallah bilan shug'ullanadi. Bunday davlatda

odamlar chin ma’nosи bilan ozod va erkin bo’ladilar. «Ular orasida turli xil yaxshi odatlar, shavqli-zavqli shular paydo bo’ladi». Bunday jamoatni boshqaruvchi kishi yoki kishilar guruhi o’zlarida olti xil hislatga ega bo’lishi zarur. Bular: avvalo adolatli bo’lish, ikkinchidan, dono bo’lishi uchinchidan, qonunlarga qat’iy rioya qilishi va to’rtinchisi yangi qonunlar yarata olishi, beshinchisi-kelgusini oldindan ko’ra bilishi, va nihoyat, oltinchisi-boshqalarga g’amxo’r va mehribon bo’lishi kerak.

Umuman olganda, Forobiyning fozil jamoa, fozil davlat, fozil rahbar haqidagi ta’limoti uning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog’lanib ketadi. Mutafakkirning qarashicha, fozil jamoadagina komil inson hislatlari kamol topadi. Uning bu ta’limoti insonni ma’naviy ozod etishiga, uning imkoniyatlarini, qobiliyat va iste’dodlarini ochishga, yuzaga chiqarishga, xizmat qilib, ilg’or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo’lib qo’shildi.

Forobiy o’z falsafiy qarashlarida insoniylikni ulug’laydi. U bu haqda shunday yozadi: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido-insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo’lganligi uchun ham o’zaro tinchlikda yashamoqlari lozim».

Xullas, Forobiy falsafiy qarashlariga yakun yasab shuni qayd lozimki, uning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari o’zidan keyingi mutafakkirlar, xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino qarashlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o’ynadi.

Forobiy o’z davridayoq buyuk foydalar, Sharq mutafakkirlari orasida Aristoteldan keyingi «Ikkinci muallim» degan nomga sazovor bo’lgan qarashlari bizning mustaqillik sharoitimidza ham muhim ahamiyatga ega.

3. b) O’rta asr Sharqining, xususan, Markaziy Osiyo ilk uyg’onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy (973-1048)dir. U qadimiy Xorazmining poytaxti bo’lgan Kot shahrida tug’ilib o’sadi va shu erda muvaffaqiyat bilan bilim oladi. U ona tilidan tashqari, arab, sug’d, fors, suryoniy, yunon, qadimiy yoxudiy tillarini, keyinroq sanskrit va hind tillarini o’rganadi. Beruniy o’z davridagi deyarli hamma ilm sohalarini egallaydi va ularga oid o’zi ham ko’plab asarlar yozadi. Natijada, u o’zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmiy meros – 160 dan ortiq asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldiradi. Uning bu asarlarining 45 dan ortig’i astronomiyaga, qolganlari tabiatshunoslik, tarixshunoslik, filologiya va falsafiy muammolarga bag’ishlangan bo’lib, ularning bir qismigina bizgacha etib kelgan. Beruniyning bizgacha etib kelgan asarları: «Osoral-boqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»), «Hindiston», «Geodeziya», «Kitobi Saydana» («Farmakagnoziya»), «Geografiya», «Qonuni Ma’sudiy» («Ma’sud qonunları»), «Mineralogiya», «Kitobi at-tafxim», «Dorivor o’simliklar haqida kitob» va boshqalarni ko’rsatash mumkin. Uning «o’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» («Osor al-boqiya») asarida muallif yozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari asosida xorazmliklar, sug’diyalar, eroniylar va arablarning islom dinigacha bo’lgan

e'tiqorlari to'g'risida, ularning astronomik, matematik va geografik tushunchalari haqida juda qimmatli tarixiy ma'lumotlar beradi.

Beruniy o'zining «Hindiston» nomli asarida Hindistonning iqlimi, uning geografik tuzilishi, xalqlari, ularning urf-odatlari, ilm-fani, adabiyot va san'ati, falsafasi, diniy qarashlarini bayon qilib beradi. U bu asari bilan juda katta shuhrat qozonadi.

Beruniy astronomiyaga oid bir qancha original asarlar yaratib, ularda oston yoritqichlarining harakatlari ustida olib borgan kuzatishlarini bayon qiladi va o'z o'tmishdoshlari al-Xorazmiy, al-Farg'oniy qarashlarini rivojlantiradi.

Beruniy «Geodeziya», «Kitobi Saydana» («Farmakagnoziya»), «Geografiya» asarlarida o'zining topografiya, farmakognoziya, geografiya, meteorologiya sohalarida olib borgan tadqiqotlarini umumlashtirib bayon qilib beradi. Bu asarlari ham shu sohalarga oid ishlarga juda katta hissa bo'lib qo'shiladi. U o'zining «Astrologiya san'ati asarlarini o'rganish uchun kitob» asarida osmondag'i o'n ikki burj, ular bo'yсинадиган sayyoralar tabiat, harakati, ularning Er iqlimiga ta'siri haqida, bu haqdagi to'g'ri va xato qarashlarni bayon qiladi.

Beruniyning astronomik qarashlarida Erning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrlari juda qimmatli fikrlardir. U astronomiyada o'z davrida sayyoralar va osmon yoritqichlarini izohlashda geotsentrik va gelotsentrik ta'limotlarni qo'llash bu fanga hech bir zarar keltirmaydi, deydi, aksincha, bu ta'limotlar orqali astronomik hodisalarini yaxshilab tushuntirib berish mumkin, deydi.

Beruniyning Er, Quyosh, uning nurlari, nurlarga xos issiqlik, er ichki xaroratlari, ularning tabiat haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovordir. Uning bu hodisalar haqidagi mulohazalarida qanchadan-qancha genial gumonlar, fikrlar o'z ifodasini topgan.

Beruniy o'z asarlarida tog'lar va sahrolar, daryo va dengiz hamda okeanlar, foydali qazilmalar, minerallar, ularning paydo bo'lishi, xossa va xususiyatlari haqida ham qimmatli ilmiy fikrlarni bayon qiladi. Bu jihatlari bilan u buyuk tabiatshunos olim sifatida namoyon bo'ladi. Beruniy o'z astronomik qarashlarida hatto koinotda boshqa dunyolar ham mavjud degan fikrni ilgari suradi. Olimning bunday fikrlari, bir tomonidan, uning qadimgi Hind, Markaziy Osiyo va yunon mutafakkirlarning ilg'or qarashlarini chuqur o'rganganidan, tafakkur doirasining juda kengligidan dalolat beradi. *Biz Beruniy asarlarini o'rganar ekanmiz, deb yozgan edi taniqli faylasufimiz I. Mo'minov, – uning teran aqliga, iste'dodiga, dadilligi va mardligiga, tabiat va uning hodisalarini tushunish va tushuntirishda teran ilmiy tafakkur yuritishiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q . . .* Astronomiya sohasida o'z zamonasi darajasidan butun bir tarixiy davrga ilgarilab ketgan ilmiy fikrlarni izhor etish va targ'ibot qilish uchun Beruniydek haqiqat qidiruvchi bo'lmoq lozim edi.

Beruniy O'rta asr Sharq uyg'onishi sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, u tabiatshunoslikning turli sohalarida o'z davri uchun

taajjubga soluvchi shunday ilmiy va faraziy fikrlarni olg'a surdiki, ular bir necha asrlardan so'ng Evropa ilmida o'z isbotini topdi.

Beruniy al-Xorazmiy, al-Farg'oniy tabiatni bilish, o'rganishda asoslangan kuzatish, taqqoslash, tajriba, mantiqiy umumlashtirish tahlil kabi metodlarni o'z tadqiqotlarida to'g'ri qo'llash assosida ularni ilmiy mazmun jihatidan boyitdi. U o'z ilmiy faoliyati jarayonida tabiatni bilishning tajriba ilmiy metodini ishlab chiqdi. Beruniyning bu metodiga ko'ra, tabiatni bilishda eskilik, fanatizm, aqidachilik, shaxsiy g'araz, sub'ektivizmdan ozod, bo'lism, aksincha, tabiatning o'ziga, uni kuzatishda tajribaning rad etib bo'lmaydigan dalillariga asoslanish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Beruniy asarlarida, uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan bog'liq chuqur ijtimoiy-falsafiy mulohazalar, umumlashmalar ham o'z ifodasini topgan. U Forobiy falsafiy ta'limotiga asoslanib olloohni hamma narsaning birinchi sababi, deb hisoblaydi. Uning tushunishicha ham xudo hamma narsaning yaratuvchisi ekanligi e'tirof qilinadi. Lekin Beruniy shu birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o'zgarish huquqini tabiatga beradi. Uning ta'limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi, tabiat o'zining tabiiy kuchiga ega bo'lib, shu kuch ta'sirida tabiatda to'xtovsiz harakat, o'zgarish, o'sish, rivojlanish, vujudga kelish, emirilish, halok bo'lism jarayonlari sodir bo'ladi. Bularidan shunday xulosaga kelish mumkinki Beruniy o'z falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan. U moddiy dunyoning adabiyotligi haqida gapiradi.

Beruniy fikricha, xudo va boshlang'ich modda, ya'ni materiyadan boshqa hech narsa bo'magan. Borliq abadiy, u o'zgarish va taraqqiyotidir. Materiya muayyanlik mebosiga burkanadi, u faoldir, harakat tamomila materiyaga tegishli, u ruhni modda bilan bog'laydi va uni turli shakllarda kezib yurishga majbur etadi.

Beruniy yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit qarashlariga qo'shilib, atomistika ta'limotini tan oladi, lekin ulardan farqli o'laroq borliqda bo'shliqning mavjudligini inkor etadi. U atomlar sifat jihatdan o'zgarish xususiyatiga ega, degan filosofiyani bildiradi. Beruniy nuqtai nazaricha, makon va zamon borliqning muhim xususiyatlaridir.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharaflı borliq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilashi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylilikka ega. Lekin inson maymunga o'xshasa ham, ular o'rtasida tub farqlar mavjud. U «Hindiston» asarida insonlarda tillarning turlicha ekanligi to'g'risida to'xtalar ekan: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab-odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoqda yashashlaridir», -deydi

Beruniy jamiyatda ijtimoiy hayoning o'ziga xos «shartnoma» asosida tuzilishini e'tirof etadi. U: «Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun

o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi bu hali insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun (ular) yana mehnat qilishlari ham zarurdir», -deydi.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, balki podshoh jamiyatga xizmat qilishi lozimligini aytadi. «*Tabiatan boshqarishga moyil*» bo'lgan hokim, -deb yozadi u - o'z fikri va qarorlarida qa'tiy bo'lishi kerak, o'zishlarini amalga oshirishlarida faylasuflarning... fikrlariga amal qilishi lozim; «*shohning o'zi ham*» yaratuvchilik ongiga ega bo'lmog'i, ayniqsa, dehqonlar to'g'risida ko'proq g'am eyishi kerak. «*Podshohlik*» dehqonchiliksiz yashay olmaydi, – deb yozgan edi u.

Beruniy mamlakat ravnaqi, el-yurt farovonligini ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'ladi. U: «har bir olim o'z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o'z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo'lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydirma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur», -deb yozgan edi. Beruniy mamlakatda xalqlar do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi va kishilarni tinchlikka chaqiradi.

Vatandoshimiz Beruniyning bu g'oyallari bugunki kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, uning juda ko'p g'oyalari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ular yurtboshimizning nutqlari va maqolalarida, ilmiy risolalarida yanada rivojlantrilmoxda, hamda ular O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanib borishda xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Beruniyning ona Vatani-mustaqlil O'zbekistonda uning ijodiga juda katta e'tibor berilib, uni har tomonlama chuqr o'r ganilmoqda.

3 v) Nihoyat, IX-XII asrlar musulmon Sharqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdulloh Ibn Sino (980-1037)dir.

Abu Ali Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, so'ng Buxoroda o'qib ulg'ayadi. Bu erda u turli ustozlardan ta'lim olib, o'z davri ilmlari: matematika, mantiq, astronomiya, huquqshunoslik, fizika, kimyo, falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqr o'r ganadi. Ayniqsa, u tibbiyot ilmini kuchli va zo'r qiziqish bilan egallaydi. Tabobat saboqlari uning uchun shu qadar kuchli ta'sir qiladiki, u 16 yoshga kirganda bu soha ilmlarni nazariy o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliy tibbiyot bilan shug'ullanib, tabiblik ham qila boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino 18 yoshga to'lganda juda ko'p ilm sohalarini egallagan bo'ladi. U shu davrdan boshlab o'zi ham bu sohalarga oid asarlar yarata boshlaydi.

Abu Ali Ibn Sino o'z davrining barcha ilg'or ta'limotlarini, xususan, qadimgi Hind, Yunon, Turon, nihoyat, O'rta asr arab, Uyg'onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqr tanishadi, ularni o'z dunyoqarashida umumlashtiradi. U o'zidan oldin o'tgan Sharq olimlari, vatandoshlari: al-

Xorazmiy, al-Kindiy, ar-Roziy, Forobiy asarlari bilan birga, yunon olimlari: Galen, Gippokrat, Evklid, Arximed, Pifagor, Porfiriy, Platon, Aristotel asarlarini ham chuqur o'rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada, Abu Ali Ibn Sino tibbiyat, falsafa, qator tabiiy-ilmiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, sohalarida, falsafiy mazmundagi badiiy adabiyot sohalari bo'yicha ham ko'plab asarlar muallifi, mashhur qomusiy olim bo'lib etishadi. U bizga o'zidan 450 dan ortiq asarlar qoldiradi, shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq psixologiya, ahloqshunoslik va boshqa ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan. Lekin bizga ularga faqat 100 ga yaqini etib kelgan. Ibn Sino o'zining bu asarlari bilan O'rta asr Sharqiy, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy fikrlar tarixida buyuk hissa qo'shadi. Natijada, u o'z davrida butun Sharqda «Shayx-ur-rais» («Olimlar boshlig'i») degan nom oladi.

Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan asarlari orasida 5 tomdan iborat «Al-Qonun fit tib» («Tib ilmlari qonuni») asari, 18 tomdan iborat mantiq, fizika, matematika va metafizika (Falsafa) ni to'liq o'z ichiga olgan «Kitob ash-Shifo» («Kitob an-najot»), shuningdek 20 tomlik «Kitob al-Insof» («Insof kitobi»), «Donishnama» asarlari alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Ibn Sino o'z asarlarini o'sha davrda turli sohalarda erishilgan ilmiy yutuqlarni falsafiy umumlashtirish, ularni tartibga solish va izchil bayon etish bilan birga, o'zi ham turli ilmlarga oid masalalarda ajoyib yutuqlarni qo'lga kiritib, o'z davri uchun ilg'or g'oyalarni olg'a suradi.

Ibn Sinoning asarlaridagi falsafiy qarashlari o'zining tabiiy-ilmiy xarakteri, ularda tabiat falsafasi haqidagi g'oyalarning ustunligi yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, unda inson tanasini boshqarib turuvchi tabiat qonunlari, inson organizmi bilan tabiiy muhit, inson va tabiatning o'zaro munosabati masalalarini bayon qilishda o'z ifodasini topganining guvohi bo'lamiz. Shu jihatdan bu asar o'zining tibbiyotdagi buyuk ahamiyatidan tashqari katta falsafiy qiymatga ham ega. Bu asarning assosiy qismida inson tanasi, uning faoliyati, unda kechadigan ruhiy jarayonlar o'zlarining ilmiy talqinini to'g'ri topgan. Uning tibbiyat sohasidagi erishgan yutuqlari muhim falsafiy ahamiyatga ham egadir.

Ibn Sino o'zining 18 tomlik «Ash-Ishvo» kitobida tabiatshunoslikning geologiya, mineralogiya, astronomiya, kimyo, matematika, botanika sohalariga oid muhim fikrlar olg'a surilib, ularni rivojlantirish falsafiy bilimlarni boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishiganidan keyin bizda Ibn Sinoning tabiatshunoslikning turli sohalariga uning qo'shgan hissasi, uning asarlaridagi tabiat falsafiy tadqiqotchilarimiz tomonidan keng o'rganilmoqda.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uning «Ash-Shifo» asarida keng rivojlangan 3 ta katta sohada: metafizika, fizika va mantiqda ko'proq o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu sohalardan metafizika-ilohiyot, vujud va mavjudod, dunyoning boshlanishi, tuzilishi va tarkibi xaqidagi muammolarni o'rganadi. Fizika sohasi - tabiatshunoslik masalalarini, jism, modda, ularning tuzilishi va

tarkibini o'rganish bilan bog'liq masalalarini o'z ichiga oladi. Mantiq bo'lsa-bilish metodi, to'g'ri fikrlashni, aqliy bilish shakllarini o'rganadi.

Ibn Sino asarida umumiy falsafiy masalalarni 2ga bo'ladi. Ular: 1) nazariy va 2) amaliy masalalardan iborat bo'lib, o'z navbatida, ularning har biri qator ilm sohalarni o'z ichiga oladi. Uning vujud mavjudot, borliq haqidagi ontologiya ta'limotida u vujudni ikkiga: vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamda vujudi mumkinga ajratadi. Bunda vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamma narsalarning boshlang'ich - birinchi sababi, ya'ni tangridir. Vujudi mumkin esa shu vujudi vojibdan kelib chiquvchi boshqa barcha borliqdagi narsalardir. Vujudi vojib yakkalikni, vujudi mumkin ko'plikni ifodalaydi. Vujudi vojib o'z-o'zicha mavjud bo'lib, u azaliy; vujudi mumkin esa vujudi vojibdan paydo bo'ladi. Lekin bu paydo bo'lish birdaniga bo'lmay, balki asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich sabab-oqibat bog'lanish asosida kelib chiqadi. Bu kelib chiqish ematsiya asosida amalga oshadi.

U «Kitob aks-shifo» asarida shunday yozadi: «Zaruriy vujuddan kelib chiqqan vujudlar undan uzoqlashgan sari mustaqil bo'la boradilar, lekin o'zlarining boshlang'ich sabablarining hislatlarini saqlab qoladilar va ular keyingi vujudlar uchun sabab bo'ladilar»

Ibn Sinoning yozishicha birinchi vujudning hislatlari undan kelib chiqadigan barcha vujudlarga o'tib boradi. Uning vujud xaqidagi fikrlari, mavjudot shakllarining o'zaro bog'lanishlari, ularning hammasi dastlabki zaruriy vujuddan kelib chiqishi haqidagi emanatsiya ta'limoti «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnama» asarlarining metafizika bo'limlarida ham tomonlama bayon etib berilgan.

Ibn Sinoning bu qarashlari panteistik ta'limot bo'lib, u O'rta asr Sharq mutafakkirlari falsafiy qarashlarining ko'pchiligidagi xos bo'lган ilg'or ta'limot hisoblanadi.

Ibn Sino o'z ta'limotidagi «vujudi mumkin»ni substantsiya («javhar») va aktsidentsiya («onaz») ga ajratadi. Substantsiya, uningcha turli ko'rinishlarga ega bo'lib, u sodda va murakab substantsiyalardir. Sodda substantsiya boshlang'ich elementlar - olov, havo, suv va erdan iborat bo'lib, shuningdek, modda, shakl, ruh va aql ham shu sodda substantsiyaga kiradi. Jism, narsalar esa murakkab substantsiyadir. Jism va narsalar modda va shaklning birligidan tashkil topib, ular tabiat: o'simlik, hayvonot, inson va boshqa shakllarda mavjuddir.

Ibn Sino falsafiy bilimlarni ikki qismga yoki bo'limga ajratadi. Ularning birinchisi - nazariy falsafa: ikkinchisi - amaliy falsafa. Nazariy falsafa - metafizika (buni u oliy fan, deydi), matematika (buni u o'rta fan, deydi) va tabiat haqidagi fanlar (buni u quyi fan, deydi)dan iborat. amaliy falsafa-siyosat, huquq, iqtisodiyot, ahloqshunoslikdan tashkil topadi.

Ibn Sino qarashicha, metafizika oliy ilm sifatida mutlaq vujudni, ya'ni «vujudi vojib»ni-Tangrini-yaratuvini o'rganish va bilishdan iborat ilohiyot haqidagi fandir.

Ibn Sino insonni tana va jondan tashkil topadi, deydi. Miya esa jonne boshqaruvchi markazdir. Uning fikricha, xashoratlar, o'simliklar, hayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch - jon («an-nafas»)ga egadir. Inson joni bunda eng oliy va etuk jondir. Shuning uchun inson fikrlash hislatiga mavhum tushunchalarni o'zlashtirish, bilish mavjudotning mohiyatini tushunish, maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Inson aqli jonning oliy darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot mohiyatini biliishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi.

Ibn Sino ijtimoiy-siyosiy masalalarni davlat, jamiyatning tuzilishi, vazifalari, jamoani boshqarish, ijtimoiy uyushmalarning faoliyatini, insonning hulq atvori, odatlari ahloqiy mezonlarning, huquqiy tartib qoidalarni amaliy falsafa, o'rganadi, deydi. Shundan kelib chiqib, u amaliy falsafani o'z predmeti va vazifalariga qarab, 3 qismga bo'ladi: 1) ahloqshunoslik; 2) iqtisodiyot; 3) siyosat. Bunda **ahloqshunoslik** inson shaxsiyatining fazilatlari, axloqiy normalar va qoidalarni o'rganadi. **Iqtisodiyot** esa oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini boshqarish va ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan masalalarni o'rganadi. **Inson** bo'lsa, bu – davlatni idora qilish va boshqarish hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish masalalarini o'rganadi.

Ibn Sinoning jamiyat to'g'risidagi ijtimoiy qarashlari ham diqqatga sazovordir. U jamiyatda kishilar o'zaro bir-biriga yodam borishlari asosida yashashi kerak, deydi. Ibn Sino jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvlari asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Uning ta'kidlashicha, jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari zarur. Jamiyatda qonunlarni buzishlar va adolatsizliklar jazolanishlari lozim.

Shunday qilib, Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi tibbiy va tabiatshunoslik fanlariga oid tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. U IX-XII asrlar Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy «uyg'onishi»ning ma'naviy yutuqlarini o'z asarlarida mujassamlashtirgan holda butun insoniyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlarining bugungi kunda bizning mustaqil O'zbekistonda adolatli huquqiy demokratik davlat qurishimizda ham ahamiyati juda katta. Buni Prezidentimiz Islom Karimovning 1999 yil yanvar oyida «Ibn Sino jamg'arma fondini tashkil qilish to'g'risida»gi chiqargan farmoni yaqqol tasdiqlaydi.

## **O’z-o’zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarini ijtimoiy-falsafiy tafakkurini qanday omillar jadal rivojlantirdi?
2. IX-XII asrlar Markaziy Osipyoda tabiiy-ilmiy bilimlar qaysi entsiklopedik olimlar tomonidan rivojlantirildi?
3. Muso Al-Xorazmiy va Ahmad Al-Farg’oniylarning tabiiy-ilmiy qarashlari haqida gapirib bering.
4. Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari nimalardan iborat?
5. Abu Nasr Al-Forobiyning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

## **Adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O’zbekiston 1992.
2. Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o’z tanlagan yo’lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning O’zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi) Xalq so’zi 2004 yil 30 mart;
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. //Ma’rifat, 1998, 29 avgust.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. //Muloqot, 1998, 5-son.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.: O’qituvchi 1992.
6. Jumaboev Y. O’zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiQti tarixidan. – T.: O’qituvchi 1997.
7. Falsafa. o’quv qo’llanma. –T., Sharq 1999.
8. Falsafa. Ma’ruzalar matni. –T., Moliya instituti 2000.
9. Qur’oni Karim. –T.: Cho’lpon, 1992.
10. Azamat Ziyo. Milliy tuzugimiz. – «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.
11. Xoja Ahror Valiy: tasavvuf va siyosat. – «Ma’rifat», 2004 yil, 25 avgust.
12. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
13. S.Yo’ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G’arbiy Evropa falsafasi. T- ; 2002y.

## **5-MAVZU: TASAVVUF FALSAFASI. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MARKAZIY OSIYO XALQLARI FALSAFASI.**

**Reja:**

- 1. Tasavvuf falsafasi, mohityati va asosiy yo'nalishlari.**
- 2. Amir Temurning falsafiy qarashlari.**
- 3. Taftazoniy va Jurjoniyning falsafiy qarashlari.**
- 4. Mirzo Ulug'bek va Ali qushchilarning falsafa tarixidagi o'rni.**

Tasavvuf (so'fiylik yoki so'fizm) islam falsafasida diniy falsafiy yo'nalish sifatida VIII asrning o'rtalarida arab xalifaligi mamlakatlarida vujudga keldi. U asosan, shu mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotining xususiyatlari bilan taqozo qilingan bo'lsa ham, lekin undan neoplatonizm ta'limotining, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizm diniy ta'limotlarining ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin. Tasavvuf paydo bo'lganidan keyin u turli davrlarda, dastlab arab mamlakatlarida, keyinchalik Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Pokiston, shimoliy-G'arbiy Xitoy, Indoneziya kabi mamlakatlarga keng tarqaladi. Natijada, tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy hayotidan, ularning falsafiy va badiiy tafakkuridan keng o'rinni olgan, ko'p tarmoqli, ko'p yo'nalishli murakkab ta'limotga aylanadi. Lekin u turli mamlakat xalqlari o'rtasida turlicha mazmun kasb etsa ham, uning ruhi islomiy ruh bo'lib qoladi.

Tasavvuf islam ta'limoti olamidagi mazhablar, oqimlar silsilasi ichida o'zining demokratik qarashlariga izn bergani, inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, ahloqiy poklikni targ'ib qilishi bilan, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqanligi jihatidan **ilmi vahdat** yoki **ilmi tavhid** nomini oladi. U islam dunyosidan «tarig'i tasavvuf», ya'ni tasavvuf yo'li sifatida musulmon ahlining el-yurt ishlarini ado etishiyu, shariat qoidalariiga rioya qilishning birdan-bir to'g'ri yo'li, deb qaraladi. Ilmiy, falsafiy va diniy adabiyotlarda «tasavvuf» so'zining lug'aviy ma'nosi nimadan iboratligi va u qanday so'zdan kelib chiqqanligi to'g'risida hanuzgacha yagona fikrga kelgani yo'q. Ko'pchilik tadqiqotchilar tasavvuf so'zi, asli arabcha: «suf» so'zi (undan «so'fi», «so'fizm» so'zlarini ham) dan kelib chiqqan bo'lib, «suf» - bu arabcha: «suffa» - o'zbekcha jun, jundan, degani, bu ta'limot yo'liga kirgan kishilar dastlab jundan to'qib tayyorlangan xirg'a (bizningcha: chakmon) kiyib yurishgan, shu sababli ular ta'limoti «so'fiylik» yoki «tasavvuf» deyilib, o'zlarini esa «so'filar» deb atalgan, degan fikrni bildirishadi.

Boshqa tadqiqotchilar esa «tasavvuf» ni, uning o'zagi «suf» ni yunon tilidagi «sofos» («donishmandlik») so'zidan olinganligini qayd qilishadi. Tasavvuf ta'limotining yirik tadqiqotchilaridan biri A. Krimskiyning yozishicha, «so'fi» so'zi VIII asrning o'rtalaridan boshlab adabiyotlarda qo'llanila boshlagan. Bu so'z dastlab, asosan, komil, etuk, e'tiqodli musulmon darvishlarga nisbatan ishlataligan.

«Qiyoş ul - lug'at» da esa shunday yozilgan. «So'fi – xirqapo'shdir, zeroki, yungni suf deyiladi; fuqaroning istilohidan, o'z diliq nigoh qaratgan, hayolini haqdan boshqa barcha narsalardan poklagan kishi «so'fi» deb ataladi», deyiladi. Shuningdek, mutasavvuf Muhammad G'iyoşiddin: «so'fi», "sufa" so'ziga mansub bo'lib, so'fiylar johiliyat ayyomida Ka'bada xalqni haqqa da'vat etish ishi bilan shug'ullanganliklari sababli ular tasavvuf ahli mavqeiga erishganlar, deb yozadi.

Mutasavvuf Abul Hasan Ali Xajiriyning sharhlashicha xirg'aphshlar ya'ni so'filer azaliy soflik va poklikka vosil bo'lganlar: ashobi suffa, ya'ni tilovat qiluvchi va tavallochilar guruhini ham so'filer, deyilgan. Ba'zi mutafakkirlarning fikricha "suf" so'zi (arabcha «svf») ning har bir xarfi aniq ma'noga egadir. Masalan: "S" - sadoqat, sinoat, saodat; «V» - vasl, vafo; «F» xarfi faroh, fotiha so'zlaridan iborat, deyiladi.

Vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy shunday sharh keltiradi: «Yunoncha "suf" so'zi bizcha hikmatdir. Shuning uchun faylasufga «filosufa», ya'ni «hikmatni suyuvchi» deb ism berilgan. Musulmonlardan bir guruhi o'sha tushunchaga yaqin fikrga borgandan ular ham "suffiya" deb ataldilar. Musulmonlarning ba'zilari "suffiya" so'zining termin ekanini bilmasdan uni «sod» xarfi bilan yozib, uni "suffa" so'ziga nisbat berib: «Suffa suhbatdoshlari - ashobi suffadan iborat kishilar», deydilar. Undan keyin bu so'zni Sufatuyus - ya'ni takaji so'zidan qisqartirilgan, deb tushunishdilar», - deydi.

Ozarbayjon olimi A.G.Aliev o'zining tasavvufga bag'ishlangan maqolasida Yax'yo Suxravardinning bu haqda: «Qur'on» da "so'fi" so'zi yo'q va bu so'z turkiyidir. Islom mamlakatlarining ikkala qismida ham bu so'zdan bexabar bo'lishgan», degan fikrlarni keltirib, u qadimiylar turklarning dunyoqarashida suv kulti muhim o'rinn tutganligini, «suf» so'zi ana shu "suv" so'zidan yaralgan degan fikrni ilgari suradi.

Umuman, tasavvuf qanday so'zdan kelib chiqqan bo'lsa ham, u soflik, poklik, riyosizlik, taqvo haqidagi ta'limot, qarashlarni ifodalaydi.

Qadimda shayx Abusaid Abuxayrdan: «Tasavvuf nima?» - deb so'raganlarida, u kishi: «Boshingga ne bo'lsa, chiqarib tashlash, qo'lingda neki bor, qo'lingdan chiqarish va boshqalardan senga nima ozor etsa, ranjimaslik», - deb javob bergen ekan. Xaqiqiy tasavvuf ahli chindan ham bu shartlarga amal qilib yashagan.

Tasavvuf ta'limoti panteizm, asketizm va mistitsizm g'oyalarini targ'ib qilish bilan birga, uning asosida inson, uning ma'naviy-ahloqiy kamoloti g'oyasi yotadi. U insonni zo'r qat'iyatlik bilan yomon ahloqdan qutulishi va yaxshi ahloqqa etishishga etaklaydi. Binobarin, uningcha, «Rizo ahli» boriga qanoat qiluvchi kishilardir.

Shayxul-mashoyix mutasavvuflarning qayd qilishicha, tasavvuf - nafs lazzatlaridan voz kechib nafs manzillarini bosib o'tib olloh vasliga etishishdir. Ular tasavvufni - o'limi yo'q hayot va hayoti bo'limgan o'limdir deb, insonning hayvoniylar nafsoniy hayotida o'lmoqni va insoniy hayotda yashamoqni ilgari suruvchi ta'limot deb izohlaydilar. Kimning vujudida hayvoniylar, hayvoniylar

hislar ustunlik qilsa u tilsiz va ongsiz maxluq hayvonga aylanib, nafs tuzog'iga ilinadi: nafs insondagi eng xatarli dushman, uning o'z g'animi ichida, degan g'oya tasavvuf ta'limoti asosida yotadi. Mutasavvuflarning fikricha, insonning ahloqini tuzatish, uni ma'naviy kamolotga etkazish uchun inson o'z tabiatidagi salbiy, hayvoniy hissiyotlarni mahv etishi kerak. Unda iymon, vijdonni, Haqqa e'tiqodni tarbiyalash zarur. Binobarin, iymonli, ya'ni pok va rostgo'y, insofli va halol, mehr muruvvatli avlodni tarbiyalab voyaga etkazish jamiyatning asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Iymon inson uchun muqaddas tuyg'u. Iymon bilan Haqqa e'tiqod qildingmi - hech kimni aldama, hech kimga ozor berma, hayotda halol bilan haromni farqla, yolg'ondan, munofiqlikdan qo'rq, muttahamlik yo'liga zinhor qadam bosma. Demak, tasavvuf bu - imon, e'tiqod yo'li, komillik, mukammallik, barkamollik yo'lidir. Tasavvuf ta'limotining asosiy ob'ekti inson va uning haqqa, haqiqatga munosabatidir. Unda «insonning xudoga, insonning haqqa», «inson olloh uchun» kabi g'oyalar hukmron g'oyalar bo'lib, pir va shogird, murid va murshid munosabatlari asosiy o'rin egallaydi. Umuman, tasavvufga doir nuqtai nazarlar unda ifodalangan g'oyalar va qarashlar turli-tumandir. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari, amaliy yo'llari ishlab chiqila boshlandi. Bu davrga kelib, so'filarning amaliy - ruhiy (ya'ni psixofizik) mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish, o'z-o'zini va haqni anglash va haqqa etishish tadbir usullari shakllanib, rivojlanib bordi. Natijada, tasavvufga oid tushunchalar, nazariy qarashlar tizimi yuzaga kelib, tasavvuf alohida ilm, alohida ta'limot sifatida qaror topdi. Aniqlanishicha XI asrgacha bo'lган yozma manbalarda tasavvuf tushunchasi va tasavvuf oqimlarining 78 ta ma'nodagi talqini mavjud bo'lган.

Mutasavvuflar dastlabki vaqtarda tasavvufni nuqul «sirli», «tushuntirib bo'lmaydigan holatlar», «iboratga kelmaydigan ishoratlar» deb fikr bildirgan bo'lsalar, bora-bora bu holatlar haqida o'z fikr mulohazalarini nazariy jihatdan umumlashtirib so'filarni tarbiyalash vazifalari, pir-murshidlik qoidalari, ular odobahloq normalarini bayon qila boshlaydilar, natijada, tasavvufning bosqichlari va ular o'rtasidagi munosabatlari, tasavvuf ahlining olam va odam mohiyati insonning muomala madaniyati, tavhid va vahdat ma'lumotlari haqida ko'plab qarashlar ishlab chiqila boshlanadi. Shu asosda tasavvuf butun islom olamini zabit etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar quriladi, karvon yo'llarida rabotlar, zoviyalar qad ko'tarib aziz-avliyolarning mozorlarida shayxlar maskan tutib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalay boshlaydilar.

Tasavvuf ta'limotining ilk davrlarida **maqomat va tariqat**\_asoslari ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini va vazifalarini belgilash, ilohiy haqiqatlarni xalq orasida yoyishda Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag'dodiy (vafoti 910), Hakim at-Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Xalloj (858-922) larning xizmatlari katta bo'ladi. Keyinchalik Abusaid Abulxayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Axmad Yassaviy (vafoti 1166), Yax'yo Shaxobiddin Suxrovardiy (1155-1191), Ibn - al - Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Baxovutdin Naqshband (1318-1389) va shular kabi shayx - ul - mashoyixlar tasavvuf ilmini o'zlarining yangi fikr va qarashlari

bilan boyitadilar. Ular tasavvufda yangi oqimlar, yangi silsilalarni vujudga keltiradilar. Natijada, tasavvuf haqida ko'plab risolalar va kitoblar yozila boshlaydi. Tasavvuf ta'limoti bu davrlar shoirlari badiiy tafakkuriga ham ta'sir qilib, natijada, tasavvuf g'oyalarini qizg'in targ'ib etuvchi ulkan she'riyat ham vujudga keladi.

Tasavvuf ta'limotida so'fining ruhiy kamolotga erishish yo'lining to'rtta asosiy bosqichi ko'rsatiladi. Bunda: tasavvuf ahli dastlab islom dini talablariga bo'y sunishi kerak deyiladi. Birinchi bosqich – **shariatni** tashkil etadi. Faqat shundan keyingina solih, ya'ni tasavvuf yo'liga kirgan so'fiy ikkinchi bosqich - tariqatga ko'tarilishi mumkin. Bu bosqichlarni bosib o'tganlargina ulardan yuqoriqoq uchinchi bosqichga - ma'rifatga erishadilar. Tasavvuf ahli ma'rifat bosqichini to'liq egallab, bosib o'tgandan keyingina to'rtinchi bosqich - haqiqatni egallyaydi. So'fi haqiqatga erishuv jarayonida o'zini jismoniy shaxs sifatida tugatib, u ilohiy shaxsga aylanib, ollohga ya'ni haqqa etishadi, unga singib ketish natijasida boqiylikka ega bo'ladi.

Tasavvufga oid ilmiy manbalar, kitoblar va dasturlarda bu atamalarni izohlash va tushuntirishga ko'p e'tibor beriladi. Ular tasavvuf ta'limotini o'zida ifodalagan bu bosqichlarni bu ta'limotni egallahsga bel bog'lagan kishining ruhiy-ahloqiy, ma'naviy kamolot yo'li deb qarashadi. Bu jihatdan bu bosqichlarni tasavvuf ta'limotining amaliy qismi deb ta'riflashadi. Darhaqiqat ham shunday, chunki solik (ya'ni tasavvuf yo'liga qadam qo'ygan yo'lovchi) bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, irodat va ishorat usullari, pir-muridlik qoidalari odobiga rioya etish kabilar barchasi shu bosqich ichiga kiradi.

Solikning tasavvufga oid bu ruhiy-ahloqiy kamolot yo'lini bosib o'tishida o'ziga xos maqomat va hollar ham mavjud bo'ladi.

Mutasavvuf Abunusr Sarroj solikning bu yo'lida quyidagi maqomatlarni bosib o'tishi lozimligini qayd etgan:

1. Tavba.
2. Vara'.
3. Zuhd.
4. Faqr.
5. Sabr.
6. Xavf.
7. Rajo.
8. Tavakkul.
9. Rizo.

Bu maqomat darajalarini bir bir egallab, muvafaqqiyatga erishgan solik hol martabasiga etadi va ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, uning qalbini shavq-zavqqamrab oladi. U bunda shunday holatga ko'tariladiki, uning butun a'zolari har bir olgan nafasi ham ollohning borligi va buyukligidan xabar beradigan bo'ladi.

Solik hol martabasiga ko'tarilganidan keyin u xuddi maqomat bosqichlarini bosib o'tganidek, hol bosqichlarini ham bosib o'tishi zarur bo'ladi. Holning ta'rif-tasnifga keltirilgan bosqichlari quyidagilar: 1. Qurb, 2. Muhabbat, 3. Shavq, 4. Uns, 5. Mujohida, 6. Mushohida, 7. Munoshifa

Tasavvuf falsafasiga ko'ra inson o'z tabiatini jihatdan qarama-qarshi ikki asos - modda va ruhdan iborat, unda shu ikki asosning barcha xususiyatlari jamuljamadir. Agar insonda moddiylik xususiyatlari ustun kelsa, unda hayvonlik sifatlari kuchayadi, agar ruhiy xususiyatlari ustun kelsa, ilohiylik sifatlari rivojlanadi. Lekin insondagi ruh modda (jism) quliga aylanmasligi kerak. Aksincha, unda modda (jism) ruh uchun bir asbob, o'lchov yoki vosita bo'lib xizmat qilsin. Odatda ruhan taraqqiy etgan insonlar aqlu zakovati ilxom va ijodkorlikka ega bo'lган, ilohiy tab' va farosat bilan boshqalardan ajralib turadilar. Bunday kishilardan ruhi taraqqiy etgani sari, u o'z tanasi (modda, jism)ga sig'may qola boshlaydi. Bunday kishi o'z ruhida koinot bilan aloqa qilib, olam sir-asrorlaridan xabardor bo'lib, har xil bashoratlarni qilib, turli-tuman mo'jizalar ko'rsatadigan bo'ladi. Tasavvuf ta'limotida so'filar insonni jism olami bilan ilohiy olam orasidagi chegara deb qaraydilar. Ular insonni shu jihatdan tongga o'xshatadilar. Ma'lumki, tong ham tun bilan kunning chegarasi, tongdan quyosh chiqib, qorong'ilik-tunni xaydagani kabi ruh ham jism olamini tark etib nurlar olamiga talpinadi.

Umuman olganda, tasavvuf ta'limoti o'z evolyutsiyasi davomida ikki xil oqim sifatida ikki bosqichda namoyon bo'ladi. U o'zining birinchi oqimida va birinchi bosqichida feodallar tomonidan ezilishga qarshi g'oyalar mafkura sifatida ortodoksal islomning diniy g'oyalariga zid bo'lib, o'zi paydo bo'lgandan ancha keyingi davrlar ijtimoiy-falsafiy va sotsial-axloqiy fikrlar taraqqiyotiga progressiv ta'sir ko'rsatadi. Biroq u o'zining ikkinchi oqimi namoyandalari qarashida ikkinchi bosqichda zohidlikni, tarki dunyochilikni, bu dunyodagi kishilar hayotiga nafratni, ijtimoiyadolatsizliklarga befarq qarashni targ'ib etuvchi ta'limot sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga Abu Homid Muhammad Ibn Muxammad al-G'azzoliy falsafasida tasavvuf islom ortodoksal kalom ta'limoti bilan qo'shilib, musulmon ruhoniylari tomonidan rasmiy ravishda tan olinadi. Birinchi oqim vakillari qarashlariga ko'ra, tasavvuf, ham botinan, ham zohiran ilohiy ahloq, u faqat insoniy, go'zal va hur hayotdagi tiriklikni yoqlaydi. Shunga ko'ra, tasavvuf ahli sahovat, futuvvat, qanoat, sabr-bardosh, diyonat, sadoqat va ishorat ahlidir. Ulardagi bu fazilatlar inson hulqidagi barcha nog'islik, jamiki yomonlik, tubanlik va pastkashliklar bilan kurashuvchilardir.

Ikkinci oqim vakillari qarashlariga ko'ra esa, tasavvuf inson qadr-qimmatini erga uruvchi, insonda mehnatga nisbatan nafratni tarbiyalovchi, kishilarga o'zlari yaratadigan moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalanishga ularning haq-huquqi yo'q bo'lган ta'limotdir

Umuman olganda, tasavvuf ta'limotida butun dunyo bo'yicha: junaydiya, qodiriya, suhnovordiya, xanafiya, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlari ma'lum va mashhurdir.

Markaziy Osiyo - Turkiston zaminida esa asosan qodiriya, yassaviya, kubroviya, va naqshbandiya suluklari, ya'ni tariqatlari keng tarqalgan.

Qodiriya sulukining asoschisi Sayyid Abdug'odir Giloniy (u Eronning Gilon viloyatida 1079 yilda tug'ilgan) bo'lib, bu zoti sharif bizda G'avsul A'zam, shayxul-mashoyix, avliyolar sultoni nomi bilan mashhurdir. U kishining naslnasablari o'n avlod orqali Muhammad alayxisalomning qizlari Fotima va uning o'g'illari Imom Hasan va Imom Husanga borib taqaladi. Shayx Abdug'odir Giloniy 1166 yilda vafot etadi.

Yassaviya sulukining asoschisi butun Sharqda mashhur siymo Ahmad Yassaviydir. U janubiy Qozog'istonning Sayram qishlog'ida shayx Ibrohim ota xonadonida tug'ilgan (yili ma'lum emas). U shayx Xoja Yusuf Hamadoniyning 4 xalifasidan biri bo'lgan. Ahmad Yassaviy Turkistonda o'z sulukini asoslash va uning g'oyalarini targ'ib qilish uchun badiiy adabiyotning she'riy shaklidan foydalanib o'z «Hikmatlar»ini yaratadi. Bu «Hikmatlar» asosan pandu nasihatlardan iborat bo'lib, ularda o'z davridagi zolimlarni, amaldorlarni, poraxo'rlnarni, o'z imonidan kechgan, Olloohni unutgan, dunyo, boylik yo'liga kirib, insof va diyonatni, mehr-shafqatni bilmaydigan shaxslarni tanqid qiladi. Ommani esa ruhiy jihatdan tinchlantirib, bu dunyoga ko'ngil bog'lamaslikka, uning o'tkinchi ekanligini aytib, oxiratni, u dunyoni o'ylashga chaqiradi.

Ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari XIV asrning 70-yillardan boshlab mo'g'ul bosqinchilari zulmidan qutulib, vayron qilingan shahar va qishloqlarni, sug'orish tarmoqlarini, hunarmandchilik va savdo-sotiqni tiklash, ularni ma'lum izga solish bilan, ularning dunyoviy masalalarga qiziqishlari ortib boradi.

Mana shunday bir sharoitda Movarounnahrda tasavvuf ta'limotining yangi suluki, yangi oqimi naqshbandiya vujudga keladi. Naqshbandiya sulukining asoschisi hazrat Bahovuddin Naqshbanddir. U kishining asl ismi Muhammad Ibn Muhammad Jaloliddin bo'lib, Xojai Buzruk, shohi Bahouddin Naqshband, Bahouddin Balogardon nomlari bilan musulmon olamiga mashhurdir. U Buxoro yaqinidagi qasri Hinduvon qishlog'ida (1318 yilda) tug'ilgan. Naqshbandiya tariqatida dunyoviy, hayotiy masalalarga jiddiy e'tibor beriladi. U tarki dunyo qilishga, dunyo ishlaridan voz kechishga qarshi chiqib, kishilarni real hayot ishlari bilan band bo'lishga, dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lishga, buning uchun mehnat qilish, bilim olish, halol yashashga chaqiradi. Bahouddin Naqshband asos solgan tariqat yo'lining 11 ta asosiy qoidasi bo'lib, ular quyidagilar:

1. Xilvat dar anjuman;
2. Safar dar vatan;
3. Nazar dar qadam;
4. Xush dardam;
5. Yodkard;
6. Bozgasht;
7. Nigohdosht;
8. Yoddosht;
9. Vuqufi zamoniy;
10. Vuqufi qalbiylardir;
11. Vuqufi adadiy.

Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan «Naqshbandiya» tariqatining nomi uning yuqorida keltirilgan qoidalaridan kelib chiqadi. Bu qoidalarda aytilishi bo'yicha: «Zohiran xalq bilan, botinan haq bilan» yoki «Qo'ling mehnatda bo'lzin, dilingda olloh taoloning naqshi bitilgan bo'lzin», degan g'oya ilgari suriladi.

Bahouddin Naqshbandning o'zi dehqonchilik bilan, hunarmandchilik bilan kun kechiradi. U o'z uyida hech qanday mol-mulk va boylik saqlamagan.

Bahouddin Naqshband o'z tariqatida inson hamisha qalban, ya'ni ma'naviy yuksak bo'lishi, jisman erdan, vatandan uzilmay yashashi kerakligini uqtiradi.

U shunday deydi:

***Bizda hech narsa yo'q  
hech kamimiz yo'q,  
o'sha hech narsa deb,  
hech g'amimiz yo'q.***

Naqshbandiy tariqati XIV asrda paydo bo'lgan bo'lsa ham, Afg'oniston, Hindiston, Indoneziya va boshqa Yaqin va O'rta Sharq xalqlari o'rtasida keng tarqalgan. Bu tasavvuf tariqati Sharq xalqlari ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida juda katta rol o'ynaydi. Bu ta'limotda o'z mehnati bilan kun ko'rish, yashash,adolat ulug'lanib, boshqalar mehnati bilan kun kechirish, tekinoxorlik kishilarga qilinadigan ijtimoiy zulm, istibdod qat'ian qoralandi.

Hozirgi kunda Mustaqil O'zbekistonimizda o'tmish ma'naviy me'rosimiz, jahon umuminsoniy qadriyatlar chuqur o'rganilayotgan va tiklanayotgan bir sharoitda tasavvuf falsafasini ham o'rganish, u erishgan yutuqlardan g'oyalardan komil insonni tarbiyalashda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xullas, tasavvuf ta'limoti o'tmishda butun musulmon xalqlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borib, bu xalqlarning ilm-fani, madaniyati va adabiyoti rivojiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatganligi bizga ma'lum. Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va ulamoyu-hukamolari tasavvuf falsafasidan ma'naviy oziqlanib uning insonparvarlik, haqsevarlik,

adolatlilik g'oyalaridan ruhlanganlar. Biz bugungi kunda tasavvufni o'rganmay turib o'zimizning o'zligimizni ya'ni o'rta asrlar davri tariximiz haqida xalqimizning ma'naviy va hayoti haqida o'sha davr falsafiy va badiiy tafakkuri haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin emas. Tasavvuf falsafasini o'rganish va uni egallash xozirgi kunda bizning mustaqil O'zbekiston sharoitida biz o'rganayotgan falsafada komil inson muammosini to'g'ri hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bizning hamma talabalarimiz bu ta'limotni o'rganishi ham farz ham qarz hisoblanadi.

Bir yuz ellik yildan ortiq mo'g'il mustamlakachiligi XIV asrning 70 yillariga kelib sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tufayli barham topdi. Qadimiylar Turon va Turkistonda Amir Temur boshchiligidagi davlat-qudroyli va buyuk imperiya vujudga keldi. Amir Temur faqat Movorounnahrninggina hukumdori bo'lib qolmasdan, u Oltin O'rda, Eron, Hindiston, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, Qora dengiz sohillari, Suriya va Misrgacha - jami 27 mamlakatni istilo qilib, juda katta va keng hududni o'z ichiga olgan buyuk imperiyani tashkil qildi. Amir Temur tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining milliy mustaqillikka erishuvi nafaqat Movarounnahrning o'zida balki shu mintaqadagi boshqa mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Amir Temur nafaqat Movarounnahr xalqlarini mo'g'il mustamlakachiligidan xolos qildi, balki u shu bilan birga, o'zi istilo qilgan mamlakatlarda feodal parokandaliliga ham barham berib, butun malakatda nisbatan tinchilik va osoyishtalikni tartib-intizomni qaror topdirdi. Bu narsa o'z navbatida, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining keng rivoj topishiga olib keldi. Amir Temur davlati tasarrufiga kirgan shaharlarda qayta tiklash, ta'mirlash ishlari, yangi binolar barpo etish avj oldirildi, ularda hunarmandchilik, shaharlar atrofida bog'-rog'lar qishloq joylarida esa irrigatsiya ishlari keng yo'lga qo'yilib, ekin maydonlari kengaytirildi, dehqonchilik ishlari yaxshilana bordi. Tashlandiq, xorabozor erlar obod qilina boshlandi. Ayniqsa, shaharlar qurish gurkirab rivojlana boshladи, ularda esa ilm-fan, madaniyat va san'at gullay boshladи. Bu jihatdan Amir Temur imperiyasining poytaxti bo'lmish Samarkand g'oyat obod va ko'rkan shaharga, ya'ni shoir madh qilganday, «er yuzining sayqali»ga aylandi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u faqat davlat apparatini mustahkamlashga, mamlakatdagi mayda va yirik, lekin tarqoq feodallarni birlashtirishga harakat qilibgina qolmasdan shu bilan birga mamlakatning siyosiy qudratini oshirma uchun iqtisodiy qudratini ham oshirishga, keng xalq ommasining ma'naviyatini ham yuksaltirishga katta e'tibor berdi. U o'zi ishg'ol qilgan xorijiy mamlakatlarda qo'lga kiritayotgan moddiy va ma'naviy intellektual boyliklarni o'z xalqi moddiy va ma'naviy-intellektul boyliklariga qo'shgan holda ularni elu yurt obodonchiligi, shahar va qishloqlarning gullab-yashnashiga, xalq farovonligiga sarf qildi. Amir Temur davrida qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlandi. Mamlakatda qurilish inshootlari barpo qilinib, sug'orish shoxobchalari kengaydi, cho'llar (Mug'on cho'li) o'zlashtirildi, kanallar o'tkazildi, ko'priklar, yo'llar, karvonsaroylar qurildi. Buyuk Ipak yo'li

tiklandi. Ayniqsa, Amir Temur mamlakatning ichki va tashqi savdosiga katta ahamiyat berdi. Sharqda Hindiston, Xitoy, Shimolda Rossiya, G'arbda Ispaniya, Frantsiya, Angliya, Janubiy G'arb, O'rtaer dengizi qirg'oqlari xalqlari arab mamlakatlari bilan qizg'in savdo-sotiq aloqalari o'rnatildi. Bularning bari Amir Temur davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga siyosiy va ma'naviy mavqeining oshishiga xizmat qildi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining rivolanishi va yangi bosqichga ko'tarilishidagi asosiy omil-movaraunnahr xalqlarining IX-XII asrlarda erishgan madaniy yutuqlari (madaniy meros) bo'lsa ham, shu bilan birga, shu davrdagi qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro madaniy aloqalar ham muhim rol o'ynaydi. Lekin Markaziy Osiyo xalqlarining XIV-XV asrlarda madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida, xususan, falsafiy qarashlarining rivojlanishida IX-XII asrlardagi o'zimizning ajdodlarimiz tomonidan yuzaga keltirilgan madaniy-ma'rifiy merosni o'rganish va egallash alohida o'rinn tutadi. Bu davr buyuk mutaffakirlari: Navoiyi, Jomiiy, Binoiyy, Qozizoda Rumiyy, Ali Qushchi, Jaloliddin Davoniyy, Sa'diddin Taftazoniy, Mir Said Sharif Jurjoniylar xususan Amir Temur va temuriyzodalar dunyoqarashlarining shakllanishi va takomil topishida qadimgi yunon mutafakkirlaridan tortib, O'rta asrlardagi Sharq Markaziy Osiyolik buyuk olimlarning ilmiy merosi, islom dini ta'limoti muhim g'oyaviy manba' bo'lib xizmat qiladi. Shu manba'lar asosida XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davri madaniyati, ilm-fani, san'at va adabiyoti, ijtimoiy falsafiy qarashlari vujudga keladi va rivojlanadi. Amir Temur va temuriylar davrida zargarlik san'ati, me'morchilik san'ati, musavvirlik, hattotlik va muqovasozlik san'atlari yuksak taraqqiy etadi, oltin, kumush va bronza eritadigan mohir ustalar, buyuk me'morlar, dunyoga mashhur naqqosh va rassomlar, minatyura san'ati vakillari etishib chiqadi. Amir Temur va temuriylar davrida, ayniqsa falakiyot, riyoziyot, handasa, geografiya, tibbiyot kabi tabiiy-ilmiy bilimlar; tarix, pedagogika, mantiq, axloqshunoslik, falsafa kabi ijtimoiy-gumanitar bilimlar yaxshi rivojlanadi. Ayniqsa, adabiyotshunoslik, she'riyat va nasr tez va kuchli rivojlanadi. Natijada, mashhur shoirlar yozuvchilar hattotlar etishib chiqadi.

XV asrning boshlariga kelganda Samarqandda falakiyot va riyoziyot fanlari kuchli taraqqiy etadi. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi, falakiyot rasadxonasi va u qurdirgan observatoriya o'sha davrda tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Nihoyat, bu davrda falsafa va mantiq ilmlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'lib, bu sohalarga oid maxsus risolalar ham yaratiladi. Bunga misol qilib Sa'diddin Taftazoniy va Mir Said Jurjoni yaratgan asarlarni ko'rsatish mumkin. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi vakillari: Mansur Koshiy, Qozizoda Rumiyy, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid va boshqalar esa tabiatshunoslikning falsafiy masalalariga oid o'zlarining qimmatli fikrlarini ilgari surishadi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahrda tasavvufning yangi oqimi – naqshbandiya vujudga keladi va u yassaviy tariqati bilan bir qatorda bu

davr ma'naviyatining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qiladi. Islom dini esa bu davrda Amir Temur va temuriylar siyosatida mamlakatdagi ma'naviy birlik, madaniy yuksalish,adolatni o'rnatish, huquq va tartibotni saqlash ishiga qaratiladi. Naqshbandiya va yassaviy tariqatlari islomga tayangan holda kishilarni ahloqiy poklikka, mehnatga, ilm-fanni egallashga chorlab, ular g'oyalarini targ'ib qilib, jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, Amir Temur va temuriylar davrida falsafaga oid maxsus asarlar kam yaratiladi. Lekin ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrlar badiiy adabiyot asarlarida o'zlarining chuqur ifodasini topadi. Xususan, bu davrdagi adib va shoirlar Abdurahmon Jomiy, Ubayd Zakoniy, Lutfiy, Sakkokiy, Binoiy va ayniqsa, Alisher Navoiyning badiiy asarlari boy falsafiy mazmun kasb etishadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuzaga kelgan lekin mo'g'illar istilosini natijasida Uyg'onish davrining qayta tiklanishi va uning yangi cho'qqisiga ko'tarilishi davri bo'ldi. Bu davr madaniyati va ilm-fani jahon madaniyati va ilm-faniga ulkan hissa bo'lib qo'shilib, uning yutuqlari jahon xalqlari madaniyati va ilm-fanining keyingi rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qildi.

2. Amir Temur shaxsi va faoliyati haqida gapirar ekanmiz, dastlab uning siyosiy sahnaga qadam qo'ygan davrdagi tarixiy vaziyat to'g'risida to'xtalish lozim. Amir Temur siyosat maydoniga 24 yoshida kirib keldi. Bu davrda butun Movaraunnahrda boshboshoqlik mahalliy feodallar o'rtasidagi o'zaro qaramaqarshilik avjga chiqqan, buning ustiga mo'g'il mustamlakachiligi mahalliy xalqqa xaddan tashqari kuchaygan bir holat kechmoqda edi. Bir yarim asrga yaqin muddat davomida mo'g'il mustamlakachiligi jabri-jafosini har tomonlama chekib kelgan oddiy fuqarolardan tortib, barcha siyosiy arboblar va din peshvolarigacha nihoyatda og'ir davr edi. Jamiyatdagi ozodlik va taraqqiyotga bo'lgan manfaatlarni o'zida mujassam etgan Amir Temur ana shunday xoloskor va etakchi sifatida maydonga chiqdi. Demak, Amir Temur qadimiy Turon va Turkiston zaminida tasodifan paydo bo'lgan shaxs emas, unga jamiyatda ijtimoiy ehtiyoj mavjud bo'lgan. Qadimiy Turon va Turkiston zamini juda uzoq davrlardan oziqlangan jihatdan rivojlangan, ma'naviy oziqlangan, madaniy merosi boy, madaniy, qatlamga ega bo'lgan joy bo'lgan. Bu davrda o'zbek davlatchiligining tarixiy asoslari qaror topganiga Amir Temur zamonasida ikki ming yildan oshgan edi.

Amir Temur shaxsi haqida Prezidentimiz shunday degan edi: «*Xalqimizning uzoq o'tmish tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug' qozongan, nom taratgan, millatimiz faxri bo'l mish ulug' zotlar benihoya ko'p o'tgan. Ammo ular qatorida yulduzlararo quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimz kechmishi buguni va ertasida behad yuksak o'rinn tutadi. Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temur hazratlaridir».*

Hazrat sohibqiron shaxsiga to'xtaladigan bo'lsak, Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, Qururli, o'tkir zehn va aqlu idrok sohibi bo'lib o'sadi. U turli dunyoviy va diniy ilmlarni, xarbiy san'atini chuqur egallaydi. 12 yoshda

Qur'oni Karimni yod oladi, hadis ilmini chuqur o'rganadi. Oqibatda iymone'tiqodli, halol-pok, inson bo'lib etishadi.

U yoshligidan o'z oldiga ona yurtini mo'g'il bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'yadi va bu yo'lida kurash olib borib bosqinchilar zulmidan jafo chekkan el va latlarning boshini qovushtiradi. Natijada 24 yoshda hokimiyatni qo'lga olib, o'z davlatini tuzadi. Uning bu davlati bir yuz ellik yillik mustamlakachilikdan qutilgan Turkiston xalqlarining mustaqil davlati edi. Amir Temur mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib uni butun dunyoga mashhur qiladi. U o'zining butun hayotining mazmuni betakror faoliyatining asosiy ma'nosi deb Vatan ozodligini uning mustaqilligini ta'minlashni tushundi.

Shavkatli Amir Temur bobomizning tarix oldidagi buyuk hizmatlari bizning bugungi kun mustaqilligimiz uchun ahamiyati nimalardan iborat? degan savol qo'yilsa, ularga quyidagi javoblarni berish mumkin:

1) Amir Temur eng avvalo murakkab tarixiy sharoitda o'z halqining boshini qovushtirib, mo'g'il istilochilariga qaqshatqich zarba berdi. Oqibatda mo'g'llar zulmidan qutulib, mustaqillikni qo'lga kiritib Turkiston zaminida ilk bor istiqlol bayrog'ini baland ko'tardi. Parokanda mamlakatlar, ellar va elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli sultanat tuzdi. Natijada: «Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir»: - degan shior Amir Temur sultanatining barcha hududlarida birday amal qilib, bu tamoyil butun mamlakatning ahloqiy - ma'naviy me'zoniga aylandi.

2) Amir Temur o'z davrida qudratli va buyuk davlat qurdi. U qudratli davlat qurmasa, uning davrida betakror ma'naviy meros ham, buyuk obidalar ham bizgacha etib kelgan tarixiy yodgorliklar ham yuzaga kelmas edi. Shu jihatdan mustaqil O'zbekistonimiz mustahkamlayotgan davrda Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida juda ham qadrlidir. U o'z davrida buyuk o'zbek davlatchiligining poydevorini qurban, yaratib bergan buyuk zotdir. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Shuni aytish kerakki Amir Temur o'z davlatini faqat kuchga suyanib boshqargan emas. Agar davlat faqat kuchga tayangan holda boshqarilsa, u uzoq davr yashamaydi. Buning misollari tarixda juda ko'p. Shu sababli Amir Temur o'z davlatini, avvalo, aql-idrok, zakovot va huquqiy asoslarga tayangan holda idora etadi. Bunga uning o'zining: «Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim»-degan fikrlari, yorqin misoldir.

3) Amir Temur faoliyatidagi biz uchun ibratli jihatlaridan yana biri shundaki, u savdo-iqtisodiy munosabatlар orqali xalqlar, mamlakatlar o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish sohasi buyuk yutuqlarga erishish mumkinligini o'z davrida to'g'ri tushunib etgan buyuk siymodir. «Shu sababli u o'z davrida Evropa va Osiyoni bog'lashga hizmat qilgan ulkan diplomatik ishlarni amalga oshiradi. Amir Temur buning uchun bir tomonidan - Frantsiya va Angliya, yana bir tomonidan - Rim, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatib bu aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan. Buning uchun u Ispaniya

qiroli Genrix III Frantsiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga o'zining elchilarini yuborib, ayni chog'da ispaniyalik, frantsiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa xorijiy elchilarni o'z sultanatida doim qabul qilib borgan. Bu haqda sohibqironning Frantsiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «*Siz o'z savdogarlarining mening sultanatinga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurttingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'y mang. Sizga bundan bo'lak talabim yo'q. Zero dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak*». Demak Amir Temur o'z tashqi siyosatida xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarini keng miqyosda yo'lga qo'yishni, undan barcha xalqlarni avvalam bor, o'zining xalqini barhamand etishni o'ta muhim ish deb hisoblaydi.

Sohibqironning o'z sultanatida bundan 600 yil avval bosh qotirgan va shu yo'lida olib borgan tashqi siyosati, uning «dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak!» degan g'oyasi bizning bugungi kunda ham qo'shni davlatlar bilan barpo etayotgan «yagona iqtisodiy - savdo maydoni» yaratish uchun buyuk iborat bo'lib xizmat qiladi.

4) Sohibqiron Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatları bugungi kunda biz uchun ham juda muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Bu ko'hna dunyoda jahongirlar ko'p o'tgan, Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yи bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. U muborak zot aytganlarki: «*qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim*».

Amir Temur va temuriylar sa'y-harakatlari bilan o'z davrida qurilgan madrasalar masjidlar xonaqohlar, saroylar, bozorlar, ko'priklar, yo'llar, bekatlar, hammomlar, kanallar, qal'alar va boshqa qator imoratu inshootlarning bog'-rog'larning son-sanog'i yo'q, Masalan, Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome' masjidi, Go'ri Amir va Ahmad Yassaviy, Zangi ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zindadagi me'moriy mo'jizalar; Bog'i, Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Baland singari o'nlab go'zal saroy-bog'lar va boshqa inshootlar shular jumlasidandir. **“Eng muhimi - deydi yurtboshimiz,- mazkur qurilishlar geografiyasini birgina Turkiston bilan chegaralanib qolgan emas. Buning isboti sifatida sohibqiron qadami etgan joylardagi tarixiy obidalarni eslashning o'zi kifoya.”**

Amir Temur Movarounnahr va Xurosonning shahar va qishloqlarida, hatto Janubiy Ozarbayjon Qobul va Bag'dod kabi uzoq shaharlarda ham obodonlik, bunyodkorlik tiklash ishlarini olib bordirgan, sug'orish inshootlarini qurdirgan» siymodir.

5) Ma'lumki, har qanday jamiyat ilm-fani ma'rifatsiz taraqqiy etmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron Amir Temur hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlaridayoq mamlakatda madrasalar barpo etish, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash masalalariga katta e'tibor beradi.

U qaysi bir shaharga bormasin qaysi mamlakatni istilo qilmasin, eng avvalo, o'sha erdag'i olimlaru fozillarga hatto e'tibor berar ular bilan uchrashuv suhbalashar va baxslar olib borar edi, nihoyat kamtar ulardan haqiqiy bilimdonlarini Samarqandga taklif qilardi va ularga oilalariga shart-sharoit yaratib berib hurmat-ehtirom, mehr muruvvat ko'rsatar edi. o'zi esa tarix, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega edi.

6) Amir Temur jamiyatda kishilar iymon, e'tiqotsiz yashashi mumkin emasligini juda teran va to'g'ri tushunadi. Shu sababli u odamlarga din, iymon, ishonch va e'tiqod kerakligina har doim ta'kidlaydi. U o'zning «Tuzuklari»da: «*har erda va har vaqt islom dinini quvvatladim*»-deb yozadi.

Amir Temur Qur'oni Karimni yod bilgani, Hadisi shariflarni yaxshi egallagani uchun diniy bahslarda yirik ulomolar bilan ko'pincha bab-barobar so'z yuritib bahslashadi. U islom dini, musulmonchilik aqidalari jamiyat osoyishtaligi, ravnaqi, ijtimoiyadolat iymon butunligi, ma'naviy poklik uchun xizmat qilishni yaxshi tushunadi. Lekin shu bilan birga shaxsiy e'tiqodiga ko'ra, davlat davlatligini din esa dinligini qilishi kerak. Uning bu g'oyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotgani yo'q.

7) Va nihoyat, shuni aytish kerakki, bir yuz ellik yildan ortiq mo'g'il mustamlakachiligi XIV asrning 70 yillariga kelib sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tufayli barham topdi. Qadimi Turon va Turkistonda Amir Temur boshchiligidagi davlat – qudratli va buyuk imperiya vujudga keldi. Amir Temur faqat Movarounnahrninggina hukmdori bo'lib qolmasdan, u Oltin O'rda, Eron, Hindiston, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, Qora dengiz sohillari, Suriya va Misrgacha - jami 27 mamlakatni istilo qilib, juda katta va keng hududni o'z ichiga olgan buyuk imperiyani tashkil qildi. Amir Temur tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining milliy mustaqillikka erishuvi nafaqat Movarounnahrning o'zida balki shu mintaqadagi boshqa mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Amir Temur nafaqat Movarounnahr xalqlarini mo'g'il mustamlakachiligidan xolos qildi, balki u shu bilan birga, o'zi istilo qilgan mamlakatlarda feudal parokandaliliga ham barham berib, butun malakatda nisbatan tinchilik va osoyishtalikni tartib-intizomni qaror topdirdi. Bu narsa o'z navbatida, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining keng rivoj topishiga olib keldi. Amir Temur davlati tasarrufiga kirgan shaharlarda qayta tiklash, ta'mirlash ishlari, yangi binolar barpo etish avj oldirildi, ularda hunarmandchilik, shaharlar atrofida bog'-rog'lar qishloq joylarida esa irrigatsiya ishlari keng yo'lga qo'yilib, ekin maydonlari kengaytirildi, dehqonchilik ishlari yaxshilana bordi. Tashlandiq, xorabozor erlar obod qilina boshlandi. Ayniqsa, shaharlar qurish gurkirab rivojlana boshladi, ularda esa ilm-fan, madaniyat va san'at gullay boshladi. Bu jihatdan Amir Temur imperiyasining poytaxti bo'lmish Samarqand g'oyat obod va ko'rakm shaharga, ya'ni shoir madh qilganday, «er yuzining sayqali»ga aylandi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u faqat davlat apparatini mustahkamlashga, mamlakatdagi mayda va yirik, lekin tarqoq feodallarni

birlashtirishga harakat qilibgina qolmasdan shu bilan birga mamlakatning siyosiy qudratini oshirma uchun iqtisodiy qudratini ham oshirishga, keng xalq ommasining ma'naviyatini ham yuksaltirishga katta e'tibor berdi. U o'zi ishg'ol qilgan xorijiy mamlakatlarda qo'lga kiritayotgan moddiy va ma'naviy intellektual boyliklarni o'z xalqi moddiy va ma'naviy-intellektul boyliklariga qo'shgan holda ularni elu yurt obodonchiligi, shahar va qishloqlarning gullab-yashnashiga, xalq farovonligiga sarf qildi. Amir Temur davrida qishloq xo'jaligi yaxshi rdi. U tabiatdagi sabab-oqibatlarni tadqiq qilib, ularning muayyan hilma-xil turlarini ajratib ko'rsatadi. Sabab – bu shunday narsaki, narsaning vujudga kelishi unga bog'liqdir, deydi u. Uningcha, sabab ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Agar sababning muayyan belgilari oqibatga o'tsa, ichki sabab, agar o'tmasa, bunday sabablar tashqi sabablar bo'ladi.

Taftazoniy falsafiy qarashlaridagi diqqatga sazovor masalalardan yana biri-bu insonga xos qazo va qadr hamda idora erkinligi masalalaridir. U o'zining «Taxzib al-mantiq va al-Kalom» asarida insonning hulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga keng to'xtaladi. Taftazoniyning fikricha, Xudo o'z bandalariga ikki yo'lni «taklif» etadi: birinchisi-sharaflı hayrli va makruh ishlarni qilish; ikkinchisi-nomutlub ishlar qilib, gunohga botish va qilgan gunohlari uchun jazo tortish. Bunda qaysi yo'lni tashlash esa insonning o'z irodasiga bog'liqdir. Mutafakkirning fikricha, Xudo tomonidan insonlarga ko'proq yaxshi, hayrli, matlub ishlarni qilish yuboriladi. Yomon hulq-atvor, nomatlub ishlar «insonga uni sinash uchun buyuriladi. Yomon hulq-atvorli kishilar, o'z yomonliklaridan qaytmasa, Xudo ularni jazolaydi. Bu jazodan qo'rqqan kishilar o'zlarining yomon hulq-atvorlaridan voz kechishi, qutulishlari lozim. Bu esa yana ularning irodalariga bog'liqdir.

Taftazoniy o'z bilish nazariyasida Ibn Sino (Ibn Sino narsa va xodisalar haqidagi hosil qilingan ma'lumotlarni bilim, deb hisoblaydi)dan farq qilib, ularni insonning his-tuyg'u va bilimlar o'rtasidagi vosita bo'luvchi bosqich, deb tushunadi. Uning qarashicha, inson bilish jarayoni uch shartni taqozo etadi:

1. His-tuyg'u a'zolari va ashyolar to'rtasidagi o'zaro ta'sir.
2. Bu ta'sirni inson ruhiyati tomonidan qabul qilinishi.
3. Aqliy bilish.

Taftazoniy bunda his-tuyg'u a'zolariga ashyolar va xodisalar ta'sir etib, tashqi hissiyotni payd qiladi, tashqi his-tuyg'u hissiyot asosida so'ng ichki-his tuyg'u paydo bo'ladi. Bu his-tuyg'ular va hissiyotlardan, ularning shakllaridan bilim shakllanadi, deydi. Bunda hissiyot ashyolar va xodisalardan ularning zaruriy sifatlari va aloqlari bilan birgalikda faqat tashqi qiyofalarinigina qabul qilib oladi. Shu sababli Taftazoniyning fikricha hissiy tasavvurga ega bo'lish uchun ashyo yoki narsaning o'zi bo'lishligi shartdir. Lekin, aqliy bilish uchun moddiy asoslar (ashyo yoki buyum)dan ancha uzoqlashgan bo'lib, bunda hissiy bilimlarga tayanib, ulardan yuqori ko'tarilish kerak, aqliy bilish ana shu yuqoriroq bosqichda

hosil bo'ladi. Uning qarashicha, aqliy bilishning shakllari tassavurot va tasdiqotlardir. Aqlning quroli ashyo va buyumlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. U tushunchalarni ta'riflar ekan, o'z oldiga: tushunchalar qanday kelib chiqadi va shakllanadi, degan savolni qo'yib unga shunday javob beradi: aqlning tahliliy - xulosaviy qobliyati (uningcha: tahlilot) va shuuriy iste'dodi (uningcha: mafqulot) tushunchalarning shakllanishi uchun asosiy yo'ldir. Uning yozishicha: «Faqat tahlilot va mavhumot vositasidagina ashylar haqida bilish mumkin».

Xullas, Taftazoniyning falsafiy qarashlari Yaqin va O'rta Sharq xalqlari O'rta asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ilg'or o'r'in tutgan qadimgi yunon faylasuflari fikrlari bilan ham ohangligini ko'rsatadi. Ammo Taftazoniy oldingi antik davr falsafiy qarashlari bilan cheklanib qolmay, o'z qarashlarini Sharq uyg'onish davri yuksalishlaridan turib rivojlantiradi, ularni yangi g'oyalar bilan boyitadi. Bu narsa uning qarashlarining diqqatga sazovor tomonidir.

Taftazoniyning falsafiy qarashlari o'z ilmiy qimmatini hozir ham yo'qotgan emas. Lekin uning merosi bizda etarli o'rganilmagan, uni chuqur ilmiy o'rganish falsafiy tafakkurimizni yanada boyitishga olib keladi.

Amir Temur va temuriylar davri falsaiy qarashlarini o'rganishda e'tiborga loyiq mutafakkirlarning yana biri bu Mir Sayid Sharif Jurjoniy (1339-1413)dir.

Asli ismi Ali binni Muhammad binni Ali Husayni Jurjoniy Eronning Gurgan viloyati markaziy Astrobod shahri yaqinidagi Tag'u qishlog'ida tug'iladi. U yoshligida o'sha davr Sharqda mavjud bo'lgan barcha fanlar bilan shug'ullanadi. Ayniqsa, u islom falsafasi bo'lgan Kalom, Mantiq, tabiatshunoslikka doir barcha bilim sohalarini kun bilan o'rganib, keyinchalik ularning har biriga oid katta ilmiy asarlar yozib qoldiradi.

Jurjoniy 1387 yili Amir Temur tomonidan Sheroz fath etilishi bilan u erdag'i bir qancha olimlar qatorida Samarqandga taklif etiladi va bu erda 20 yil samarali ijod qilib, sohbqiron vafotidan keyin yana Sherozga qaytib kelib, 1413 yilda vafot etadi.

Jurjoniyning bizgacha «Borliq haqida risola» va «Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu» deb nomlangan falsafiy asarlari etib kelgan. Shuningdek, uning Ar-Roziy at-Taxtoniyning «Shamsiya» asariga «Kotibiy Kazviniyning «Hikmatulayn» («Hikmatlar birligi») asariga yozgan sharhlari ham ilmiy falsafiy himmatga egadir.

Jurjoniyning tabiatshunoslik fanlariga doir (arab tilida yozgan) bir qator asarlari ham mavjud. Bularga Mahmud al-Chag'miniyning «Falakkiyotga doir saylanmaga sharh asariga bag'ishlab yozgan kitobini, Nasriddin at-Tusiyning «Falakiyotga oid eslatma» asariga bag'ishlab yozgan kitoblarini sanab o'tish mumkin. Jurjoniyning falsafiy qarashlari, o'zidan oldin o'tgan salaflarinikida bo'lganidek, O'rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi: borliq haqidagi ta'limotni, koinot jumboqlarini, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli tabiatning xususiyatlari, jiemoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari va shular kabi masalalarni o'z ichiga oladi. U o'z asarlarida koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi borliing umumiyl manzaraini yaratishga harakat qiladi. Bunda Jurjoniya xos narsa borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishga

harakat qilishdan iborat. Uning besh bobdan iborat bo'lgan «Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu» asarining birinchi bobini «vojibul-vujud» va «mumkin ul-vujud»ning mavjudligi masalasini asoslashga bag'ishlaydi. U bunda: «Yo'q bo'lishi mumkin bo'lgan, bor bo'lishi esa zarur bo'lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Masalan, holiqning o'zligi kabi tushuncha. Borligi ham, yo'g'ligi ham zarur bo'limgan narsa esa mumkin ul-vujud deb ataladi», deydi.

Jurjoniyning qarashicha, bu o'rindagi vojib ul-vujud – bu Xudodir, mumkin ul – vujud esa moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya'ni Xudoning borlig'ini tan oladi. Uning fikricha, mumkin ul-vujud o'zining bor bo'lishi uchun qandaydir biror bir sababga ehtiyoj sezadi. U biror bir narsa tufayli, ya'ni birinchi sabab tufayli vojib ul-vujud darajasiga ko'tariladi. Jurjoni o'zining risolasida shunday yozadi: «Bor bo'lishga imkoni bor narsa ikki tarkibiy qismidan substantsiya va aktsidentsiyada, ya'ni tub mohiyat va xodisadan tashkil topadi. Agar mavjud bo'lishga imkoni bo'lgan narsa o'z mavjudligi uchun joyga ehtiyoj sezmasa, unda uni tub mohiyat, deb agarda unga (joyga) ehtiyoj sezsa, hodisa, deb ataladi. Tub mohiyat besh xil bo'lishi mumkin. Agarda biror bir tub mohiyat boshqa joyda birorta narsa o'rnida qaror topgan bo'lsa, u joylashgan o'sha joy modda, deb uning holati esa-shakl, deb ataladi. Agar u o'z ichiga joy va xolatni olgan bo'lsa, u jism, deb nomlanadi. Agar tub mohiyat bu aytilgan uch narsa (ya'ni: joy, modda, shakl)ni o'z ichiga olmasa, u ayiruvchi substantsiya, deb ataladi. Agarda shu ayruvchi tub mohiyat jismni ifodalasa, u holda uning o'zgaruvchi qismi ruh, deb ataladi. Bu jismlardagi o'zgarmaydigan narsa aql, deb ataladi. Agarda ushbu aql bevosita vojib ul-vujuddan kelib chiqqan bo'lsa, u boshlang'ich ong yoki umumiy aql, deb ataladi».

Jurjoni, borliqdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta'kidlaydi. Uningcha, hamma mavjud narsalardagi butun harakat va o'zgarishlar faqat makon va zamondagina ro'y beradi. U butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'laklardan iborat yagona bir butunni tashkil etgan butullik sifatida ta'riflaydi. Jurjoniyning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur: olov, havo, suv va tuproq yotadi. U turli ko'rinishdan iborat boshqa jismlar, ya'ni metallar, o'simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to'rt unsurning bir-birlari bilan qo'shilishining (natijasi) hosilasi sifatida kelib chiqqandir, deydi. To'rt unsur esa, doimo harakatda, o'zgaruvchan bo'lib, biri ikkichisiga aylanib qolishi mumkin. Masalan, havo, suvga, suv tuproqqa va hakozo.

Umuman, Jurjoniylarsa qarashlarida moddiychilik g'oyalari ustun bo'lib, uning dunyoqarashi dialektikdir. Uning fikricha, moddiylikdan holi bo'lgan bo'sh joy yo'q. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: «Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo'lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo'shliq emas, chunki uni moddadon tashqarida bo'lgan tushuncha yoki biror o'lchov bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, bir-biri bilan o'zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog'lanib turmagan narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas, har bir atrofdagi dunyo, o'zi o'rab turgan narsaga teng

turshi zarur va birga joylashishi lozim, chunki bo'shliqning bo'lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo'lakchalarning tarkibiy majmuasi olam, deb ataladi.

Jurjoniy mantiq ilmiga ham juda katta hissa qo'shadi. Uning bilish nazariyasi va mantiqqa doir bir necha asarlari bo'lib, ularda mantiq ilmining falsafa va boshqa fanlar bilan munosabati, uning huquqshunoslik, tilshunoslik va ilohiyot sohasida amaliy tatbiqiy masalalarni yoritib berilgan. Jurjoniyning bu xizmatlari tufayli mantiq, ilmiga islom aqidalariga xos bo'limgan «begona ta'imot», deb g'araz bilan qarab kelish barham topdi va shu davrdan boshlab madrasalarda mantiq ilmini o'qitish huquqshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan bog'liq holda olib boriladigan bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bizda Mir Sayid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari faylasuflarimiz tomonidan etarli o'rganilgan emas. Uning falsafiy asarlari o'zbek tiliga tarjima ham qilinmagan. Agar bu ishlar Sharqshunos va faylasuflarimiz tomonidan amalga oshirilsa, bizning falsafiy tafakkur tariximiz yanada boyigan bo'lardi.

4. Amir Temur va temuriylar davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishida Mirzo Ulug'bek va uning maktabi vakillarining tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari muhim o'rinni tutadi. Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek faqat oddiy hukmdor bo'lib qolmasdan, balki u buyuk olim bo'ladi.

Asli ismi Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek (1394-1449) Amir Temurning Eron va yaqin Sharqqa qilgan «besh yillik» yurishi paytida Ajam Iroqining Sultoniya shahrida 1394 yilda dunyoga keladi. U temuriylar xonadonining suyukli farzandi sifatida yoshligidanoq saroy muhitida saroy ayonlari, olimlar, shoirlar ta'siri, ta'lim va tarbiyasida ulg'ayadi. Uning tarbiyasi shaxsan bobosi sohibqiron Amir Temur tomonidan nazorat qilinib, buvisi Saroymulkxonim enagaligida olib boriladi. Mirzo Ulug'bek saroydagi eng yirik olimlar: Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiy va boshqalardan saboq oladi. U qadimgi yunon mutaffakirlari va IX-XII asrlarda etishib chiqqan yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyo olimlarining asarlarini qunt bilan o'rganadi. Mirzo Ulug'bek, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini matematika, geometriya, geografiya, kimyo, astronomiyaga oid bilimlarni chuqur egallaydi. Natijada, yigirma yoshlarida o'z davrining yirik olimlaridan biri bo'lib etishadi.

Mirzo Ulug'bek 1411 yilda Movaraunnahr va Turkistonning hokimi qilib tayinlanadi. U hokimlik qilgan davrlarda, mamlakat tashqi va ichki mudofaasini mustahkamlash bilan bir qatorda, Samarqand, G'ijduvon, Buxoro shaharlarida ko'plab madrasalar, masjidlar, turli ilm o'choqlari qurdirib, ilm-fanning rivojlanishiga katta e'tibor beradi. 1425-1928 yillarda Mirzo Ulug'bek Samarqandda, keyinchalik uning nomini jahonga mashhur qilgan rasadxona - observatoriyanı qurdirib, o'zining falakiyat maktabini yaratadi. U o'zining bu maktabiga o'z zamonasining eng buyuk olimlarini jalg qilib, ularga o'zi boshchilik qilgan holda, ilmiy tadqiqotlar olib boradi. U o'zining butun qobiliyat va iqtidorini, salohiyatini hukmdorlikdan ko'ra ilmiy faoliyatga ko'proq qaratadi.

Natijada, 1428-1438 yillar davomida o’z ustozlari va shogirdlari bilan hamkorlikda olib borgan ilmiy kuzatishlarining yakuni sifatida uning shoh asari – “Ziji jadidi Ko’rogony” asari maydonga keladi.

Mirzo Ulug’bekning bundan tashqari, yana «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», «Risolai Ulug’bek» kabi astronomiyaga oid, «Tarixi ulus arba’a» («To’rt ulus tarixi»), uning muhtasari «Shajara at turk» tarixga oid hamda bir necha musiqaga oid asarlari ham mavjud.

Nihoyat, Mirzo Ulug’bek bobosi sohibqiron Amir Temur vafotidan keyin temuriyzodalar, mahalliy hukmdorlar, johil shariat peshvolari, xususan, ota-bolashoh va shahzodalar o’rtasida kurashlar oqibatida uning mansabparast o’g’li - Abdullatif tomonidan 56 yoshida 1449 yil 27 oktyabrda fojiali o’ldiriladi. U boshlagan ilmiy ishlarni uning shogirdlari: G’iyosiddin Koshiy, Oloviddin Ali Ibn Muhammad Qushchilar va boshqalar tomonidan davom ettiriladi!.

Mirzo Ulug’bekning «Ziji jadidi Ko’rogony» asari: kirish (nazariy qism) va to’rtta katta boblardan iborat. «Kirish»ning o’zi mustaqil to’rt qismni o’z ichiga olib, uning boshida «Qur’on»dan yulduzlar va sayyoralarga taaluqli oyatlar keltrilib, bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligi o’sha davr g’oyaviy talablaridan kelib chiqib asoslanadi. «Kirish»ning keyingi qismlarida bu ilmiy tadqiqotlar qanday maqsadda qaysi olimlar ishtirokida olib borilganligi, ularga muallifning minnatdorligi ilmiy tadqiqot qachon va qanday boshlanganligi, unda qanday ilmiy usullar va asboblar qo’llanganligi va nihoyat, qachon tugaganligi yoritib berilgan.

Asarning birinchi bo’limi - «Tarix, ya’ni xronologiyaning ma’rifati» deb atalib, uning o’zi etti bobni o’z ichiga oladi. Bu boblarda islomda qo’llaniladigan asosiy era-xijriy era bilan sur’yoniy-yunon erasi, ularda keltirilgan sanalar boshqa «jaloliy»erasi, xitoy va uyqur erasi, hind-forsiy eralar bilan solishtirilib, ulardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi. Bu bo’limda, shu bilan birga, turkiy muchal yillari haqida ham keng fikr yuritiladi.

Ikkinchi bo’lim - «Vaqtlar va ularga taaluqli narsalar» deb atalib, unda asosan, matematika va sferikastronomiya masalalari yoritiladi. Bunda olim ekleptikaning osmon ekvatoriga og’ish burchagining aniq miqdorini topganligi - u 23 daraja 30 daqiqa, 17 soniya ekanligini yozadi. Bu miqdor O’rta asrlar davri uchun nihoyatda aniq o’lchangan miqdor edi.

Asarning uchinchi bo’limi - 13 bobdan iborat bo’lib, ularda faqat astronomiya masalalari: Quyosh, oy va boshqa besh sayyoraning harakatlari, «turg’un yulduzlar»ning uzunlama va kenglama holatlari yoritiladi. Muallifning bu bo’limda keltirgan yulduzlar jadvallari o’z davri uchun eng nodir va mukammal jadvallar bo’lgan.

Nihoyat, «Ziji jadidi Ko’rogony»ning oxirgi to’rtinchi bo’limi, asosan, ikki bobdan iborat bo’lib, u ilmi nujum astrologiyaga bag’ishlangan.

Mirzo Ulug’bekning bu asari o’z davridagi eng mukammal astronomik asar sifatida tezda zamondosh olimlarning diqqat e’tiborini o’ziga jalb qiladi va ular

ijodiga ta'sir ko'rsatadi. Uning qo'lyozmalari tez orada Yaqin va O'rta Sharq, Xitoy va Hindiston olimlari qo'llariga ham etib boradi.

Ulug'bek vafotidan keyin Istambulga borib yashagan va ijod qilgan shogirdi - Ali Qushchi tufayli XVI asr o'rtalarida bu asar Evropa olimlari tomonidan lotin, ingliz, frantsuz va nemis tillariga tarjima qilinib, nashr etiladi.

Umuman, Mirzo Ulug'bekning bu asari unda ilmiy kuzatishlar asosida ishlab chiqib keltirilgan astronomik jadvallar o'zlarining ilmiy aniqliklari bir necha yil davomida sharqu g'arb olimlarini hayratga solib, astronomiya ilmida dasturulamal vazifasini o'tab keldi.

Sobiq Sovet davrida Mizro Ulug'bek va uning davri, uning astronomik ilmiy maktabi yuzasidan ma'lum kamchilik va cheklanganliklar bilan yozilgan Sharqshunos B.A.Bartoldning «Ulug'bek va uning zamonasi» (1918y) hamda akad. T.N.Qori-Niyoziyning «Ulug'bekning astronomiya maktabi» (1950) monografiyalari yaratildi. Lekin marhum akad. I.M.Mo'minov qayd qilib o'tganlaridek, O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha, Mirzo Ulug'bekning bu asari, uning astronomik maktabi, ilmiy merosi xaqida «biror jiddiy monografik asar» vujudga kelmadı.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamma tabiatshunoslardan singari Mirzo Ulug'bek ham o'z dunyoqarashiga ko'ra, moddiy dunyoning inson onidan tashqari va mustaqil mavjudligini, tabiat hodisalarining va butun koinotning, shubhasiz, o'z qonunlari va qonuniyatları asosida harakatlanishi va mavjudligini, shu bilan birga tabiat va jamiyat hodisalarining o'zaro aloqadorligi, ular haqidagi bilimlar kishilik jamiyatini rivojlantirish yo'lida xizmat qilish zarurligini tushunib etgan donishmand mutafakkirdir.

Mirzo Ulug'bek va u asos solgan astronomik maktabning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini chuqurroq o'rganish va tushunishga uning sodiq shogirdi Ali Qushchining qarashlari va astronomiyaga oid yozgan asarlari g'oyat qimmatli ahamiyatga ega.

Alaviddin Ali Ibn Muhammad Qushchi (XV asr boshi-1474 y.y.) Mirzo Ulug'bek xali hayot vaqtlaridayoq yirik olim sifatida tanilgan edi. Uning tabiiy-ilmiy fanlar, xususan, matematika va astronomiya fanlari rifojlantirishga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Ali Qushchining astronomiya matematika va falsafa sohalariga oid yozib qoldirgan asarlarining umumiyligi soni 25 dan ortiqdir. «Arifmetika ilmi haqida risola», «Kasrlar» haqida risola», «Ali Muhammadiy» risolasi», «Ulug'bekning yangi astronomik jadvallariga sharhlari», «Astronomiya ilmi haqida sharh kitobi», «Geometrik masalalarni echish risolasi», «Mantiq risolasi», «Azuziddinning falsafiy risolasining sharhlari», «Istiorat risolasi», «Mufradiyna risolasi», «Oysimon shakllarni echish risolasi» va nihoyat, «Astronomik risola» kabi asarlar uning qalamiga mansubdir.

Ayniqsa, Ali Qushchining «Astronomik risola»si g'oyat qimmatlidir. Uning mazkur asari muqaddima va uch bobdan iboratdir. Asarning muqaddimasi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida xandasa (geometriya) ilmining asosiy tushunchalari: nuqta, chiziq, sath, to'g'ri va egri chiziqlar, parallel chiziqlar, doira

kabi tushunchalarning ma'nolari va ta'riflari beriladi. Ikkinci qismida esa tabiatshunoslikka oid boshlang'ich bilimlar bayon etilib, tabiatdagi hamma narsalar sodda va murakkab, osmon jismlari va er jismlariga bo'linadi. Osmon jismlari - yulduzlar olami ham er jismlari ham to'rt unsur (suv, o't, havo va tuproq) dan paydo bo'lgan deb ta'riflanadi. Dunyo hayvonotdan iborat bo'lib, ular o'zaro bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir, deyiladi. Har bir narsa va jism oddiy va murakkab qismlarga bo'linadi, ular bir doirada oddiy, boshqa doirada murakkab holda sodir bo'ladilar. Ular doimo harakatda, o'zaro ziddiyatdadirlar... Ali Qushchining bu yuqoridagi bayonida juda chuqur falsafiy fikrlar ifodalangan. Bu o'rinda: mavjud dunyo moddiy narsalardan tuzilgan bo'lib, ular oddiy va murakkab holdadir, ularning o'zlarida qarama-qarshiliklar ziddiyatlar va o'zaro birga bo'lish namoyondir, deyilgan. Ali Qushchi asarining muqaddimasi shu bilan yakunlanadi.

Ushbu asarning birinchi bo'limi olti bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda osmoni falak, osmoni falakning soni va sifati ustida fikr yuritiladi. Osmoni falakda 9 ta davra (sfera) bir kuranni tashkil qilib, uning markaziy Erning ham markaziy hisoblanadi, deyiladi. Bundagi katta falak-osmon (samo) ikkinchisi-yudo'zlar doirasi uchinchisi - Zuhal (Saturn) doirasi to'rtinchisi Mushtariy (Jupiter), beshinchisi-Mirrix(Mars) oltinchisi - Quyosh (oftob), ettinchisi - Zuhro (Venera), sakkizinchisi – Atorud (Merkuriy) va to'qqizinchisi - oy doirasi (sferasi)dir. Falak doira (sfera)larini sanash bunda Oydan boshlanadi, deyiladi.

Ikkinci bobda bu doira (sfera)larning eng kattasi va eng kichigi haqida, har bir doiradagi chiziqlar, ularning parametrlariga xos muhim chiziqlar, ularning belgilari, ufq, qutb, sharq, g'arb, shimol, janub; sath, zenit ko'rsatkichlari, o'lchovlari, iqlim kabi tushunchalar ustida fikr yuritiladi.

Uchinchi bobda esa sakkizinchi va to'qqizinchi doira (sfera)dagi «harakatsiz yulduzlar» holati, ularning o'rni haqida so'z yuritiladi. Ayni shu bobda Ali Qushchi Quyoshning to'rt fasldagi bir-biri bilan almashish qonuniyati haqida fikr yuritadi. To'rtinchi bobda Oy, Oy kurarsi, uning satxi, olam va er markazlari haqida, Quyosh (shams)ning ikki sferasi, bu sferaga kiruvchi planetalar: Zuhal, Mushtariy, Mirrix, Zuhro, Atorudlarning Quyosh sferasidagi 4 xil aylanishda ba'zilari G'arbdan Sharqqa tomon, ba'zilari Sharqdan G'arbgaga tomon yo'nalgan holda harakatlanishi/aylanishlari haqida fikr bildiriladi. Shu bilan birga ular o'z markazlari atrofida va tashqi Quyosh markazlari-Quyosh atrofida aylanadi, deyiladi.

Oltinchi bobda Quyosh, Oy va sayyoralarga oid muhim qoidalar, mulohazalar bayon etiladi. Bunda sayyoralarning o'z markaziy tevaragida, o'z davrasi ichida hamda Quyosh atrofidagi harakatlari, aylanishlari, bu harakat va aylanishlarning sabablari ulardagi harakatlarning tengligi, o'zgarish va tiklanishlarining ma'lum tartibda amalga oshirishlari ustida bahs yuritiladi. Bu bobda olim yulduzlar, sayyoralar, Quyosh va Oyning harakatlari, doiraviy harakatlari, yuqoriga va quyiga, aylanma harakatlari fazoda har bir sayyoraning o'mni, bir-biridan uzoq-yaqinligi shu Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan

kuzatishlariga asoslanib bayon qilinayotganligini qayd qilib o'tadi. Shu bilan birga bunda bu haqdagi o'z davri va ungacha bo'lgan mashhur astronomlarning qarashlari, ta'limotlari, ular o'rtasidagi munozaralar keltirilib, ular Ulug'bek rasadxonasi hisoblashlari bilan taqqoslanadi, rasadxona hisoblari ularning hisoblariga to'g'ri, zid yoki qarama-qarshi kelgan jihatlarini ham bayon qilib o'tadi.

Bu bobda eng muhim bayon qilingan masalalardan biri-Quyosh, va oyning tutilishi sabablarini ilmiy izohlab tushuntirib berilganidir. Kitobning ikkinchi bo'limi Erga, Erning tarkibi, iqlimi, ob-havosi masalalariga bag'ishlangan. Bunda olim Erni kurra (shar) shaklida, uning sathining ko'pchiligi suv ekanligi, Erning markaziy olamning markaziy bilan bir ekanligini, Erning chegarasi yo'qligini, Er kurra shaklida va u hamisha Quyosh doirasida ekanligini aytib Erdagi narsalarning aylanish markaziy Quyosh markazidir, deydi. Mazkur bo'limda olim yana Er kurrasining shimoliy va janubiy qutblari, ekvatori (hatti istvo), meridian chiziqlari (hatti ufg'on) to'g'risida, iqlim va ob-havo, to'rt fasl, ob-havo va iqlimning insonlarga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon qiladi.

Asarning xotimasida Ali Qushchi bu asarini Ulug'bek rasadxonasida ishlagan 1428 yildan 1438 yilgacha bo'lgan ish faoliyati asosida yozganini qayd qiladi.

Xullas, tabiatshunos olim sifatida Ali Qushchi ham moddiy dunyoning insonga, inson ongiga bog'liq bo'limgan holda mavjudligini, koinotning undagi yulduzlar, planetalar, Quyosh, Oy va Erning o'zaro aloqada o'z qonunlari asosida o'z markaziy va Quyosh atrofida harakat qilishi, ularning markaziy Quyosh ekanligini Ovrupa olimlaridan 150-200 yil oldin o'z ilmiy kuzatishlari asosida isbotlab, yozib qoldirgan edi. Lekin bunday ilmiy shijoatlar ham o'sha davr feodal jamiyatining qoloqligi temuriyzodalar va mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun olib borgan kurashlari, keng xalq ommasining ma'rifikatdan, ilm-fandan yiroq ligi, diniy hurofotning kuchliligi ba'zi johil ruhoniylarning ilm ahllariga nisbatan kurashlari tufayli yuzaga chiqmay qoldi.

Shunday qilib, Ulug'bek astronomik ilmiy maktabining erishgan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari Ali Qushchidan keyin Markaziy Osiyodan tashqarida Hindiston, Eron, Turkiyada, G'arbiy Ovrupada esa XVI asrdan boshlab davom ettiriladi va rivojlantiriladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin 1994 yilda Prezidentimiz I.Karimov farmoni bilan Mirzo Ulug'bek tavалудining 600 yilligi o'tkazilib, mamlakatimizda va xorijda YuNESKO qarori asosida Parijda ilmiy konferentsiyalar bo'lib o'tdi va shundan boshlab Mirzo Ulug'bekning tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlarini haqiqiy ilmiy o'rganish boshlandi.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy tafakkur taraqqiyotida o'ziga xos falsafiy fikrlar bosqichini tashkil etadi.

Temuriylar davri falsafasida **Alisher Navoiy (1441-1501)**ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari alohida o'rIN tutadi. Alisher Navoiy temuriylar davrining

ziddiyatlar avj olgan davrida yashab ijod qildi. Uning falsafiy qarashlari “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamatul-lug’otayn”, “Lisonut tayr” kabi asarlarida bayon etilgan. Uning falsafiy qarashi borliqning birligi ta’limotiga asoslanadi. Uningcha *borliq bu Xudodir, u borliqni mutloq va nisbiy borliqqa ajratadi*. *Mutloq borliqning makoni va zamoni yo’q deydi, nisbiy borliq esa makon va zamonga ega, u o’tkinchi, uning avvali va oxiri bor. Nisbiy borliq mutloq borliqqa qaramadir*. *Bir butun koinot mutloq borliqning o’zgarishi natijasida vujudga kelgan*. Alisher Navoiy koinotdagi eng etuk vujud inson deb hisoblaydi. Inson butun borliqning ko’rki va sharafidir. U insonni bioijtimoiy mavjudot sifatida olib inson o’z hayotini o’zi uchun ham butun jamiyat uchun ham foydali bo’lgan ishlarga bag’ishlashi kerak. Shuning uchun u kasb-hunar o’rganishi, ma’rifatli, xushxulq bo’lishi kerak deydi. Uning inson haqidagi qarashlari negizida farovonlik va osoyishtalik hukm surgan jamiyat va odil shoh to’g’risidagi g’oyalar yotadi. Alisher Navoiy naqshbandiya tariqaini e’tirof etgan ijodkordir. U tasavvufning salbiy aqida va odatlarni tanqid qiladi, zohidlikka qarshi kurashadi. Uning qarashlarida bilish nazariyasiga oid fikrlar mavjud bo’lib, bilishning asosiy maqsadi borliqni, tabiatni, insonning o’zini o’rganib yomonlikni yo’qotish, yaxshilikni ko’paytirishga qaratilganligi deb hisoblaydi u.

### **O’z-o’zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. Tasavvuf atamasining ma’nosи nima?
2. Tasavvuf ta’limoti qachon va qaerda paydo bo’lgan?
3. Tasavvuf falsafasining mohiyati nimadan iborat?
4. Tasavvufning qanday tariqat bosqichlari mavjud?
5. Markaziy Osiyoda qanday tasavvuf tariqatlari paydo bo’lgan?
6. Nega Amir Temurni biz buyuk sarkarda, o’zbek davlatchiligining asoschisi, bunyodkor, adolatparvar, “millatning dardlariga darmon bo’lgan” sohibqiron deymiz?
7. Mirzo Ulug’bek va Ali Qushchilarning tabiiy-ilmiy qarashlari nimalardan iborat?
8. S.Taftazoniy va M.Sh.Jurjoniylarning falsafiy qarashlari nimalardan iborat?
9. Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari deganda nimalarni tushunasiz?

### **Adabiyotlar ro’yxati:**

- 1 Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o’z tanlagan yo’lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning O’zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi) Xalq so’zi 2004 yil 30 mart;
2. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o’z kuch-qudratimizga, xalqimizning xamjihatligi va bukilmas irodasiga bog’liq (Prezident I.Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 14- sessiyasidagi nutqi) Xalq so’zi 2004 yil 30 aprel;
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. //Muloqot, 1998, 5-son.
4. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O’zbekiston 1998.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O’zbekiston 1999.
6. Al-Buxoriy. Hadislar I-IV tomlar. –T.: Meros 1990-1992.
7. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. –T.: 1995.
8. Mo’minov I.M. Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli. –T.: Fan, 1993.
9. Mo’minov I.M. O’zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. –T.: Fan 1994.
10. Falsafa. o’quv qo’llanma. –T., Sharq 1999.
11. Falsafa. Ma’ruzalar matni. –T., Moliya instituti 2000.
12. Azamat Ziyo. Milliy tuzugimiz. – «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.
13. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
14. S.Yo’ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G’arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

## **6-MAVZU. G'ARBIY EVROPADAGI UYG'ONISH DAVRI VA YANGI ZAMON FALSAFASI.**

**Reja:**

- 1. G'arbiy Evropada Uyg'onish davridagi falsafasining o'ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Yangi zamon Evropa falsafasining mohiyati va asosiy yo'nalishlari.**

XIV va XVI asrlar G'arbiy Evropada Uyg'onish davri, deb yuritiladi. Bu uyg'onish dastlab Italiyada, so'ngra Evropadagi boshqa mamlakatlarda vujudga keladi. Bu davrda Evropa mamlakatlarida feudal munosabatlari ichida kapitalistik munosabatlar rivojlnana boshlaydi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi tabiatni, undagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini o'rganish tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishiga olib keladi. Ilg'or olimlar va mutafakkirlar dunyoviy ilmlarni din va sxolastika hamda cherkov hukumronligidan ozod qilish uchun kurash olib boradilar. Natijada, feudal reaktsiyasiga qarshi burjuaziyaning, dinga qarshi fanning, sxolastik falsafaga qarshi yangi uyg'onish davri falsafasining kurashi yuzaga keladi. Ana shu tarixiy sharoitda o'z asrslari va yangi kashfiyotlari bilan bir qancha ijodkorlar, olimlar va faylasuflar etishib chiqadi.

Ana shunday kishilardan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir. U o'zining 25 yil osmon jismlari ustida olib borgan kuzatishlarining natijasi sifatida 1543 yilda e'lon qilgan «Osmon jismlarining gir aylanishi» nomli kitobida Aristotel va Ptolomeyning cherkov rasmiy ravishda qabul qilgan geotsentrik nazariyasini o'zining ilgari surgan gelotsentrik gipotezasini bilan rad etadi.

Ma'lumki, geotsentrik nazariyaga ko'ra, olamning markaziy Er, u harakatsiz, boshqa barcha planetalar, yulduzlar, hatto Quyosh ham uning atrofida harakat qiladi va aylanib turadi. N.Kopernikning yaratgan gelotsentrik gipotezasiga ko'ra, Er olamning markaziy emas, uning harakatsizligi noto'g'ri. Aksincha, Er, avvalo, o'z o'qi atrofida harakat qiladi, bu harakat tufayli kun bilan tun yuzaga keladi; ikkinchidan, olamning markazida Er emas, Quyosh turadi, uning atrofida boshqa sayyoralar bilan birga, Er ham aylanadi, natijada, Erda to'rt fasl sodir bo'ladi. Kopernikning bu kashfiyoti tabiatshunoslik fanlarida juda katta voqea bo'lib, bu tabiatshunoslik fanlari rivoji uchun, dunyoviy ilmlarning rivojlanishi uchun tabiiy ona zamin rolini bajaradi.

Uyg'onish davrida paydo bo'lgan, tabiatni o'rganish asosida yuzaga kelgan falsafiy qarashlar O'rta asrlarda paydo bo'lgan diniy-sxolastik falsafiy qarashlar bilan olib borilgan kurashlari natijasida panteistik falsafiy ta'limot vujudga keladi. Bu oqimning shu davrda etishib chiqqan vakillaridan biri Jordano Brunodir. Uning ta'limoticha, moddiy olam birlamchi bo'lib, ong ikkilamchidir; moddiy olam mangu va abadiydir, uni hech kim yaratgan emas, moddiy olam mangU u so'ngsiz va cheksiz, u cheksiz turlarda ifoda etiladi, undagi barcha predmet va hodisalar bir-birlari bilan bog'liq va aloqadorlikda. Olamda Quyosh sistemasidan tashqari

yana sonsiz-sanoqsiz dunyolar mavjud. Olam bepoyon olamning zarrasidir. Brunoning bu qarashlari uchun uni Rim katolik cherkovi dahriylikda ayblab, Rimda olovda yondirib o'ldiradi.

Lekin J.Brunoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, Uyg'onish davri falsafasi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Chunki u O'rta asr diniy-sxolastik falsafaga qarshi dunyoviy bilimlarni din iskanjasidan, cherkov hukmronligidan xolos qilish, ozod etish uchun zamin yaratgan edi.

Uyg'onish davrida N.Kopernik J.Bruno izdoshi sifatida maydonga chiqqan buyuk olim, matematik, mexanik, fizik, astronom Galileo Galileyning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari ham muhim rol o'ynaydi. U N.Kopernik gipotezasi, ya'ni Er o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi g'oyasini qizg'in targ'ib qilib, u haqda o'zining «Dunyoning ikki sistemasi haqida suhbat» asarini yozadi. Bu asarda dinning va cherkovning diniy-sxolastik aqidalarini keskin tanqib qilib chiqadi.

Cherkov inkvizatsiyasi uni ham qamoqqa olib, Rimda sud qilishadi, «tavba qildirishadi». U sud jarayonida, go'yo o'z qarashlari noto'g'ri, ulardan qaytganligini tan oladi. Sud hukmi o'qilib bo'lganidan keyin, sud zalidan, qamalmasdan, chiqib ketishi oldida, odamlarga qarata: «Baribir, Er o'z o'qi atrofida aylanadi» deb chiqib ketadi. Shunday qilib, Uyg'onish davrida tabiatni, olamni bilishning o'sishi, fanning din hukumronligidan ozod bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

XVII -XVIII asrlar G'arbiy Evropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Evropa mamlakatlarida O'rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kapitalistik munosabatlar to'liq qaror topadi va rivojiana boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqaraish ehtiyoji tabiatni, insonning o'zini, jamiyatni ilmiy o'rganish, bilishni taqazo qiladi va uni o'rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarining o'sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalar Er shari bo'y lab ilmiy ekspeditsiyalarning uyushtirilishi, yangi erlar, yangi qit'alarni ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexanika, matematika, fizika, kimyo, astronomiya sohalarida yangi-yangi tatqiqotlar olib borilib, O'rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarni uloqtirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Bunda nemis olimi Keplerning sayyoralarining harakati, qonunlarining ochishi, ingliz olimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarining kashf etilish, ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyoni bilishdagi muhim rol o'ynovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, frantsuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo'lishiga oid detuktiv metodni asoslab berishi muhim rol o'ynaydi. Shular asosida bu davr falsafasida metafizik va metomexanistik materializm qaror topadi. Metafizik va mexanistik materializmning namoyondalari F.Bekon, J.Lokk, T.Gops frantsuz faylasuflari R. Dekart, P. Kobak, Lametri va Gelvetsin qarashlarida o'zining yorqin ifodasini topadi.

Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga keladi. Empirik oqimning asoschisi

F.Bekon hisoblanadi. Uning qarashicha, tabiatni bilshning manbai bu - tajriba, eksperiment, kuzatishdir. Inson sezgi a'zolari orqali tabiat to'g'risida hosil qilingan faktlar, dalillar va ma'lumotlarni tajriba orqali tekshirishi, aniqlashi, undagi hato va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Shu asosda insonning tabiat to'g'risidagi to'g'ri, to'liq bilimlari hosil bo'ladi.

F.Bekonning falsafa va fan tarixidagi eng katta hizmati- uning inson bilishining induktiv metodini ishlab chiqishidir.

Ratsionalistik oqimning asoschisi frantsuz faylasufi Rene Dekartdir. Dekart ta'limoticha, insonning tabiatni bilishining birdan-bir to'g'ri metodi bu aqlga asoslangan deduktiv metoddir.

Dekart o'zining bu qarashlarini «Metod to'g'risida mulohazalar» asarida bayon qiladi. U o'z asarida insonning tabiatni bilishida quyidagi talablarni ilgari suradi:

1. Haqiqat, deb qaralgan bilim faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan, shubhalardan holi bo'lgan nazariy xulosalari asosida chiqarilgan fikrlar bo'lmog'i lozim.
2. Har bir murakkab muammo yoki masalani ularning tarkibini tashkil qilgan muammo va masalalarga ajratish, bo'lish lozim.
3. Bilihsda isbot bo'ladigan, ma'lum bilimlardan hali noma'lum va isbot qilinmagan bilimlarga o'tib borish zarur.
4. Tadqiqot haqidagi fikrlar - bilimlarni tashkil etgan mantiqiy xalqalardan xulosa chiqarishda birontasi ham tushirilib yoki e'tiborsiz qoldirmasligi lozim. Dekartning qarashlariga ko'ra inson bilishining birdan-bir manbai - bu tafakkur, aqliy salohiyatidir. Uning qarashicha, insonning sezgi a'zolari, tajribalari hamma vaqt ham to'g'ri bilim beravermaydi, shu sababli ularga inson o'z bilish jarayonida to'liq ishonmasligi zarur.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. Evropa Uyg'onish davri falsafsi deganda qanday falsafiy qarashlar tushuniladi?
2. Evropa o'yg'onish davri falsafasiga qanday xususiyatlар xos?
3. Evropa yangi zamon falsafasi deyilganda qanday falsafiy qarashlarni tushunamiz?
4. Evropa yangi zamon falsafasi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
5. XVII-XVIII asrlarda frantsuz faylasuflari tomonidan materializmning qanday shakli asoslangan?
6. Yangi zamon falsafasi va tabiatshunoslik fanlari ittifog'i haqida nimalar deya olasiz?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston 1992.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. -T.: O'zbekiston 1997.
4. Sulaymanova F. Sharq va G'arb. –T., 1997.
5. Forobi. Fozil odamlar shahri. –T., Ibn Sino, 1997.
6. Falsafa. o'quv qo'llanma. –T., Sharq 1999.
7. Falsafa. Ma'ruzalar matni. –T., 2000.
8. Falsafa. Ma'ruzalar matni. –T., Moliya instituti 2000.
9. Erpo'lat Baxt. Jamiyat va shaxs manfaati aks etadi. – «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.
10. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
11. S.Yo'ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

## **7-MAVZU. NEMIS MUMTOZ FALSAFASI.**

### **Reja:**

- 1. I.Kantning falsafiy qarashlari.**
- 2. Gegelning dialektik metodi va metafizik sistemasi.**
- 3. Feyerbaxning antropologik falsafasi.**

1. Nemis mumtoz falsafasi deb o'n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmi va o'n to'qqizinchi asrning boshlarida Germaniyada vujudga kelgan falsafaga aytamiz. Bu davr Evropaning ilg'or mamlakatlari: Angliya, Frantsiya va Gollandiyada kapitalistik munosabatlar tobora jadal olg'a tomon tez rivojlanayotgan hamma sohalarda封建 munosabatlarning o'rnini egallayotgan burjua demokratik inqiloblar bo'lib o'tayotgan burjua demokratik harakatlar avj olayotgan davr edi.

Bu davrning markazida turli-tuman ijtimoiy xodisalarning avj olishiga sabab bo'lgan 1789-1792 yillarda bo'lib o'tgan Frantsuz burjua - demokratik inqilobi turar edi. Bu inqilob Evropaning qator mamlakatlarining shu jumladan, Germanianing ham rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu inqilob, dastlab Germaniyada ham shunday inqilobning zarurligini, ya'ni o'n sakkizinchi asrda Frantsiyada bo'lganidek, o'n to'qqizinchi asrning boshlarida Germaniyada bo'lishi zarurligidan darak beradi. Xuddi Frantsiyadagi kabi Germaniyada ham nemis mumtoz falsafasi - falsafiy fikr sohasidagi inqilob siyosiy hayot sohasidagi inqilobga muqaddima bo'lib xizmat kiladi.

Nemis mumtoz falsafasi o'zidan oldin o'tgan Evropa va jaxon ilg'or falsafiy fikrlar va oqimlarning vorisi davomchisi bo'lish bilan birga o'z davridagi Evropaning kapitalistik taraqqiyot tarixiy tajribasiga hamda tabiatshunoslik hamda tabiatshunoslik texnikafiy ijtimoiy - gumanitar bilimlar sohalari qo'lga kiritayotgan umumlashtirish asosida paydo bo'ldi. Bu falsafada inson faoliyatining faolligi unda amaliyotning mavjud tartiblarni o'zgartirishdagi rolini tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini tafakkur bilan borliqning dialektik aynanligini falsafadagi ob'ekt va sub'ekt munosabatlarini tadqiq etish etakchi o'rinnegallaydi. o'zining shu jihatlari bilan nemis mumtoz falsafasi insoniyat falsafiy fikr taraqqiyotida alovida o'ziga xos bosqichni tashkil qiladi. Nemis mumtoz falsafasining paydo bo'libida I.Kant I.G.Fixte, F.Shelling, G.Gegel va L.Feyerbaxlarning falsafiy qarashlari muhim rol o'ynadilar. Garchi ular falsafadagi turli oqimlarga mansub bo'lgan bo'lsalarda, lekin ularning falsafiy qarashlarini bir birlari bilan bog'lovchi umumiylushtarak tomonlari mavjud edi. Ayniqsa, nemis mumtoz falsafiy fikr taraqqiyotida o'z falsafiy qarashlarining orginalligi, yangiligi va boy mazmunga egaligi bilan buyuk o'rinn tutgan faylasuflar - bular: I.Kant, G.Gegel va L.Feyerbaxlardir. Biz quyida shu faylasuflarning falsafiy qarashlari xaqida to'xtalib o'tamiz.

2. Nemis mumtoz falsafasining asoschisi XVIII asr nemis burjuaziyasining mafkurachisi - bu Immanuil Kant (1724-1804) dir. U o'z zamonasining ko'pchilik

aktual nazariy muammolari bilan bevosita shug'ullangan tabiatshunos, matematik, huquqshunos, etik, estetik, mantiqshunos, pedagog, faylasuf olim bo'ladi. Kant Keynsberg universitetida professor bo'lib ishlaydi.

Kantning falsafiy qarashlarining rivoji, asosan ikki davrga bo'linadi: birinchi davri - tanqidiy davrgacha bo'lgan falsafiy qarashlari (1770 yilgacha); ikkinchisi - «tanqidiy davr» yoki «trantseptental davr» falsafiy qarashlari. Tanqidiy davrgacha bo'lgan davrda Kant yozgan eng yirik asar – bu «Butun umumiyl tabiiy tarix va osmon mexanikasi nazariyası» asari bo'lib, u asosan tabiatshunoslik fanlariga falsafiy muammolariga bag'ishlangan. U bu asarida «Nebulyar» kosmogonik gipotezani ilgari surib, unda Quyosh sitemasidagi planetalarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi haqida fikr yuritadi. Uning qarashicha, Quyosh sistemasi (Quyoshning o'zi xam) dagi planetalar daslabki «tumanliklar»ning quyuqlashuvidan evolyutsion yo'1 bilan tabiiy ravida kelib chiqadi. Shu bilan birga, Kant bu asarida bizning Gallaktikamizdan tashqarida juda ko'p gallaktikalar tizimi metagalaktika - Katta koinotning mavjudligi haqida ham fikr yuritadi. U bu asarida yana Erning o'z o'qi atrofida harakatida ishqalanishning oshishi natijasida uning harakatining sekinlashuvi, harakat va osoyishtalik haqidagi ta'limotlarni ham rivojlantiradi. Xullas, Kant falsafiy qarashlarining bu davrida tabiatshunoslik fanlarining rivoji masalalari keng yoritiladi. U o'zining bu davrdagi tadqiqotlari bilan I.Nyutonning planetalarning harakati «ilohiy qudrat»ning birinchi turtkisi va itarilishlari o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli sodir bo'lganligini aytadi. Kant o'z asarida Quyosh sistemasi va unga kiruvchi planetalarning paydo bo'lishi tabiatning tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida ko'rsatib tabiatni, uning rivojlanishini tamomila tabiiy-tarixiy jarayon sifatida izohlaydi.

Kant o'z falsafiy qarashlarining ikkinchi davri-tanqidiy falsafa davrida u tabiatshunoslik fanlari falsafasidan falsafaning bilish nazariyasiga o'tadi. Kant o'zining bu davrida «Sof aqlni tanqid» (1781 y) «Amaliy aqlni tanqid» (1788 y) «Muhokama qobiliyatini tanqid» (1790) «Prolegamenlar» (1783y) asarlarini yozadi. Bu asarlarida u bilishning «tanqidiy» nazariyasini yaratib, inson bilishining turli shartlarini, bilish qobiliyatining chegarlarini tadqiq etadi. Kant o'zining bu tadqiqotlarida insonning xudoni bilishni «narsa o'zida» deb ataydi va uni bilish mumkin emas, deb e'lon qiladi. Shu bilan birga, u o'z tadqiqotlarida inson borliqdagi o'z-o'zligicha mavjud narsalarning mohiyatini printsip jihatdan bilish mumkin emas, inson faqat hodisalarnigina, ya'ni uning o'z tajribalarida yuz berishida vositachilik qiladigan usulini bilish mumkin. Uning bilish nazariyasidagi «bilish mumkin emas» degan fikri Kant agnostizmi edi. Lekin Kantning bilish nazariyasidagi xizmati shunda ediki, u metafizika hukmron bo'lgan bir sharoitda, inson bilishiga xos qarama-qarshiliklar muaammosini kun tartibiga qo'yib olam ham nihoyalidir, ham nihoyasizdir, degan qarama-qarshi fikrlar bab-barobar to'g'ri bo'lishini isbotlab berib, inson aqli tabiatan antinomiyali, ya'ni ziddiyatli ekanligini, bizning har qanday oqilona fikrlarimizga dialektika xosligini aytadi. Kantning fikricha, bizning bilimlarimiz ongimizda fakat tajribalarimiz asosida

hosil bo'lmay, balki hissiy mushohadaning «apior» shakllari asosida ham mavjud bo'ladi. U formal mantiqni tanqid qilib, fikr ong, taffakur dialektikasi haqida gapiradi. Uning tafakkur dialektikasi haqidagi qarashlari V.Gegel tomonidan rivojlanтирilади. Umuman, Kantning falsafiy qarashlari falsafiy undan keyingi rivojlanishiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Nemis mumtoz falsafasining eng yirik vakili - bu Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831) dir. U falsafada ob'ektiv idealistdir. Gegelcha Birlamchi narsa – bu dunyo ruhi, insondan va olamdan tashqarida alohida mavjud bo'lgan mutlaq g'oyadir. Moddiy olam esa uning mahsuli, ikkilamchi, ya'ni u dunyo ruhining namoyon bo'lishidir, uning gavdalanishidir. Uningcha bu dunyo ruhi, ya'ni mutlaq g'oya yaratuvchi bosh sabab bo'lib, tabiatdagi va jamiyatdagi har bir buyum yoki hodisa uning hosilasi, ya'ni shakllardan iborat, ularning mazmunlari esa ana shu dunyo ruhi yoki dunyo aqlidir. Chunki bu moddiy olamdagи predmetlar va hodisalar ana shu mutlaq g'oyaning ko'rinishi - shakllanishidan o'zga boshqa narsa emas. Gegel bundagi o'z falsafiy tizimida hamma vaqt ruh va tabiatning yoki tafakkur va borliqning aynanligiga tayanadi. Shuning uchun unda har doim moddiy jarayonlar mantiqiy jarayonlar kabi ifoda etiladi. Gegel fikricha, dunyo ruhi mangu, u o'tmishda bor bo'lgan, hozir ham mavjud va kelajakda ham bo'ladi. Shu sababli dunyo ruhi tabiat va jamiyatdagi hamma voqealar va hodisalarning mazmuni, mohiyati, manbai va harakatlantiruvchi kuchidir. Gegel o'zining «Ruh fenomenologiyasi» (1807) asarida inson ongingin dastlabki holatlaridan boshlab to fanni va ilmiy metodologiyani egallab olishgacha davom etgan evoiotsiyasi qarab chiqiladi. U bunda begonalashuvchi kategoriyasii analiz qilib, insonning predmetlik faoliyatining ko'pgina muhim tomonlarini ochib berish orqali inson mehnatining mohiyatini ko'rsatishga harakat qiladi. Uningcha, «inson va uning tarixi», «uning mehnatining natijasi»dir. Bu asar Gegel falsafasining sarchashmasidir. Unda Gegel substantsiya to'g'risidagi o'z tezisini sub'ekt sifatida, faol ibtido sifatida asoslaydi. Ayni shu asarida Gegel falsafasining boshlang'ich qoidasi-tafakkur bilan borliqning ayniligi, ya'ni real olam mutlaq g'oyaning, tushunchaning, ruhning zuhuroti, deb tushunish bayon qilingan.

Gegel falsafada qadimgi yunon faylasufi Platon izidan borib, mutlaq g'oyani birlamchi asos, deb qabul qiladi. Bu uning ob'ektiv idealistik tizimiga asos bo'ladi. Uning mutlaq g'oya harakatida falsafiy tizimi «Falsafiy fanlar Entziklopediyasi» (1817) asarida bayon qilingan. Gegelning: tabiat va jamiyatning barcha hodisalari zamirida «mutlaq g'oya», «olamiy aql» yoki «olamiy ruh» asos bo'lib yotadi, degan fikrlari ayni shu asarida bayon qilingan. Uningcha, «mutlaq g'oya» dastlabki ibtido o'z faoliyatida faoldir, u o'zgarish va rivojlanishidadir. «Mutlaq g'oya» o'z taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tadi: 1) «mutlaq g'oya» ning o'z Bag'rida «sof tafakkur holatida rivojlanishi (bunda mutlaq g'oya o'z mazmunini bir-biriga o'tib turadigan mantiqiy kategoriylar tizimida namoyon qiladi»; 2) «mutlaq g'oya»ning «o'zga shaklga kirishi, ya'ni tabiat qiyofasida rivojlanishi bunda aslida, tabiat rivojlanmaydi, balki uning ruhiy mohiyatini tashkil etuvchi mantiqiy kategorilar o'z-o'zicha rivojlanishi ifodalanadi»; 3)

Nihoyat «mutlaq g’oya»ning kishilar tafakkurida va jamiyat tarixida rivojlanishi (bu bosqichda «mutlaq g’oya» insonlar va jamiyat paydo bo’lishi, uni kishilarning anglab olishi bilan o’zining asl holiga qaytadi. Gegelning nazaricha, mutlaq g’oyaning o’z-o’zicha rivojlanishi va shu bilan birga, o’z-o’zining bilishi bilan oldingi holatga qaytishi bu tizimda o’z rivojini tugallaydi. Bundagi rivojlanish g’oyasi Gegel dialektikasining tashkil qiladi. Gegel dialektikasining to’liq bayoni uning «Mantiq fani» (1812-1816 y.) asarida o’z ifodasini topgan. Gegel falsafasining eng qimmatli yutug’i ayni shu dialektikasi bo’lib, unda dialektikaning eng muhim qonunlari va kategoriyalari bayon qilingan. Lekin Gegelning xizmati bu bilan cheklanmaydi. Uning falsafadagi asosiy xizmati shundaki, u birinchi bo’lib butun tabiiy, tarixiy va ma’naviy jarayonni bir butun g’oyaviy jarayon shaklida tushuntirib va tasvirlab berdi, mutlaq g’oyani tinimsiz harakat, o’zgarish, rivojlanish, bir holatdan ikkinchi holatga o’tib, turishda olib tekshirdi hamda bu harakat, o’zgarish va rivojlanishlarning o’zaro ichki bog’lanishi va ziddiyatlarini ochishga urindi. Gegel nemis mumtoz falsafasida Kant tomonidan ilgari surilgan dialektik qarashlarni rivojlantirib, o’zining dialektik metodini ishla chiqdi. Uning bu metodiga ko’ra, dunyo ruhining harakat, o’zgarish va rivojlanib manbai uning ichki qarama-qarshiligidadir. Shu ichki qarama-qarshiliklar asosida ruh doim harakat, o’zgarish va rivojlanish jarayonida, bir bosqichdan ikkinchi bochqichga o’tib, tushunchalar shaklida, tabiat va jamiyatdagi predmet va hodisalar shaklida o’z-o’zini yangilab, tug’dirib, ifodalanib turadi. Uningcha, tafakkur va aql o’z rivojini turli bosqichi sifatida turli tamoyillarni, turli kategoriyalarni vujudga keltiradi. Bu tamoyillar va kategoriylar sof aqlning turli bosqichlari sifatida moddiy predmet va hodisalarga nisbatan birlamchi, ularning mazmuni bo’lib, ularning mohiyatini tashkil etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Gegelgacha ham turli faylasuflarning asarlarida dialektika elementlari, shubhasiz, uchraydi. Biroq Gegelning xizmati shundaki, u o’z davridagi tabiatshunoslik, ijtimoiy-gumanitar bilimlar yutuqlarini umumlashtirib, birinchi bo’lib dialektik uslubni ishlab chiqdi va dialektikaning uch asosiy qonuni va hamma kategoriylarini ta’riflab berdi. Bunda yana shu ham diqqatga sazovorki, Gegel qarashicha, dialektika, uning qonunlari va kategoriyalari umumiylariga ega bo’lib, ular borliqning hamma sohalarida o’z ifodalarini topadi.

Lekin bugungi kun talabidan kelib chiqib shuni aytish zarurki, Gegel dialektik metodi o’z davri falsafiy fikrining eng katta yutug’i bo’lgan bo’lsa ham, u bir tomonlama, faqat tafakkurga, g’oyatda xos dialektikadir. Lekin shunga qaramay, Gegel falsafasi, uning dialektik uslubi kelgusi davr insoniyat falsafiy fikri taraqqiyotiga juda katta ta’sir qiladi.

4. Nemis mumtoz falsafasi taraqqiyotida Lyudvig Feyerbax (1804-1872y.) falsafiy qarashlari muhim o’rin tutadi. L.Feyerbax nemis mumtoz falsafasining so’nggi vakilidir. U nemis mumtoz falsafasida I.Kant va V.Gegellardan farqli boshqa falsafiy yo’nalishda ijod qildi. Shu sababli L.Feyerbax o’z falsafiy qarashlarining ibtidosidanoq birinchi bo’lib Kant va Gegel falsafiy qarashlaridagi

idealizm qattiq tanqid qilib maydonga chiqqan materialist faylasufdir. U Gegelning ob'ektiv idealizmini tanqid qilib, Gegel oyog'osti qilgan materializmning falsafadagi qonuniy huquqini tikeladi. Feyerbaxning bu qarashlari uning «Gegel falsafasining tanqidiga doir» va «Xristianlikning mohiyati» (1841y.) asarlarida o'z ifodasini topadi. Bunda Feyerbax falsafiy qarashlariga ko'ra, tabiat inson va uning ongidan tashqarida, inson va uning ongiga bog'liq bo'lman, mustaqil mavjud bo'lgan ob'ektiv reallikdir. Uning fikricha, tabiatni hech kim yaratmagan, u azaliy bor va abadiy mavjud bo'ladi. Inson esa tabiatning mahsuli, tabiat rivojlanish bilan paydo bo'lgan oliy mavjudot. Olam tabiatdangina iborat, tabiat esa materiya sifatida hech qanday mistik yoki ilohiy kuchga bog'liq emas. Tabiat – bu yorug'lik, issiqlik, elektr, magnetizm, havo, suv, o't, o'simlik, hayvonot dunyosi va nihoyat insondan iborat. Feyerbax bunda Gegelning mutlaq g'oyasi keskin tanqid qilib, Gegelning mutlaq g'oyasi inson miyasidan yilib olingan va tabiatdan tashqari kuchga aylantirilgan inson aqlidan o'zga narsa emas, deydi. Uning fikricha mutlaq g'oya, tafakkur insondan tashqarida, unga bog'liq bo'lman holda mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki, mutlaq g'oya ham va har qanday g'oya ham inson tafakkuri bilan bog'liq. Inson tafakkuri esa inson miyasi faoliyatining ishi. Inson miyasi moddiy narsa, u birlamchi, tafakkur, ong esa ikkilamchidir. Tafakkurning borliqqa munosabati falsafaning bosh masalasi bo'lar ekan, demak falsafa inson mohiyati to'g'risidagi bilim bo'lishi kerak. Chunki tabiatda insondan yuksak boshqa fikrlovchi mavjudot yo'q. Shu sababli tafakkurning borliqqa munosabati masalasi faqat inson tomonidan, inson faoliyati jarayonida hal qilinadi, deb yozadi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki Feyerbax falsafasi insonga va uning faoliyatiga qaratilgan. Demak, Feyerbax falsafaning asosiga insonni qo'yadi. Bu degani: Feyerbax falsafasi antropologik tabiatga ega, uning materializmi antropologik materializmdir. Inson borliq va tafakkur birligining sub'ekti, asosi qilib olingandagina, bu birlikni haqiqiy deyish mumkin. Yangi falsafa insonni falsafaning birdan-bir universal va oliy predmetiga aylantiradi, deb yozgan edi Feyerbax. U xristian dinini tanqid qilar ekan din bilan falsafaning insonni o'rganishi ustida to'xtalib, din insonning narigi dunyosi to'g'risidagi ma'lumot, falsafa esa undan farq qilib, insonning bu dunyodagi mohiyatini o'rganuvchi bilimdir, degan edi. Shuning uchun falsafa tabiat to'g'risidagi fanlar bilan yaqin aloqada bo'lishi lozimligini aytadi.

Feyerbax, falsafa inson to'g'risidagi fan-antropologiyadan iborat bo'lishini aytib, borliq va tafakkur munosabati masalasini hal qilishda inson tabiatning bir qismi, uning mahsuli deb qarab, u insonni ijtimoiy mavjudot, tarixiy taraqqiyotning mahsuli ekanligini, insonning ongi va tafakkuri ijtimoiy munosabatlar bilan, ijtimoiy muhit, hayot sharoitlari bilan belgilanishini to'liq tushunib etmaydi. Feyerbax, kulbada ishlaydiganlar bilan saroyda yashaydiganlar bir xil fikrlamasligini aytgan bo'lsa ham, buning asosiy sababi nimada ekanligini tushunib etmaydi. U o'zining jamiyat to'g'risidagi qarashlarida insoniyat tarixiy bosqichlari faqat dinlar bilan farqlanishini aytish bilan cheklandi, undan nariga o'tolmaydi. Bu Feyerbax falsafasining birinchi cheklangan tomoni edi. Uning

falsafiy kurashlarining ikkinchi cheklangan tomoni shu ediki, u Gegel falsafasining idealistik ruhini, din bilan bog'liq ekanligini to'g'ri tanqid qilgan bo'lsa ham, lekin u Gegel falsafasining dialektikasini, dialektik uslubini to'g'ri tushunib etmadi. Lekin bunday cheklangan tomonlarga qaramay, Feyerbax falsafiy qarashlari keyingi davr jahon falsafasi taraqqiyotiga sezilarli darajada katta ta'sir ko'rsatadi.

Xullas, nemis mumtoz falsafasi o'zi erishgan yutuqlari, uning vakillarining falsafiy qarashlaridagi mavjud cheklangan tomonlariga qaramay, insoniyat falsafiy fikr taraqqiyotida muhim o'rinnegaladi va o'zidan keyin paydo bo'lgan falsafiy ta'limotlarga nazariy manba'lardan biri sifatida xizmat qildi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. "Nemis mumtoz falsafasi" deyilganda qanday falsafani tushunasiz?
2. Nemis mumtoz falsafasiga qanday xususiyatlar xos?
3. I.Kantni nega nemis mumtoz falsafasining asoschisi deymiz?
4. F.Gegelning nemis mumtoz falsafasidagi o'rni qanday?
5. Gegelning dialektik metodi va idealistik sistemasi deyilganda nimani tushunasiz?
6. L.Feyerbax nima sababdan nemis mumtoz falsafasining so'nngi vakili hisoblanadi?
7. L.Feyerbaxning antropologik falsafasi deyilganda qanday falsafiy qarashlar tushuniladi?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston 1992.
2. Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o'z tanlagan yo'lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning O'zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi) Xalq so'zi 2004 yil 30 mart;
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'saQasida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston 1999.
5. Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. –T.: Fan 1994.
6. Sulaymanova F. Sharq va G'arb. –T.:, 1997.
7. Azamat Ziyo. Kuchli jamiyat falsafasi. //Tafakkur jurnali, 2002, 1-son.
8. Nasriddinov A. Davr ijtimoiy-falsafiy meros. //Muloqot jurnali, 1999 4-son.
9. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
10. S.Yo'ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

## **8-MAVZU. XVII-XX ASRLARDA TURKISTONDA FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI.**

**Reja:**

- 1. Ma'rifatchilikning paydo bo'lishi va uning asosiy g'oyalari.**
- 2. Jadidchilik va uning asosiy g'oyalari.**
- 3. Markaziy Osiyoda demokratik qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi.**

1. Falsafaning mazkur davri Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharq mamlakatlarida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar bilan uyg'unlikka ko'ra o'z ifodasini topgan. Bu davrga kelib, Xitoy falsafasida bir qator yangi oqimlar va yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu oqimlar mohiyatan Konfutsiy qarashlari bilan bog'langan bo'lishiga qaramasdan ularning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud edi. Xuddi shunday xususiyatlarni biz Hindiston va Yaqin Sharq xalqlari falsafasida ham kuzatamiz. Markaziy Osiyoda esa bu davr nihoyatda ziddiyatli tarzda ko'rindi. Bu davr boshlariga kelib Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari shakllandı. Ayni vaqtida bu xonliklar iqtisodiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Chunki, Markaziy Osiyo iqtisodiyoti va uning ijtimoiy hayoti shakllangan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari bilan ma'lum darajada bog'langan edi. Bu davrdagi falsafiy qarashlar haqida gap ketganda biz uni ikki yo'nalishga ko'ra qarab chiqamiz.

Birinchi yo'nalishni Movorounnahrning o'zida ijtimoiy-falsafiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tashkil etadi. Bu davrning ko'zga ko'ringan faylasuflari qatoriga Mirzajon Sherziy, Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy va boshqalarni kiritish mumkin. Ular o'z ijodlarida falsafaning, tarixning, tilshunoslikning hamda islomshunoslikning muhim muammolarini hal qilishga harakat qildilar. Ularning asarlarida davr ziddiyatlari muhimroq bo'lgan islom mafkurasi bilan bog'liq holda tushuntirdilar. Ayniqsa ularning ijodida inson, uning bilish imkoniyatlari, haqiqta masalasi muhim o'rinn tutadi

Ikkinci yo'nalish falsafiy taraqqiyotini biz Hindistonda, Eronda, Afg'onistonda ijod qilgan Markaziy Osiyolik faylasuf va mutafakkirlar ijodida ko'ramiz. Ular orasida muhim o'rinni **Mirzo Abdul qodir Bedil** egallaydi. U 1644 yilda Hindistonning Azimobod shahrida tug'ildi va umrining oxiriga qadar Hindistonda fan va adabiyot bilan shug'ullandi. Bizga uning "Chor unsur", "Nuqot", "Irfon" kabi falsafiy asarlar hamda adabiyotshunoslikka oid bir qator asarlari etib kelgan.

Bedil o'zining falsafiy qarashlarida Sharq ana'anasisiga xos **peripatetikani** davom ettirib, olamning bir tomondan abadiyligi, ikkinchi tomondan esa uning muntazam o'zgarishda mavjud ekanligini tadqiq qiladi. Uning fikriga qaraganda borliqning substantsiyasi hisoblangan materianing boshi ham, oxiri ham yo'q. Uning falsafiy qarashlari asosida "Vaxdati mavjud" (hayotning bir butunligi)

yotadi, hayotning bir butunligi esa olamning bir butunligidan kelib chiqadi. Olamning bir butunligi ayni vaqtida xudoning ishtiroki bilan amalga oshadi.

Bedil falsafasida insonning bilish imkoniyatlarini tadqiq qilish alohida o'rIN egallagan. Uning fikricha bilishning birinchi bosqichi, uning mohiyati va imkoniyatlari insonning hissiy sifatlari bilan uzviy bog'langan. Insonning hissiy sifatlari individuallik xarakteriga ega. Shu bois xar bir inson chegaralangan hissiy imkoniyatlarga va hissiy olam dunyosiga ega. Aql, tafakkur esa Bedil fikricha tafakkurning mukammal yuqori bosqichi hisoblanadi. Bedil falsafasining muhim jihatini bilishning hissiy va aqliy bosqichlari o'rtasidagi dialektik bog'lanish tashkil qiladi. Bu o'rinda u bilimning roliga juda katta ahamiyat bergen. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlash kerakki, Bedil, millat taraqqiyotini insonning olam tizimida tutgan o'rnini uning egallagan bilimi bilan o'lchash kerakligi haqida gapiradi.

XVII-XVIII asrlar falsafasida **Boborahim Mashrab** (1640-1711)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari alohida ahamiyatga egadir. Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatida emas, balki ayni zamondaadolatsizlki jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida el orasida juda katta hurmat va e'tiborga ega bo'lgan shaxsdir. Uning o'z asarlarini to'plab devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. U ijodidagi ijtimoiy mazmundorlik va kuchli tanqidiy yo'naliш shoirning ilg'or dunyoqarashi, xalqchil falsafasi, zamonasidagi salbiy voqeahodisalarga aniq tanqidiy munosabatidan shakllangan. Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g'oyalar ham o'sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohanglari ham sezilarli o'rIN egallaydi. U islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz qabul etadi. Ammo ayni zamonda islom ta'limotning bir qator zahiriyl belgilarini birlamchi deb hisoblangan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim ko'rsatma-talablarini, farz sunnatlarini tan olmaslik va past nazar bilan qarash ham ko'zga tashlanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va muqadas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va aqidalarga shubha bilan qarash, hatto ochiqdan-ochiq mensimaslik holatlari ham uchraydi. Mashrabning falsafiy qarashlarida inson, uning hayoti, uning qadri-muammosi markaziy o'rinni egallaydi. Uning bir guruh asarları asosida tashvish va lazzatlarga to'la insoniy sevgi yotganligini ko'ramiz. Uning falsafasidagi mazkur yo'naliш inson falsafasini bilish va tushunishda juda katta rol o'ynaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida Turkistonni Chor Rossiyasi bosib olib, o'zining mustamlakasiga aylantirdi. Butun Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining ko'p erlari Rossiya ixtiyoriga o'tdi. Bosib olingan erlarda 1867 yili Turkiston general-gubernatorligi joriy qilindi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Chor Rossiyaning vassaliga aylantirildi. Bosib olingan erlardan rus G'arbiy chinovniklari Turkistonning moddiy, madaniy va ma'naviy boyliklarini, tarixiy yodgorliklar, noyob qo'lyozma asarlarini Rossiyaga olib ketishdi. Rus zabitlari va amaldorlari xalqni shafqatsizlik bilan taladilar, otdilar, chopdilar, qirdilar. Oqibatda, o'z mustamlakachilik siyosatini o'rnatdilar. Chor Rossiyasi

qo'shinlarining mahalliy xalq bilan olib borgan urushlari, qirg'inlarida, mahalliy aholining qattiq qarashligi, o'z shaharlari va qishloqlari uchun jon olib, jon berib kurashishlari natija bermadi – Rossiya Turkistonni bosib olishga erishdi. Buning sabablari juda ko'p edi: Birinchi sababi – Rossiya G'arbiy qurollar jihatidan juda katta ustunlikka ega edi. Bosib olishning uzoq tayyorlangan taktika va strategiyasiga ega edi.

Ikkinci sabab – Turkiston xalqlari mahalliy hukmdorlarning o'zaro urushlari, bosqinlaridan juda charchagan, toliqqan edi. Buning ustiga, mahalliy hukmdorlar o'rtasida birlik, hamjihatlik yo'q edi. Ular mahalliy aholining boshini qovushtirib, o'z dushmaniga qarshi jangovor holda uyushgan kurashni tashkil qila olmadilar.

Uchinchi sabab – Mahalliy hukumdarlar xalqni har xil soliqlar bilan va boshqa yo'llar bilan shafqatsiz talab, ezib, ularga e'tibor bermay, o'zlarining tor manfaatlari bilan o'ralib, mayishatga berilib ketgan, mamlakat tashqi dunyodan deyarli ajralib qolgan edi.

To'rtinchi sabab – Turkiston bu davrda ham siyosiy, ham iqtisodiy va ham madaniy jihatdan qoloq, feodal tartiblar va din hukmron o'lka edi. Chor Rossianing Turkistonni bosib olishining asosiy sababi: bu erving tabiiy, geografik boyliklarini qo'lga kiritish – oltini, paxtasi, pillasi, qorako'li kabi dunyo bozori uchun eng qimmatli mollarga ega bo'lish, o'z mollari uchun yangi bozorga ega bo'lishi, eng asosiysi va eng muhimi – jahon bozori va o'z ichki zavod va fabrikalariga xomashyo etishtirish uchun tekin ish kuchiga ega bo'lish, nihoyat, o'z mustamlakalarini kengaytirib, jahonda o'z mavqeini mustahkamlashdan iborat edi. o'zining bu maqsadlarini amalga oshirishda Chor hukumati Turkiston xalqini ham iqtisodiy, ham siyosiy qoloqlikda, qaramlik va nodonlikda, huquqsizlikda saqlab turushdan juda manfaatdor edi. Shu sababli Chor Rossiyasi Turkistonda uning hamma boyliklaridan, resurslaridan foydalanish siyosatini amalga oshirishga qaratila mustamlakachilik ijtimoiy-iqtisodiy tizimni joriy etib, o'z maqsadini turli xil usullar, yo'lar va vositalar asosida amalga oshira boshladi. Ular mahalliy aholini fuqaro deb emas, balki "tuzemlar" deb atashdi. Chorizm mahalliy xalqlar madaniyati va ma'naviy rivojlanishiga butun choralar bilan qarshilik kursatib, ularni bid'at, jaholat va hurofatda saqlab turishga intildi. Shu sababli faqat diniy ilmlar beradigan madrasalar va maktablargagina ruxsat berib, uzoq muddat dunyoviy bilimlar beradigan maktab, madrasalar ochishga ruxsat bermay keldi. Lekin Turkistonning bosib olinishi bilan rivojlanib kelayotgan rus kapitalizmi va u orqali Evropa mamlakatlari erishgan iqtisodiy, madaniy va texnikaviy yutuqlar Turkiston hududiga ham kirib kela boshladi. Bu erlardagi yirik shaharlarda rus madaniyati tashkilotlari, yangi savdo, bank, telefon, elektr kabilardan foydalanish, temir yo'llar, xomashyo tayyorlaydigan zavod va fabrikalar qurila boshlandi, gazeta, jurnal va kitob bosish yo'lga qo'yildi. Bular asosida XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xalqlarining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Siyosiy o'zgarishlar shundan iborat bo'ldiki, yangi boshqaruv siyosiy tuzulmalar – uvezdlar, bo'linmalar,

volostlar tashkil topdi. Ko'pdan beri mamlakatni xonavayron qilib kelgan xorijiy istilolarga, mahalliy hukmdorlarning ichki o'zaro bosqinlari, urush va janjallariga xotima berildi. Iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar shundan iborat bo'ldiki, Chor Rossiyasi o'z mustakamlasiga aylantirilgan Turkiston hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi uchun qo'lay shart-sharoitlar yaratma boshladidi. Natijada, o'tmishdagi feodal xo'jaliklari big'iqligi tugatilib, moliya, qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxtachilikning rivojlanishiga katta e'tibor berila boshladidi.

Madaniy – ma'naviy sohadagi o'zgarishlar esa shundan iborat bo'ldiki, Turkistonda feodal tartiblarining o'zgarishi madaniy yuksalishga bo'lgan mahalliy xalqning intilishi rus kapitalistik munosabatlari bilan birga, Evropa va Sharq mamlaktlarida ro'y berayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning turli yo'llar bilan kirib kelishi asosida sodir bo'la boshladidi. Bunda jahondagi, xususan, yaqin Sharq mamlakatlaridagi ro'y berayotgan o'zgarishlar Rossiya orqali kirib kelayotgan Evropa madaniyati yangiliklari Turkiston xalqlari madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazish. Chor Rossiyasining yangi mustamlakasi – Turkiston xalqlariga nisbatan mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholining o'zoq davr jaholatda, ma'rifatdan yiroq ushlab turilishi, ularning haqsiz, huquqsiz ezilib, kamsitilib, xo'rланib kelinishi o'lkada xalqning ilg'or vakillari o'rtasida ma'rifatchilik harakatining tug'ilishga olib keldi.

Bu harakat vakillari Turkistonda paydo bo'layotgan yangi madaniyat hodisalariga o'z munosabatlarini bildirib, mustamlakachilik siyosatining ayrim tamonlarini tanqid qilib, xalqqa o'tkazilayotgan jabr-zulmga qarshi chiqib, xalqning bu ahvolga tushushi uning bilimsizligi, ma'rifatdan yiroqligi, shu tufayli xalqni ma'rifatli qilish, ilmli qilish g'oyasini ilgari surishib, uni madaniyatni egallahsga, ma'rifatli bo'lishga chaqirdilar.

Ular o'z qarashlarida xalq ommasining-dehqonlarning, shahar hunarmandlarining mayda savdogarlarning manfaatlarini himoya qilib maydonga chiqdilar. Xullas, XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar asosan shu ma'rifatchilar-ma'rifatparvarlar ijodida, ular asarlarida rivojlandi.

2. Ma'rifatchilik yoki ma'rifatparvarlik, aslida, Sharq mutaffakkirlariga xos bo'lib, u dastlab Sharq uyg'onish davrida diniy aqidachilikka qarshi dunyoviylikni diniylik bilan bog'lanishni ilgari surgan g'oyaviy oqim sifatida paydo bo'ladi. Keyinchalik esa evropada feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida tug'ilib kelayotgan burjuaziya va xalq ommasining feodal tartiblari va munosabatlariga qarshi kurashi zaminida kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi davriga xos muayyan manfaatlar bilan bog'liq封建ismga qarshi g'oyaviy-madaniy harakatga aylanadi. Bu harakat Evropada dastlab XVII asrda Angliyada, XVIII asrda Frantsiyada, XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarimida Germaniya va Rossiyada keng tarqaladi. Evropada dastlab bu terminni F.Valter I.Gerderlar o'z asarlarida ishlatadilar. 1784 yili I.Kant "Ma'rifatparvarlik nima?" degan ilmiy maqola yozadi.

Ochig'ini aytganda, ma'rifatparvarlik G'arbiy Evropada ham uyg'onish davri bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, uning namoyondalari Sharq uyg'onish davri mutafakkirlaridan insonparvarlik g'oyalarini, qadimgi davr antik madaniyatga murojaat etish an'anasi, tarixiy optimizmni, hurfikrlilikni qabul qilib olishni, jamiyat, inson hayoti va taraqqiyoti masalalari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini olg'a surdilar. Ular o'z qarashlarida ilm, fan va madaniyatni rivojlantirish asosida jamiyatni o'zgartirish g'oyasi bilan chiqadilar. Ma'rifatparvarlar insonning tabiat haqidagi tasavvuriga asoslanish jamiyatda tabiiy huquq nazariyasini, demokratik erkinlik talabini, feodal-obsalyutizm monarxiyasi davlatiga qarshi ijtimoiy kelishuv degan nazariyasini ishlab chiqadilar. Ular bunda davlatning hech bir ilohiy narsa emasligini, balki u kishilar o'rtasidagi o'zaro kelishuv yo'li bilan yuzaga keladigan jamiyatning siyosiy tashkiloti, deydilar.

Ma'rifatparvarlar iqtisodiyot sohasida xususiy manfaatlarni rag'batlantirishni, erkin savdoni joriy etishni, xususiy mulkchilikni ham huquqiy jihatdan kafolatlashni talab qilib chiqdilar. Ular jamiyat tarixini tushuntirishda teologiyaga barham berishni, tarixiy taraqqiyotning qonuniy xarakterini e'tirof etadilar.

Ma'rifatparvarlar, ayniqsa, ta'lim, tarbiya masalalariga alohida e'tibor berishib, shaxsga erk berish, uni feodal ahloqi va diniy aqidalardan halos qilishni aytishib, shaxsni gumanistik ahloq tamoyillari asosida tarbiyalashni, unga diniy ta'lim berish bilan cheklanmay, dunyoviy ta'lim-tarbiya berishni aytadilar.

Lekin bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, Evropada bu harakatga xos bo'lgan umumiy belgi feodal tuzumga qarshi qaratilgan bo'lib, uning o'zining ichida o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadigan oqimlar ham mavjud bo'lgan. Biroq ularning barchasi ob'ektiv ravishda jamiyatning kapitalistik yo'nalish tomon rivojlanish ehtiyojlarini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, Evropada ma'rifatparvarlikning feodalizmga qarshi qaratilgan g'oyaviy harakat sifatida vujudga kelishi umumiy qonuniyat edi. Lekin bu qonuniyat turli xalqlarda, turli mamlakatlarda va turli mintaqalarda turlicha va har xil tarixiy davrda namoyon bo'ladi.

Bizning Markaziy Osiyoda, xususan, Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyaviy harakat sifatida XIX asrning ikkinchi yarimida ma'lum siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy-madaniy sohalarda yuz bergan o'zgarishlar zaminida yuzaga keldi. Bu ma'rifatparvarlik ham o'z mohiyatiga ko'ra, feodal tartiblari va munosabatlari qarshi, mamlakatni feodal qoloqligidan chiqarish uchun kurashuvchi ilg'or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy harakat sifatida maydonga chiqdi. Biroq Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlarining faoliyati Evropada kapitalizm to'la g'alaba qilgan, Rossiyada esa kapitalizm ayni rivojlanib borayotgan va Rossiya mustamlakalarida keskin siyosiy kurash avj olayotgan bir davrga to'g'ri keldi.

Markaziy Osiyo ma'rifatparvarligi, xususan, Turkiston ma'rifatparvarligi feodal tartiblarini o'zgartirish, madaniy yuksalishga bo'lgan intilish bilan birga, ma'lum darajada Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi chorizmning

mahalliy xalqlarga o'tkazayotgan jabr-zulm ekspluatatsiyasidan norozilik kayfiyatlarini ifodalovchi g'oya sifatida ham paydo bo'ladi. Shu jihatdan bu ma'rifikatparvarlik o'ziga xos mafkuraviy xarakterga ham ega edi. Turkiston ma'rifikatparvarlari o'z faoliyatlarida eskirgan feodal tartiblari va munosabatlari ga rus kapitalistik munosabatlari orqali paydo bo'layotgan yangi madaniy yutuqlarni qarshi qo'yish, ularning ustunliklarini targ'ib qilishdan boshlanib, asta-sekin siyosiy tus olib, Turkistoda Rossiyadan farq qiluvchi erli, mahalliy xalqning o'ziga xos ma'naviyati xususiyatlarini himoya qiluvchi tartiblar o'rnatilishini talab qiluvchi darajaga ko'tarila bordi.

Shu jihatlarni hisobga olganda Turkiston ma'rifikatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi bosqichda feodal tuzum tartiblarini tanqid qilish, madaniy yangiliklarni, Evropa tillarini o'rganish va egallahsh, yangi ilm fan va texnikani targ'ib qilish kabi masalalar ilgari suriladi. Bu bosqichda, ayniqsa, ma'rifikatparvarning yuzaga kelishida Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Sattorxon va Isoqxonlar, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar va Zavqiylar katta rol o'ynadilar. Ular bu harakatlarning otashin nimoyandalari sifatida xalqning real hayotini, uningadolat, haqiqat, ilm- ma'rifikat haqidagi orzu umidlarining o'z yo'llari faoliyatlarida ifoda etib, xalqning jabr-zulmdan qutilishi, uning baxt-saodatga erishushi ilm-fanni va madaniyatni egallahshda, deb bildilar. Shu sababli ular xalqning ko'zini ochishga, jaholatdan qutilishga, buning uchun ilm-fanni va hunarlarni o'rganish va egallahshga, ma'rifikatli va madaniyatli hamda o'qimishli bo'lishga chaqirdilar. Ular faqat o'z xalqi ilm-fani va madaniyatini egallah bilan cheklanmay, boshqa xalqlar, xususan, Evropa va rus xalqi erishgan ilm-fanni, hunarlarni, texnikani, madaniyatni ham egallahshga, o'rganishga, shu asosida jaholat va bid'at uyqusini tark etishga chorladilar. Buning uchun boshqalarning tilini bilishni, o'rganishni ko'p tillarni bilish esa dunyoviy ilmlardan, fan-texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyatini berishni uqtirdilar.

Xullas, birinchi bosqich ma'rifikatparvarligi, bu asosan, xalqni yangi madaniyat, yangi ma'rifikatga chaqirish, chorlash, millatni, xalqni jaholat va bid'at uyqusidan uyg'onishga, yangi paydo bo'layotgan madaniyat va ma'naviyatni egallahshga yo'naltirilgan edi. Ma'rifikatparvarlik o'zining birinchi bosqichida asta – sekin rivojlanib borish asosida undan jadidchilik qsib chiqadi. Jadidchilik bu ma'rifikatparvarlikning rivojlangan, taraqqiy etgan ikkinchi bosqichi edi. Biz buni alohida quyidagi savolda ko'rib chiqamiz.

3. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelganda Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlari ilg'or vakillari Rossiyaning mustamlakachilik zulmidan qutilish, o'z milliy davlatchilagini qurish, o'z milliy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochish zarurligini tushinib etishadi. Bu kishilar o'sha davr tarixiy jarayonning etakchi kuchi milliy va mahalliy savdo va sanoat burjuaziyasi namayondalari hisoblanib, ular juda katta qiyinchiliklar bilan keng xalq ommasining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qiladigan g'oyaviy oqim – jadidchilar ma'rifikatparvarligini shakllantirib, uni har tomonlama rivojlantirdilar. Turkistonda jadidchilik harakati ma'rifikatparvarlik asosida O'rta va

Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjonda yuzaga kelgan diniy islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda jadidchilik harakati ta'sirida vujudga keladi. Bu jadidchilik Turkistonda vujudga kelgan sharqona ma'rifatparvarlikni butun xalqning demokratik va milliy uyg'onishiga yo'naltirilgan umummilliyl mafkurasi darajasiga ko'tardi. Jadidchilar Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda uzoq davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqirozni to'xtatish, jamiyat taraqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborish maqsadida maorif, din, adliya, davlat qurilishi va boshqa qator ijtimoiy-madaniy sohalarda islohotlar o'tkazishni taklif qilishib maydonga chiqishadi. Ular ta'lim-tarbiya, axloq-odob, o'qish-o'qitishni, sog'liqni saqlash sohalarini, xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish g'oyalariini o'rtaga tashlashdi.

Jadidchilar o'z siyosiy faoliyat sohalarida Turkiston hududiy birligi, Chorizm mustamlakachiligidan qutilish, milliy mustaqillik g'oyalari ilgari surishib, shu g'oyalalar uchun kurash olib borishadi. Ular iqtisodiy sohada esa sanoatni, savdoni rivojlantirish, iqtisod va moliya sohalarida boshqa millatlarga qaram bo'lisdan qutilish, milliy savdo va bank tashkilotlarini barpo qilish g'oyalari bilan maydonga chiqadilar.

Biroq jadidchilar faoliyatida madaniy-ma'rifiy soha ustuvor hisobanadi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi – eski tizimni isloh qilishdan iborat bo'ldi. Jadidchilar milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, siyosiy va iqtisodiy qaramlik va qolqolikdan chiqish muammolarini echa oladigan zamonaviy bilimlarga ega, savodli va vatanparvar kadrlar bo'lism zarurligini yaxshi anglaydilar. Shuning uchun dunyoviy bilimlarni diniy bilimlar bilan birlikda o'rganish va egallash ishlari, maorif tizimini isloh qilish masalasi jadidchilar ijtimoiy fikrining diqqat markazida bo'ladi. Jadidchilar islohotni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deyishadi. Ular mahalliy boylarning o'sha davr ichki va tashqi bozorda sinishlarining asosiy sababi-ularning savdo ilmidan savodsizligi tufayli bo'lmoqda, chunki ular savdo qilish, moliyaviy operatsiyalarini olib borish ishlarini bilmaydilar. Agar biz madaniyat va iqtisod sohalarida boshqa (mamlakatlarga), boshqa millatlarga qaram bo'lismi istamasak, biz milliy sudyalar, advokatlar, o'qituvchilar, davlat arboblari, injener, savodli tijoratchilarni tayyorlashimiz zarur. «Masala shunday ekan, siz hurmatli vatandoshlar, o'z farzandlaringizni din va millatga xizmat qilmoqlari uchun zamonaviy bilimlarga o'rgatishga harakat qilishingiz zarur, millat va dinga faqat bilim va mablag' bilan xizmat qilish mumkin», deb yozishadi. (M. Behbudiy, "Oyna", 1913 y., 7-son; 1914 y., 31-son; 1915 y., 10-son). Jadidchilar o'z matbuotida: "Barcha millatlar o'z farzandlarini din va millatga sodiq bo'lism ruhida tarbiyalaydilar. Shuning uchun ular maktabga alohida ahamiyat beradilar. Bizda mana shuni his qilish yo'q. Biz din va millatni himoya qiluvchi ishonarli va mustahkam vositaga ega bo'lmoqimiz shart. Bu vosita – maorifdir" (M. Behbudiy, "Oyna", 1914 y., 41-son), -deb yozgan edilar. Ular bular bilan cheklanmasdan, o'z millatdoshlariga o'z

farzandlarini xorijiy davlatlariga yuborib, o'qitish zarurligini, toki, ular o'qib kelishib, millat manfaatlarini ijtimoiy hayot sohalarida himoya qlishsin, millatimiz taraqqiy etsin, -deya murojaat ham qilishadi. Ularning bu fikri bugungi bizning mustaqqilik sharoitimidza ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jadidchilar maorifni isloh qilish masalalarini o'z matbuotlari sahifalarida har tamonlama muhokama qilishadi. Ular bunda maktab ishining iqtisodiy va moliyaviy tamonlarini, o'quvchilar ruhiyati va adobiga ijobiy ta'sir qiluvchi usullar, o'qitish dasturlari va boshqa ko'pchilik masalalar haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirishib boradi.

Jadidchilar o'z maqolalari va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzining ayrim tamonlarini isloh qilish zarurligini aytish bilan cheklanmasdan, yoshlar diqqatini yana xalqimizning o'tmis madaniyatiga, o'tmis ajdodlari ilm-fan sohasida erishgan yutuqlariga qaratib, ularni o'rganishga ham jalb qiladilar.

Jadidchilar o'z faoliyatlarida faqat milliy doiradagina chegaralanib qolmadilar. Ular o'z matbuoti sahifalarida umum insoniy madaniyat yutuqlari, fan va ta'lif-tarbiya haqidagi xorijiy fikriy yangiliklarni ham targ'ib qilishib, bu sohalarda ham katta ishlar qilishadi. Hatto ular o'z matbuotlarida turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish muammosi bilan ham chiqishadi.

Jadidlar matbuoti sahifalarida diniy va falsafiy masalalarga ham katta ahamiyat berishadi. Ular o'z maqolalarida, O'rta asrlarda bo'lganidek, fan bilan dinni kelishtirish, ularning uyqunligini ta'minlash, fan va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini islom diniga bog'lab izohlashga harakat qilishadi. Mohiyat e'tibori bilan olganda, jadidlar falsafiy qarashlari materialistik falsafaga va ateizmga qarshi qaratilgan bo'ladi. Masalan, M.Behbudiy o'zining "Samarqand" ro'znomasida bosilgan maqolalaridan birida oxirgi 500 yil ichida musulmonlar fan va falsafa sohasida boshqa mamlakatlardan orqada qolganliklarini ta'kidlab, materializm va ateizm bilan kurashish uchun fan va falsafaning yangi yutuqlari bilan qurollanish maqsadga muvofiqligini aytadi.

Umuman olganda, jadidlar ma'rifatparvarligining falsafiy-nazariy zaminlari: milliy falsafiy meros, an'anaviy islom, tasavvuf ta'lomi, shariat, Evropada paydo bo'lgan pozitivizm falsafasi qarashlariga borib taqaladi. Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda shakllangan jadidchilik ma'rifatparvarlik g'oyalari milliy mustaqillik, milliy vatanparvarlik g'oyalardan iborat bo'lib, ular umumbashariy demokratik qadriyatlar bilan yo'qilgan edi. Lekin mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan jadidlarning eng ezgu g'oyalari umuminsoniy qadriyatlar sifatida umuminsoniy orzular, ijtimoiyadolat va tenglik haqidagi qarashligiga ko'ra, ularning hammasida bir xil fikr, bir xil qarash bo'lмаган. Bunda xarakterli tomoni shundaki, jadidlarning eng izchil milliy va demokratik mavqeida bo'lgan vakillari: Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va shu kabilar kommunistik aqidalar va qarashlarni qat'iy inkor etish yo'lida turganlar. Ularning milliy mustaqillik va umumbashariy demokratik qadriyatlar uchun kurashi juda izchil va faol yo'nalishda borgan. Shuning uchun ular fojeaviy taqdir topishgan.

Ko'pchilik adabiyotlarda jadidlarni XX asr boshida shakllanib kelayotgan milliy savdo va sanoat burjuaziyasi mafkurachilari, deyilib xarakterlaydi. Bunday fikr bizningcha, jadidlarning faqat bir qismiga nisbatangina to'g'ri. Boshqa qismlari bundan mustasno. Chunki jadidlar harakati tarkibi boshlang'ich davrda ham, keyinchalik ham ijtimoiy jihatdan bir xil bo'lmay, ular saflarida jamiyatning har xil ijtimoiy tabag'alarining vakillaridan iborat kishilar bo'lishadi. Dastlab ular asosan madrasa talabalari, yangi usul mакtab o'qituvchilari, mayda savdogarlardan iborat bo'lishsa, keyinchalik yirik milliy savdogarlar, sanoat burjuaziyasi vakillari ham kelib qo'shiladilar. Turkistonda milliy-ozodlik harakatining avj olishi bilan jadidalar safiga milliy ziyolilarning aksariyati faol ko'pchilik qismi ham kelib qo'shiladi. Ularning orasida esa ezilgan xalqning manfaatlarini himoya qiluvchi ko'plab ilg'or kishilar etishib chiqadi.

Bizningcha, ba'zi adabiyotlarda "jadidizm mafkura, muayyan qarashlar tizimi sifatida kapitalistik taraqqiyot ehtiyojlarini ifodalar edi", deyilgan qarash ham jadidchilik g'oyaviy harakatini bir tomonlama baholashdir. Jadidlarning tarkibi turli darajadagi ijtimoiy qatlamlardan iborat bo'lganligi tufayli jadidchilik harakati, uning vakillarining qarashlari ham xilma-xil va turlicha bo'lib, turlicha maqsadlarni va manfaatlarni ifodalar edi. Lekin, bari bir, bularga qaramasdan, jadidchilik harakati, jadidchilik g'oyalari va qarashlari Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikr taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. U XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllangan va yuzaga kelgan Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikrlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkistonda ta'lim-tarbiyada yangi yo'llarni izlash, yangi usullarni joriy etish, yangi usuldagagi maktablar ochib, xalqning savodliligini, bilim darajasini ko'tarish, ijtimoiy-falsafiy fikrda o'z milliy davlatchiligidan tiklash, til, din, an'anaviy tarixiy birligimizni saqlab qolish; tilimizni yuksak ilm-fan, falsafa va nafis sana'at tiliga aylantirish; zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo'liga chiqish; keng xalq ommasining milliy ongini uyg'onishga ko'maklashishdan iborat bo'ladi. Bu masalani navbatdagi savolda kengroq yoritib beramiz.

4. Hozirgi kunda mustaqillikka erishganimizdan keyin Vatanimiz va xorijiy olimlarning jadidchilik masalasiga yangicha qarash va yangicha yondoshuvlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlari shuni ko'rsatayaptiki, o'z davrining ko'zga kuringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidchilik harakati mahalliy xalq ommasining milliy o'zligini anglashining o'sishiga, milliy ozodlik harakatining keng rivojlanishiga, milliy mustaqillik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga va eng muhimi, milliy ongning rivojlanishiga juda katta xizmat qiladi.

Jadidchilik ma'rifatparvarlik va demokratik yo'nalishdan kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tar ekan, u mustamlakachilik ostida ezilib yotgan xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli va Turkistonning jahondagi iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlardan orqada qolish sabablari va uni taraqqiy ettirish choralarini izlab topishga undadi. Vujudga kelgan vaziyatda ilg'or jadidchi ziyolilar Turkistonning taraqqiyot darjasini orqadaligining

sabablari: mustamlakachilik zulmi, xalqning g’aflatda, jaholatda qolganligi va ma’rifatsizligida, deb bildilar. Shuning uchun bulardan qutilishning eng to’g’ri va asosiy yo’li maorif va ma’rifat yo’li, maorifni isloh qilish, deb qaradilar. Ular bu islohotlarni amalga oshirishning zarur ekanligini nafaqat nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki o’zлari yangi usulda maktablar ochib, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, o’quv qo’llanmalari va darsliklar yozishib o’z g’oyalarini amalda qo’llash yo’lida ham ulkan ishlar qildilar.

Jadidlar Turkistonni eski qoloqlik holatidan qutqarib, uning taraqqiyotini yangi bosqichga chiqarish, xalqning milliy ongini uyg’otib, milliy mustaqillikka erishish uchun faqat maorifni isloh qilish g’oyaalari va ishlari bilan cheklanmagan, balki ular o’z matbuoti – ro’znama va oynomalarini chiqarishib, xalqning siyosiy ongini o’stirishda jonbozlik qildilar. Ular matbuot sahifalarida hatto hozirgi kunda ham kishilarni to’lqinlantiradigan, ularni hayajonga soladigan qator masalalar va muammolar o’z aksini topadi. Bu masalalarga biz insonning ma’naviy barkamollikka etishida dinning, ilm-fanning, ya’ni diniy va dunyoviy ilmlarning o’rnini to’g’ri anglab etish, huquqiy va iqtisodiy munosabatlarda ham tub islohotlar o’tkazib, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg’or mamlakatlarga xos siyosiy va demokratik ijtimoiy institutlarni joriy etish, o’ziga xos milliy rivojlanish yo’lini tanlash masala va muammolarni keltirishimiz mumkin.

1905 yildagi birinchi rus inqilobi jadidlar faoliyatini ancha jonlantirib, ularning olib borayotgan tadbirdari Turkistondagi islohotchilik harakatlari Toshkentda Munavvar Qori-Abdurashidxon o’g’li, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidov, Ubaydulla Xo’jaev; Samarqandda M.Behbudiy, Hoji Muyon, Akobir Shomansurzoda, Yimandxo’ja Siddiqiy; Namanganda Nosirxon To’ra; Qo’qonda Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohidiy va Po’lat Solievlar rahbarligida shahar aholisi o’rtasida keng avj oladi.

Jadidlarning faoliyatidagi muhim ko’rsatkich - bu nafaqat ularning yangi usuladagi maktablar ochish, balki ularning nashriyot va matbaa ishlarida, oynoma va yilnomalarning ko’plab nashr etishlarida ham namoyon bo’ldi.

Jadidlar, ayniqsa, 1915-1917 yillarda o’z faoliyatlarida ham siyosiy, ham tashkiliy va ham mafkuraviy jihatdan ancha o’sdilar. I jahon urushi Rossiyadagi fevral demokratik inqilob jadidlarning fikrlash tarzini ancha o’zgartirdilar.

Bu vaqtga kelib, ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida fuqarolarning davlat organlarini shakllantirishda, qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki haqida yozdilar. Fevral inqilobiga kelib, Turkiston jadidlarining bir qismi (mo’tadil qismi) bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surib chiqdilar. Bu talablar: mahalliy tub aholining huquqlarini kengaytirish, o’lkani idora etishni tubdan isloh qilish, tub aholi uchun Davlat Dumasidan muayyan miqdorda deputatlikka o’rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta’min etish va eng muhimi, milliy matbuot erkinligiga erishish, Chor yakka hokimlik tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabilar edi. Albatta, jadidchilarining bu talablari keng xalq ommasiga ta’sir qilmay,

ularning milliy ongini o'stirmay qolmas edi. Bu paytga kelib jadidlar o'zlarining milliy siyosiy tashkilot va partiysalarini tuzdilar. Natijada, ularning "Sho'roi Islomiya" va "Ittifoq" partiyasi va tashkiloti paydo bo'ldi. Fevral inqilobidan keyin jadidlar mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarni o'z ortlaridan ergashtirib, ularning ongida, fikrlarida va qarashlarida yaktan, yakdil bo'lib birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini tug'dirdilar. Biroq oradan ko'p o'tmay, jadidlar Turkistonda tuzilgan vaqtli hukumatning oldingi Chor Rossiyasi davridagi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmaganligining guvohi bo'ldilar; ular mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqtি etib kelganini anglab etib, mustamlakachilikni va vaqtli hukumatni qattiq tanqid qilib chiga boshladilar. Endi jadidlar o'zlarining oldingi konstitutsion monarxiya tuzumi g'oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya demokratik federativ respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat berilishini talab qila boshladilar. Ular davlat mustaqilligi to'g'risidagi o'z g'oyalarini hayotga tadbiq qilishga, uning amalga oshishini chaqirilajak ta'sis majlisi bilan bog'ladilar. Jadidlar ta'sis majlisidan o'rin olish uchun juda ko'p urindilar, hatto ular bu jarayonda konservativ qismdan tashkil topgan. "Sho'roi Ulamo" tashkiloti bilan o'zaro birlashish yo'lidan borib, pirovardida "Turk olami markaziyati" partiyasini vujudga keltirdilar. Bularning hammasi xalq ommasining siyosiy ongingin o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Biroq oktyabr davlat to'ntarishi – bolsheviklar partiyasining hokimiyat tepasiga kelishi jadidlarning maqsad niyatlarini amalga oshirishiga monelik qiladi. Shunga qaramay, bolsheviklar hokimiyatining: "Har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash" haqidagi dekloratsiyasiga asoslanib, jadidlar Qo'qonda "Turkiston muxtoriyati"ni e'lon qildilar. Atigi uch oy yashagan bu muxtoriyat, nihoyat, bolsheviklar tomonidan qonga botirilib, tugatildi. Jadidlar esa kuchli ta'qib ostiga olinib, uning ko'pchilik ilg'or vakillari 1937-1938 yillarda butunlay qirib tashlandi, qolgan-qutganlari esa 1950 yillarga borib butkul tugatildi.

Umuman olganda, jadidchilikning bizning tariximizdagи o'rni va bugungi kun bizning mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati shundan iboratki, jadidlar birinchi bo'lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldilar, ular g'aflat uyqusida yotgan mazum va ezilgan xalqni uyg'otdi, uning ko'zini ochdi, ozodlik, erk, mustaqillik, milliy g'urur, iftixon, tuyg'ularini paydo qildi; ular buyuk tariximiz, falsafiy merosimiz haqida, buyuk ajdodlarimiz, boy madaniyatimiz va ma'naviyatimiz haqida, mustamlaka va istibdod davrida unitila boshlagan qadriyatlarimizni tiklash haqida jar soldilar. Jadidlarimizning buyuk tarixiy xizmatlaridan yana biri-ular etilib qolgan muammolarni hal qilishda rivojlanishning evolyutsion yo'li islohotlar yo'lini ishlab chiqdilar.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. XVII-XX asrlarda Turkiston xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Turkistonda bu davrda xalqlar o'rtaсидаги parokandalik, tushkunlikning sabablarini bilasizmi?
3. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati sabablari nimalardan iborat?
4. Turkistonda jadidchilik harakati qachon yuzaga keldi?
5. Jadidchilik harakati oqimi vakillari qanday ilg'or g'oyalarni ko'tarib chiqishdi?
6. Jadidchilik oqimi vakillarining milliy istiqlol g'oyasini va milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqarishdagi o'rni nimalardan iborat?
7. Jadidchilik oqimi vakillari xalqning milliy ongigi uyg'otish uchun qanday faoliyatlar olib borishdi?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T.6. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq. -T.: O'qituvchi 1992.
5. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -T.: O'qituvchi 1997.
6. Malik Murod. o'zbek qadriyatları. -T.: Cho'lpon, 1995.
7. Mustaqillik: ilmiy, izohli, ommabop lug'at. -T.: Sharq 1999.
8. Falsafa. o'quv qo'llanma. -T., Sharq 1999.
9. Falsafa. Ma'ruzalar matni. -T., 2000.
10. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
11. S.Yo'ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

## **9-MAVZU. XX-XXI ASR FALSAFASI**

**Reja:**

- 1. XX asr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayoti, uning falsafiy tafakkurda aks etishi.**
- 2. XX asr falsafasining asosiy xususiyatlari va oqimlari.**
- 3. Mustaqillik falsafasi va uning mohiyati.**

1. Biz yuqorida falsafiy kontseptsiyalar tarixini qarab chiqdik. Aytish mumkinki, o'tmishda yashab o'tgan deyarli har bir yirik mumtoz faylasufning o'z izdoshlari bo'lган. Platonizm, aristotelizm, gegelchilik, nitsshechilik singari oqimlarning hozirgi zamon ko'rinishlari mavjud. Barcha falsafiy kontseptsiyalar u yoki bu tarzda o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Falsafiy bilim o'zidan oldin o'tgan mutafakkir olimlarning ta'limotlariga tayanib kelgan. Biz falsafa tarixida inson tafakkuri avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'z mantig'i va ma'nosini yo'qotmasdan o'tib kelayotganligini ko'rdik. Faylasuf barcha zamonlarda umumbashariy madaniyat muammolarini hal etishga harakat qilib kelgan, turmushning mohiyati va unda insonning o'rni, individ va individuallik, madaniyatning xilma-xilligi va bir butunligi; inson tsivilizatsiyasining istiqbollari, bilish vositalari, inson va jamiyatni takomillashtirish yo'llari va hokazolar ana shunday muammolardandir.

Falsafa fani jadal sur'atlar bilan o'zgarib turgan dunyoni anglab etishga yordam beradi; eng to'g'ri ommaviy ong shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri va aniq maqsadga qaratilgan faoliyat ko'rsatish-tsivilizatsiyaning shartidir. Shu ma'noda falsafa fanini o'rganish dunyoni to'g'ri anglashga yordam beradi. U to'g'ri, ongli hayot kechirishga o'rgatadi.

O'tmishdagi va hozirgi vaqttagi falsafiy ta'limotlar ko'p hollarda insonparvarlik yo'nalishida bo'ladi. Ular turlicha bo'lishiga qaramay hech biri mutlaq haqiqatni da'vo qilmaydi. Lekin ularni jamlab bir butun holda olinsa, ulardan inson uchun g'oyat zarur bo'lган qimmatli fikrlar chiqadi. Bunda har qanday bahs-munozarasiz mutlaq haqiqatga da'vogarlik mavqeida turishi – bu unchalik aqli bo'lмаган ishdir. U hatto ijtimoiy amaliyot uchun favqulodda havfli hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin. Haqiqatni monopoliya qilib bo'lmaydi va monopoliya qilinmasligi kerak – mana bu gap falsafiy haqiqatdir. Bashariyat madaniyatiga, uning bilimiga hurmat ko'rsatish bugungi kundagi tinchlik va xotirjamlikni ta'minlaydi.

Bugungi kunda global, ya'ni ulkan muammolar bo'l mish: urush va tinchlik masalasi, ekologiya, ijtimoiy taraqqiyot va shunga o'xshash muammolarni birinchi bo'lib ko'tarib chiqish ham falsafaga taalluqlidir. Ushbu muammolar bilan aslida barcha fay lasuflar va barcha Falsafa maktablari shug'ullanadi. G'oyat murakkab nazariy bilim muammolari bilan band bo'lishiga qaramay, mashhur tabib va alloma Abu Ali Ibn Sino "Najot kitobi", "Insof kitobi", Kant ham «Mangu tinchlik

to'g'risida» degan g'oyat qiziqarli traktat yozgan. Aristotel mantiq fani bilan qanchalik berilib shug'ullanishiga qaramasdan, u ham «Etika» degan kitob yozgan.

XX-XXI asrga kelib ulkan muammolarni falsafiy jihatdan anglash asosida bashariyat madaniyatidagi g'oyat muhim qadriyatlar to'g'risidagi masalalar o'rtaqa qo'yildi: sinfiy, milliy diniy va umuminsoniy masalalar; urush yoki tinchlik; yaratish yoki vayron qilish; tabiat ustidan «hukmronlik qilish» yoki odam bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyqunlashtirish mana shunday ulkan muammolardan hisoblanadi.

Xuddi ilgari vaqtlardagidek bugungi kunda ham inson muammosi, uning tabiat bilan, turmush bilan munosabati, bilish va o'z-o'zini bilish, hayot ma'nosini, hamda eng muhimi hayotiy qadriyatlarni anglash falsafaning asosiy muammolari bo'lib qolmoqda. Ushbu masalalarning barchasi ma'lum darajada bundan ikki ming yil muqaddam qanday bo'lsa, shundayligicha echilmasdan, hal qilinmasdan ochiq qolmoqda.

### **Hayot falsafasi**

Falsafa maktablari va yo'nalishlari qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning aksariyati umumiylar belgilarga ega bo'ladi, bu esa muayyan turlashni o'tkazish imkonini beradi. Yuqorida ma'lumotizm bilan idealizm, empirizm bilan ratsionalizm o'rtasidagi farqlar keltirib o'tilgan edi. XIX asr o'rtalaridan boshlab falsafiy tadqiqotlarda yangi usullar paydo bo'ldi. Bu usullar **mumtoz falsafa** ziddi bo'lgan **nomumtoz falsafa** degan tushunchani iste'molga kiritish uchun asos berdi. Antik - qadimgi zamonlardan tortib to A.Shopengauerga qadar mumtoz falsafa «aqlii» bo'lgan, u aql-idrok kuchiga tayangan hamda voqelikning mohiyati uning belgilovchisi hisoblangan.

Mumtoz falsafiy ta'riflar XIX asrning O'rtalariga kelib ko'pchilik faylasuflarni qoniqtirmay qoldi. Ular ushbu ta'riflarda insonning o'rni yo'qolib ketgan, deb hisoblashdi. Insandan sub'ektiv xususiyatlarning o'ziga xosligini, ularning xilma-xilligini yangi faylasuflar aql-idrok, fan usullari bilan «qamrab olib bo'lmaydi.», deb hisobladilar. Ular ratsionalizmning ziddi o'laroq mumtoz bo'lмаган nomumtoz falsafani rivojlantira boshladilar. Unda hayot (hayot falsafasi), insonning mavjudligi (ekzistentsializm) birlamchi reallik sifatida tahlil etila boshladi. XIX asrning o'rtasida odamga uncha e'tibor qilmaslik singari falsafiy tendentsiyaga aylanib qolgan holatlar, ya'ni hayot va insonning hayotiy faoliyatiga bog'liq jihatlarga qiziqish nomumtoz falsafa vujudga kelishi uchun asos bo'ldi. Shu ma'noda nomumtoz falsafaning paydo bo'lishi batamom qonuniy bo'lgan bir hodisa edi.

Falsafiy fikrlashning yangicha tipini yaratishga ko'p jihatdan nemis olimi **Artur Shopengauer** asos solgan. Hayotda mavjud bo'lgan hamma narsani Shopengauer iroda, hayotga nisbatan iroda deb tushunadi. Iroda xuddi kosmik fenomenday universal, tabiatdagi har bir kuch esa xuddi iroda singari tushuniladi.

Tanaga ega bo'lgan har qanday narsa – bu «irodaning ob'ektivligi»dir, hayvonlarning instinktlari va hatti-harakatlari ham-irodaning ta'siri, nihoyat, inson ham irodaning namoyon bo'lismidir, shuning uchun ham uning tabiat ratsional emas, balki irratsionaldir. Aql-idrok irodaga nisbatan olganda ikkilamchidir, u asossiz bo'lib, qolgan barcha narsalarning manbai ayni mana shu irodadir. Dunyoning o'zi ham iroda va uning butun borlig'i bilan namoyishidir. Hamma narsa shu jumladan, odam ham irodaning aylanib turgan Yoildiragiga abadiy bog'lab tashlangan. Aftidan, Shopengauer olamni g'oyat o'ziga xos bo'lgan spetsifik nuqtai nazar bilan ko'rganga o'xshaydi. Bunday qarash unga xaddan tashqari ratsional bo'lgan falsafaga qarshi, uning ziddini yaratish imkonini bergen.

Nemis olimi **Fridrix Nitsshe** uchun esa narsaning asosida Shopengauer singari hayotga intiluvchi iroda emas, balki hokimiyatga-hukmron bo'lismiga intilish irodasi yotadi. U o'zining «Zardusht tavallosi» deb nomlangan kitobi qaxramoni singari kuchli shaxslar tarafdori bo'lgan. Ma'lumki, Zardusht baland tog' cho'qqilarida, ya'ni oddiy odamlardan yuqorida o'zining yaqin do'stlari bilan birga bamisolli donishmand ilonday va mag'rur burgutday hayot kechirgan. Odam bilan tabiat orasi qanchalik uzoqlashsa, odamning hayotga bo'lgan qiziqishi shunchalik sO'nib boradi, odamning o'zi esa bevosita kasallik timsoliga aylanib qoladi. Bundan qutilish yo'li bitta-irodasi bo'sh bo'lgan kishilar ommasini o'z orqasidan ergashtirib borishga qodir bo'lgan kuchli shaxslarni tarbiyalab etishtirish kerak. «Xavf-xatardan qo'rg'may yasha» - Nitsshening shiori shunday bo'lgan.

Nitsshe ajoyib filolog va musiqiy improvizator bo'lgan, har xil xastaliklar uni qiynab, unga azob bergen. Bularning barchasi uning hayotida bir-biriga aralashib o'ziga xos bir falsafiy shaklga kirgan. Nitsshe tomonidan ko'pincha musiqiy ohanglar yo'lidagi goho biri ikkinchisini rad etadigan ajoyib adabiy **esselar**, pand-nasihatlar, aforizimlar, dekloratsiyalar yozilgan. U XIX asrning oxirlaridagi madaniy yo'nalihsining eng ko'zga kuringan vakili bo'lgan. Ushbu oqim vakillari umidsizlik, ahloqsizlik, xunuk hodisalarni estetika darajasiga ko'tarish kabi xususiyatlar bilan ajralib turishgan. Shuningdek Nitssheni **nigilist** deb hisoblashgan, ya'ni u hayotda qaror topgan barcha narsalarni, hamda, yangi ijobiy o'zgarishlarga olib kelmaydigan qadriyatlarni inkor etuvchi kishi bo'lgan. Hatto, Nitssheni fashizmday baloni yoqlashda ayblaydigan mualliflar ham oz bo'limgan, chunki Nitsshening «Mallarang nishoni» - fashist olchoqlarining qiyofasini eslatib turar ekan. U holda Nitssheni faqatgina nigilistgina emas, balki fashizm tarafdori bo'lgan deyish ham mumkin. Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif-tavsiflarning hammasida ham bitta kamchilik-aniq ko'rinish turgan bir yoqlamalik mavjud.

Nitsshe mavjud ideallarni qayta baholash bilan mashg'ul bo'ladi, lekin u bu ishni ko'p jihatdan boshqalarga qaraganda yorqinroq va keskinroq bajaradi. Nitsshe uchun falsafa - kirib kelayotgan yangiliklarni rad etuvchi o'z xarakteriga ko'ra hokimiyatga intilish tarzidagi traditsion barqaror holatlarni tanqid qilish

shaklidir. Hokimiyatga intilishini ilmiy yo'l bilan o'rganib bo'lmaydi, uni faqat inson tomonidan tushintirib berilishi mumkin. Nitsshening o'zi ham fanda kuchli bo'lman. U fanni sevmagan, uningcha, fan - hokimiyatga intilishdagi ayni vaqtida ko'pincha adashtiradigan yo'llarga olib kiruvchi ham vositadir. Ko'pincha «Xaqiqatga intilish irodasi», «Ijodiyotga intilish irodasi»ning kuchsizligini ifodalaydi. Nitsshe haqiqat degan tushunchaning o'ziga ham shubha bilan qaraydi. Xo'sh, deydi U haqiqat borligini qaerdan bilamiz? Odam hozir ko'rib turgan narsasini sharhlab, talqin qiladi, lekin buni xaqiqatga mengzash unchalik to'g'ri kelmaydi.

Nitsshe xristianlikning «xasta» ideallari, axloqini fanga qarshi qo'yishga keskin qarshi kurashadi. Lekin u hokimiyatga intilish irodasi, instinkti, ahloqi va dinini qo'llab-quvvatlaydi. Bu erda Nitsshening ordinar bo'lman-noordinar falsafasi butun bo'y basti bilan o'zini ko'rsatadi. Nitsshe bir fikrini rad etish orqali o'z fikrini tasdiqlaydi, biroq , u hozirigina o'zi ta'kidlagan fakti o'sha zahoti rad etishga tayyor turadi. U mangu tartiblar, shu jumladan fashistlar tartibini o'rnatish tarafdori ham emas. Nitsshening ta'rifi bo'yicha olinadigan bo'lsa, «Xudo o'ldi: va biz istaymizki-kuchli odam yashayversin» , biroq unda kuchli odam ideali unchalik aniq emas, Nitsshening fikriga qaraganda, hamma narsa o'ladi va hamma narsa yana qayta dunyoga kelib gullab-yashnaydi, faqat shu ma'nodagina qandaydir abadiylik to'g'risida gapirish mumkin.

«Misli ko'rilmagan sintez to'g'risida» orzu qilgan Nitsshe yozgan xatlardan biri guvohlik berishicha u faylasuf bu orzuni amalga oshirishga muvaffaq bo'lman, umuman olganda, Nitsshe falsafasi-bu ratsionalizmga qarama - qarshi qo'yilgan hayot falsafasining yorqin variantidir.

### *Ekzistentsializm va fundamental ontologiya*

XX asrning 30-yillariga kelib hayot falsafasi asta-sekinlik bilan yo'qolib, o'z o'rnini ekzistentsializmga bo'shatib beradi. Bu endi hayot falsafasiga qaraganda ancha kuchliroq falsafa bo'lib, unda dunyoda yashayotgan inson turmushining xilma - xil tomonlari bayon etiladi. Ekzistentsialistlar hayot falsafasini psixologizmlar bilan to'lib - toshgan deb hisoblaydilar.

**Ekzistentsiya** so'nggi lotin tilida so'zma-so'z olganda, «mavjudlik» degan ma'noni anglatadi. Mana shu mavjudlikning o'zi esa ekzistentsializmda sub'ekt bilan ob'ektning bevosita birikib, birlashib ketishi tarzida tushuniladi. Bunda sub'ektning boshqalar uchun ochiqligi, o'zgalarning u uchun ochiqligi, ularning bir-biriga o'tishi bu jarayonning bir butunligi mavjudlik mohiyatini tashkil etadi. Ekzistentsializmning diniy variantida (**Yaspers, Marsel**) ushbu o'zga narsa Xudodir, ozod shaxs mana shu xudoga tomon harakat qilib boraveradi. Ekzistentsializmning ateistik variantida (**Satr, Kamyu**) o'zga ob'ekt hech narsa sifatida, talqin etiladi. Buning ma'nosi shuki, odam o'z ozodligini amalga oshirib o'zini-o'zi to'satdan yaratadi. Odam tubsiz oqibatlar silsilasiga duch keladi, endi u mazkur silsiladan o'z yo'lini tanlab olishi kerak bo'ladi. Mana shu yo'lni tanlab

amalga oshirish jarayonida u o'z erkinligini topadi. Ushbu tanlov uchun u eng avvalo o'z-o'zi oldida mas'uldir. Bu juda og'ir mas'uliyat. U o'zi o'z-o'zligingni yaratishi bilan, o'zgalarni, bora-bora butun dunyoni kashf etadi. Inson o'zining chinakam mavjudligi holatida u muttasil kelajak ro'parasida, shu jumladan, o'lim qarshisida, o'z qilmishlari uchun javobgarlik vaziyatida turadi. Ekzistentsiya xuddi qo'rquv, ekzistentsional dahshat, tashvishli kutish singari namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda bunda xuddi chegaradagi ekzistentsional vaziyatga o'xshagan holat sodir bo'ladi. Bunday holatda, **Kamyu** fikri bilan aytganda, asosiy falsafiy masala - bu o'z-o'zini o'ldirish masalasi hisoblanadi. Yashash qo'rqinchli, zerikarli ham be'mani bo'lgan bir sharoitda yashash kerakmi yoki yo'qmi?

Ekzistentsializm – bu ontologiya, borliq, mavjudlik haqidagi ta'limot. Ekzistentsialist uchun odamning dunyoda mavjudligi muhim hisoblanib, tabiatning mustaqil ravishda mavjudligi to'g'risidagi masala esa uni unchalik qiziqtirmaydi. Tabiat insonga azal-azaldan ato etilgan. Bunda dastlabki reallik yaxlit bo'lib, u sub'ekt va ob'ektlarga bo'linmaydi. Fan dunyoni ob'ekt va sub'ektga ajratadi. Shu sababli fan ularning borlig'ini ifodalab berishga qodir emas. Bunga esa faqat ekzistentsianing alohida akti - harakati orqali erishiladi. Ekzistentsiya – bu shunchaki bir his-hayajon emas, balki olamda mavjudlik his-hayajonidir.

Ekzistentsiyada insonning ozod ekanligi yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi. Ozod-erkin bo'lish, bu o'zing o'zing bilan bo'lishliging, begona kishilarning ta'siridan halos bo'lishdir.

Shaxs uchun jamiyatning ahamiyati shundan iboratki, u ko'p bo'lganda insonning iqtisodiy, siyosiy va boshqa erkinliklari uchun zamin yaratishi mumkin xolos. Lekin ko'p xollarda jamiyat shaxs erkinligini cheklab qo'yadi. **Xaydeggerning** fikricha jamiyat shaxssiz, o'rtacha holga keltirilgan bir olamdir. Mana shu o'rtacha holatni yorib chiqish harakati ekzistentsiya orqali amalga oshiriladi. Bunda qandaydir mazmunga ega bo'lgan hatti-harakatlar ishlatilmaydi. Chin inson bo'lishlik - ekzistentsializmning asosiy da'vatidir. Umuman olganda tashqi dunyoga, boshqa kishilarga nisbatan bunday bo'lishlik munosabatlarda ehtimoldan uzoq, lekin kishi o'z shaxsiga nisbatan ushbu chaqiriqni qanchalik ko'proq namoyon etaolsa, u shunchalik o'z aslini ko'rsatgan bo'ladi. Bu gaplarni odamning tashqi dunyodan, ob'ektivlikdan ajralishi jarayonida sodir bo'luvchi badiiy, diniy, falsafiy ijodga nisbatan ham aytish mumkin.

Agar Yaspers va Sartr inson mavjudligining instantsiyasini eng avvalo uning ongida ko'rishgan, inson sub'ektivligini hamma narsadan ustun qo'yishgan bo'lsa, Xaydegger sub'ektivlikni olamda inson mavjudligidan kelib chiqadigan narsadir deb hisoblagan. Insonning faoliyati davomida unga haqiqat eshiklari ochiladi u narsalar sirini bilayotganini ko'radi. Natijada odam dunyoni tushunadi va bu hol uning tilida amalga oshadi. Shu ma'noda til – bu inson mavjudligining uyi va yashaydigan makonidir. **Xaydegger falsafasini ko'pincha fundamental ontologiya (insonning olamdagи borlig'i to'g'risidagi ta'limot)** deb ataydilar.

Xaydegger falsafasi fanida ekzistentsializm ongga ega bo'lgan insonning olamda mavjudligi to'g'risidagi ta'limot sifatida ko'rindi.

Ekzistentsializm inson mavjudligining shunday nozik tomonlariga murojaat eta oldiki, ularning ba'zilarini fan tilida bayon etib, ifodalab bo'lmaydi. Ekzistentsializmning fan va texnikaga ko'r-ko'rona e'tiqod etilishiga, ong realliklariga vijdonsizlarga moslashib borish qarshi (ya'ni konformizmga qarshi) bo'lgan ogohlantirishlari g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan. Ekzistentsializm inson erkinligi muammosini, hayot yo'llarini tanlash masalalarini yangicha tarzda o'rta ga qo'ydi va uni g'oyat samarali tarzda hal qildi. Ekzistentsialistlar falsafiy fikrlashning yangicha usulini ishlab chiqdilar va bu usul eng yangi falsafa tomonidan o'zlashtirib olindi.

XX asrdagi asosiy falsafiy yo'naliishlardan biri **fenomenologiya** hisoblanadi. So'zma-so'z olganda bu *fenomenlar to'g'risidagi ta'limot* degan ma'noni anglatadi. **Edmund Gusserl** XX asrda keng yoyilgan shakldagi fenomenologiyaning asoschisi hisoblanadi. Falsafada **fenomen** deganda odatda his-tuyg'ular orqali bilinadigan narsa va hodisalar tushuniladi. Gusserl esa fenomen deganda predmetlarning ongda hosil bo'ladigan ma'no-mazmunini tushunadi. Uningcha falsafiy tizimning tuzilishida u dastlabki bosqich rolini o'ynaydi.

Gusserl ilmiy tushunchalar vositasida amalga oshiriladigan narsa va hodisalar mohiyatini tushunish to'g'risidagi masalaga to'liq aniqlik kiritishga harakat qiladi. Xo'sh, odam narsa va hodisalar mohiyatini qay yo'sinda tushunib olishga muvaffaq bo'ladi? Ushbu savolga uningcha o'zigacha bo'lgan faylasuflar, naturalizm tarafdorlari ham, sub'ektivizm tarafdorlari ham qoniqarli biror javob bera olmaganlar. Masalan, naturalistlar bilim bilan ongni voqe'likning in'ikosi deb tushunadilar, bunday tushuntirish esa inson faolligiga ziddir. Sub'ektivistlar odam ongiga nisbatan tashqarida bo'lgan dunyoni unutib qo'yadilar, ular uchun barcha bilimlar nisbiydir. "Vaholanki - deb hisoblaydi faylasuf, - fan hammaga ahamiyatli bo'lgan haqiqatlarni ochib bermoqda". Ilmiy tushunchalar muhim bo'limgan narsa va hodisalarga e'tibor bermaydigan, ularni tashlab yuboradigan abstraktsiyalar tufayli hosil bo'ladi deb hisoblaydigan olimlar ham bilish jarayoniga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadilar, fanni bu qadar bezbetlik bilan mensimaslik qadim - qadim zamonlardan buyon odamlar tomonidan qoralab kelangan va bunga yo'l qo'yilmagan. Bunday qiyinchiliklarning barchasini engib o'tish yo'lini Gusserl izchil falsafada - **fenomenologiyada** ko'radi.

Tashqi dunyo sub'ektga **fenomenlar** oqimida taqdim etilgan va faylasuf o'zining barcha xulosalarini mana shu faktdan kelib chiqqan holda aytmog'i kerak. Binobarin, tahlil vaqtida tashqi dunyo haqida ham, naturalizm va sub'ektivizm tipidagi isbotlangan haqiqiy, hech qanday tanqidsiz qabul qilinadigan tushunchalar uchun ham «qavs ichida joy qoldirish kerak». Fenomenolog vaqtincha tashqi dunyo to'g'risidagi fikr -mulohazalardan o'zini to'xtatib turishi lozim. Bu bilan fenomenologiya reduktsiyasi deb ataladigan tadbir amalga oshiriladi, ya'ni bunda tahlil maydoni fenomenlar oqimi tomonga suriladi.

Xuddi mana shu joydagina hodisalarning chinakam ma'nolarini topish mumkin bo'ladi. Biz bu erda **fenomenologik reduktsiya** natijasida tashqi dunyo predmetlarini go'yo nazardan qochirib qo'yganga o'xshaymiz. Lekin aslida bunday emas, chunki Gusserlning fikriga ko'ra, ong hamisha predmetga qaratilgan bo'ladi, chunki u hamisha **intentionaldir** («intentsio» degan lotincha atama **intilish** degan ma'noni anglatadi). Fenomenlar bilan tajriba o'tkazar ekan, faylasuf bir paytning o'zida ikki ishni bajaradi, ya'ni u faqat odamning tashqi olami bilangina emas, balki uning ichki dunyosi bilan ham shug'ullanadi, bunda Gusserl faylasuf uchun eng asosiy ish hisoblangan muhim narsa va hodisalar bilan shug'ullanishni istaydi. Uning: «**Orqaga, narsalarga qaytaylik!**» degan shiori ham shundan kelib chiqqan. Bu shiorning ma'nosи, fenomenlar tahlilini izchillik bilan o'tkazish lozimligidadir. Ushbu tahlilni olma nimaligini idrok etish va tushunib, anglab etish misolida qarab chiqamiz.

Aytaylik, bitta predmetga, bizning misolimizda olma daraxtiga qaratilgan ong harakatining ikki yoki undan ham ko'proq fenomenini ko'rib chiqmoqchimiz. Dastlabki fenomenlar odam tasavvuri va fantaziysi tufayli amalga oshiriladigan ichki xilma-xil kechinmalarni tuzish bilan to'ldiriladi. Ushbu ko'p xillik bir kishining o'ziga taalluqli bo'ladi, binobarin, u muayyan ravishda fenomenlar orqali sintez qiladi. Sintez qilingan kechinmalarda har doim identik, aynanlik holatlari mavjud bo'ladi, chunki ongning anglanilayotgan narsa va hodisalarga qaratilishi erkin qayta yaratishlar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, lekin dastlabki fenomenlar bilan muvofiqlashtirilgan narsa va hodisalargina bundan mustasnodir. Bizning misolimizda gap «ushbu olma» yohud «har qanday olma» to'g'risida bormoqda. Bilishning hal qiluvchi holati identiklikka, aynanlikka, bir so'z bilan aytganda, **eydosga** (g'oyalarga, tushunchalarga), **eydetik tafsilotga** erishishdan iboratdir. Mazkur tajriba jarayonida eydos ko'zga tashlanadi. Bu erda gap kategorial intuitsiya to'g'risida borib, bunda sintetik ko'p xillikni konstruktsiyalash bo'yicha faoliyat ko'rsatish nazarda tutiladi. Ushbu faoliyat o'z-o'zidan amalga oshirilib boriladi va u oxir-oqibatda eydoslarga - ilmiy tushunchalarga olib keladi. Kategorial intuitsiya bu qandaydir sirli bir narsa emas, uning shakllanish mexanizmini tushuntirib berish mumkin. *Agar sen narsa va hodisalarning mohiyatiga tushunmoqchi bo'lsang, ularni ko'rishni istasang, o'sha narsa va hodisalar to'g'risidagi xilma-xil kechinmalarni o'zing konstruktsiya qilib ko'r.* Bunda tajriba o'tkazayotgan kishi olim bo'ladimi yoki talaba bo'ladimi, baribir odamlar miyasida amalga oshiriladigan allaqanday topishmoqli abstraktsiya jarayonlari to'g'risidagi bo'limg'ur tasavvurlarni o'ylab chiqarmasligi kerak.

Fenomenologik metod jahon falsafasida va fanida g'oyat keng tarqalgan usul. Uni hayotiy olamning bo'yoqlari, rang – tuslari, hidlaridan juda uzoqdagi tushunchalar bilangina tajriba o'tkazadigan fanlar tomon toyib ketmaslikka kafolat beradi deb hisoblashadi. Bunday toyib ketish hollari XX asr Evropa fanlariga xos bo'lgan xarakterli xususiyatdir. Shuning uchun ular krizis xolatida, formalizm, stsientizm va texnitsizm iskanjasida qolmoqdalar. Gusserl ilmiy

idealizatsiyani (nuqta, to'g'ri chiziqqa o'xshash tushunchalarni) ba'zi bir cheklangan sub'ektiv ijod namunalari sifatida qarab chiqqan. Olam mavjudligi sub'ektga ideallar, tushunchalarda emas, balki ong oqimidan iborat bo'lgan eydoslardir. Fenomenologiya bizni olamni, hayotni unutish illatidan ehtiyot bo'lishga da'vat etadi. Gusserl fandagi krizissi faqat fenomenologik retseptlar asosidagina bartaraf etish mumkin, deb hisoblagan.

Fenomenologyaning kamchiliklariga kelganda shuni aytish mumkinki, bu kamchilik asosan amaliyot muammolarini tor ma'noda tushunishda ko'rindi. Bunda gap amaliyotni ko'p jihatdan ong fenomenlarini bir-biri bilan taqqoslashi to'g'risida boradi. Haqiqatdan ham pragmatizmda, Xaydeggerning fundamental ontologiyasida amaliyot muammosi fenomenologik falsafadagiga qaraganda ancha mukammalroq darajada ishlab chiqilgan. Ko'pincha fenomenoglarni ularning «eklektikligi» uchun tanqid qilishadi. Bunda ularning hissiy bilish bilan ratsional bilish shaklini etarli darajada bir-biridan aniq ajratib qo'ymasliklari nazarda tutiladi.

### **Germenevtika**

**Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, xudoning elchisi bo'lgan Germes odamlarga ilohiy xatlar mazmun-ma'nosini tushuntirib berishi kerak bo'lgan.**

Germenevtika - falsafiy fikrlashning shunday usulki, unda uning markazini tushunish jarayoni tashkil qiladi.

Faylasuflar qadim-qadim zamonlardan buyon mavjud narsalarni, sodir bo'layotgan voqealarning tub mag'zini chaqishni va tushunganlarni boshqalarga bayon etib, berishni o'z burchlari deb bilganlar. Shunga ko'ra, har bir faylasufning tushunish muammosi bilan shug'ullanishi tabiiy holatdir. Lekin har qanday faylasuf ham germenevt hisoblanavermaydi. Ta'rif berishlaricha, faqat aynan tushunishni falsafaning birlamchi printsipi deb hisoblaydigan faylasuflargina germenevtiklar hisoblanadi. Ular uchun odam tushunuvchan mavjudotdir. Odamga taalluqli bo'lgan boshqa hamma narsalar ikkilamchidir. Ular tushunishdan tashqari tushunish jarayonida ishtirok etadi, yoki ushbu jarayonning bir jihatini tashkil etadi.

XX asrda falsafiy germenevtikaning, asosan ikki shaklidan foydalanildi. Bularning birinchisi, ong germenevtikasi (**Shleyermixer - Diltey**) bo'lsa, ikkinchisi borliq germenevtikasidir (Xaydeggerning shogirdi **Gadamer germenevtikasi**). Mana shu ikki shakl o'rtasida muhim farq bor. Ong germenevtikasiga muvofiq, tushunish bu boshqa bir kishining psixologik olamiga kirishib ketish, uning ruhiy kechinmalariga sherik bo'lishdir (kongeniallik, sub'ektlar ruhiyatining psixologik qon-qardoshligi). Borliq germenevtikasiga muvofiq esa, tushunish – faoliyat va tilda amalga oshiriladigan inson tajribasining ma'no-mazmunidir.

Endi ong germenevtikasi bilan borliq germenevtikasi o'rtasidagi aniq farqni misolida ko'rib chiqaylik. Tasavvur qilaylik, tomoshabinlarning nazari Toshkent teleminorasiga tushgan bo'lsin. Ushbu vaziyatni tushunish uchun ong

germenevtikasiga ko'ra ular teleminorani yaratgan kishilarning ongini tushunishga harakat qilinadi. Ularni ixtirochilarning fikri, mulohazalari, kechinmalari qiziqtiradi. Xuddi mana shu tushunish jarayonini endi borliq germenevtikasi nuqtai-nazaridan mutlaqo boshqacha tarzda amalga oshiradi. Ular e'tiborni minoraning shahar ulug'vorligining ramzi ulug'vorlik ishlarini, an'anani davom ettirishga da'vat, chaqiriq ramzi bo'lib tuyulishi tortadi. Borliq germenevti o'sha ishning tarkibida, ichida bo'lishga intiladi, odamlarning qarashi uni qiziqtirmaydi. Ong germenevti o'z hamkasbidan farqli o'laroq odamlarning ruhi - psixikasiga, u yoki bu predmetlar, narsalarni yaratgan, shu jumladan, texnik qurilmalarni yasagan, kitoblar yozgan, teatr tomoshalarini qo'ygan, musiqiy asarlar ijod qilgan kishilarning ruhiy holatiga kirib borishga harakat qiladi.

Ong germenevti ham, germenevtigi ham **germenevtik davrani** tushunishning eng muhim xususiyati deb hisoblaydilar. Bunga ko'ra yaxlit narsani tushunmoq uchun dastlab uning ayrim qisimlarini bilish zarur, lekin ayrim qisimlarini tushunish uchun esa endi yaxlit narsaning mohiyati-mazmuni to'g'risida tasavvurga ega bo'lish zarur. Biror matnning boshlanish qismini tushunish butun matnni tushunish zarurligini taqozo etadi, o'sha matnning O'rtasi yoki oxirgi qismini tushunish esa o'sha matnning bosh qismini tushunishga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, o'sha orqali belgilanadi.

Ong germenevti ham, borliq germenevti ham suhbatdoshlar o'rtasidagi ma'noli - suhbatni tashkil qilishni g'oyat muhim germenevtik usul deb hisoblaydilar. Bunda ong germenevti mana shu shu suhbat orqali o'z suhbatdoshining ruhiyatiga kirib borishiga harakat qiladi. Borliq germenevtigi ushbu suhbatdan ishning mohiyatini tushunish yo'li sifatida foydalanadi. Unga narsalar sirlarini ochuvchi, unda haqiqat nuri bilan yorituvchi vositani ko'radi. Bir tomonidan borliq germenevti, boshqa tomonidan ong germenevti ham bir narsani bir xil tushunmaydi, tushunish jarayonining o'zini ham ular o'zlaricha har xil talqin qiladilar

Har xil turdag'i kitoblarda germenevtikani ko'pincha **matnlarni tushunish falsafasi** deb ta'riflaydilar. Germenevtikani bunday ta'riflash ma'lum darajada bir yoqlamalik ekani aniq ko'rinish turibdi. Ko'pchilik hozirgi zamon germenevtiklari fikricha inson bilaman degan barcha narsani tushunishi mumkin deb hisoblaydilar. Borliq germenevtikasiga muvofiq agar toshlar odamning ishlari, bayramlari, o'yinkulgilari ramzi bo'lsa, insonlar hayotida ma'lum bir ahamiyatga ega bo'lsa hatto o'sha toshlar bilan ham gaplashishi mumkin. Axir, haykallar bizga qarab o'z savollarini berayotganday bo'lib, tuyulmaydimi? Bu o'rinsiz savollardir, lekin biz o'sha savollarga tilimizda, tortishuvlarda kishilar bilan muloqotga kirishganimizda javob qidiramiz.

Ancha eskirib qolgan germenevtik g'oya shundan iboratki, germenevtika asosan tantana qiladigan soha gumanitar fanlar, "ruh to'g'risidagi fanlar" hisoblanadi. Lekin hozirgi vaqtida kamdan - kam kishilar bunday deb o'ylaydi. Tushunish har qanday fanda mavjuddir. Germenevtika uchun har qanday fanni anglash insonning texnik hayotining bir shaklidir; lekin ong aynan mana shu

tushunishga tobedir. Borliq germenevti uchun har qanday fan-bu faoliyat, ish, olimlarning jamiyati o'tkazadigan germenevtik tajribasidir; lekin bularning bari yana tushunish orqali bilib olinadi. Ko'riniq turibdiki, eng yangi germenevtikaning har ikkala shoxobchasi ham xar qanday fanning germenevtik mazmuni to'g'risidagi xulosaga keladilar.

Ong germenevtiklarini umuman ong emas, balki shaxslarning kechinmalari, muloqotlari, ushbu muloqotning o'ziga xosligi, maroq li ekani qiziqtiradi. Ularni olimlar yaxshi ko'radigan umumiylar narsalardan ko'ra alohida, xususiy narsalar qiziqtiradi. Borliq germenevtiklari ong sohasidan faoliyat sohasiga va til amaliyoti sohasiga qarab harakat qiladilar boshlaydilar, bunda yana fan ideallaridan orqaga chekinish va buning o'rniga san'at ideallari tomon o'tib borish kuzatiladi.

Germenevtika XX asrdagi eng ta'sirli falsafiy oqimlardan biri bo'lsada, lekin hali u hal qilmagan ko'p masalalar bor. Shu munosabat bilan bizni hech shubhasiz yangi - yangi falsafiy hodisalar kutib turibdi.

### ***Analitik Falsafa***

Falsafaning nomumtoz rivojlanish bosqichi o'z ichiga nafaqat uning ilmiylikka ko'ra yo'naltirilgan falsafani (masalan, hayot falsafasi va ekzistentsializm) oladi. Fan erishgan g'oyat ulkan yantuqlar, ayniqsa, XX asr boshlarida matematika va fizikadagi muvaffaqiyatlar faylasuflar e'tiborini o'ziga tortdi.

Nemis matematigi Gottlob Frege mantiq fani vositalari bilan matematikani takomillashtirishga intilgan juda ko'p tadqiqotchilardan biri edi. Frege ayniqsa har xil, ya'ni ziddiyatli sog'lom aqlga zid bo'lgan fikrlarga boy matematik isbot sohasini mukammallashtirish ustida ko'p ishlardi, lekin o'z yondashuvlarida bitta g'oyat muhim o'ziga xos xususiyat bo'lgan: uning intuitsiyasiga muvofiq, mantiq fanining o'zini yanada rivojlantirish zarur bo'lgan. U juda ko'p sonli kamchiliklari bo'lgan tabiiy tilning o'rniga uni munosib darajada almashtiradigan bir tilni-formallashtirilgan tilni yaratish kerak, degan fikr bilan chiqqan. Fregening fikricha, o'sha vaqtdagi formal mantiq bilan tabiiy til bir xil kamchilikka ega bo'lgan-ya'ni ulardagi barcha tuzilgan gaplar sub'ekt-predikat shakliga ega bo'lgan.

Sub'ekt va predikatga ajratish faqat «Ergash uxlayapti» kabi eng sodda gaplargagina to'g'ri keladi. Bu erda «Ergash»-sub'ekt, «uxlayapti» esa-predikat. Lekin biroz murakkabroq bo'lgan, masalan, «Ergash Lola bilan o'ynayapti» degan gapni olib ko'radigan bo'lsak, uni sub'ekt va predikat qismlarga ajratish qiyinroq kechadi. Axir bu erda Ergash ham, Lola ham bir xil darajaga ega bo'lib, ularning xar ikkalasini ham sub'ekt deb atash mumkin. Bunday holatdan chiqish yo'lini Frege argument bilan funktsiyani bir - biridan farq qila bilishda ko'rgan. «Ergash» va «Lola» - bular argument ifodalari, «bilan o'ynayapti» esa-funktsiyani ifodalaydi. Mazkur misolda «bilan o'ynayapti» birinchi tartibdagi funktsional ifoda hisoblanadi. Frege yana o'zgaruvchi ikkinchi tartibdagi

funktional ifodani ham iste'molga kiritadi. Mantiqqa kiritishni talab qiluvchi «hamma», «hech kim», «ba'zi bir» singari so'zlardan iborat Frege ixtirolari mantiqni ancha o'zgartirib yuboradi. U faqat matematikaga va formallahgan tarzdagi turli tillargagina emas, balki tabiiy tillarga ham, binobarin, falsafaga ham kirib bordi.

Angliyalik mantiqshunos, matematik, faylasuf **Bertran Rassel** yangi mantiq ilgarigiga qaraganda yakuniy falsafiy haqiqatlarga kelishda, reallikning asosiy elementlari tabiatini aniqlashda eng qulay dastak ekanligiga ishonch bilan qaragan. Bu bilan u idealistlar (Leybnits., Gegel) qarashlaridan ancha ilgarilab ketdi. **Rassel bunda uchta g'oyaga amal qilgan.** **Birinchidan**, sog'lom falsafaning o'zi mantiq xisoblanadi, chunki u rost yoki yolYoon bo'lishi mumkin bo'lgan fikrni tushuntirishdan boshlanadi. Bu esa mantiqning vazifasidir. **Ikkinchidan**, biz eng ishonchli bilimga eng avvalo his-tuyYoular orqali ega bo'lamiz. Reallikning eng kichik elementlari reduktsiyalash sohta iaassurotlardan saqlaydi. **Uchinchidan**, bunda fikr mazmunini uning dastlabki mohiyatidan keltirib chiqariladi. Biror termin bilan ifodalab bo'lmaydigan atamaning predmetligi Rassel uchun falsafa faniga, ya'ni kishining boshini aylantirib tashlaydigan eski metafizikaga fanga mutlaqo o'xshamaydigan fan bilan muvofiq keladi.

Kembrijlik faylasufi **Lyudvig Vitgenshteynning** «Mantiqiy-falsafiy traktat» degan kitobi analitik falsafa rivojlanishi birinchi bosqichining kulminatsion nuqtasi bo'ldi. Ushbu kitob 1921 yilda Germaniyada, 1922 yilda Angliyada, 1958 yilda Rossiyada bosilib chiqqan. Vitgenshteyn Rasselga qaraganda ko'proq darajada qat'iyat bilan o'z diqqat-e'tiborini tilga qaratdi. Fikr tilda ifodalananadi, demak, aynan mana shu til tafakkurning chegarasi hisoblanadi.

Faqat barcha tabiiy fanlar orqali bayon etiladigan birgina olam-faktlar olami, voqealar olami mavjud. Gap – bu olam manzarasidir. U olam bilan bir hil mantiqiy shaklga ega. Basharti olam mantiqsiz bo'lganda edi, uni gap shaklida tasavvur qilib bo'lmas edi. Gapning ma'nosini faktlar ifoda etadi. Barcha gaplar elementar gaplarning umumlashmasi hisoblanadi. Bu gaplar modellar sifatida bevosita faktlarga muvofiqlashadi. Demak, «umuman aytish mumkin bo'lgan gapni aniq qilib aytish ham mumkin». qolgan boshqa hamma narsalar to'g'risida, masalan, mistik narsalar to'g'risida, yaxshisi-indamaslik kerak. Shuning uchun indamaslik kerakki, mistik fikrlarni, xuddi etik fikrlar singari yaqqol - mantiqan aniq ifodalab bo'lmaydi. Bunday aytilgan fikrlarning rost yoki yolg'onligini tekshirib ham bo'lmaydi. Agar kimdir biror joyi og'riyotganini aytsa, o'sha kishining o'zidan boshqa hech kim ushbu og'riqning haqiqiyligini isbotlab bera olmaydi.

Falsafa ilmiy ta'riflar, gaplardan iborat emas, chunki u fandan farqli o'laroq faktlar bilan ishlamaydi. Binobarin, falsafiy gaplar rost ham emas va yolg'on ham emas: ular ma'nosizdirlar. Falsafaning maqsadi fikrlarning falsafiy gaplar tuzishdan iborat emas, balki fikrlarning mantiqiy manosini tushuntirib berishdan iborat. Shuning uchun ham falsafa bu ta'limot emas, balki faoliyatdir.

Shunday qilib, mantiqiy-lingvistik ahamiyatlilik analitik falsafaning birinchi bosqichi uchun xarakterli xususiyat, o'ziga xos burilish nuqtasidir. Shuningdek u qat'iy mantiqiy lingvistik sinovga duch kelgan falsafa statusini qaytadan ko'rib chiqadigan bosqichdir. Bunga ko'ra eski falsafiy tizimlarning to'g'ri ekanligi shubha ostida qoladi. Falsafa yo fan sifatida tushuniladi (Rassel), yoki fanga kirish yo'li, fikrlarni aniqlashtirish bo'yicha olib boriladigan bir faoliyat deb qaraldi. (Vitgenshteynning dastlabki qarashlari.)

### **Neopozitivizm**

Agar analitik yo'naliш oyoqqa turgan joy Rassel va Vitgenshteynlar ish olib borgan Angliya deb haqli ravishda hisoblash mumkin bo'lsa, keyinchalik uning harakat markaziy Vena va Berlinga ko'chadi. «Faylasuflarning Venadagi tO'garagiga» M.Shlik, F.Frank, O.Neyrat, R.Karnap, K.Gyodel kirganlar. Berlindagi «Ilmiy falsafa jamiyatini» G.Reyzenbax va K.Gempel singari birinchi darajali faylasuflar gullatishgan. Mana shu ikkala guruh vakillari o'zaro kelishilgan falsafiy pozitsiyada turmagan bo'lsalar - da, baribir ularning barchasini dunyoni matematika, mantiq va fizika fanlari yutuqlari asosida ilmiy anglash manfaatlari birlashtirib turgan. Ayniqsa, Vitgenshteynning «Mantiqiy-falsafiy traktati»ga ko'p etibor berilgan edi. Ikkinchi jahon urushi mintaqadagi faylasuflarning mutlaq ko'pchilagini AqShga emigratsiya qilinishiga majbur etdi. Bu erda ular o'z ishlarini g'oyat samarali tarzda davom ettirdilar. Emigratsiya analitik falsafani anglosakson qadriyatiga aylanib ketishiga sababchi bo'ldi. Endi mantiqiy pozitivizmning asosiy g'oyalarini ko'rib chiqamiz.

Ular metafizikani falsafaning dastlabki printsiplari to'g'risidagi ta'lilot sifatida rad etdilar. Vena tO'garagining vakillari metafizikaning ahamiyatini inkor etadilar. Chunonchi, Karnap metafizikaning xizmatini tilni mantiqiy tahlil qilish natijasida fanlar bajara oladilar deb hisoblagan. Bir tomonidan, mantiqiy pozitivistlar Vitgenshteyn tomonidan olg'a surilgan falsafiy gaplarni ma'nosiz gaplar sifatida tushinish lozim degan fikriga tayansalar, boshqa tomonidan - ular XIX asr pozitivizm an'analarini, eng avvalo frantsuz olimi O.Kont va avstriya olimi E.Maxlarning an'anasi davom ettiradilar. Pozitivizm o'zini ijobiy ta'lilot, ya'ni fan sifatida tan olinishini talab qiladi. Voqelikning har bir sohasi muayyan bir fan orqali o'rganiladi. o'z kuchini ishga solish uchun metafizika maydonning o'zi qolmaydi.

Gaplarni analitik va sintetik gaplarga bo'lish fanni neopozitiv tarzda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Analitik gap-bu shunday gapki, uning haqqoniyligi uning o'z mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi, sintetik gapda esa biz uni ko'rmaymiz. Analitik gaplarga misollar keltiramiz: «Kvadratning barcha burchaklari to'g'ri burchaklidir», «To'g'ri burchak qarshisida teng tomonlar yotadi, burchak va tomonlar mos keladi». Ta'rif bo'yicha kvadratdagi barcha burchaklar to'g'ri burchak, jismlar esa allaqanday cho'zilgan holatni eslatadi. Sintetik mazmundagi gapga misollar keltiramiz: «Stol ustida kitob yotibdi», «Talabalar kulishni yaxshi ko'rishadi». Ta'rifga ko'ra stol, unda kitob

yotishi albatta shart bo'lgan allaqanday bir narsa hisoblanmaydi. Sintetik gaplarning haqiqiyligi empirik yo'llar bilan aniqlanadi.

Neopozitivistlar fandagi barcha gaplar yo analistik gaplar yohud sintetik gaplar bo'ladi, deb hisoblaydilar. Analistik gaplar aprior - ya'ni azaldan ma'lum gaplar bo'lib, ular mantiqan zarur bo'ladi, sintetik gaplar esa - empirik gaplar bo'lib, ular mantiqan olganda zarur bo'lmaydi. Shunga muvofiq barcha fanlarni eksperimental (fizika, kimyo, psixologiya, tarix, sotsiologiya) xamda noeksperimental (mantiq va matematika) fanlarga ajratish mumkin. Falsafaning gaplari analistik gaplar ham emas, va sintetik gaplar xam emas, ular ularning fikricha ma'nosizdir. Aytaylik, men quyidagi falsafiy bir gapni qarab chiqayotgan bo'lay: «Materiya birlamchi, ong ikkilamchidir». Materiya tushunchasidan ongni chiqarib tashlab bo'lmaydi, shuning uchun bizning gapimiz analistik gap hisoblanmaydi. Ayni bir vaqtida men eksperimental tarzda materiya bilan ishlay olmayman, binobarin bizning gapimizni empirik tarzda tekshirib bo'lmaydi, ya'ni u sintetik gap hisoblanadi. Shunday qilib, qarab chiqilayotgan falsafiy gap ma'nosiz gap bo'lib chiqadi.

Neopozitivistlarning tanqidchilari, ayniqsa, amerikalik faylasuf Kuayn, ularning analistik va sintetik gaplarni bir - biridan ajratilishini absolyutlashtirishda ayblaydi. Xaqiqatda esa ularning bir - biri bilan o'zaro bog'liq ekanligini hisobga olish lozim. Buning ma'nosи shuki, eksperiment vaqtida umuman, nazariya, shu jumladan, analistik gaplarning haqqoniyligi tekshirib chiqiladi, ularni ham xuddi falsafiy gaplarni tekshirganday tekshirib chiqiladi: Agar falsafiy gaplar haqqiqatdan xam foydali bo'lsa, u holda ular haqiqiy, ya'ni haqqiqatni ifodalagan gaplar hisoblanadi. Kuaynning tanqidini ko'pchilik neopozitivistlar tan olib, uni qo'llab-quvvatlaydilar. Biroq faylasuf Karnap unga qarshi e'tiroz bildirib, ko'p hollarda gaplarning analistik va sintetik gaplarga bo'linishi saqlanib qoladi, deb tasdiqlaydi. Masalan, sun'iy tillarni konstruktsiya qilish vaqtida faqat analistik gaplar bilan ishslash asosiy vazifa hisoblanadi.

**Verifikatsiyalash** (Xaqiqatni isbotlamoq). Verifikatsiya printsipiga binoan, sintetik gaplarning ilmiy jihatdan to'g'ri, haqiqiy gap ekanligi eksperiment orqali tasdiqlanadi. Vitgenshteyndan keyin neopozitivistlar uning elementar gaplar to'g'risidagi tasavvurlaridan foydalanadilar (ular bu gaplarni kuzatish gaplari, protokol gaplari deb atashgan), ularni bevosita faktlar orqali tekshirib ko'rishadi. Murakkab sintetik gap (ko'pincha bu matndir) soddalashtirilib elementar gaplarga aylantirilishi lozim, keyin esa ular faktlar bilan taqqoslanib ko'rildi. Aytaylik, men quyidagi gapning haqqoniy, to'g'ri gap ekanligiga ishonch hosil qilmoqchiman: «Ushbu gruppadagi barcha talabalarning bo'yłari 160 sm dan yuqori». Endi ushbu gap: «Talaba A ning bo'yı 160 sm dan ortiq», - degan tipdag'i elementar sodda gaplarga aylantiriladi.

Bir qarashda verifikatsiya printsipiga rioya etish sintetik gaplar bilan ishlanilayotganda haqiqiy bilimga erishish uchun kafolat berilayotganday bo'lib tuyuladi. Lekin neopozitivistlarning o'zlari tekshirib aniqlashlaricha,

verifikatsiyalashtirish tadbirlari orqali ishlanganda har doim ham maqsadga erishilavermaydi. Gap shundaki verifikatsiyalashtirish printsipining o'zini tekshirishning iloji yo'q. Sintetik gaplarning haqiqiyligini har qanday shu tipdagi gaplar haqiqat deb topilishi va shundayligi tekshirib chiqilganligini isbot qilib bo'lmaydi. Verifikatsiyalash printsipi faqat analitik gaplargagina tegishlidir deb ham bo'lmaydi, chunki ulardan farqli o'laroq ushbu printsip eksperiment bilan bog'liq, unga taalluqli bo'ladi. Undan chiqdi-verifikatsiyalashtirish talabi shu qadar aniq bo'ladiki, uni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkinday tuyuladi. Holbuki, neopozitivistlar fanni xuddi shunga o'xshagan gaplardan tozalashni istagan edilar. Verifikatsiyalashtirish printsipi neopozitivistlarni murakkab ahvolga solib qo'ydi. Agar hamma narsani ochiq ko'z bilan va bir xil usulda tekshirishning iloji bo'lganda edi, fan g'oyat qat'iy bir tadbirga aylanib qolgan bo'lur edi. Biroq , bunda barcha qoidalar maksimal darajada umumiy xarakterga ega bo'ladi, nazariy qonunlar shundayki, ularni verifikatsiyalashtirish mumkin emas. Bunday qaraganda o'lim go'yo barchaga barobardek bo'lib tuyuladi, lekin buni qanday qilib tekshirib bo'ladi? Xuddi shuningdek, gipotezalar ya'ni taxminiy bilimlarni ham verifikatsiyalash yo'li bilan tekshirish - ya'ni haqiqatni isbotlash mumkin emas. Bundan shunday xulosa chiqadiki, neopozitivistlar verifikatsiyalashtirish printsipiga haddan tashqari katta ahamiyat berib yuborishgan ekan.

Verifikatsiyalashtirish printsiplarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mohiyati bo'yicha u falsafiy printsip bo'lib, uni aslo bema'ni usul deb bo'lmaydi. Buning ma'nosi shundaki, neopozitivistlar falsafaga tanqidiy munosabatda bo'lganlarida haddan tashqari qattiqlik qilgan ekanlar.

**Etikadagi emotivizm.** Neopozitivistlar verifikatsiyaga tushmaydigan axloqqa oid gaplar, demakki, na haqiqiy, na soxta bo'lgan gaplardan iborat bo'ladi deb hisoblaganlar. Ularning ma'nosi axloqiy emotsiyalarni ifodalashdan iborat bo'lgan. («emotivizm» atamasi xam shundan kelib chiqqan). Britaniyalik neopozitivist A.Ayerning ta'kidlashicha axloq - bu bilish emas, balki his - tuyg'udir; uni ilmiy yo'l bilan asoslash mumkin emas. Ayni bir vaqtida neopozitivistlar axloqiy, siyosiy, estetik ko'rsatmalarni, aniq kishilar, ijtimoiy guruhlarning istaklari, his - tuyg'ularini o'rganish mumkinligini inkor etmaydilar. Bu ish bilan yana boshqalar qatorida sotsiologlar xam, psixologlar xam, tarixchilar xam shug'ullanadilar, chinakam, haqiqiy bilim ideallari gumanitar fanlardan begonadir, deb xisoblaydilar. Oradan yillar o'tgach, emotivistlar o'z pozitsiyalarini sezilarli darajada o'zgartiradilar, endi ularni axloqiy fikr - mulohazalar tabiiy fanlardagi gaplardan ko'ra ko'proq qiziqtira boshlaydi. Angliyalik olim R.Xear etika buyrug' (farmoyish) berishidan boshlanishini ko'rsatib beradi(«bunday qil», «buni qilma», «bu yaxshi, bu esa yomon»). Buyrug', farmoyishlar berib bo'lingach, mantiq qonunlari kuchga kiradi: qoidalarga amal qilgan holda, bir gapdan boshqa gaplarni keltirib chiqaraverish mumkin.

Shunday qilib, neopozitivizm yoki mantiqiy - mantiqiy pozitivizm ilmiy bilim ma'nosini sezilarli darajada aniqlab, tushuntirib berdi; ko'pgina yangi muammolarni, shu jumladan, falsafiy ma'nodagi muammolarni ham hayotga olib kirdi. Falsafiy bilimga kelganda shuni aytish kerakki, bu bilim postpozitivistlarning asarlarida ancha yuksak darajaga ko'tarildi.

### **Postpozitivizm.**

Postpozitivizm degani-bu neopozitivizm o'rniga kelgan juda ko'p kontseptsiyalarning umumiyligi nomidir. Turli xil postpozitivizm kontseptsiyalarining tarafdarlari ko'p sohalar bo'yicha bir-birlari bilan kelisha olmaydilar. Neopozitivizmning eskirib qolgan ta'riflarini tanqid qiladilar, lekin ularga nisbatan o'zlarining izchil munosabatlarini saqlab qoldilar. Xuddi neopozitivistlarga o'xshab, postpozitivistlar ham bilishning rotsional usullariga asosiy e'tiborni qaratadilar. Ingliz faylasufi Karl Popper eng mashhur postpozitivistlardan biri hisoblanadi.

Popper uchun verifikatsiya (tekshirish mumkinligi) kontseptsiyasining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ilmiy gaplarga nisbatan noto'g'ri fikrlarning bo'lgani tasodifiy emas. Verifikatsiyaning metodologiyasi ishonch - e'tiqodga asoslanadi. Unga ko'ra, bilim mutlaqo haqiqatdan yiroq bo'lishi mumkin. Bunday deb o'ylash xayoliy bir tasavvur. Ertami - kechmi eski nazariya o'rniga yangi nazariya keladi, shu vaqtgacha haqiqiy, to'g'ri deb kelinayotgan fikrlar endi noto'g'ri, adashish bo'lgan deb tan olinadi. Shuning uchun epistemologiya, ya'ni ilmiy bilish falsafasining vazifasi nazariyalar izlashda emas, balki bilimni rivojlantirish muammosini hal qilishdan iboratdir. Bilimni rivojlantirishga ratsional bahs - munozara yo'li bilan erishiladi. Bunda hech shubhasiz mavjud bo'lgan bilimlar tanqid ostiga olinadi. Shuning uchun Popper o'z falsafasini tanqidiy ratsionalizm deb atagan.

Xo'sh, unda ilmiy ixtiolar mantig'i qanday bo'ladi? Induktivistlar fikriga qarama - qarshi o'laroq , Popper, olimlar faktlardan nazariyalar tomon ko'tarila borib emas, balki gepotezalardan alohida aytilgan fikrlarga o'tish yo'li bilan ixtiro qiladilar, deb hisoblaydi. Bunda olimlar gipotetik-deduktiv usuldan foydalanadilar. Umumiyligi xarakterdagi gepotezalardan gap tuzadilar. Bu gaplar bevosita bayoniy gaplar bilan qiyoslab, taqqoslab chiqiladi. Agar nazariya bilan bayoniy gaplar nisbatan bir-biriga muvofiq kelsa olimlar ham kelishadilar, u holda nazariya vaqtincha tasdiqlangan deb hisoblangan. Hech bir nazariyani mutlaqo to'g'ri deb topish mumkin emasligi tufayli unga gipotetik xarakterdagi ta'rif beriladi, ya'ni ushbu nazariyani qonunlar emas, balki haqiqatga o'xshab ketadigan tasdiqlar hosil qiladi. Har qanday nazariya ham ishonchli emas, unda xatolar mavjud bo'lishi mumkin (follibilizm printsipiga ko'ra). Nazariyani mutlaqo to'g'ri deb tasdiqlash mumkin emas, lekin uni rad etish mumkin. Nazariyani sohtalashtirish tadbiri nazariya tajriba ma'lumotlariga zid kelib qolgan taqdirda o'tkaziladi, gohida birgina tajriba bo'yicha olingan faktga qarab nazariya sohtalashtiriladi.

Sohtalashtirilgan nazariya yangisi bilan almashtiriladi, keyinchalik bu nazariyaga ham ratsional tanqidning yangi - yangi zARBALARI yog'ila boshlaydi.

Ilmiy bilim o'sib borishini quyidagi sxema orqali ifoda etish mumkin:

$$R_1 \longrightarrow TT \longrightarrow EE \longrightarrow R_2$$

Bunda  $R_1$ -dastlabki muammo; TT-sinovchi nazariyalar; EE-xatolarning – ya'ni TT tarkibida mavjud bo'lgan xatolarning bartaraf etilishi;  $R_2$ -yangi muammo.

Har xil gipotetik-deduktiv strukturalar o'zlarining qay darajada yashovchan ekanliklari bilan bir - biridan farq qiladi. Organizmlar olamida muhitga ko'proq darajada moslashgan organizmlar tirik qoladi, fan olamida esa bir - biriga nisbatan eng ko'p darajada qarama - qarshi bo'limgan-ya'ni ziddiyatsiz kontseptsiyalar yashab qoladi.

Faqat shunday bir kontseptsiya ilmiy nazariya deb tan olinadiki, u albatta tajriba qilib olingan ma'lumotlarni bir - biri bilan solishtirib, qiyoslab ko'rish imkoniyatini bersin va, binobarin, uni istagan bir paytda falsifikatsiya qilish-ya'ni sohtalashtirish mumkin bo'lsin. Fandan farqli o'laroq , falsafani sohtalashtirish mumkin emas, ya'ni falsafa ilmiy xarakterga ega emas. Biroq , ilmiy kuchga ega bo'limgan falsafa shunday ma'noga egaki, usiz hech bir fan rivojlana olmaydi. Popper fan bilan falsafa demarkatsiyasi (ya'ni ularning chegarasini belgilab berish) muammosini shu tarzda hal etadi. Uning fikricha, bu erda falsafa ilmiy bilimlarni anglab etish vositasi sifatida maydonga chiqadi hamda, jumladan, ratsional -tanqidiy bahs-munozaralar, follibilizm, falsifikatsionizm printsiplari - tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Popper ilmiy bilimlar o'sib rivojlanib borishining ko'pgina nozik tomonlarini ifodalab berishga muvaffaq bo'lgan. Lekin u yaratgan kontseptsiya ham tanqidga uchraydi. Asosan, Popper ilmiy bilimlar o'sishini gipotezalar bilan kuzatish faktlari o'rtasidagi duelga o'xshatganligi uchun uni tanqid qiladilar. To'g'ri-da, axir gipoteza va kuzatish faktlaridan tashqari ijtimoiy va texnik olamlar, boshqa ko'pgina omillarning yig'indisi ham mavjud-ku! Ular ham ilmiy bilimlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, xuddi o'sha falsifikatsiya-soxtalashtirish printsiplini olib ko'raylik. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, olimlar ilmiy tanqid natijasida muayyan nazariyada bayon etilmagan kuzatish faktlarini aniqlagan vaqtlarida ham uning xizmatidan foydalanishni tO'xtatishga-uni batamom rad etishga aslo shoshilmay turadilar. Masalan, Nyuton mexanikasi buning misolidir. Bunda uning o'ziga qarshi chiqarilgan juda ko'p faktlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, hozirgi zamon olimlari undan keng miqyosda foydalanib kelmoqdalar. Xuddi shunga o'xshash, Popper tomonidan olg'a surilgan talablar ham normativ xarakterga egadir, bu esa o'sha talablarga har doim ham amal qilinavermaslik kerak, degan ma'noni anglatadi.

Endi o'z xususiy kontseptsiyalarini ishlab chiqqan boshqa bir qator postpozitivistlarning qarashlarini ko'rib chiqamiz. Ingliz olimi Imre Lakatos

o'zining ilmiy - tekshirish programmasi metodologiyasini olg'a surgan. Popper fikriga ko'ra, bir nazariya o'rniga boshqa nazariya keladi, eski nazariya batamom rad etiladi. Lakatos nazariyalarni bir - biri bilan qiyoslab ko'rish muhim ekanligini ta'kidlab o'tdi. Bunda u shunchaki nazariyalarning o'zini bir - biriga solishtirish bilan cheklanmay, hatto-tadqiqot programmalarini ham taqqoslab ko'rish muhim ekanligini aytib o'tdi. Har bir ilmiy-tadqiqot programmasi bir qancha nazariyadan tarkib topadi. Programmaning «mag'zi» mazkur programmaning bir nazariyasidan boshqa nazariyaga ko'chib o'taveradi, yordamchi gipotezalardan iborat bo'lgan himoya maydoni esa qisman buzilishi mumkin. Nyutonning ilmiy-tadqiqot programmasidagi «mag'zi» mexanikaning uch qonuni va tortilish qonuni hisoblanadi. Mana shu asosda turli sohalarga, masalan, astronomiyaga, nur to'g'risidagi ta'limotga va boshqa sohalarga taalluqli bo'lgan ko'plab nazariyalar rivojlantirilgan. Faqat mana shu «mag'zi» programmaning mag'zi parchalab tashlangandan keyingina eski ilmiy tekshirish programmasidan yangi dasturga o'tish zarur bo'lib qoladi. Yangi progressiv ilmiy tadqiqot programmasi o'zidan oldingi dasturga qaraganda ko'proq darajada empirik mazmunga ega bo'lmos'i kerak.

Lakatos nazariya bilan ilmiy tadqiqot programmasini solishtirib ko'rish zarurligini ta'kidlab O'tar ekan, bilimning rivojlanish jarayonidagi muhim jihatlari ajratib ko'rsata oladi. Bu erda muhimi-nazariya bilan ilmiy tadqiqot dasturlarini bir - biridan farq qilishidadir. Ta'limotlar xilma - xillagini o'zlashtirayotgan har bir kishi uchun u qanday ilmiy tadqiqot dasturi va uning nazariyasi doirasida ish olib borayotganligini anglab olish muhimdir. Bunday anglab olish nazariya bilan programmalarini bir - biriga solishtirib, taqqoslab chiqishni taqazo etadi. Agar tadqiqotchi yoki talaba faqat birgina ilmiy tadqiqot programmasiga ega bo'lsa yohud, yana ham yomoni, faqat birgina nazariyani bilsa, bunda ushbu dastur yoki nazariyani beixtiyor mutlaq haqiqat deb qabul qiladi (axir uni boshqacha qiyoslaydigan hech narsa yo'q-da!). Buning ma'nosi, o'sha sub'ekt o'zining ilmiy statusi, ya'ni haqiqiy vazifasini anglab etmaganligida. U olib borayotgan birgina ilmiy tadqiqot programmasi atrofida qattiq o'ralashib qoladi hamda boshqa programmalarning afzalligini anglab etmaydi va tushunolmaydi.

Postpozitivistlar e'tiborni haqli ravishda ilmiy bilimni rivojlantrish tarixini puxta o'rganish zarurligiga qaratganlar. Fan tarixini o'rganmay turib uning o'zini o'rgana boshlashi - bu bir yoqlama bilimga olib keladi, dogmatizim uchun sharoit yaratib qo'yadi.

Shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, bizning o'quv qo'llanmamizda ana shunday vaziyatlarni hisobga olish zarurligiga harakat qilinadi. Siz, bizning aziz o'quvchimiz, falsafiy programmalarining asosiy muammolari bilan tanishib chiqasiz. Bizning fikrimizcha, mana shu asosiy falsafiy dasturlarning birortasini ham mutlaq mukammal dastur darajasiga ko'tarib bo'lmaydi. Keling, yaxshisi yana postpozitivistlarning qarashlariga qaytaylik.

Amerika faylasufi Pol Feyerabend kumulyativizmni tanqid qildi, kumulyativizmga muvofiq, bilimining rivojlanishi bilimlarni asta-sekin izchillik bilan to'plab borish natijasida sodir bo'ladi. Feyrabend nazariyalarning hech qanday o'lchovga tushmasligi to'g'risidagi tezisni qattiq himoya qilgan olim. Nazariyalar deduktiv tarzda bir - biri bilan bog'liq bo'lmaydi, ular uchun turli tezislar va tushunchalar xarakterli xususiyat bo'ladi. Feyerabend fikriga qaraganda plyuralizm nafaqat siyosatda, hatto fanda ham hukmon bo'lishi zarur. Juda ko'p bir - biriga teng bo'lgan bilim tiplari mavjud. Universal bilimni olish usulining imkoniyatlari Feyerabend tomonidan rad etiladi. Ba'zan, hatto shunday bir ma'nodagi - ya'ni usullar ma'qul, hammasidan ham foydalansa bo'ladi, degan ma'nodagi so'zlarni ham aytgan, ya'ni basharti olimlar jamoasi tomonidan qabul qilingan har qanday nazariyani qabul qilish va undan foydalanish mumkin, deydi u. Ratsionallikning mezonlari absolyut - mutlaq emas, balki ular nisbiydir. Hamma erda va har doim maqbul kelaveradigan ratsionallik mezonlari yo'q. Anarxizm haddan tashqari jozibador siyosiy doktrina bo'la olmaydi deb hisoblaydi Feyerabend. Lekin u bilish falsafasi va fan uchun, o'zini bitta universal usul bilan cheklab qo'yishga moyil bo'lgan kishilar uchun ajoyib vosita bo'lib hizmat qiladi. Basharti ilmiylikning qat'iy mezonlari yo'q ekan, u holda ilmiy faktlarni ilmiy bo'limgan faktlar bilan aloqasi mavjud deb o'ylash tabiiy bo'ladi, chunki ular fanga o'z ta'sirini o'tkazadi hamda mustaqil qadriyat xususiyatiga ega bo'ladi. Fan, falsafa, din va hatto magiya ham - hammasi o'z joyida kerak, hammasi ham mustaqil qadriyat xususiyatiga egadir.

Feyerabendning xizmati shundaki, u mumtoz fan ideallar bo'lgan barqaror xususiyatlarni bartaraf qilish, ularni rad etishni qat'ian talab qilib chiqqan. Fan-bu nazariyalarning ko'payish jarayonlaridan iborat bo'lib, bu erda yagona bir yo'l yo'q. Biroq shunday bir tasavvur paydo bo'ladiki, go'yo Feyerabend fanni rivojlantirishning barqaror tendentsiyalariga etarli darajada e'tibor bermagan. Axir bunday tendentsiyalar ham mavjud-ku!

Amerika faylasufi **Tomas Kunn** ham xuddi Feyerabend singari fan taraqqiyotini popperial sxemasida olib borilishiga tanqidiy nazar bilan qaragan. Uning asosiy fikri shundan iboratki, ilmiy bilimlarni rivojlantirishda ilmiy hamjamiyatlar faoliyati alohida rol o'ynaydi. Bu erda mantiq, metodologiya emas, balki paradigma normalari belgilovchi ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni ilmiy uyushmalar qabul qilgan, hamda ilmiy an'analarni davom ettirgan e'tiqodlar, qadriyatlar, texnika vositalari katta ahamiyat kasb etadi. o'z mazmuniga ko'ra paradigma nazariyadan hamda ilmiy -tekshirish dasturlaridan ham kengroq dir. Basharti u yoki paradigma xech so'zsiz asosiy o'rinni egallab turgan bo'lsa, u holda normal fan davri muqarrardir. Paradigmaning buzilib ketishi fanda revolyutsiyaga - ilmiy inqilobga olib keladi. Har bir paradigma ratsionallik masalasida o'z mezonlariga ega bo'ladi, bu mezonlar universal hisoblanmaydi. Paradigmalar bir - biri bilan qiyoslanmaydi, ular o'rtasida biroz bo'lsa ham bevosita izchillik mavjud emas. Yangi paradigma eskisini inkor etadi. Ko'pchilik olimlar Kun paradigmalarni o'lchab bo'lmasligi to'g'risidagi o'z kontseptsiyasida

ilmiy bilimlarning izchilligiga etarli baho bermaydi deb hisoblaydilar. Kun fanning ilmiy jamoalar faoliyati natijasi ekanligini ta'kidlar ekan, fanda sotsial va psixologik holatlarning alohida ahamiyat kasb etishiga haqli ravishda e'tiborni qaratadi.

### **Vitgenshteynning lingvistik filosofiyasi**

Lyudvig Vitgenshteyn – Avstriyalik faylasuf, u Kembridj universitetida ko'p yillar mobaynida O'qituvchilik qilgan. Uni ko'pincha G'arb davlatlarida XX asrning eng mashhur faylasufi deb ataydilar. Garchi bu gaplarda mubolag'a elementlari bo'lsa ham, lekin shunday deyish uchun asos borligi hech shubhasizdir.

Til asosiy tahlil predmeti bo'lib qolgan vaqtarda Vitgenshteyn olib borgan tadqiqotlar xech shubhasiz falsafiy izlanishlarning markazida bo'lган. XX asr falsafasi uchun xarakterli bo'lган lingvistik burilish ko'p jihatdan tilning analitik falsafasi tufayli amalga oshirilgan, ushbu falsafa esa Vitgenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan edi.

O'z ijodining dastlabki davrlarida Vitgenshteyn yuqorida qarab chiqilgan «Mantiqiy-falsafiy traktat» nomli kitobini yozgan edi. Ushbu kitobni mantiqiy pozitivizm, ya'ni neopozitivizm bo'yicha qo'llanma sifatida foydalanish ham mumkin bo'lган. o'z ijodining so'nggi davrida Vitgenshteyn o'z qarashlariga sezilarli darajada muhim o'zgarishlar kiritadi. Faylasuf vafotidan keyin, 1953 yilda birinchi marta bosilib chiqqan «Falsafiy tadqiqotlar» nomli kitobida tilning analiziga yangicha yondashuvlarning bayon etilganini ko'ramiz. Aynan mana shu yondashuv hozirgi zamon faylasuflarining ko'pchiligi uchun yangilik bo'lib o'z tarafdarlarini topdi. Hozir ham u ko'pchilik ingliz universitetlarida o'qitiladigan falsafa kursining markazida turadi hamda bundan keyingi olib borilayotgan ilmiy ishlarning predmeti hisoblanmoqda.

Vitgenshteynning «Falsafiy tadqiqotlar» nomli asarida tilni «an'anaviy» tushunilishi g'oyat qattiq tanqid qilinadi, uning «Mantiqiy-falsafiy traktati»da ham shu haqida mufassal tO'xtab o'tiladi. Tilning eng sodda kontseptsiyasi nom (so'z)ning ahamiyatini muayyan ma'noda tushunish asosiga qurilgandir. So'z qaysi ob'ektga qaratilgan bo'lsa, o'sha ob'ekt so'zga muvofiq keladi, deb hisoblanadi. So'zlardan gap tuziladi, ularning yig'indisi esa tilni hosil qiladi, deb hisoblaydilar. So'zlar va gaplar nimanidir anglatadi. Biz «ushbu stol», «mening qo'lim», «Er planetasi o'z o'qi atrofida aylanadi», «Elektron mavjud» degan vaqtimizda har safar so'z yoki gapning ma'nosi orqali ba'zi bir ob'ektlar yoki ularda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ma'lumot beramiz. Tasavvurning boyib borishi to'la ravishda qat'iy bo'lib tuyuladi-bu erda nimani ham «talashish» mumkin? Lekin keyinchalik Vitgenshteyn bunday qarashlarni keskin tanqid qiladi.

Gap shundaki, nom bilan uning ma'nosi o'rtasida muvofiqlikning mavjudligi aniq hisoblanmaydi. Vitgenshteyn fikriga ko'ra, so'zlarining ma'nosi ularning qo'llanishi orqali belgilanadi. So'zning ahamiyati-uning qo'llanilishidadir, biroq aslo uning ma'no anglatishida emas. Aytaylik, so'z

haqiqatdan ham ma'no ifodalaydi, deb o'ylab ko'raylik, bunday vaqtida biz tezda ziddiyatlarga duch kelamiz. So'zni bolalar va kattalar tomonidan qo'llanilishi, uning olim bo'lmanan kishi va olimlar tomonidan qanday qo'llanishini bir-biriga solishtirgan zahotingiz, darhol muayyan nomuvofiqlik aniqlanadi. Odamning qo'li nima? Elektron nima? Bu xildagi savollarga har xil javoblar olasiz. Hamon shunday bo'lgach, qandaydir barqaror, hammaga ma'lum birorta ma'noni anglatadigan so'zning o'zi bo'lmas ekan-da? degan xulosa chiqib qoladi. Sizga so'z ob'ektni anglatadi deb isbotlay boshlasalar, o'sha zahoti ob'ekt so'z bo'lmasa ham ma'lumkU deb isbotlashga o'tadilar, lekin aslida shunday emas - kU o'sha ob'ekt bo'lmasa, uni ifodalagan so'z ham bo'lmaydi-ku.

Odamlar so'zdan foydalanishadi, bunda ular so'z orqali o'zlar haq ekanliklariga bir - birini ishontirishadi, bir - biriga ishonadilar. So'zdan foydalanganda ba'zi bir qoidalarga amal qiladilar. Bu qoidalalar grammatika qoidalari yoki hatto mantiq qoidalari ham to'g'ri kelmaydi. Bu erda boshqa qoida-hayot qoidalari to'g'risida gap boradi. Til-bu turmush shaklidir. Hayot tilda o'z mohiyatini ko'radi. Til yana o'yin faoliyatining bir shaklidir. Aniq til o'yini oqibatini oldindan aytib bo'lmaydi. Muayyan bir hodisani bayon etish uchun foydalilanidigan til o'yinlaridagi so'zlar hammaga taalluqli emas - ular to'la umumiylikka ham ega bo'lmaydi. Ularda faqat «oilaviy» o'xshashlikkina mavjud bo'lib, ular bir oiladagi aka - ukalar va opa - singillar singari bir -biriga o'xshab ketadi, bundan ortiq bo'lmaydi. Buning ma'nosi shuki, Vitgenshteyn umumiy tushunchalar realligini rad etadi. Shunday qilib, til-bu faoliyatdir, hayotiy o'yin shaklidir. o'yin qoidalari avval boshdan berib qo'yilmagan bo'lib, ular odamlar jamoasida shakllanadi. So'zlarning ahamiyati hayot jarayonida, til o'yini davomida tuziladi. Til o'yini jarayonida e'tiqod, ishonch, sadoqat singari qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Biz bunda alohida olingan gaplar emas, balki gaplar tizimiga ishonamiz. Faqat asta - sekin, izchillik bilan hayot - turmush deb ataladigan yaxlit bir tushuncha ifoda etiladi, bu ifoda so'z o'yinlari orqali amalga oshiriladi.

Hayot, til, e'tiqod-bular bari insonga xos asosiy qadriyatlar bo'lib, ular azalazaldan beri mavjud, ularni hech bir boshqa narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Odamlar fan qonuni deb ataydigan gaplar ham boyaga aytilgan til o'yini, tafakkur mahsulidan o'zga narsa emas. Agar matematika matematik hisoblashlar qoidasi bilan ish olib borsa, falsafa til o'yinlariga amal qiladi. o'yin qoidasini bilmaydigan kishi xato qiladi. Hayotda muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi. Falsafiy faoliyat go'yo til shaklida bayonni tahlil etuvchi sifatida maydonga chiqadi. Falsafa so'zni ishlatish usullarini aniqlab berishi, ya'ni unga aniqlik, tiniqlikni qaytarishi, tildan turli xil bema'ni keraksiz so'zlarni olib tashlashi lozim. Tabiiy til falsafiy analizning haqiqiy predmeti hisoblanadi. Bunday tabiiy til o'z mazmuniga ko'ra mantiq va matematika tili singari «takomillashgan» tillardan ancha ustun turadi. Bu erda «takomillashgan» degan so'zning qo'shtirnoq ichiga olib qo'yilishining sababi Vitgenshteyn mantiq va matematika fanlarini

mensimasligida emas. Aslo unday emas. Vitgenshteyn mantiq - matematika va texnika fanlarining nozik jihatlarini juda yaxshi tushungan olim bo'lgan. Lekin baribir, mantiq va matematika tillarining takomillashib ketganiga ortiqcha baho bermaslik kerak. Mantiq va matematika tili-bu asosan olimlar tomonidan tuzib chiqilgan ba'zi bir o'yin qoidalardan iboratdir. Mantiq va matematika qoidalari o'zgartirilishi mumkin, bunday hodisa vaqtiga bilan sodir bo'lib turadi.

Vitgenshteyn falsafiy fikrlashning yangicha usulini taklif etadi. Bu usul ko'p yillar mobaynida g'arb falsafasi xarakterini belgilab kelgan. Til amaliyotini (bu orqali esa qator falsafiy muammolarni ham) puxta tahlil etilishi, ilmiy gaplar bilan kundalik turmushdagi gaplarning bir - biriga yaqinligini aniqlash, til o'yinlarining konstruktiv ijodiy xarakterda bo'lishini ta'kidlab o'tish, til bilan reallik, sub'ekt va ob'ekt nisbatlari to'g'risidagi qotib qolgan-dogmatik tasavvurlarni tanqid qilish-bularning hammasi Vitgenshteyn til falsafasida bayon etib berilgan.

Shu bilan birga Vitgenshteynni tanqid qilishgan va hozir ham tanqid qilishadi. Uni til praktikasiga nisbatan butun inson hayotiy sferasi sohasidagi ma'lumotlari noto'g'rilingida, ob'ektiv reallik to'g'risidagi biz bilgan bilimlarni inkor etishda va binobarin, agnostitsizm pozitsiyasiga toyib ketishda, sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi aloqalarni mensimaslikda ayblaydilar.

## TEOSOFIYA

E. P. Blavetskaya (1831-1891) Tibet va Hindiston bo'y lab ko'p sayru - sayohatlarga chiqqan rus yozuvchisi va mutafakkiridir. U hind falsafasining ta'siri ostida 1875 yilda Nyu-Yorkda teosofiya jamiyatiga asos soladi.

1875-1891 yillarda yozilgan ko'pgina kitob va maqolalar Blavatskaya ma'naviyatga, fikrni har qanday tashqi ta'sirlar zulmidan ozod qilishga, keng ma'noda sabr-tog'atli bo'lishga, kishilar va xalqlar o'rtasida birodarlikni qaror toptirishga da'vat etgan. U inson tabiatidagi ilohiylikni va osmondag'i ulug' Zot bilan Muloqotga kirishish imkoniyatlari mavjudligini g'oyat zo'r ko'tarinkilik bilan ta'kidlagan.

E. Blavatskayaning asosiy asari «Sirli doktrina» (t. 1-2, 1888) deb ataladi. Unda barcha zamonlar va xalqlarning ilmiy falsafiy va diniy tafakkurini tahlil etishga harakat qilingan. Kitob 1937 yilda Riga shaxrida birinchi marta rus tilida bosilib chiqdi. Blavatskayaning o'zi o'z teosofiyasi ma'nosini quyidagicha ifoda etgan: birlikka etaklovchi barcha narsalar-yaxshilikdir; ajralishiga olib boradigan hamma narsa-yomonlikdir.

E. Blavatskaya yaratgan ushbu asosiy asarning eng muhim mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Haqiqat bir xalq yoki qandaydir biror ta'limot, birorta din erishgan, qo'lga kiritgan narsa emas. «SirliDoktrina» bu o'sha sanab o'tilgan narsalar barchasining mohiyatidan iborat bo'lib, u barcha dinlarning tashqi tomonidagi qobiqini olib tashlab, ularning barchasini bir-biri bilan yarashtiradi, .... har qanday buyuk o'zga din negizi boshqa dinlar asosi bilan bir xil, bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatib beradi.. Blavatskaya barcha diniy ramzlardagi tub (ezoterik) mohiyat -

mazmun bir xil ekanligini ochib berishi orqali turli dinlarni bir-biri bilan birlashtirishga harakat qilgan.

2. Blavatskaya o'z ta'limotini teosofiya deb atagan. Bu bilan u o'z asarini ma'lum dinlardan ajratib ko'rsatgan. «Bizdan bu teosofiya yangi bir din emasmi? - deb so'rashadi, deya yozadi u. Yo'q, xech qachon, mutlaqo unday emas, bu-din emas, xuddi shuningdek, uning falsafasi ham yangi emas... fikr yurituvchi odamning o'zi singari ushbu ta'limot ham ko'xnadir». Buning ustiga Blavatskaya insoniyat tarixida umuman «Yangi ta'limot, biror xalqning din asoschilari bo'lman, yangi din yoxud yangi xaqiqat ixtirochisi ham bo'lamagan, deb hisoblaydi. Ixtirochi deb tasavvur qilingan barcha kishilar ilgari ma'lum bo'lgan gaplarni bizga etkazib beruvchilar\_(Adeptlar), vositachilar bo'lishgan. Ular haqiqiy ustozlar emas, balki yangi shakl va ta'riflarning mualliflari bo'lishgan, xolos. Ular yaratgan ta'limotlar asosida yotgan xaqiqatlar esa bashariyatning o'zi singari ko'xna bo'lgan»

3. «Sirli Doktrina» Dzian Stantsalarga, ya'ni Blavatskaya tomonidan bиринчи мarta chop etilgan Vedalardan oldingi, qadimgi kitoblarga asoslangan. Blavatskayaning fikriga muvofiq, Stantsalar-«bu kosmik evolyutsiyaning mavhum, algebraik formulasidir», undagi etti Stantsiya esa-«ushbu mavhum formulaning etti termini-atamasidir, ular evolyutsion jarayonning etti buyuk bosqichini bayon etib beradi» (ular to'g'risidagi ma'lumotlarni «Puranalar»da ham, Bibliyadagi «Yaratilish kunlari» to'g'risidagi sahifalarda ham uchratish mumkin).

4. Blavatskayaning dunyoqarashi Kosmogenez va antropogenezning ko'xna, qadimgi g'oyalarini tahlil etish asosiga qurilgan. Ularda Sharq monastirlari va butxona-ibodatxonalarining ko'xna - qadimgi matnlardan foydalanilgan. Ushbu matn (stantsa)larning ko'pchiligi allaqachon iste'moldan chiqib ketgan va faqat «maxsus» mashhur kishilargina o'qiy oladigan hamda ular orqali bizlarga etkazilgan, allaqachon yo'qolib ketgan qadimgi tilda yozilgan. Stantsalarning Veda, Puran, Upanishad, Vaviloniyaning «Raqamlar kitobi», Bibliya va boshqa kitoblardagi qadimgi hind matnlari bilan ko'pgina umumiyl, mushtarak jihatlari mavjud. E.P. Blavatskayaning fikri bo'yicha, qadimgi kitoblardagi ko'pchilik matnlarda hamma bilishi shart bo'lman sirli gaplar-tabiat sirlari yashiringan. Aks holda ushbu sir - sinoatlarni bilib olib, ulardan oqilona foydalana bilmaslik natijasida butun bashariyat uchun xavfli bo'lgan g'oyat katta falokatlar yuz berishi mumkin. Shuning uchun ushbu qadimgi matnlar ramz timsollar orqali yashirib - shifrlab qo'yilgan, ularni ochadigan kalitlar nihoyatda ehtiyyot qilib saqlangan. Blavatskaya, qadimgi ramziy timsollarning ko'pchiligi to hozirgi kunlargacha ham bizlarga tushunarli emas deb hisoblaydi.

Qadimgi kitoblar metafizikasiga ko'ra, borliqning asosi Buyuk Uchlik: ya'ni uch katta omil hisoblanadi: absolyut, ya'ni mutlaq omil (Parabraman) ayni bir vaqtida Materiya va ong ma'nosini ham anglatadi. «Triada, ya'ni uchlik ildiz bo'lib, undan boshqa barcha narsalar kelib chiqadi, Buyuk Nafas endi Kosmik-fazoviy xarakter kasb etadi va u fikrga asos-negiz bo'ladi». Kosmik omil-Ildiz-

Substantsiya (Mulaprakripi) ayni bir vaqtda Tabiat ob'ektiv rejalarining asosida yotgan Absolyut, ya'ni Mutlaq aspekt hisoblanadi. «Kosmik Fikr-negiz-bu har qanday individual Ongning ildizidir... Kosmik, ya'ni fazoviy Substantsiya-bu Materiya differentsiatsiyasining turli bosqichlaridagi substrat hisoblanadi». Ushbu Absolyutning har ikkala aspekti ham zarur. Ong materiyaning faqat shu o'tkazgichi (upadxi) orqaligina namoyon bo'ladi; ya'ni unga jismoniy asos-negiz zarur bo'ladi. Ikkinchi tomondan olganda Kosmik Fikr-asos bo'lmasa, Kosmik Substantsiya hech bir ma'nosiz bir omil bo'lib g'olib ketgan bo'lur edi.

Olamning-Koinotning paydo bo'lishi va yo'q bo'lib ketishi Blavatskaya tomonidan qadimgi matnlar asosida ifodalanib, ular «Buyuk kuf - suf» yoki «Illohiy nafas» orqali «Nafas chiqarish» hamda «Nafas olish» tarzida ifoda etiladi. «Xudo nafasidan chiqqan fikr Kosmosga aylanadi». Dzian Kitobida bunday deyilgan: «Dunyolarning paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi bamisol suvning ko'tarilishi va pasayishi (qaytishi)ga o'xshaydi». Qadimgi - ko'xna matnlarda obruzli, ramziy shaklda buni Olamlar paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi mumkin, deb berilgan. Hozirgi vaqtda olimlar ushbu muammo bilan shug'ullanmoqdalar. Lekin, ma'lum bo'lishicha qadimgi zamonlarda ham odamlar ushbu masalalar - Kosmos muammolari bilan shug'ullanib, bu xususda erkin fikr yuritganlar, biroq o'sha bilimlarning ko'p qismi yo'qolib ketgan.

Moddalarning atomistik tuzilishi to'g'risidagi qadimgi dunyo kishilarining qarashlari diqqatga sazovor. Moddalar mayda zarralardan iborat bo'lishi ularga allaqachon ma'lum bo'lган. Masalan, biz hozir qo'llaydigan Parabraman tushunchasi qadimgi hindlarda-mayda zarrachalar va ayni bir vaqtda butun Koinot degan ma'noni anglatgan. Ko'xna matnga ko'ra, Brama tarqalib borib, oxiri Koinotga aylanadi; - qadimgi hindalar shunday deb hisoblashgan. Bu tushuncha qadimgi xaldeylarda ham mavjud. Buni Blavatskaya quyidagicha sharhlaydi: ularning xudosi-Anu. «Anu» degani-bu sanskrit tilida-«atom» degani. Annyamsam-eng kichik narsalarning mayda zarralari. Vedantlarning falsafasida Prabraman xuddi eng kichik atomlarning eng mayda zarralari hamda katta sferalarning hammasidan ham ulkani yoxud Koinot tarzida bayon etilgan.

5. Blavatskayaning fikricha, qadimgi matnlarni o'rganish bizni bashorat qilishga o'rgatadi. Chunonchi, Blavatskaya shunday ma'lumotlarni misol qilib keltiradiki, ularda quyosh tizimidagi planetalarning vujudga kelishi va ularning harakati ramziy shaklda bayon etiladi... Ularda etti sayyora ko'rsatilgan bo'lib, bu ularning - qadimgi kishilarning ettinchi sayyorani (garchi uni Uran deb atagan bo'lsalar ham) bilganliklaridan guvohlik beradi. Ular sayyoralarni harakatga keltirib turadigan va ularning yo'nalishini belgilab beradigan kuch - energiya to'g'risida ham bilganlar. Ushbu energiyani ular Fohat deb atashgan.

Fohat energiyasi to'g'risda stantsalardan birida bunday deb yozilgan: fohat o'z ishini boshlar ekan, dastlab eng quiy shohlik uchqunlarini ajratib chiqaradi hamda ulardan g'ildirak qismlarini hosil qiladi; «g'ildiraklar» kosmik energiya hosil bo'ladigan kuchning markaziy bo'ladi... Ezoterik dogmalardan birida aytilishicha, har bir atom tarkibida jimirlab harakat boshlagan kuch bora - bora

aylanma harakatga o'tadi. Ilohiy kuch uni uyurmali shamol-shiddatli Bo'ronga aylantiradi. Bo'ron spiral shaklidagi harakatni vujudga keltiradi. Haqiqatdan ham, juda qadim zamonlardan beri Koinot ramziy tarzda spiral, ya'ni dovul harakatini ifodalab kelingan. Ushbu ramziy ifoda juda qadim zamonlardan boshlab to bizning kunlarimizgacha etib kelgan.

Dastlabki materianing spiralsimon harakat qilish qonunini, Blavatskayaning yozilishicha, faqat qadimgi hindlargina emas, balki yunonlar ham bilishgan. Olimning fikricha, yunon faylasuflari Misteriyada eng dono olimlar bo'lган. Ular bu bilimni misrliklardan o'rganishgan, misrliklar esa xaldeylardan o'rganishgan.

Xaldeylar ezoteriya maktabi braminlarining shogirdalari bo'lismagan. Levkipp va Demokrit, atomlar bilan sferalarning aylanma harakati Olam yaralganidan beri mavjud, deb ta'lim bergenlar. Er o'z o'qi atrofida aylanishi to'g'risidagi doktrina Pifagorning barcha shogirdlari (shu jumladan, - Geraklit) tomonidan meloddan ilgari besh asrdan ko'proq vaqt mobaynida o'qitib kelingan.

Blavatskayaning ta'kidlashicha, Arximed (bizning eramizdan uch asr ilgari) ernen ayylanish vaqtini xuddi hozirgi zamon astronomlari singari aniqlik bilan hisoblab chiqqan. Dastlabki ayylanish xalqalari nazariyasi Anaksagorga eramizdan 500 yil ilgari ma'lum bo'lган.

Blavatskaya qadimgi matnlar asosida kelajakda ochilishi mumkin bo'lган ko'pgina ixtiolar to'g'risida yozib, hammani hayron qoldirdi (atom energiyasiga o'xshab ketadigan fazoviy kuch ta'siriga asoslangan dahshatli qurol to'g'risida; yomg'ir yog'diradigan, bo'ron boshlaydigan, dushmanni parokanda qiladigan hamda uni chuqur uyquga chO'mdiradigan qurol va boshqalar to'g'risidagi fikrlari shular jumlasidandir.) Olima o'zining ushbu «noqulay fikrlari» o'z asrida (XIX asrda) qabul qilinmasligini, faqat XX asr olimlarigina «Sirli Doktrina» to'qib chiqarilgan gaplar emasligini tushunadilar, deb yozgan edi. Bu gaplar taxmin emas, deb ta'kidlab o'tgan edi U balki bilimga asoslangan faktlarni ta'kidlab o'tilgan edi, xolos.

E.P. Blavatskaya va amerikalik polkovnik G.Olkott tomonidan 1875 yilda Nyu-Yorkda tashkil etilgan teosofiya jamiyatining faoliyati keyinchalik Evropa va Amerikaning ko'pgina mamlakatlariga tarqalib ketdi. 1879 yilda jamiyatning markaziy Hindistonga ko'chirilgan. Olkott vafoti (1907)dan keyin A.Bezant jamiyatning prezidenti bo'ladi. Keyinchalik teosofiya jamiyatni parchalanib ketadi va undan R. Shtayner boshliq antroposofiya ajralib chiqadi.

## R.Shtayner antroposofiyasi.

Antroposofiya (yunoncha antropos-odam va sofiya-donolik, degan so'zlardan olingan) bu «maxfiy» ruhiy-ma'naviy kuchlar egasi bo'lган inson to'g'risidagi madaniy ilohiy ta'limotdir. Ushbu ta'limot okkultizm, ya'ni duixonlik, azayimxonlik, issiq-sovuq, afsun kabi hurofotlarga ishontiruvchi mistik ta'limot bo'lib, u nemis mistik olimi Rudolf Shtayner nomi bilan bevosita bog'liqdir; chunki u XX asr boshlarida ushbu ta'limotni rivojlantirgan. Mazkur ta'limot teosofiyadan ajralib chiqqan bo'lib, Shtayner uni «eksperimental» fanga

aylantirishni hohlagan edi. Ushbu fanning maqsadi alohida mashqlar (musiqa mashg'ulotlari, meditatsiya tadbirlari va hokazolar) yordamida odamning yashirinib yotgan qobiliyatlarini ochib berishdan iborat bo'lgan.

Shtayner antroposofiyasi bir nechta bo'limlardan iborat bo'lган. Platon g'oyalariga asoslangan ijtimoiy - siyosiy ta'limot, xo'jalik yuritishning alohida tizimi to'g'risidagi ta'limot shular jumlasidandir. Ushbu ta'limotga ko'ra ruhsiz mexanizatsiya davri barham topib, uning o'rniga o'simliklarning bioritmlarini tadbiq etish asosida «yangicha dehqonchilik» barpo etiladi va hakozo.

Antroposofik jamiyatga Shtayner tomonidan 1913 yilda Shveytsariyada asos solingen edi. XX asrning dastlabki choragida Shtayner ta'limoti Evropaning bir qator mamlakatlarda keng miqyosda tarqaldi.

Shtayner (1861-1925) Gyotening tabiat falsafasi to'g'risidan ta'limotining izdoshlaridan bo'lgan (uning tabiiy-ilmiy asarlariga muharrirlik qilgan va ularni sharhlab maqolalar yozgan), shuningdek, Ch.Darvin va nihoyat, F.Nitsshening hayot falsafasi ta'sirida bo'lgan. R.Shtaynerning asosiy asarlari-«Teosofiya: Dunyoni tuyg'udan tashqari bilishga kirish va bunda insonning o'rni», «Sirli bilimga kirish ocherki», «Qadimiylik va xristianlik misteriyasi» va boshqalardan iborat. Ushbu asarlar XX asrning boshlarida yozilgan bo'lib, ularda kosmologiya va bashariyat tarixi antroposofik nuqtai nazardan talqin etiladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, Shtayner intensiv ravishda lektsiyalar o'qish-ma'ruza qilish faoliyati bilan shug'ullangan hamda XX asrning boshlarida nafaqat Germaniyada, hatto Rossiyada ham hur fikrlilikning etakchi daholaridan biri bo'lgan. Uning lektsiya-ma'ruzalarini juda katta auditoriyalarda tinglashgan. Kitoblari esa ko'p tillarga tarjima qilingan. Shtayner Xristologiya bo'yicha lektsiyalar tsiklini o'qiydi. Insoniyat evolyutsiyasida Xristosning ahamiyatini tushunishdagi fikrlar 1913 yilda u bilan Teosofiya jamiyatining raxbariyati o'rtasida ziddiyat chiqishga olib keladi va natijada R.Shtayner o'z tarafдорлари bilan birga Teosofiya jamiyatini a'zoligidan chiqadi.

Shtaynerning falsafiy ta'limoti taqdiri totalitar davlatlarda ko'pgina gumanistik nazariyalar taqdiri singari ayanchli bo'ldi. Bugungi kunda uning kitoblarini ko'pgina mamlakatlarning hatto ilmiy kutubxonalari katalogidan topish mushkul. 1933 yilda Shtayner asarlari irg'chi natsistlar tomonidan Germaniyada ham taqiqlab qo'yiladi.

Shtayner faqat nazariyotchi emas, shu bilan birga amaliyot bilan shug'ullanuvchi olim edi. U yangi pedagogikaning asosiy qoidalarini ta'riflab bergen va birinchi Valdorf maktabiga asos solgan edi. 1921 yilda uning izdoshlari tomonidan Arlesxaymda Klinik Terapeutik institut ochilgan edi. Ularning faoliyati negizada inson mohiyatini tushunish yotar edi.

Hozirgi vaqtida R. Shtayner merosidan 350 tomdan ko'proq ilmiy asarlar chop etilgan. Ko'pgina mamlakatlarda kimyoviy o'g'itlardan foydalanishni inkor etadigan hamda tuproq ning tabiiy unumdarligini tiklashga yordam berishga qaratilgan xo'jalik yuritish tadbirlari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Ushbu mamlakatlarda antroposofik klinikalar hamda farmatsevtik fikrlar, davolash-

pedagogika muassasalari, evritmiya maktablari ochilmoqda va boshqa ko'pgina tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Endi Shtaynerning asosiy g'oyalariga murojaat qilamiz.

1. Faylasuf o'zini «tuyg'udan tashqari kuzatuvchi» deb atagan. U his-tuyg'ulardan tashqari bo'lgan olamni bilmay turib kishining bilimi to'liq bo'lishi mumkin emas, deb hisoblagan. Mana shu bilim tufayli individda ruhiy-ilohiy javhar topiladi hamda kishida «oliy tuyg'u» paydo bo'ladi. «Har bir kishining qalb ko'zi ochilishi mumkin va u qachon ochilishi faqat vaqtgagina bog'liqdir, xolos» deb yozadi olim.

Shtayner bilish chegaralarini kengaytirish tarafdori bo'lgan. Buning uchun har bir kishida to'la imkoniyatlar mavjuddir, biroq bundan avval u kishida «bilish-ya'ni bilim olish kuchlari rivojlanmog'i kerak».

2. Shtaynerning fikricha «oliy bilim olishga kishi «oliy ko'rish» yordamida, ya'ni insondagi ma'naviylikning muayyan darajasi orqali erishadi. Kishida «Ma'naviy iste'dod» bo'lishi lozim. Shtayner uni «ilohiy» bilim va tuyg'u «ilohiy donishmandlik», ya'ni teosofiya deb ataydi.

Xo'sh, bu qanday bilim? Birinchidan, bu inson mohiyatini bilishdir. Odam xuddi badan, yurak va ruh singari dunyo bilan uch yo'l orqali bog'langandir. Badani tufayli odam o'z atrofidagi narsalarni (masalan, O'tloqdagi gullarni) idrok etadi. Yurak odamga narsalarni (O'tloqdagi gullarni) o'zining shaxsiy turmushi bilan bog'lashga va undan bahra olishga yoki qonig'ish hosil qilmaslikka, quvonishga yoxud tashvish tortishga xizmat qiladi. Qalb insonni «xudoga yaqinlashtiradi», unga narsalarning ma'no-mag'zini ochadi. Badan odamni buyumlargacha esh qiladi; qalb insonga o'z shaxsiy olamini topish imkonini beradi; ruh esa odamga tashqi dunyonи ochadi hamda uning sirli ma'nosini tushunishga yordam beradi. Bunda ushbu tashqi dunyo odamga go'yo o'z sirlarini aytib, uni bu sirlardan voqif qila boshlaydi, «inson o'z nigohini yulduzli osmonga qaratadi: uning qalbi uzra kechayotgan his - hayajon uning o'ziga tegishlidir; lekin ko'kka qarab u ma'nosini anglab olgan, o'z fikri, ruhiga singdirib olgan yulduzlarning mangu amal qiladigan qonunlari unga emas, balki yulduzlarning o'zigagina taalluqli bo'ladi» deb yozadi olim.

Binobarin Shtayner ta'kidlab o'tgan birinchi fikr shuki, odam uch olam fuqarosidir: u o'z gavdasi-badan bilan his - tuyg'u organlari orqali idrok etiladigan olamga tegishli bo'ladi; o'z qalbi orqali u o'zining shaxsiy dunyosini yaratadi; uning ruhi orqali unga shunday bir olam ochiladiki, bu olam yuqoridagi har ikkala olamdan ham yuqori turadi.

Ikkinchidan, Shtaynerning fikriga ko'ra, ushbu bilim «ruh bilan taqdirning bir - biriga qo'shilib, qorishib ketishi» bo'ladi. Buni u shunday izohlaydi. Tashqi dunyodan olinadigan taassurot o'tkinchidir. Men gulni ko'rib turibman, u mening ro'paramda turibdi, men uni his etayapman. Idrok etish holati vujudga kelishi uchun tashqi dunyodagi predmetning mavjudligi zarur. Lekin men qalbimda gul to'g'risidagi haqiqatni bilib olganim hozirgi vaziyat bilan birga yo'qolib ketmaydi. Bunday xaqiqatning mavjud bo'lishi menga bog'liq bo'lmaydi. Bu xaqiqat men

o'sha gulni ko'rmasimdan oldin xam mavjud bo'lgan. Hozirgi holat bilan haqiqat orasida qalb yurak turadi, u go'yo bir daqiqalik xolat bilan abadiylik o'rtasidagi vositachiga o'xshaydi."

Shu fikrni davom ettiradigan bo'lsak, tana - badan o'z o'tmishdoshining, undagi qiyofaning takrorlanishidir. Xo'sh, odamning ruhi-chi? U ham, Shtaynerning fikriga ko'ra, muayyan qiyofadir. Hatto bir xil muhitda tarbiya olgan va shakllangan ikki kishining ruhiy qiyofasi bir xil bo'lmaydi. Binobarin, kishilar hayotga turli xil qiyofada keladilar. Ruhiy jihatdan olganda, har bir inson o'zicha, o'ziga xos bo'lgan alohida qiyofada tug'iladi.

Ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan irsiylik odamga xos bo'lgan xususiyatdir. Men ruhiy odam sifatida o'zim tug'ilishimga qadar mavjud bo'lgan bo'lishim kerak. Men o'zimdan oldin o'tib ketgan avlodlarim ichida mavjud emas edim, chunki ular ruhiy jihatdan mutlaqo boshqa odamlar bo'lishgan. Shundan xulosa chiqarib Shtayner aytadiki, hayotda insoniy ruh o'z-o'zining takrori, o'zining ilgarigi o'tmish hayotlaridagi ko'rgan kechirganlari mevasi bo'lishi o'z - o'zining takrori hisoblanadi, u «o'zlik ruhi» degan tushunchani iste'molga kiritadi. Hayot - bu boshqalar hayotining takrorlanishidir va u o'zlik ruhi o'zining o'tmishi hayotida o'zi uchun ishlab chiqqan narsalarning hammasini o'zi bilan birga olib keladi. «Hayotiy ruh» odam ruhini bir shaxs turmishidan boshqasining turmishiga o'tkazadi. Ruhning hayoti mana shu insoniy ruhning o'zi tomonidan yaratilgan taqdirning oqibati bo'lib, u qadimgi ta'limotlarda karma deb atalgan. Ruh boshqa shaklga kirish qonuniga bo'ysunadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan asarlardan tashqari Shtaynerning boshqa ilmiy ishlari ham g'oyat qiziqarlidir. Uning «Sirshunoslik ocherki» deb atalgan okkult fani va uning mazmuni to'g'risidagi «Qadimgi misteriyalar va xristianlik» deb atalgan Sharq va antik dunyo mistikasi hamda xristianlikni ommaning ongiga singdirgan va dindan o'z quroli sifatida foydalangan xristianlikning sirli mohiyati to'g'risidagi asarlari shular jumlasidandir.

Shtayner, xristianlik xaqiqatni ayrim kishilar emas, balki hamma tushunishi uchun ko'maklashgan, deb hisoblagan. Xristianlikda din-e'tiqod bilan yonma-yon turgan.

Shtaynerning mashhur bo'lib ketishiga u yaratgan yangicha fan-nostandard Falsafa sabab bo'ldi. Shtayner o'zi olib borgan tadqiqotlarning ilmiy xarakterini o'zining barcha asarlarida ta'kidlab o'tgan. O'z tili bilan aytganda, u «Yangi universal fan» ixtiro qilgan. O'ziga o'xshagan shu xildagi tadqiqot olib borayotgan olimlarni u «ruh sinovchilari» deb atagan.

Shtayner antroposofiyasidagi o'z mazmuniga ko'ra mistik-irratsionalistik kontseptsiya mana shulardan iborat. Ko'rinib turibdiki, E.P.Blavatskaya bilan Shtayner ko'p jihatdan bir - biriga o'xshab ketadigan kontseptsiyalar ishlab chiqishgan. Ushbu kontseptsiyalar ayrim jihatlari bilangina bir - biridan farq qiladi. E.Blavatskaya o'zining «Sirli doktrina» degan asarida g'oyat katta diniy - falsafiy ma'lumotni sintez qilib, g'oyat qiziqarli nazariy kontseptsiya yaratdi. Shtayner ushbu g'oyalarni davom ettirib, odam hayotida, uning faoliyatidagi turli

sohalarda mistik tajribalar o'tkazib yuqoridagi g'oyalarni amaliy hayotga tadbiq etishga harakat qildi.

3. Yuqorida keltirilganidek, XX asrning ijtimoiy hayoti qanchalik takrorlanmas voqeliklarga to'la bo'lgan bo'lsa, uning falsafasi esa undanada sermazmun, undanda xilma-xillikka ega bo'ldi. Mazkur to'lalik va xilma-xillik o'zbek xalqining ajralmas huquqi - o'z taqdirini o'zi belgilash huquqining 1991 yil 31 avgusti ro'yobga chiqishi bilan yanada to'ldirildi. o'zbek xalqining muqaddas orzusi ushaldi - O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligidagi erishdi. Respublikada demokratik huquqiy jamiyat asoslarini vujudga keltirishning real asosi vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi o'ziga xos ijtimoiy olam hisoblanadi. Mazkur borliq ijtimoiy ongda o'ziga xos tarzda aks ham etadi. Shu asosda falsafaning olam - odam tizimi va uning falsafasi ifodalanadi.

Mustaqillik hayotiy faoliyatdir. U millionlab kishilarning moddiy va ma'naviy faoliyatining ibtidosidir. Mazkur ibrido har kuni har kishi tomonidan amalga oshiriladigan ijodiy mehnat, izlanish orqali mustahkamlanuvchi va rivojlauvchi reallikdir. Uning falsafasi haqida gap ketganda birinchi galda biz mustaqilligimizning va o'z taraqqiyotimizning shart-sharoitlari va zaminlarini mulohaza qilmoqimiz lozim. Mazkur holat aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. o'zbek xalqi azaldan uyqun jamoa bo'lib yashagan, kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, millatidan, dinidan qat'iy nazar odamlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lish, Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, ma'rifatparvarlikka nisbatan alohida hurmat-ehtirom bilan qarash bu xalqning tabiatini belgilab kelgan. Bu sifat mustaqilligimizning betakror ekanligini va uning o'ziga xos tarzda mavjudligi va taraqqiyotini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Mazkur omil asosida mustaqillik borlig'i o'ziga xos mohiyatga ega bo'ladi. Chunki, ijtimoiy jihatdan bir butunlikka ega bo'lgan mamlakatning umumiy maqsadi yo'lida ichki mayda-chuyda ikir-chikirlarni chekkaga surib qo'yib birlasha oladigan, hamda ruhiy bir butunlikni qudratli kuchga aylantira oladigan xalq uchun hal qilinishi mumkin bo'lмаган muammoning o'zi bo'lmaydi.

Ma'lumki, qaysi bir millat ichida nomoslik, ziddiyat kuchli bo'lsa, u millat zaif ijtimoiy birlik hisoblanib oxir-oqibatda o'limga mahkum etilgan millatdir. Shu bois, har bir millatda millatning ruhiy bir butunligini ta'min qilish uchun shu millat allomalari tomonidan turli xil darajadagi, yo'nalishdagi va shakldagi ta'limotlar yaratiladi. O'zbekiston nafaqat o'z xalqi, millati birligi, axloqiy komilligi, imon butunligi uchun xizmat qiluvchi nodir ta'limotlar, falsafiy tizimlar yurti, balki u butun insoniyatni insofga, soflikka, inoqlikka da'vat etguchi munavvar ta'limotlarni yaratgan Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termizi kabi buyuk allomalar yurti hamdir. Shuning uchun ham mustaqillikni bilish, tushunish va uni qadrlash tuyg'usi xalqimizda avloddan avlodga o'tib kelayotgan merosdir.

Ayni vaqtida mustaqillik teran tushunilishi kerak bo'lgan ijtimoiy reallik hamdir. Bunda biz millatimiz va davlatchiligidagi tarixini izchillik bilishimiz,

o'rganishimiz, undan falsafiy xulosalar chiqara olishimiz va xulosalarni mustaqillikni mulohaza qilishda, uni mustahkamlashda keng qo'llanilishiga jiddiy ahamiyat bermoqimiz lozim. Ayni paytda milliy tariximiz so'zsiz o'zining mohiyatiga ko'ra mustaqillik uchun kurash tarixining ma'naviy birligi bo'lgan buyuk allomalarimizning falsafiy qarashlari hamdir. Mazkur falsafiy qarashlarni tiklash, ularni o'rganish va baholash madaniyati mustaqillik falsafasining suhim jihatini tashkil qiladi.

Mustaqillik falsafasi haqida gapirilganda yana shu jihatga ahamiyat berish kerakki, har qanday ijtimoiy birlik ayni vaqtida mutlaq o'ziga o'xshagan va ayni vaqtida boshqa ijtimoiy birliklar bilan bevosita va bilvosita muntazam munosabatda bo'lувчи reallikdir. Shundan kelib chiqqan holda milliy mustaqilligimiz negizida jahon xalqlari erishgan muvaffaqiyatlar va ularning sintezi ham muhim o'rın egallaydi. Ular milliy davlatchilik va milliy mustaqillikning taraqqiyotiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik tamoyillarni ijtimoiy hayotning hamma jabhalariga izchillik bilan nafaqat tatbiq qilayotgan, balki uni ijodiy rivojlantirayotgan davlat hamdir. Albatta demokratiya hamma joyda demokratiyadir. Lekin u har bir milliy davlat hayotida uning tarixiy taraqqiyotidan, milliy mentalitetidan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitidan, ana'ana va urf-odatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos tarzda ishlaydi va yashaydi. Demokratiya tashqaridan keltiriladigan yoki boshqa bir davlat hayotining ikkinchi bir davlat hayotiga ko'chiriladigan hodisa emas. U shu xalqning hayoti, intilishi, maqsadidan kelib chiqadigan va shu xalqning hohishi va irodasiga mos bo'lgan hodisadir. Shuning uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni qayta bichishga va qayta tikishga urinayotganlarning faoliyati nafaqat XX asr falsafasidagi, balki undan oldingi davrdagi falsafiy tizimlarning birortasiga mos kelmaydi.

Demokratiya sharoitida albatta davlat va uning tarkibiy qismi bo'lgan hokimiyatga munosabat o'zgaradi. Chunki hokimiyat jamiyat nazorat ostida bo'ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faolligi – bularning hammasi davlatning mutlaq g'oyalarga erishishiga yo'l qo'y maydi. Ya'ni shaxs va jamiyat, davlat o'zaro yaqinlashib boradi. Bir-biriga hisob berish kuchayadi. Natijada shaxs va davlat manfaatlari uyqunlashib boradi. so'zsiz mazkur jarayonlarning negizida xalqimizga xos bo'lgan davlat rahbariga qat'iy ishonch, o'zaro hurmat-e'tibor, ma'naviy uyqunlik yotadi. Mazkur uyqunlik qanchalik kuchli bo'lsa u umuijtimoiy shunday kuchli immunitetni tashkil qiladiki, unga ta'sir qiluvchi har qanday informatsion va boshqa kuchlarning barcha hatti harakatlari oqibatsiz yakunini topadi. Buni biz mamlakatimiz tarixida sodir bo'lgan buzg'unchiliklar, bu buzg'unchiliklarni qo'llab-quvvatlagan va qo'llab-quvvatlayotgan kuchlarning besamara intilishlarida ko'rib turibmiz.

Mustaqillik borlig'i haqida gapirganimizda biz uning iqtisodiy turmushida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar falsafasi haqida fikr yuritmoqimiz lozim bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunidan boshlabog' inson manfaatlariga qaratilgan mehnatni rag'batlantirish kuchli mexanizmiga ega bo'lган va aholining ijtimoiy nochor qatlamini davlat yo'li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qaror toptirishga kirishdi. So'zsiz bu iqtisodiyot uning oldingi iqtisodiy turmush tarziga mutlaq o'xshamagan hodisadir. Bozor iqtisodiyotida eng serharakat sub'ekt - bu fuqaro, uning manfaati, uning tadbirkorligi hisoblanadi. Tadbirkorlikning keng quloch yoyishi va uning iqtisodiyotda belgilovchilik rolining ortib borishi ijtimoiy hayotdagi bir qator qadriyatlarni yangi mazmun bilan boyitishi ham talab qilmoqda. Chunki faqat bozorgina ishlab chiqaruvchining hukmini sindirish, ishlab chiqarishni iste'molchining manfaatlariga bo'yundirish, mahsulotga bo'lган talabni aniq hisobga olishni talab qiladi. Faqat bozorgina tejamli xo'jalik yuritishning kuchli oqilona jihatlarini yaratadi, faqat bozorgina yangiliklarga fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlariga talabchanlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli jiddiy o'zgarib boradi. Davlatning burchi tarkib topib kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalarini qaror toptirish va rivojlantiriga yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib boraveradi. Davlat ijtimodiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita davlat sektori orqali ta'sir ko'rsatadi, xolos. Shunday qilib iqtisodiyotda tadbirkor shaxsning o'rni va roli ortib boraveradi. Jamiyatda boqimanda shaxsga mutlaq o'rin qolmaydi. Buni tushunish so'zsiz bir kunda amalga oshmaydi. Jamiyat a'zolarining ma'lum bir qismi yuqorida keltirilgan haqiqatni boshqalarga nisbatan oldinroq ilg'ab oladi va ular ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning oldingi qatorlarida keiadilar, ayrimlari keyinroq, buni fahmlaydilar va o'zlaridagi ichki qobiqni qiyinchilik bilan engadilar va ular tadbirkorlik faoliyatiga asta-sekinlik bilan qo'shiladilar. Bu mantiqda eng muhimi millatimizning ilg'or tadbirkorlari o'zlarining qarashlarini, o'zlariga yaqin bo'lган kishilarga tezroq singdirishga, topgan boyliklarini mamlakatda ishlab chiqarishni kengaytirishga qisqa qilib aytganda millatni boyitishga xizmat qilinishdadir. Shuning uchun ham yurtboshimiz o'zlarining "**Bizning maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir**" nomli kitoblarida xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash muhim ustivor vazifa sifatida ko'rsatadilar.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, va madaniy-ma'naviy hayotda qanday o'zgarishlar yuz berdi? Ular falsafiy tafakkurda qanday aks etdi?
2. XX asr falsafasining qanday umumiylar xususiyatlari mavjud?
3. XX asr falsafasiga xos qanday falsafiy oqimlar va falsafiy maktablarni bilasiz?
4. XX asr falsafasida neopozitivizm falsafiy oqimining mohiyati nimadan iborat?
5. XX asr falsafasida ekzistentsializm falsafiy oqimi qanday o'rinni tutadi?
6. XX asr falsafasidagi neotomizm falsafiy oqimining falsafiy qarashlarining mohiyati nimalardan iborat?
7. XX asr falsafasida ruhiy tahlil falsafasining o'mni va uning ilgari surgan asosiy g'oyasi haqida nimalarni bilasiz?
8. J.P.Sartr, K.Popper, T.Kunnlarning falsafiy qarashlari haqida so'zlab bering.
9. Mustaqillik falsafasining mohiyatini tushuntirib bering?
10. Mustaqillik falsafasining ahamiyati nimalarda ko'rindi?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik-faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. - T.: O'zbekiston, 1994.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. . -T.: O'zbekiston 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston 1998.
4. Osnovi filosofii: Uchebnoe posobie dlya studentov. -T.: O'zbekiston 1998.
5. Falsafa. o'quv qo'llanma. -T., Sharq 1999.
6. Falsafa. Ma'ruzalar matni. -T., 2000.
7. Falsafa. Ma'ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
8. Qur'oni Karim. -T.: Cho'lpon, 1992.
9. Qoraboev U. O'zbekiston bayramlari. -T.: O'qituvchi 1991.
10. Sharifxo'jaev M. Chelovek opredelivshiy epoxu. M.«Trud» 2004.
11. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
12. S.Yo'ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Evropa falsafasi. T- ; 2002y.

## **10-MAVZU: FALSAFADA BORLIQ MUAMMOSI.**

**Reja:**

- 1. Borliq tushunchasining mazmuni.**
- 2. Borliqning mavjudlik shakllari va usullari.**
- 3. Materiya, harakat, fazo va vaqt birligi masalasi va uning echimi.**

1. Falsafa o'rganadigan qaysi bir muammoni olmaylik, bu muammo borliq muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda markaziy o'rinni tashkil qiladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki borliq muammosi falsafadagi har kanday dunyokarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi. Darhaqiqat, diniy va ilmiy, idealistik va materialistik dunyoqarashlar o'rtasidagi baxslar, qarama-qarshiliklar borliq muammosi atrofida, ya'ni borliq azaldan mavjudmi, u xudo yoki mutlaq ruh tomonidan yaratilganmi, degan masala yuzasidan olib borilgan tortishuvlardan iboratdir.

Xo'sh, borliq o'zi nima? Borliq tushunchasi nimani bildiradi? Nima uchun borliq tushunchasi falsafa paydo bo'lgandan beri ya'ni qadimgi dunyodan bugungi kungacha faylasuflar e'tiborini o'ziga jalb qilib keladi? Bu savollarga javob berish uchun biz borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog'liq real ildizlarini yoritishimiz lozim.

Ma'lumki kishilar qadimgi davrdan o'zlarini qurshab turgan tabiat va ular yashab turgan jamiyat, inson va insoniyat haqidagi, xususan o'zlar haqida ham o'ylay boshlaganlar. Ular tabiat va jamiyatda, o'z hayotlarida sodir bo'lgan turlituman o'zgarishlarni kuzatganlar. Bu narsalar ular ko'z o'ngida reallik sifatida kelganlar: ya'ni ular bor mavjud, lekin ba'zi narsalar vaqt o'tishi bilan yo'q bo'lganlar, ya'ni mavjud bulmay qolganlar; aksincha, ba'zi yo'q narsalar paydo bo'lib, bor bo'lganlar, ya'ni mavjud bo'lganlar. Shular asosida kishilarda «mavjudlik», va «mavjudsizlik» haqida qarashlar paydo bo'la boshlagan.

Kishilar o'zlarining ham dunyoga kelishi /paydo bo'lishi/, yashashi va nihoyat, dunyodan ketish /o'lishi/ kabi jarayonlarni kuzatganlar, ular haqida ham fikr qila boshlaganlar. Shular asosida keyinchalik dinda «bu dunyo» va «u dunyo» / «narigi dunyo»/ ya'ni kishilarning real hayotlari kechadigan dunyo va vafot etishi bilan ularning ruhlari boradigan dunyo to'g'risida tasavvurlar paydo bo'la boshlagan.

Kishilar o'z kundalik tajribalari asosida o'z onglarida fikr yuritib, o'zlar yashayotgan dunyoning ayni hozir mavjudligiga uning o'zlaridan oldin ham mavjud bo'lganligiga, o'zlaridan keyin ham mavjud bo'lishiga, o'zlarining esa o'tkinchi, vaqtincha yashab, so'ng dunyodan utib ketishlariga ishonch hosil qila boshlaganlar. Bu ishonchlar asosida ularda «borliq» va «yo'qlik» haqida qarashlar paydo bo'ladi.

Lekin bu o'rinda dunyoning mavjudligi, ya'ni borlig'i to'g'risida baxs yuritgan faylasuflar bu masalaga turlicha yondashganlar: ularning ba'zilari: dunyo avval ham bo'lgan, hozir ham mavjud bundan keyin ham mavjud bo'ladi, deyishsa; boshqalari: dunyo avval mavjud bo'limgan u xudo yoki ruh tomonidan yaratilgan; insonni ham dunyodagi hamma narsalarni, xususan, insonni ham xudo yoki ruh yaratgan shundan buyon ular mavjud deganlar. Uchinchi xil mutafakkirlar esa dunyo o'z o'zidan yaralgan, xudo, uning yaralishiga faqat sababchisi bo'lgan xolos, u shundan buyon mavjud, degan qarashni ilgari surishgan. To'rtinchi xil mutafakkirlar bo'lsa dunyo oldin ham bo'lgan, hozir ham mavjud, bundan keyin ham mavjud bo'ladi; dunyoni hech kim yaratmagan u cheksiz va chegarasiz, deyishgan.

Shunday qilib, dunyoning yaratilganligi uning fazo va vaqtida chegaralanganligi, chekliligi, cheksiz va chegarasizligi, shu bilan birga uning bir butunligi, doimiyligi, abadiyligi to'g'risidagi qarashlar bilan almashinib borgan. Bu borada kishilar o'zlarining o'tkinchi muvaqqat hayotlari bilan cheksiz va abadiy mavjud bo'lgan dunyo, tabiat bilan boshqa kishilarning hayoti va ishlari bilan o'zlarigacha bo'lgan va o'zlaridan keyin keladigan avlodlarning hayot va faoliyatları haqidagi qarashlari bilan solishtirishlari orqali fikr qilishib, keyinchalik doimiylik va o'tkinchilik kabi qarashlarni hosil qila borganlar. Ularning bu qarashlari tabiiyki, o'zlarining shaxsiy hayotidagi tajribalaridan kelib chiqqan bo'lib, ular butun koinotga ham o'zlarining o'tmishi va kelajagiga ham, o'z tajribalariga taalluqli bo'lgan. Binobarin dunyoning doimiyligi va vaqtinchaligi, uning fazo va vaqtida chekliligi va cheksizligi to'g'risidagi qarashlar butun insoniyat tarixida dastlab afsonalar va diniy qarashlarda, keyinchalik falsafa va fanlarda ifodalanib, muhokama qilinib kelingan. Bu muhokamalarning hammasi bir so'z bilan aytganda, borliq muammosi bilan bog'liq bo'lib kelgan ularning barchasi bilan mantiqiy xulosasi shu bo'lganki, dunyo avval ham bo'lgan, hozir ham mavjud va bundan ham keyin mavjud bo'ladi. Demak, dunyo doimiy, abadiydir. Ammo shu abadiy dunyodagi ayrim narsalar turli tuman jonsiz va jonli organizmlar, hatto insonlar va ularning faoliyati bir butun jamiyat, shubhasiz, vaqtincha, o'tkinchidir. Bundagi borliq muammosining butun ildiz, ma'nosi va mazmuni shunday ediki; bir butunlik sifatidagi dunyoning doimiy mavjudligi va uni tashkil etgan narsalarning: notirik va tirik organizmlar, ya'ni tabiat, insonlar, jamiyat va ularning faoliyatlarining o'tkinchiligi ziddiyatli birliqni tashkil qilishidir. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, borliq muammosi falsafada o'rganish dunyo «hozir, shu erda mavjud» degan qarashdan boshlanib bu qarashlar bir butun dunyoning cheksiz va doimiy mavjudligi undagi predmet va hodisalarning, shu jumladan, insonlarning ham vaqtinchaligi va o'tkinchiligi to'g'risidagi qarashlarga tomon rivojlanib borgan. Bu borliq to'g'risidagi falsafiy muammoning birinchi tomonidir. Borliq muammosining falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyo bir butun, abadiy mavjud, lekin uni tashkil etgan narsalar o'z mavjudligi jihatdan har xil, o'tkinchidir. Bir butunlik sifatidagi dunyo undagi mavjud narsalardan ajralmasdir. Bir jihatdan bir butun dunyo bilan uni tashkil

qilgan narsalar, hodisalar va mavjudotlar o'rtasida farq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, dunyo o'zini tashkil qilgan narsalar, mavjudotlar bilan ajralmas birliqdagi butunlikni hosil qiladi. Bunda borliq to'g'risidagi falsafiy muammoning dunyoning birligi masalasi bilan bog'liq bo'lган ikkinchi tomoni kelib chiqadi.

Kishilar o'zlari faoliyat ko'rsatadigan dunyoda yashar ekanlar, o'z faoliyatlarida doimiylikni o'tkinchi narsalar bilan bog'lashga, bir butun dunyo bilan har xil narsalar va hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv munosabatlarni bilishga kirishadilar. Ular o'zlari ham dunyodagi turli tuman narsalardan va ularda amal qiladigan qonuniyatlardan ham foydalangan holda turli tuman yangi predmet va hodisalarni yangidan yaratib, ulardan o'z hayotlarida foydalanadilar.

Shu bilan birga, kishilar o'z kundalik amaliy, ijtimoiy faoliyatlarida dunyodagi predmet va hodisalar bilan, o'zlarini qurshagan tabiat bilan, boshqa kishilar va bir butun jamiyat bilan muayyan munosabatlarda bo'lib, dunyodagi mavjud predmet va hodisalarning ba'zilari ular ongidan hohish irodasidan tashqarida, ularga bog'liq bo'lмаган holda mavjud ekanliklariga boshqa predmet va hodisalar esa ularga, ular ongiga hohish va irodalarga bog'liq mavjud bo'lishiga ishonch hosil qilib borganlar. Ular bu jarayonda tabiat bilan jamiyat o'zlari bilan o'zgalar, inson bilan tabiat, inson bilan jamiyat, inson bilan uning ongi, inson bilan inson, moddiy narsalar bilan ma'naviy narsalar, tana bilan jon /ruh/ o'rtasida umumiy birlik aloqadorlikni aniqlash bilan birga ular o'rtasida muhim farqlar borligini ham bilib borganlar. Bora-bora ular insonning o'zida ham tana bilan /jon/, tabiiylik bilan ijtimoiylik bir-birlaridan ajralmagan holda mavjudligini, birligini ham bila borganlar. Lekin kishilarning borliq muammosini falsafiy anglashi ularning dunyoning birligini ilmiy tushunishi emas, balki uning zaruriy asoslarini izlashdan iborat buladi. Chunki dunyoning borlig'i uning birligi uchun shart bo'lsada dunyoning birligi uning borlig'ida emas edi. Dunyoning haqiqiy birligi uning moddiyligidadir.

Shuni aytish kerakki borliq tushunchasi bunday moddiylikdan tashqari ma'naviylikni ham o'z ichiga oladi. Bu jihatdan inson ongi ham barcha ongli va ongsiz faoliyatlar va ong mahsulotlari, ma'naviy va ruhiy hodisalar ham borliq tushunchasi tarkibiga kiradi. Chunki «ong hech qachon anglangan borliqdan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas, kishilarning turmushi esa ular hayotining real jarayonlaridir» Bu borliq to'g'risidagi falsafiy muammoning uchinchi tomonini tashkil etadi.

Demak borliq keng ma'noda eng umumiy tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi predmet va xodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, ishslash yashash faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlari hatto jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o'z ichiga oladi. Borliq tushunchasi falsafiy jihatdan juda keng ma'noda bir butun reallik sifatida tushuniladi. Shu sababli unga, yuqorida aytilganlardan tashqari inson hali o'zlashtirib, bilib ulgurmagan, tabiat hodisalari ham, tabiat boyliklaridan foydalangan holda insoniyat ishlab chiqargan ya'ni yaratgan barcha predmet va hodisalar, jarayonlar ham kishilarning ijtimoiy hayotlari ham ularning o'zları,

fikrlari, g'oyalari, qarashlari ular yashaydigan joylar, ular mehnat qiladigan korxonalar, o'qiydigan va ishlaydigan tashkilotlar ham, jamiyatdagi barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar ham kiradi. Binobarin, har bir kishining hayot faoliyati uning o'zi ham, atrofdagi o'zga kishilar uchun ham ma'lum reallik hisoblanadi. Shu bilan birga har bir kishi alohida narsaga, alohida kishiga, muayyan reallik sifatida munosabatda bo'ladi. Kishilar, shu bilan birga, o'z faoliyatlarida tabiiy boyliklar bilan bir qatorda, ma'naviy boyliklarni ham yaratadilar. Falsafada bu tabiiy-moddiy va ma'naviy boyliklar ham alohida o'ziga xos reallik xarakteriga ega bo'lgan borliq sifatida qaraladi. Demak, moddiy predmet va hodisalar bilan bir qatorda, ma'naviy hodisalar ham borliq tushunchasi tarkibiga kiradi. Umuman borliq muammosini tadqiq etishda falsafa kishilarning amaliy, ma'naviy-ahloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy va shular kabi faoliyatlariga va bilimlariga asoslanadi. U bunda borliq kategoriyasini u bilan uzbek bog'liq bo'lgan «mavjudlik», «reallik» va boshqa shular kabi bir qator falsafiy kategoriyalar yordamida o'rghanadi. Falsafa borliq tushunchasini eng umumiyligi tushunchasi sifatida o'ziga boshlang'ich kategoriya qilib qabul qiladi. Lekin borliq kategoriyasini falsafaga bunday boshlang'ich kategoriya qilib kiritishga falsafada ikki yo'naliш vakillari o'z e'tirozlarini bildiradilar. Birinchi yo'naliш vakillari borliq kategoriyasi narsalarning konkret xossalarni ifodalamasligi sababli uni falsafadan chiqarib tashlash kerak, degan g'oyani ilgari suradi. Bu e'tirozning noto'g'riliги shundaki, falsafiy kategoriyalar narsalarning konkret belgilarini emas, aksincha, dunyodagi eng umumiyligi aloqadorliklarni, eng umumiyligi tomonlarni ifodalaydilar. Borliq kategoriyasi esa xuddi shunday eng umumiyligi tomonni; ya'ni hamma moddiy va ma'naviy predmet va hodisalarni realligini ifodalaydi. Ikkinci yo'naliш vakillari esa, borliq avvalo, mavjudlik orkali ifodalanar ekan borliq kategoriyasini ishlatalishda ehtiyoj yo'q, chunki borliq tushunchasi mavjudlik tushunchasiga nisbatan hech bir yangilik bermaydi deyishadi. Gap shundaki, borliq falsafiy kategoriya sifatida faqat mavjudlikniga ifodalab qolmasdan, balki mavjudlikka nisbatan umumiyyor va kengroq mazmunga ega bo'lgan reallikni bildiradi.

Demak falsafada borliq kategoriyasi dunyo, tabiat, inson, jamiyat, inson ongi, uning individuallashgan va moddiylashgan ko'rinishlarining shunchaki mavjudligini emas, balki ulardagi umumiyligi xarakterga ega bo'lgan reallikka xos eng umumiyligi aloqadorlikni ifodalaydi. Binobarin dunyo, undagi predmet va hodisalar o'zlarining barcha xususiyatlari va hodisalari bilan birgalikda mavjud bo'lib, ular o'z realliklari bilan umumiyligi birlikka egadir, ular o'rtasidagi umumiyligi aloqadorlik borliq kategoriyasida ifodalanadi.

Borliq tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida kishilar bilishining ikkinchi - yuqori boskichi - abstrakt tafakkurgagina xos bo'lib, fikr jarayonda kishilar bu tushuncha orqali dunyodagi alohida narsalar, ularning konkret belgilari haqida emas, balki dunyodagi barcha narsalar, voqealar va hodisalar jarayonlar o'rtasidagi eng umumiyligi tomon- ularning realligi haqida fikr yuritadilar.

Borliq kategoriyasi va uning o'ziga xos xususiyatlaridan hamda uning falsafada tutgan o'rnidan kelib chiqib, to'g'ri fikr yuritish bizni bir kator sohalarda xatolarga yo'l qo'yishimizning oldini oladi. Masalan, borliqni narsalarga yoki fikrning mavjudligiga o'xshatish unchalik to'g'ri bo'lmanidek, uni faqat moddiy narsalarga nisbatan qo'llash yoki aksincha, uni faqat ma'naviy narsalar: sof fikr g'oyalar, faqat ong va uning maxsulotlariga nisbatan ishlatish ham qo'pol xatodir. Lekin shunga qaramay borliqqa shunday yondoshishlar falsafa tarixida ham, hatto hozirgi vaqtida ham uchrab turadi. Chunki borliq muammosi hamma vaqt faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Masalan, qadimgi yunon materialistlaridan Demokrit bulinmas eng mayda zarracha-atomni borliq, deb tushungan bo'lsa, o'sha davr yunon idealist faylasuflaridan Platon sezgi a'zolari bilib bo'lmaydigan doimiy va o'zgarmas « g'oyalar dunyosi» ni borliq, deb biladi. O'rta asr faylasuflari xam borliq muammosi atrofida kizgin baxslar olib borishgan, ma'lumki, bu davrda din yagona hukmron ideologiyaga aylanganligi natijasida falsafa ham dinning xizmatkori bo'lgan. Shunga ko'ra o'rta asr sxolastik falsafasida xudo /olloh/oliy borliq sifatida talg'in qilingan.

Bizning O'rta Osiyolik mutafakkirlarimiz ham o'z qarashlarida xudo /olloh/ ni oliy borliq, yaratuvchi kuch, deb bilganlar, jumladan, Ibn Sinoning borliqning uch xil shakli haqidagi quyidagi fikrlari xarakterlidir:

1. Yaratilmaydigan va yo'g'olmaydigan, ya'ni doimiy borliq. Bu oliy borliq ollox borlig'idir.
2. Yaratiladigan, paydo bo'lib, rivojlanib, so'ng yana yo'g'oladigan ya'ni o'tkinchi borliq. Bu borliq olloh yaratgan moddiy narsalar, xususan, tabiatdag'i predmet va hodisalar; inson va jamiyat borlig'i.
3. Inson aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan borliq. Bu inson ongingin borlig'i, ya'ni **ma'naviy borliqdir.**

Borliqni Gegel ham o'zicha tushunadi. Gegelda borliq mutlaq g'oyadir, borliq bilan tafakkur bir-biriga mos keladi. Tafakkur borliqning ichki mohiyatidir, shuning uchun aqlga muvofiqdir.

L. Feyerbax esa, borliq sub'ekt tafakkur predikat, deydi /Izb. Filos. Proiz., T. I. C 128 /.

Barcha sub'ektiv idealistlar: butun borliq sub'ekt, ya'ni inson sezgi va idroklarining yig'indisi /kompleksi/, kombinatsiyasidan iborat, deydilar. Xullas, falsafa tarixida borliqni kaysi ma'noda va kanday tushunishdan qat'iy nazar, ya'ni qadimgi yunon faylasuflari uylaganlaricha, borliqni substantsiya /asos/ ma'nosidami yoki Shekspirning Gamleti o'ylaganicha, shaxs hayoti va taqdiri ma'nosidami, baribir, borliq kategoriyasi falsafada chuqur mazmunga ega bo'lган asosiy boshlang'ich tushunchadir.

Borliq kategoriyasi falsafiy kategoriyalar ichida boshlang'ich kategoriya bo'lib, o'tmishdagi va hozirgi davrdagi juda ko'p faylasuflar o'z qarashlarini kategoriya orqali ifodalashadi. Shu tufayli falsafada borliq to'g'risida ta'limot-

ontologiya<sup>1</sup> paydo bo’lgan. Bu ta’limot atrofida falsafada qizg’in tortishuvlar va munozaralar davom etadi.

2. Borliqning asosiy shakllari. Borliq o’zining mavjudlik shakllariga ko’ra xilma-xildir. Xo’sh, bu shakllar kanday ko’rinishlarda mavjud?

Avvalambor, bizni qurshab turgan yaxlit bir butun dunyo, olam – bu eng umumiylar bo’lib u ko’pdan ko’p real mavjud narsalar, predmetlar, hodisalar, holatlar, organizmlar, tizimlar, elementlardan iboratdir. Ular o’rtasidagi bog’lanishlar va aloqadorliklar, ularning umumiylarini borliq kategoriyasida ifodalanadi. Shu bilan birga, bu narsa va xodisalarning har biri o’ziga xos, nodir, boshqalarida bo’lmagan tomonlarga, xususiyatlarga ham ega. Lekin inson o’z faoliyatida ularni bilish jarayonida borliqning bu turli ko’rinishlari qanchalik xilma-xil bo’lmisin ularni bir-birlariga o’xshash tomonlaridan kelib chiqib umumlashtirishga, gruppelashtirishga ma’lum yaxlit bir tizimlarga birlashtirishga kirishadi. Shuni aytish kerakki, bunday inson yakka, ayrim narsa va hodisalarni ularga nisbatan butunlikka birlashtirib, har bir yakka, ayrimlikning mavjudlik xususiyatiga e’tibor bergan holda ularning borliq ko’rinishdagi ma’lum umumiyligini jihatdan bu narsa va hodisalarning mavjudlik usuli va mavjudlik sharoitlaridagi o’xshashliklaridan kelib chiqib ularni turli gruppalarga, turlarga ajratadi. Dunyodagi barcha mavjud narsa hodisalarni ular borlig’ining ko’rinishlari ko’ra, turli shakllarga ajratish va birlashtirish kishilarning kundalik hayotidagi oddiy jarayonlardir. Chunonchi ular o’z amaliy faoliyatlarida o’zlari anglamagan yoki anglagan holda, borliqning turli shakllari o’rtasidagi umumiyligini farqlarga, albatta, e’tibor beradilar. Borliq shakllarini bilishda ularni farqlash, ajratish kishilarning amaliy faoliyatida dunyonи tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun falsafiy muammolarni o’rganish borliq kategoriyasining, mazmunini o’rganishdan, borliqning asosiy shakllarini tahlil qilishdan boshlanadi.

Shuni aytish kerakki, falsafadagi materializm va idealizm borliqning shakllari muammosiga turlicha yondashadi. Bunda materializm o’z e’tiborini moddiy borliqqa qaratib uni birlamchi, belgilovchi deb hisoblaydi. Idealizm esa, odatda, borliqning ma’naviy shakllariga alohida e’tibor beradi, u ma’naviy borliq shakllarini birlamchi, belgilovchi deydi.

Bir qadar izchil falsafa esa borliq shakllarini dastlab bir-biridan farq qiluvchi va ayni vaqtida bir-biri bilan o’zaro aloqadorlikda bo’lgan quyidagi turlarga ajratadi:

1. Insondan, inson ongidan tashqarida ob’ektiv reallik sifatida mavjud bo’lgan predmetlar, hodisalar, jarayonlardan iborat moddiy borliq.
2. Faqat inson ongida, ong bilan bog’liq sub’ektiv reallik sifatida mavjud bo’lgan fikrlar, g’oyalar, qarashlar tarzidagi borliq. Bu ma’naviy borliqdir. Borliqning bu turlari o’rtasidagi fark nisbiydir, chunki ular bir-birlariga o’tib turishadi. Shu bilan birga, ularning har biri o’z navbatida yana bir qancha shakllarga ko’rinishlarga bo’linadi.

---

<sup>1</sup> Ontologiya /yunoncha: ontos- o’zbekcha: borliq falsafadagi borliq to’g’risidagi ta’limotdir.

Insonni qurshab turgan tabiat, tabiatni tashkil qilgan turli predmet va hodisalar, barcha noorganik va organik moddalar dunyosi, o'simliklar va hayvonot dunyosi, kishilarning o'zi va ularning o'zaro ijtimoiy munosabatlaridan tashkil topgan jamiyat - bularning barchasi moddiy borliq ko'rinishlaridir. Shunga ko'ra moddiy borliqni quyidagi konkret turlarga, ajratish mumkin:

1. Tabiiy borliq yoki tabiat borlig'i.
2. Insoniy borliq yoki inson borlig'i.
3. Ijtimoiy olam yoki jamiyat borlig'i.

Moddiy borliqning bu turlarining har biri o'z tabiatlari jihatidan yana bir necha ko'rinishlarga bo'linadi. Ularni bunday ko'rinishlarga bo'lishning o'zi nisbiydir, chunki ularning hech biri sof emas, biri ikkinchisi bilan, ikkinchisi uchinchisi bilan va hokazo qorishib ketganlar.

Moddiy borliq turlari ma'naviy borliq bilan uzviy bog'lanib ketgandir. Ma'naviy borliq inson ongi bilan bog'liq barcha ma'naviy va madaniy hodisalar, fikrlar, g'oyalar, qarashlar ijtimoiy ong shakllari, inson va jamiyatning bir butun ma'naviy-madaniy hayotidir. Shu jihatdan ma'naviy borliqning quyidagi ikki ko'rinishi farq qiladi:

- 1) individuallashgan ma'naviy borliq;
- 2) ob'ektivlashgan ma'naviy borliq;

Borliqning bu yuqorida ko'rib o'tgan turlari va shakllari, ularga xos dialektikani tushunib olish uchun biz ularning har biri ustida alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

### 1. «Tabiiy» borliq yoki tabiat borlig'i

Tabiiy borliq o'zaro bog'liq, lekin bir-biridan farq qiluvchi quyidagi ikki ko'rinishdan iboratdir:

- 1) tabiatdagи predmet va hodisalarning, buyumlarning, jism va jarayonlarning asl borlig'i.
- 2) tabiatdagи predmet va xodisalar asosida inson tomonidan yaratilgan narsalarning tabiiy borlig'i.

Tabiiy borliqning birinchi ko'rinishi insongacha, insondan va uning ongidan tashqarida unga bog'liq bo'limgan holda mavjud predmet va hodisalar, jarayon va holatlarni o'z ichiga olgan tabiatdir. Bu ba'zi adabiyotlarda «birlamchi tabiat» deb ham ataladi. «Birlamchi tabiat» moddiy borliqning shakli sifatida insongacha mavjud bo'lgan, insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lgan holda mavjud bulmagani uchun ham, alohida reallik ko'rinishdagi borliq hisoblanadi. Bu borliq odatda bizni o'rab turgan tabiatdan iborat dunyo borlig'idir. Tabiiy borliqning bu shakli inson faoliyatining dastlabki sharti sifatida insongacha ob'ektiv mavjud bo'lgan tabiatdagи predmetlar, xodisalar va jarayonlarga xosdir.

«Birlamchi tabiat» borliqning alohida o'ziga xos real shakli sifatida, avvalo, u insongacha, undan tashqarida, unga bog'liq bo'limgan holda mavjud, deb ta'riflanar ekan, bu ta'rif quyidagilardan kelib chiqadi:

Birinchidan, inson tabiat to'g'risida fikr yuritar ekan, uning insongacha, insondan oldin xam real mavjud bo'lganini inson va uning ongi tabiat taraqqiyoti va jamiyatning paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgandan keyin ham ularga bog'liq bo'lman holda mavjud bo'lib kelayotgani, bundan keyin ham abadiy bo'lishi to'g'risidagi fikrlar ko'pdan ko'p faktlar, tajriba va ilmiy dalillar asosida qolaversa, qachonlardir yashagan, hozir yashayotgan kishilarning shaxsiy-amaliy tajribalari, hayotiy kuzatishlari va nazariy xulosalari tomonidan isbotlanganligidir.

Ikkinchidan, «birlamchi tabiat» insondan tashqari va unga bog'liq bo'lman holda mavjud bo'lib, inson esa uning mahsuli ekanligi, inson usiz yashay va faoliyat ko'ra olmasligidir, hatto inson «birlamchi tabiat»siz biron-bir narsa yarata olmasligidir. «Birlamchi tabiat»ni tashkil etuvchi predmet va hodisalar ob'ektiv reallik sifatida, insonga bog'liq bo'lman o'z qonunlari asosida o'zgaradi, taraqqiy etadi, o'z-o'zini yaratadi. Bu «birlamchi tabiat» makonda cheksiz, vaqtda abadiydir, u hamma vaqt va hamma erda doimo mavjud. Inson shu «birlamchi tabiat» materiallari asosida amaliy faoliyati va ongi bilan «ikkilamchi tabiat»ni yaratadi.

«Ikkilamchi tabiat»ning vujudga kelishi insonga, «birlamchi tabiat»ga, undagi predmet va hodisalar, jarayonlarga ularning konuniyatlarini insonning bilishiga bog'liqdir. «Ikkilamchi tabiat» o'z mavjudlik shakli va reallik sharoitlariga ko'ra uning yuzaga kelishi yashashi jihatdan o'zining yuzaga kelishida asos bo'lgan «birlamchi tabiat»ga o'xshaydi. Lekin shu bilan birga, «ikkilamchi tabiat» o'zining vujudga kelishi, yashashida inson mehnati va bilimi bilan bog'liqligi jihatidan «birlamchi tabiatdan farq qiladi. Aniq kilib aytsak «ikkilamchi tabiat» inson paydo bo'lgandan keyin inson tomonidan yaratiladi, shu jihatdan u inson faoliyati va ongingin mahsulidir. «Ikkilamchi tabiat» inson tomonidan yaratilgandan keyin u inson ongidan, insondan tashqarida ob'ektiv mavjud bo'ladi. Bu jihatdan «ikkilamchi» predmet va hodisalari ham ob'ektivdir. «Ikkilamchi tabiat» predmet va hodisalari ijtimoiy hayotda inson ehtiyojini qondirish zaruriyati, ijtimoiy turmushda biron-bir funksiyani bajarish zarurati tufayli yaratiladi. Masalan, bizning asosiy yozuv qurolimiz bo'lgan ruchkani olaylik. Ruchka o'z materialiga ko'ra «birlamchi tabiat» resurslariga oid. Uni qayta ishlab, unga o'z mehnati va ongini, inson uni «ikkilamchi tabiat»ga aylantirib uzining yozuv qurolini yaratgan.

Umuman, «ikkilamchi tabiat» predmet va hodisalari «birlamchi tabiat» materiallari inson mehnati, ongi, bilimi hamda shular asosida yaratilgan predmet va hodisalarning ijtimoiy funksiyalarining birligidan iboratdir.

«Birlamchi» va «ikkilamchi tabiat»lar borlig'i haqidagi fikrlarimizni quyidagicha yakunlash mumkin: ular o'zaro aloqadorlikda bo'lib, bir tomonidan, bir-biri bilan umumiylikka o'xshashlikka, birlikka ega bo'lsa, ikkinchi tomonidan, bir-biriga nisbatan farqlarga ham ega.

«Birlamchi tabiat» fazoda cheksiz, vaqtda abadiy borliq bo'lsa, «ikkilamchi tabiat» inson mavjudligi bilan uning faoliyati va ongi bilan, bir butun jamiyat bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi, u fazo va vaqtda boshlanishiga va tugashiga ega.

«Birlamchi tabiat» inson bilan uni bilib borayotgan bitmas tuganmas cheksiz dunyo /olam/ bo’lsa: «ikkilamchi tabiat» esa inson tabiat qonunlarini bilib olishi tufayli ular asosida yaratgan predmet va hodisalar protsesslar dunyosidir.

«Ikkilamchi tabiat», bir tomonda, «birlamchi tabiat» kabi ob’ektiv, real borliq bo’lib, u inson ongidan tashqarida mavjud bo’lsa, ikkinchi tomondan u insonga bog’liq hamdir, chunki unda kishilarning maqsadlari, g’oyalari, bilim va mehnatlari mujassamlashgan bo’ladi. «Ikkilamchi tabiat» predmet va hodisalari borlig’i «birlamchi» tabiat va kishilik /inson/ borlig’ini bog’lovchi; ular chegarasidagi borliq bo’lib, tabiat borlig’ining o’ziga xos shakli sifatida «birlamchi tabiat» borlig’iga nisbatan ham, inson borlig’iga nisbatan ham nisbiy mustaqil borliqdir.

Borliqning o’ziga xos nodir shakllaridan yana biri- bu inson borlig’idir. Inson borlig’i alohida kishi borlig’i va butun insoniyat borlig’i ko’rinishlarida mavjud bo’lishi jihatdan o’ziga xos noyobdir. Birok bu inson borlig’ida inson mavjudligi bilan birga, tabiat va jamiyatdagi hamma mavjud narsalar uchun umumiyligi bo’lgan tomonlar, xususiyatlar ham mavjuddir. Bu jihatdan inson borlig’i o’z tabiati va mohiyatiga ko’ra eng murakkab borliq shaklidir, u hamma borliq shakllarining ma’lum tomonlarining dialektik birligidan iboratdir.

Inson borlig’ida, avvalo, insonning tabiat taraqqiyotining mahsuli sifatida tabiiy borliqning har ikki shakliga oid tomonlar bilan, insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida unda ijtimoiy va ma’naviy borliqning ham hamma shakllariga xos tomonlarining jami birgalikda mujassamlangan.

Umum falsafiy nuqtai nazaridan qaraganda, inson, dastavval, tabiatning eng oliy tirik mavjudoti bo’lib, uning mavjudligining asosini inson tanasidagi hayot tashkil qiladi. Insonning tanasi bunda tabiiy jism sifatida boshka tabiiy tirik jismlar bilan bir xil, ular ega bo’lgan barcha xususiyatlarga egadir. Ya’ni u ham paydo bo’lish, o’sish, rivojlanish, ulg’ayish, qarish, o’lish, bir holatdan boshqa holatga o’tish va hokazo xususiyatlarga ega. Bu tanada ham, birinchi navbatda, hayot jarayoni, ya’ni oqsil tanachalarining yashash usuli - moddalar almashish jarayoni kechishi lozim.

Inson tanasi bunda tabiatdagi barcha notirik va tirik jismlarda amal qiladigan qonunlarga bo’ysunadi. Lekin bu insonning jonli tanasining o’zi inson borlig’ini tashkil qilmaydi. Chunki inson borlig’i, avvalo, alohida kishining individual borlig’i va bir butun insoniyat borlig’i shakllarida mavjud bo’ladi.

Alohida kishining individual borlig’i esa dastlab tana va ruhning birligidan iborat bo’lib, u shu alohida kishining individual hayoti va faoliyati, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari, yashashi, his-tuyg’u va fikrlari, maqsad va istaklari, tilak va orzulari, o’z-o’zini anglashi, dunyonи bilishi, individual ongi va tafakkuri, narsalarga, kishilarga, tabiat va jamiyatga munosabatlarining jamini o’ziga qamrab oladi.

Bir butun insoniyatning borlig’i esa kishilik jamiyatining butun hayoti: uning o’tmishi, hozirgi va kelajagiga oid moddiy va ma’naviy turmushi, ishlab chiqarishi, ijtimoiy munosabatlari, ijtimoiy ong va hokazolardan iborat.

Inson borlig'i bu jihatdan ham tabiat, ham jamiyat va ham ruhiyat konunlariga bo'ysunadi.

Inson borlig'i har biri o'zicha nisbiy mustaqil bo'lган inson mavjudligining uch jihatni, quyidagi o'lchov bilan xarakterlanadi:

Inson dastavval, his qiluvchi va fikrlovchi jonli tanaga ega bo'lган alohida real tabiiy individ sifatida mavjuddir. Shu bilan birga, inson, tirik tabiatning **homo sapins** turiga oid, uning evolyutsiyasi tufayli kelib chiqqan alohida, o'ziga xos noyob bir oliv mavjudot hamdir. Insonning bu noyobligini uning ruhiy dunyosi tashkil qiladi. Lekin inson ayni vaqtda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo'lган ijtimoiy mavjudot hamdir. Bular inson mavjudligining uch o'lchovi sifatida inson borlig'ining boshlang'ich xarakteristikalaridir.

Inson borlig'i, bir jihatdan, kishi va kishilar ongiga nisbatan ob'ektiv, ya'ni ular ongidan tashqarida mavjud bo'lsa, boshqa jihatdan u kishi va kishilar ongiga bog'liqdir. Aksincha inson borlig'i ongdan, ruhdan butunlay alohida mavjud emas. Chunki inson borlig'i tabiiylikning, moddiylikning, ma'naviylikning individuallikning, shaxsiy va ijtimoiylikning dialektik birligidan iboratdir.

Inson tanasi «birlamchi tabiat» sifatida bir holatdan ikkinchi holatga, bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga utadi, butunlay yukolib ketmaydi. Lekin boshka jihatdan, inson tanasi «ikkilamchi tabiat» sifatida o'tkinchi, o'zgaruvchan, chekli, paydo bo'lувчи, rivojlanuvchi, nihoyat, o'lувчи xususiyatlarga ham egadir. Inson tanasining tirik bo'lishi insonning yashab turishi uchun oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, turar joyga, issiq va sovuqdan saqlanishga, nasl qoldirishga va shular kabi turli-tuman moddiy ehtiyojlari qondirilgan bo'lishi kerak. Bu inson borlig'ining shunday xususiyatiki insonning jonli organizm sifatida mavjudligini bu extiyojlarni qondirmasdan turib, ta'minlab bo'lmaydi. Bular inson hayotining birinchi darajali moddiy ehtiyojlarini tashkil etadi. Shu bilan birga, inson hayoti uchun ma'naviy ehtiyojlar: ahloq, huquq, san'at, siyosat, fan va din kabilar ham katta rol o'ynaydi.

Masalan, har bir kishining bir butun jamiyatning yurish-turishi, odobi va hulkini, o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi ahloqiy normalarga bo'lган ehtiyojlarni olaylik. Inson bularsiz ham o'z hayotini tashkil eta olmaydi. Biz yukorida inson borlig'i uning tanasi va ruhining dialektik birligi tufayli mavjuddir, dedik. Haqiqatdan ham, har bir kishining miyasi, asab tizimi, ruhiyati va ma'naviyati uning tanasi /jismi/ va o'z faoliyatida katta rol o'ynaydi. Ruhan sog'lom kishi jismonan ham bag'uvvat bo'ladi. Shu bilan birga, tananing sihat-salomatligi ham kishining ma'naviy hayotiga katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham xalqimiz: «yaxshi kayfiyat mehnatga hamdam», «sog'lom tanda - sog' aql» maqollari bekorga yaratmagan.

Bu narsa butun insonning hayotiga ham taalluqlidir.

Falsafada inson borlig'i borliqning bir butun borlig'ida qanday ahamiyatga ega va unda qanday o'rinn tutadi? - degan masala faylasuflarni qiziqtirib keladi.

Oddiy qaraganda, inson, uning hayoti poyonsiz va cheksiz dunyoda hech bir arzimas narsa, qisqa, oddiy epizodga o'xshab tuyuladi. Aslida esa butunlay boshqa

narsani ko'rish mumkin. Inson dunyoda faqat mavjud bo'lib qolmasdan, balki u o'z o'zini anglaydi, o'zi yashayotgan dunyoni biladi, dunyoga va o'ziga juda katta ta'sir qiladi, dunyoni va o'zini o'zgartirib, o'zlashtirib boradi, madaniyatni, san'atni, dinni va fanni, huquqni va siyosatni yaratadi, ijod qiladi. Inson bunda avvalo o'z borlig'ini bilish uchun, o'z borlig'i uchun qayg'uradi. U bir butun borliq tizimida o'zining ziddiyatli rolini anglab olishi, o'z borlig'i va dunyo borlig'i oldida uz ma'suliyati, javobgarligini sezishi, his qilishi muhimdir. Inson uchun yana ham muhimroq narsa - bu har bir kishining o'zi va butun insoniyat taqdiri uchun, inson zoti va insoniyat tsivilizatsiyasi oldidagi ma'suliyatini to'g'ri anglashidir.

Bunda kishining ma'naviy yuksakligi va aqli rasoligi muhim rol o'ynaydi. Chunki har bir alohida kishining hayoti, faoliyati uning o'zi uchun ham, boshqa hamma kishilar va butun jamiyat hayoti uchun xam real hayot, real faoliyatdir. Bundagi har bir kishining o'z tanasi, o'z ruhiyati, o'z o'tmishi hozirgi va kelajagi boshqa kishi va kishilar tanasi, ruhiyati o'tmishi, hozirgi va kelajagiga nisbatan alohida reallik, alohida borliq sifatida mavjud bo'ladi. Bu bilan birga har bir alohida kishining individual ongi, his-tuyg'ulari va fikrlari ham o'z-o'ziga boshqa kishi va kishilar, bir butun insoniyat ongiga, his-tuyg'u va fikrlariga nisbatan ham real bog'liqdir. Shuning uchun kishi ongida uning atrofidagi butun borliq bilan birga, uning individual borlig'i ham o'z-o'zini anglash sifatida aks etgan bo'ladi. Kishi ongida nafaqat tabiiy narsalar, shu bilan birga, barcha ma'naviy g'oyaviy narsalar ham uning amaliy nazariy faoliyatida o'zlashtirilib, haqiqiy o'ziga xos reallikni kasb etadi. Bu o'z tabiatiga ko'ra ma'naviy borliq deyiladi.

Ma'naviy borliq aslida inson borlig'inining bir ko'rinishi bo'lib u individual ong va ijtimoiy ong jarayonlarini o'z ichiga oluvchi ma'naviylik, ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy boyliklardan iboratdir.

Tarixda sodir bo'lgan va bo'ladigan ko'pchilik voqeа hodisalar inson va insoniyatning kelajagi, kishi va kishilarning hayoti va taqdiri ko'p jihatdan ma'naviyligi ma'naviy boyliklar bilan bog'liqligi ma'lumdir. Shu nuqtai nazardan ma'naviylikni borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviylik inson va insoniyatning muhim fazilatlaridan biridir. U inson /kishi va kishilar/ ruhiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviylik - bu ko'p qirrali ong va ongsizlik jarayonlarini o'z ichiga oluvchi insonning kundalik hayoti tajribalari, uning tabiat, atrofidagi kishilar va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarida hosil qilgan malakalari, ko'nikmalar, uning shaxs sifatida shakllanishi davomida egallangan ahloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy, shuningdek fanlarni o'rganish asosida olgan bilimlari, badiiy texnik va ilmiy ijodlarining jamidir.

Ma'naviylikni, ya'ni ma'naviy boylikning shakllaridan kelib chiqib, ikki turga bo'lib o'rganish mumkin. Ularning birinchisi- individ ongi va ruhiyati bilan bog'liq individuallashgan ma'naviy borliq bo'lsa, ikkinchisi- individ ongi va

ruhiyatidan tashkari ularga bog'liq bo'limgan ob'ektivlashgan ma'naviy borliqdir.

Individuallashgan ma'naviy borliqning tashuvchisi- bu individ ongi va ruhiyatidir. Ular individ- alohida kishi miyasining xossalari bo'lib inson borlig'ining ajralmas qismlaridir. Konkret kishining xis tuyg'ulari, ichki ruhiy kechinmalari, orzu istaklari, xotirasi, taa'surotlari, fikrlari, xayollari, qarashlari, g'oyalari, individual ongi, ong osti va ongsizlik jarayonlar individuallashgan ma'naviy borliqning elementlaridir. Individuallashgan ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda sodir bo'ladigan jarayonlarning mavjudligini bevosita tashqaridan turib sezish, kuzatish, bilish mumkin emas. Ularni ilg'ash his qilishning birdan - bir yuli - individning - konkret kishining o'z ongida, o'z ruhiyatida o'zgarayotgan jarayonlar tugrisida o'ziga o'zi xisob berishdir. Fan sohasida hali kishi miyasida sodir bo'ladigan ong faoliyatini, ruhiy jarayonlarni butunlay to'laligicha bilish, qayta tiklash yoki qayd qilib qo'yishga hozircha erishilgani yo'q. Biz shu paytgacha, odatda ularning sub'ektiv taassuroti qoldirgan biz uchun tabiiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'rinishlarini ajratib olib, qayd qilib kelamiz, xolos.

Individuallashgan ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati yana shundaki, unga xos jarayonlar individning dunyoga kelishi bilan paydo bo'ladi va olamdan o'tishi bilan birga yo'g'oladi.

Individuallashgan ma'naviy borliqning xususiyatlarini asosan ruhshunoslik fani o'rganiladi. Ma'naviy borliqning bu ko'rinishi hozirgacha ong haqida fanlarda, xususan falsafada nisbatan kam tadqiq qilingan, tadqiq qilingan bo'lsa ham, unga ko'proq bevosita yondashib kishi ongidagi jarayonlarni uning hatti harakatlaridan kelib chiqib izohlaganlar. Lekin individ ongini bilvosita o'rganishga kirishgan bir qator fanlar xususan, ruhshunoslik fani keyingi vaqtarda ma'lum yutuqlarga erishish bilan bir qatorda bu sohada ko'pgina qiyinchiliklarga ham duch kelmoqda. Shulardan biri ongning real mavjudligi masalasi bo'lib unda bir tomondan, ong jarayonini individ miyasi va asab sistemasidagi tabiiy va biologik jarayonlardan ajralgan holda o'rganish mumkin emasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan ong ma'naviy hodisa bo'lidanidan, uning moddiy narsalar sifatida tadkik kilib bulmayotganligidir. Shu bilan birga, ong jarayonlari haqida fikr yuritishning murakkabligi yana shundaki, ularni tilda, nutqda to'la berib bo'lmaydi. Chunki miyada ongli jarayonlardan tashqari hali anglanmagan ong osti va ongsizlik jarayonlari ham kechadi. Individuallashgan ma'naviy borliq shu sababli faqat individ ongi, ong jarayonlarigina emas, balki mana shu hali anglanmagan ong osti va ongsizlikni ham o'z ichiga oladi.

Shu munosabat bilan bu hodisani o'rgangan olimlar o'rtasida ong osti, anglanmagan, ongsizlik hodisalar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, ularni qanday izohlash mumkin? - degan savollar tug'iladi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida bu savollar yuzasidan psixologlar va faylasuflar o'rtasida qizg'in munozaralar kelib chiqadi. XX asr boshlarida bu muammoni psixiatrlar, xususan, Z. Freyd va uning izdoshlari qizg'in o'rgana boshlaydilar. Ular o'z eksperimental

tadqiqotlari bilan ong osti anglanmagan va ongsizlik jarayonlarining individ miyasida, uning ruhiyatida mavjudligini e'tirof etadilar. Keyinchalik ularni qo'llab-quvvatlagan bir qator psixologik /ruhshunos/ va faylasuflar ongsizlikni individ ruhiy faoliyatining muhim bir tomoni sifatida izohlashadi.

Z.Freyd va uning izdoshlarining tushuntirishlaricha individ miyasi va asab tizimiga ongsizlikning uch darajasi hosdir.

1-daraja. Bu darajada ongsizlik inson tanasining yashashini ta'minlab, tana vazifalarini koordinatsiya qiladi, hamda tananing bir qator oddiy biologik extiyojlarini qondirishni nazorat qiladi. Bu nazorat inson tomonidan o'z o'zidan, aynan anglab olinmagan holda ko'p hollarda aniq amalga oshiriladi. Kishidagi ayrim intilish va hohishlar, tushlar, ichki ruhiy holatlar ongsiz jarayonlar asosida sodir bo'ladi.

2-daraja. Bu darajadagi ongsizlik inson ma'lum davrgacha anglab etmagan, aslida onglilik bilan tutashib ketgan, lekin keyinchalik anglangan fikrlarni o'z ichiga oladi. Masalan, «tilimning uchida turibdi», «miyamga bir fikr keldi» deganda, avvalo, ong ostida vujudga kelgan, lekin hali anglanmagan, keyinchalik esa anglanadigan fikrlar yaqqol misol bo'la oladi.

3-daraja. Ongsizlikning bu darajasi badiiy, ilmiy, xayoliy jarayonlarda intuitiv asosida kiyosiy va fikriy jarayonlarga xosdir. Bu jarayonlarda ongsizlik intuitsiyalar ishi bilan yuzaga chiqadi. Ong osti, anglanmagan va ongsizliklarning mavjudligini bilishning qiyinligi shundaki ular inson ruhiy jarayonida onglikda namoyon bo'lish hollarida, birinchidan, to'liq yuzaga chiqmaydi: ikkinchidan ularni ong sohibi ongi ushlab qolgan ayrim ko'rinishlar tarzida anglangan bo'ladi. Lekin shunga qaramay inson ruhiy jarayonini chuqur o'rganish ularning mavjudligidan dalolat beradi. Umuman, individuallangan ma'naviy borliqni chuqurroq o'rganish lozim. Ma'naviy borliqning bu shakliga individning o'z-o'zini anglashi ham kiradi. O'z-o'zini anglash individuallashgan ma'naviy borliq tarkibida muhim o'rinni tutadi. /uning tabiatini va o'ziga xos xususiyatlari «Ong muammozi» mavzusida ochib berilgan/.

Xullas, individuallashgan ma'naviy borliqni alohida borliq sifatida o'rganilar ekan, inson borlig'idan, umuman, bir butun olam borlig'idan alohida ajratib qaramaslik kerak. Chunki, bir butun olamsiz inson bo'lmanidek insonsiz ong ham individsiz individuallashgan borliq ham bo'lmaydi, u individning individual ruhiy-ijtimoiy hayoti faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy borliqning ikkinchi ko'rinishi - bu ob'ektivlashgan ma'naviy borliqdir. Bu borliqda individ ongida paydo bo'lgan g'oyalar, qarashlar, fikrlar undan tashqarida chiqib ob'ektivlashadi, reallashadi, moddiylashadi. Natijada endi ular individual ongdan tashqarida yashay boshlaydi. Ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, u sub'ekt ongidan - individual ongdan chiqib unga bog'liq bo'lman holda ob'ektivlashgandan sung tabiiy va sun'iy tillar materiallari, ijtimoiy ong va uning shakllarida masalan muayyan san'at asarlari va madaniyat obidalarida ifodalangan g'oyalar karashlar nazariya va ta'limot shakllarida tarixiy tarakkiyot davomida rivojlanib, takomillashib boradi,

va asrlar osha insoniyatga xizmat qilib saqlanib turadi. Ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning bir ko'rinishi bu til /nutq/dir. Til /nutq/da ong faoliyatining bir qismi reallashadi. Individual ongdan tashqariga chiqib, ob'ektivlashadi. Tilda ong mahsuli - fikr moddiylashadi: u tovushlar va so'zlardan tashkil topib, gaplar va bayon qilingan nutqlarda ifodalanadi. Dastlab individual ongda paydo bo'lган g'oyalar va fikrlar endi tovushlar va so'zlar, jumlalar va gaplar, matnlarda ongdan tashqarida reallik sifatida mavjud bo'ladilar. Shu realliklar tufayli insoniyat madaniyatni yaratadi, shu realliklar tufayli moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari vujudga keladi va avloddan avlodga o'tib, ularga xizmat qilib, insonni ma'naviy jihatdan boyitib boradi.

Ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning vujudga kelishi va mavjud bo'lishini boshqa misolda ham ko'rish mumkin. Masalan, eng qadim zamonda ibtidoiy inson miyasida non qilish, uni pishirish goyasi individuallashgan borliq shaklida vujudga kelgan. Bu g'oyani u o'z hayotida qo'llab real nonni qilgan va pishirgan. Non g'oyasi qilingan va pishirilgan nonlarda ob'ektivlashgan. Bu g'oya non qilish va pishirishdagi boshqa kishilarning malaka va tajribalari bilan boyib, rivojlanib borgan, bora bora u chiroqli va mazali nonlar tayyorlash bilimlari va san'atiga aylangan. Bu bilimlar va non yopish san'ati bizning kunlarimizda ham davom etib kelmoqda. Bundan ko'rindiki, dastlab individ ongining mahsuli bo'lган non g'oyasi individuallashgan ma'naviy borliq, shaklidan chiqib keyinchalik real nonlarda reallashadi va ob'ektivlashadi. Bu g'oyani keyingi avlodlar o'z faoliyatlarida yanada rivojlantirib ularga «o'lmas xarakter» kasb etishadi.

Insoniyat yaratgan barcha moddiy va ma'naviy madaniyat va san'at asarlari, madaniy yodgorliklar, kitoblar, formulalar, loyihamalar, modellar, ranglar, kuylar, notalar, raqlar - hamma hammasi individual ma'naviyliklarning ob'ektivlashgan, moddiylashgan ko'rinishi ob'ektivlashgan ma'naviy borliqdir. Bu ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning mavjud bo'lishida xotira alohida rol o'yaydi. Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti davrida xotirada saqlash va uni foydalanishda «elektron mashinalar xotirasi» muhim axamiyat kasb etmoqda. Biz oldin ashula teksti va muzikalarimizni gramplastinkalarga, keyinchalik magnitofon lentalariga hozirda videomagnitofon lentalariga yozib qo'yib, istagan paytda ularni qo'yib eshitib ham ko'rishimiz mumkin.

Demak, ob'ektivlashgan ma'naviy borliq ham insoniyatning ma'naviy moddiy hayotida, madaniyat, fan, san'at, adabiyotning paydo bo'lishi tsivilizatsiyaning rivojlanishida juda katta rol o'yaydi.

Ma'naviylik, ma'naviy borliqning qanday ko'rinishida mavjud bo'lishidan qat'iy nazar u moddiy asossiz mavjud bo'lmaydi. Individualashgan ma'naviy borliq individ miyasi, markaziy asab tizimi butun organizm faoliyatining betakror jarayonlari ko'rinishida mavjud bo'lsa ob'ektivlashgan ma'naviy borliq ijtimoiy ong shakllari tarzida inson madaniyatining turli ko'rinishlarida moddiylashgan, ob'ektivlashgan shakllari tarzida namoyon bo'ladi. Bu individualashgan ma'naviy borliq va ob'ektivlashgan ma'naviy borliqlar bir birlariga o'tib, bir birlarini

boyitib, to'ldirib boradilar, ularni o'zaro dialektik munosabatda olib o'rganish lozim.

Sof ma'naviy borliqning o'zi mavjud emas. Sof ma'naviy borliqni e'tirof etish idealizmga olib boradi. Ma'lumki ob'ektiv idealizm vakillaridan biri Platon /Aflatun/ ning qarashicha, moddiy borliqdan alohida unga bog'liq bo'lman holda yaxshilik, haqiqat, go'zallik va shu kabi « g'oyalar dunyosi» ob'ektiv mavjud emish. Platon bunda ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini mutlaqlashtiradi, bo'rttiradi va shu asosida ularni idealistik tushuntiradi. Platon o'z fikrini isbotlash uchun misol keltiradi: masalan, to'quv mokisi buzilgan yoki yo'g'olgan taqdirda ham u to'g'risidagi fikr doimo yashayveradi va qaerda mokiga ehtiyoj tug'ilsa bu g'oyadan kishilar foydalanaveradi. Platonning bu fikridan ma'naviy borliq tabiiy borliqqa, inson borlig'iga bog'liq bo'lman holda ulardan mustaqil mavjud, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, ma'naviy borliq moddiy borliq bilan bирgalikda bir butun borliqni tashkil etishi ma'lum bo'ladi.

Shuning uchun ham falsafa borliqning hamma shakllarini va ko'rinishlarini ularning ichki o'zaro bir birlari bilan aloqadorlikda, o'tishda, bog'lanishda, bir birlariga ta'sir va aks ta'sirda olib o'rganadi va tushuntiradi. Masalan, individuallashgan va ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning bирgalikdagi ko'rinishida namoyon bo'ladigan axlokiy-ma'naviy printsiplar, huquqiy-tartibot normalari, ideallar, go'zallik,adolat, yoshlik, insoniylik kabi ma'naviy qadriyatlar insoniyat hayotida ayniqsa ijtimoiy olam tizimida muhim rol o'ynaydi. Bunda individuallashgan ma'naviylik yakka individ shaxsining ma'naviy dunyosini belgilasa, ob'ektivlashgan ma'naviylik bir butun, jamiyat ma'naviy hayotini belgilaydi.

Borliqning yana bir shakli- bu ijtimoiy olamdir. Ijtimoiy olam individual yakka shaxs va jamiyat borlig'ining birligidan iborat borlikdir. Ijtimoiy olam deyilganda individual yakka shaxs va jamiyat hayotining hamma tomonlari emas, balki ularning bir butun moddiy hayoti tushuniladi. Jamiyatning moddiy hayoti esa kishilarning o'z hayotlari jarayonida ularnin irodalariga bog'liq bo'lman ishlab chiqarish munosabatlaridan, bu ishlab chiqarish munosabatlarining jamini o'z ichiga olgan jamiyatning iqtisodiy tizimi, real bazasidan iborat bo'ladi. Jamiyatni dialektik, materialistik tushunishga ko'ra, moddiy ishlab chiqarish usuli, umuman hayotning sotsial /ijtimoiy/, siyosiy va ruhiy jarayonlariga sabab bo'ladi. Kishilarning ongi ularning borlig'ini belgilamaydi. Aksincha, ularning ijtimoiy borlig'i ijtimoiy onglarini belgilaydi. Demak, ijtimoiy olam deganda materialistik falsafada bir butun jamiyatning moddiy hayotini moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi hamda ishlab chiqarish jarayonida kishilar kirishadigan moddiy munosabatlarni tushunamiz. Ijtimoiy olam ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liqdir. Ular bir butun jamiyat hayotining ikki moddiy va ma'naviy tomonlarini tashkil qiladi. Bu masala jamiyat to'g'risidagi mavzuda to'laroq ijtimoiy ong bilan bирlikda yoritiladi.

Shuni aytish kerakki, borliq muammosini falsafiy tadqiq qilish uning substantsiya muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Substantsiya<sup>2</sup> deyilganda falsafada dastlabki vaqtarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun dunyodagi barcha predmet va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsa tushunilgan. Masalan, qadimgi davr materialistik faylasuflar suvni, havoni, apeyronni, olovni, atomlarni, ya'ni moddalarning biron turini substantsiya, deb tushunganlar. O'rta asr Sharq falsafasi namoyondalari Al-Kindiy, Ar-Roziy, Frobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd o'z falsafasi qarashlarida substantsiyani hamma narsaning moddiy asosi va ularning mohiyati, deb qaraganlar.

Idealizm vakillari substantsiya, deb butun mavjudlikning asosi bo'lган g'oyani, ruhni yoki sub'ekt ongi va shu kabilarni tushunadi. Masalan, qadimgi yunon mutafakkirlaridan Pifagor substantsiya, deb sonlarni tushunadi. Platon esa g'oyani, substantsiya deb qaraydi. XVII asrda yashagan golland faylasufi B.Spinzo esa substantsiya, deb o'z o'zining sababchisi bo'lган narsani tushunadi. Uning qarashicha, ko'lam va tafakkur ana shu substantsiyaning atributlaridir. Nemis klassik falsafasining vakili I.Kant substantsiya «u shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtli hodisalarni aniqlash mumkin» - deydi. I.Kant fikricha, substantsiya - tajriba ma'lumotlarini sintezlashtiruvchi tafakkurning aprior shaklidir.

Gegel esa «mutloq g'oya», «mutloq ruh»ni substantsiya, deb qarab, uni narsalarning muhim o'zgaruvchan, rivojlanuvchi tomonlarning yaxlitligidir, mazkur tomonlarda bu yaxlitlik ularning mutloq inkor etilishi, ya'ni mutloq quvvat va shu bilan birga, har qanday mazmunning boyligi sifatida ochiladi, - deydi. U substantsiya «mutloq g'oyaning rivojlanish jarayonida muhim bosqich», «har qanday haqiqiy taraqqiyotning negizi», deb ta'riflaydi. Gegelda substantsiya ayni bir vaqtida ham rivojlanuvchi g'oya - ibtido, ham sub'ekt, ya'ni o'z-o'zini tuzdiruvchi asos, ham shu rivojlanishning momenti sifatida qaraladi.

Umuman, falsafani substantsiya muammosini o'rganishda insonni qurshab turgan dunyoning asosi nima o'tadi? uning asosida bir narsadanmi yoki kup narsadan tashkil topganmi? degan savollarga turlicha javob berishadi. Faylasuflarning bir qismi bizni qurshab turgan dunyoning birinchi asos bor deb bilishgan. Ularning bu yagona birinchi asosi to'g'risidagi qarashlari monizm ta'limotini keltirib chiqargan. Lekin **monizm** ta'limoti dunyoning birinchi asosi nima? Materiyami yoki mutloq g'oya («mutloq ruh»), ongmi? degan savolga bergen javoblariga ko'ra ikki xil bo'lган. Dunyoning birinchi asosi materiyadir deb qarovchi monistik ta'limot materialistik monizm deyiladi. Dunyoning birinchi asosi «mutloq g'oya», «mutloq ruh» yoki ong deyuvchi monistik ta'limot **idealistik monizm**, deb atalgan.

---

<sup>2</sup> Substantsiya / lat. Substantsiya - o'zb. Mohiyat) falsafada narsaning mohiyati haqidagi ta'limot.

Faylasuflar orasida dunyoning asosini bir narsa emas balki ikki narsa ham g’oya /ruh/, ham materiya tashkil qiladi deyuvchilar ham mavjud bo’lgan. Masalan, yangi zamon falsafasida frantsuz faylasufi Rene Dekart substansiya muammosini qarab chiqar ekan u dunyoning asosida ham materiya ham g’oya /yoki ruh/ yotadi deydi. Bunday qarash **dualizm** deb ataladi. Dualizm ta’limotining tarafdorlari dunyoning asosiga bir-biriga bog’liq bo’lmagan ham materiya ham ruh / g’oya/ni qo’yishib, ular o’rtasida hech bir umumiylit yo’q deyishadi. Dualizm ta’limoti odatda teologik va ilmiy tafakkurning o’zaro sig’ishmasligining o’ziga xos ifodasi sifatida paydo bo’ldi.

Substansiya muammosini hal qilishda monistik va dualistik qarashlardan farqli **plyuralistik** qarashlar ham mavjud. Plyuralistik qarashlardan iborat plyuralizm ta’limoti nuqtai nazaricha, dunyoning asosini yakka bir narsa emas balki ko’p narsalar tashkil qiladi.

## **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:**

1. Falsafada borliq va substantsiya masalasi qanday ahamiyatga ega?
2. Materiya va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Falsafada harakat va materianing bir-biriga bog'liqligi qanday?
4. Borliqning mavjudlik shakllari haqida nimalarni bilasiz?
5. Hozirgi zamon fani borliqning bir butunligi to'g'risida qanday fikrda?
6. Markaziy Osiyoda umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirishning qanday muammolari mavjud?

## **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
2. Falsafadan va'z matnlari. T., TDTU, 1995.
3. Tulenov J. G'ofurov Z. Falsafa. T., 1997.
4. Hojiboev A. Ijtimoiy olamni bilishning o'ziga xos xususiyatlari. T., 1991.
5. Rahimov I. Falsafa. T., «Universitet», 1998.
6. Falsafa (E.Yu.Yusupov tahriri ostida). T., Sharq, 1999.

## **11-MAVZU: FALSAFADA INSON MUAMMOSI.**

**Reja:**

### **1. Inson – falsafaning ob’ekti.**

### **2. Inson hayotining ma’nosи. Inson oliy qadriyat sifatida.**

### **3. Insonning umri, o’limi va manguligi.**

Insonning tabiatini va mohiyatini nima tashkil qilishini bilishga qiziqish qadim davrlardan boshlangan. Inson paydo bo’libdiki, u o’zini qurshagan dunyoni, unda o’zining o’rnini o’rganib keladi. U bunda o’zining kimligi va nimaligi, qanday ishlarta qodir ekanligini boshqa tirik mavjudotlardan qaysi jihatlari bilan farq qilishi va qanday tomonlari bilan ularga o’xshash ekanligini, uning insoniy fazilatlari nimalardan iborat va ular qanday qaror topishi, inson hayotining ma’nosи va mazmunini nimalar tashkil qilishi, inson umri, uning o’limi va manguligi nima ekanligini bilishga qadimdan harakat qilib keladi. Shuning oqibatida, bugungi kunga kelib, inson to’g’risida turli xil: mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar paydo bo’lgandir.

Hozirgacha, bizga ma’lum bo’lgan 2,5-3 ming yildan beri falsafa va boshqa turli aniq fanlar - turli ilm sohalari, ulargacha esa mifologiya va din ham insonni turli tomondan, turli vositalar, yo’llar bilan o’rganib ularning har biri insonni o’zicha, o’ziga xos jihatdan izohlab, tushuntirib kelishadi. Shular asosida inson to’g’risida turlicha tasavvurlar, turli xil ta’limotlar, turli-tuman nazariya kontseptsiya paydo bo’ladi.

Dastlab inson to’g’risida mifologik qarashlar, tasavvurlar paydo bo’ladi. Bu tasavvur va qarashlarga ko’ra, inson o’zini tabiatdan hali to’liq ajralmagan, o’zini tabiatning bir qismi deb, tabiat hodisalarini tabiat bilan bo’lgan munosabatlarini hayoliy, ya’ni fantastik holda tushunadi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan inson haqidagi tasavvurlar yanada rivojlanishi tufayli diniy qarashlar paydo bo’lib, shakllanib boradi. Diniy qarashlarga ko’ra, din insonni xudo yaratganini, uni olamdagи hamma tirik mavjudotlardan yuqori turuvchi oliy mavjudot –mukarram zot, deb tushuntiradi. Shu bilan birga, din xudoning irodasiga bo’ysinishi, xudo nimani xohlasa inson shuni qilishini uqtiradi. Inson to’g’risidagi diniy qarashlarga ko’ra, xudo insonning hamma faoliyatlarini oldindan belgilab qo’ishi, uning taqdiri oldindan ma’lumligi aytildi. Islom dini nuqtai nazaridan esa inson Olloh tomonidan loydan yaratilgan bo’lib, unga Olloh nafasi orqali jon ato qilgan. Inson hamma tirik mavjudotlarning sarvari, u Ollohning erdagи xalifasidir, u hatto farishtalardan ham yuqori turadi. Insonga Olloh haqni tanishi uchun ongni, aqlni ato qilgan. Insonning hayoti «Bu dunyo» va «U dunyo»dan iborat. Inson «Bu dunyo»da vaqtinchalik, omonat yashaydi. «U dunyo»da esa inson bog’iy yashaydi. «Bu

dunyo»- o'tkinchi, «U dunyo» abadiy dunyodir. *Qiyomat* kuni jami inson qaytadan tirladi.

Inson «Bu dunyo»da qilgan yaxshi ishlari, olgan savoblari uchun «U dunyo»da taqdirlanadi, ya'ni «jannatga tushadi». Aksincha, «Bu dunyo»da qilgan gunohlari, yomon ishlari uchun «U dunyo»da jazolanadi, ya'ni «do'zax»ga tashlanadi va h.k.

Inson muammosini qadimdan boshlab deyarli ko'pchilik aniq fanlar ham o'rganib keladi. Xususan, insonni antropologiya, psixologiya, pedagogika, meditsina fanlari, san'at va madaniyat sohalariga oid: adabiyotshunoslik, estetika, etika fanlari; tilshunoslik fanlari ham o'rganib kelishadi. Bulardan tashqari, tarix, iqtisod, siyosatshunoslik, huquqshunoslik fanlari ham inson hayotining u yoki bu tomonlarini o'rganadi. Insonning tanasi uning tashqi va ichki tuzilishi, undagi hayot jarayoni kabi tabiiy tomonlarini anatomiya, fiziologiya, biologiya, gistologiya, genetika singari tabiatshunoslik fanlari o'rganadi. Lekin bu barcha sanab o'tilgan fanlar insonni turli tomondan, uning turli konkret jihatlarini o'rganadi xolos. Ularning hech biri insonni bir butun holda olib, uning umumiy tomonlarini, ya'ni mohiyatini va tub xususiyatlarini o'rganmaydi. Bu vazifani qadimdan falsafa fani bajarib keladi. Qadimdan boshlab inson muammosi falsafa o'rganib kelgan barcha muammolarning markazida bo'lib kelgan. Falsafa inson muammosini, boshqa barcha aniq fanlar to'plagan ma'lumotlar va erishgan bilimlarni umumlashtirib, ularga tayangan holda, insonni bir butun borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida o'rganib keladi.

Lektsiya falsafa insonning bir butun borliqning o'ziga xos alohida bir shakli sifatida olib o'rganib kelgan bo'lsa ham, unga turli davrlarda turlicha munosabatda bo'lib, uni turlicha tushuntirib va izohlab kelgan. Natijada, falsafaning o'zida ham inson muammosiga oid bir-biridan farq qiluvchi, bir-birini to'ldiruvchi va tuzatuvchi har xil qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, kontseptsiyalar, nazariyalar yuzaga keladi. Falsafa, shu bilan birga, inson muammosini o'rganar ekan, u eng avvalo, uni borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida, ya'ni inson borlig'ining, uning o'ziga xos umumiy tomonlari va xususiyatlarini, uning umumiy qonuniyatlarini hamda uning borliqning boshqa shakllari va ko'rinishlaridan farqlarni, ular bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik tomonlarini ham qarab chiqadi.

Falsafa insonning o'zi o'rganadigan asosiy muammolaridan biri sifatida olib, uni o'z o'rganish predmetining asosiy ob'ekti hisoblaydi. Lekin falsafa bunda insonni borliqning bir shakli, inson bilishining ob'ekti sifatida emas, balki falsafiy kategoriya bo'lgan bilishning universal sub'ekti sifatida olib, uning borliqqa, ya'ni ob'ektga - insonning dunyoga va o'ziga munosabatini o'rganadi.

**Falsafa inson muammosini o'rganishni dastlab «inson» tushunchasi nimani ifodalashini, u «individ», «odam» va «shaxs» tushunchalari bilan qanday munosabatda, bu tushunchalar insonning qanday tomonlari va jihatlarini ifodalashlarini qarab chiqishdan boshlaydi.**

Falsafada «inson» tushunchasi eng umumiy tushuncha bo'lib, u o'zida

hamma insonlarga xos ham tabiiy-biologik, ham ruhiy-ma'naviy va ham ijtimoiy jihatlarni birlikda umumlashgan holda mujassamlashtirgan insoniy borliqni ifodalaydi. Bu jihatdan «inson» tushunchasi «individ», «odam» va «shaxs» tushunchalariga nisbatan mazmun jihatdan boy, hajm jihatdan keng bo'lган umumiyy tushunchadir. «Individ»<sup>3</sup> tushunchasi biologik mavjudot bo'lган alohida bir tur, ya'ni «xomosapinus» (aqli odam)ning bir vakili - yakka odam ma'nosini ifodalaydi. Individ uchun yakka odamlik belgisi muhim bo'lib, tabiiy-biologik, ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy jihatlar nomuhim belgilardir.

«Odam»<sup>4</sup> tushunchasi esa ko'proq insonning biologik turga mansublik jihatlarini ifodalab, uning tabiiy-biologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu tushuncha shu bilan birga, insonga xos nasl-nasabni ham ifodalaydi. «Odam» tushunchasining bu jihatlarining muhim belgilarini tashkil qiladi.

«Shaxs» tushunchasi esa ana shu individ, ya'ni odam bolasining jamiyatda ijtimoiy muhit ta'siri, ta'limi va tarbiyasi natijasida ulg'ayib, kamol topib, ijtimoiy zotga, jamiyat a'zosiga aylangan yakka kishini ifodalaydi.

Demak, insonning mohiyatini bir butun holda individga, odamga va shaxsga xos bo'lган jami xususiyatlarning majmuyi tashkil qiladi. Inson mohiyatining asosiy belgisini uning ijtimoiy jihat - ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Shu sababli muayyan davr, muayyan jamiyat kishisi - insonning qanday xususiyatlarga egaligini, uning qanday ijtimoiy qiyofa kasb etganligini tushunmoq va tushuntirmoq uchun mazkur jamiyat ijtimoiy munosabatlari tizimidan kelib chiqmoq zarur. Ijtimoiy munosabatlarni esa ko'p jihatdan insonning tabiiy - biologik xususiyatlari, yanada ko'proq darajada ruhiy - ma'naviy va boshqa xususiyatlari belgilaydi. Insonning mohiyati uning ham jisman, ham ruhan, ham ma'nan xususiyatlari bilan chambarchas bog'langan.

Bunda gap shundaki, inson deyilganda: jismoniy tanaga ega bo'lган individ, jonli mavjudot, ya'ni odam, o'z shaxsiga ega, ijtimoiy faoliyat ko'rsatadigan, fikrlaydigan va o'z fikrini nutq orqali bayon qiladigan, ongga va tilga ega bo'lган, jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar sohibi - ijtimoiy zot tushuniladi. Insonga ijtimoiy xususiyatlar bilan bir qatorda, tabiiy-biologik, ruhiy - ma'naviy xususiyatlar ham xosdir. Bu xususiyatlarning jami birlikda, haqiqatan ham, insonni ijtimoiy mavjudodga aylantiradi.

Inson muammosini falsafiy tahlil qilishda inson mohiyatining bu jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Falsafada inson muammosini tahlil qilishda uning mohiyatini, butun faoliyatini faqat tabiiy, (ya'ni jismoniy va biologik) jihat bilan izohlab, inson mohiyati uning tabiiy tomonlarinining ifodasidan iborat deb, tushuntiruvchi

<sup>3</sup> Individ- (lotincha: *individum*- so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha: bo'linmas» degani) yakka odam, yakka bir kishini ifodalovchi tushuncha.

<sup>4</sup> Eslatma: Sharq xalqlarida, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarida «inson» tushunchasi o'rnilida doim «odam» tushunchasi qo'llanilgan. Inson bolasi tug'ilgandan keyin kamol topib odamga aylanadi. Masalan, ota-onalar farzandlariga «Qachon odam bo'lasan?» deyishadi. Hazrat A.Navoiyda ham «odam» tushunchasi shu ma'noda ishlatilgan.

nazariyalar ham mavjud. Bu nazariyalar inson muammosini tahlil qilishda insonning ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy jihatlarini, uning jamiyat mahsuli - ijtimoiy zot ekanligini, insoniyat tarixini, ijtimoiy taraqqiyot, qonunlarini e'tiborga olmaydilar. Masalan, bunday nazariyalardan biri biologik kontseptsiya namoyondalari inson mohiyatini tushuntirishda yakka individning tabiiy-biologik xusiyatlardan kelib chiqib, jamiyatni tashkil qilgan kishilarni o'zaro faqat tabiiy, biologik jihatlar bilan bog'langan, deyishib insonning ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy tomonlarini e'tiborsiz qoldiradilar.

Inson haqidagi ikkinchi bir psixologik nazariya - bu «ruhiy tahlil» kontseptsiya vakillarining qarashlari bo'lib, unda inson mohiyatini insonning ruhiyatidan, unga xos har xil instinktlar va ularning holatlaridan kelib chiqib izohlanib, insonning tabiiy-bilogik va ijtimoiy jihatlariga etarli e'tibor bermaydilar.

Psixologik, ya'ni ruhiy tahlil nazariyalarining ba'zi vakillari hatto inson muammosini tahlil qilar ekanlar, shaxsni «xudbinlik instinktlari», «shaxsiy boylik to'plash instinktlari», «urushqoqlik» va hatto «bir-birini o'ldirish instinktlari» asosida sharhlashib uning mohiyatini shu xususiyatlar orqali tushuntiradilar.

Inson mohiyatini bunday izohlash insonning tabiiy vva biologik hamda ijtimoiy xususiyatlarini kishilargning aqliy ahloqiy jihatlarini buzib ko'rsatishga olib keldi.

Aslida Falsafa inson muammosini o'rganar ekan, u eng avvalo, insonni borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida olib, uni eng murakkab borliq sifatida, uning o'ziga xos eng muhim tomonlari, xususiyatlarini, uning borliqning boshqa shakllari va ko'rinishlari bilan o'zaro bog'lanishlarini, aloqadorlik tomonlarini hamda ulardan tub farqlarini qarab chiqishi lozim. Falsafa shu bilan birga, inson muammosini o'zi o'rganadigan asosiy muammolardan eng asosiysi sifatida o'z o'rganish predmetining markaziy ob'ekta hisoblaydi. Lekin falsafa bunda insonni o'zining borliqni bilish ob'ekta sifatida emas, balki falsafiy kategoriya bo'lgan universal sifatida olib, uning bir butun borliqqa, ya'ni insonning o'ziga va butun dunyoga munosabatini o'rganadi. Shu sababli faylasuflar qadimdan boshlab insonning o'ziga xos muhim, boshqa barcha tirik mavjudotlardan farq qildiruvchi xususiyati deb, uning aqlini tushunganlar.

Shu tufayli ular insonni dastlab o'z asarlarida «aqlli mavjudot», «aqlli hayvon» deb ta'riflaganlar. Keyinchalik jamiyatning taraqqiyoti asosida ular insonni «siyosiy hayvon», «ijodkor hayvon», «tarixning ijodkori», «gapiradigan, tilga va nutqqa ega hayvon», dunyoga diniy munosabatda bo'lувchi mavjudot», deb izohlay boshlagan. Ma'lum davrlardan keyin esa ba'zi faylasuflar insonni «ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, xulq-atvorga ega bo'lgan mavjudot», deb tushuntira boshlaydilar.

Klassik falsafada Aflatun va Arastudan boshlab insonning mohiyatini biror-bir substantsional boshlang'ich: mutlaq g'oya, mutlaq ruh, ong aql, tabiat kabi omillar bilan bog'lab tushuntirib va izohab kelishadi.

Bugungi kunda o'tmishda hosil qilingan inson to'g'risidagi ko'pchilik

qarashlar, hukmron mavqega ega bo'lgan falsafiy kontseptsiyalar keyingi davrlarda fan-texnika sohalarida yuz bergen yangi ilmiy kashfiyotlar, natijalariga zid kelgan holda, ular rad qilinmoqda. Oqibatda, insonni cheklangan, bir tomonlama tomonlama metafizik asosda tushuntiruvchi ko'pchilik kontseptsiyalar va nazariyalar «barham topib, ularning o'rnini ekstentsional - fenomenalogik, antropologik, ya'ni insonni uning aniq hayotiy vaziyatidan, pozitsiyasidan, uning har xil individual - ruhiy hayotidan, individual va ijtimoiy borlig'idan kelib chiqib izohlovchi, tushuntiruvchi nazariyalar ola boshladi.

Inson muammosini o'rganishda insonga konkret ijtimoiy va ruhiy jihatlardan yondashish G'arbiy Evropa falsafasidagi hayot falsafasi (vakillari: F.Nitsshe, Diltey, Bergsom) oqimi qarashlarida, personalizm va nihoyat, «ruhiy tahil» (asoschisi Freyd) oqimi vakillari qarashlarida o'zining yorqin ifodasini topdi.

Inson muammosini tahlil qilishda insonni antropologik jihatdan izohlovchi va tushinuvchi kontseptsiya ham mavjud bo'lib tushinish ham qadimdan yuzaga kelgan. Bu kontseptsiyaning eng yorqin ifodasini nemis mumtoz falsafaning vakili L.Feyerbax falsafiy qarashlarida namoyon bo'lgan. Uning falsafiy qarashlarida inson o'z mohiyati jihatidan tabiat taraqqiyotining mahsuli - tabiat farzandi, ya'ni eng oliv tirik mavjudotdir.

Lekin asrimiz so'ngida, ya'ni XXI asr bo'sag'asida inson muammosiga, uni tushunish va izohlashda, insonning mohiyatini tahlil qilishda yangicha qarashlar paydo bo'ldi.

XVIII Butunjahon falsafiy kongressida jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan umumbashariy muammolardan biri falsafadagi inson muammosi alohida eng dolzarb muammo ekanligi qayd qilinib o'tildi. Bunda insondag'i biologik va ijtimoiylikning nisbati masalasini qayta ko'rib chiqish muhim ekanligi aytildi.

XX asrning so'nggi - XXI asr bo'sag'asida jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, fan va texnika sohalarida, texnologiya jarayonida yuz bergen yangiliklar planetamizda yashovchi ko'pchilik kishilar hayotida tubdan yangi burilish olib keldi. Ayniqsa, hech ko'rilmagan darajada jahonda narkomaniya, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va shu kabilar avj olib, insoniyat tabiiy muhitga va tabiiy jarayonlarga yanada ko'proq salbiy ta'sir qila boshladi. Shu sababli jahon falsafiy fikri takror va takror inson muammosiga, uning mohiyati masalasiga murojaat qilmoqda.

Buning boisi, inson mohiyati haqidagi oldingi cheklangan, bir tomonlama qarashlar, kontseptsiyalar, nazariyalar va ta'limotlar bugungi kunda inson muammosiga oid ko'pchilik hayotiy va zarur masalalarni hal qilishga to'sqinlik qilayotganligidir. Bu hozirgacha inson mohiyati haqidagi oldingi tabiiy-biologik va ijtimoiy kontseptsiyalarni jiddiy ma'noda qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu sababli endi insonni falsafiy o'rganishda uni faqat antropologik, biologik va ijtimoiy jihatdan o'rganish etarli emasligi, bunda insonning paydo bo'lismidagi antrogenezis va sotsiogenezislar bilan bir qatorda keyingi davrlarda gen injeneriyasi berayotgan bilimlar bilan, diniy, ilmiy, estetik va etik qarashlarga oid,

ayniqsa inson ruhiyati va ma'naviyatiga oid yutuqlarga ko'ra yondoshish ham zarur ekanligi aytimoqda. Shu bilan birga, hozirgi kunda insonning o'zi eng oliv qadriyat ekanligi, erkinlik, insonparvarlik, mustaqillik, demokratiya, fuqarolik huquqiy jamiyat haqidagi g'oyalar insonning jisman va aqlan, moddiy va ruhiy-ma'naviy kamoloti masalalari eng muhim masalalar ekanligi qayd qilinmoqda.

Inson muammosiga yana ham chuqurroq kirib borish uchun insonni tabiiy-biologik, ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy jihatlarning birligi sifatida olib o'rganish inson mohiyatini bir qadar to'laroq tushunishga imkon berishi aytimoqda. Shu boisdan «inson va tabiat», «inson va jamiyat», «tabiat va jamiyat», «inson, jamiyat va shaxs» munosabatlari falsafada qaytadan yangicha tafakkur asosida ko'rib chiqilib, yangicha baholanishlarini talab qilmoqda.

Insonning mohiyatini o'rganish, avvalo, uning odam sifatida boshqa barcha turdag'i tirik mavjudotlardan, xususan, hayvonlardan, hatto odamga juda yaqin maymunlardan farqlanuvchi qanday tabiiy-biologik xususiyatlarga ega ekanligini aniqashni taqozo qiladi.

Inson biologik oliy tur - odam sifatida barcha tirik mavjudotlar kabi havodan nafas oladi, oziq-ovqat iste'mol qiladi, uning tanasi ham to'qimalardan iborat, unda ham doimo modda almashuv - assimilyatsiya va dissimilyatsiya, to'qimalarning paydo bo'lishi, ko'payishi, bo'linishi, emirilishi va o'lishi kabi jarayonlar kechadi. Insonning tanasi ham boshqa hayvonlar tanalari kabi tabiiy-biologik qonunlarga bo'ysunadi. Lekin inson oliy biologik tur - odam sifatida barcha hayvonlardan, shu jumladan, maymunlardan ham, tubdan farq qilib, u o'ziga xos tashqi va ichki tuzilishi, ko'rinishi jismoniy va ruhiy, ahloqiy va xulqiy jihatlariga ham ega. Shunga ko'ra insonning faqat tabiiy-biologik jihatlari hali uning mohiyatini tashkil qilmaydi.

Qadimdan boshlab faylasuflar insonni hayvonlardan ajratib turadigan asosiy tafovutlardan biri deb, **inson xulqini** qayd qilganlar. Insonning xulqi uning ongi yordamida boshqariladi, u insonda ijtimoiy muhit ta'sirida, jamiyatning ta'limi, tarbiyasi va madaniyati orqali shakllanadi.

Lekin ko'pchilik mutafakkirlar inson bilan hayvonlarni ajratib turadigan muhim farq bu - **insonning ongi**, insonda ongning mavjudligi, deb tushuntiradilar. Bunday yondashuv ma'lum darajada to'g'ri. Biroq inson bilan hayvonlar o'rtasidagi bu farq ulardagi asosiy va muhim farqlardan faqat bittasidir, xolos. Bunda boshqa muhim farqlarni ham hisobga olish zarur. Masalan, ko'pchilik mutafakkirlar va faylasuflar insonni hayvonlardan farq qildiruvchi muhim belgi – bu insonga xos **til**, **nutq tili**, degan fikrni ham bildirishgan.

Ba'zi mutafakkir faylasuflar insonni hayvonlardan farq qildiruvchi muhim omil, bu - **madaniyatdir**, deyishadi. Madaniyat faqat insoniyatgagina xos bo'lib, u insonning inson sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'yaydi.

Boshqa bir guruh mutafakkir faylasuflar esa insonni hayvonlardan ajratuvchi muhim farq - bu insonga xos **ahloqdir**, deyishadi.

Haqiqatdan ham hayvonlardan, avvalo, o'zining odob-ahloqi bilan farq qiladi, hayvonlar esa odob-ahloqqa ega emas. Ahloq insonda inson ulg'aygan

ijtimoiy muhit: oila, bog'cha, mahalla, maktab, ko'cha-ko'y, uni qurshagan kishilar ta'sirida qaror topadi.

Shuni aytish kerakki, biz yuqorida ko'rib chiqqan insonga xos xulq ham, ong ham, til ham, madaniyat va ahloq ham hamma-hammasi jamiyatda ijtimoiy muhitda, jamiyatning ta'limi, bilimi va tarbiyasi tufayli vujudga keladigan ijtimoiy omillardir. Jamiyat esa kishilarning ijtimoiy uyushgan birligi, ijtimoiy munosabatlar jamidan iboratdir. Jamiyat biologik individlarning oddiy yig'indisi yoki odamlar to'dasi, galasi emas. Biologik individlarning bunday birliklari poda, to'da yoki gala, deb ataladi. Lekin ularning hech birida insoniy fazilatlar, insonlar jamoasiga xos belgi va xususiyatlar mavjud emas. Hayvonlarga xos bu birliklar, asosan, instinctlar, tabiiy-biologik xususiyatlar asosida tashkil topadi.

Shularni hisobga olgan holda faylasuflar: inson faqat oliy biologik tur, ya'ni odam bo'libgina qolmasdan, u eng avvalo, ijtimoiy mavjudot - ijtimoiy zot, deyishib, insonni hayvonlardan butunlay farq qildiruvchi omil bu uning ana shu ijtimoiy tomonlaridir, degan fikrni bildirishgan.

Bizga ma'lumki, o'rta asrlarlarda Sharq faylasuflari, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkir faylasuflari tomonidan o'z vaqtida to'g'ri ko'tarilgan bu masala haqida juda teran va chuqur fikrlar aytilgan bo'lishiga qaramay, unga e'tibor berilmay kelindi.

Haqiqatan ham o'rta asr, Uyg'onish davri Sharq faylasuflari, xususan Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlari insonni tana va ruhining, jism va jonning birligidan iborat, deyishib, bu haqda ularning har biri o'z ta'limotlarini yaratgan edilar.

Sharq faylasuflari inson ikki qarama-qarshi asos: modda va ruhning birligidan iborat mavjudot, deb ta'kidlaydilar. Ularning qarashicha, ana shu ikki asos: modda va ruh inson vujudida o'zaro mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, ikkinchisini soyada qoldirmasligi kerak. Agar insonda bu tartib buzilib, moddiylik ruhdan ustun kelsa, unda insonning o'z amaliy faoliyatida salbiy holatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surilib tashlanadi. Aksincha, insonda ruhiy-ma'naviy tomonlar moddiylikdan ustun bo'lsa, u zohidlik, tarki dunyochilikka berilib, real hayot ishlaridan uzoqashishi, o'zini yakkalangan holda his qilib, jamiyatdan begonalishishi mumkin.

Bordi-yu insonda moddiylik va ruhiy tomonlar bir xilda taraqqiy etgan bo'lsa, kishi ham jismonan, ham ma'naviy sog'lom bo'lib, unda aqlu zakovat, insofu diyonat, odobu ahloq, ilmu ma'rifat qaror topib, hayvoniy nafslardan o'zini tiyishi, va qul bo'lishdan saqlanishi, mol-dunyoga haddan ziyod berilmay, unga oqilona munosabatda bo'lishi, har xil xato va nuqsonlarning oldini opishi mumkin. Ruhiy-ma'naviy jihat, insonning ichki ruhiy dunyosining boyligi, teranligi odamni inson qiladigan, uning hayotini mazmunli, turmushini go'zal qiladigan asosiy omildir.

Insonni ma'naviy, ahloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - uning halol, pokiza yashashi, birovlarining haqiga zarracha xiyonat qilmaslikdan iboratdir. Xarom bilan halolni farqlash, faqat o'z mehnati evaziga yashash,

xaromdan hazar qilish, tekinxo'rlikni, o'g'rilikni, boqimandalikni katta gunohi azim va ahloqsizliq, deb bilish - bular Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkir-faylasuflarning ilgari surgan eng muhim g'oyalari hisoblanadi.

Demak, insonning mohiyatini faqat yo uning ijtimoiy jihatlaridan kelib chiqib ta'riflash, yoki uni tabiiy biologik va ruhiy-ma'naviy jihatlaridan ajratgan holda tasavvur qilish bir tomonlama va notug'ridir. Inson muammosini tahlil qilishda ham tabiiy-biologik, ham ruhiy-ma'naviy va ham ijtimoiy omillarning o'zaro birligiga asoslanib o'rganish to'g'ri bo'ladi. Chunki inson organizmida modda va energiya almashinushi, tanasining to'qima tuzilishi, tana a'zolarining funktsiyalari, undagi reflekslar, instinktlar, asab tizimi, tanadagi qon aylanishi, tananing atrof-muhiyatga moslashuvi, undagi hayot jarayonining ta'minlanishi va shu kabilar tabiiy biologik jihatlardir. Bulardan tashqari, yana undagi ovqatlanish, modda almashinushi, zurriyod qoldirish va shular kabilar ham tabiiy-biologik xususiyatlardir.

Lekin inson bolasi dunyoga kelgandan keyin o'z-o'zini, atrof-muhitni dunyoni bilishi, o'qishi, o'rganishi, tarbiyalanishi, diniy va dunyoviy ilmlarni egallashi, diniy, ahloqiy, estetik, badiiy, huquqiy, siyosiy qarashlarga ega bo'lishi, o'zining ichki ma'naviy dunyosini hosil qilish, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylanishi kabi uning ma'naviy-ruhiy jihatlari ham borki, bularsiz uning insonligi mumkin bo'lmaydi.

Shu bilan birga, inson bolasi ijtimoiy muhitda kamol topishi, boshqa kishilar ta'siri, ta'limi, tarbiyasida bo'lishi, kishilar bilan o'zaro ijtimoiy munosabatlarda bo'lishi, o'zi ham ijtimoiy faoliyat ko'rsatishi, fikrashi, jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini rivojlantirishi moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarishi zarur. Bular uning ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy jihatlaridir. Ular insonda tug'ma bo'lmay, balki tarixiy taraqqiyotning, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarning mahsulidir.

Insonning bu ko'rib chiqqan tabiiy-biologik, ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy jihatlarining hech biri insognda alohida mavjud bo'lmay, balki ular o'zaro birlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, ular o'zaro ta'sir va aks ta'sirda bir-birini rivojlantirib, boyitib, takomillashib, o'zgarib boradi.

Insonga nisbatan faqat sof ijtimoiy va ruhiy nazardan yondashuv, uning tabiiy biologik jihatlarini e'tiborga olmaslik, uni tashqi tabiiy muhitdan ajratib qarash ham uni g'ayri tabiiy kuchdir, degan xulosaga olib keladi. Buning noto'g'riliqi shundaki, inson ham boshqa tabiiy-biologik tirik mavjudotlar kabi tug'ilish, o'sish, ulg'ayish, tashqi tabiiy muhitga moslashish, kasallanish, qarish, keksayish va o'lish kabi jarayonlarni boshidan kechiradi.

Fanning hozirgi taraqqiyoti insonning iste'dodi, qobiliyati, biror soha yoki mutaxassislikka, hunarga moyil bo'lishida biologik omillarning katta ta'siri borligini isbotladi. O'z navbatida, ruhiy va ijtimoiy omillar ham kishilarning tabiiy-biologik jihatlariga kuchli ta'sir kursatadi. Ruhiy va ijtimoiy omillar kishilarning jismoniy rivojlanishiga, nasl qoldirishga, salomatligiga, umrining uzayishiga katta ta'sir qiladi. (Bu ta'sir ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkin). Xalq

bekorga «Sog' tanda sog'lom aql», - demaydi. Va aksincha, ruhan sog'lom bo'lgan kishi jismonan ham bag'uvvat bo'ladi.

Xullas, insonning bioruhiy ijtimoiy mavjudot sifatida ta'riflanishi va izohlanishi falsafaning insonni o'rganuvchi boshqa fanlar sohasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun katta metodologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Inson muammosini o'rganishda inson hayotining ma'nosi va mazmuni masalasini to'g'ri tushunish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun inson hayotining ma'nosini nima belgilaydi, uning mazmunini nimalar tashkil qiladi? Inson qanday yashasa, uning hayoti mazmunli kechadi?... kabi savollarga javob berish lozim bo'ladi. Ochig'ini aytganda, insoniyat paydo bo'lgandan boshlab bu savollarga javob izlab keladi. Bu savollarga javob berish falsafada inson muammosining muhim tomonini tashkil qiladi. Chunki bu masala inson o'zini anglashga kirishgan vaqtadan boshlab uzoq davrlar davomida kishilar dunyoqarashning muhim jihatini tashkil qilib keladi. Shuning uchun ham diniy va dunyoviy, milliy va umuminsoniy masalalar bilan shug'ullanib kelgan buyuk olimlar, davlat rahbarlari va shu kabilardan tortib, oddiy kishilargacha bu masalani o'z hayotida hech kim chetlab o'tmagan.

Ma'lumki, har bir insonga hayot bir marta beriladi, shu jihatdan har bir kishining dunyodagi yashash betakror, uning bu dunyoda vaqtincha va o'tkinchi, hech kim bu dunyoda abadiy yashash mumkin emas. Inson bu dunyoda qancha yashamasin, qanday yashamasin, baribir, bir kun kelib, bu dunyodan ko'z yumadi, uni tark etadi, ya'ni u vafot etadi. Har qanday sharoitda ham inson uchun bu dunyoda o'lim muqarrardir. Shu sababli inson bu dunyodan nom-nishonsiz o'tib ketmasligi uchun imkonimiz boricha harakat qilish lozim. Inson dunyoga keldimi, u hayotda shunday ish qilishi, shunday yashashi kerakki, u umrining oxirida o'limi oldidan o'z hayoti bekorga o'tmaganligi, bir marta yashashga berilgan umr bekorga elga sovrilmaganligi, ayniqsa, o'zi uchun, o'z oilasi, bola-chaqalari farzandlari, eli, xalqi, millati va Vatani uchun yaxshi ishlar qilib, uning umri samarali, ma'noli kechganligi, mazmunli o'tganligiga qoniqish hosil qilib, bu hayotdan rozi bo'lgan holda ko'z yumishi lozim.

Buning uchun har bir kishi bu dunyoga kelgandan keyin, avvalo, o'z hayot yo'lini to'g'ri aniqlab to'g'ri belgilashi, hayotdan o'z o'rnini to'g'ri topishi, hayotda ongli yashashi, o'z hayotini to'g'ri qurishi, o'z oldiga buyuk va oljanob maqsadlar qo'yib, ularni amalga oshirish uchun doimo sabot va qunt bilan harakat qilish, kurash olib borishi zarur. Chunki har bir inson bu dunyoga kelar ekan, u hur va ozod hamda baxtli yashashga ham tabiiy va ham ijtimoiy jihatdan haqlidir.

Inson, aslida, dunyoga baxt uchun, baxtli hayot ko'rish va kechirish uchun, hayotning moddiy va ma'naviy ne'matlardan to'liq barhamand bo'lib yashash uchun keladi. Shuning uchun inson dunyoda kelajakka doimo yaxshi umid bilan yashaydi. U o'z oldiga doimo yaxshi orzu-havaslarni qo'yib, shu orzu-havaslarga erishsam, farzandlarimning baxti va kamolini ko'rsam, deb; men ko'rmagan baxtli kunlarni farzandlarim, nabiralarim ko'rsa deb, yaxshi va qutlug' niyatlar qiladi, kelajakka katta umidlar bilan boqadi. Bunday qarash milliy istiqlol g'oyamizning

ob'ektiv omili rolini ham o'ynaydi. Xalqimiz, millatimizning hamjihatlikda keljak orzu-umidalri bilan yashashi va mehnat qilishi yurtimizni obod va farovonlik sari etaklaydi.

Falsafa inson hayotining ma'nosи va mazmuni deganda avvalo, insonning dunyoda o'zining boshqa kishilarga kerakligini anglab yashashini, uning hayotda o'z yo'lini to'g'ri belgilab, hayotda o'z o'rnini to'g'ri topishini, qilgan yaxshi va ezgu ishlarining beiz ketmasligiga ishonch hosil qilib, o'z mehnatiga yarasha jamiyatda izzat-ikromga ega bo'lishini, uning mehnatiga boshqalar hurmat bilan qarab, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yishini, uning mehnati va ishlari qadrlanishini, unga berilgan umrining samarasiz o'tmaganligini tushunadi.

Inson hayotining ma'nosи, aslida, har bir kishi o'zining kamolatga tomon doimo beto'xtov, uzlusiz harakat qilib, intilib yashashidir. Lekin uning kamolatga etdim, deb unga intilish, harakat qilishdan to'xtashi, insonning o'z-o'zini mahv etlishidir.

Shuning uchun inson hayotining mazmuni va ma'nosи, avvalo har bir kishining hayot yo'lini to'g'ri aniqlash, uning hayotdan o'z o'rnini to'g'ri topishi bilan belgilanadi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi aytganlari ayni haqiqatdir: «Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga etib kelayotgan davrida jamiyatdan o'zining munosib o'rnini topishi kerak. Aks holda, bu narsa noxush oqibatlarga, ba'zan esa og'ir fojialarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo'ladi. Yosh yigit-qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o'z o'rnini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o'z qadrlarini yo'qotishiga olib keladi. O'z qadriga, o'z sha'niga ega bo'lмаган inson hayotda ko'p-ko'p to'siqlarga duchor bo'ladi, beqaror va salbiy ta'sirlrga tez beriladi, uning shaxs sifatidagi emirilishini ham tez kechadi». Aksincha: «Dunyoga umid bilan qadam qo'yib kelayotgan navqiron inson hayotdan munosib o'rnini topsa, turmushidan, taqdiridan, Vatanidan rozi bo'lib yashaydi, umr bo'yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi»...

Inson hayotining qadr-qimmati esa o'z hayotini ongli va mazmunli qurishi, ma'lum maqsadlar asosida yashashi, shu maqsadlari yo'lida kurashishi, boshqa kishilarga nafi va yordami tegishi, o'zidan, avvalo, yaxshi ishlar, yaxshi nom qoldirishi, o'z ishlari va hayotni davom ettiruvchi tarbiyalab o'stirishi, eli, yurti vatani manfaatlari uchun kurashishi, savob ishlarni ko'p va xo'p qilishi asosida qaror topadi. Lekin buning uchun u yoshligidan qunt va sabot biln o'qish, ilmma'rifat o'rganishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib kamol topishi zarur. Shundagina u komil inson bo'lib etishadi.

**«Komil inson deganda biz,-** deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov,-  
**avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo'ladi».**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari birinchi galda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan. Mamlakatda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning amalga oshirilishi, olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar insonni tushunish, insonni qadrlash, insondek yashash jarayonining mohiyatini chuqurroq tushunish imkonini bermoqda. Bu imkoniyatlarning barchasi istiqlol bergan imkoniyatlardir. Mamlakatimiz fuqarolarining birinchi galdag'i burchlari ana shu istiqlolni mustahkamlash uchun safarbar bo'lisdirdir. Istiqlolning mustahkamlanishi esa ayni vaqtida insonning o'z imkoniyatlarini yanada kengroq ochishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ushbu dialektika mustaqil yurtimiz taraqqiyoti dialektikasining muhim jabhasini tashkil etadi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:**

1. Antropologik falsafa deganda nimani tushunasiz?
2. Insonning mohiyati nimada?
3. Inson va tabiat birligini qanday tushunasiz?
4. Insonning abadiyligi nimada ko'rindan?
5. Falsafada inson muammosi qanday yondashuvlarga ko'ra o'rganiladi?
6. Inson va milliy iftixor birligini tushuntirib bering.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997.
2. Isamuxammedov X. Ekologiyaning ijtimoiy-falafiy muammolari. T., 1991
3. Tolipov M. Hayotning kelib chiqishi. T., 1991
4. Mamashakirov S. Ekologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari. T., 1992.
5. Mamashakirov S. Ekologik ta'lif-tarbiyaning istodologik muammolari. T., 1993.
6. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. T., 1997.
7. Davronov Z. Atrof-muhit muxofazasining ijtimoiy-falsafiy muammolari. «Sahovat» jur., 1997 y. 6-son.
8. Falsafa (E.Yu. Yusupov tahriri ostida) T., «Sharq», 1999.

## **12-MAVZU: TARAQQIYOT FALSAFASI.**

**Reja:**

- 1. Dialektika – umumiyl aloqadorlik va o'zaro ta'sir, taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot.**
- 2. Dialektik tafakkur va uning muqobillari: sofistika, eklektika, dogmatika, metofizika, sinergetika.**
- 3. Dialektika kategoriyalari sistema sifatida.**
- 4. Dialektika qonunlari. Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi qonuni.**
- 5. Dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.**
- 6. Dialektikaning inkorni inkor qonuni.**
- 7. Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida dialektika qonunlaridan foydalanishning ahamiyati.**

Borliqni falsafiy tushunish faqat uning turlari va ularning o'ziga xos xossalarni bilib olishdan iborat bo'lmay, balki borliqni tashkil etgan narsa va hodisalarning o'zaro aloqalari va bog'lanishlarini, o'zgarish va rivojlanishlarini bilishni ham taqozo qiladi.

Busiz, olamning bir butun, yaxlit manzarasini tasavvur etib, shuningdek uning haqidagi nazariy xulosaga kelib ham bo'lmaydi. Busiz borliqning holatini, tabiatini, manbai, sababi va harakatga keltiradigan kuchi hamda yo'nalishini tushunishga imkon ham yaratilmaydi. Bu, o'z navbatida, aloqadorlik va taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotning falsafiy muammolarini ham o'rganishni taqozo qiladi.

Harakat, taraqqiyot, umumiyl bog'lanish va aloqadorlik to'g'risidagi falsafiy ta'limotlar ham falsafa fani bilan birga paydo bo'lgan. Bu muammolar tahlili falsafada «dialektika» tushunchasi orqali ifodalangan. Bu tushuncha falsafa tarixida turli davrlarda turli ma'nolarni ifodalab kelgan. Dialektika dastlabki davrlarda o'zaro bahs, munozara olib boruvchi mutafakkirlarning muhokamalaridagi qarama-qarshi, zid fikrlarning to'qnashuvi va shular asosida haqiqatni aniqlash ma'nosini ifodalagan. Antik davr mutafakkirlarining ma'lumotiga ko'ra, munozarada ishtirok etuvchilar, o'z muhokamalarida bir-birlariga muqobil savollarni berib, bu savollarga har tomonlama yondoshib, ulardagi bir tomonlamaliklarni bartaraf qilishga uringanlar. Bunda, ular, o'z muhokamalarida har xil nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, ilmiy, nazariy, ahloqiy, siyosiy, huquqiy va shu kabi voqeа-hodisalar to'g'risida o'z qarashlarini ishlab chiqqanlar. Ular shundan kelib chiqib, dialektika deganda o'zaro bahslashuv san'atini, munozara asosida haqiqatga erishish usulini tushunganlar. Masalan, antik davr mutafakkiri Suqrot dialektikani bahslarda yo'l qo'yiladigan

qarama-qarshi fikrlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochish orqali haqiqatga erishish san'ati, deb tushungan.

Dialektikani bahs san'ati sifatida tushunish hatto o'rtta asrlarda ham davom etgan. Buni o'rta asrlar mutafakkiri Per Abelyarning «Ha va yo'q» nomli asari yaqqol tasdiqlaydi.

Dialektikaga munozara san'ati sifatida qarash o'rtta asrlarda yashagan O'rta Osiyo mutafakkirlariga ham xos bo'lib, hatto bu narsa Uyg'onish davrlarida ham davom etgan. Bu davr mutafakkirlarida ham dialektika savol-javob san'ati sifatida o'zgacha fikrlarni rad qilish usuli bo'lib xizmat qiladi. Bunga misol qilib G.Galileyning «Dunyoning ikki sistemasi to'g'risidagi bahs» asarini ko'rsatish mumkin. Umuman, dialektika tushunchasining paydo bo'lishi, u o'zining dastlabki davrlardagi tor ma'noni ifodalashiga qaramasdan, o'sha davrlardan to bizning kunlarimizgacha qo'llanib kelingan sermazmun falsafiy suhbat usulining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi va insoniyat madaniyatining rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Asrlar davomida to'planib borgan dialektik munozara madaniyati murakkab muammolarni muhokama qilish, ulardagi turli qarama-qarshi nuqtai nazarlarni ochish, aniqlash va tushunish mahoratining qaror topishi inkor qilib bo'lmas ahamiyat kasb etdi. Bora-bora dialektika qarama-qarshi nuqtai nazarlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni ochish usuli sifatida qaraladigan bo'ldi.

Shunday qilib, sekin-asta inson ijodiy tafakkuri o'z tabiat bilan dialektik ekanligi haqidagi tasavvur paydo bo'ldi. Lekin ma'lum vaqt o'tishi bilan dialektika faqat kishilarning o'zaro munozaralarigagina xos emasligi ma'lum bo'la bordi. Oqibatda, dialektika faqat inson fikrlash jarayonigagina xos bo'lmasdan, balki u tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga ham xos, deb qarala boshlandi. Ayniqsa, bu qarash borliq shakllari va turlari o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklarning, ular doim o'zgarib, rivojlanib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishlarining aniqlanishi bilan yanada rivojlandi. Natijada, «dialektika» tushunchasi insonni, uni qurshab turgan dunyoni bilish, uni tushunish va izohlashning umumiy usuli ma'nosini ifodalay boshlaydi.

Vaqt o'tishi bilan «dialektika» tushunchasi hamma narsalar: xoh katta, xoh kichik bo'lishiga qaramasdan, o'zgarib, o'zining oldingi xususiyatlarini o'zgartirib, ilgari ega bo'lman yangi xususiyatlar hosil qilib borishlarini ham ifodalay boshlaydi. Shu asosda asta-sekin dunyoni dialektik tushunish, borliq va bilishga dialektik qarash qaror topa boshlaydi. Lekin dunyodagi barcha o'zgarish, aloqadorlik va rivojlanishlarni falsafiy jihatdan tushunib etish juda qiyinlik bilan kechdi. Sababi: insoniyat taraqqiyotining juda uzoq davrlarigacha kishilar kosmosni, o'simliklar, hayvonot dunyosini, hatto kishilarning o'zlarini ham o'zarmas, doimo bir xilda turadi, deb bilishgan. Dunyoning o'zgaruvchanligi, undagi narsa va hodisalarining bir-birlariga bog'liqligi to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi insoniyatning dunyoni bilishi jarayonida juda katta kashfiyot bo'lgan.

Dunyoning o'zgaruvchanligi to'g'risidagi dastlabki fikrlar ham qadimgi Xitoy, Hindiston hamda Yunonistonning falsafiy ta'limotlarida ilgari suriladi. Qadimgi davr faylasuflari, garchi hali harakatning turli ko'rinishlari va xillari to'g'risida ilmiy dalillarga ega bo'lishmasa ham, borliqning umumiy o'zgaruvchi xarakteri haqida o'z davrlari uchun yangi fikrlarni ilgari surishadi.

Kishilar dastlabki vaqtlardan boshlab o'z tajribalarida narsa, hodisalardagi o'zgaruvchan xususiyatlar bilan birga, ularda ma'lum barqaror, o'zgarmas xususiyatlarning ham mavjudligini anglay boshlaganlar. Nihoyat, dunyo o'zgaruvchanmi, yoki o'zgarmasmi? degan savollar paydo bo'lib, bu savollarga mutafakkirlar turli xil javob bergenlar. Amaliyat bergen ko'pdan-ko'p ma'lumotlarga va o'z kundalik tajribalariga tayangan ko'pchilik mutafakkirlar dunyo o'zgaruvchan, deyishgan. Lekin bunga qarama-qarshi bo'lgan, dunyo o'zgarmas, barqaror, deyuvchi mutafakkirlar ham o'zlarining muayyan asoslariga ega bo'lishgan. Natijada, dunyoning, undagi narsa va hodisalarning ham o'zgaruvchan, ham barqaror o'zgarmas xossalari haqidagi qarashlar kelib chiqadi. Haqiqatan ham, narsa va hodisalar ma'lum vaqt ichida har qancha o'zgarsa ham, ayni vaqtda ularning ma'lum tomonlari o'zgarmay qolaveradi. Xullas, bunday qarashlar to'plana borib, narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari, ular o'rtasidagi ziddiyatlar haqidagi qarashlar tufayli falsafada rivojlanish g'oyasi kelib chiqadi.

Rivojlanish g'oyasi inson ongida uzoq asrlar davomida shakllanib boradi. Dastlab kishilar rivojlanish to'g'risida hech bir tasavvurga ega bo'limgan. Lekin keyinchalik ular dunyodagi narsa va hodisalarda yuz beradigan turli xil o'zgarishlarni anglay borib, dunyoning uzluksiz harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekanligini tushuna boshlaganlar. Ular, shu bilan birga, tabiat va jamiyat voqeа-hodisalarida juda ko'p davriy, takrorlanuvchi hodisalarni ham bila borganlar. Masalan, yil fasllari, kun bilan tunning o'rin almashishi va shular kabi. Lekin dastlabki davrlarda mutafakkirlar rivojlanishni butunlay yangi narsaning, yangi bosqichning paydo bo'lishi, deb tushunish darajasiga ko'tarila olmaganlar.

Rivojlanishni butunlay yangi sifat o'zgarishi, eskiga nisbatan jiddiy yangining paydo bo'lishi, deb tushunishda Uyg'onish davri Sharq va O'rta Osiyo mutafakkirlari, keyinchalik esa o'rta asr xristian, diniy va tarix falsafasi mutafakkirlari bir qadar oldinga ketadilar. Ularning qarashlarida rivojlanish g'oyasini insoniyat jamiyatni tarixiga tatbiq etishga urinishlarni uchratamiz.

Rivojlanish g'oyasini bir butun dunyo rivojlanishi bilan bog'lab tushunishda muhim qadamni birinchi bo'lib frantsuz faylasufi Rene Dekart qo'yadi. U, dunyonи xudo yaratayotib, unga dastlabki turtkini kiritgan va uni harakatga keltirgan, deydi. XVIII asr frantsuz ma'rifatparvarlari Volter va Russo inqilobiq qayta qurishni o'z ichiga olgan tarixiy rivojlanish g'oyasini ilgari surishadi. Ularning izdoshi Kondorse esa o'zining jamiyatning ilgarilama harakati, uzluksiz taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotini yaratadi. Bu mutafakkirlar o'z qarashlarida g'oyaviy omillar (masalan: ahloq, din, huquq va shu kabilar)

jamiyatni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy kuchlardir, degan g'oyani ilgari suradilar.

Nihoyat, rivojlanish to'g'risidagi har xil qarashlarning sintezi sifatida bir butun taraqqiyot nazariyasi faqat nemis klassik falsafasidagina paydo bo'ldi. Bu falsafaning asoschilaridan biri **Immanuil Kant** rivojlanish g'oyasini quyosh sistemasi va barcha yulduzlar dunyosini izohlashga tatbiq etib, uni hatto insonning ijtimoiy rivojlanishiga, xususan, insonning ahloqiy rivojlanishiga ham joriy etishga urinadi. Kantning shogirdi Gerder esa rivojlanish g'oyasini butun xalqlarning tarixi taraqqiyotiga va insoniyat madaniyati taraqqiyotiga birinchi bo'lib tatbiq etadi. Bu davrga kelganda, dialektika tushunchasi endi rivojlanish g'oyasini ifodalay boshlaydi.

Dialektikani rivojlanish haqidagi har taraflama, mazmun jihatdan boy va chuqur ta'lomit sifatida birinchi marta nemis klassik falsafasining buyuk vakili Gegel ishlab chiqdi. Gegelning ulug' xizmati shu bo'ldiki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni uzlucksiz harakat qilib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko'rsatdi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bog'lanishini ochib berishga urindi. Natijada, insoniyat tarixi insoniyatning o'zining taraqqiyot jarayoni sifatida maydonga chiqdi va endilikda tafakkurning vazifasi bu jarayonning barcha yanglishib yurishlari ichida uning izchil bosqichlarini kuzatib borish va zohiriylashtirish tasodiflar orasida bu jarayonning ichki qonuniyatlarini isbot etishdan iborat bo'lib qoldi.

Gegelning taraqqiyot to'g'risidagi bu qarashi dialektika haqidagi falsafiy ta'lomitni yanada boyit-di. Gegel birinchi bo'lib dialektikaning barcha kategoriyalari va qonunlarini ta'riflab bergan edi. Lekin dialektika Gegelda mistiklashtirilgan, bir tomonlama, boshi bilan turgan dialektika edi. Chunki Gegelning fikricha, dialektika «fikrning har qanday ilmiy kengaytirilishining harakatlantiruvchi jonidir va u shunday bir printsipdan iboratdirki, bu printsip yolg'iz o'zi fanning mazmuniga immanent aloqa va zaruriyat kiritadi».

Keyingi davrlarda fan va amaliyot rivoji natijasida dialektika tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining, ulardagi aloqadorlik va bog'lanishlarning eng umumiyligi qonunlari haqidagi fan; voqelikdagi narsa va hodisalar, ularning fikriy in'ikoslari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi printsiplar, ularni doimo o'zgarish va rivojlanishda, ichki ziddiyatlar taqozosini bilan yuz beradigai «o'z harakati»da, deb qaraydigan bilish nazariyasi; har tomonlama boy, ziddiyatlarga to'la tarixiy taraqqiyot haqidagi ta'lomit sifatida maydonga chiqadi.

Bu dialektika bir butun borliqning eng umumiyligi aloqadorligi, o'zgarishi va taraqqiyoti to'g'risidagi ta'lomit sifatida ham moddiy dunyoga, ham uning in'ikosi bo'lgan inson bilishiga xos ta'lomitdir. Shunga ko'ra bu dialektika o'z ichiga ob'ektiv va sub'ektiv dialektikani oladi. Bunda moddiy dunyoning, undagi narsa va hodisalarning aloqadorlik va bog'lanishlari, ularning harakati, o'zgarish va rivojlanishlari ob'ektiv dialektikani tashkil etadi. Moddiy dunyoning inson miyasidagi in'ikosiga xos bo'lgan bilish jarayonining dialektikasi sub'ektiv dialektika — ob'ektiv dialektikaning kishilar miyasidagi in'ikosidir. Demak,

ob'ektiv dialektika — bu narsalar, buyumlar dialektikasidir; sub'ektiv dialektika esa, ob'ektiv dialektikaning inson ongidagi in'ikosi — ya'ni, tafakkur dialektikasidir.

Ob'ektiv dialektika sub'ektiv dialektikani vujudga keltiradi. Bu jihatdan dialektikaga yangicha yondoshish Gegel dialektikasidan tubdan farq qiladi. Gegel dialektikasiga ko'ra fikr, tafakkur dialektikasi narsalar, buyumlar dialektikasini yaratadi, ya'ni sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani tutdiradi. Boshqa faylasuflarning ta'limotiga ko'ra esa, aksincha, narsalar, buyumlar dialektikasi fikr, tafakkur dialektikasini yaratadi.

Dialektika borliq, ya'ni tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi aloqadorliklar va rivojlanishlarning umumiyligini qonuniyatlar haqida bizga to'g'ri yo'naliish berib, dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish yo'llarini ko'rsatib beruvchi nazariyadir, usuldir. Dialektika dunyoning haqiqiy ilmiy manzarasini yaratib, kishilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Chunki ilmiy asoslangan dialektika, birinchidan, dunyodagi har bir narsa yoki hodisaning hamma tomonlarining bir-birlariga bog'liq bo'lishi va bir-birlari bilan juda mustahkam aloqador ekanligi to'g'risida chuqur ma'lumot bersa, ikkinchidan, u bosib o'tilgan bosqichlarni takrorlanayotgandek bo'lib ko'rindigan, lekin ularni boshqacha, yanada yuqoriq negizda takrorlaydigan taraqqiyot, to'g'ri chiziq bilan emas, balki spiral tarzda boradigan, ma'lum holatlarda boshlang'ich holga guyo qaytganday bo'lib ko'ringan, ma'lum tanazzullar va bo'hronlar bilan bo'ladigan ilg'or taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot hisoblanadi.

Dialektika kishilarning, ularni qurshab turgan dunyoni bilishining umumiyligini usuli sifatida dunyoga dialektik qarashni vujudga keltirgan.

Dunyoga dialektik qarash — bu barcha narsa va hodisalarni, ularning inson miyasidagi in'ikoslari — inson bilishini ham o'zaro aloqadorlikda va bog'lanishda, qarama-qarshiliklar birligi va kurashida, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishida, eskining o'rnini yangi egallashida, xullas, ularni «o'z harakati»da, o'zgarib va rivojlanib turishida, paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishida, va ayni vaqtda hamma narsa o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda va o'zaro munosabatda, deb tushunishdir. Bunday tushunish dialektik qarashni vujudga keltiradi. Dunyoga dialektik qarash dialektik tafakkurni yuzaga keltiradi.

Dialektik tafakkur sub'ekt tafakkurining rivojlanish darajasiga ham bog'liqdir. Tabiat va jamiyatda pirovard natijada hamma narsa dialektik tarzda yuz beradi. Bu dialektik jarayon sub'ekt miyasida in'ikos etganda, paydo bo'lgan tasavvur va tafakkur yo metafizik yoki dialektik yo'l bilan hosil qilinishi mumkin. Dialektik tafakkur shu jihatdan inson tafakkuri taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichiga xosdir. Dialektik tafakkur borliqdagi narsa va hodisalar asli qanday bo'lsa, ularning sub'ekt miyasida muayyan fikr shaklida xuddi shunday aks etishidir. Dialektik tafakkur — bu dialektik fikrlash usuli. Dialektik tafakkur ham tabiatshunoslik va ijtimoiy fikr taraqqiyoti bilan o'zgarib, rivojlanib boradi. Uning keyingi davr ijtimoiy taraqqiyot bilan, jahon xalqlari hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq yuzaga kelgan shakli, bu — yangicha tafakkurdir. Yangicha

tafakkurning asosini jamiyatni dialektik tushunish tashkil qiladi. Dialektik tafakkur usuli o’z mohiyati bilan sofistik, eklektik va dogmatik tafakkur usullaridan tubdan farq qiladi.

Tafakkurning sofistik, eklektik, metafizik-dogmatik usullari dialektik tafakkur usulining muqobillaridir. Ular inson tafakkuri faoliyatining turli qirralari sifatida bir-birlariga ham qarama-qarshi, ham, ayni vaqtida, bir-birlarini to’ldiradilar.

Ularning har birining inson tafakkuri jarayonida o’z o’rni bor. Biz ularning har biri bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

**Sofistika**<sup>5</sup>. Sofistik tafakkur usuli dastlab qadimgi yunon falsafasida paydo bo’lib, o’rta asrlarda, ayniqlsa keng tarqaladi va rivojlanadi.

Qadimgi davr yunon falsafasida biron-bir xunarni yoki biron bir bilim sohasini mukammal egallagan kishilar sofistlar, deb atalgan bo’lsa, keyinchalik o’rta asrlarga kelib, notiqlik, donishmandlik, bilimdonlik bilan nom chiqargan kishilar ham, turli omonim so’zlar asosiga ko’rilgan turli fikrlar bilan kishilarning boshini qotiradigan, ustamonlik bilan ular fikrlarini chalg’itadigan kishilar ham sofistlar, deb atala boshlanadi.

Sofistik tafakkur usuli yoki sofistika muhokama jarayonida bilib turib, ataylab yolg’on asoslardan yolg’on xulosalar chiqarish asosida fikr yuritish usulidir. Shu sababli sofistikani Forobiy «yolg’ondakam donolik» deb, izohlaydi. Uning fikricha, sofistik tafakkur usuli bilan fikr yurituvchi kishi o’rganilishi lozim bo’lgan narsalarni o’rganishda aqlni to’g’ri yo’ldan chalkashtiradi va yolg’onni rost shaklda tasavvur qilishga majbur qilib, kishini to’g’ri fikrlashdan adashtiradi.

Sofistika ijtimoiy ildizlarga ega. Sofistik tafakkur usuli haqiqatni ataylab buzib, yolg’on fikrni haqiqat sifatida ko’rsatishga asoslanadi. Bu narsa doimo ma’lum manfaatdan kelib chiqib qilinadi. Bunga odatda formal mantiq qonunlarining talablaridan kelib chiqib yondashish ham imkon tug’diradi. Sofistik tafakkur usulida kishi rasmiy formal ta’riflar bilan cheklanadi va shu asosda fikr yuritadi. Lekin sofistik tafakkur usulini ham faqat salbiy jihatdan qarash to’g’ri emas. Sababi: sofistik tafakkur usuli ilmiy bilishda, haqiqatni aniqlashda salbiy rol o’ynasa ham, biroq u san’atda, har xil komik vaziyatni yaratishda, badiiy tasvirda ijobjiy rol o’ynaydi.

Sofistik tafakkur usuli ham inson tafakkurining bir qirrasi, bir tomoni sifatida tafakkurning rivojlanishida muhim rol o’ynaydi. Dialektik tafakkurning qaror topishida sofistik tafakkurning o’ziga xos muhim o’rni ham bor. Forobiy yozganidek, mantiq qonunlariga qatiy bo’ysuniladigan fikr jarayoni sofistik tafakkur usulidan kishini xalos qiladi.

Fikrning mantiqiy bo’lishi uchun u formal mantiq qonunlaridan dialektik mantiq qonunlari darajasiga ko’tarilishi lozim.

---

<sup>5</sup> Sofistik (yunoncha: sopism — ataylab xato asoslар asosida, ko’p ma’noli so’zlarga asoslanib fikr yuritish) — bilib turib, xato asoslardan yolg’on xulosa chiqarishdir. Bu erda sufiylik falsafasi emas, balki o’rta asrlarda Evropada keng tarqalgan alohida falsafiy ta’limot nazarda tutilali.

**Eklektika.**<sup>6</sup> Dialektik tafakkur usuliga muqobil bo’lgan tafakkur usullaridan yana biri bu eklektikadir.

Eklektik tafakkur usuli ham dastlab qadimgi yunon falsafasida yuzaga keladi. Eklektik tafakkur usuli, ayniqsa, O’rta asr falsafasi va yangi zamon falsafasi sxolastiklari qarashlarida keng qo’llaniladi. Eklektik tafakkur usulida narsa va hodisalarning muhim va nomuhim, asosiy va asosiy bo’lmagan xususiyatlari, ular o’rtasidagi bog’lanishlar mexanik ravishda birlashtirilib, qorishtirilib ifodalanadi. Narsa va hodisalarga, ularning bog’lanishlariga konkret (aniq), muayyan makon va zamonda, muayyan vaziyat va shart-sharoitda yondashmaslik, ulardagи asosiy va ikkinchi darajali tomonlarni hisobga olmaslik asosida eklektik tafakkur usuli paydo bo’ladi. Eklektik tafakkur usuli, ayniqsa, rahbarlikda rahbarning amaliy va nazariy faoliyatida, uning turmush ilgari surayotgan masalalarni to’g’ri hal qilishiga katta xalaqit beradi. U bunda narsa va hodisalarni, ularni tug’dirgan hayotiy muammolarning qaysi biri muhim, qaysi birini birinchi navbatda hal qilishni bilmaydi, u voqealar zanjiridagi asosiy xalqalarni asosiy bo’lmaganlardan ajrata olmaydi.

Eklektik tafakkur usuli turli sohalarda turlicha ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. Eklektik tafakkur usuli asosida ham formal mantiq qonunlaridan noto’g’ri foydalanish, narsa va hodisalar mohiyatiga yuzaki yondashish yotadi.

Natijada, dogmatik tafakkur qaror topadi.

**Dogmatika.**<sup>7</sup> Dogmatik tafakkur falsafadagi amaliyot va fanning yangi ma’lumotlarini hisobga olmay, konkret makon va zamon bilan bog’liq bo’lmagan, o’zgarmas tushunchalar va qoidalar bilan ish ko’rvuchi tafakkur usulidir. Dogmatik tafakkurning assosini metafizika tashkil qilib, u dastlab sofistik tafakkur usuliga qarama-qarshi o’laroq, vujudga keladi. Dogmatik tafakkurning paydo bo’lishi tarixan metafizik usulning karor topishi va rivojlanib borishi bilan borliqdir. Dastlab tabiatshunoslik fanlari sohasida tabiatni tekshirish usuli sifatida paydo bo’lgan metafizika «tabiatdagi buyumlar va jarayonlarni bir-biridan ajratilgan holda, ular o’rtasidagi umumiyy bog’lanishdan tashqarida tekshirishga va shuning natijasida, ularni harakat holatida emas, balki harakatsiz holatida. Muhim darajada o’zgaradigan narsa sifatida emas, balki o’lik narsalar sifatida tekshirishga» kishilarni odatlantirib qo’ya boshlaydi. Bunday tekshirish va tushunish bora-bora o’ziga xos dogmatik tafakkur usulini vujudga keltiradi.

Metafizik-dogmatik fikr qiluvchi kishi nazarida, buyumlar va ularning fikrdagi in’ikoslari, ya’ni tushunchalar bir-biridan keyin va bir-biriga bog’liq bo’lmagan holda tekshirilishi lozim bo’lgan ayrim-ayrim, o’zgarmas, qotib qolgan, hamisha bir zaylda turadigan narsalardir. Uning nazarida, buyum yo mavjuddir, yoki mavjud emasdir va xuddi shuningdek, bir narsa ayni zamonda shu buyumning o’zi va yana boshqacha bo’la olmaydi. Musbat narsa bilan manfiy

<sup>6</sup> Eklektika (**yunoncha**: eklegein — tanlayman, degani) — turli qarama-qarshi nazariyalarni qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

<sup>7</sup> Dogmatika (**yunoncha** so’z bo’lib o’zgarmas, qotib qolgan, aqida degani) — konkret shart-sharoitlarni hisobga olmay qo’llaniladigan qoida, printsip, fikrdir.

narsa bir-birini mutlaqo istisno qiladi... Bu tafakkur usuli, daf'atan qaraganda, bizga tamomila maqbul bo'lib ko'rindi.

O'rta asr falsafasida metafizika teologiyaning falsafiy asosi qilib olinishi bilan diniy aqidalarga ishonish talablari kuchayadi. Bu o'z navbatida dogmatik tafakkurning yanada keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Faqat dialektikaning paydo bo'lishi bilan, metafizik tafakkurning ilmiy jihatdan asossizligi ma'lum bo'lgandan keyingina, dogmatik tafakkur o'zining falsafiy asosidan mahrum bo'ladi. Lekin dogmatik tafakkur hozir ham mavjud. Dogmatik tafakkurning mavjudligi, avvalo, inson o'z bilish jarayonida ba'zan bilishning biron bir tomoni yoki biron holatini noo'rin mutlaqlashtirishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, dogmatik tafakkurning mavjudligi hozirgi zamon falsafasida olamning o'zgaruvchanligi va rivojlanishi g'oyasini inkor etuvchi antidialektik (ya'ni metafizik) kontseptsiyalarning mavjudligi bilan, hamda dialektikani bilmaslik yoki tushunmaslik bilan ham bog'liqdir.

Dogmatik tafakkur, ayniqsa, siyosatda juda xavflidir, u bunda sektantlikka, sub'ektivizmga, amaliyotdan uzilishga, ijodiy jarayonlarni to'xtatishga, ijodiy g'oyalar, nazariya va ta'limotlardan voz kechishga, hamma sohada sodir bo'ladigan yangiliklarni o'z vaqtida payqamaslikka, istiqbolni oldindan ko'rishga to'sqinlik qiladi. Dogmatik tafakkurga ega kishilar, ayniqsa, rahbarlik sohalarida jamiyatga juda katta zarar keltiradilar, ular jahon (jamiyat) taraqqiyotining o'zgargan sharoitlarini hisobga olmasdan, o'zlari ko'nikkan vaziyatga muvofiq eski qarashlarga qattiq yopishib olib, ish tutadilar va fikr yuritadilar. Buni biz O'zbekistonning o'z mustaqil taraqqiyotini boshlab yangicha rivojlanish yo'liga o'tgan davrda ba'zi o'rta bo'g'in rahbar kishilar faoliyatlarida yaqqol uchratdik. Bunga ham sobiq Ittifoq davridagi 74 yillik fanimiz va falsafamiz tarixidan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Umuman, dogmatik tafakkurning hamma xildagi ko'rinishlariga qarshi kurash olib borib, dialektik tafakkurni hamma sohada keng qaror toptirish lozim. Faqat dialektik tafakkurgina ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy ehtiyojlarini, eski shakllarning yangi rivojlangan mazmunga muvofiq kelmasligini, insoniyatning taraqqiyotini ta'minlovchi yangi shakl va mazmunga o'tishning zarurligini to'g'ri hisobga olishga yordam beradi.

Hozirgi kunda shakllanayotgan sinergetika ham dialektika muammolariga yangicha yondoshish kerakligini ko'rsatmoqda.

Dialektika o'z mohiyati jihatdan umumiyl aloqadorlik, bog'lanish, harakat, o'zgarish to'g'risidagi ta'limot sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos eng umumiyl aloqadorlik va bog'lanishlarni to'g'ri ochib borish asosida kishilarga dunyonni o'zlashtirish va o'zgartirish yo'llarini ko'rsatuvchi metodologik qurol bo'lib xizmat qiladi.

Dialektika, avvalo, umumiyl aloqadorlik va bog'lanishlar haqidagi fandir. Chunki borliqdagi barcha narsa va hodisalarni umumiyl aloqadorlikda va o'zaro bog'lanishda olib qarash borliq haqida dialektik fikr yuritishdir. Haqiqatan ham, borliqdagi hamma narsalar, hodisa va jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, ular

umumiyoq aloqadorlikda bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir qilib turadilar, bir-birlarini taqozo qiladilar. Xoh tabiat va jamiyatda, xoh inson hayoti va tafakkurida bo'lsin, hech bir hodisa yoki voqe, o'zgarish yoki jarayon boshqa hodisa yoki voqealardan, boshqa o'zgarish va jarayonlardan alohida, ulardan ajralgan, ularga bog'liq, bo'limgan, ular bilan aloqadorliksiz mavjud bo'lmaydi, aksincha, ular bilan doimo o'zaro aloqadorlikda bo'ladi.

Borliqning turli tomonlari, materiyaning turli ko'rinishlari, uning asosiy mavjudlik usullari, harakatning turli shakllari bir-birlari bilan o'zaro umumiyoq aloqadorlikda bo'lib, bir-birlariga ta'sir va aks ta'sirida, lekin o'zaro bog'lanishda bir-birlarini taqozo qilib turadi.

Dialektikaninr o'zaro aloqadorlik printsiipi yalpi umumiyoq xarakterga egadir. Uning bu yalpi umumiyligi shundaki, birinchidan, bu aloqadorlik bir butun borliqqa, ya'ni tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri va bilishga xosdir; ikkinchidan, bu aloqadorlik borliqning hamma ko'rinishlariga oid barcha narsa va hodisalarni, ularga xos hamma narsa va holatlarni, bir butun inson bilish jarayonini, xullas, bir butun moddiy va ma'naviy olamning hamma bog'lanishlarini o'z ichiga oladi.

Dunyoda boshqa narsalar, hodisalar va jarayonlar bilan tabiiy aloqadorlikda bo'limgan hech bir narsa, jarayon yo'q. Lekin biz o'z bilish jarayonimizda biron narsa yoki hodisani o'rganar ekanmiz, dastlab uni boshqa narsalar yoki hodisalarning umumiyoq bog'lanishlaridan ajratamiz. Bu jarayonda biz uning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish uchun bu narsa yoki hodisaning boshqa narsalar va hodisalar bilan bo'lgan hamma aloqa va bog'lanishlarini, hamma aloqadorliklarini aniqlab, bilib boramiz. Narsa va hodisalarni haqiqatdan bilish uchun ularning barcha tomonlarini, barcha aloqalarini va bog'lanishlarini birga olib o'rganmoq, lozim. Biz garchi bunga hech qachon to'la-tyokis erisha olmasak ham, lekin har tamonlama o'rganish talabi bizni xatolardan, noto'g'ri xulosa chiqarishlardan saqlab qoladi. Shu asosdagina biz bu narsa yoki hodisaning bir butun tabiatini va mohiyatini to'g'ri bilib olishga erishamiz.

Dialektik aloqadorlik va bog'lanishlar bir butun borliqning turli tomonlari va materiyaning turli ko'rinishlari o'rtasidagina mavjud bo'lmasdan, balki har bir narsa yoki hodisaning ham o'zidagi barcha tomonlari, hamma belgi va xususiyatlari o'rtasida ham mavjuddir.

Chunki har bir narsa yoki hodisaning hamma tomonlari bir-biriga bog'liq bo'lishi va bir-birlari bilan juda mahkam va chambarchas aloqadorligi qonuniy va tabiiy holdir.

Aloqadorlik va bog'lanishlar borliqning turli sohalarida turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Bular quyidagilardir: a) «elementar» zarralarning bir-birini taqozo qilishi va aks ta'siri shaklida; b) planetalarning bir-birini tortib va itarib turishlari shaklida. Organik tabiatda: a) tirik organizmlarning modda almashinushi shaklida; b) tirik organizmlar bilan tabiiy muhit o'rtasidagi bog'lanishlar; v) o'simlik va hayvonot dunyosining o'zaro aloqadorligida; g) hayvonlar va odamlar o'rtasidagi munosabatlarda va h. k. Jamiyatda bo'lsa: a)

jamiyat bilan tabiat o'rtasida; b) jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti o'rtasida; v) jamiyat ishlab chiqarish usulining tomonlari: ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida; g) jamiyatning iqtisodiy bazisi bilan ustqurmasi o'rtasida; d) jamiyat iqtisodiy strukturasi elementlari o'rtasida; e) jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda ko'rindi. Tafakkurda bo'lsa: a) bir butun tafakkur jarayonida, tafakkur shakllari o'rtasida; b) tafakkur shakllari va qonunlari o'rtasida; v) tafakkur va borliq o'rtasida. Bilish jarayonida esa: a) xissiy bilish va aqliy bilish o'rtasida; b) bilish bosqichlari va bilish shakllari o'rtasida; v) bilish bilan borliq o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarda ifodalanadi.

Borliqning aniq sohalariga oid bu aloqadorliklarni turli aniq fanlar o'rganadi. Bunda har bir fan o'z sohasidagi aloqadorliklar zanjiridagi ma'lum, o'rganilgan xalqalarga tayangan holda hali ma'lum bo'lмаган yangi xalqalarni ochib boradi. Bu jarayonda borliqning ma'lum bir turiga oid konkeret sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning yangi bir turi ham ochilishi va ma'lum oraliq sohalarni o'rganuvchi yangi fanlarning paydo bo'lishi mumkin. Masalan: biofizika, biomexanika, fizikaximiya, geofizika, matematik lingvistika, matematik mantiq va boshqalar shular jumlasidandir.

Umuman, borliq bepoyon aloqadorliklar va bog'lanishlar majmuidir. Turli fanlar bu aloqadorliklar va bog'lanishlarni turli jihatdan o'rganadi. Dialektika esa bir butun borliqqa va uning turli ko'rinishlariga xos bo'lган eng umumiyoq aloqadorlikni va bog'lanishlarni o'rganadi va ochib beradi. Dialektikada bunday aloqadorliklarning uch turi mavjud: 1) universal, 2) strukturaviy, 3) deterministik aloqadorliklar. Bu jihat bilan dialektika konkret fanlardan farq qiladi.

Dialektika o'rganadigan borliqning bu eng umumiyoq aloqadorliklari va bog'lanishlari falsafada quyidagi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bular jumlasiga falsafa tarixida quyidagilar kiritilgan:

### a) **Yakkalik, xususiylik va umumiylilik.**

Yakkalik, xususiylik va umumiylilik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiylilik tomonlari, xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'anish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligi **yakkalik** deyiladi. Yakkalik alohida narsa va hodisalarni ham, ulardagi alohida tomon, belgi va xossalarni ham aks ettiradi.

Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos bo'lган o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha **umumiylilik** deb ataladi. Umumiylilik borliqdagi ko'pchilik narsa va xodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo'lган umumiylilik belgi va xususiyatlarning fikriy in'ikosidir. Umumiylilik bir sinf yoki bir turga kirgan narsa va hodisalarni ham ifodalaydi. Chunki borliqda har bir narsa va hodisa boshqa narsa va hodisalar bilan albatta, biror umumiylilik tomonga, xossaga, belgi va xususiyatga egadir.

Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar, xususiyatlar birligi **xususiylik** kategoriyasida ifodalanadi. Xususiylik kategoriyasi narsa va hodisalardagi alohidalik va umumiylilik kabi tomonlar o'rtasidagi alohidalikka nisbatan umumiy, umumiylilikka nisbatan alohida bo'lgan tomonlar, belgilar, xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi.

Bir butun borliqdagi hamma narsa va hodisalarga xos bo'lgan tomonlar, belgi va xususiyatlar eng umumiyligidir. Eng umumiylilik hajm jihatdan boshqa kengaytirib bo'lmaydigan universal tushunchadir. Masalan: Ahmad → odam → tirik mavjudot, nixoyat → materiya → borliq. «Borliq» tushunchasi bu erda eng umumiyligidir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylilik bir-biri bilan o'zaro dialektik munosabatda bo'ladi. Binobarin, yakkalik bilan umumiylilik xususiylik orqali bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikdadir. Xususiylik yakkaliklardan tashkil topib, umumiylikni alohidalik bilan bog'laydi. Umumiylilik esa yakkaliklardan ajralgan holda bo'lmaydi, balki yakkaliklarning umumiylilik xususiyatlari, belgilari, tomonlari, bog'lanishlari shaklida har bir yakkalikning o'zida mavjud bo'ladi. Demak, har bir konkret narsa va hodisa yakkalik, xususiylik va umumiylilikning birligidan iboratdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylilik dialektikasi shundan iboratki, ma'lum sharoitda yakkalik xususiylikka, xususiylik umumiylikkiga va aksincha, ular bir-biriga o'tishi mumkin. Ob'ektiv olamda har qanday yangilik dastlab yakkalik sifatida paydo bo'lib, so'ngra u o'sib, rivojlanib xususiylik va umumiylilik xarakterini kasb etadi.

Lekin bundan har qanday yakkalik xususiylikka, xususiylik esa umumiylikkaga o'taverar ekan, degan fikr yuritmaslik kerak. Bunday bo'lishi uchun ular taraqqiyotning asosiy tendentsiyasiga mos kelishi shart. Yakkalik, xususiylik va umumiyliklarning o'zaro bog'lanishlarini dialektik nuqtai nazardan tushunish ob'ektiv voqelikni to'g'ri bilish uchun juda muhimdir. Chunki, insonning borliqni bilishi ham yakkalikdan xususiylikka va undan umumiylikka borishdan iboratdir. Bu umumiylikni biz narsa va xodisalarni va ularda ifodalanuvchi yakkaliklar va xususiyliklarni bilish orqali anglab etamiz. Biz, dastavval, sezgi a'zolarimiz yordamida yakkalikni, yakka narsa va hodisalarni idrok qilamiz. So'ngra tafakkurimizda shu xissiy idrokimizda vujudga kelgan mavjud faktlarni analiz va sintez qilib, ularning muhim tomonlarini nomuhim tomonlaridan, umumiylilik tomonlarini alohida tomonlaridan ajratamiz, ularni o'zaro bir-biri bilan birlashtiramiz, bir-biriga taqqoslaymiz, shular asosida fikrimizda ularni ifodalovchi tushunchalarni hosil qilamiz. Bu hosil qilgan tushunchalarda narsa va hodisalarning ham yakka tomonlari, ham ularning muayyan turkumiga xos bo'lgan xususiy tomonlari, hamda shu narsa va xodisalarning butun bir sinfiga oid bo'lgan umumiylilik tomonlari ifodalanadi.

### **b) Mohiyat va hodisa.**

Mohiyat narsa va xodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. Hodisa esa shu narsa va

jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lism shakli, mohiyatning ifodalanishidir. Masalan, hamma tirik mavjudotlarning mohiyati ulardag'i modda almashish jarayoni bo'lmasa, tiriklik jarayoni — hayot ham bo'lmaydi. Modda almashish jarayoni butun hayot jarayonining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Lekin bu modda almashuv jarayoni har bir tirik organizmda juda xilma-xil ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Bu ko'rinishlar — xodisalar.

Mohiyat va hodisa o'zaro umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir:

1. Mohiyat ichki aloqalarni, hodisa esa tashqi aloqalarni ifodalaydi. Masalan, inson daraxtning shitirlashini, qushlarning sayrashini eshitadi. Bu hodisalarning sababi turlicha bo'lsada, ularning mohiyati bittadir, ya'ni havo zarralarining tebranishidir. Biroq inson buni birdan payqay olmaydi. Dastlab u hodisa sifatida yuz bergen narsani faxmlaydi, so'ng uning mohiyatini bila boshlaydi.

Mohiyat narsalarning ichki aloqadorligi bo'lgani sababli, u chuqur tahlil qilish va izlanish natijasida, amaliyot jarayonida bilib boriladi. Hodisa esa aksincha, xissiy organlar orqali bevosita idrok etiladi. U xissiy organlarimizga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib, u yoki bu sezgi va idroklarimizni hosil qiladi.

2. Mohiyat bilan hodisa o'zaro birlikda bo'lishi bilan, ular bir-biriga qarama-qarshi ham, shu sababli ular hech vaqt bir-biriga aynan mos kelmaydi. Ularning qarama-qarshiligi borliqdagi narsalarning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo'ladi va uni bevosita xissiy organlar orqali bilish mumkin emas. Hodisa — narsalarning namoyon bo'lishi shakli sifatida mohiyat bilan hech vaqt mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo'lishi shakli bo'lgan hodisa mohiyat bilan bevosita mos kelganda edi, u holda har qanday fan ortiqcha bir narsa bo'lib qolgan bo'lur edi. Fanning vazifasi borliqning ko'pdan-ko'p hodisalari, ularning tashqi tomonlari va belgilari ostida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatlarni izlab topishdan iborat.

3. Mohiyat nisbatan doimiyligi va barqarorligi bilan hodisadan farq qiladi. Mohiyat va hodisa munosabatini daryoning yuzidagi ko'piklar va uning ostidagi suvning tez oqimiga o'xshatish mumkin. Bundagi daryo harakatining yuzidagi ko'piklar hodisa bo'lsa, ularning ostidagi suvning tez oqimlari mohiyatdir. Lekin uning ustidagi ko'piklar ham mohiyatning o'ziga xos ifodasidir.

4. Mohiyatning nisbiy doimiyligi va barqarorligini, hodisaning o'zgaruvchanligini mutlaqlashtirmaslik lozim. Chunki mohiyat ham, hodisa ham o'zgarib boradi. Lekin mohiyat hodisaga nisbatan sekin o'zgaradi, u ma'lum barqarorlikka ega.

Mohiyat va hodisa o'zaro umumiy tomonlarga ega. Masalan: a) har qanday mohiyat hodisada namoyon bo'ladi, hodisa esa mohiyatning u yoki bu holda ko'rinishidir; b) mohiyat va hodisa ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, ular inson ongiga bog'liq bo'limgan holda ham mavjuddir; v) mohiyat ham, hodisa ham doimo o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Biroq mohiyat va hodisa ziddiyatli

xarakterga ham ega. Shu bilan birga, mohiyatning o'zi ham ziddiyatlidir. Dialektika buyumlarning o'z mohiyatidagi ana shu ziddiyatlarni o'rganadi.

Dialektikaning mohiyat va xodisa kategoriyalari konkret fanlarning shu sohada erishgan yutuqlarini umumlashtirish asosida doimo boyib, rivojlanib boradi. Ular inson amaliyoti va barcha fanlar yutuqlarini umumlashtirish natijasida kelib chiqqandir. Shu jihatdan mohiyat va xodisa kategoriyalari inson bilimlari tizimining hamma sohalariga tegishli bo'lib, dunyonи bilishning metodologik vositasi sanaladi.

Mohiyat va hodisa bog'lanishlari fan va amaliyotda ham muhim o'rinn tutadi. Bunda hodisani mohiyatdan ajrata bilish muhim. Mohiyatni hodisadan ajrata bilmaslik nazariya va amaliyotda jiddiy xatolarga olib keladi.

#### v) Butun va qism.

Ma'lumki, borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko'z oldimizda bir butunlik sifatida gavdalanadi. Biz ularni o'rganar ekanmiz, ularning qismlardan, bo'laklardan, komponentlardan, elementlardan iboratligini ko'ramiz. Bu qismlar, bo'laklar, komponentlar, elementlar o'zaro muayyan qonuniyatlar orqali birikib, ma'lum tuzilishdagi bir butun narsani, hodisa yoki jarayonni tashkil qiladilar. Bu narsa va hodisalarning ma'lum bir guruhi o'zaro birikib, biron bir sistemani hosil qiladi. Bu esa ma'lum strukturaga ega bo'lib, muayyan elementlardan iborat bo'ladi. Bundagi butun, qism, sistema, struktura, elementlar o'zaro dialektik birlikda, bog'lanish va aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Xo'sh, butun va qism deb nimaga aytildi?

**Butun** — o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo'lgan alohida narsa, hodisa, jarayondir. Masalan, bizni o'rab turgan olam bir butundir.

Qism esa shu butunni tashkil qilgan, uning tarkibidagi ma'lum bo'lak, komponent, elementdir. Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.

Borliqdagi narsa va hodisalarga xos bo'lgan butun va qismlarning o'zaro qonuniyatli aloqadorligi «Butun va qism» kategoriyalarida aks etadi va ifodalanadi. Olamdagи har bir predmet (hodisa, buyum, protsess) ana shu butun va qismlarning dialektik birligidan iborat. Masalan, leksikologiyaga oid «ishchilar» so'zini olsak. Bu so'z: «ish» — «chi» — «lar» kabi ma'noli qismlardan iborat. Bu qismlar o'zaro birikib, bir butun «ishchilar» so'zini hosil qiladi.

Butun va qism o'zaro dialektik aloqadorlikdadir. Butunning umumii tabiatini tashkil qiluvchi qismlarning umumiyl xususiyatlaridan kelib chiqib, butun tarkibidagi har bir qism butunning o'ziga xos xususiyatini ma'lum darajada ifodalaydi. Lekin butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo'laklari sifatida ko'rindi. Unda butunga xos ma'lum xususiyat qismlarga ham xos bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, butun tarkibidagi qismlar butun bilan umumii birlikka ega bo'lishi bilan birlikda, ular bilan o'zaro ziddiyatda, qarama-qarshilikda bo'lishi ham mumkin. Butunsiz qismlar va qismlarsiz butun yo'q va bo'lishi mumkin emas, ular faqat o'zaro aloqadorlikda, birlikda, birgalikda, bir-birini taqozo qilgan holda mavjud bo'ladi.

Bunda butunni tashkil qiluvchi qismlar ham o'zaro bir-birlari bilan ta'sir va aks ta'sir qilib turishadi. Butun va qismlarning bu o'zaro ta'sir va aks ta'sir qilib turishlari natijasida butun va qismlarning o'zgarishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Bundan tashqari, har bir butun va qismlar ob'ektiv reallikdagi boshqa butunlik va qismlar bilan ham muayyan aloqadorlikda va bog'lanishda bo'ladi.

### **g) Sistema, struktura va element.**

Borliqdagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ham ega bo'ladi. Chunki ular ma'lum sistemalar tarzida mavjud bo'lib, o'z tuzilishi va tarkibiga ko'ra esa muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

**Sistema** — bu borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

**Struktura** esa shu sistemanı tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. Struktura har bir narsa yoki hodisaning, har bir sistemaning ajralmas tub xususiyati bo'lib, u muayyan elementlardan tashkil topadi.

**Element** sistema strukturasini tashkil kilgan, nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tuzilmadir. Har bir sistema o'z strukturasiga ko'ra bir kancha o'zaro chambarchas bog'liq va aloqadorlikda bo'lgan elementlardan iborat bo'ladi.

Sistema, struktura va element kategoriyalari narsa va hodisalarga xos bo'lgan ana shu moddiy sistemalar, strukturalar va elementlarning aqliy in'ikoslaridir.

Odatda, har bir sistema, o'zining tuzilishiga ko'ra alohida sistemachalarga ajralishi, nisbiy mustaqil elementlarga bo'linishi, ularning o'zaro uzviy bog'likdigi, bir butunlikni tashkil etishi kabi xususiyatlarga egadir. Bunda sistemalar ierarxiyasi shundaki, doimo bir qancha sistemachalar birikib, yangi, hajm jihatidan kengroq sistemanı hosil qila boradi. Bu holat yanada yuqorilashib borib, natijada, bir-biriga kiruvchi, bir-biri bilan bog'liq, biriga nisbatan ikkinchisi kengroq bo'lib boradigan sistemalarning oliy birligi — bir butun borliqni qaror toptiradi.

Umuman, har bir sistemaning tashkil topishi va mavjud bo'lishida uning strukturasi muhim rol o'ynaydi. Ayni shu struktura sistemadagi o'zaro ta'sir va aks ta'sir qiluvchi moddiy tarkiblarni elementlarga aylantiradi.

Dialektika uchun sistema, struktura va element kategoriyalarining o'zaro aloqadorligini, ularning bir-biriga o'tishlarini va har biriga xos alohida xususiyatlarini ko'rsatish, ularning o'zaro umumiyligi va bir-biridan farqlarini aniqlash ayniqsa muhimdir.

Struktura narsa va hodisalardagi, ulardan tashkil topgan sistemalardagi o'zaro bog'liq quyidagi uch ma'noni ifodalaydi:

1. Struktura narsa yoki xodisaning bir xil yoki har xil jinsligini, uning muayyan nisbii mustaqil qismlarga, elementlarga, komponentlarga bo'linishini ifodalaydi.

2. Struktura narsa yoki hodisani tashkil etuvchi qismlar, bo'laklar, komponentlar va elementlarning o'zaro bir-biriga ta'sir va aks ta'sirlarini, ular o'rtaqidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni, bu bog'lanishlarga oid qonuniyatlarni ifodalaydi.

3. Struktura, nihoyat, narsa yoki hodisaning qanday elementlardan tashkil topganligidan qat'iy nazar, bu elementlarning organik birligini, ularning yaxlitligi va bir butunligini ifodalaydi. Shuning uchun strukturani bilish bu, birinchidan, uning elementlarini aniqlash, ikkinchidan, mazkur elementlarning o'zaro aloqadorliklarini aniqlash, nihoyat, uchinchidan, bu elementlar bir butunligining o'ziga xos tabiatini tushunib olishdir.

Demak, struktura kategoriyasi butun bir sistemani tashkil etuvchi elementlar aloqadorligining o'ziga xos usullarini va bu bir butunlik doirasidagi elementlarning o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Bunda har bir element strukturaning nisbiy mustaqil komponenta bo'lishi bilan birga, o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida birlashib, bir butun sistemani vujudga keltiradi.

Keyingi vaqtarda tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar sohalarida tadqiqot ob'ektini chuqurroq o'rganish maqsadida sistemali yondashish, strukturaviy analiz usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning qullanilishi ularning samaradorligi va istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sistemali yondashish usuli o'zining muhimligi, o'rganilayotgan predmet va hodisalardagi barcha aloqadorlik va bog'lanishlarni hisobga olishi bilan dialektik usullarning tarkibiy qismini tashkil etadi.

#### **d) Mazmun va shakl.**

Mazmun va shakl ham kishilarning borliqni bilishida katta rol o'ynaydi.

Xo'sh, mazmun va shakl nima?

**Mazmun** — narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o'zgarishlarning majmuidan iborat.

**Shakl** — mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasini, ya'ni tuzilishini ifodalovchi, narsa va xodisalarning ichki va tashki tomonlarining birligidan iborat. Mazmunni tashkil etuvchi xususiyatlar, ziddiyatlar, elementlar shaklsiz ifodalanmaganidek, ularning mavjudlik usuli, strukturasi, tuzilishi ham mazmunsiz namoyon bo'la olmaydi. Demak, mazmun va shakl muayyan bir narsa yoki hodisaning bir-biri bilan dialektik aloqador bo'lган ikki tomonidir.

Ob'ektiv olamda narsa va hodisaga oid bo'limgan sof mazmun ham, sof shakl ham yo'q. Aksincha, faqat muayyan mazmun va shakl birligiga ega bo'lган narsalar va hodisalargina mavjuddir. Bunda hamisha muayyan mazmun muayyan shaklda ifodalanib, muayyan shakl muayyan mazmunga ega bo'ladi.

Borliqdagi har bir narsa va hodisa o'z mazmun va shakl birligi tufayligina mavjud bo'lsa-da, ular shu birlikni vujudga keltirishda turlicha rol o'ynaydi. Shakl esa, aksincha, mazmunni ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda, mazmun shaklni belgilaydi.

## **z) Sabab va oqibat.**

Narsa va xodisalar o'zlarining paydo bo'lislari, shakllanish va rivojlanishlarida bir-birlari bilan aloqadorlikda va sababiy bog'lanishlarda bo'lismib, ularning biri sabab, ikkinchisi shu sabab tufayli kelib chiqqan oqibat bo'ladi. Ularning o'zaro bunday aloqadorligi sababiy bog'lanish deyiladi. Bu sababiy bog'lanishda bir narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsa yoki hodisani vujudga keltiradi.

Xo'sh, sabab va oqibat nima?

Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi **sabab** deb ataladi. Sababning bevosita yoki bavosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisa **oqibat** deyiladi. Masalan, qo'llarimizni bir-biriga ishqalaganimizda qo'llarimiz qiziydi. Bu erda ikki hodisa: ishqalanish va issiqlikning guvohi bo'lib turibmiz. Lekin bunda ishqalanish issiqliknini keltirib chiqarmoqda, ya'ni ishqalanish issiqlikning paydo bo'lismiga sabab bo'lmoqda. Demak, ishqalanish sabab, issiqlik - oqibat bo'lmoqda.

Odatda borliqdagi har bir hodisaning paydo bo'lishi va rivojlanishida o'z sababi bo'ladi va ayni vaqtida uning o'zi ham boshqa hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishiga sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayrim hodisalarni tushunmoq uchun biz ularni umumiy aloqadorlikdan ayirib olishimiz hamda ularni alohida-alohida tekshirishimiz lozim. Bunday holda esa bir-biri bilan almashinib turuvchi harakatlardan biri sabab tarzida, boshqasi oqibat tarzida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Sabab bilan oqibatning o'zaro aloqadorligi sababiyat deb ataladi. Tabiat va jamiyatdagi sabab-oqibat bog'lanishlarning kishilar fikridagi ifodasi sababiyat kategoriyasining paydo bo'lismiga olib kelgan. Sababiyat hodisalar o'rtasidagi shunday ichki aloqadorlikki, bunda har doim bir hodisa mavjud bo'lar ekan, uning ketidan muqarrar ravishda ikkinchisi sodir bo'ladi.

Kishilarda bir hodisa boshqa hodisaga sabab bo'ladi, degan tasavvur ularning amaliyoti asosida kelib chiqqan.

Sababiyat borliqda umumiy, har tomonlama xarakterga ega. Sababsiz oqibatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, hamma narsaning o'z sababi bor. «Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi» — deydi xalqimiz. Sababiyat ob'ektivdir, u borliqqa inson aql-idroki yoki qandaydir G'ayritabiyy kuchlar tomonidan kirilgan emas. Sababiyat aksincha, borliqning o'ziga xos aloqadorligi bo'lib, u inson tomonidan shu borliqni bilish jarayonida ochiladi. Ayrim hodisalarning sababi hozircha ma'lum bo'lmasa ham, u keyinchalik fan va ijtimoiy amaliyot taraqqiyoti davomida kashf etiladi. Sabab oqibatga aktiv ta'sir qiladi. Bu ta'sirning xususiyati shundan iboratki, u sababning hal qiluvchi kuchiga asoslangan bo'ladi.

Borliqda doimo ma'lum vaqt muayyan aniq shart-sharoit mavjud bo'lgan taqdirdagina, sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Lekin bu ma'lum sabab doimo bir xil ma'lum oqibatni keltirib chiqaradi, degani emas. Bunda oqibatning kelib chiqishi aniq shart-sharoitlar, aniq vaziyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Sababni oqibatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlardan farq qilish zarur.

Sabab va oqibat vaqt jihatdan ketma-ket kelib, bunda sabab oqibatdan oldin, oqibat sababdan keyin keladi, ya’ni sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Lekin borliqda ketma-ket keluvchi har qanday predmetlar va hodisalar bir-birlari bilan sababiy bog’lanishda bo’lavermaydi. Masalan, qishdan so’ng bahor, bahordan so’ng yoz, yozdan so’ng kuzning kelishi sabab va oqibat bog’lanishi emas, ular bir-birlarini keltirib chiqarishmaydi. Bu hodisalarning ro’y berishi Erning Quyosh atrofida o’z holatini o’zgartirgan holda aylanishi sababli sodir bo’ladi.

Odatda sababni bahonadan ham farq qilish lozim. Bahona bevosita oqibatdan oldin sodir bo’ladigan biror hodisa yoki voqeа bo’lib, u o’z mohiyati bilan oqibat sifatida ro’y bergen hodisaning haqiqiy va asosiy sababi bo’la olmaydi. Bunda bahona sababning oqibatini keltirib **chiqarishda** turtki bo’lishi, oqibatning sodir bo’lish jarayonini tezlatuvchi omil rolini o’ynashi mumkin. Masalan, bunga 1991 pil 19—21 avgustdagi favqulodda davlat komitetini misol qilib keltirish mumkin. Bu o’rinda eski Ittifoq emirilishini, uning o’rniga yangi mustaqil davlatlarning paydo bo’lishining sabablari butunlay boshqa narsalar edi.

Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o’z tabiiy ob’ektiv sabablari asosida paydo bo’ladi va rivojlanadi. Tabiat hech qachon oldindan belgilangan maqsadlarni qo’ya olmaydi va qo’ymaydi ham. Jamiyatda esa ahvol boshqacha, chunki jamiyatda ongli mavjudotlar — insonlar faoliyat ko’rsatadilar, ular o’z faoliyatlarini oldindan belgilangan ma’lum maqsadlar asosida amalga oshiradilar. Maqsadga muvofiq faoliyat ko’rsatish faqat insonlarga xosdir. Jamiyatda kishi nimani qilmoqchi bo’lsa, avvalo, u o’zicha buni o’ylaydi, uning haqida fikr yuritadi, bu ish yuzasidan ma’lum reja tuzadi, uni amalga oshirish uchun o’z oldiga ma’lum maqsadlarni qo’yadi va ularga erishish uchun harakat qiladi. Bunda maqsad kishining o’zi tomonidan belgilangani uchun, odatda u ko’pincha tashki shart-sharoitlarga bog’liq, emasday tuyuladi. Aslida, insonning har qanday maqsadi (niyati, hatto orzusi ham) ob’ektiv sabablar asosida tarixiy shart-sharoitlar ta’sirida, uning miyasida zaruriy ravishda paydo bo’ladi.

Umuman, insonning orzu-maqsadlari tabiat va jamiyat taraqqiyotining ob’ektiv sabablari va qonuniyatlarini qat’iy hisobga olish asosida paydo bo’lib, uning butun faoliyati, kuch-g’ayrati shu orzu va maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo’ladi. Borliqdagi sabab va oqibat aloqadorliklarini to’g’ri bilish kishilarning o’z oldilariga qo’ygan amaliy masalalarini ijobjiy hal qilishda asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotidagi salbiy hodisalarni bartaraf qilishda ham, kishilarning ongi va xulq-atvorida mavjud bo’lgan salbiy holatlarga qarshi kurashda ham sabab va oqibat kategoriyalari muhim ahamiyatga ega.

Borliqdagi sababiy bog’lanishlarning murakkab zanjirida zaruriy va tasodifiy aloqadorliklar ham muhim rol o’ynaydi. Bunday aloqadorliklarni zaruriyat va tasodif kategoriyalari ifodalaydi.

### j) Zaruriyat va tasodif.

Narsa va hodisalarning mohiyatidan, ularning ichki muhim bog'lanishlaridan muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chiqadigan, kelib chiqishi muqarrar bo'lgan voqeа yoki hodisa **zaruriyat** deb ataladi. Narsa va hodisalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lмаган, tashqi ta'sir va ikkinchi darajali omillar bilan bog'liq, bo'lган, ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lган hodisa yoki voqeа **tasodif** deyiladi. Zaruriyat va tasodif o'zaro bog'liq bo'lган, biri ikkinchisisiz mavjud bo'lмайдиган borliqdagi narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishiga oid aloqadorlikning ikki tomonidir. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ayni vaqtida bir-biridan farq ham qiladi. Bu farq, avvalo, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Zaruriyatning bunday o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar: 1) zaruriyatning sababi o'zida bo'ladi, u mazkur narsa yoki xodisaning ichki tabiatidan kelib chiqadi, u mohiyat bilan bog'liq; 2) zaruriyat narsa va xodisaning muhim, takrorlanib turadigan ichki aloqadorliklarning natijasidir; 3) zaruriyat narsa va xodisaning oldingi bo'lган o'zgarish va rivojlanishlari orqali qonuniy tayyorlangan bo'ladi; 4) zaruriyat muqarrarlik xususiyatga ega bo'lib, albatta, yuz beradi; 5) zaruriyat umumiy xarakterga ega; 6) nihoyat, zaruriyat doimo qonuniyat bilan bog'liq, bo'ladi.

Tasodif zaruriyatdan farqli o'larоq, muayyan sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin, u shu tarzda ham, boshqacha tarzda ham yuz berishi mumkin. Tasodif ayni vaqtida narsa yoki xodisaning mohiyatidan kelib chiqmaydi, u beqaror va vaqtinchadir. Ammo tasodif ham sababsiz yuz bermaydi. Uning sababi, odatda, narsa yoki hodisaning o'zida bo'lmay, balki undan tashqarida tashqi shart-sharoitlarda bo'ladi. Tasodif ham o'ziga xos quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi: 1) tasodifning sababi o'zida emas, balki boshqa narsa va hodisadadir, u ichki sabab asosida emas, tashqi sabablardan kelib chiqadi; 2) tasodif borliqdagi nomuhim bog'lanishlardan kelib chiqadi; 3) u narsa yoki xodisaning butun rivojlanish davomida emas, balki turli jarayonlarning ta'sirida sodir bo'ladi; 4) tasodif narsa va hodisalar rivojlanishining yo'nalishini belgilab bermaydi, shunga ko'ra u muqarrar emas; 5) tasodif umumiy emas, balki individual xarakterga ega; 6) tasodif, nihoyat, qonun bilan bog'liq emas.

Umuman, zaruriyat va tasodif borliqdagi narsa va hodisalar o'zaro aloqadorligining turli shakllari sifatida mavjud bo'lib, ular ob'ektivdir, ya'ni ularning mavjudligi va amal qilishi inson hohishi va irodasiga bog'liq emas.

Zaruriyat va tasodif o'zaro dialektik bog'liqdir, bunda tasodif zaruriyatning ichki tizimida yashiringan bo'lgani kabi, zaruriyat ham tasodiflar tizmasida, ularning takrorlanishida mavjud bo'ladi, boshqacha aytganda, ular bir-birisiz, alohida-alohida mavjud bo'lолmaydi.

Fanning vazifasi borliqdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanishlarida yashirinib yotgan, insonga noma'lum bo'lган ichki zaruriy aloqadorliklarni va ular tizimidagi tashki tasodiflarni aniqlashdan iboratdir.

Borliqdagi qat'iy zaruriyat doimo tasodiflar tizmasida hukmronlik qilib, tadqiqotchi o'z tadqiqoti jarayonida tasodifiy xodisalar tizmasida mavjud bo'lган

tasodiflarni tadqiq qilish, ularning bir-birlari bilan aloqadorliklarini aniqlash, ular tizmasida mavjud bo’lgan, lekin yashirinib yotgan zaruriyatni ochish, jamiyatda insoniyat uchun noqulay bo’lgan voqealarning ro’y berishlarining oldini olishga imkon beradi.

Borliqdagi narsa va hodisalarining hozir qanday ekanligi, kelajakda qanday bo’lishini biz imkoniyat va voqelik kategoriyalarisiz tushuna olmaymiz.

### i) Imkoniyat va voqelik.

Imkoniyat va voqelik o’zgarish va rivojlanish jarayonidagi narsa va hodisalarining ikki xil davrini, ikki xil holatini, bu davrlarning o’zaro munosabatini o’zlarida ifodalovchi kategoriyalardir.

**Voqelik** — bu hozir real mavjud bo’lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir. Lekin bu hodisalar rivojlanish jarayonida birdaniga hozirgi holatda bo’lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo’lgan bo’lib, ular o’zlarining ma’lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik o’zining paydo bo’lish davridan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo’ladi.

**Imkoniyat** — bu voqelikning kurtak holdagi ko’rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. Shu bilan birga, imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlari ham bo’lishi mumkin. Imkoniyat ob’ektiv qonuniyatlardan kelib chiqadi, ular tomonidan yaratiladi.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarini, ularning o’zaro dialektikasini chuqr bilib olish kishilarning amalii faoliyatida, ilmiy tekshirish ishlarida katta ahamiyatga ega.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarining mazmuni ongdan tashqaridagi ob’ektiv olamdan olinadi. Bu kategoriylar bir butun moddiy yoki ruhiy jarayonning ikki tomonini aks ettiruvchi, o’zaro dialektik munosabatdagi kategoriyalardir. Shuning uchun imkoniyat va voqelikni bir-biridan farq qilish lozim, chunki ularni aralashtirib yuborish nazariyaning rolini inkor etishga, insonning tabiat va jamiyatni o’zgartiruvchi faoliyatini tushunmaslikka, amaliqtning axamiyatini yo’qqa chiqarishga olib keladi. Ularni aralashtirib yuborish yo’q narsani bor, deb bilishga, yangining kurash jarayonida eski ustidan g’alaba qilishni ko’rmaslikka olib boradi.

Imkoniyatlar yangi, endi vujudga kelayotgan, rivojlanayotgan va eski, umrini tugatayotgan real kuchlar sifatida progressiv va konservativ bo’lishi mumkin.

Eskilikni ifodalovchi imkoniyat rivojlanish jarayonida voqelikka aylanib qolishi ham mumkin, lekin bu harakatning ichki qonuniyatidan, uning tub xarakteridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun eskilikni ifodalovchi imkoniyatning voqe bo’lishi vaqtinchadir.

Imkoniyat voqelikka birdan aylanmaydi. U eski voqelik ichida, avvalo, kurtak shaklida mavjud bo’lib, so’ng rivojlanib borib, tobora reallasha boradi va ma’lum davrda, ma’lum shart-sharoit tufayli voqelikka aylanadi. Imkoniyat reallasha borgan sari, uning mavjud eski voqelik bilan kurashi ham keskinlashib boradi. Shunga ko’ra, imkoniyatni formal, abstrakt va real imkoniyatlarga ajratib

o'rganiladi. Quruq fikriy izchillik jihatidangina to'g'ri bo'lgan, lekin real asosga ega bo'lmanan imkoniyat formal imkoniyatdir. Formal imkoniyat ob'ektiv rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun ham u hech qachon voqelikka aylanmaydi.

Amalga oshishi uchun hali shart-sharoitlar to'liq etilmagan, lekin amalga oshishi qonuniy bo'lgan, narsa va hodisaning o'zgarish va rivojlanish mantig'idan kelib chiquvchi imkoniyat abstrakt imkoniyat deyiladi. Abstrakt imkoniyat rivojlanish jarayonida ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar etilganda, real imkoniyatga aylanadi.

Real imkoniyat — bu rivojlanishning asosiy tendentsiyasini ifodalovchi, hozirgi sharoitda uning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi imkoniyatdir. Real imkoniyat konkret, ayni vaqtida amalga oshishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir.

Ijtimoiy taraqqiyotda imkoniyatning voqelikka aylanishida ob'ektiv shart-sharoit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ob'ektiv shart-sharoitlar — bular inson onggidan tashqarida mavjud bo'lgan shart-sharoitlardir. Biroq jamiyatdagi real imkoniyatlarni voqelikka aylantirishda ongli faoliyatning roli ham g'oyat kattadir. Buning ma'nosi shuki, jamiyat imkoniyatlarining voqelikka aylanishida sub'ektiv omil muhim ahamiyatga ega. Sub'ektiv omil — bu xalq ommasi, uning ongliligi va aktiv amaliy faoliyatidan iborat. Shuning uchun ham imkoniyat va voqelik dialektikasini o'rganish masalasi jamiyatni boshqarishda juda katta ahamiyatga ega. Bunda sub'ektiv omil ob'ektiv shart-sharoitlarga asoslanadi. Ularsiz sub'ektiv omilning o'zi hech narsani yuzaga keltira olmaydi, chunki ob'ektiv shart-sharoitlar sub'ektiv faoliyatga nisbatan birlamchi va belgilovchidir.

Ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini hamisha butun ichki murakkabligi va ziddiyatligi bilan tasavvur etish kerak. Biroq bu jarayonlarning markazida doimo inson, uning manfaatlari va qiziqishlari turmog'i lozim. Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos eng muhim xususiyati ham mana shundan iborat.

Umuman, dialektikada yuqoridagi deterministik aloqadorliklarni ifodalaydigan kategoriylar o'zaro bir-birlari bilangina emas, balki boshqa barcha kategoriylar bilan ham chambarchas bog'liqlikda o'rganishni talab qiladi.

Dialektikaning ikkinchi jihatni uning taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot ekanligidir. Chunki tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar, ularning inson miyasidagi in'ikoslari — bizning tasavvur va tushunchalarimiz o'zaro bog'liq va aloqador, bir-biriga ta'sir va aks ta'sir etib turishi ularning doimiy ravishda harakatda, o'zgarish va rivojlanishda bo'lishini taqozo etadi, ularning yangilari paydo bo'lib, eskilari yo'q bo'lib turadi. Narsa va hodisalarning harakati, o'zgarish va rivojlanishlari ularning o'zaro aloqadorligi va bog'lanishlari asosida sodir bo'ladi. Bizni qurshab turgan barcha narsa va xodisalar: galaktikalardan tortib yulduzlargacha, yulduzlardan tortib Er va Quyoshgacha, Erning o'zidan tortib, undagi turli-tuman moddalar, o'simliklar va hayvonot dunyosigacha, kishilik jamiyatidan tortib to inson va uning tafakkurigacha hamma-hammasi doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Bir butun borliqda sodir bo'ladiharakat, o'zgarish va rivojlanish umumiy xarakterga egadir. Biz «Borliq»

mavzusini o'rganganimizda, harakat borliqning umumi yashash usuli, uning ajralmas xossasi ekanligi bilan tanishgan edik. Kundalik hayotda «harakat» deganda, odatda, narsa va hodisalarning oddiy o'rin almashuvi tushiniladi. Dialektikada esa harakatni chuqurroq, tushiniladi. Bundagi «o'zgarish» tushunchasi xajm jihatdan «harakat» tushunchasiga kiradi. Chunki har qanday o'zgarish harakatdir, lekin har qanday harakat o'zgarish emasdir. O'zgarish narsa va xodisalarning bir holatdan ikkinchi holatga, bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishidir. Masalan, yangi buyumning eskirishi va shular kabi. Biroq «o'zgarish» o'z ichiga «rivojlanishni» oladi, garchi har qanday o'zgarish rivojlanish bo'lmasa ham.

Rivojlanish esa bu - progress<sup>8</sup> tomon o'zgarishdir. Rivojlanish, aslida shunday o'zgarishki, bunda muayyan yunalishdagi yangi holat eski holatning, yuqori bosqich quyi bosqichning o'rnini olib, eski narsa va hodisalar yo'g'olib, ular o'rnini yangi narsa va hodisalar oladi. O'zgarish esa rivojlanishdan shu bilan farq qiladiki, u o'z ichiga regress<sup>9</sup>larni ham oladi.

Rivojlanish — bu progressdan iborat o'zgarish bo'lib, keng ma'noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab ilgarilab boruvchi harakatdir. Rivojlanish shunday o'zgarishki, u narsa va hodisalarning quyi bosqichi o'rnini yuqoriroq bosqich olishidir. Rivojlanish boshqa jihatdan narsa va hodisalarning miqdor va sifat jihatdan tubdan o'zgarib, boshqa narsa va hodisalarga aylanishidir. Rivojlanish, umuman olganda, to'g'ri chiziq bo'ylab harakat emas, uni bunday tushunish xatodir. Bunday tushunishni tabiat rivojlanishi ham, jamiyat tarixi ham rad etadi. Har qanday real rivojlanish spiralsimon holda, uning har bir yangi o'rami oldingisiga qaraganda kengroq boyroq, mazmunliroq, yuqoriroq, asosda egri-bugri yo'llar bilan sodir bo'ladi.

Fan va ijtimoiy-tarixiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuriga xos bo'lgan asosiy umumi xususiyatlardan biri — bu ularda progress tomon rivojlanishning, ya'ni taraqqiyotning mavjudligidir.

Noorganik tabiatda rivojlanish moddiy ob'ektlarning, ulardagi o'zaro aloqadorlik va harakat turlarining tobora murakkablashib borishi tarzida namoyon bo'ladi.

Organik tabiatda esa rivojlanish tirik organizmlarning tashqi muhitga moslashuvi asosida, ulardagi tabiiy va sun'iy tanlanish jarayonida eski, sodda turlarning o'rniga yangi, murakkabroq turlarning paydo bo'lib, ularning takomillashib borishida ifodalanadi.

Insonning rivojlanishi deyilganda esa, odamning tobora ijtimoiylasha borib, mehnat, til, ong va ahloqning ta'siri tufayli ijtimoiy zot — insonga aylana borishi, nihoyat, ibridoiy jamoa tuzumi kishisidan to hozirgi davr kishisigacha bosib o'tilgan bosqichlar tushuniladi.

<sup>8</sup> Progress (lotinchi progress suzidan olingen bo'lib, yangining rivoji, oldinga tomon harakat, rivojlanishda quyi bosqichdan yuqori bosqichga o'tish. degani) — ilgarilab boradigan taraqqiyot.

<sup>9</sup> Regress (lotincha regress — so'zidan olingen bo'lib, orqaga tomon harakat, qaytish degani) — salbiy tomon o'zgarish, ortta qaytish, yuqoridan quyi tomon borish.

Progress tomon rivojlanish, ayniqsa, jamiyat hayotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatdagi rivojlanish bir quyi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan unga nisbatan progressivroq, yuqoriroq ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarga o'tib borish asosida ro'y beradi.

Inson tafakkuri jarayoniga xos rivojlanish esa, bu inson bilishining bilmaslikdan bilishga tomon, to'la bo'lman bilimlardan to'laroq bilimlarga tomon, oddiy bilishdan ilmiy bilishga tomon yuksalib borishidir.

Biz ko'rib o'tgan sohalarning har birida progress tomon rivojlanish o'ziga xos shakllarda yuz beradi. Shu bilan birga, ularning hammasiga xos rivojlanishning umumiy tomonlari ham bo'lib, ular birlikda bir butun dunyoning umumiy rivojlanish manzarasini ifodalaydi.

Umuman, biz rivojlanish atamasini juda kup ishlatalamiz, u bizga tushunarlidek, tuyuladi. Aslida esa, bu tushuncha ifodalagan jarayon, biz o'ylagandek, unchalik sodda emas. «Rivojlanish» tushunchasi ko'p hollarda olg'a qarab borishning sinonimi sifatida «progress» tushunchasiga tenglashtiriladi. Bugungi kunda insoniyat jamiyatining rivojlanishi, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar rivojlanishning murakkab jarayon ekanligidan dalolat bermoqda.

Unda muayyan davriy o'zgarish bilan bir qatorda, progressga tomon takrorlanmas o'zgarishlar, turli xil zigzaglar mujassamligi ham ma'lum bo'lmoqda. Ayniqsa, keyingi paytlarda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlikali tendentsiyalar, halokatlar xavfi bo'lgan jarayonlarni ham o'z ichiga olishligi ravshan bo'lmoqda. Bu jarayonlarni to'g'ri tushunib olish va ularga to'g'ri yondoshib, to'g'ri xulosalar chiqarish uchun bizga yangicha fikrlash juda zarur bo'lmoqda. Masalan, bizning shu paytgacha o'ylamasdan tabiat boyliklaridan talon-tarojlik bilan foydalanib kelishimiz natijasida bugungi kunda tabiat o'z boshidan umumiy tanazzul (tanglik)ni kechirishi xavfi paydo bo'ldi. Shuning uchun tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hozirgi jarayonlarning tahlili rivojlanishning falsafiy tushunchasini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bunga sabab rivojlanish jarayonida turli xil o'zgarishlarning ziddiyatli xarakterlari namoyon bo'layotganlidir.

Rivojlanish jarayoni shu bilan birga, o'z tabiatiga ko'ra turlicha yo'nalishdagi, bir-biriga qarama-qarshi va ayni vaqtida bir-biridan ajralmas tendentsiyali tomonlarga ham ega. Bu tendentsiyalar differentsiatsiya<sup>10</sup> va integratsiya<sup>11</sup> jarayonlarining birligidan iboratdir.

Shuni aytish kerakki, rivojlanishning turli tomonlari, bosqichlari, uning konkret xususiyatlari turli konkret fanlar tomonidan o'rganilib, ularning har biri o'zining sohasiga oid alohida rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqadi va

<sup>10</sup> Differentsiatsiya (lotincha differentia — so'zidan olingan bo'lib, bo'linish, parchalanish, tarmoqlanish, farqlanish ma'nolarini bildiradi) — rivojlanish jarayonida narsa na hodisalarning turli ko'rinish va shakllarga kirishi.

<sup>11</sup> Integratsiya (lotincha integratio — so'zidan olingan bo'lib, bir butun holga kelish, birikish kabi ma'nolarni bildiradi) — rivojlanish jarayonida turli qismlarga bo'lingan narsa va hodisalar tomonlarining qaytadan birikishi.

mukammallashtirib boradi. Masalan, hozirgi zamon kosmologiyasi koinot, ayrim galaktikalar, turlicha kosmik ob'ektlarning kelib chiqishi kabi nazariyalarni ishlab chiqmoqda. Evolyutsion biologiya esa tirik organizmlarning rivojlanishi, ularda sodda turlardan murakkab turlarning qanday kelib chiqishi haqida o'z nazariyalariga ega. Tarix fanida esa kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari haqida turli nazariyalar mavjud; tilshunoslik fani bo'lsa turli tillarning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi nazariyalarni ishlab chiqqandir. Bular rivojlanishning turli konkret maxsus sohalariga oid nazariyalardir.

Rivojlanishning turli maxsus fanlar sohalariga oid bunday nazariyalarining umumiyligi jihatlari dialektikaning taraqqiyot nazariyasida ifodalanadi. Dialektikaning taraqqiyot nazariyasi esa bir butun borliqning harakati, o'zgarishi va rivojlanish qonunlari va printsiplarini o'z ichiga olgan umumfalsafiy ta'limotdir. Taraqqiyotning bu umumfalsafiy nazariyasining vujudga kelishi va shakllanishi ham o'z tarixiga ega.

#### **a) Miqdor va sifat o'zgarishlari birligi.**

Bizni qurshab turgan narsa va xodisalarni o'rganar ekanmiz, ular bir-birlaridan o'zlarining turli xususiyatlari bilan farqlanishlarini ko'ramiz. Bunda ularni bir-biridan farq qildiruvchi narsa — ularning sifatidir.

**Sifat** deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag'ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa va hodisani ikkinchi narsa va hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlarning birligiga aytildi.

Sifat bir narsa yoki hodisani boshqa narsa yoki hodisadan ajratib turadigan shunday muayyanlikka, uning o'zgarishi uning o'rniga boshqa narsa va hodisani vujudga keltiradi.

Tabiat va jamiyat juda ko'p xilma-xil narsalar, voqealarni va hodisalarning birligidan tashkil topgan. Ularning bundai xilma-xilligi narsa va hodisalar o'rtasidagi sifatiy tafovutlarning ifodasidir. Masalan, noorganik tabiat bilan organik tabiat sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. Organik tabiat o'z atrofidagi muhit bilan uzlusiz modda almashinib turadi. Noorganik tabiatda bunday modda almashinish bo'lmaydi, o'z navbatida, organik tabiatning turli qismlari o'rtasida, masalan, o'simliklar bilan hayvonlar o'rtasida ham sifat jihatdan farq bor. Biroq, inson ularga nisbatan butunlay boshqacha sifatga ega.

Odatda bir narsa yoki xodisaning sifati boshqa narsa yoki hodisa bilan bo'lgan munosabatida aniqlanadi. Shu bilan birga, sifat bir narsani ikkinchi bir narsadan ajratibgina qolmasdan, balki uning boshqa narsalar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Shuning uchun muayyan sifatga ega bo'lgan narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib, bir tomonlama o'rganish bilan chegaralanmay, balki ularni bir-biri bilan bog'laydigan umumiyligi xususiyatlari asosida ham o'rganish zarur. Agar organik tabiatdagi tirik organizmning atrof-muhit bilan modda almashinishi to'xtab qolsa, bu organizm halok bo'ladi, o'zining tiriklik sifatini yo'qotadi, chunki tirik organizmning tirikligi, undagi hayotning mohiyati modda almashinuvidan iborat.

Narsa va hodisalarning sifati ularning xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Har bir narsa yoki hodisa ko'pgina xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlardan bir qanchasi birikib, shu narsa yoki hodisaning muayyan sifatini tashkil qiladi. Bunda sifat bilan xususiyat bir narsa emasligi ma'lum bo'ladi. Sifat narsa va xodisaning umumiyligi xarakteristikasini berib, uning mohiyatini ifodalaydi. Xususiyatlar esa sifatning ifodasidir, ularning muhim va nomuhim xususiyatlari o'zgarishi bilan ularning sifati ham o'zgarishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari ularning sifatining o'zgarishlarida katta rol o'yynaydi.

Narsa va hodisalar nomuhim xususiyatlarini yo'qotishlari yoki yangidan hosil qilishlari natijasida, ular o'z sifatlarini o'zgartirmaydilar. Agar bu narsa va hodisalar o'zlarining muhim xususiyatlarini yo'qotsa yoki o'zgartirsalar, ular yangi sifatga o'tadilar. Masalan, benzin uchun rang muhim xususiyat emas. Benzin rangini yo'qotgani yoki boshqa rangga kirgani bilan u boshqa suyuqlikka aylanmaydi. Tez yonuvchanlik esa benzinning muhim xususiyatidir. Benzin o'zining bu xususiyatini biror sabab bilan yo'qotsa, u dvigatel uchun yonilg'i bo'lmay qoladi, natijada, sifat jihatidan boshqa ximiyaviy moddaga aylangan bo'ladi.

Narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlari ham ob'ektivdir.

Shuni aytish kerakki, borliqdagi narsa va hodisalar bir-biridan faqat sifatlari bilan emas, balki miqdorlari bilan ham farqlanadilar. Ularning sifatlari doimo miqdorlari bilan birga mavjuddir.

Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligi **miqdor** deb ataladi. Narsa va hodisalarda miqdor turlicha ifodalanadi. Ularda miqdor bir holatda son tariqasida, ikkinchi holatda o'lchov daraja tariqasida, uchinchi holatda esa narsa va hodisalarning makondagi o'zaro munosabati (uzunligi, kengligi, balandligi) tariqasida ifodalanadi.

Ijtimoiy hodisalarning miqdor muayyanligini, tabiat hodisalarida bo'lganidek, hamma vaqt ham aniq ifodalab bo'lmaydi. Lekin bunda ham sifat va miqdor birlikda bo'ladi. Masalan, bir ijtimoiy tuzum ikkinchi ijtimoiy tuzumdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri jihatidan farq qilishi bilan birga (sifat), ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, unumli mehnat bilan shug'ullanuvchi odamlarning soni, milliy daromadning ma'lum miqdori, uning jamiyat a'zolariga taqsimlanishi (miqdor) va shu kabilar bilan farq qiladi.

Miqdor ham sifat kabi ob'ektiv mavjud bo'lib, u predmet va hodisalarning eng muhim tomonini ifodalaydi.

Shuning uchun narsa va hodisalarni o'rganishda ularning miqdor va sifatini, uzviy bog'liqligini e'tiborga olmoq lozim. Har bir narsa va xodisa muayyan miqdor va sifat birligidan iborat me'yorga ham ega bo'ladi. **Me'yor** narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir. Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi me'yor, deyiladi. Me'yor narsa va hodisalarning shunday muayyanligiki, uning buzilishi narsa yoki hodisaning

sifatining o'zgarishiga, uning boshqa sifatga o'tishiga, ya'ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi.

Ijtimoiy hodisalarda me'yorning roli juda kattadir. Ayniqsa, san'atda me'yor juda muhimdir. Tabiat va inson go'zalligini me'yordan chiqib ifodalash mumkin emas. Me'yor ma'naviy-ahloqiy hodisalarga ham taalluqlidir. Har bir ijtimoiy tuzumda uning ahloqiy normalari doirasidan chiqib ketilsa, u jinoyatga aylanib ketadi. Chunki bu chegaradan, ya'ni me'yor doirasidan chiqish bilan bir faoliyat boshqa bir faoliyatga aylanadi. Bunday holda odatda boshqa sifat va miqdor birligiga asoslangan yangi me'yor vujudga kelgan bo'ladi.

Narsa va hodisalar o'z mavjudligining ma'lum davrlarida sifat va miqdor birligini, ya'ni oldingi sifatlarini saqlaydilar. Bu davrda ularda faqat muhim bo'limgan miqdor o'zgarishlari sodir bo'ladi. Biroq, bu jarayon vaqtinchadir. Taraqqiyotning ma'lum bosqichida miqdor o'zgarishlari shunday darajaga etadiki, endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolishi tufayli, zaruran sifat o'zgarishlariga o'tadi. Masalan, misning xarorati  $600^{\circ}\text{S}$  yoki  $1000^{\circ}\text{S}$ ga etkazilganida ham, uning agregat holati o'zgarmaydi, ammo harorat  $1083^{\circ}\text{S}$ ga etganda mis eriy boshlaydi, ya'ni u yangi sifatiga o'tadi. Bunda narsaning eski sifat chegarasining buzilishi natijasida, uning oldingi me'yor ham o'zgaradi, ya'ni yangi sifat va miqdorga ega bo'lган yangi me'yordagi narsa vujudga keladi.

Borliqdagi narsa va hodisalarda sifat o'zgarishi ulardagi miqdor va sifatning o'zgarishlari natijasida sodir bo'ladi. Bunda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga o'tgani kabi, sifat o'zgarishlari ham miqdor o'zgarishlariga o'tadi. Rivojlanish jarayonidagi bir-biridan farq qiluvchi bu ikki xil sifat va miqdor o'zgarishlari, uzluksizlik va uzilishning birligi sifatida namoyon bo'ladi. **Uzluksizlik** — bu narsa va hodisalarning rivojlanishidagi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Bu uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarning rivojlanishi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Bu uzluksiz rivojlanish davrida narsa va hodisalarda ichki o'zgarishlar yuz bersa-da, bu o'zgarishlar shu narsa yoki hodisa mohiyatini butunlay o'zgartirib yubormaydi. Bunda narsa yoki hodisa o'zining oldingi sifatini saqlab qoladi. **Uzilish** esa shu narsa va hodisalar rivojlanishida endi yangi miqdor o'zgarishlari mumkin bo'lmay qolgan bir paytda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ifodalaydi. Uzilish — bu o'zgarish va rivojlanish jarayonida narsa yoki hodisaning bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o'tishi demakdir. O'zgarish va rivojlanishda miqdorning sifatga o'tishi, eski sifatning yangi sifatga aylanish jarayoni falsafada uzluksizlikning uzilishi, deyiladi. Ayni shu uzluksizlikning uzilishi tufayli bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayonini falsafada sakrash, deb ataladi. Sakrash narsa va hodisalarning butun uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi oilan zaruriy ravishda yuz beradi. Masalan, moddiy olam rivojlanishida noorganik tabiatdan organik gabiatning paydo bo'lishi, ayni vaqtida buyuk sakrash bo'lган. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrash o'z xarakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular birlaridan farq qiladilar. Masalan, tabiatdagi sakrashlar undagi eski sifatdan yangi sifatga o'tishlar insonning irodasiga bog'liq, bo'lmanan holda, tabiiy-tarixiy jarayonning oqibati sifatida yuz beradi.

Ijtimoiy hayotdagi sakrashlar esa tabiatdagi sakrashlardan farq, qilib, ular kishilar tomonidan ob'ektiv zaruriyatlarni anglash natijasida tayyorlanadi va amalga oshiriladi. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o'ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo'q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o'rnatadigan ijtimoiy inqiloblar, tadrijiy rivojlanishlar orqali amalga oshiriladi. Sakrashlar inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning bilimlar tizimining rivojlanib borishiga ham xosdir. Ilm-fan sohasida sekin-asta to'planib borgan faktlar, ma'lumotlar va bilimlar asosida inson o'z aql-idroki bilan ixtiro va kashfiyotlar qilishi, yangi qonuniyatlarni ochishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi — **portlash** yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi — sekin-asta **tadrijiy** yo'l bilan bo'ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarining yangi sifatga o'tishi tezlik bilan yuz beradi. Masalan, kimyoviy jarayonlarda reaktsiyaga kirishgan modda tezlik bilan eski sifatdan yangi sifatga o'tadi, boshqa kimyoviy moddaga aylanadi.

Sakrashning ikkinchi turida esa eski sifat elementlarining asta-sekin yo'g'olib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to'planishi natijasida yangi sifat paydo bo'ladi. Bunday sakrash turiga tilning rivojlanishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishini bilish faqat ilmiy bilish uchungina emas, balki amaliy faoliyat uchun ham katta ahamiyati bor. Masalan, respublikamiz mustaqillikka erishdi. Lekin uni saqlash, mustahkamlash va rivojlantirish bizdan har doim chidam va matonat bilan ishlashni talab qiladi. Chunki, O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li «soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish — tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir.»<sup>12</sup> O'zbekistan haqiqiy demokratik va rivojlangan davlatga aylanishi uchun (ya'ni yangi sifatga ega bo'lishi uchun) juda kup iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish kerak. Bunda yoshlarning, bo'lajak yuqori malakali mutaxassislarning jonbozlik ko'rsatishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## b) Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi.

---

<sup>12</sup> Islam Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992, 10-bet.

Borliqdagi har bir narsa yoki xodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo'ladi. Har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini o'zaro inkor etuvchi tomonlar, xususiyatlар va tamoyillarga ega. Masalan, elektr manfiy va musbat, tabiatda esa o'zaro tortilish va itarilish, tirik organizmda assimilyatsiya va dissimilyatsiya kabilar. Ana shu bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o'rtasidagi munosabat **ziddiyat** deb ataladi. Xuddi shu ziddiyat qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi kurash va rivojlanishning sababi, manbai bo'lib hisoblanadi. Rivojlanishning har bir bosqichi o'ziga xos ziddiyatlar va turli qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal bo'lisdidan iborat.

Qarama-qarshiliklar va ularning o'zaro munosabati, ziddiyat va ularning birligi jamiyatga, ijtimoiy hodisalarga, insonga, inson faoliyatiga, hatto uning bilish jarayoniga ham xosdir.

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf etilishi jarayonidan iborat ekanligini tushunib olish uchun ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik kabi tushunchalarning o'zaro munosabatlarini bilib olish lozim. Narsa va hodisalardagi o'zaro o'xshash tomonlar birligi **ayniyat** deyiladi. Ayniylik narsa va hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mavjudligini ifodalaydi. Har bir narsa yoki hodisada ayniylik bilan birga, tafovut ham mavjud bo'ladi. **Tafovut** narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihatlarining ifodalanishidir. Borliqda o'z qarama-qarshi tomonlariga ega bo'lmaydigan narsa va hodisa bo'lmaydi. Binobarin, ularda ayniyat ham, tafovut ham bo'ladi.

Tafovutlarning rivojlanishi ziddiyatning kelib chiqishiga olib keladi. Ziddiyatning mavjudligi taraqqiyotning manbai va harakatga keltiruvchi kuchini taqazo etadi.

Dialektikada **qarama-qarshilik** deb, borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning o'zaro bir-birini istisno qiladigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarining o'zaro munosabatlari tushuniladi. Umuman, qarama-qarshiliklarni, ular orasidagi ayniyat, tafovut, ziddiyatlarni o'rganish qarama-qarshiliklar birligi va kurashi haqidagi ta'limotning mohiyatini bilishga yordam beradi.

Chunki, har qanday narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishi ulardagi mavjud ziddiyatlar birligi va kurashi natijasida yuz beradi. Ziddiyatlar rivojlanib, keskinlashgan holatida xal qilinmasa, konfliktga aylanishi mumkin. Ziddiyatlarning hal qilinishi o'zgarish va rivojlanishga, bir sifatdagi narsa yoki hodisaning boshqa sifatdagi narsa yoki hodisaga aylanishiga, yoki narsa yoki hodisa o'rniga yangi narsa va hodisa paydo bo'lismiga olib keladi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi hamma sohada amal qiladi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti ayni shu sababga binoan sodir bo'ladi. Ziddiyatlarning mohiyatini bilmay taraqqiyotning sabablarini tushunib bo'lmaydi.

Lekin har bir sohadagi ziddiyatlarni konkret o'rganmoq va ularni alohida o'ziga xos xal bo'lish yo'llarini to'g'ri bilmoq katta ahamiyatga ega. Buning

uchun ziddiyatlarning xillari, ularning narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi rolini to'g'ri va aniq bilib olish lozim.

Ziddiyatlar juda xilma-xildir. Ular narsa va hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha rol o'ynaydi hamda har xil vazifani bajaradi. Ular, odatda, ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lman, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarga bo'lib o'rganiladi.

Ichki ziddiyat — bu narsa va hodisalarning o'z ichidagi qarama-qarshi tomonlar, kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlardir.

Tashqi ziddiyat esa narsalar va hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Lekin ichki va tashqi ziddiyatlarni bunday bo'lish nisbiy xarakterga ega. Chunki, bir munosabatda ichki ziddiyat boshqa munosabatda tashqi ziddiyat bo'lishi mumkin. Masalan, turli tuzumdag'i davlatlararo ziddiyat tashqi ziddiyat, ammo kishilik jamiyati miqyosida olinsa ular ichki ziddiyatlardir.

Ichki va tashqi ziddiyatlar rivojlanish jarayonida bir xil rol o'ynamaydi. Rivojlanishning mohiyatini asosan, ichki ziddiyat belgilaydi. Tashqi ziddiyatlar rivojlanishga bilvosita, ya'ni ichki ziddiyatlar orqali ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, biz hozir mustaqil O'zbekistonning istiqboli, uni rivojlantirish rejalarini tuzyapmiz. Bunda respublikamizning rivojlanishi, istiqboli ko'p jihatdan mamlakatning ichidagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy muammolarni to'g'ri, ishning ko'zini bilib hal qilishimizga bog'liq. Biroq, respublikamiz xalqaro hamjamiatlarda, mustaqil davlatlar hamdustligida yashamoqda. Tashqi aloqa va munosabatlardagi muammolarni ham to'g'ri aniqlab hal qilinmasa, respublikamiz oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Demak, rivojlanish, asosan ichki muammolarni hal qilishga bog'liq, bo'lsa ham, lekin tashqi ziddiyatlarni ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaidi. Hayotda ichki va tashqi ziddiyatlarning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini qat'iy hisobga olib ish tutgan taqdirdagina muvaffaqiyat qozonish mumkin.

Ziddiyatlarni o'z xarakteriga, ularning narsa va hodisalarning rivojlanishidagi ahamiyatiga qarab asosiy va asosiy bo'lman ziddiyatlarga ham bo'lish mumkin. Narsa va hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradigan ziddiyat asosiy ziddiyat deyiladi. Asosiy ziddiyat taraqqiyotda xal qiluvchi rol o'ynaydi va boshqa barcha ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Asosiy bo'lman ziddiyatlar esa narsa va hodisalarning ma'lum bir taraqqiyot bosqichida ular mohiyatini belgilamaydigan, rivojlanishini o'zgartirish kuchiga ega bo'lman ziddiyatlar bo'lib, ularning rivojlanishga ta'siri konkret vaqtga va sharoitga bog'liqdir.

Shuni ham aytish kerakki, ziddiyatlarning qaysi biri asosiy va asosiy emasligini aniqlash rivojlanishning asosiy sabablarini to'g'ri belgilashning yo'lidir. Bu esa oson ish emas. Asosiy ziddiyatni mavjud ziddiyatlar orasidan topish uchun ziddiyatlarni maydonga chiqargan sharoitni, vaziyatni, bundagi qarama-qarshi tomonlarni va ular birligidan tashkil topgan narsaning mohiyatini, boshqalardan farqini, har bir ziddiyatning shu mohiyatga bo'lgan munosabatini aniqlash lozim. Asosiy ziddiyatlarni aniqlash esa ijtimoiy amaliyot jarayonida va

bu amaliyot natijalarini tafakkur orqali analiz va sintez qilish natijasida amalga oshadi.

Asosiy ziddiyatlar orasida ularning biri bosh ziddiyatni tashkil qilishi mumkin. **Bosh ziddiyat** deb, rivojlanishning u yoki bu bosqichining mohiyatini belgilab beradigan asosiy ziddiyatga aytildi. Bosh ziddiyat asosiy ziddiyatlar ichida muhim o’rin tutadi, ularga nisbatan taraqqiyot jarayonida belgilovchi rol o’ynaydi. Ijtimoiy taraqqiyotda bosh ziddiyatni aniqlab olish mamlakat taraqqiyotini to’g’ri belgilab olishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotiga xos ziddiyatlarni tahlil qilganda, yana **antagonistik** va **noantagonistik** ziddiyatlarni ham farq qilish zarur. Antagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga tubdan zid bo’lgan kuchlar, ijtimoiy guruhlar va tabag’alar o’rtasidagi ziddiyatlardir. Noantagonistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir-biriga mos keladigan yoki manfaatlarini o’zaro kelishtirish mumkin bo’lgan ijtimoiy guruhlar va tabag’alar o’rtasidagi ziddiyatlardir. Antagonistik ziddiyatlar konfliktlarga olib kelishi ham mumkin. Bunday holda ular bir tomonning mag’lubiyati va ikkinchi tomonning g’alabasi bilan hal qilinadi. Umuman, hamma ziddiyatlarni o’z vaqtida hal qilib borish zarur, aks holda ularning keskinlashib borishi kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, ziddiyatlar masalasiga, ularni xal etishning shakl va usullariga ham dialektik tafakkur asosida yondashish lozim. Jamiyat ziddiyatlari xilma-xil shakl va usullar bilan bartaraf etilishi mumkin. Ulardan ba’zilari eskining emirilib borishi va yangining qaror topib borishi asosida hal qilinib borilsa, boshqalari ayni shu ziddiyatlarni tashkil qilgan qarama-qarshi tomonlarni o’zaro kelishtirish, murosayu-madoraga keltirish, bir-birlari bilan o’zaro siyosiy muzokaralar olib borish, bitimlar tuzish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo’llari bilan bartaraf etilishi va shu asosda taraqqiyotni ta’minlash mumkin. Keyingi vaqtda jamiyatdagi ziddiyatlarni xal qilishda qo’llanilayotgan samarali usullardan biri **konsensus** (o’zaro kelishuv)dir.

Yangicha tafakkurning qaror topishi bilan jamiyat ziddiyatlarini hal qilishda Gegel qayd qilib o’tgan konsensus usulidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko’rsatdi. Hozirgi davrda konsensus usuli jamiyat taraqqiyotida muhim rol o’ynamoqda. Ayniqsa, uzoq muddatlar davomida bir-biriga qarama-qarshi bo’lib kelgan davlatlar, jamiyatdagi qarama-qarshi tomonlar, kuchlar, ijtimoiy guruhlar, harakatlar va partiyalar o’rtasidagi ziddiyatlarni jamiyatning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib hal qilishda konsensus usuli juda qo’l kelmoqda. Bu usul jahon xalqlarini milliy totuvlikka, o’zaro hamkorlikka, hamjihatlik va birlikka, barqarorlikka erishishida muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Konsensus usuli o’zaro tinch yo’l bilan olib borilayotgan muzokaralar, muloqotlar, referendumlar, xalqaro huquq normalari asosida ma’lum bir bitimga kelishuvlar, shular asosida eng muhim xujjatlar qabul qilishlar orqali olib borilmoqda. Jamiyatdagi bunday ziddiyatlarni xal qilishda, ayniqsa, xalqaro tashkilot (BMT va shu kabi)larning obro’-e’tiboridan foydalanish, xalqaro hamjamiyatga teng

huquqli a'zo bo'lish va ularning jahon taraqqiyotiga ta'sirining ortib borishi ham muhim omil bo'lmoqda.

Ziddiyatlarni o'rganayotganda konkret sharoitni hisobga olish kerak. Davr va sharoitning o'zgarishi bilan antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni echish shakllari ham o'zgarishi mumkin. Chunki ziddiyatlar ham o'zgarib, bir-biriga o'tib turadi.

Har bir sohaga xos ziddiyatlarning o'ziga xos xal bo'lish shakllari mavjud. Tabiatdagi ziddiyatlar, odatda stixiyali o'z-o'zicha paydo bo'lib, rivojlanib, so'ng o'zlariga xos qonuniyatlar asosida hal etiladi. Jamiyatda esa ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, jamiyatdagi antagonistik ziddiyatlar yo bu ziddiyatni tashkil etgan tomonlar o'zaro muzokalar olib borish orqali, yoki birining g'alabasi, ikkinchisining mag'lubiyati bilan hal qilinadi.

Umuman olganda, o'zgarish va rivojlanish jarayonida turli-tuman ziddiyatlar paydo bo'lishi, rivojlanishi va turlichal qilinishi mumkin. Bu bilan ziddiyatlar butunlay tugamaydi. Ularning eskilari o'rniya yangilari paydo bo'lib, ular ham ma'lum vaqtidan so'ng eskirib, o'rni ni yana yangilari olib, shu asosda rivojlanish cheksiz davom etaveradi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'limgan, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarni bir-biridan farq qilish zarur, lekin ular o'rtasida mutlaq chegara yo'q. Voqelikda ular o'zaro chirmashib ketadilar, bir-biriga o'tib turadi va taraqqiyotda xilma-xil rol o'ynaydilar. Shuning uchun ziddiyatlarning har biriga konkret yondoshish, ular namoyon bo'ladigan sharoitni, vaziyatni, shu taraqqiyot jarayonida o'ynaydigan rolini to'g'ri hisobga olish muhim axamiyatga ega.

#### v) Taraqqiyotda vorislik va davomlilik (inkorni inkor).

Taraqqiyotdagi vorislik va davomlilik inkorni inkor etish yo'li bilan amalga oshib boradi. Bu muammoni o'rganishni inkor tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olishdan boshlash lozim.

Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi va yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bundagi eskining yangi bilan almashinishi **inkor**, deb ataladi. «Inkor» atamasini falsafaga Gegel kiritgan. Uning nuqtai nazaricha, inkor g'oyaning, fikrning rivojlanish bosqichidir.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmoq — «yo'q», demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q», demak emas, yoki narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushinish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki yangi eskining bag'rida vujudga kelib, undagi sog'lom

tomonlardan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. «Ichki inkor» taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir, deb Gegel bekorga aytgan emas.

Dialektik inkor ayni bir vaqtida «yo’q» deyish bilan «ha» deb, ya’ni inkor etish bilan birga tasdiqlashni ham o’z ichiga oladi. U barcha narsani butunlay rad etuvchi nigilik qarashdan holi bo’lib, bir paytda sodir bo’ladigan emirilish bilan yaralishni, xullas, narsa va hodisalarning yo’g’olishi va paydo bo’lishini bog’lab ilgarilab rivojlanish holatini ifodalaydi. Bu dialektik inkorning muhim jihatini tashkil qiladi.

Dialektik inkorning muhim ikki jihat mavjud: birinchisi, eskining o’rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo’lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog’liq, ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor etish haqida to’xtalib o’tishdan avval uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Dialektikaning bu tamoyilining ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi moddiy olamdagи narsa va hodisalarning doimiy ravishda o’zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o’tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi. Har bir mavjud bo’lgan narsa va hodisa o’zigacha bo’lgan sifat va miqdorning inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o’zi ham sharoitning o’zgarishi, vaqtning o’tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o’zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko’proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Inkorni inkor ana shu inkorlarning sodir bo’lishi bilan rivojlanishning davom etishini ifodalaydi. Bundagi bitta inkor narsa va hodisalardagi o’zgarish va rivojlanishning bir momentini tashkil etsa, «inkorni inkor» atamasi ularning muayyan zanjirini bir necha davrini ifodalaydi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning tugallovchi xalqasida, ya’ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichdagi ba’zi belgilar takrorlanadi (don o’simlikdan yana donlarga aylanadi).

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to’g’ri chiziq shaklida emas, balki **aylana** shaklida bo’ladi, uning oxirgi nu o’tasi boshlangich nu o’taga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nu o’ta bilan tutashishi bo’lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo’lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo’ladi. Bu spiralning har bir yangi o’rami oldingi o’ramiga nisbatan yuqoriq, bosqichda yuzaga kelgan bo’ladi. Ana shu ma’noda taraqqiyotning dialektik nazariyasida «spiralsimon» atamasi ishlataladi.

Dialektik inkorga ko’ra, taraqqiyotning spiralsimon xarakteri o’zining quyidagi uch jihatiga ega: birinchidan, inkorni inkorda, dastavval, narsa va xodisalar abadiy o’zgarmasdan qola olmasligi, davrning o’tishi bilan har bir narsa va hodisa o’zgarishi, bu o’tishda esa yangi sifat faqat emirilayotgan narsa zaminida paydo bo’lishini ochib beradi. Buni **destruktsiya** deyiladi. Ikkinchidan, u emirilayotgan (inkor etilayotgan) narsa bilan paydo bo’layotgan yangi narsa o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni, ularning bir-biriga bo’lgan munosabatini ochib

beradi. Buni **kumulyatsiya** deyiladi. Uchinchidan, inkor etilayotgan narsa oldin erishgan yutuqlarni, uning rivojlanishga qodir bo'lgan ba'zi belgi va xususiyatlarni saqlab qolish, ulardan foydalanish asosida yuz beradi. Buni **konstruktsiya** deb yuritiladi. Shu asosda o'zgarish, rivojlanish sodir bo'ladi. Bunday inkorni inkorning muhim belgisi, ya'ni narsa va xodisalarning ilgarilab rivojlanishi, yangilikning engilmasligi mantiqan o'z-o'zidan kelib chiqadi. Chunki har bir narsa va hodisa uzlusiz o'zgarishlar, ya'ni o'sishlar va emirilishlar, paydo bo'lish va yo'q bo'lish jarayonini kechirib turadi. Demak, yangi vujudga kelgan sifat, albatga, inkor etilayotgan eski sifatdan ustun va bir qadam olg'a ketgan bo'ladi. Bu tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos bo'lgan ob'ektiv jarayondir.

Yuqorida aytilgan, bir-biri bilan chambarchas bog'lik bo'lgan uch jarayonning birligi hozirgi kunda O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. Biz uchun hozir jamiyatimizda eskirgan ijtimoiy munosabatlarni iloji boricha dialektik izchillik va ziyraklik bilan o'z vaqtida bartaraf etish, yangi paydo bo'layotgan bozor iqtisodiyotiga oid munosabatlarni o'z vaqtida payqab olish, ularni rivojlantirish yutuqlarimizning ko'payishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va xalqimiz keng qo'llab-quvvatlayotgan bozor munosabatlari jamiyatimizdagi xo'jasizlik, shahar va qishloqlarda mehnatni tashkil qilishning eski samarasiz usullari, hayotning hamma sohalarida boshqarishning buyruqbozlik usullari, jamiyatga zarar etkazuvchi ekologik va ma'naviy buzilishlarning tugatilishiga olib keladi.

Inkorni inkor jarayonida oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga qarab boruvchi, ilgarilab boruvchi rivojlanish sodir bo'ladi. Shuning uchun inkorni inkor jarayonining xarakterli xususiyatlaridan biri — uni orqaga qaytarib bo'lmaslidir. Buning sababi shundaki, har bir yangi bosqich ilgarigi bosqichlarning butun boyligini o'zida sintezlashtirib, taraqqiyotning yanada yuqoriroq shakllari uchun zamin yaratadi. Bu sintez «inkorni inkor» deyiladi. Inkorni inkor tufayli har bir paydo bo'lgan yangilik shuning uchun sintez deyiladiki, unda eskining rivojlanishiga qodir bo'lgan tomonlari saqlanib qolib, ular yangida paydo bo'lgan tomonlar bilan uzviy birikkan bo'ladi va shu asosda rivojlanishning navbatdagi bosqichini ta'minlaydi. Xuddi shu yo'l bilan taraqqiyotning yo'nalishi belgilanadi.

Taraqqiyotning yo'nalishi haqida turli davrlarda turlicha qarashlar mavjud bo'lgan. Uzoq davrlar taraqqiyotning yo'nalishini noto'g'ri tushunish oqibatida, faylasuflar hamma narsalar davriy takrorlanuvchi o'zgarishdan yoki bekik doira ichida doimiy aylanishlardan iborat, deb qaraganlar. Ba'zi olimlar taraqqiyotni to'g'ri chiziq bilan boruvchi yoki takrorlanib turuvchi bosqichlardan iborat, deb tushunganlar, masalan, frantsuz olimlari Lamark va Sent-Illerlar tirik tabiatda taraqqiyot uzlusiz va sakrashlarsiz to'ppa-to'g'ri yo'ldan ilgarilab boradi, desalar; italiyalik faylasuf J.Viko, jamiyat o'z boshidan doimiy ravishda takrorlanib turuvchi uch bosqichni (go'daklik, yigitlik va etuklik davrini) kechirib turadi, deydi.

Shuni ham aytish kerakki, taraqqiyot jarayonida ma'lum darajadagi takrorlanishlarni uchratamiz. Lekin ularning har biri oldingi holatning oddiy o'zgarishsiz takrorlanishidan iborat bo'lmay, balki yangicha, o'zgacha yuqoriroq bosqichda sodir bo'lishidir, bundagi inkorni inkor oddiy va to'g'ri yo'l bilan sodir bo'lmay, balki o'ziga xos murakkab, egri-bugri yo'l bilan spiralsimon yo'naliishda sodir bo'ladi. Bundagi taraqqiyot jarayoniga xos inkor va inkorni inkor momentlarida bo'ladiqan vaqtinchalik orqaga chekinishlar, takrorlanishlar bilan bir qatorda, ilgarilab boradigan rivojlanishni ham ko'ra bilish inkorni inkorning mohiyatini tashkil qiladi.

Tarixda, jumladan O'zbekiston sharoitida bir necha bor jamiyatni orqaga qaytaruvchi katta yo'qotishlar va qurbonlarga olib kelgan quruq inkorlar bo'lgan. Aslida, real tarixiy rivojlanish ideallashtirilgan ko'rinishidan yiroq bo'lib, o'z qadriyatlarini yo'qotmagan holda, mukammallahib boruvchi bosqichlardan iborat bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda eski va eskirayotgan narsalarni inkor etish va ularning o'rniga yangilarini qurish, yaratish uchun kurash davom etmoqda. Jamiyatda yuz berayotgan bozor iqtisodiyoti tug'dirayotgan o'zgarishlarni har bir kishi to'g'ri tushunib olishi lozim. Respublikani sifat jihatidan o'zgartirish, uni yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kiritish uchun hozirgi davrda har bir kishidan ko'proq kuch-g'ayrat sarflashni, o'z faoliyatiga baho berishda xolis, printsipial bo'lishni, omilkorlik va fidokorlikni talab qiladi. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash uchun faqat iqtisodiy o'zgarishlar qilish etarli emas, shu bilan birga, siyosiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar ham qilish, faol ijtimoiy siyosat olib borish, inson to'g'risida g'amxo'rlik, uning hayotiy manfaatlarini himoya qilish ham zarur.

Mustaqillik bizdan bilimdonlikni va yuksak darajada mutaxassislikni talab qiladi. Endilikda ishlab chiqarishni, fan va texnikani boshqarish, mehnatni, shubhasiz, yuqori darajada tashkil qilish va shu kabilar har tomonlama tayyorgarliksiz, chuqur bilimlarsiz bo'lishi mumkin emas.

Mustaqillik — mustamlakachilikni qat'ian bartaraf etish, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi ma'muriy buyruqbozlik mexanizmni butunlay buzib tashlash, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlantirishning ishonchli va samarali mexanizmini yaratish demakdir.

Mustaqillik umuminsoniy va milliy ahloq normalarini buzish hollaridan xolos etish, ijtimoiyadolat tamoyillarini izchillik bilan amalga oshirish demakdir. Bu degani: so'z bilan ishning, huquq, bilan burchning birligini ta'minlash, xalollik va vijdon bilan ishlab, yuqori unumli mehnatni tashkil qilish, unga haq to'lashda tekischilik tendentsiyalarini, iste'molchilik kayfiyatini bartaraf etish, inkor qilish demakdir.

Shunday qilib, borliq va bilishga xos inkor va inkorni inkorlar benihoya davom etaveradi. Bu abadiy davom etadigan jarayonda dialektikaning barcha tamoyillari birgalikda amal qiladi. Bunda inkorni inkor hech bir narsa yoki hodisa

abadiy o'zgarmasdan qola olmasligini, aksincha, eski o'rnini muqarrar yangi egallashini, ammo ular o'rtasida vorisiy aloqalar mavjudligini ifodalaydi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:**

1. Dialektika nima?
2. Falsafada qonun va qonuniyat degenda nimani tushunasiz?
3. Dialektikaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
4. Taraqqiyot va uning shakllari nima?
5. Umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir iqtisodiy hayotda qanday ko'rindi?
6. Dialektikaning asosiy qonunlari nimalar?
7. Dialektikaning asosiy kategoriyalari qanday tizimlashadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
2. Falsafadan va'z matnlari. T., TDTU, 1995.
3. Tulenov J. G'ofurov Z. Falsafa. T., 1997.
4. Hojiboev A. Ijtimoiy olamni bilishning o'ziga xos xususiyatlari. T., 1991.
5. Rahimov I. Falsafa. T., «Universitet», 1998.
6. Falsafa (E.Yu.Yusupov tahriri ostida). T., Sharq, 1999.

## **13-MAVZU: FALSAFADA ONG MUAMMOSI.**

### **Reja:**

- 1. Falsafada ong muammoiga diniy, tabiiy-ilmiy va falsafiy yondashuv.**
- 2. Ong va uning mohiyati. Ongning shakllari va darajalari.**
- 3. Ongning ijodiy xarakteri. Mustaqillikni mustahkamlash va ongliylik.**

Falsafada uzoq davrlar ong o'zi nima? U qanday shart-sharoitlar asosida kelib chiqadi?-degan savollarga ilmiy javob bera olmay keldilar. Bunga sabab uzoq davrlar tabiatshunoslik fanlari etarli rivojlanmaganligi ham faylasuflarga bu savollarga ilmiy javob berishga imkon bermasdi. Shu tufayli ular ong birlamchimi yoki materiya birlamchimi, degan savollarga turlicha javob berish bilan cheklanib umuman, ong genezisi uning paydo bo'lish masalasini o'rtaga qo'ymay keldilar.

Umuman olganda, ong doim bo'lган emas. Anorganik tabiat asosida organik tabiatning kelib chiqqan dastlabki davrlarida ham hali ong bo'lмаган. Ong

organik olam taraqqiyotining juda yuksak bosqichida kelib chiqadi. Tabiatshunoslik fanlarining bergen ma'lumotlariga ko'ra, Er shari bir vaqtlar shunday bir holatda bo'lganki, unda na inson va na umuman, boshqa bironta jonzot bo'limgani va bo'lishi ham mumkin emasligini tabiat ilmlari ijbiy ravishda tasdiqlaydi. Organik tabiat keyinroq yuz bergen hodisadir, uzoq davom etgan taraqqiyot samarasidir.

Tabiat o'z taraqqiyot qonunlariga ko'ra, noorganik tabiatdan organik tabiatga tomon, organik tabiat esa tirik qo'yisi mavjudotlarning turlaridan yuqori murakkab turlariga tomon rivojlanib boradi. Tabiat o'z taraqqiyotining shunday bir yuksak bosqichida oliy biologik tur - odamni va uning g'oyatda murakkab, yuksak darajada uyushgan miyasini vujudga keltiradi. Ong ana shu odam miyasining ijtimoiy omillar natijasida voqelikni oliy aks ettirishdan iborat alohida layoqati, xossasi sifatida paydo bo'ladi. Ong inson miyasida borliqning oliy aks etish shakli sifatida ijtimoiy taraqqiyot natijasida, ijtimoiy omillar asosida poydo bo'ladi. Ong, shu bilan birga, har qanday miyaning faoliyati emas, u faqat inson miyasining faoliyatidir.

Idealizm vakillari ongning kelib chiqshini G'ayriy ilmiy tushuntiradi. Ob'ektiv idealizm namayondalari ongni birlamchi hisoblashib, ulardan xususan Gegel ong qandaydir alohida G'ayriy moddiy asosning, ya'ni «mutlaq g'oya», «mutlaq ruh»ning namoyon bo'lishi, degan fikrini ilgari suradi. Uning nuqtai nazaricha, ong insonga shu «mutlaq g'oya», «mutlaq ruh» tomonidan berilgan, u shu «g'oya» yoki «ruh»ning xossasidir. Ob'ektiv idealistlar, butun borliq ana shu «g'oya» yoki «ruh»ning mahsuli deb, da'vo qiladilar.

Sube'ktiv idealistlarning fikricha, butun borliqni, sub'ekt ongi vujudga keltiradi, sub'ekt sezgilari, idrok va tasavurlari esa faqat sub'ekt ongi sifatida real mavjuddir, borliq tabiat ana shu sub'ekt ongiga bog'liqdir. Ularning nuqtai nazaricha, sub'ekt ongi birlamchidir.

Materilizm vakillari esa materianing birlamiligini va ongnning ikkilamchilagini qayd qiladi. Ular ongning tabiatini va mohiyati to'g'risidagi masalani qarab chiqar ekan, ong yuksak tashkil topgan inson miyasidagi voqeliyning oliy psixik in'ikosi va o'z mohiyasi jihatidan ijtimoiy hodisa ekanligini aytishadi.

Biz, ong inson miyasining ichki funksiyasi, uning ruhiy-holati, deymiz. Xo'sh, inson miyasining o'zi nima? Inson miyasi murakkab tuzilishga ega moddiy narsadir. U organik-tabiat taraqqiyotining oliy bosqichi, inson organizmining muhim qismi, uning fikrlash organidir. Organik tabiat evolyutsiyasi natijasida juda ko'p murakkab tirik organizmlar, hatto yuksak tashkil topgan hayvonlar kelib chiqqan bir vaqtda ham, hali ularning birontasida o'z tuzilishi, xususiyatlari va imkoniyatlari jihatdan odam miyasiga tenglasha oladigan miya bo'limgan. Hatto odamga juda yaqin turgan kramonon (xomasapinus - oqliy odam) - maymun odam miyasi ham odam miyasiga nisbatan quyi bosqich hisoblanadi.

Odam miyasi odam organizmidagi barcha nerv to'qimalarining markazidir, u shu to'qimalar asosida butun organizmning ish faoliyatini, uning tashqi muhit

bilan bo'lgan munosabatlarini boshqarib turadi. Bu munosabatlarning hammasi odam miyasining ish faoliyati natijasida yuz beradi. Agar miyaga biror shikast etsa yoki u kasallansa, buning oqibatida uning normal ish faliyati izdan chiqadi. Unda ong yo'g'oladi. Miyaga etgan shikast tuzalishi yoki kasallik davolanishi bilan, u normal ishlab, yana ongli faoliyat yuz bera boshlaydi. Bu narsa ongning muayyan ravishda miya bilan bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi.

Odam miyasi g'oyat murakkab bo'lib, u nerv xujayralari - neyronlardan tuzilgan. Fiziologiyada yaqin paylarga oda miyasi 14-16 mlrd. hujayralardan iborat, deb kelinar edi. Keyingi vaqtarda olingan ma'lumotlarga ko'ra, faqat bosh miyadagi miyachaning o'zi (bu miyacha markaziy nerv tizimini tartibga solib turadi) 100 mlrd.ga yaqin hujayralardan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi.

Odam miyasi bosh miyaning yuqori qismi katta yarim sharlardan, markaziy nerv sistemasining quyi bo'limlari-orqa, cho'zinchoq, o'rta, oraliq miyadan iboratdir. U g'oyatda murakkab o'zaro quyi qismlarning yuqori qismlarga bo'y sunishi tarzida tuzilgan. Tashqi ta'sirlarning analizi va sintezi hamda xatti-harakatni boshqarishning eng oddiy shakllari markaziy nerv tizimining quyi bo'limlarida: ya'ni orqa miya, cho'zinchoq miya, o'rta va oraliq miyalarni tomonidan; eng murakkab shakllari esa bosh miya katta yarim sharları tomonidan amalga oshiriladi. Bosh miya katta yarim sharları muayan po'st bilan o'ralgan bo'lib, bu po'st odam ongi uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. U juda murakkab turli qismlardan tashkil topgan bo'lib, bu qismlarning har biri juda ko'p markazlar komplekslaridan iboratdir. Bu markazlar komplekslari ko'rish, eshitish, hid bilish, tam bilish, teri sezgisi, turli faoliyat va hatti-harakatlar markazlariga bo'linadi. Bu markazlarning har biri o'ziga xos bir necha ming neyron tolalarining o'zaro tutashidan iborat bo'lib, ular bosh miya po'stining faoliyatida muhim funktsiyalarni bajaradi. Ular tashqaridan olingan ta'sirlarning ma'lum turini analiz, sintez qilib, umumlashtirib, tashqi ta'sirga nisbatan muayyan javob hozirlaydi. Bosh miya yarim sharları po'stida joylashgan bu markazlar ko'pdan-ko'p nerv tolalari orqali tegishli sezgi a'zolari bilan hamda ichki va tashqi tana organlari bilan bog'langandir.

Fanning aniqlashicha, bosh miya yarim sharları po'stidagi bu markazlar komplekslari yuksak tashkil topgan hayvonlar miyasida va odam miyasida deyarli bir xildir. Lekin odam miyasida ular hayvon miyasidan farqli o'laroq ko'rish nutq, eshitish nutq, hid bilish nutq, tam bilish nutq, harakatlanish nutq markazlari sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Shu bilan birga, odam bosh miya yarim sharları po'stida hayvonlar bosh miya yarim sharları po'stida bo'limgan murakkab markazlar ham mavjuddir. Bu murakkab markazlar nerv tizimi evolyutsiyasining so'nggi bosqichlarida odam bosh miya yarim sharları po'stida yuzaga kelgandir.

Bosh miya yarim sharları po'stida iborat bo'lgan markazlar sezgi a'zolari bilan analizatorlar orqali bog'langandir, ularga ko'rish, eshitish, tam bilish, hid bilish, harakatlanish va boshqa analizatorlarning uchlar kelib tutashgandir. Markazlarning o'zlarini ham o'zaro neyronlar orqali tutashgan bo'lib, ular juda ko'p miqdorda o'zaro vaqtli aloqalar o'rnatadilar. Markazlarni o'zaro tutashtiruvchi va ularni

analizatorlar bilan bog'lovchi neyronlar nerv impulslarini bir markazdan boshqa markazlarga bir lahzada o'tkaza oladi, ular tashqaridan kelayotgan signallarni qabul qilib olib, ularni har tomonlama analiz, sintez qilib, umumlashtiradi. Bunda markazlarning normal ishlab turishini ta'minlovchi po'st ostki qatlamlari ham muhim rol o'yndaydi. Ular irsiy, nasldan-naslga o'tadigan tug'ma instinkтив faoliyatlarning a'zolaridir.

Hozirgi davr fiziologiyasining ma'lumotlari hatto shu narsani bermoqdaki, bosh miya yarim sharlari po'stlarining har biri o'ziga xos nisbatan alohida funktsiyalarni bajarib, muayyan masalalarini echar ekan. Masalan chap yarim shar po'stida nutq markazlari joylashgan, o'ng yarim sharda esa informatsiyalarni so'z bilan ifodalovchi «qobiliyatli» markazlar yo'q ekan. Aksincha, bosh miya o'ng yarim sharida predmetni idrok qiluvchi markazlar mavjud bo'lib, ular tashqaridan bo'ladigan signallarni qabul qilib, ularni analiz - sintez qilib, umumlashtirib, chap yarish shari po'stidagi nutq markazlariga uzatar ekan. Bosh miya chap yarim shari po'stidan joylashgan nutq markazlari bu informatsiyalarni nutqqa, so'zlar va gaplarga aylantirar ekan.

Bosh miya yarim sharlari po'stlarida bunday markazlarning «oddiy», «murakkab», «o'ta murakkab» ko'rinishlari mavjud ekan. Bunday markazlar bosh miya yarim sharlari po'stlarida juda ko'p ekan. Ularning hammasi birlikda odamning ongsiz va ongli faoliyatini asosini tashkil qilar ekan.

Demak, odam miyasi ong organi sifatida murakkab tuzilishiga va o'ziga xos ajoyib ichki layoqatga ong faoliyatini yuzaga keltiruvchi xususiyatlarga ega ekan. Odam miyasining bu xususiyatlari ongning kelib chiqishida tabiiy asosni tashkil etadi.

Endi ong voqelik in'ikosining oliy shakli ekanligini ko'rib chiqaylik.

Ong inson miyasining xossasi bo'lishi bilan birga, u voqelik in'ikosining oliy ruhiy shakli hamdir. Ong voqelikning oliy ruhiy in'ikosi ekanligini tushunib olish uchun biz in'ikosning o'zi nima, u borliqning qanday xususiyati ekanligi bilan tanishib chiqishimiz zarur.

Falsafa in'ikosni borliqning hamma turlari va ko'rinishlariga xos umumiyyususiyatdir, deb o'rgatadi. Biz in'ikos borliqning umumiyy, universal xususiyati, xossasi, deb o'rganamiz. Xo'sh in'ikos nima?

In'ikos ob'ektiv olamdag'i predmet va hodisalarining o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladigan jarayondir. In'ikos bir ob'ektning boshqa ob'ektlar ta'sirini o'zida qoldirish, uni saqlash yoki bu ta'sirni aks ettirish, unga muayyan tarzda aks ta'sir bilan javob berish kabi xususiyatlardir. In'ikos bo'lishi uchun, avvalo, in'ikos etiluvchi va in'ikos ettiruvchi ob'ektlar bo'lishi, in'ikos etiluvchi ob'ekt in'ikos ettiruvchi ob'ektga muayyan ta'sir qilishi va bu ta'sirni in'ikos ettiruvchi o'zida aks ettirishi lozim. Shundagina in'ikos hosil bo'ladi. In'ikosning xarakteri ayni choqda bu ob'ektlarning xususiyatlariga, ularning o'zaro ta'sir qilish darajasiga va bu ta'sirlarni aks ettirish usullariga bog'liqdir. Shunga ko'ra borliqning turli xil ko'rinishlariga turli xil in'ikos shakllari xosdir. In'ikosning «elementar» shakllarini noorganik tabiat jismlarida uchratish mumkin. Masalan,

toza polda yoki tuproqli yo'lda yurganimizda, oyog' kiyimimizning izi qoladi. Bu mexanik in'ikosdir. Temir yo'1 relslari yozda issiqdan kengayadi. Bu fizik in'ikosdir. Yoki biror bir temir buyum zax erda qoldirilsa, u zanglab oksidlanadi. Bu kimyoviy in'ikosdir. Noorganik tabiatga xos bu in'ikos shakllari in'ikos etiluvchining in'ikos ettiruvchiga qilgan ta'sirining oddiy mexanik izi yoki undagi fizik o'zgarish yo bo'lmasa, oddiy kimyoviy ta'sirga uchrashlaridir. Ular o'z xarakteri jihatdan passiv in'ikoslardir. Falsafiy adabiyotlarda noorganik tabiatga xos bo'lgan bu kabi «passiv» in'ikoslarni aks etish, deb atash qabul qilingan.

Organik tabiat kelib chiqishi bilan in'ikos butunlay o'zgaradi. Endi in'ikos aks etiluvchining aks ettiruvchiga ta'siri va bu ta'sirga javoban aks ettiruvchida, uning ichki holatida sodir bo'ladigan o'zgarish bilan bog'liq qarshi ta'sir bilan javob berish, ta'sirni tanlab aks ettirish layoqatidan iborat bo'la boshlaydi. Organik tabiatning dastlabki sodda ko'rinishlarida bunday in'ikos tashqi muhitning ta'siriga uchrash, yorug'likka, namlikka, suvga intilish, issiqlik manbaiga tomon og'ish, og'irlik kuchiga berish, ta'sirning xarakteriga qarab, turli holat va turli shakl olish tarzda yuz bera boshlaydi. Organik tabiat in'ikoslarning bu dastlabki ko'rinishlarining xar biri o'zining muayyan faollik xususiyati bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra falsafiy adabiyotlarda in'ikos termini ko'proq organik tabiatga xos bo'lgan in'ikoslarni ifodalaydi.

Organik tabiatning dastlabki ko'rinishlarida inikos **tuyish, his qilish, ta'sirlanish, seskanish, iztiroblanish** kabi shakllarda yuzaga keladi, ular **organik inikos shakllari** deyiladi. Inikosning bu organik shakllari hayot bilan birga paydo bo'lib, organik tabiatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Ular organik tabiatning asosiy mohiyati-modda almashuvi bilan muqarrar bog'liq yuzaga keladi. Inikosning bu shakllari tirik oqsil vujudga kelgan hamon, u bilan tashqi muhitning bog'linishida namoyon bo'ladi. Bunda eng sodda tirik organizmlar tashqi ta'sirga javoban bir qadar mustaqil reaksiyalar ko'rsatadigan, seskanadigan va iztiroblanadigan bo'ladilar.

Inikosning organik tabiatga xos bu dastlabki shakllari eng sodda tirik organizmlarga tashqaridan bo'ladigan ta'sir natijasida kelib chiqadigan planli harakatlardir.

Lekin organik tabiat ko'rinishlari bo'lgan dastlabki eng oddiy tirik organizmlarning paydo bo'lishidayoq inikos ularning hayotida katta rol o'ynaydi. Bu tirik organizmlarning rivojlanib, o'zgarib borishi bilan ularga xos inikos shakllari ham o'zgarib, yangi-yangi turlari paydo bo'lib boradi.

Buni o'simliklarda yaqqol ko'rish mumkin. O'simliklarda eng kuchli rivojlangan organik inikos shakllaridan biri **tropizmlardir**. Tropizmlar ta'sirlanuvchanlikning rivojlangan ko'rinishlaridir. Tropizm turlaridan biri fototropizm bo'lib, u o'simlikning quyosh nurlari ta'siriga javoban yuzaga keltiradigan reaksiyasidir. Bunda o'simliklar mumkin qadar ko'proq quyosh nurlariga intiladilar. O'simliklarning barglariga quyosh nuri qay tomondan ko'proq tushsa, barglar, asosan, o'sha tomonga qarab o'sadi. Gulli o'simliklarning

ko'pchiligi esa quyosh harakatiga moslab, unga qarab o'zlarini harakatlantirib boradi. Bunga, hammamizga ma'lum, kungabog'ar yaqqol misol bo'la oladi.

Organik tabiat o'z taraqqiyotida tirik organizmlarning tobora murakkab turlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Tirik organizmlarning bu yangi murakkab turlarining paydo bo'lishi o'z navbatida ular bilan bog'liq biologik inikosning yanada takomillashgan yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Bu yangi biologik shakllarning dastlabkisi **sezish** bo'ladi.

Sezish, biologik inikosning oldingi sodda shakllarni singari, tashqi dunyoning tirik organizmga ta'siri natijasida yuzaga kelsa ham, biroq unda tashqi ta'sirlantiruvchilar doirasi ancha kengaygan, organizmning ana shu ta'sirlantiruvchilarning ta'siriga biron-bir tarzda psixik javob reaktsiyasini hosil qilishidir. Sezishning kelib chiqishi sezgi a'zolarining, shu bilan birga, nerv tizimining qaror topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Rivojlanib borayotgan tirik organizmlarning tobora takomillashib borishi bian ular tanasining turli o'rinalridagi turli to'qimalar tabag'alashib, ixtisoslashib boradi. Bunda tananing turli qismlarida tanaga bo'ladigan tashqi ta'sirni yaxshi qabul qiladigan turli xil plastik to'qimalar paydo bo'lib yanada rivojlanib borib, asta-sekin organizm bilan tashqi muhit o'rtasida vositachi rolni bajaruvchi alohida organlarga-**sezgi a'zolariga aylana boradi**. Bu organlarda bora-bora muayyan inikos funktsiyalarini bajarishga moslashgan yangi to'qimalar tashkil topib, ular xilmayxil, taQin ham ko'proq, ixtisoslashgan xususiyatlar kasb eta boradi. Shu asosda tirik organizmlarda ta'sirlanuvchi yoki iztiroblanuvchi manba tananing bevosita ta'sirga uchragan uchastkasidan bu ta'sirlarni tananing iztiroblanmagan qismiga o'tkazuvchi tolalar zanjiri paydo bo'ladi. Bu tolalar zanjiri organik tabiat evolyutsiyasi davomida asta-sekin ixtisoslashgan to'qima tolalariga aylanib, ular rivojlanib, takomillashib borib, nerv tolalarining, keynchalik esa nerv tizimining paydo bo'lishiga olib keladi.

Tirik organizmlarda nerv tizimining paydo bo'lishi bilan biologik inikos printsiplial ahamiyatga ega bo'lган yangi xususiyatlar kasb etadi. Endi nerv tizimi mavjud bo'lган tirik organizmlarda tashqi ta'sir natijasida yuz beradigan inikos muhit bilan organizm o'rtasidagi bu organizm uchun biologik ahamiyati bo'lган omillar (biotik faktorlar) orqaligina vujudga kelmasdan, bu tirik organizm uchun bevosita biologik ahamiyati bo'lмаган omillar (abiotik faktorlar) orqali ham yuz bera boshlaydi. Tirik organizmlar endi rang, hid, tovush kabilarni ajratadigan, ta'mni, sovuq va issiqni, quruqlik va namlikni sezadigan, turli xil mexanik, fizik, kimyoviy va boshqa ta'sirlarga o'zlaricha muayn holda javob beradigan bo'lishadi. Bu ularning o'zini qurshab turgan tashqi muhitga moslanuvchanligini, aktivligini oshiradi. Natijada, shu paytgacha tirik organizmlarning o'zini va ularning muhit bilan aloqasini boshqarib kelgan nerv tizimi organizmning o'zini va uning muhit bilan aloqasini idora qiluvchi yangi maxsus organ-markaziy nerv tizimidan iborat bosh miyaning tashkil topishiga olib keladi.

Bosh miyaning paydo bo'lishi bilan tirik organizmlardagi nerv markazlari bosh miyaga nisbatan organizmga oid ikkinchi darajali funktsiyalarni bajaradigan

bo'ladilar. Ular organizm uchun uncha katta ahamiyati bo'limgan ta'sirlarni qabul qilib, ularga javob qaytaradigan bo'lib qoladilar. Buni biz bag'a misolida ko'rishimiz mumkin. Agar bag'aning boshini kesib tashlab, so'ngra uning oyog'iga biron narsani tegizsak, bu ta'sir darrov uning umurtqadagi miyasiga etadi va bag'a oyog'ini tortib oladi. Agar bag'aning oyog'iga ninaga o'xhash biron narsani suqib olsak, bag'a organizmi hech qanday javob reaktsiyasi qaytarmaydi. Chunki uning umurtqadagi miyasi bunga javob berish imkonpyatiga ega emas, bu ta'sirga javob beruvchi bosh miyasi esa uzib tashlangan.

Bosh miya, umuman, dastlabki davrlarda tirik organizmlarning barcha boshqa faoliyatlari bilan birga inikos faolitini ham boshqaruvchi organ sifatida faoliyat ko'rsatadi. U hashoratlar, qushlar va sodda hayvonlarda organizmning o'zini, uning inikos faoliyatini boshqarganligi bilan hali ong organi bo'lmaydi.

Organik tabiat evolyutsiyasida yuksak tashkil topgan hayvonlarning paydo bo'lishi bilan ma'lum darajada uyushgan miya qaror topadi. Bunday miya ot, it, delfin, bo'ri, maymun kabi hayvonlarga xos miyadir. Lekin bunday miya ham ong organi bo'la olmaydi. Shunday qilib, organik tabiat evolyutsiyasida organizmlarning rivojlanib, yuksak tashkil topgan hayvonlarning qaror topishi psixik inikosning rivojlanib, uning yangi-yangi shakllarining kelib chiqishiga olib keladi.

Psixik inikos shakllarining evolyutsiyasini o'rganish odam ongi kelib chiqishining tabiiy genetik asosini yoritishda katta rol o'ynaydi. Chunki ong voqelikni psixik inikos ettirishning oliy ruhiy shaklidir. Shu tufayli biz quyida psixik inikos shakllarining yuzaga kelishi va ularga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

Psixik inikos-bu biologik inikosning ancha rivojlangan va shu bilan birga, o'ziga xos yangi bir bosqichdagi ko'rinishidir. Psixik inikosning dastlabki shakli - bu sezgidir. Sezgi, sezish qobiliyati rivojlanib borib, **shartsiz** va **shartli reflekslarni** instinktlarni hosil qila boradi. Sezish qobiliyatini takomillashtirib borish, idrok va **tassavurlarni**, nihoyat **tafakkurni** keltirib chiqaradi.

Organik tabiat evolyutsiyasida nerv markazlari, nerv tizimiga ega bo'lgan tirik mavjudotlarning paydo bo'lishi bilanoq psixik inikosning **shartsiz** va **shartli** refleks ko'rinishlari yuzaga keladi.

**Shartsiz reflekslar**-bular tirik organizmlarda biologik faktorlarga javoban yuzaga keladigan, ularning o'z hayotlari davomida bir qator avlodlar taraqqiyoti jarayonida avloddan-avlodga o'tib mustahkamlanib boruvchi psixik reaktsiyalardir. Masalan, asalarining gul nektarlarini topishi shartsiz reflekslarga yaqqol misol bo'la oladi. Shartsiz reflekslar tug'ma xarakterga egadir.

Tirik organizmlarda biologik faktorlarning signallariga javoban yuzaga keladigan, har bir organizmning individual hayot sharoitida, uning yashash jarayoni muayyan paytda paydo bo'lib, so'ng yo'g'oladigan reaktsiyalar **shartli reflekslar**, deyiladi.

Masalan, akvariumdagi baliqlarga har safar ovqat berishdan oldin qo'ng'iroq chalib, so'ng ovqat berilsa, bu protsess ko'p marta takrorlansa,

keyinchalik qo'ng'iroq chalinib, ovqat berilmagan holda ham, baliqlar akvarium ichida bezovtalanib, ovqat eyish uchun izlana boshlaydi. Qo'ng'iroq bilan yuzaga kelgan baliqlardagi ovqat eyishga oid reaktsiyasi shartli reflekslardir.

Bunda qo'ng'iroq ovozi shartli ta'sirlovchi vosita hisoblanib, baliqlar hayotida bir necha marta takrorlanishi ularning shartli reflekslarini tug'diradi. Agar qo'ng'iroq chalinib, ovqat bermaslik bir necha marta qaytarilsa, baliqlarda qo'ng'iroqqa nisbatan hosil qilingan psixik reaktsiya yo'g'oladi.

Shartsiz va shartli reflekslar o'zaro bog'liqdir. Ular tirik organizmning tashqi dunyo ta'sirlariga qonuniy javoblaridir. Tirik organizmlar shartsiz va shartli reflekslar hosil qilish yo'li bilan muhitga moslashib boradi. Tirik organizmlarda yuzaga keladigan bunday refleksarning jami ularning o'zlari yashayotgan sharoitning psixik inikosidan boshqa narsa emas.

Tirik organizmlarning tashqi muhit bilan aloqasi va aks ta'sirining qancha keng va xilma-xil bo'lib borishi bilan ularning muhitni yanada yuksakroq psixik inikos ettirish qobiliyati o'shancha chuqurroq taraqqiy etadi va takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida ularda psixik inikosning murakkabroq shakli - **instinktlarni** yuzaga keltiradi.

**Instinktlar** murakkab shartsiz va shartli refleksarning birligidan tashkil topgan bo'lib, ular organizmning tashqi ta'sirlarga javoban ko'rsatadigan psixik reaktsiyalaridir. Instinktlar hashoratlar, qushlar va hayvonlar psixikasining xarakterli tomonlaridir, ular bu hashoratlar, qushlar va hayvonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, asalarilar oltig'irrali uyalar yasaydi; chumolilar «ko'p qavatli» inlar quradi; qushlar doimiy uchib o'tgan yo'llardan uchib o'tadi; kundo'zlar daryolarga «to'g'on» quradi; baliqlar o'zlari tuxumdan chiqqan joylarga tuxum tashlaydi va boshqalar. Bularning hammasi instinktlardir. Bu instinktlar shu tirik organizmlarning muayyan evolyutsiyasi jarayoni to'plangan tug'ma «tajribalari»dir. Ular psixik inikos sifatida mutlaqo o'zgarmas narsalar emas. Instinktlar tirik organizmlar jarayoni protsessida o'zgarib, rivojlanib boradi, ya'ni quyi bosqichdagi instinktlar yuqori bosqichlardagi institnktlar bilan almashib boradi. Bunda tirik organizm evolyutsiyaning qancha yuqori bosqichida tursa, undagi instinktlarning yuzaga chiqishi o'shancha ko'proq individual xususiyatlar kasb etib, shuncha ko'p yangi belgilar namoyon bo'lib boradi. Ayniqsa, yuksak tashkil topgan hayvonlarda instinktlar ko'pincha ularning individual hayoti davrida vujudga kelgan malaka va ko'nikmalar bilan chatishib ketadi. Chunki yuksak tashkil topgan hayvonlarda instinktlar bilan birgalikda, psixik inikosning yuksakroq shakllari bo'lган sezgilarning turli xillari, idroq faoliyatining ancha yuqori elementlari, tasavvurning boshlang'ich shakllari, qisqasi, bilishning birinchi bosqichi hisoblangan «premetli tafakkur» ham yuzaga kelgan bo'ladi.

Yuksak tashkil topgan xayvonlarda psixik inikos, planli harakat qilish qobiliyati nerv sistemasining taraqqiy etishiga muvofiq ravishda rivojlanadi va sut emizuvchi hayvonlarda bu narsa ancha yuqori darajaga etadi.

Ammo yuqori darajada rivojlangan bunday hayvonlarda yuz beradigan psixik inikos shakllari qanchalik darajada yuqori bo'lmasin, ular odamlarda yuz

beradigan ruhiy inikos shakllaridan keskin farq qiladi. Bu farq shundaki, yuqori darajada rivojlangan hayvonlar, birinchi navbatda, o'z yashashlarining asosiy biologik sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lgan predmet va hodisalarni inikos ettiradilar. Ularning bosh miyalarida bu predmet va hodisalarning inikoslari sezgilar, idroklar va tasavvurlar anglangan inikos darajasiga ko'tarilmaydi. Chunki bu predmet va xodisalar hayvonlar miyasida ular biologik sharoitlarining informatsiya signallari sifatida aks etadi, ya'ni hayvonlar psixik inikosida ob'ektiv voqelikdagi predmet-hodisalarning o'zlari informatsiya signallari bo'lib xizmat qiladi. Xayvonlar psixik inikosini yuzaga keltiradigan bunday informatsiya signallarning jamini I.P.Pavlov birinchi signal, sistemasi, deb atagan edi. Birinchi informatsion signal sistemasi asosida yuzaga keluvchi hayvonlar ruhiy inikoslar: sezgi, idrok va tasavvur shakllaridan iborat bo'ladi. Yuksak darajada rivojlangan hayvonlarga xos birinchi informatsion signal sistemasi va shu asosda yuzaga keladigan sezgi, idrok va tasavvur yuqoriroq bosqichda odamlarga ham xosdir. Ular odamlarda ko'proq taraqqiy topgan va kamolga etgan bo'ladi. Shuning uchun odamlarga xos sezgi, idrok va tasavvurlar psixik inikosning o'ziga xos yuqori shakllaridir. Bunga sabab shuki, hayvonlarda psixik inikos biologik faktorlar bilangina cheklanib qolganligi uchun hosil bo'lgan sezgi, idrok va tasavvur obrazlari ular miyasida ong faktiga aylanmaydi. Odamlarning ruhiy inikosi biologik faktorlardan tashqari, ijtimoiy faktorlar bilan ham bog'langanligi uchun, ularda sezgi, idrok va tasavvur obrazlari ong faktiga aylanadi. Bu aylanishni har bir kishi million-million marta kuzatgan va har qadamda haqiqatan kuzatadi.

Odam miyasi va uning ko'proq taraqqiy topgan oliy nerv tizimi yuksak rivojlangan qushlar va hayvonlarning miyasi va oliy nerv sistemasiga nisbatan, sezgi, idrok va tasavvur kabi psixik inikos shakllarining yangi sifat xususiyatlarini keltirib chiqargan. Shunga ko'ra odamlarning sezish va idrok qilish qobiliyati istisnosiz ravishda har qanday yuksak darajada rivojlangan jonivorlarning sezish va idrok qilish qobiliyatidan bir necha marta yuqori turadi. Bu faoliyat hatto hayvonlardan juda kam farqlangan eng ibridoiy odamlarda ham bir qancha ustun bo'lgan. Bu shuning uchunki, odamlarning sezgi organlari inikos ettira oladigan hamma narsani yuksak tashkil topgan hayvonlar sezgi organlari xuddi o'shanday inikos ettirishga qodir emas. Odamga qaraganda it ancha ko'p nozikroq iskash quvvatiga ega, lekin u odam uchun turli narsalarning muayyan belgilaridan iborat bo'lgan hidrlarning yuzdan bir hissasini ham farq qila olmaydi».

Shuni aytish kerakki, odam sezgi organlari hayvon sezgi organlaridan, odam ruhiy inikos shakllari hayvon psixik inikos shakllaridan quyidagi faktorlarga ko'ra farq qiladi:

1. Odam mehnat qiladi, qurol yasaydi, qisqasi, ijtimoiy faoliyat ko'rsatadi.
2. Odam birinchi informatsion signal sistemasidan tashqari, ikkinchi informatsion signal sistemasiga, ya'ni nutq va til orqali bo'ladiqan informatsion sigal sistemasiga ham ega.

Odamning sezgi, idrok va tasavvurlari, uning butun inikos jarayoni ikkinchi signal sistemasi bilan birga yuzaga keladi. Odam miyasingning inikosida ikkinchi

informatsion signal sistemasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ikkinci informatsion signal sistemasini odamning nutqi, uning tili tashkil etadi. Ikkinci informatsion signal sistemasi tufayli odam ob'ektiv olamdag'i predmet va hodisalarni o'z miyasida tafakkur orqali inikos ettiradi. Odam ruhiy inikosining bunday bevosita tafakkur shaklida ham bo'lishi uning hayvonlar ruhiy inikosidan farq qildiruvchi asosiy tomonidir. Bu omillarning qaror topishi bilan ruhiy inikosning oliy shakli odam ruhiy inikosi - ong kelib chiqdi. Shunday qilib, biz ongning kelib chiqishining tabiiy-ilmiy bayoni bilan tanishib chiqdik.

Shuni aytish kerakki, odam miyasida ong, tafakkur qilish faqat tabiiyot taraqqiyoti natijasida, inikosning oliy ruhiy shakli sifatida genetik asosdagina emas, balki, ijtimoiy taraqqiyot natijasida ma'lum sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlar, tarixiy imkoniyatlar va zaruriyatlar asosida paydo bo'ladi. Garchi ongning ilk tarixi biologik inikosning dastlabki shakllaridan boshlangan bo'lsa ham, lekin ong tub ma'noda ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ongning haqiqiy tarixi, uning kelib chiqishi va rivojlanishi jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ongning shakllanishi dastlab odamsimon maymunlarning odamlarga aylanish jarayonida, ularning tabiatdagi tayyor mahsulotlarni o'zlashtirishdan mehnat qilishga o'tib, tabiat predmetlaridan mehnat quollarini yasay boshlashlari bilan, o'zlarining esa borgan sari ijtimoiylasha borib, jamiyat bo'lib uyusha borish jarayoni yuz bergen. U jamiyat bo'lib uyushgan ibtidoiy kishilarning o'zları tayyorlagan mehnat quollarini bilan moddiy boyliklar ishlab chiqara boshlashlari va o'z miyalarida tug'ilgan fikrlarini nutq orqali tilda ifodalay boshlashlari bilan yuzaga kelgan. Shu jihatdan ong o'z tabiatiga ko'ra tabiiy organ bo'lgan odam miyasining mahsuli bo'lsa ham, o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiyidir. Bir tomondan, organik tabiat taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, asosan, ijtimoiy hayotning-jamiyatning kelib chiqishi ongning paydo bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Odamsimon maymunlarning odamlarga aylanish jarayonidagi qat'iy burilish - bu ularning to'rt oyog'lab yurishga tik yurishdan va oldingi oyog'lari qo'l funktsiyasi uchun bo'shatilishdan boshlanadi. Qo'llar esa boshqa funktsiyalar uchun mutaxassislashib, mehnat jarayonida - qurol yasash, yangi-yangi, yana ham murakkab operatsiyalarga moslashib, asta-sekin takomillashib boradi. Natijada, odam qo'lari maymun «qo'llari» ega bo'lman, mohirlik, ustalik kabi turli-tuman malakalarni hosil qila boradi. Odam qo'llari har xil mehnat quollarini yasash va ular yordamida tayoqni yoki toshni yo'nib o'tkir qilish, hayvonlarni ovlash, eyish uchun yaroqli ildizlarni qazib olish kabi murakkab ishlarni bajaradigan bo'ladi. Odam qo'llari endi eng yuqori bosqichdagi odamsimon maymunning taraqqiy qilmagan qo'llaridan butunlay farq qiladigan bo'ladi. Chunki «birorta maymun o'z qo'li bilan hech qachon hatto bironta eng qo'pol tosh pichoq ham yasagan emas».

Mehnat quollarini tayyorlash va ulardan muayyan maqsad uchun foydalanish jarayonda odam qo'llari faqat mehnat organi bo'lib qolmasdan, ayni vaqtida u mehnatning mahsuliga ham aylanadi.

Odam qo'llarining bunday takomillashib borishi, o'z navbatida, organizmning boshqa qismlariga, xususan, miyaga, uning rivojlanishiga kuchli

ta'sir qila boshlaydi. Bunobarin, qo'lga foyda keltirgan jamiki narsa shu qo'l xizmat qilgan butun tanaga ham foyda keltiradi. «Qo'lning taraqqiy qilishi natijasida, mehnat natijasida, tabiat ustidan boshlangan hukmronlik, ilgariga qarab bosilgan har bir yangi qadam sayin odamning bilim darajasini kengaytira bordi. U tabiat buyuumlarida doimiy ravishda yangi, shu vaqtgacha ma'lum bo'limgan xususiyatlarni ocha bordi...»

Demak, mehnat tufayli odamning qo'llari, uning miyasi va butun organizmi o'zgarib, rivojlanib kamol topib boradi. Mehnat qilish, qurollar yasash va ular yordamida muayyan faoliyat ko'rstaib, tabiatga ta'sir o'tkazish odamning hayvonat olamidan insoniyat jamiyatiga o'tishda hal qiluvchi qadami bo'ladi.

Ikkinchisi tomondan, mehnatning o'zi ham tobora takomillashib ijtimoiylashib boradi, u tobora mahsul dorroq, samaraliroq, anglangan, ma'lum maqsadga yo'naltirilganroq bo'la boshladi. Mehnat qurollarining rivojlanishi mehnat taqsimotining dastlabki shakllarining kelib chiqishiga olib keladi. Endi odamlarning ba'zilari faqat mehnat qurollarini yasash va sozlash bilan, ba'zilari ovchilik bilan, ba'zilari dala ishlari, dexqonchilik bilan, ba'zilari esa faqat uy ishlari bilan shug'ullanadigan bo'ldilar. Bu narsa urug' va jamoa a'zolarini bir-biriga yanada mahkamroq bog'lib ularni yanada jipslashishga olib keldi. Kishilar o'rtasidagi bir-biriga yordam qilish, birgalashib ishlash endi tez-tez uchraydigan hodisaga aylanib bu birgalashib ishlash foidasini jamoaning har bir a'zosi borgan sayin ravshanroq anglay bordi. Mehnatning bunday rivojlanib borishi shunday zaruriyat va ehtiyojlarni paydo qiladiki, natijada, odam tanasining ba'zi a'zolari, xususan, bo'Qzi va og'iz bo'shliqlari takomillashib, ma'no jihatdan farq qiluvchi tovushlarni, so'zlarni chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday imkoniyatga ega bo'lgan uyushgan kishilar shu darajaga etadilarki, ularda bir-birlariga nimanidir aytish ehtiyoji tug'iladi. Bu ehtiyoj o'ziga kerakli organni hamda u bilan bog'liq nutq va tilni vujudga keltiradi. Shunday qilib, avvalo, mehnat (quroq yasash va moddiy boyliklar ishlab chiqarish), so'ngra shu mehnat jarayoni paydo bo'lgan nutq va til ongning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'yndaydi.

Mehnat, nutq (til) va ongning o'zaro ta'sir va aks ta'siri odam miyasini yanada taraqqiy ettiradi. «Miyaning yanada taraqqiy qilishi bilan bir qatorda, uning eng yaqin qurollari bo'l mish sezgi a'zolari ham taraqqiy qilib bordi. Miya va sezgi organlarining takomillashib borishi odamning abstraktsiyalash, umumlashtirish va zehn ishlatish qobiliyatining taraqqiy etishiga olib keladi. Odam endi ob'ektiv olamdag'i predmet va hodisalarini idroq etganda, ularni mavhumlashtirib, umumlashtirib ifodalaydigan bo'ladi. Endi predmet va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari, ular o'rtasidagi turli xil munosabatlar odam miyasida **tushuncha, hukm va xulosa** shakllarida, xullas, fikr shaklida in'ikos eta boshlaydi. Natijada, odamda abstrakt tafakkur qaror topadi.

Abstrakt tafakkur ob'ektiv olamdag'i predmet va hodisalarning odam miyasidagi mavhumlashgan va ayni vaqtida konkretlashgan va xulosa shakllarida fikriy in'ikosidir. Abstrakt tafakkur til bilan uzviy bog'langan, u til orqali nutqda so'zlar va gaplarda reallashadi. Til kishining o'zaro aloqa qilish va fikr almashuv

quroli sifatida tafakkurning yuzaga chiqish shaklidir, u «reallashgan ongdir». Dialektik falsafa ong bilan tilning o'zaro bog'liqligini qarab chiqar ekan, til ham ong singari qadimiyligi ekanligini, til boshqa kishilar uchun va faqat shu bilan birga, har bir kishining o'zi uchun ham mavjud bo'lган amaliy, haqiqiy ongdir, deydi, ong singari, til ham faqat ehtiyojdan, boshqa kishilar bilan munosabatda bo'lishdan iborat qat'iy zaruriyatdan kelib chiqqan, deb tushuntiradi.

Til va tafakkur bu yuqoridagi ko'rib o'tgan umumiy xususiyatlaridan tashqari, ularning har biriga, o'ziga xos xususiyatlariga ega. Tafakkur tabiat va jamiyatdagi aloqa va bog'lanishlarni tushuncha, xukm, xulosa chiqarish shakllarida fikrda in'ikos ettirib, kishilarga dunyoni aql yordamida bilish va uni aktiv o'zgartirish quroli bo'lib xizmat qiladi. Til esa kishilar o'rtasida fikr almashish vositasi, ularning o'zaro aloqa qilish quroli, tafakkurning moddiylashgan ko'rinishidir.

Tafakkur va tilning o'zaro bunday munosabatini va ularning o'ziga xos tomonlarini yoritib berish ongning kelib chiqishi va mohiyatini ilmiy tushunishga katta yordam beradi. Shuni aytish kerakki, ong mehnat va til tufayli, ularning ta'sirida paydo bo'lган bo'lsa ham, o'z o'rnida u mehnat va tilga ham aks ta'sir qiladi.

Ongning mehnat va tilga aks ta'siri ularning har ikkalasining yanada rivojlanishi uchun yangi-yangi imkoniyat ochib beradi. Bundagi ilgariga qarab bo'layotgan taraqqiyot odam hayvonot dunyosidan ajralib chiqqandan keyin ham to'xtamaydi, balki, aksincha, yanada taraqqiy qila boradi. Natijada, tayyor odamning paydo bo'lishi bilan birlikda yana yangi elementning, ya'ni jamiyatning vujudga kelishi ro'y beradi.

Ongning bunday aks ta'siri jamiyatning rivojlanib borishi bilan tobora ortib boradi. Natijada, kishilar tobora murakkabroq ishlarni bajaradigan, o'z oldilariga yuksakroq maqsadlarni qo'yadigan bo'la boradilar. Maymunsimon ota bobolarimizning insonga aylanib borishimizda, ayniqsa, go'shtni pishirib iste'mol qila boshlashi muhim qadam bo'ladi. Chunki modda almashuvi uchun organizm muhtoj bo'lган eng muhim moddalar pishgan ovqatda qariyib tayyor holda mavjud edi, pishgan ovqat odamda hazm qilish jarayonini qisqartiradi. Pishgan go'shtlik ovqat ayniqsa miyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Buning orqasida miya o'zining oziqlanishi va rivoj topishi uchun lozim bo'lган moddalarni ilgariga qaraganda, ko'proq ola boshlaydi, bu hol miyaning bo'g'indan-bo'g'inga, avloddan-avlodga o'tib, tezroq va to'laroq takomillashuviga imkon beradi.

Pishgan go'shtlik ovqat iste'mol qilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган ikki yangi narsaga olib keladi: 1-dan olovdan foydalanishga va 2-dan, hayvonlarni qo'lga o'rgatishga sabab bo'ladi. Bu omillar odamning va jamiyatning taraqqiyoti uchun shu qadar katta rol o'ynaydilarki, natijada, odam eyishga yaraydigan hamma narsani iste'mol qiladigan bo'lib, har qanday iqlimda ham yashashga o'rganadi. Bu narsa kishilarga bir xil issiq iqlimdan sovuqroq joylarga ko'chish imkonini beradi, shu bilan birga u kishilarda sovuq va namlikdan saqlanadigan turar joy va kiyim-kechaklarga ehtiyoj tug'iladi. Bu ehtiyojlar esa mehnatning

yangi sohalarini va faoliyatning yangi turlarini vujudga keltiradi. Bular bari odamni hayvonlardan borgan sari ko'proq uzoqlashtiradi.

Jamiyat taraqqiyotining dastlabki paytlarida kishilarning o'z faoliyatlarini va tevarak atrofdagi olamni anglashi holi cheklangan bo'lib, ularning ongi sezgilar, idroqlar va tassavvurlar hamda ular asosida yuzaga keladigan bir qadar sodda, oddiy umumlashgan, abstraklashgan fikrlardan iborat bo'ladi. Bu paytlarda ong hali hissiy idroq etiladigan eng yaqin muhitni, boshqa odamlar bilan bevosita aloqa va munosabatlarni anglashdan iborat bo'ladi, xolos.

Ammo keyinchalik mehnatning yangi sohalarining, ijtimoiy faoliyatning yangi turlarining vujudga kela borishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi ongning yanada taraqiy etib borishiga olib keladi. Ayniqsa, qo'l, so'zlash organlari va miyaning birgalashib ishlashi orqasida, ayrim shaxslargina emas, balki jamiyatda ham odamlar tobora murakkabroq ishlarni bajarish, o'z oldilariga tobora yuqoriroq maqsadlarni qo'yish va ularga erishish qobiliyatini hosil qila bordilar. Mehnatning o'zi bo'g'indan-bo'g'inga ko'proq xilma-xil, ko'proq mukammal, ko'proq har taraflama bo'la bordi. Ovchilik va chorvachilik yoniga dehqonchilik, so'ngra yigirish va to'qish, ma'danlar ishlash, kulolchilik hunari, kemachilik ishi qo'shildi. Savdo va hunarlar bilan bir qatorda, nihoyat, san'at va fan maydonga keldi, qabilalardan millatlar va davlatlar o'sib chiqdi. O'ug'uq va siyosat taraqqiy qildi, ular bilan birga esa odamning miyasida kishilik turmushining hayoliy ilohiy-in'ikosidan iborat bo'lgan din taraqqiy qildi.

Shunday qilib, jamiyatning taraqqiy etib borishi bilan, ong tobora ijtimoiylashib borib, ijtimoiy ongni vujudga keltirdi. Demak, mehnat va til tufayli odam ijtimoiy xarakter kasb etib, jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi bilan uning o'zi jamiyat a'zosi insonga, uning ongi esa ijtimoiy ongga aylanib bordi. Shunga ko'ra odamning o'zini ijtimoiy mavjudot, uning ongini ijtimoiy-tarixiy hodisa deymiz.

### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Ongga ta'rif bering.
2. Ong qaysi xususiyatlariga ko'ra ob'ektiv borliqning sub'ektiv obrazi?
3. Ong qanday tuzilmaga ega?
4. Ongning ijodiy faolligi nimalarda ko'rindi?
5. Onglilik va ongsizlik o'rtasidagi qanday bog'lanishlar bor?
6. Ong va til birligi deganda nimani tushunasiz?
7. Sun'iy ong nima?

### Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995.
3. Falsafadan va'z matnlari. T., TDTU, 1995.

4. Tulenov J. G'ofurov Z. Falsafa. T., 1997.
5. Rahimov I. Falsafa. T., Universitet, 1998.
6. Karimov B. Ong ikkilamchimi?-«Sharq yulduzi», 1991 yil 3-son.
7. Falsafa (E.Yu.Yusupov tahriri ostida)T., Sharq.

## **14-MAVZU: BILISH FALSAFASI**

### **Reja:**

- 1. Inson bilishining tabiatи va mohiyati.**
- 2. Inson bilishining turlari va shakllari.**
- 3. Bilish va haqiqat. Amaliyat – haqiqat mezoni.**
- 4. Ilmiy bilish uslublari va shakllari.**

Insonning o’zini kurshagan dunyoga bo’lgan munosabatlardan biri bilishdir. Inson uz xayoti davomida faqat tashqi dunyoni, ya’ni tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o’zini, o’zining ruhiy-ma’naviy dunyosini ham bilib boradi.

Insonning dunyoni bilishini falsafa ham, boshqa hamma aniq fanlar ham o’rganadi. Bunda aniq fanlar dunyoning turli aniq tomonlarini, ularning qonuniyatlarini va xususiyatlarini o’rganadi va ochib beradi.

Falsafa esa, aniq fanlardan farqli ravishda, inson bilishining tabiatи va moxiyatini nima tashkil qiladi? Uning eng muhim qonuniyatları va xususiyatlari nimalardan iborat? degan savollarga javob qidirib va javob berib keldi. Shu sababli, falsafada inson bilishining falsafiy muammolari bilan shug’ullanmagan birorta ham falsafiy oqim, birorta ham faylasuf yo’q. Aksincha, hamma falsafiy oqimlar va falsafiy yo’nalishlar bu sohaga oid o’z qarashlarining ma’lum tizimini ishlab chiqqanlar. Natijada, falsafada inson bilishining tabiatи va mohiyati haqida turli xil ta’limotlar, turli xil qarashlar va nazariyalar kelib chiqdi. Biz ularning ba’zilari bilan tanishib chiqamiz.

Bir guruh faylasuflar insondan, uning ongidan tashqari dunyo mavjud emas, dunyo faqat bizning ongimizda, bizning sezgi va idroklarimiz yig’indisi (kompleksi va kombinatsiyalari) dan iborat xolos. Binobarin, biz uz sezgi va idroklarimiznigina bila olamiz, deyishadi.

Boshqa bir guruh faylasuflar esa insonning dunyoni va o’zini bilishiga shubha bilan qaraydilar, inson dunyoni to’liq bila olmaydi, deyishib, inson bilishini cheklaydi yoki dunyoni bilishni butunlay inkor qiladilar. Ulardan skeptitsizm<sup>13</sup> ta’limoti vakillari inson bilishining nisbiyligi, uning turli sharoitlar va vaziyatlar bilan bog’liq ekanligini aytishib hamma e’tirof qiluvchi, isbot talab qilmaydigan inson bilimlarining bo’lishi mumkinligiga shubhalanadilar. Falsafiy ta’limotlardan biri bo’lgan agnostitsizm<sup>14</sup> vakillari esa inson dunyoni bila olmaydi bilishga qodir emas, degan goyani ilgari suradi. Masalan, ingliz agnostik faylasufi D.Yum ta’limotiga ko’ra, bilish ob’ekti, bizning bilishlarimizning manbai ob’ektiv

<sup>13</sup> Skeptitsizm - yunoncha: skeptoma - o’zbekcha: shubhalanaman degani

<sup>14</sup> agnostitsizm - yunoncha: «a» va «gnosis» - o’zbekcha: bilishni inkor kilaman.

borliq emas, balki sub'ektiv sezgi va idroklarimizdir, biz o'z sezgi va idroklarimiz chegarasidan tashqarida nima borligini bila olmaymiz, deyiladi.

Nemis faylasufi I. Kant esa insondan va uning ongidan tashkarida ob'ektiv borliqning mavjudligini e'tirof qilgan holda, undagi predmet va hodisalarni «narsalar biz uchun» va «narsalar o'zida» ga bo'ladi. Uning karashicha, «narsalar biz uchun» ni inson bila oladi, «narsalar o'zida»ni esa inson bila olmaydi. Kantning «narsalar biz uchun» bu insonni qurshab to'rgan predmetlar va hodisalar, shu jumladan, tabiat ham. «Narsalar o'zida» esa bular: erkinlik, o'lmaslik, g'ayritabiyy kuchlar, xudo va shu kabilardir. Ularni inson hech qachon to'liq bila olmaydi. Kant o'z bilish nazariyasida e'tiqodga o'rinn qoldirish, uni mustahkamlash uchun aqlni tankid qiladi va cheklaydi. U inson aqlini nazariy va amaliy aqlarga bo'ladi: amaliy aql, uningcha, cheklangan. Uning qarashicha, inson tajriba va amaliyat bilan har qanday bilimga ham ega bo'lavermaydi. Inson bilishida insonning tajribasiga bog'liq bo'limgan aprior (lotincha aprior so'zidan olingan bo'lib o'zbekchaga: tajribadan oldin, azaldan degani) bilimlar bo'ladi. Bu aprior bilimlar tug'ma bilimlardir. Inson aqli bu bilimlarga tajribagacha ega bo'lgan bo'ladi.

Kantning fikricha, falsafiy bilimlar ayni shunday aprior bilimlardan iborat. Kant ilmiy bilimning ishonchliligi va haqiqatliligi uning eng umumiyliligi va zaruriyliги bilan belgilanadi, deydi. Xullas Kant o'z falsafasida bilish nazariyasini birinchi bo'lib falsafiy muammo sifatida atroflicha, har tomonlama karab chiqqan faylasufdir.

Umuman, insonning borliqni bilishi masalasida izchil agnostitsizm, skeptitsizm bilan birikib ketib, **nigilizmga** olib keladi.

Ilm va fan yutuklariga asoslangan faylasuflar esa insonning dunyonи va o'zini bilishni doimo e'tirof etib kelganlar. Qadimgi yunon faylasuflari inson dunyonи va o'zini bilishi, haqiqatga erishishi mumkin, deyishadi. Ular inson bilishining roli ham hikmatli fikrlar aytishgan.

O'rta asr arab faylasuflarining ilg'or vakillari xususan Markaziy Osiyo mutafakkirlari: Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Ulugbek, A. Navoiylar insonning dunyonи va o'zini bilish masalasi haqida to'xtalib, inson tabiat va jamiyatni hamda o'zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib boradi, Inson aqli - faol, u inson bilishining asosiy qurolidir, deyishadi. Ular inson bilishi ma'lum narsalardan noma'lum narsalar tomon rivojlanib boradi deyishadi<sup>15</sup>.

Tasavvuf falsafasi vakillari esa o'z qarashlarida insonning xissiy bilishi tashqi bilishni tashkil qilishni, aqliy bilish esa ichki bilishni tashkil qilishini aytishib, ularning o'zaro bog'liqligini ham uqtirganlar. Shu bilan birga, ular inson dunyonи va o'zini bilishi uchun kamolotga erishmog'i lozim, Lekin bu kamolotga

<sup>15</sup> Masalan, Abu Nasr Forobiy akliy bilishni har tomonlama asoslab, inson tafakkuri bilish qobiliyatining cheksizligini, uning borliqni bilishdagi rolini, akl haqiqat mezonini ekanligini, u ilm - fan, ma'rifat orqali rivojlanib borishini ta'kidlaydi.

erishish quruq intilish bilan emas, balki o'qib o'rganish, bilimlarni va hunarlarni egallash jamiyatda boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda va munosabatda bo'lismay qoladi, deyishadi.

XVII - XVIII asr Evropa faylasuflari ham insonning dunyoni va o'zini bilish haqidagi qimmatli fikrlarni bildirishadi. Masalan, ingliz faylasufi F.Bekon, inson bilishi sezgilardan boshlanadi, bilishning manbai tajribadir, sezgilar orkali olingen dalillarni inson tafakkur yordamida kayta ishlab chiqadi, deydi. U inson bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog'lik ekanligini ularga xizmat qilishi lozimligini aytadi. Frantsuz faylasufi Dekart esa insonning dunyoni va o'zini bilishi masalasi haqida to'xtalib, birdan bir to'g'ri bilish tafakkurdir, deydi. Inson bilishning haqiqatliligi tajriba bilan emas, balki aql bilan aniqlanadi, deb bilishda sezgi a'zolarining faoliyatiga ishonmaydi.

Frantsuz ma'rifatparvarlari: Didro, Golbax, Gelvetsiy, Volter va Lametrilar esa insonning bilish masalasida fikr yuritishib, sezgilar tafakkurning asosi ekanligini, ular inson bilishining quyi boshlang'ich bosqichi, tafakkur esa eng yuqori, murakkab bosqichi ekanligini aytishadi.

Nemis klassik falsafasining buyuk vakili Gegel esa inson bilishini mutloq ruhning inson kiyofasida o'z-o'zini anglashidir, deydi.

Nemis klassik falsafasining so'nggi vakili L.Feyerbax esa insonning dunyoni bilishini e'tirof etib; dunyo insondan va uning ongidan tashkarida mavjud, inson bilishi tabiatning uning sezgilari va tafakkuridagi to'g'ri in'ikosi ekanligini aytadi. Insonda, deydi u, dunni bilish uchun kancha sezgi a'zosi kerak bo'lsa, shuncha sezgi a'zolari bor. Uningcha, sezgilar bilish jarayonining boshlang'ich bosqichi bo'lib, ular insonni tashqi dunyo bilan bog'laydi. Feyerbax fikricha, sezgilar insonni tabiat bilan tanishtiradi, lekin uni (tabiatni!) tushuntirmaydi. Inson bilishining yuqori bosqichi tafakkurdir. Tafakkurning asosiy vazifasi esa sezgilarda yig'ilgan ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish, shular asosida ularning ichki mazmunini ochish va ulardan xulosalar chiqarishdir. Tafakkur tashqi dunyoni bevosita, chuqurrok aks ettiradi.

Bulardan tashqari, XVII- asrlarda, dastlab sharq falsafasida so'ngra Evropada yuzaga kelgan inson bilishining aqliy bilishdan farq qiluvchi bevosita paykash, bevosita bilish shakli - «bilishning uchinchi xili» (spinoza) haqidagi qarashlar paydo bo'ladi. Bu bilish shakli intuitiv<sup>16</sup> bilish, deb ataladi.

Xullas, asrimizning o'rtalarigacha bo'lgan faylasuflar insonning dunyoni va o'zini bilishini turlicha tushunib va tushuntirib keldilar. Ularning deyarli ko'pchiligi «inson bilishi nima?» degan savolga aniq javob bera olmay, inson bilish jarayonini bir tomonlama tushintirdilar. Xususan, metafizik materialistlar bilishni dunyodagi predmet va hodisalarning inson miyasidagi oddiy in'ikosi, deyishib, bilish jarayoniga xos xissiy va aqliy bosqichlarni bir-biridan alohida

<sup>16</sup> Intuitsiya (lot.:intueri- so'zidan olingen bo'lib, o'zb.:bevosita bilish, bevosita payqash, degani ) - mantiqiy muhokama qilmasdan, to'satdan g'ayri aqliy bilishni ifodalovchi tushuncha.

bo'lgan bilish shakllari sifatida qaraydilar. Ular bunda bilishning yuzaga kelishida amaliyotning rolini, bilish jarayonini amalga oshiruvchi bilish sub'ektining faolligini, bilish jarayonining dialektikasini tushunib etmagan edilar.

Bilishning dialektik-materialistik nazariyasiga ko'ra, insonning dunyoni va o'zini bilish imkoniyati va darajasi, avvalo, ijtimoiy sharoitga, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ularning extiyojlariga, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteriga bog'liqdir. Turli ijtimoiy - iqtisodiy davrlardagi kishilarning bilish darajasi fan taraqqiyoti, texnka rivojining darajasi va ko'lami, jamiyat ishlab chiqarish usuli qo'ygan vazifalari bilan belgilanadi. Inson dunyo va o'zini bilishi bilan cheklanmaydi, balki bu bilish natijasida xosil qilgan bilimlari orqali u tabiat va jamiyatni, dastavval, o'zini, o'z ongini, o'z ma'naviy dunyosini o'zgartiradi.

Bilishning falsafiy nazariyasiga ko'ra, inson bilishi moddiy va ma'naviy borliqning uning miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol in'ikosdir. Inson bilishining manbai esa aynan shu moddiy va ma'naviy borliq, ularni tashkil qilgan predmetlar, hodisalar va jarayonlardir. Bu predmetlar, hodisalar va jarayonlar insonga ta'sir qilib, uning miyasida in'kos etadi. Ular moddiy va ma'naviy borliqning inson miyasidagi sub'ektiv obrazlari, ramzlari va belgilaridir. Inson bilishi, avvalo, moddiy va ma'naviy borliqning xususiyatlariga va shu bilan birga, ularni faol in'ikos ettiruvchi inson miya mexanizmining rivojlangan darajasiga bog'liqdir. Inson o'z miyasida faqat tabiiy va ijtimoiy olamni, ularning qonuniyatlariningina aks ettirib qolmasdan, balki o'zining ma'naviy-ruhiy va insoniy borligini ham in'ikos ettiradi.

Inson bilishi, o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'lib, u inson ijtimoiy amaliy faoliyatining bir shakli sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining qonunlarini inson tomonidan o'zlashtirishning real jarayoni tarzida, inson bilishi sub'ekt va ob'ektning o'zaro munosabatida vujudga keladi. Bundagi bilish sub'ektining bilish ob'ekti bilan o'zaro munosabati inson bilishining mohiyatini tashkil qiladi.

Xo'sh, inson bilishining sub'ekti va ob'ekti nima? Ularning o'zaro munosabatlari qanday?

Umumiy ma'noda aytganda, inson-bilishning sub'ekti (sohibi)ni; insonni qurshab turgan borliq esa bilishning ob'ektini tashkil etadi. Lekin biz bilamizki, abstrakt inson ham, abstrakt borliq ham yo'q va bo'lmaydi. Shu sababli bilishning sub'ektini borliqdagi predmet va hodisalar bilan bevosita yoki bavosita muayyan tabiiy va ijtimoiy munosabatlarda buluvchi, jamiyatning konkret bosqichiga xos, ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan aniq bir kishi yoki kishilar guruhi tashkil qiladi. Bilishning ob'ektini esa bilish sub'ektining bilish doirasiga kirgan, uning bilishi qaratilgan, borliqdagi konkret predmetlar, hodisa va jarayonlar tashkil etadi. Bilishning sub'ekti va ob'ekti bilan bir qatorda, bilishning predmeti ham mavjud bo'lib, bu bilish ob'ektning sub'ekt bilan sub'ekt bilishi qaratilgan, sub'ektning bilish faoliyati doirasiga kiradigan tomonlari, xususiyatlari va munosabatlaridir.

Bilishning sub'ekti, ob'ekti va predmeti o'zgarmas, qotib qolgan emas, balki bilish jarayonida ular doimo o'zgarib, eskilari o'rnnini yangilari olib boradi. Shu

bilan birga ayni bir vaqtdagi va ayni bir makondagi sub'ekt va ob'ekt boshqa bir vaqt va boshqa bir makonda sub'ekt va ob'ekt munosabatida bo'lmasligi mumkin. Insonning bilish jarayonida sub'ekt bilishi zarur bo'lgan ob'ektni bilib olgach, bu ob'ekt sub'ektning bilish darajasidan chiqariladi va u bilishning ob'ekti bo'lmay qoladi.

Insonning bir butun bilishi ana shu «sub'ekt-predmet-ob'ekt» munosabatlari asosida yuzaga keluvchi ijtimoiy tarixiy jarayondir. Inson bilishining tabiatini ayni shu «sub'ekt-predmet-ob'ekt» o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish asosida to'g'ri tushunish mumkin. Bunda doimo sub'ektning faolligi muhim rol o'ynaydi.

Bilishda sub'ektning faolligi uning muayyan maqsadga qaratilgan amaliy-ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Inson borliqni faqat bilib olish uchungina o'rganmaydi, balki borliq va uning qonunlarini bilib olish asosida tabiatga va jamiyatga faol ta'sir ko'rsatadi; ularni o'zlashtiradi va o'zgartiradi – shu asosida uning o'zi ham o'zgarib boradi. Bu inson bilishining amaliyot bilan chambarchas bog'likligini kursatadi. Aslida inson bilishi uning amaliy-ijtimoiy faoliyati asosida vujudga keladi. Inson uz amaliy va nazariy-ijtimoiy faoliyati jarayonida borliq va uning qonunlarini bilib boradi.

Amaliyot, insonning tabiatni, jamiyatni va o'zini bilishi, ularni o'zlashtirishi sohasidagi faol faoliyati sifatida bilishning boshlang'ich nu o'tasi va asosi bo'lib xizmat qiladi. Inson o'z hayotining birinchi qadamlaridanoq boshlab o'ziga tirikchilik vositalari: oziq-ovqat, turar-joy topish uchun mehnat qilishga majbur bo'lgan. U o'zining bu mehnati jarayonida tabiat kuchlariga duch kelib, ularni asta-sekin o'rganib, bilib borgan. Inson o'z xayotini saqlab qolish uchun ishlab chiqarishni tashkil qilib, uni yanada rivojlantirishga harakat qila borgan. Bu undan juda ko'p narsalarni bilishni talab qiladi. U mehnat qurollarini yaratish, ular bilan tabiatga ta'sir qilish, er maydonlarini o'lchash turar-joylar qurish, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni hisoblash va shular kabi ishlarni amalga oshira boradi. Bu ishlar insonning o'ziga uning bilishiga ham aks ta'sir ko'rsatib, insonning bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy amaliyot inson bilishi oldiga turli vazifalarini qo'yib ularni hal qilishda insonga yordam beradi. Bunday ijtimoiy amaliyot inson bilishining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy amaliyot insonning tabiat va jamiyat hodisalarining hamda o'zini bilish uchun turli xil asbob-uskunalar, har xil kurilmalar, mexanizmlar, kompyuterlar bilan qurollantirib, uning borliqni bilishini yanada chuqurlashtiradi.

Ijtimoiy amaliyot inson bilishining maqsadi hamdir. Chunki inson o'z bilishi natijalaridan, hosil qilgan bilimlarida doimo o'z amaliy ijtimoiy faoliyatlarida o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanadi. Shu asosda ular o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amalga oshiradilar.

Demak, ijtimoiy amaliyot inson bilishning asosi, manbai, harakatlantiruvchi kuchi va maqsadi hamdir. Inson bilishning darajasi doimo jamiyat ishlab chiqarishi amaliyotining darajasi va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Jamiyat ishlab chiqarish amaliyotining bu ehtiyojlari doimo inson bilishining yanada rivojlanishida, uning taraqqiy etishiga olib keladi. Chunki bu ehtiyojlarga javob

berish natijasida yangi-yangi bilimlar paydo bo'ladi, bu bilimlarni ma'lum guruhlarga ajratib, ularni sistemalashtirib borish tufayli har turli fanlar vujudga keladi.

Insoniyat ega bo'lgan hamma bilimlar kishilarning ijtimoiy amaliyotlari tufayli yuzaga kelgan, ular bilishlarining mahsulidir.

Endi inson bilishining turlari bilan tanishib chiqaylik.

Inson bilishini shartli ravishda bir necha turlarga bo'lib o'rganish mumkin. Dastlab inson bilishini borliq qanday holda in'ikos etganligiga qarab, oddiy va ilmiy bilishlarga ajratish mumkin.

Oddiy bilish kishilarning odatdagi o'z kundalik hayotlarida borliqdagi predmet va hodisalarini bevosita o'z sezgi organlari va oddiy tafakkur kilishlari orqali bilishdir. U kishilarning kundalik xayotiy tajribalari, malakalari va amaliy ishlari orqali hosil bo'lib, odatda «sog'lom fikrlar»da o'z ifodasini topgan bo'ladi. Oddiy bilish hamma kishilarga xos bilishdir.

Ilmiy bilish esa, oddiy bilishdan farqlanib, u borliqdagi predmet va hodisalarining qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishdir. Ilmiy bilish, odatda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish asosida amalga oshadi. Shu sababli ilmiy bilish uzoq davom etadigan, muayyan usullar va yo'llar bilan amalga oshiriladigan murakkab ziddiyatli bilishdir. Shu tufayli ilmiy bilish bilan hamma kishilar emas, balki bir guruh yoki alohida kishilar: tadqiqotchilar, olimlargina shug'ullanadilar (quyida bu haqda alohida to'xtalamiz).

Bulardan tashqari, inson bilishida bilishning qanday paydo bo'lishi jihatidan xissiy bilish, mantiqiy bilish, intuitiv bilish, Qoyibona bilish kabi ko'rinishlari ham farq qilinadi.

Xissiy bilish, deyilganda, odatda, insonning xis qilishi sezgi a'zolari orqali predmet va hodisalarini, ularning tashqi tomonlarini, tashqi belgi va xususiyatlarini bevosita idrok qilish tushuniladi. Insonning bu bilishi, deyarli hayvonlarga ham xos bo'lgan bilish bilan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan bilishdir (lekin ular tub farqlarga ham ega).

Mantiqiy bilish esa insonning predmet va hodisalarini tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, ularni fikrda bilishidir (kuyida ular haqida alohida to'xtalamiz).

Intuitiv bilish esa, odatda kishi biror narsa yoki hodisa haqida muayyan tasavvurlar va bilimlarga ega bo'lgan, uning fikri ma'lum muammo yoki masalani echishga yunaltirilgan, shu asosda o'z fikrini rivojlantirayotgan bir paytda ro'y beradi. Intuitiv bilish ham inson bilish jarayonining muhim jihatini tashkil qiladi va uning borliqni bilishida muhim rol o'ynaydi. Intuitiv bilish, xissiy va mantiqiy bilishlardan farq qilib, u o'z tabiatiga ko'ra, hech bir bevosita xissiy idroksiz va mantiqiy muhokamasiz biron bir yangi tasavvur yoki yangi fikrning birdaniga, kutilmaganda tug'ilishidir.

Fanda uzoq davr intuitiv bilishning mexanizmi ma'lum bo'lmay keladi. Shu sababli intuitiv bilish haqida har xil karashlar, har xil yondashishlar, turli tuman

ta'limotlar paydo bo'ldi. Ba'zilar uni ilohiyashtirib, intuitiv bilish faqat buyuk va mumtoz kishilargagina xos, degan fikrlarni bildirishdilar.

Ba'zilar esa, intuitiv bilishni odatda faqat ijodiy jarayonga, ya'ni ilmiy kashfiyotlar, ilmiy ixtirolarga va badiiy ijod jarayoniga xos, degan qarashlarni ilgari surishdilar. Ularning nuqtai nazaricha, intuitiv bilish, bu ijodiy jarayonda fikrning rivojlanishida eski fikrdan yangi fikrga o'tish, ya'ni sakrashdan iboratdir. Boshqa bir guruh tadqiqotchilarining fikricha, intuitiv bilish - bu badiiy ijod bilan bog'liq, yangi g'oyaning tugilishidir, degan fikrlarni bildirishadi. Haqiqatdan ham, intuitiv bilish insonning ijodiy faoliyati bilan bog'lik bo'lib, bunda tadqiqotchi yoki ijodkorning butun fikri-zikri biron narsa bilan qattiq band bo'lган paytda, uning miyasiga hech kutilmaganda biror yangi fikr, yangi g'oya bilan to'satdan kelib qolishi mumkin.

Keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlar intuitiv bilishning paydo bo'lishi inson miyasining ongsiz yoki ong osti faoliyati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Intuitiv bilishning o'rgangan tadqiqotchilar intuitiv bilish fakti haqiqatdan ham inson bilish jarayoniga xos ekanligini qayd qilishib, uni xissiy va mantiqiy bilishlar bilan bog'liqligi, shu sababli intuitiv bilishning bevosita sezish, bevosita xis qilish, bevosita idrok qilish, bevosita yangi fikrga birdaniga kelish kabi shakllari mavjudligini aytishmoqda. Ammo intuitiv bilish kishining oldingi tajriba, ko'nikma, malaka va erishgan bilimlariga asoslangan holda yuzaga kelishini, busiz intuitiv bilishning bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlashmoqda.

Intuitiv bilish, aslida inson bilish jarayonining bir jihatni sifatida faqat ijodiy jarayonga xos bo'lmasdan, balki u insonning oddiy kundalik amaliy bilish faoliyatiga ham xosdir. Buni biz bolalar uchun aytildigan topishmoqlarga berilgan javoblarda, oddiy kundalik muammo va masalalarni hal qilishda, shaxmat o'yinida, krossvord va shu kabilarni echish misollarida yaqqol ko'ramiz. Intuitiv bilish inson bilishining hamma boshqa shakllari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bilish jarayonida ularni to'ldiradi.

Inson bilishini turlarga bo'lismiha intuitiv bilishdan farqli ravishda qadimdan goyibona bilish haqida ham turli fikrlar mavjud... o'oyibona bilish inson bilishining shunday turki, bunda kishi uzoq masofadan turib sodir bo'lgan yoki sodir bo'ladigan hodisa va voqeani bilishi, xis qilishi, bu hodisa va voqeanning qanday sodir bo'lishi unga ayon bo'ladi. Kishilar biron ishni qilmoqchi bo'lsa, bu ishning natijasi haqida oldindan: «shunday bo'lishi kerak, bunga men kat'iy ishonaman», «oyog'im tortmovdi», «negadir ko'nglim Qash» degan fikr va mulohazalarni aytishadi.

Lekin shuni aytish kerakki, Qoyibona bilishning hozircha mexanizmi fanga ma'lum emas. Shu sababli ko'pincha Qoyibona bilishni kishilar ilohiyashtirib, bunday bilish faqat aziz-avliyolarga, alohida G'ayri-tabiiy kishilarga xos deb qaralib kelinmoqda.

Inson bilishining yana uning ijtimoiy hodisalar bilan bog'likligiga ko'ra, uni mifologik bilish, diniy bilish, falsafiy bilish, badiiy-estetik bilishlarga ajratish ham mumkin. Bilishning bu turlari inson bilish sohalarining turli tomonlarini tashkil

qiladi. Shulardan inson bilishining bir turi bo'lgan falsafiy bilish esa falsafaning muhim bir bo'limini tashkil qilib, bilishning umumiyligi tabiatini va mohiyatini, bilishning sub'ektiv va ob'ektiv munosabatini, bilishdan amaliyotning roli kabi masalalar bilan bir qatorda, bilish jarayonining dialektik xarakteri, bilishda haqiqat muammosi kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Moddiy va ma'naviy borliq o'z tabiatiga ko'ra dialektik bo'lganligidan, ularning in'ikosidan iborat insonning bilishini ham dialektik jarayon deb tushunib, uning mohiyatini ham o'rganish lozim.

Inson bilishi dialektik xarakterga egadir. Ya'ni inson bilishi bilmaslikdan bilishga tomon, aniq bo'limgan bilishlardan aniqroq bilishlarga, to'liq bulmagan, qisman bilishlardan to'liqroq bilishlarga tomon, oddiy bilishlardan murakkab ilmiy bilishlarga tomon boradi. Inson bilish jarayoni hissiy bilishdan aqliy bilishga, jonli mushohadalardan abstrakt tafakkurga tomon va aksincha borishdan iborat dialektik jarayondir. Borliqning inson miyasida in'ikos etishi odatdagagi predmetning oynadagi yoki buyumning rasmdagi aks etishi kabi «o'lik», «harakatsiz», «mavxum» ziddiyatlarsiz holda bulmay, balki «jonli», «konkret», harakat, o'zgarish va rivojlanishda, ziddiyatlarning kelib chiqishi, ularning hal bo'lishi, bir quyi bosqichning o'rnnini, unga nisbatan yuqoriq yangi bosqichning olib borishidan iboratdir. Xullas, insonning borliqni bilish hissiy bilishdan aqliy bilishga tomon, va aksincha, intuitiv bilishdan mantiqiy bilish tomon dialektik yo'l bilan sodir bo'ladi. Bundagi hissiy bilish va aqliy bilish bir butun inson bilishining bir-birlari bilan chambarchas bog'liq ikki: «quyi» va «yuqori» bosqichlaridir.

O'issiy bilish - inson bilishining dastlabki birinchi bosqichi bo'lib bilish jarayoni ayni shu hissiy bilishdan boshlanadi. Natijada, miyada predmet va hodisalarining tashqi tomonlari, tashqi belgilari aks etib ularni miyada signallari va hissiy obrazlari hosil bo'ladi.

Aqliy bilish esa bilishning yuqori bosqichi bo'lib, unda inson bilishi xissiy bilish orqali hosil bo'lgan faktlar va ma'lumotlarni tafakkurda qayta ishlash natijasida, borliqdagi predmet va hodisalarining fikriy belgilari, simvollari va obrazlari yaratiladi. Xullas, hissiy bilish va aqliy bilish bilish jarayonining bir-biriga bog'liq ikki bosqichi bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi, ular bir-biridan ajralmas. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos muayyan shakllarda yuzaga keladi.

Inson bilishining xissiy bilish bosqichi: his qilish, sezgi, idrok va tasavvur kabi shakllarda sodir bo'ladi. O'is kilish - inson bilishining shunday shakli, unda kishi o'z o'ziga, atrofdagi narsa hodisalarga, kishi yoki kishilarga bo'lgan munosabatida o'zining muayyan holatga kirishi, muayyan holda bo'lishidir. Sezgi esa hissiy bilishning dastlabki shakllaridan bo'lib, u insonning borliqni bilishining ma'lum shaklidir. Sezgilar insonning sezgi a'zolariga borliqdagi predmet va hodisalarining bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida yuzaga keladigan xissiy obrazlardir. Sezgilarni hosil qiluvchi bunday sezgi a'zolari insonda tashqi va ichki holatlarda joylashgan bo'lib ular: ko'rish, ta'm bilish, hid bilish, teri sezgisi va eshitish sezgi a'zolaridir, qolganlari ichki sezgi a'zolari hisoblanadi. Bu sezgi a'zolari insonning borliqni bilishida o'ziga xos bir vosita bo'lib, ular orqali

predmet va hodisalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar inson miyasiga qabul qilinadi. Inson bu sezgi a'zolari orqali borliqdagi predmet va hodisalarni tashqi belgi va xususiyatlarini bilib oladi. Borliqdagi turli predmet va hodisalarning belgi va xususiyatlari esa inson sezgi a'zolariga ta'sir etib, turli xil sezgilar hosil qiladi.

Sezgilar o'z ifodalinish shakliga ko'ra yakka-yakka, alohida, aniq, sub'ektiv bo'lsalar ham, ammo o'zлari ifodalagan mazmunga ko'ra ob'ektivdir. Biroq his qilish va sezgilar insonning borliqni bilishi uchun hali etarli emas. Buning uchun inson o'zining hissiy bilishida his qilish va sezgilar shakllarida hosil qilgan ma'lumotlarni to'plab, umumlashtirib ularni, bir butun holda in'ikos ettirishi ham lozim bo'ladi. O'issiy bilishning bunday yangi shakli idroklar.

Idrok his qilish va sezgidan farqli o'laroq, borliqdagi predmet va hodisalarni yaxlit holda, bir butun ko'rinishda ularning hamma asosiy tashqi belgi va xususiyatlarini umumlashtirgan holda in'ikos ettiruvchi xissiy bilishning nisbatan yuqoriq shaklidir. Idrok predmet va hodisalarning bir butun yaxlit xissiy obrazidir. U o'zida his qilish va sezgilar shakllaridagi obrazlarni jamlab ifodalovchi xususiyatga ega. Biroq insonning hissiy bilishi idroklar bilan ham cheklanib qolmaydi. Xissiy bilishda xis qilish, sezgilar va idroklar shakllarida yuzaga kelgan xissiy ma'lumotlar inson miyasida qayta ishlanib, xissiy bilishning yangi, yuksakroq shaklini hosil qiladi. Bu tasavvurdir.

Tasavvur - ilgari idrok etilgan, ammo ayni vaqtida bevosita idrok etilmayotgan predmet va hodisalarning inson miyasidagi qayta ishlanib, tiklangan xissiy obrazdir. Tasavvurning o'ziga xos xususiyati shundaki, u borliqdagi predmet va hodisalar bilan ayni vaqtida bevosita bog'lanishda bo'limgan holda, ularning ilgarigi paydo bo'lган obrazlari asosida qayta tiklanishidir. Ammo inson o'z tasavvurida, shu bilan birga oldin idrok etilgan predmet yoki hodisaga, ularga o'xshash yangi predmet va hodisalarning xissiy obrazlarini ham hosil qilishi mumkin. Masalan, hozir biz mustaqil O'zbekistonning mavjud imkoniyatlari, shart-sharoitlaridan kelib chiqib, uning kelajakda rivojlangan mamlakatlar safidan o'rin olishi, ya'ni buyuk davlat bo'lishini tasavvur qilmoqimiz mumkin.

O'issiy bilishning tasavvur shaklida predmet va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo'limgan xususiyatlari tashlab yuborilib faqat ayrim muhim xususiyatlarigina in'ikos etgan bo'ladi. Shu tufayli tasavvur predmet va hodisalarni umumlashtirgan, mavhumlashtirgan darajada aniq xissiy shaklida in'ikos ettiradi. Bu jihatdan tasavvurda, hech shubhasiz tafakkurning ba'zi elementlari paydo bo'ladi. Lekin u hali hissiy bilish chegarasidan chiqib ketmagan bo'ladi. Bunga sabab: tasavvurning individual xarakterga egaligi, uning predmet va hodisalar tashqi tomonlari, tashqi aloqadorlik va bog'lanishlarining o'zida ifodalab ularning ichki tomonlarini, ulardagи o'zgarish, rivojlanish qonunlarini in'ikos ettira olmasligidir.

Umuman olganda, insonning hissiy bilish shakllari ma'lum darajada cheklangan, bir tomonlama, to'liq bo'limgan bilishdir.

Inson borliqdagi predmet va hodisalarning ichki tomonlarini, ularning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini, bir so'z bilan aytganda ularning mohiyatini faqat aqliy bilish orqaligina bila oladi.

Aqliy bilish - predmet va hodisalarning mohiyatini bilishdir. Insonning borliqni aqliy bilishi - bu uning tafakkuri orqali borliqdagi predmet va hodisalarning fikr shakllarida bilishdir. Aqliy bilish borliqdagi predmet va hodisalarning inson miyasidagi umumlashgan, mavhumlashgan va konkretlashgan fikriy ifodalanishidir.

Aqliy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarning izchil bog'lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o'zgarish va rivojlanish qonunlarini ma'lum bir fikr shakllari: tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabilarda ifodalanadi. Bunda hissiy bilish obrazlari tafakkur esa o'zida hissiy bilish bergen ma'lumotlarini qayta ishlab, ularni umumlashtirib, mavhumlashtirib, ayni bir vaqtda, aniqlashtirib, analiz va sintez qilib, aniqlikdan mavhumlikka va yana undan aniqlikka keltirib, ma'lum hukm, tushunchalari va xulosalarini hosil qiladi. Tafakkur hosil qilgan aqliy bilishning bu fikriy shakllari tilda so'zlar va gaplarda ifodalanadi.

Aqliy bilishning dastlabki shakli hukmlardir.

O'ukm - aqliy bilishning shunday fikriy shakli, unda borliqdagi muayyan predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifodalanadi. Inson o'z tafakkurida bir yoki bir necha hukmlarni mantiqiy o'zaro bog'lab, turli usullar asosida ularning eng muhim xususiyatlarini ajratib olib, biror tushuncha hosil qiladi.

Aqliy bilishning navbatdagi shakli tushunchadir. Tushuncha predmet va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va ayni choqda aniqlashtirilgan fikriy obrazidir. Masalan, «inson», tushunchasini olaylik. Bu tushuncha hamma kishilik jamiyatiga xos bo'lgan, mehnat qiluvchi, mehnat qurollari va mehnat vositalarini yaratuvchi hamda ular asosida moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiquvchi: ong, tafakkur, til va nutq kabi muhim va zarur belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudot insonning fikri shaklidir.

Xulosa chiqarish esa aqliy bilishning shunday shakli, unda bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm- yangi fikr xosil bo'ladi.

Xulosa chiqarish inson aqliy bilish bosqichining yukori shaklidir. Odatda xulosa chiqarishning bir necha turlari mavjud bo'lib, ularni «mantiq» fani o'rghanadi.

Shunday qilib, insonning bilish jarayoni hissiy bilish shakllari: xis etish, sezgi, idrok va tasavvurlardan boshlanib, akliy bilish shakllari: hukm, tushuncha va xulosa chiqarish shakllarida tafakkurda qayta ishlanib, bilishning «quyi» boskichidan «yukori» boskichi tomon ko'tarilib boradi.

Insonning borliqni bilishidan asosiy maqsadlaridan biri bu haqiqatni bilishdir. Xo'sh, haqiqat nima? Haqiqat to'g'risidagi falsafiy ta'limot nimadan iborat?

Haqiqat masalasini ilmiy asosda hal kilishning yagona yo'li - bu inson bilimlari bilan ob'ektiv borliqdagi real predmet va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda yoritib berishdir.

Haqiqat – bu inson bilimlarida borliqning to'g'ri in'ikos etishi, predmet va hodisalar asli qanday bo'lsa, ularni inson o'z miyasida xuddi shunday in'ikos ettirgan bilimlardir. Haqiqat - bu borliqdagi predmet va hodisalar yoki ularning belgi va xususiyatlarini o'zi emas, balki ular haqidagi inson bilimlarining o'sha predmet va hodisalarning asliga ularning belgi va xususiyatlariga mos kelishidir.

Inson o'z bilish jarayonida kashf etgan tabiat va jamiyat qonunlari haqiqatlardir. Ular o'zлari ifodalagan mazmunlariga ko'ra, bir jihatdan insonga, uning ongiga bog'lik bo'lmasa ham, boshqa jihatdan, ya'ni inson fikrida ifodalanish shakliga ko'ra sub'ektivdir; inson ularni o'z ongida aks ettiradi. Haqiqatdan ham, bizning sezgilarimiz, idrok va tasavvurlarimiz, tafakkurimiz va bir butun ongimiz ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalarni to'g'ri in'ikos ettiradi, ular o'z mazmunlari jihatidan shu predmet va hodisalarga mos keladi.

Lekin haqiqatni bilish – murakkab jarayondir. Bizning borliq haqidagi bilimlarimiz birdaniga, tayyor holda yuzaga kelmaydi. Biz borliqdagi predmet va hodisalarning avval tashqi tomonlarini, sungra esa ichki tomonlarini bilib boramiz. Bunda bizning bilimlarimiz nisbiy haqiqatlardan mutloq haqiqatlarga tomon boradi.

Nisbiy haqiqat – bu bizning borliqdagi predmet va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lмаган bilish jarayonida tuzatilib, to'ldirilib borilishi lozim bo'lган bilimlarimizdir.

Mutloq haqiqat esa – bu borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi har tomonlama to'liq, aniq, mukammal, kelgusida tuzatilmaydigan, to'ldirilmaydigan bilimlardir. Bunday bilimlar inson tafakkurining ob'ektga cheksiz yaqinlashib borishi asosida, cheksiz nisbiy haqiqatlarning jami sifatida qaror topadi. Bu jihatdan nisbiy va mutloq haqiqatlar o'zaro chambarchas bog'liqdir, ular bir-birlaridan ajralmasdir, har qanday mutloq haqiqat nisbiy haqiqatlarning cheksiz birligidan yuzaga keladi. Har bir nisbiy haqiqatda mutloq haqiqatning donasi, zarrasi, ulushi mavjud bo'ladi. Shu asosda inson bilishi nisbiy haqiqatlardan mutloq haqiqatga tomon boradi. Inson bilishi hech qachon mutloq haqiqatga to'liq ega bulmaydi, balki unga cheksiz yaqinlashib boradi.

Ilm-fan taraqqiyotida har bir yangi bosqich nisbiy haqiqatlar sifatida mutloq haqiqatning mazmuniga yangi-yangi zarralar qo'shib boradi. Borlik bepoyon va cheksiz bo'lgani kabi insonning uni bilishi ham cheksiz davom etadi. Nisbiy haqiqatlarning mutloq haqiqatga cheksiz yaqinlashib boruvchi chegaralari tarixan shakliy bo'lsa ham, lekin bu mutloq haqiqatning mavjudligi shubhasizdir.

Inson bilimlarining rivojlanish yo'li hamma vaqt silliq va oson kechavermaydi. Bilishda haqiqat sari qo'yilgan har bir qadam fikrlar va qarashlarning keskin kurashlari jarayonida ro'y berib, bunda avvalgi erishilgan bilimlar va qarashlar har doim cheklangan topilib, ularning o'rmini to'laroq mukammalroq bilimlar va qarashlar olib boradi.

Shu bilan birga, haqiqat mavhum emas, balki u aniq bilimlardir. Chunki o'zgarmas, qotib qolgan bilimlar yo'q, inson bilimlari doimo o'zgarib boradi. Ayni bir vaqtida, ayni bir nisbatda haqiqat bo'lган bilim boshqa bir vaqtida va boshqa bir nisbatda haqiqat bo'lmasligi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, bilimlarimizning haqiqatligi ular ifodalagan mazmunning o'zgarishi bilan o'zgarib borishidadir. Har bir bilimning haqiqatligi doimo ma'lum joyga, o'ringa, vaqt va vaziyatga, kishi bilimining imkoniyatiga va bilim darajasiga bog'lik bo'ladi. Shuning uchun har qanday bilimning haqiqatligini aniqlashda uni ma'lum makon va vaqt bilan bog'liq holda olib, unga ma'lum aloqadorlik va bog'lanishlardan kelib chiqib munosabatda bo'lish lozim.

Haqiqatning aniqligidan kelib chiqib, shuni aytish kerakki, hamma zamonlar, hamma makonlar, hamma davrlar sharoitda ham to'g'ri bo'ladigan, o'zgarmaydigan haqiqatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Shuning uchun haqiqatning aniqligini hisobga olish inson faoliyatining hamma sohalarida juda katta ahamiyatga ega. Umuman, bilish nazariyasining nisbiy haqiqat va mutlaq haqiqatlar dialektikasini to'g'ri bilish, haqiqatning aniqligini to'g'ri hisobga olish kishilarning amaliy faoliyatlarida juda muhim o'rinn tutadi. Aksincha, ularni to'g'ri hisobga olmaslik bilish nazariyasi sohasida ikkita yanglish xatoga, ya'ni dogmatizm va relyativizmga olib keladi.

Dogmatizm insonning borliqni bilishida bilimlarning mutloq tomonlarini bo'rttirib, ularning nisbiy tomonlarini inkor etishdir. U faqat mutlaq haqiqatni e'tirof etib, bilimlarga o'zgarmas, qotib qolgan bilimlar sifatida qaraydi. Shu bilan birga, dogmatizm inson bilishiga oid u yoki bu qoidani aniq sharoit, joy va vaqt bilan bog'lanmagan holda olib, uni hamma vaqt har qanday sharoitda qo'llash natijasida kelib chiqadi. Dogmatizm inson bilish faoliyatining hamma sohalarida ham namoyon bo'lishi mumkin. U insonning borliqni bilishga, uni amaliy va nazariy o'zlashtirish va o'zgartirishiga to'sqinlik qiladi.

Relyativizm esa, dogmatizmdan farqli o'laroq, inson bilishida hosil bo'lган bilimlarning nisbiy tomonlarini mutloqlashtirib, inson bilimlari faqat nisbiy haqiqatlardan iborat, deb, mutlaq haqiqatni butunlay inkor qilish tufayli kelib chiqadi. Bu oqim vakillarining fikricha, inson borliq va uning qonunlarini faqat qisman bilar emish, nisbiylik inson bilimlarining hammasiga xos emish. Bu bilan ular inson bilimlarining hammasini nisbiy, deb e'lon kilib, mutlaq haqiqatning borligini, uning inson bilishiga xosligini butunlay rad qiladi. Relyativizm shu sababli bilishda muqarrar ravishda yo agnostitsizmga, yoki sub'ektivizmga olib boradi. Shuni ham aytish zarurki, relyativizm umuman olganda, bir butun inson bilish jarayoniga xosdir, chunki bizning bilishimiz nisbiy haqiqat bo'lган bilimlardan mutlaq haqiqatga tomon rivojlanib boradi. Bunda relyativizm bor, lekin bilimlarimiz faqat nisbiy haqiqatlardan iborat, deb, relyativizmni bilish nazariyasiga asos qilib olish agnostitsizmga va skeptitsizmga olib keladi.

Bilishning dialektik-materialistik nazariyasi dogmatizm va relyativizmga qarshi ko'rashib, inson bilimlari ham nisbiy, ham mutlaq haqiqatlarning birligidan iboratligini qayd qiladi.

Inson qadimdan boshlab o'z bilimlarining haqiqatligini, uning xatodan farqini ajratuvchi mezonni topishga harakat qilib kelgan. Shu sababli falsafada bilimlarning haqiqatligi mezoni muammosi va uni hal qilishga doir turlicha qarashlar paydo bo'lgan. Bunday qarashlarning dastlabkisi bu haqiqatning formal mantiq mezonidir. Bu mezonga ko'ra, bilim haqiqat bo'lishi uchun bu bilimni ifodalovchi fikr ikkinchi biror fikrga muvofiq kelishi yoki bu bilim boshqa bilimdan zaruran kelib chiqishi lozimdir. Lekin bunga idealistlar va materialistlar turlicha yondashganlar. Masalan, ob'ektiv idealistlar haqiqatning mezoni, deb mutloq g'oyaning o'z-o'ziga mos kelishini tushunadilar. Sub'ektiv idealistlar esa, haqiqatning mezoni sub'ektning o'zi yoki uning tafakkuridir, sub'ekt nimani haqiqat, deb bilishi uning o'ziga, hohishiga bog'liq, deyishadi. Ba'zi sub'ektiv idealistlar esa bilimlarning haqiqatlik mezonini sub'ekt tasavvurlari va tushunchalarining aniq va ravshan bo'lishidan, ularning umumahamiyatligidan yoki sub'ektiv tajribalardan axtaradilar. Materialistlar bo'lsa, bilimlarning haqiqatlik mezoni deb amaliy faoliyatni oladilar. Ular bilish nazariyasida amaliyot inson bilimlarining to'g'ri yoki xatoligini aniqlovchi mezondir.

XX asr nepozitivizm oqimi vakillari o'z bilish nazariyalarida haqiqatning mezoni deb kogerentsiya printsipini oladilar. Bu printsipga ko'ra ular haqiqatning mezoni deb bilimning o'z-o'ziga mos kelishini tushunadilar. Nepozitivizmning boshqa bir guruhi vakillari esa bilimlarning haqiqatlik mezoni sifatida verifikatsiya printsipini ilgari suradilar. Bu printsipga ko'ra, bilimlarni xissiy tajriba, kuzatish, eksperiment yo'llari bilan tekshirish mumkin. Birok bizga ma'lumki, fanlarda paydo bo'lgan ba'zi g'oyalar va qarashlarning haqiqatligini bunday xissiy tajribalar asosida tekshirib bo'lmaydi. Shu sababli ingliz faylasufi K.Popper verifikatsiya printsipi bilan tekshirishni «nazariyani tasdiqlovchi dalillarga qarama qarshi, ularni rad qiluvchi, faktlarni qidirib topish bilan takomillashtirish» g'oyasini ilgari so'radi. K.Popperning bu g'oyasi fanlardagi nazariy tizimlarning tatbiq etilish chegaralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq u inson bilimlarining haqiqatligini isbotlovchi mezon bo'la olmaydi.

Pragmatizm oqimi vakillari esa, har qanday ishning, amalning va bilimning haqiqatlik mezoni uning insonga keltiradigan foydasi bo'lishi kerak, deyishadi. Haqiqatda esa foydali bo'lish, foyda keltirish - bular inson bilimlarining haqiqatlik mezoni emas.

Ekzistentsializm falsafasi vakillari bo'lsa, inson bilimlarining haqiqatlik mezoni - bu har bir kishining o'z ehtiyoji, maqsad va manfaatlaridir, deyishadi. Ularning qarashicha hech qachon ikki kishining ehtiyoji, intilishlari bir-biriga to'la mos kelmaydi. Shu sababli haqiqatning barchaga baravar bo'lgan mezoni bo'lishi mumkin emas.

Inson bilimlarining haqiqatligi yoki xatoligi odatda uning bu bilimlardan o'z amaliy faoliyatida foydalanishida ma'lum bo'ladi. Haqiqat bo'lgan bilimlar uni o'z ko'zlagan maqsadiga to'g'ri olib boradi, xato bilimlar esa uning faoliyatini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuning uchun bilishning dialektik-materialistik nazariyasi inson bilishning haqiqatlik mezoni deb amaliyotni oladi. Chunki

insonning har qanday sohaga oid yangi bilimining haqiqat ekanligini aniqlamoq uchun, albatta, uni amaliyotda tekshirib ko'rildi. Amaliyot inson bilish jarayonida hosil bo'lgan har bir bilimning haqiqatligini tasdiqlash bilan birga, qosil qilgan bu bilimning cheklanganligini, bir tomonlamaligini hatto xato yoki G'ayri ilmiyligini ham aniqlab beradi. Lekin shuni ham aytish kerakki, amaliyot ham inson bilimlarining haqiqatlik mezoni sifatida mutlaq emas. Sababi: inson bilimlarining haqiqatligi yoki xatoligi amaliyotda tasdiqlanishi aslo to'liq bo'lmaydi. Shuning uchun barcha davrlarda inson bilimlarining barcha sohalarida hali haqiqatligi to'la tasdiqlanmagan yoki xatoligi to'la aniqlanmagan ko'pgina muammo va gipotezalar mavjudki, ular kelgusi avlodlar tomonidan tuzatilib, to'ldirilib, tasdiqlanib yoki hal qilinib boriladi. Shu boisdan ma'lum sharoitlarda inson bilishi erishgan fundamental bilimlarning haqiqatligini amaliyotda tasdiqlash yoki xatoligini rad kilish uchun ba'zan bir necha daqqa, bir necha soat yoki bir necha kun talab qilinsa, ba'zan bu muddat bir necha o'n yil yoki bir necha yuz, hatto minglab yillarni o'z ichiga olishi mumkin.

Umuman, amaliyot haqiqat mezoni sifatida insonning to'g'ri bilimlarini xato bilimlardan farq qilishda katta ahamiyatga ega. Bu mezon, birinchidan, inson bilimlari borliqning to'g'ri in'ikosi ekanligini tasdiqlasa, ikkinchidan, u borliqni noto'g'ri aks ettiruvchi qarashlarning xatoligini ochib beradi.

Ma'lumki, har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchi o'z ob'ektini o'rganishga kirishar ekan, o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo'lmaydi. Buning uchun u bu predmet yoki hodisa ustida ma'lum davr ichida tinmay turli xil izlanish va tadqiqotlar olib boradi va o'z tadqiqot jarayonida turli xil yo'llar, usullar va vositalardan foydalanadi, ruhiy va aqliy jarayonlarni kechiradi. Shundan keyingina u o'zi tadqiqot olib borayotgan predmet yoki hodisa yuzasidan ma'lum yangi bilimlarni hosil qilishi mumkin.

Tadqiqotchining o'z tadqiqoti jarayonida yangi bilimlarga erishish uchun qo'llaydigan turli xil usullari, yo'llari va vositalari ilmiy bilishning metodlari deyiladi.

Ilmiy bilishning metodlari tadqiqotchining tadqiqot ob'ektini bilishi uchun qo'llagan amaliy va nazariy faoliyat usullaridir. Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi: tadqiqotchiga o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiatini va mohiyatini, ularni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarni ochishda yordam berishdan, shu asosda tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiqotning xarakteri va uning natijasida hosil bo'lgan yangi bilimlar ko'p jihatdan tadqiqotchining o'z faoliyatida qanday metodlarni tanlaganiga, ulardan qanday foydalanganiga bog'liq. Tadqiqotchi tomonidan to'g'ri tanlangan metodlar tadqiqotni muvaffaqiyatli yakunlashiga olib keladi. Aksincha, noto'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri qo'llangan metodlar tadqiqotchini o'z izlanishlarida boshi berk ko'chaga kiritib qo'yib, uning tadqiqotining muvaffaqiyatsiz, samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

To'g'ri tanlangan ilmiy bilish metodlari tadqiqotchilarning izlanishlarida tadqiqot yo'lini yorituvchi bir mash'aldir.

Ilmiy bilishda to'g'ri tanlangan metod shu metod yordamida qilingan ilmiy kashfiyotga nisbatan qimmatliroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday metod bilan tadqiqotchi bir emas, balki bir necha ilmiy kashfiyotlar qilishi mumkin

Ilmiy bilish metodlarini o'rganish falsafada metodologiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiy talimot sifatida o'zida kishilar dunyoqarashi printsiplari, ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tadbiq o'rganadi. Metodologiya termini falsafada ko'p ma'onlidir. U bir o'rinda borliqni ilmiy bilish va o'zgartirishning metodlari haqidagi nazariyani ifodalasa, ikkinchi o'rinda u butun ilmiy bilish metodlarining yig'indisi ma'nosini ifodalaydi. Uchinchi bir o'rinda esa, metodologiya termini insonning borliqni ilmiy bilish va o'zgartirishning eng umumiyligi metodi ma'nosida qo'llanadi.

Ilmiy bilish metod va metodologiya terminlari bir-biri bilan juda yaqin va o'zaro chambarchas bog'liqdir. Metodologiyaga ko'ra ilmiy tadqiqotlarga qo'llaniladigan metodlar bir-birlaridan o'z tabiat, xarakteri, qo'llanish sohalari, qo'llanish ko'lami, darajali jihatdan farq qiladilar. Ular bir-birlaridan ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalariga bog'liqligi jihatidan ham farq qiladilar. O'z qo'llanish ko'lamiga ko'ra ilmiy metodlarning ba'zilari hamma ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilsa, boshqa bir xillari ko'pchilik fan sohalaridagi olib boriladigan tadqiqotlarda, uchinchi bir xillari esa alohida, ayrim fan sohalarida olib boriladigan tadqiqotlardagina qo'llaniladi.

Ilmiy bilishning eng umumiyligi ilmiy metodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tadqiqotchilarning har qanday ongli amaliy va nazariy faoliyatida, hamma va har qanday ilmiy tadqiqot sohasida qo'llaniladi.

Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiyligi ilmiy metodlari - bular ko'pchilik yoki bir guruh fan sohalarida qo'llaniladigan, ilmiy bilishning empirik bosqichiga oid bo'lgan metodlardir.

Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiyligi ilmiy metodlari esa olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning nazariy bosqichda qo'llaniladigan metodlardir.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:**

1. Bilish deganda nimani tushunasiz?
2. Bilishning hissiy darajasining shakllari nimalar?
3. Aqliy bilish darajasining shakllari nimalar?
4. Bilishning asosiy uslublari nimalar?
5. Haqiqat, uning mezoni nimada?
6. Ilmiy bilish va uning darajalari?
7. O'zbekiston ilmiy salohiyatining ko'tarilishida ilmiy bilishning rolini nimalarda ko'rasiz?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
2. Bilish nazariyasi masalalari. T., «Fan», 1975.
3. In'ikos nazariyasi va xozirgi zamон fani. T., «Fan», 1983.
4. Xayrullaev M.M. Bilim va bilish. T., 1974.
5. Ahmedov A., Sattarov Yu. Ilmiy bilishning metod va shakllari. T., «Fan», 1975.
6. Hojiboev A. Sotsial borliqni bilish va uning o'ziga xos xususiyatlari. T., 1991.
7. Falsafadan va'z matnlari. T., TDTU.
8. Tulenov J. G'ofurov Z. Falsafa. O'quv qo'llanma T.O'qituvchi,01.
9. Rahimov I. Falsafa. T., Universitet, 1998.
10. Falsafa (E.Yu.Yusupov tahriri ostida)T., Sharq, 1999.

## **15-MAVZU: JAMIYAT FALSAFASI**

**Reja:**

- 1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyatni diniy, naturalistik va falsafiy tushunish.**
- 2. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti, ularning birligi. Moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi o’rni.**
- 3. Ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlar, ularning turlari va shakllari.**

1. «Jamiyat» tushunchasi arabcha so’z bilan atalgan bo’lib, uning lug’aviy ma’nolari o’zbek tilida: «umumiylig», «birlik», «majmua», «jamlangan» deganidir. Bu tushuncha kishilarning umumiyl ijtimoiy faoliyatları va munosabatlarining birligi, ularning muayyan maqsad asosida uyushgan usuli va shaklini ifodalaydi. Bu tushunchaning kundalik ongdagi va ilmiy, falsafiy adabiyotlarda qo’llaniladigan tor va keng ma’nolari mavjud. «Jamiyat» tushunchasi tor ma’noda ma’lum kishilarning biror maqsad yoki faoliyat asosida uyushgan birligini yoki insoniyat hayoti va taraqqiyotining muayyan aniq bosqichini ifodalaydi. Masalan: «O’zbekiston xotin-qizlar jamiyat», «feodalizm jamiyat» kabi. «Jamiyat» tushunchasi keng ma’noda falsafiy jihatdan insonlarning ijtimoiy faoliyat jarayonida uzaro ijtimoiy munosabatlar orqali uyushgan ijtimoiy birligini, uning o’ziga xos uyushish usuli va mavjudlik shaklini ifodalaydi. Bu tushuncha ilmiy va falsafiy adabiyotlarda «kishilik jamiyat» yoki «jamiyat» shaklida qo’llaniladi. U eng umumiyl va mavhum tushunchalardan biridir.

Jamiyat haqidagi qarashlar birdaniga paydo bulgan emas. Kishilarda dastlab jamiyat to’g’risida hayoliy mifologik qarashlar, undan keyin asta-sekin diniy qarashlar paydo bo’ladi. Diniy qarashlarga ko’ra, jamiyat xudo tomonidan yaratilgan bo’lib, u xudoning insonlarga bergen in’omidi. Jamiyatni diniy tushunishga ko’ra, jamiyatning mohiyatini, uning mavjudligi va taraqqiyotini ilohiy kuchlar, shaxsan xudo belgilaydi, jamiyatdagi har qanday hodisa va voqeа xudoning irodasi bilan sodir bo’ladi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan, ilm-fanning paydo bo’lishi va rivojlnana boshlashi bilan jamiyat haqidagi qarashlar ham o’zgarib va rivojlanib boradi.

Kishilikning buyuk aql egalari, boshqa sohalarda bo’lganidek, jamiyat haqida, uning mohiyati, paydo bo’lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilishga, shu asosda o’z istiqbollarini belgilashga harakat qilishib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirib borganlar.

Umuman, eng qadimgi davrlardan boshlab jamiyat haqida mifologik, diniy, tabiiy-ilmiy va nihoyat, falsafiy qarashlar paydo bula boshlagan. Buni biz bizgacha etib kelgan qadimiy yozma yodgorliklardan, xususan, muqaddas diniy kitoblardan bilib olamiz. Chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlari muqaddas kitobi «Avesto»da jamiyat haqida, uning mohiyati, mazmuni haqida, jamiyat hodisalari haqida qimmatli qarashlar bayon qilingan. Bularidan tashqari, qadimgi

Hindiston, Xitoy va Yunonistonga oid manbaalarda ham jamiyatni boshqarish, adolatli jamiyatni ko'rish haqida, jamiyatning mohiyati va rivojlanishi haqida ajoyib qarashlar o'z ifodasini topgan. Xususan, qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastular takomil topgan, mo'tadil jamiyatni barpo qilish g'oyalarini ilgari surishgan. Bu mutafakkirlarning jamiyat haqidagi qarashlarini buyuk vatandoshlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar o'rtalarda yanada rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy uzining «Fozil odamlar shahri» asarida kishilar o'zlarining insoniyliklari asosida birikib, jamiyatni tashkil qilishi va shu insoniyliklaridan kelib chiqib tinch-totuv yashashlari lozimligini aytadi.

Beruniy esa jamiyat kishilar tomonidan o'z ehtiyojlarini tushunib, o'zlariga o'xshash kishilar bilan o'zaro «shartnomा» asosida birga yashashdan iboratligini, ular birgalikda faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligini aytadi.

Ibn Sino bo'lsa, jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvlari, bir-birlariga yordamlashish asosida tashkil topishi, uning a'zolari esa adolatli qonunlar asosida yashashlari lozimligini yozadi.

Jamiyatning rivojlanib borishi davomida jamiyat haqida turli xil qarashlar, ilmiy bilimlar ham rivojlanib, boyib bordi.

Natijada, shu narsa ma'lum bo'ldiki, jamiyat nihoyatda murakkab va ziddiyatli ijtimoiy organizm bo'lib, uning mohiyatini ijtimoiy hodisalar va jarayonlar tashkil qiladi. Jamiyat tabiatning ajralmas bir qismi, jamiyat tabiat taraqqiyoti asosida kelib chiqqan, u tabiat taraqqiyotining oliy mahsuli, shu tufayli jamiyatda ham tabiat qonunlari amal qiladi, degan qarash qaror topdi. Bu qarashni Evropada XVIII asr frantsuz mutafakkirlari ilgari surishadi. Ular o'z asarlarida tabiat qonunlari bilan ijtimoiy, ya'ni jamiyat qonunlarini aynanlashtirib, ular o'rtasidagi muhim farqni tushunib etmadilar.

Jamiyatni bunday tushunish, o'z mohiyati bilan uni naturalistik tushunish edi. Jamiyatni bunday tushunish uni mifologik va diniy tushunishga nisbatan olg'a tashlangan qadam bo'lsa ham, lekin jamiyatni bunday tushunish ham hali uni bir tomonlama tushunish edi.

Nihoyat, jamiyatni bir butun holda, olib o'rganish, uning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan turli xil falsafiy nazariyalar vujudga kela boshlaydi. Bu nazariyalarning biri nemis mumtoz falsafasining buyuk vakili F.V.Gegel nazariyasidir. Gegel jamiyat mohiyatini va uning taraqqiy etishini o'zining «mutlaq g'oya»si bilan bog'lab, «mutlaq g'oya» o'z-o'zidan rivojlanib, avval u tabiatga aylanadi, so'ng, «mutlaq g'oya» tabiat qiyofasida rivojlanib borib, jamiyat paydo bo'ladi.

Jamiyatda «mutlaq g'oya», «mutlaq ruh» qiyofasini oladi. «Mutlaq ruh» jamiyatni harakatga keltiruvchi va uni boshqaruvchi kuchdir, deydi. Xegelning fikricha, «mutlaq g'oya» insondan oldin mavjud bo'lib, jamiyatdagi barcha hodisa va voqealar, jarayonlar shu «mutlaq g'oya»ning begonalashuvidan boshqa narsa emasdir.

Nemis mumtoz falsafasining so'nggi vakili L.Feyerbax esa jamiyat mohiyatini din bilan bog'lab, jamiyatning taraqqiyotini dinning taraqqiyotidan keltirib

chiqarib izohladi. Uning qarashicha, jamiyatni rivojlantirish uchun dinni takomillashtirish, yangi din yaratish lozimdir.

XX asrning boshlarida Marks, Engels, Leninlarning jamiyatning sotsialistik ta'limoti nomli nazariya hayotda o'z ifodasini topdi va u etmish yildan ortiqroq mavjud bo'ldi. Ochig'ini aytganda, «revolyutsion ta'limot» deb nom olgan jamiyat to'g'risidagi bu nazariya, mohiyat e'tibori bilan jamiyatni tabiiy tarixiy taraqqiyot yo'lidan chiqargan, jamiyatni inqilobiy asosda zo'rlik bilan tubdan o'zgartirishga asoslangan, insoniyat boshiga juda katta fojealarmi solgan ta'limot edi. Mazkur ta'limot hayotda o'zini mutloq oqlamadi va u ichichidan emirildi. Uning o'rnida esa mustaqil davlatlar paydo bo'lishib, jamiyat to'g'risidagi o'zini oqlamagan, bir tomonlama va cheklangan bu nazariya ham ijtimoiy qarashlar tizimidan uloqtirib tashlandi. Oqibatda, mustaqillik talablariga mos yangicha falsafiy qarashlarni ishlab chiqish va jamiyat rivojining yangi istiqbollarini belgilab berish zaruriyati tug'ildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'li va uning besh tamoyili ayni shu zaruriyatni anglab, unga berilgan javob bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonning bozor munosabatlariiga o'tishida bu besh tamoyil uning rivojlanishining yangi istiqbollarini belgilovchi asosiy omillar sifatida xizmat qilmoqda.

Jamiyatni falsafiy jihatdan tahlil qilish uchun, avvalo, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti nima ekanligini bilish zarur. Binobarin, bir butun jamiyat hayoti moddiy va ma'naviy hayotning birligidan tashkil topgan bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydi. Xo'sh, jamiyatning moddiy hayoti nima?

Jamiyatning moddiy hayoti deyilganda jamiyatdagi kishilarning o'zları, ularning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari va inson sifatida faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari, moddiy ne'matlar, moddiy shart-sharoitlar jami tushuniladi. Jamiyatning moddiy hayoti moddiy ishlab chiqarish asosida yuzaga keladi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan xilma-xil shakldagi iqtisodiy munosabatlar ham jamiyatning moddiy hayotiga kiradi.

Moddiy ishlab chiqarish jamiyat moddiy hayotining muhim va hal qiluvchi shartidir, moddiy ne'matlar ishlab chiqarilmasa yoki to'xtasa, jamiyat moddiy hayoti izdan chiqadi, jamiyatning yashashi mumkin bulmay qoladi. Jamiyatning moddiy hayoti falsafada «ijtimoiy olam», deb ataladi. Jamiyatning moddiy hayotini tashkil etgan ijtimoiy olam bir butun olamning o'ziga xos bir shakli bo'lib, moddiy olamning bir turidir. Shu jihatdan ijtimoiy olamda amal qiladigan qonunlar ham ob'ektiv xarakterga egadir, ular kishilarning ongi va irodasidan tashqarida, ularga tobe bo'lмаган holda mavjud bo'ladi.

Lekin yuqorida aytib o'tilganidek, jamiyatning moddiy hayoti uning ma'naviy hayotisiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun biz jamiyatning ma'naviy hayoti nima ekanligini ham bilishimiz zarur.

Xush, jamiyatning ma'naviy hayoti nima?

Jamiyatning ma'naviy hayoti deyilganda, odatda jamiyatni tashkil etuvchi kishilarning ongi, tafakkuri, dunyoqarashlari, xotirasi, akdi va farosatlari, ma'naviy ruhiy dunyolaridan tortib, jamiyatdagi ilm-fan, ta'lim-tarbiya, san'at va adabiyot, ahloq, din, siyosat va huquq, ilmiy va diniy tashkilotlar, ilmiy muassasalar, maktablar, litseylar, kollejlar, oliy o'quv yurtlari, akademiyalar, muzeylar, teatrlar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar va redaktsiyalarda xizmat qiladigan xodimlarning aqliy-ijodiy intellektual boyliklarining jami tushuniladi. Jamiyatning ma'naviy hayoti, bir jihatdan, jamiyat moddiy hayotining in'ikosi bo'lsa, boshqa jihatdan, u o'ziga xos qonuniyatlarga, xususiyatlarga, o'ziga xos mohiyatga ega bulgan nisbiy mustaqil hodisadir. Jamiyatning ma'naviy hayoti moddiy hayotsiz, moddiy hayoti esa ma'naviy hayotsiz ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Ma'naviy hayotning ravnaq topishi yoki ing'irozga yuz tutishi moddiy hayotning ravnaq topishi yoki ing'irozga yuz tutishiga olib keladi va aksincha.

Jamiyatning ma'naviy hayoti ma'naviy ishlab chiqarish orqali yuzaga keladi, boshqacha aytganda, u ma'naviy ishlab chiqarishning mahsulidir. Ma'naviy ishlab chiqarish orqali jamiyat ma'naviy hayotini tashkil etuvchi ilm-fan, diniy, ahloqiy, siyosiy, huquqiy, badiiy - estetik qadriyatlar, ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Keng ma'noda olinganda, jamiyatning ma'naviy hayoti - bu ma'naviyat va ma'rifatni tashkil qiladi. Jamiyat ma'naviy hayotining ma'lum qismi jamiyat moddiy hayotining in'ikosi sifatida, ularda jamiyat a'zolari: kishilar, etnik va ijtimoiy guruqlar, sinflar va ijtimoiy qatlamlarning tasavvurlari, tushunchalari, qarashlari, g'oyalari, manfaat va maqsadlari ifodalanadi. Shu jihatdan falsafiy adabiyotlarda jamiyatning ma'naviy hayotini «ijtimoiy ong» tushunchasi bilan atashadi.

Ijtimoiy falsafada ijtimoiy ong va ijtimoiy olam munosabati totishuvli masalalardan biri hisoblanadi. Yaqin yillarga qadar ularning birini birldamchi, ikkinchisini ikkilamchi degan qarash falsafada hukmron qarash edi. Hamma gap ularning dialektik munosabatda ekanligiga jiddiy e'tibor berilmagan edi. Bugun biz bu munosabatga hayotiylik nuqtai-nazaridan qaraymiz va xulosa chiqaramiz.

Bundan tashqari, jamiyatning ma'naviy hayoti bilan jamiyatning ijtimoiy ongi bir narsa, ya'ni ekvivalent hodisalar emas. Ular bir nisbatdagina shunday bo'lishi mumkin, boshqa nisbatlarda va boshqa holatlarda bunday bo'lishi mumkin emas. Haqiqatda, jamiyatning real hayotiga oid har qanday ijtimoiy hodissa yoki voqeа moddiylik va ma'naviylikning birligidan iborat bo'ladi, ularda moddiylik va ma'naviylikni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun jamiyatning moddiy hayotiga «asosiy va «belgilovchi» deb qarash bir tomonlama qarash bo'lib, u jamiyat ma'naviy hayotining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va rolini mensimaslikka, unga nisbatan e'tiborsizlikka olib keladi. To'g'risini aytganda, jamiyatning real ijtimoiy hayotida moddiy hayot ham, ma'naviy hayot ham o'z o'mida belgilovchi va asosiy rol o'ynaydi.

Bir butun jamiyat ishlab chiqarishi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning birligi asosida jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti vujudga keladi. Bunda ishlab chiqarish jarayoni, ishchi kuchi va iqtisodiy munosabatlar, mehnatni tashkil etish, ijodiy va oqilona ish yuritish, fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish ma'naviyat va ma'rifatsiz yuzaga kelmaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, jamiyatning moddiy hayoti ma'naviy hayotisiz, ma'naviy hayoti moddiy hayotisiz mavjud bo'lmaydi, ular jamiyat rivojlanishida bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir qilishib, bu ta'sir va aks ta'sirlari nihoyatda murakkab jarayonlarda kechadi.

Bunga misol qilib Sobiq Ittifoq davrini ko'rsatish mumkin. Bu davrda xalqimizning haqiqiy tarixi o'rganilmadi; diniy, milliy ahloq va ma'naviyat butunlay inkor qilindi, xalqimizning milliy an'ana va qadriyatlari paymol qilindi.

Shukrlar bo'lsinki, mustaqillikka erishishimizning birinchi qadamidan boshlab bunday xatoliklarni tuzatishga, ya'ni dinning umuminsoniy qadriyat, ma'naviyat va madaniyatning muhim tarkibiy qismi ekanligi e'tirof etilib, milliy an'ana va qadriyatlarni tiklashga kirishdik. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining birinchi risolalaridayoq jamiyatimizni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy negizlarini ko'rsatib berib: «Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-kudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi». «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy etuk odamlar hal qiladi». «Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot - jamiyatning tanasi bo'lsa, ma'naviyat uning ruhi, aqli va jonidir»... - deb jamiyat ma'naviy hayotiga, ma'naviyatga muhim ahamiyat berdilar. Bu Prezidentimiz faoliyatlarida bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda.

Shuni aytish kerakki, jamiyat insonlarning o'zaro ijtimoiy aloqalari, bog'lanishlari, munosabatlari natijasida yuz beradigan ijtimoiy faoliyatlar majmuidir. Ijtimoiy faoliyat jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti barcha jihatlarining qaror topishi, mavjudligi va rivojlanishining asosidir.

Ijtimoiy faoliyatlar deyilganda, jamiyatni tashkil qiluvchi kishilarning moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ularning o'zlarini ishlab chiqarish, ularni ko'paytirish, jamiyat a'zolarini tarbiyalash, o'qitish, ularni jismonan va ruhan kamolotga etkazish, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini takror hosil qilish, takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy hatti-harakatlar tushuniladi. Ijtimoiy faoliyatlarsiz jamiyat, uning moddiy va ma'naviy hayoti, ulardagi rang - barang tomonlar va jihatlarni ham tasavvur qilib bulmaydi.

Jamiyatdagi ijtimoiy, faoliyatlar tarkibini iktisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy ilmiy, badiiy va hokazo faoliyatlar tashkil qiladi. Ijtimoiy faoliyatlar jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ular manfaatlariga xizmat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar va manfaatlar bunda ijtimoiy faoliyatlarni harakatga keltiruvchi kuch, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotining tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Ularda jamiyat a'zolarining qiziqishlari, maqsadlari, rag'batlari, hohish va irodalari o'z ifodasini topadilar. Bu ehtiyojlar va manfaatlar o'z tabiatlariga ko'ra moddiy yoki ma'naviy bo'lismib, doimo jamiyat

a'zolarining niyatlarida aks etib, ularni anglab olishgach, ular kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonuniyatlari sifatida namoyon bo'lishadi.

Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlar jamiyat a'zolarining mehnat jarayonida, ijtimoiy ishlab chiqarishlarga qatnashishlarida, ularning o'zaro bir-birlari bilan munosabatlarida, jamiyat ishlariga faol aralashuvida paydo bo'ladi, ular jamiyatning o'zgarib rivojlanib borishi bilan o'zgarib va rivojlanib boradi.

Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlar jamiyatda qondirilib borishi kerak, aks holda, jamiyatda nosog'lom, ziddiyatli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin. Jamiyat ehtiyojlari va manfaatlari ishlab chiqarish oldiga doimo muayyan vazifalarni qo'yadi, ularni amalga oshirish, ularni qondirish uchun ma'lum shart-sharoit tug'dirib beradi. Ijtimoiy ehtiyojlarsiz va manfaatlarsiz jamiyat ishlab chiqarishi yo'q va bo'lmaydi.

Jamiyatda kishilarning o'z ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun mehnat qilishlari, mehnat qurollarini yasashlari, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishlari ularning birinchi tarixiy aktlaridir. Ular ayni shu jarayonda o'z qobiliyatlarini ishga solish, ijtimoiy ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirish asosida ijtimoiy mazmun kasb etishadi. Ularning bu jarayonda yuzaga keladigan mehnat malakalari, bilimlari, fikrlari, qarashlari, iroda va emotsiyalari - bularning bari jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy munosabatlar natijasida paydo bo'ladi. Xuddi shu ijtimoiy munosabatlar bizga jamiyatning mohiyatini to'g'ri tushunish kalitini beradi. Bu ijtimoiy munosabatlar jamiyat a'zolarining o'zaro bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlardan boshqa narsa emas, jamiyat esa, aslida, jamiyat a'zolarining o'zaro ijtimoiy munosabatlarda bo'lishidir.

Jamiyat ijtimoiy munosabatlardan tashqari bo'limganidek, ijtimoiy munosabatlar ham jamiyatdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Ijtimoiy munosabatlardan tashqari, alohida olingan jamiyat, so'zning tub ma'nosida, o'zining jamiyatligini yo'qotadi, bunday jamiyat hech bir realligi bo'limgan, quruq abstraktsiyadan iborat oddiy so'z bo'lib qoladi. Binobarin, jamiyatning nima ekanligini, uning mohiyatini to'g'ri tushunib olish uchun ijtimoiy munosabatlar nima ekanligini, ularning qanday turlari va shakllari borligini, ular o'rtaсидagi bog'lanish va aloqalarni birlikda olib o'rganish lozim.

Ijtimoiy munosabatlar kishilarning jamiyatdag'i ijtimoiy faoliyatları jarayonida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlardir. Ular jamiyatdag'i turli ijtimoiy jamoalar, guruhlar sinflar, qatlamlar, ularni tashkil kilgan kishilar, jamiyat ijtimoiy strukturasiga kiruvchi turli elementlar, xususan, oila, oila a'zolari o'rtaсидagi munosabatlardan iboratdir.

Ijtimoiy munosabatlarni dastlab moddiy va ma'naviy - mafkuraviy munosabatlarga bo'lish mumkin.

Moddiy ijtimoiy munosabatlari umumiyl holda iqtisodiy munosabatlar sifatida ko'rindi.

Siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, estetik, badiiy, ilmiy, mafkuraviy munosabatlar ma'naviy-g'oyaviy ijtimoiy munosabatlardir.

Ijtimoiy munosabatlarni yana ularning tabiatini va xarakterlariga ko'ra ham bir qancha turlarga ajratish mumkin. Masalan: hukmronlik va tobelik, uzaro tenglik, hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro yordam va boshqalar. Bu munosabatlar jamiyat ijtimoiy hayotida va rivojlanishida o'ziga xos o'ringa ega va o'ziga xos rol o'ynaydi. Shuni aytish kerakki, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida eski jamiyat ijtimoiy munosabatlarining qoldikdari va yangi kelgusi jamiyat ijtimoiy munosabatlarining kurtaklari bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, o'tish davrida faqat shu jamiyatning o'ziga xos «sof» jamiyat ham, unga xos «sof» ijtimoiy munosabatlar ham bo'lmaydi. Jamiyatning rivojlanishi bilan, ijtimoiy munosabatlar ham eskirganlari asta-sekin «o'lib» (yo'qolib), yangilari paydo bo'lib, o'zgarib rivojlanib boraveradi. Demak, xulosa qilib, ijtimoiy munosabatlarga shunday ta'rif berish mumkin:

Jamiyatda jamiyat a'zolari tomonidan o'zaro birlashtirishda amalga oshiradigan ijtimoiy faoliyatlar ijtimoiy munosabatlar shakllarida sodir bo'ladi.

Ijtimoiy munosabatlar deb jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, ilmiy, estetik, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy faoliyatlarini jarayonida ijtimoiy guruhlar, etnik va ijtimoiy qatlamlar, sinflar, millatlar, xalqlar, davlatlar, mamlakatlar o'rtasida yuz beradigan va vujudga keladigan turli-tuman, xilma-xil aloqalar va munosabatlarga aytiladi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy faoliyatlar bilan uzviy va chambarchas bog'liq. Ijtimoiy munosabatlar orqali jamiyatda ijtimoiy guruhlar, sinflar, davlatlar, partiyalar - barcha ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'zlarining hamma va har qanday faoliyatlarini amalga oshiradi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda real ijtimoiy kuchlar faoliyatlarini natijasida vujudga keladi. Yashaydi va mavjud bo'ladi. Biroq, ijtimoiy munosabatlar paydo bo'lgach, katta faolikka va barqarorlikka ega bo'lib, jamiyatga sifat muayyanligini beradi. Bunda shu narsaga ham e'tibor berish lozimki, jamiyatning o'zgarishi va rivojlanishi bilan ba'zi ijtimoiy munosabatlar eskirishi, jamiyat rivojlanishiga xizmat qilmay, to'skinlik qila boshlashi mumkin. Bunday hollarda eskirgan ijtimoiy munosabatlar yangi ijtimoiy munosabatlar tomonidan o'z-o'zidan siqib chiqariladi.

Xuddi shunday narsa bizda O'zbekiston uz mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan ruy berdi. O'zbekiston o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yulini belgilab olib, kelgusida buyuk davlat, huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib belgiladi. Bu maqsadga erishishda hozirgi davrda kuchli rivojlangan davlatlar tajribalarida sinalgan va xalqimiz tabiatiga mos bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish vositasidan foydalanish va uni amalga oshirish zaruriyati turildi. Bugungi kunda Yurtboshimiz rahnamoligida mamalakatni peshma-pesh isloh qilish, demokratlashtirish, yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib ozod va obod Vatanni bunyod etmoqdamiz.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:**

1. Jamiyat tushunchasining mazmunini nima tashkil qiladi?
2. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti o'rtasidagi umumiylit va farq nimada?
3. Jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatning tabiatni nimada?
4. Jamiyatning o'z-o'zidan shakllanishi deganda nimani tushunasiz?
5. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rindi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997.
2. Falsafa kursining ayrim muammolari. Farg'ona. 1994.
3. Begmatov A.S. Falsafada odam muammozi. T., 1990.
4. Umarov M. Odam: hayoti va manguligi. T., 1987.
5. Jumaboev Y. Hayot mazmuni va komil inson ma'naviyati. T., 1998.
6. Rahimov I. Falsafa. T., Universitet, 1998.
7. Falsafa (E.Yu.Yusupov tahriri ostida)T., Sharq, 1999.
8. Saidov A. Sultonov S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T., 1998.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o'z tanlagan yo'lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning O'zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi) Xalq so'zi 2004 yil 30 mart;
3. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning xamjihatligi va bukulmas irodasiga bog'liq (Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 14- sessiyasidagi nutqi) Xalq so'zi 2004 yil 30 aprel;
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston 1992.
5. Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang. – T.: O'zbekiston 1993.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash – davr talabi. -T.: O'zbekiston 1997.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston 1997.
8. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –T.: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. //Ma'rifat, 1998, 29 avgust.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. //Muloqot, 1998, 5-son.
11. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston 1998.
12. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T.: O'zbekiston 1999.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston 1999.
14. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T; O'zbekiston, 2000.
15. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'naliishlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9-sessiyasidaso'zlagan nutqi) – //Xalq so'zi 30 avgust 2002.
16. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rify dunyo bilan hamkorlik yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 11-sessiyasida so'zlagan nutqi) //O'zbekiston ovozi, 2003, 26 aprel.
17. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005 y.
18. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajadi odamlar deb hisoblashar edi. T.: "O'zbekiston", 2005 y.
19. A.Kamyu. Begona. T-; 1995y.
20. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat-ul qulub. T-; 2002y.
21. Abdulla Sher. Ahloqshunoslik: Ma'ruzalar matni. –T.: 2000.
22. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.: O'qituvchi 1992.
23. Azamat Ziyo. Kuchli jamiyat falsafasi. //Tafakkur jurnali, 2002, 1-son.
24. Azamat Ziyo. Milliy tuzugimiz. – «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.

25. Al-Buxoriy. Hadislar I-IV tomlar. –T.: Meros 1990-1992.
26. Anvar Qodirov. Siyosat falsafasi. T.: TYuI. 2005 y.
27. Asomova R. Komil inson – millat faxri. //Muloqot, 2001, 2-son.
28. Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq 1998.
29. Beruniy Abu Rayxon. Tanlangan asarlar: T. 1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. –T: Fan 1968.
30. Buyuk siymolar, allomalar. 1-2 kitob. -T. 1995-96.
31. Valiev B. Mantiq kursi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. -T. 1992.
32. Gunnar Skirbekk, Nils Gile. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
33. Jakbarov M. Uyg'onish davrida inson kamoloti. //Muloqot jurnali, 2000 1-son.
34. Jakbarov M. Forobiyning adolatli jamiyat orzusi. //Muloqot, 1999, 1-son.
35. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: Ma'naviyat, 2000.
36. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va ahloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. –T.: O'qituvchi 1997.
37. Ziyoeva N. Buyuk falsafa talqini. //Muloqot jurnali, 2001 2-son.
38. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. –T.: 1995.
39. Karimov R. Ajdodlarimiz merosida ma'naviy qadriyatlarimiz jilosi. -T. 2000.
40. Komilov N. Tasavvuf va kalom ilmi. Imim al-Buxoriy saboqlari. 2005 y № 2-3.
41. Kerimov U. Teoriya logicheskogo sinteza edinogo yavleniya rechi kak mikrokosma bitiya. T.: San'at., 2005 y.
42. Kaykovus. Qobusnama. -T: O'qituvchi 1996.
43. L.Mavlyanova, V.Igoshin Estetika (kurs lektsiy) Toshkent 2004y.
44. Ma'naviyat yulduzlari. Ilmiy-ommabop nashr. T.: Abdulla Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti.2002 y.
45. Mamashokirov S. Inson, ma'naviyat, ziddiyat. //Tafakkur jurnali, 2001 1-son.
46. Mashriqzamin hikmat bo'stoni. –T.: Sharq, 1997.
47. Mustaqillik: ilmiy, izohli, ommabop lug'at. –T.:Sharq 1999.
48. Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. –T.: Fan, 1993.
49. Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. –T.: Fan 1994.
50. Nasriddinov A. Davr ijtimoiy-falsafiy meros. //Muloqot jurnali, 1999 4-son.
51. N.Mamatov, O.Jumaev Fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim omili. Toshkent 2004y.
52. N.Mamatov, Abduxoliqov J, M.Qahhorova Mantiq (o'quv qo'llami) Toshkent 2004y.
53. Ogoh bo'laylik. –T.: Akademiya nashriyoti, 1999.
54. Ortiqov A. E'tiqod va vijdon erkinligi: mushtaraklik va tafovutlar. //Muloqot 2000, 6-son.
55. Osnovi filosofii: Uchebnoe posobie dlya studentov. –T.: O'zbekiston 1998.
56. Po'latov O'. O'zbek mafkurasi // Muloqot. –1991. 2-son.
57. S.Yo'ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Evropa falsafasi. T-; 2002y.

58. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T.: 1997
59. Sultonmurod Olim. Milliy mafkura – xalq tayanadigan kuch. -T.: Ma'naviyat, 2000.
60. T. Mirzaev. Terrorizm – tinchlik va taraqqiyot dushmani. - «Xalq so'zi», 2004 yil, 15 iyul.
61. Temur tuzuklari. T.: Meros, 1991
62. Tohirov O. Komillik – etuklik timsoli. //Muloqot, 1999, 3-son.
63. Umarov E. Estetika. -T. 1995.
64. Falsafa. O'quv qo'llanma. T.:Sharq, 1997
65. Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Ibn Sino 1997.
66. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. –T.: O'zbekiston, 1991.
67. Xayrullaev M.M., Haqberdiev M. Mantiq. -T. 1993.
68. Xoja Ahror Valiy: tasavvuf va siyosat. – «Ma'rifat», 2004 yil, 25 avgust.
69. Xonazarov Q. O'zbek falsafasi bormi? //Muloqot jurnali 2001 3-son.
70. Sharifxo'jaev M. Chelovek opredelivshiy epoxu. M.«Trud» 2004.
71. Choriev A. Insonning ma'naviy qiyofasi. //Muloqot, 1999, 3-son.
72. Choriev S. Barkamol inson – insonparvar jamiyat mahsuli. //Muloqot, 1999, 1-son.
73. Shayxova X., Nazarov O'. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. –T.: O'zbekiston,1992.
74. Qur'oni Karim. –T.: Cho'lpon, 1992.
75. Ergashev I. Va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi. T.:Akademiya, 2002.
76. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. Tafakkur. 2005 y. № 4.
77. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. –T.: Ma'naviyat, 1998.
78. X. To'xtaboev. – Ogohlik nimadir? – «Xalq so'zi», 2004 yil, 4 avgust.
79. Q. Hoshimov. Globallashuv va milliy qadriyatlar. - «Xalq so'zi» - 2004 yil, 21 avgust.
80. Haqiqat manzaralari yoxud 96 mumtoz faylasuf. T.:Yangi asr avlodi. 2002y.